TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

XOLIDA
ADIB ADIVAR
SAID FOIQ
ABASIYONIQ

51

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

XOLIDA ADIB ADIVAR

SAID FOIQ ABASIYONIQ

51

1619314

"O'ZBEKISTON"
TOSHKENT — 2022

UO‘K 821.512.161-3
KBK 84(5Turk)
X 72

Tahrir hay’ati:

Xayriddin Sulton – hay’at raisi,
Ibrohim G‘afurov, Sirojiddin Sayyid, Asadjon Xodjayev,
Behzod Yo‘ldoshev, Minhojiddin Mirzo, Muhammad Ali,
Ahmadjon Meliboyev, Kengesboy Karimov, Isajon Sulton

Ishchi guruh:

Ikrom Bo‘riboyev, G‘ofur Eshmurodov, G‘ayrat Bozorov,
G‘ayrat Majid, Rustam Musurmon, Risolat Haydarova, Umid Hayitov

To‘plovchi va nashrga tayyorlovchi

Xayrulla Hamidov

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev 2019-yil 15-oktabr kuni Ozarbayjon poytaxti Boku shahrida bo‘lib o‘tgan Turkiy davlatlar hamkorlik kengashining yettinchi sammitida tashkilotga a’zo davlatlar adabiyotining eng sara namunalaridan iborat “Turkiy adabiyot durdonalari” deb nomlangan 100 jildlik kitoblar turkumini har bir mamlakatning ona tilida nashr etish g‘oyasini ilgari surgan edi.

Ushbu ezgu tashabbus asosida birinchi bo‘lib O‘zbekistonda mana shu muhtasham adabiy majmua yaratildi.


Mazkur keng ko‘lamli, zalvorli badiiy silsilaga umumturkiy adabiyotning eng yetuk namunalari, O‘zbekiston, Turkiya, Qozog‘iston, Qirg‘iziston, Ozarbayjon, Turkmaniston va Vengriya davlatlarining atoqli shoir, adib va mutafakkirlarining asarlari kiritildi.

Turkiy tilli davlatlar orasida ilk bor ro‘yobga chiqarilgan ushbu yirik loyiha ona yurtimizda madaniyat va san’atga ko‘rsatilayotgan ulkan g‘amxo‘rlikning, xalqimizning qardosh xalqlar va ularning so‘z san’atiga nisbatan yuksak hurmat-ehtiromining ramzidir.

ISBN 978-9943-8724-8-6
©“O‘zbekiston” nashriyoti, 2022

XOLIDA ADIB ADIVAR





XOLIDA ADIB ADIVAR — ILK TURK ADIBASI

So'nggi yillarda XX asr turk adabiyotdagi yirik namoyandalarning eng sara asarlarini o'zbek tiliga o'girish ishlari yanada rivojlandi. Rashod Nuri Guntekin, Umar Sayfiddin, Said Foiq Abasiyoniq, O'rxon Kamol, Suat Darvish, Aziz Nesin kabi mashhur adiblarning asarlari shular jumlasidandir. Bu qatorda atoqli turk adibasi Xolida Adib Adivarning ayrim asarlari ham o'zbekchaga o'girila boshlandi.

Adibaning mashhur bir qissasi va bir hikoyasi joy olgan mazkur kitobda o'zbek kitobxonlariga unchalik tanish bo'lmagan turk adibasining biografiyasini ham berishga harakat qilindiki, bu ma'lumotlar turk adabiyotini o'rganayotgan talabalar va tadqiqotchilarga jahon adabiyotining yana bir atoqli vakili bilan tanishish imkonini beradi.

XX asrning 1-yarmi turk adabiyoti atoqli namoyandasi Xolida Adib Adivar o'z davri romannavisligiga ulkan hissa qo'shgan ijodkor edi. Turk milliy ozodlik harakatining otashin kurashchisi, betakror asarlari bilan tanilgan ilk ayol yozuvchi, siyosatchi, muallima, olima, xatib kabi unvon va sifatlari bilan Turkiya Respublikasi tarixining ajralmas qismiga aylangan Xolida Adib Adivar 1884-yilda Istanbul shahri (Beshiktosh tumani)da dunyoga kelgan. Boshlang'ich ta'limni xususiy darslar olib tugallagach, Uskudar Amerika kollejiga o'qishga kiradi. U yerda ingliz va fransuz tillarini puxta o'rganadi. 1897-yilda, ya'ni 13 yoshida "Ona" ("Ana") deb nomlangan ilk tarjima to'plamini nashr ettiradi. Xolida bu kollejni bitirgan ilk musulmon qiz edi. 1908-yilda uning ismi gazeta sahifalarida ko'rina boshlaydi. Ikkinchi konstitutsion davr (İkinci Meşrutiyet) e'lon qilingandan keyin gazetalarda ayolarning haq-huquqlarini himoya qilib maqolalar nashr ettiradi va buning uchun reaksion kuchlar tomonidan qattiq tanqid ostiga olinadi. 31-mart voqealaridan keyin muhofaza qiluvchi kuchlar tomonidan ham ta'qib ostiga olingach, ikki o'g'li bilan qisqa muddatga Misr-

ga qochishga majbur bo'ladi. Adiba 1909-yildan boshlab ta'lim sohasida o'z faoliyatini davom ettiradi, muallimalik qiladi, davlat idorasida taftishchi lavozimida ishlaydi. Bir muddat "Ayollarni ko'tarish jamiyati" (Teali-i Nisvan Cemiyeti)ning ta'sis etilishida faol ishtirok etadi. Bolqon urushida kasalxonalarda hamshiralik qiladi.

1919-yilda Sulton Ahmad maydonida Izmirning ishg'ol qilinishiga qarshi Istanbulning Fotih, Beshiktosh, Kadiko'y va Sulton Ahmad tumanlarining katta maydonlarida tashkil etilgan norozilik mitinglarida otashin nutq so'zlagan Xolida Adivar 1920-yilda Onado'liga qochib Milliy ozodlik harakatida ham faol ishtirok etdi. U yerda o'nboshi, katta serjant unvonlarini oldi. Urushning oxirgi yillarida Jumhuriyat xalq firqasi bilan siyosiy qarashlarda ixtilofga kirdi. 1917-yilda ikkinchi turmush o'rtog'i Adnan Adivar bilan birga Turkiyadan chiqib ketdi va 1939-yilgacha xorijda yashadi. O'sha yillar Amerikaga ham bordi, Maxatma Gandining taklifiga binoan Hindistonda ham bo'ldi. 1939-yilda Turkiyaga qaytib kelgan adiba 1940-yilda Istanbul Universiteti Ingliz filologiyasi kafedrasiga mudir etib tayinlandi. 1950-yilda Demokratik partiya (DP) ro'yxatidan mustaqil deputat sifatida TBMM[1]ga deputatlikka saylangan va 1954-yilda partiyadan iste'foga chiqib, uyda o'tirgan adiba 1964-yilda 80 yoshida buyrak yetishmovchiligi xastaligidan vafot etdi.

Xolida Adib Adivarning asarlarida tanazzulga yuz tutgan imperiyadagi ijtimoiy hayot muammolari o'rtaga tashlangan, shundan bo'lsa kerak, XX asr boshi zamonaviy turk nasridagi o'zgarishlar adibaning nomi bilan ham chambarchas bog'liqdir.

Adiba o'z davridagi dolzarb masalalarini qalamga olgan va jamiyat hayotiga xos ziddiyatlar, murakkabliklar mahorat bilan ochib bergan asarlariga nafaqat Turkiyada, balki dunyoning ko'pchilik mamlakatlarida qiziqish katta bo'lgani bois uning asarlari bir qator xorijiy tillarga tarjima qilinib nashr etilgan. Xolida Adivar g'arb tillaridan Sherlok Xolms hikoyalarini, Uilyam Shekspir, Emil Zolyalarning asarlarini turk tiliga o'girgan mohir tarjimon hamdir.

[1] **TBMM** — Turkiya Buyuk millat majlisi (*Turkiya Respublikasi parlamenti*)

Adiba o‘zining ilk asarlarini Xolida Solih taxallusi bilan nashr ettirgan. Adivar qalamiga mansub o‘tgan asrning 20–30-yillarida yaratilgan asarlarning ko‘pchiligi romanlar bo‘lib, ulardan bir nechtasi Turkiyaning “Jan” (Can) nashriyotida 2007–2014-yillar orasida ketma-ket qaytadan nashr etilgan. Bular: “Olovdan tikilgan ko‘ylak” (“Ateşten Gömlek”), “Xandon” (“Handan”), “Binafsha butali uy” (“Mor Salkımlı Ev”), “Pashshali baqqol” (Sinekli Bakkal), “Turkning olov bilan sinalishi” (Türk’ün Ateşle İmtihanı), “Uringlar fohishani” (“Vurun Kahpeye”), “Yolpalas jinoyati” (“Yolpalas Cinayeti”), “Tatarcık” (“Tatarcha”), “Oqila xonim ko‘chasi” (Akile Hanım Sokağı), “Yurak og‘rig‘i” (“Kalp Ağrısı”), “Zeynoning o‘g‘li” (“Zeyno’nun Oğlu”) va “Chorasoz” (“Çaresaz”) nomli asarlaridir.

Adibaning 1961-yilning 24-sentabr–18-oktabr sanalari orasida Turkiyada nashr etiladigan “Jumhuriyat” gazetasining sonlarida chop etilgan “Chorasoz” (“Çaresaz”) qissasi[1] oradan o‘n yil vaqt o‘tib, 1971-yilda adibaning yangi “Oqila xonim ko‘chasi” nomli romani bilan birga alohida kitob holida nashr etiladi. Xolida Adivarning shar’iy nikoh, rasmiy davlat nikohi, ishq-muhabbat va mantiq kabi ijtimoiy-falsafiy mavzular yoritilgan ushbu asari modernlashuv yo‘liga kirgan Ilk jumhuriyat davriga xos Istanbulda bo‘lib o‘tgan hayotiy voqealarni aks ettirgan. Adibaning boshqa asarlari kabi ushbu asarda ham uning shaxsiy hayotida boshidan kechirgan ayrim voqealar kiritilganiga guvoh bo‘lish mumkin.

“Chorasoz” qissasining ushbu tarjimasi uchun adiba hayotligida “Jumhuriyat” gazetasida berib borilgan nusxasi asos qilib olingan. Adibaga xos til va uslubga sodiq qolinib, asarga hech qanday o‘zgartirish kiritilmagan, asar soddalashtirilmagan, kerakli o‘rinlarda muallif qo‘llagan so‘zlarning ma’nolari kitobxon oson tushunishi uchun havolalarda izohlangan.

Shuningdek, ushbu kitobga adibaning “Cho‘qqiga quvilgan qashqır” nomli hikoyasining o‘zbekcha tarjimasi ham kiritildi.

XX asrning 20-yillari turk adabiyotining yirik vakili, o‘nlab mashhur asarlari bilan turk adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa

[1] “Chorasoz” asari turk tilida roman deyilgan, ammo biz uning hajmi va sujet chizig‘i, kompozitsiyasini hisobga olib qissa deb atadik.

qo‘shgan atoqli adiba – Xolida Adib Adivar uzun umr ko‘rgan bo‘lsa-da, o‘zi orzu qilgan durdona asarlarning barchasini yozib tugatishga ulgurmadi. Shunday bo‘lsa-da, adiba yozgan asarlari bilan bugun ham turk adiblari, hatto jahon klassiklari orasida o‘z o‘rniga ega. Adiba o‘z ijodi bilan Turkiyadan tashqarida ham ma’lum va mashhur. Asarlarining tinimsiz qayta nashr etilayotgani turk xalqining Xolida Adib Adivar ijodiga bo‘lgan hurmat va ehtiromi ifodasidir.

Xayrulla Hamidov,
filologiya fanlari doktori, dotsent

CHORASOZ

(qissa)

1

CHORASOZNING YOSHLIGI

Uning asl ismi Mediha edi. Xulq-atvori go‘zal, o‘z umrini atrofdagi insonlarga bag‘ishlagani bois butun mahalla uni “Chorasoz” deb atar edi. Bu — “har qanday mushkul ishning chorasini topa oladigan, insonlarga yordam berishga doim tayyor inson” degani edi. U Eranko‘y atrofidagi bir boshlang‘ich maktabda o‘qituvchilik qilar, “Xushqadam opa” ismli bir zangi[1] ayolning ikki xonali uyidan bir xonasini ijaraga olib yashardi. Mahallaning butun aholisi, barcha erkag-u ayol unga samimiy ehtirom ila salom berardi. Uni ko‘rishi bilan mahalladagi har qanday odamning yuzida tabassum paydo bo‘lib, chehrasi yorishar, u kirib borgan joyda mehr-muhabbat shabadasi esa boshlardi. U ayollar ko‘nglida rashk, qizg‘anish hissi, erkaklarda — ehtiros uyg‘otmasdi. Ajabo, u shunchalar go‘zalmidi?.. Bo‘lishi mumkin, lekin uning go‘zalligi hammaning e’tiborini tortadigan darajada emasdi... Yo xunukmidi? Yo‘q, aslo. Bo‘lishi mumkin emas... O‘rta bo‘yli, qaddi-qomati kelishgan, na ozg‘in, na to‘ladan kelgan... Egnidagi libosi zamonaga mos, lekin “yarq” etib ko‘zga tashlanmasdi.

U ijaraga olib yashayotgan xonada vaziyat ham odatiy emas, o‘ziga xos, o‘ziga mos edi. Derazasiga tortilgan to‘r parda qimmatbaho yupqa matodan, qaymoq rangdagi qalin parda esa sof paxtadan bejirim to‘qilgan qalin matodan tikilgan edi. Xonani to‘ldirib turgan gilam ham qimmatbaho. Burchakdagi pakana stol yonida shohona kreslo — kursi turardi. Devorga osilgan katta, og‘ir javon kitoblarga to‘la, xonaning o‘rtasida turgan katta stol ustida yozuv yozish ham mumkin, ovqat yeyish ham, choy ichish ham mumkin edi. Javondagi kitoblar orasida bolalar adabiyoti, hayvonot dunyosi haqidagi kitoblar, tarix va adabiyotga oid g‘arb

[1] **Zangi** — qora tanli.

tillaridan tarjima qilingan shoh asarlar ham bor edi. Bu asarlarga qarab xona sohibasining bir nechta g'arb tillarini bilishini taxmin qilish mumkin edi.

Maktabda ham o'quvchilar unga go'yo sig'inishardi. Bolalarning hech biriga o'z sirini ochmagan, ularni erkalatib-suymagan bo'lsa-da, birontasiga qo'l ko'tarish u yoqda tursin, qattiq gapirib, diliga ozor berganini ham biror kishi ko'rgan yoki eshitgan emasdi. U har bir darsiga puxta tayyorgarlik ko'rar, har o'quvchiga uning fe'l-atvori va shaxsiy qobiliyatidan kelib chiqqan holda yondashar, shunga ko'ra savol berar edi. Agar bolalardan birontasining sog'ligi yomonlashib qolar bo'lsa, darrov undan hol-ahvol so'rar, kerak bo'lsa, zudlik bilan uni sinfdan chiqarib uyiga olib borib qo'yar, lozim topsa shifokorni ham chaqirtirib to bola tuzalgunga qadar o'zini qo'yarga joy topa olmasdi.

Chorasoz maktabdan uyga qaytishi bilan, oshxonaga kirar, yeng shimarib taom tayyorlashga kirishardi. Garchi xonani ijaraga olayotganida Xushqadam opa bilan ovqat pishirib berishi haqida ham kelishib olishgan bo'lsa-da, Xushqadam opa ham o'zi kabi kunduzi ishda bo'lar, kechqurun ishdan qaytganida aksariyat hollarda Mediha pishirgan ovqatning ustidan chiqar va unga sherik bo'lar edi.

Mediha ovqatini bir patnisga qo'yib yuqoriga olib chiqar, ovqatini yer ekan ertasi kun o'tadigan darsiga tayyorgarlik ko'rar, ovqatdan keyin o'zi yaxshi ko'radigan hayvonlar va bolalar haqida hikoyalar yozar, ertaklar to'qirdi. Yozar ekan, ich-ichidan quvonar, hatto xandon otib kulardi. Uning yozganlari orasida "Dumsiz sichqon", "Xartumli podshoh", "Bechora quyoncha" degan ertaklar bor edi.

Medihaning bolalik va o'smirlik yillari ilk boshdan bir tekis kechgan deb bo'lmaydi. Otasi Salimbey Sulton Abdulhamid davrida omborxona mudiridan keyingi o'rinda turadigan muhim bir lavozimni egallagan. Saroydagi yuksak mavqeli kishilar bilan do'st bo'lgan. Ularning Yulduz mahallasida kattagina uylari bo'lgan. U yerda tagli-zotli oiladan bo'lgan Emina xonim ismli go'zal ayolga uylangan. Ammo, afsuski, u uylangan yili Abdulhamid taxtdan tushib, saroyda ayrim o'zgarishlar ro'y bergan, Salimbey ochiqda

qolgan. Oradan 5–6 yil o'tib Mediha dunyoga kelgan, ammo onasi ko'p yashamagan.

Salimbeyning daromadi yaxshi bo'lmagani sabab bor-yo'g'ini sotib kun kechirishga majbur bo'ldi. Bu ham yetmagandek, xonadonlarida bitta xizmatkor ham bor edi. Salimbey qo'ni-qo'shnilar, o'zidan hol so'rab kelganlardan hech narsasini ayamas, bor-yo'g'ini ular bilan baham ko'rardi. Sarf-xarajatga kelganda juda qo'li ochiq edi bu odamning. Mediha besh yoshga to'lganida Salimbey uyidagi xizmatkorga "ruxsat" berishga majbur bo'ldi. Mediha olti yoshga kirganida otasi uni bir boshlang'ich maktabga o'qishga olib bordi. U qizchasini har kuni o'zi maktabga olib borib qo'yar, keyin uyni yig'ishtirar, ovqat pishirar, keyin ko'chaga chiqib, soatlab aylanib yurardi. U ko'zini Yulduz jome masjididan uzmas, juma kunlarini, tantanali salomlashuv[1] marosimlarini esga olar, o'sha vaqtlar ko'rgan-bilgan odamlarni, saroy omborxonasi mudirining yonida xizmat qilib yurgan kunlarini, yuksak mavqe, obro'-e'tiborga ega bo'lgan davrlarini eslar edi.

U bolasini maktabdan uyga olib kelgach, avval uning qornini to'yg'azar, keyin yuz-qo'lini yuvdirib, dars tayyorlatar edi. Uning kattagina kutubxonasi bor edi. Ammo buni birov aytsa, ya'ni bunday ma'naviy boylikka uning mavqeyi va darajasidagi kishi ega bo'lishiga hech kim ishonmasdi. U tarixiy kitoblarni o'qishga qiziqar, kechalari qizchasi uxlagandan keyin g'arb adabiyoti namoyandalarining tarjima qilingan asarlarini mutolaa qilardi. U o'qiydigan kitoblar orasida qadim zamonlardan qolgan masal, ertak va she'r kitoblari ham bor edi. U kitoblarning hammasini qo'ldan qo'ymay o'qir, hatto ba'zida ulardan ilhomlanib, o'zi ham she'r yozishni mashq qilar, ammo eplay olmasdi. Kechalari uyqusi qochganda hayvonlar haqida ertaklar yozar, juma kunlari ertalabdan, boshqa kunlari esa kechqurun qizchasi uxlashidan oldin unga turli tarixiy voqealarni, o'zi mashq qilgan ertaklarni aytib berardi. Qizcha otasining og'zidan o'zi tug'ilib o'sayotgan mamlakatning tarixi, ertak va masallarni tinglayverib, ularni yodlab ham olgandi.

[1] Usmoniy podshohlar juma namozini o'qish uchun jome' masjidiga kelishganda o'tkaziladigan marosim.

Bu holat Mediha sakkiz yoshga kirgunga qadar davom etdi. Balki yolg'iz bo'lgani uchun, balki xotini yo'qligini o'ylayverganidan kech tushishi bilan oz-ozdan raqi[1] ichishni boshladi. Uning asablari ham joyida emasdi. Yunon qo'shnisi, bir paytlar saroyda birga xizmat qilgan Nikolaki afandidan aroq ichishni ham o'rgandi. Oradan ko'p o'tmay bor-yo'g'ini sotib ichdi. Hatto qarzga ham botdi. Uyda bir-ikki qadah ichgan bo'lsa, endi juma kunlari qizchasini qo'lidan ushlab "Ihlamur"[2]ga yetaklab borardi. U yerda sozlar chalinar, kichik bir kulbada raqi va boshqa mast qiluvchi ichimliklar, turli xil yengil gazaklar sotilar edi. Ana shu yerda sozlar, musiqa jo'rligida aytiladigan bir qo'shiqni tinglar va har tinglaganida yig'lardi. "Nihonsan diydadan ey mast-i nozim" deb boshlanadigan qo'shiqning so'nggi "Mening tepamda insonlar emas, yig'lar malaklar" degan baytlarini tinglar ekan, yosh boladay ho'ngrab yig'lardi. Salimbey yig'lagan payt Mediha atrofni tomosha qilib turardi. Bir kuni qizchaning ko'zi ho'ngrab yig'layotgan otasiga tushdi va uning tizzasiga urib so'radi:

— Otajon, otajon farishtalar ham yig'laydimi?

Salimbey qizchasining qo'lini kaftlari orasiga olib, orqasiga o'girildi va qovoqxonaning ichkilik sotiladigan kulbasiga qarab:

— Menga yana bir shisha raqi olib kel, — deb xitob qildi.

U yerda xizmat qilib yurgan ofitsiant yigit patnisda qimmat gazaklar bilan bir shisha raqi olib keldi. Keltirilgan gazaklar orasida hatto ikra ham bor edi. Salimbey raqini stakanga quyib suv qo'shmasdan ketma-ket sipqora boshladi...

— Otajon, otajon, savollarimga javob bermadingiz, farishtalar ham yig'laydimi? — deb yana takror so'radi qizcha.

Salimbeyning tili arang aylanayotgan bo'lsa-da, qizchasining savoliga bir amallab javob berdi:

— Insonlarning holiga rahmi kelib butun farishtalar ko'z yoshi to'kishi mumkin, qizim. Albatta, shayton bundan mustasno.

— Shayton ham farishtami?

---

[1] **Raqi** — aroqning bir turi; arpabodiyon arog'i.

[2] **"Ihlamur"** — qahvaxona nomi.

— U aslida janob Haqning bosh xabarchisi mavqeyiga ega bo'lgan bir farishta bo'lgan. Faqat Alloh insonni yaratib, unga o'z jannatidan munosib joy bergach, shayton Haq Taolodan yuz o'girgan. Odam Atoni jannatdan quvdirishga muvaffaq bo'lgan.

— Bu qanday yuz bergan?

— U Momo Havoni aldagan. Ilk ayol zoti eriga daraxtdan meva olib yedirgan. Mana bugungi bizning holimiz, dunyodagi barcha yomonliklar ana o'sha daraxtdan kelmoqda.

— Shaytonni Alloh jazolamaganmi?

— Yo'q. Shayton jannatdan chiqqan va jahannamni barpo qilgan (Salimbeyning tili endi tamoman aylanmay qoldi)... Shayton Allohga tamoman teskari narsa. Mening qalbimni o'rtayotgan narsa ham ana shu, qizim.

U bu gaplarni aytib raqi shishasini qo'liga olib, oxirigacha quydi. Bu paytga kelib gazaklar ham tugagan, Salimbeyning gaplari ham o'lda-jo'lda bo'lib qolgan, nima deyayotganini na o'zi, na birov anglay olardi.

U o'rnidan turdi va yurmoqchi bo'ldi. Shunda nariroqda uni kuzatib turgan ofitsiant chopib kelib, qo'liga hisobni tutqazdi. Shunda Salimbey cho'ntagida bir majidiya[1] puli borligini esladi.

— Hamyonimni uyda qoldiribman, uka. Keyingi juma kelganimda, pulingni albatta to'layman, — dedi.

Shu payt qovoqxona egasi va ofitsiantlar bir zumda yetib kelishib, Salimbeyning atrofini o'rab olishdi. Ulardan biri Salimbeyning yoqasiga yopishdi. Shunda Salimbeyning qizchasi:

— Otajon, otajon, — deb baqira boshladi. Qizchasining yig'layotganini ko'rgan mast, oyoqda arang turgan Salimbey cho'ntagidan oltin soatini chiqarib (bu uning xotinidan qolgan yagona, bebaho yodgorlik edi):

— Mana shu bebaho soatni sizlarga garovga qoldiraman, — dedi.

Qovoqxona egasi birdaniga soatga yopishdi. Salimbeyni qo'yvorishdi, lekin u turgan yeridan jilmas, ho'ngrab yig'lardi... Baraka topsin, Nikolaki afandi rafiqasi bilan o'sha payt tasodifan "Ihla-

[1] **Majidiya** — 5 qurushlik tanga pul.

mur"ga kelib qolishgandi. Chopganicha Salimbeyning yoniga keldi va uning qo'ltig'idan olib, uyigacha opichlab olib keldi. U qizchani zildek og'ir ota bilan yolg'iz qoldirmaslik uchun rafiqasi bilan yuqoriga olib chiqdi va o'zi mast Salimbeyni yechintirib, o'rniga yotqizdi.

— Xotirjam bo'ling Salimbey, men pulini to'lab soatingizni olib kelib beraman, — dedi Nikolaki afandi. O'sha kundan boshlab Salimbeyning sog'lig'i yanada yomonlashdi, shifokorga murojaat qilishga majbur bo'ldi.

Nikolaki afandi ancha vaqt Salimbeyga moddiy jihatdan yordam ko'rsatib yurdi...

O'sha kundan boshlab uyning barcha sarf-xarajatlarini Nikolaki afandi o'z zimmasiga oldi. Rafiqasi esa kunduzlari kelib, o'rnidan turolmay, yotoqda mixlanib qolgan Salimbeyga raqi ichgani qo'ymas, qancha dod-faryod qilmasin, bunga also yo'l qo'ymasdi. Bu yaxshiliklari evaziga Salimbey uyni va ichidagi barcha buyumlarini Nikolaki afandiga o'tadigan qilib vasiyatnoma yozdi. Kechqurun madam Nikolaki uyiga qaytganida, Salimbeyning yonida unga qarashga mas'ul bo'lib sakkiz yoshli qizchasi Mediha qolar edi. Tuni bilan butun og'irlik mana shu norasida go'dakning zimmasiga yuklanardi. Otasi uxlamas, Mediha oyoqda uning tepasida girdikapalak bo'lar, xuddi ona o'z farzandiga qaragandek uni parvarishlar, mehr berar edi. Qizcha otasini quchoqlagancha uxlatmoqchi bo'lar, hatto ona yosh bolasiga aytgani kabi alla ham aytardi. Qizchasining go'zal, mehr to'la ovozi Salimbeyga biroz bo'lsada dalda, bezovta ruhiga taskin berar, tinchlantirardi.

Salimbey "Mediha ona, Mediha ona" degancha nihoyat uyquga ketardi... Nikolakilar uy tamoman o'zlariga topshirilgandan keyin kichik Medihani Rushtiyaga[1] o'qishga qo'ydilar. O'zlari ham uyning yuqori qavatiga joylashib oldilar. Har ehtimolga qarshi mol-mulkka egalik qilib turishdi.

Salimbey yotib qolgandan keyin uning holidan hech kim xabar olmay qo'ygandi. Nikolaki afandi qizchaning chekkan azob-

[1] Turkiyadagi hozirgi ta'lim tizimiga solishtirilsa, boshlang'ich ta'limning 6–8-sinflariga to'g'ri keladigan ta'lim tizimi.

uqubatlari, og'ir ahvolini ko'rib uni Uskudar kollejiga[1] idish-tovoq yuvish va boshqa turli ishlarni bajarish evaziga bepul o'qishga joylashtirdi.

Qizcha bu davrga kelib o'n bir yoshini to'ldirgan edi. Uyiga shanba-bozor kunlarigina kelar va ikki kun otasining yonidan jilmasdi. Faqat Salimbey butun ong-shuurini yo'qotgan, kichkina Mediha tuni bilan uning bir "Mestinoz", bir "Chorasoz", bir "Emina" deb baqirib, faryod ko'targanini eshitib qo'rqar, yig'lashdan o'zini arang tiyardi. "Mestinoz" va "Chorasoz" balki bir vaqtlar saroyda yashagan ikki sevishgan, yosh yigit va qizning ismlari bo'lishi mumkin edi...

Otasini ko'rish uchun so'nggi marta borganida uning ahvoli juda og'irlashib qolgandi. Hatto o'shanda bosinqirab Medihadan: "Onajon, keldingizmi" deb so'ragan, go'dak bola kabi "Onajon, menga mamma bering" deb yig'lagan, Mediha kichkina qizcha bo'lsa-da, aql-u zakovatda tengi yo'q qizcha emasmi, o'zini yo'qotmasdan barmog'ini otasining og'ziga solgan, otasi ham xuddi chaqaloqdek qizining barmog'ini emgancha tinchib, uxlab qolgan edi. Oradan bir necha oy o'tib Mediha yana oylik ta'tilga qaytganida, otasi vafot etgandi...

Mediha o'n yetti yoshida kollejni bitirdi. Nikolakilar ham eng oxirgi do'stlik burchlarini ado etdilar. O'zlari tanigan hurmatli kishilar vositasida Medihani Eranko'ydagi[2] bir boshlang'ich maktabga muallima bo'lib tayinlanishiga yordam berdilar. O'sha joyga yaqin bir uy — Xushqadam opa degan yolg'iz bir ayolning xonadonidan bir xonasini unga ijaraga olib berdilar. Xonadagi buyumlar, kitoblar ham Medihaga Nikolakilar tomonidan hadya etilgandi.

O'sha yilning o'zida Nikolakilar Yulduz mahallasida joylashgan uylarini sotib, Istanbuldan ko'chib ketishgach, Mediha yoppa-yolg'iz qoldi. Ana shunday og'ir damlarda qizning o'ksik qalbida "dardmanlarga shifo, xastalarga darmon" instinkti paydo bo'la boshladi.

---

[1] **Uskudar kolleji** — Uskudar Amerika qiz litseyi 1876-yilda *Amerikan Board Heyeti* deb nomlangan muassasa tomonidan tashkil etilgan.

[2] **Eranko'y** — Istanbuldagi bir mahalla, kichik tumanning nomi.

2

Sizga hayoti haqida hikoya qilib berayotgan qizimiz — Medihaga qo'ni-qo'shnilar "Chorasoz" deb ism berishgan edi. Haqiqatan ham u atrofdagi insonlarning dardlariga darmon, yaralariga malham edi...

Nikolakilar Istanbuldan ko'chib ketishgandan keyin muallimlik, o'qish-yozish, bemor qo'shnilarga yordam ko'rsatish kabi ishlar ko'p vaqtini olsa-da, Mediha qalbining tub-tubida bir bo'shliq borligini sezar, bu ham bo'lsa uning shaxsiy bog'liqligi edi... G'alati bir davrada uning yagona do'sti va ichidagi bu bo'shliqni sal bo'lsa-da to'ldirib turgan, maktabdan qaytganida uni eshik oldida kutib oladigan bir kuchukcha...

Tramvay yo'liga kelib tutashgan tor yo'lak ustidagi uyning eshigi oldida uni kutib turgan qora kuchukcha Medihaning kelishini alohida sezib turar, u ko'rinishi bilan dumini likillatib, chopib kelib qizning ustiga sakrardi. Mediha ham maktabdan qaytayotganida tushligidan orttirgan bir parcha non va pishloqni unga berar, kuchukcha uni ishtaha bilan yer, xursandligidan sakrar, uning qo'llarini yalay boshlardi. Qizcha uy eshigi oldida ozgina o'tirar, Qorajon deb laqab qo'ygan kuchukchasi esa uning tizzasiga chiqishga harakat qilardi.

U mahalladagi hamma bemorman degan insonga yordam berar, faqat Xushqadam opaning uyi ro'parasidagi kattagina bog' va archazorning o'rtasidagi eski yashil ko'shkda hozirga qadar kimlar turganini bilmasdi. Hammaga tanish bu joyda shunday bir uyning bo'm-bo'sh, kimsasiz turishining sababini o'ylab topolmas edi.

Bir kuni Qorajonning boshini silar ekan, ko'zi yana o'sha yashil ko'shkka tushdi. Bog' tomondan qadam tovushi keldi. Sal o'tib bog'ning darvozasi ochilib, daraxtlar orasidan bir odamning qorasi ko'rindi. Darvoza oldida turgan bu odamning atrofga alanglayotgan ko'zi birdan Medihaga tushdi. U g'alati bir tabassum bilan qizni zimdan kuzata boshladi.

Baland bo'yli, qotmadan kelgan, qalin mo'ylovi qop-qora yigitning boshi yalang, qalin sochlari bejirim qilib taralgan, egnidagi

libosi bashang, tekis qilib dazmollangan, qo'llari cho'ntagida, oyog'idagi charm poyafzali bo'yoqdan yaltirardi...

— Xayrli kun, Chorasoz xonim! — dedi yigit baland ovozda.

Mediha itni sal nariga itarib o'rnidan turdi:

— Salom... menga "Chorasoz" deb nom qo'yishganini qayerdan bildingiz? Har holda bu uyga yaqinda kelgan bo'lsangiz kerak.

Yigit baland bo'yli, oyoqlari ham uzun-uzun edi, uch qadam qo'yishi bilan Medihaning yonida paydo bo'ldi va ingichka, lekin baquvvat qo'llari bilan Medihaning qo'llarini siqdi.

— To'g'ri, men bu ko'shkning egasiman, har doim ijaraga berar edim... Bu yil onam xasta bo'lgani uchun bu yerga keldik. Shunday ekan bu mahallada bir "Chorasoz" yashayotganligini bilmaslikning ehtimoli bormi? Hamda siz yashaydigan uyning egasi Xushqadam opa biznikiga har kuni keladi, bir-ikki soat bo'lib keyin ketadi. Har kelganida onamga nuqul siz haqingizda gapiradi. Onam ham namoz o'qib bo'lgach, sizni uzoq duo qiladilar. Xushqadam opa Yulduzda[1] bir joyda ishlagan, sizning oilangiz bilan ham uzoqdan bo'lsa-da tanish bo'lgan.

— Demak mening hayot yo'limni bilib olibsiz, shundaymi?

Yigit o'zining baquvvat qo'llarini cho'ntagidan chiqardi va Medihaning qo'lini mahkam tutib, o'pish uchun lablariga bosdi.

— Onangiz bilan men ham tanishmoqchi edim. Meni ko'proq keksalar, xastahol insonlar va bolalar qiziqtiradi.

— Unda sizni hoziroq olib boraman. Xushqadam opa bir joyga ketibdi. Men sizga bir qahva pishirib beraman.

— Boshqa xizmatkoringiz yo'qmi?

— Xizmatkor ishlatishga kuchimiz yetmaydi (uh tortadi). Men haliyam adliya-huquq sohasida ishlovchi oddiy xizmatchi, kichik xodimman. Agar rahmatli padari buzrukvorim kabi sudya darajasiga yetsam...

— O'shanda uylanasiz va kelin onangizga qaraydi, shundaymi?

Yigit Medihaning qo'lidan tutib bog'cha tomonga yetakladi, lekin savoliga javob bermadi.

[1] **Yulduz** — Istanbuldagi katta mahalla (kichik tuman)ning nomi.

Bo‘yoqlari ko‘chib, to‘kilib, xarob holga kelgan bog‘ darvozasini oyog‘ning uchi bilan itarib ochdi. U shunda ham Medihaning qo‘lini qo‘yvormoqchi emasdi. Bu paytda Qorajon ham o‘ziga bo‘lgan butun diqqat-e’tiborning endi boshqasiga o‘tib ketganini sezganday “vov-vov”lab Medihaning chap yoniga o‘tdi va dumini likillata boshladi.

Ular katta archazor bog‘ning o‘rtasida turar edilar. Yigit:

— Onamning yonlariga borishdan oldin shu yerda ozgina gaplashib o‘tirsak, nima deysiz, — dedi va davom etdi, — Nega siz har doim keksalar, yosh bolalar va xastalarga yordam bermoqchi, dardlariga darmon bo‘lmoqchi bo‘lasiz, ko‘chada yurgan qarovsiz kuchuklarga qaraysiz? Mediha unga kulib javob berdi:

— Buni keyingi safar aytib beraman. Hozir onangizni bir ko‘rib, undan keyin uyga ketaman, zarur ishlarim bor.

— Qanaqa ishlar?

— Ovqat pishirishim kerak. Chunki Xushqadam opa men bilan birga ovqatlanadi. Ertaga o‘tadigan darslarimga ham tayyorgarlik ko‘rishim kerak.

Yigit yana uning so‘zini bo‘ldi:

— Undan keyinchi? Undan keyin?..

— Undan keyin bolalar uchun bir hikoya boshlab qo‘yganman, shuni yozib oxirigacha yetkazishim kerak.

Shunda yigit yana Medihaga qo‘lini uzatdi. Qizning yelkasidan quchmoqchi, egilib yonoqlarini qizning yonoqlariga tekkizmoqchi bo‘ldi...

— Demak, siz bilan maslakdosh ekanmiz-da?..

— Qanaqasiga? Qanaqasiga maslakdosh bo‘lamiz?..

— Men ham she’r yozib turaman. Ba’zan nashr ettirish man qilingan hikoya va maqolalar ham yozib turaman...

Mediha o‘sha yerda turgan taxta o‘rindiqqa o‘tirib oldi. Yigit qo‘lini uning yelkasiga qo‘ydi. Chunki u buning o‘rinsiz va betakalluf bir harakat ekanligini har holda tushunish va his qilishga qodir emasdi.

— Mening otim Munir To‘g‘ri. Otamning oti Lutfi Odil, onamniki — Nayyira xonim.

Mediha kulgancha uning gapini bo‘ldi:

— Tarjimayi holingizni yozishimni so‘ramoqchimisiz, deyman? Siz menga nima yozganingizni ayting.

— Jahannamdagi biri, do‘zax mahkumi oshiq bo‘lgan bir farishtaning manzum hikoyasi.

— Siz Dantening “Do‘zax” asarini o‘qiganmisiz?

— Ha, o‘qiganman, lekin hech qanaqa ilhom olmaganman.

— U holda qayerdan keldi bu ilhom?

— O‘zimdan, ya’ni jahannamdagi mahkum menman. U yerda yonayotganimda yoxud sovuqda qotayotganimda ko‘nglimni bir farishta ko‘tarsin, menga taskin bersin, deyman.

U birdan egildi va Medihaning lablariga lablarini bosdi. Bu qanaqasi bo‘ldi?.. Uning qalbida bir hayajon paydo bo‘lgan edi. Bu qanday hayajon?.. Munir birdan o‘rnidan turdi. Medihaning sukunati uni hayron qoldirgan edi.

— Mendan xafa bo‘dingizmi? Meni kechiring. Keling endi, bir daqiqa uyga kirib, onamni ko‘ring. Sal mazalari yo‘q, yolg‘iz qolganlar. Men ham kech qoldim. Agar sizni bir ko‘rsalar, rosa xursand bo‘lar edilar.

— Qorajonni nima qilamiz?

— Bog‘da qoldiramiz.

Ular ikki yosh bola kabi qo‘l ushlashib ko‘shkka kirdilar. Taxta pillapoyalardan yuqoriga ko‘tarilib, ikkinchi qavatda bir xonada divanda yotgan bir ayolning yoniga keldilar. U ayolning istarali, mehr-muhabbatga chanqoq yuziga qaradi:

— Onajon, mana Chorasozni olib keldim.

Mediha egilib ayolning qo‘lini o‘pdi. Ayol ham uni bag‘riga bosdi.

— O‘tir, jon qizim!

— Hozir o‘tira olmayman, borishim kerak. Ertaga ertaroq kelib siz bilan bafurja o‘tirib gaplashamiz.

Ular ko‘shkdan yana qo‘l ushlashib ko‘chaga chiqishdi. Munir Medihani uyiga qadar kuzatib qo‘ydi.

— Ertaga albatta kelasan-a?

— Ha, do‘zax va jannat orasidagi ishqiy sarguzashtingizni menga o‘qib berasiz.

— Alloh rozi bo‘lsin. Bu kecha tugatishga harakat qilaman.

— Ana u yerda bitta bosmaxona bor. Men o‘zim yozgan ertaklarim bilan birga siznikini ham bostiraman. Xayr, Allohga omonat bo‘ling!

U Munirni ichkariga taklif qilmasdan qo‘lini siqib xayrlashdi va o‘zi ichkariga kirib, tezda eshikni bekitdi. Endi Munir dumini qisib sekin-sekin “vov-vov”lab turgan Qorajonni olib u yerdan uzoqlashdi.

Ertasi kuni uyga qaytayotganida ilk bor bir bemor kishiga bo‘lgan munosabatining bir paytning o‘zida shaxsiy hayotiga aloqador bir muammo bo‘lishi ehtimoliga duch kelganligini his qilmoqda, kelmaslikning yo‘lini axtarmoqda edi. U eshikning oldiga kelganida, Munirga duch keldi. U qizning yoniga kelib:

— Bu oqshom sal kech qoldingiz, Chorasoz xonim.

— Do‘kondan oziq-ovqat oldim, qassobxonada sal ushlanib qoldim.

U savatdan bir qog‘oz oldi. Uning ichidan bir bo‘lak go‘sht olib, o‘ynoqlab, dumini likillatib turgan Qorajonga uzatdi.

— Bu oqshom onamni ko‘rgani kelasiz, shundaymi?

— Ha, ammo ijozat bersangiz, ovqatdan keyin kelaman, bo‘ladimi?

Munir bir seskanib tushdi, keyin shunday dedi:

— Balki kechqurun ko‘proq o‘tirarsizlar? Agar zeriksangiz men do‘zax va farishta haqidagi hikoyamni o‘qib o‘tirmayman.

— Bu oqshom ko‘p o‘tira olmayman, qiladigan zarur ishlarim bor. Ertaga kechki payt kelsam, yaxshi bo‘ladi.

— Yaxshi-yaxshi. Xohlasangiz men hikoyamni olib ovqatdan keyin siznikiga kelay va o‘qib beray.

Medihaning ko‘nglida qandaydir g‘alati, qo‘rquvga o‘xshash bir his uyg‘onganday bo‘ldi. Kulib:

— Men kechqurun sog‘lom odamlarni qabul qilmayman, faqat xasta kishilarni qabul qilaman.

— Agar siz xohlasangiz, darhol xastalanishim mumkin. Ha, ertaga kelish yoki kelmaslik sizning xohishingiz. Yoqangizga yopishayotganday bo‘layotganim uchun meni kechiring.

Munir sal orqaga tisarildi. Uning chehrasini g'alati bir huzun egallaganday bo'ldi.

— Munirbey, men ertaga ertaroq kelaman. Men volidangizni ziyorat qilaman, haligi hikoyangizni ham menga o'qib berasiz, tinglayman. Xayrli tun. Yaxshi dam oling.

Shunday deb Mediha Munirni eshik yonida qoldirib, o'zi ichkariga kirdi va eshikni yopdi. Qorajon tashlab ketilayotganini sezganday vovullay boshladi. Munirning oyoq tovushi eshitildi. U shaxdam qadamlar bilan yashil ko'shkning hovlisiga qarab yurdi.

Mediha ichida "Bu oqshom "Qorajon"ning ham, "Oqjon"ning ham ko'nglini sal ranjitdik", deb qo'ydi.

Xushqadam opa kelgan edi. Oshxonada qovurilgan go'shtni unga qoldirib, o'z xonasiga o'tdi. Ha, nima qilsa ham bir mojaro boshlanish arafasida edi. U buni ich-ichidan his qilib turardi.

Ertasi kun maktabdagi ishlari soat uchlar atrofida tugadi. Sumkasida yeyishga faqat pecheniy bor edi, xolos. Bugun kechqurun yeyishga biron nima olish shart emasdi. Pecheniylaridan ikki donasini Qorajonga berdi. Darvoza oldida Munir ko'rinmadi. Ha, sal ranjigan bo'lsa kerak. Yashil ko'shkning hovlisi ham bo'sh edi. Eshikni Xushqadam opa ochdi.

— Xushqadam opa, haliyam shu yerdamisiz, demak ketmabsiz-da?..

— Bugun ishim ko'p, qizim...

Xushqadam opa ma'noli kulib qo'ydi. Atrofda Munir ko'rinmadi. Kampir xuddi bayramga yasan-tusan qilganday kiyingan, o'zida yo'q xursand, kresloda yastanib o'tirardi. O'rnidan turib Medihani bag'riga bosdi va ikki yuzidan o'pdi. Kelaqol, mening Chorasoz qizim, deb gapni boshladi. Oradan ikki-uch daqiqa o'tar-o'tmas, qo'lida qog'ozga o'rog'liq bir narsa ko'tarib olgan Munir paydo bo'ldi. Medihaning qo'lini siqib ko'rishib, ayollarning qarshisida turgan kursiga o'tirdi.

Mediha:

— Qo'llaringiz juda issiq, menimcha sizning haroratingiz balandga o'xshaydi.

— Keksalar va bolalarga qarayapsiz, balki menga ham qararsiz, deb qo'limni ataylab isitgandim.

— Mening o‘g‘lim juda kamgap. Lekin ba’zida bo‘lmag‘ur narsalarni gapiradi. Rostdan ham mazang yo‘qmi, Munir?

Mediha Munirning bilagini ushlab, go‘yo maktabdagi xasta bolalarni muolaja qilayotganday, yurak urishini tekshirib ko‘rdi. Munir birdan qo‘lini tortdi.

— Menga qara Munir, bu oqshom gaplashib o‘tiramiz, keyingi safar o‘qiysan. Sening “do‘zaxda o‘tirgan odam”ingdan charchadim.

Munir Medihaning yuziga qaradi. U Medihaning fikrini bilib olmoqchiga o‘xshardi. Mediha:

— Agar unchalik uzun bo‘lmasa hozir o‘qing, keyin gaplasharmiz. Undan keyin esa, agar ijozat bersangiz...

Keksa ayol uning so‘zini bo‘ldi:

— Menga qara, qizim unaqasi ketmaydi, bu oqshom sendan katta iltimosimiz bor. Bizning kechki ovqatimizga sherik bo‘lasan, birga sho‘rva ichamiz. Opa shuning uchun bu oqshom kech qoldi. O‘g‘limiz juda ham sog‘ingan bir xamirli shirinlik pishirtirdik.

— Rahmat, bosh ustiga, lekin kechki ovqatga hali ancha vaqt bor. Hozir bizning turk Dantemizni tinglasak. Albatta, ijozat bersangiz, to‘g‘rimi, xonim afandi?

— Sening yuz-xotiring uchun ijozat beraman, bolam.

Juda kuchli yozilgan, istehzoli va o‘ta ma’noli uzun manzum hikoya. Jahannamdagi behuzurlik balki Munirning ko‘nglidagi narsa bo‘lishi mumkin edi. Goh olovga sakrar, goh cheksiz muzliklar ustida chopib yurar, faqat ko‘zlari yuqoriga tikilgan, farishtani kutardi...

— Axir farishta qanday qilib jahannamga tushishi mumkin, u do‘zaxiy emas-ku?.. Unga jannat o‘z eshiklarini ochib qo‘ymaganmi, axir?..

— Uning uchun jannat — yuragidagi ishq-muhabbatdir.

— Munirginam, bir jahannam to‘yi uyushtirsak, nima deysan?..

— Onajon, bunday ishq munosabatlarida nikoh, to‘y degan narsalar bo‘lmaydi. Qalblarni qalblarga bog‘lovchi shunday rishtalar borki, uni hech narsa uza olmaydi. Bir erkak bir ayolni tark etib, boshqasining oldiga borishi mumkin, ammo uning qalbidagi chandiq baribir qoladi.

— Ayol kishida rashk bo‘lmaydi, demoqchimisan?

— Yo‘q, unday demoqchi emasman. Bundayin betakror ayollar unaqa narsani bilishmaydi. Bunday ayollar qalblarini bag‘ishlagan erkaklar uchun jonlarini ham fido qiladilar, butun hayotlarini baxshida etadilar.

Ona va o‘g‘il orasidagi bahs-munozara ancha cho‘zildi. Mediha o‘rnidan turmoqchi bo‘lganida keksa ayol uning qo‘lidan ushladi:

— Chorasoz, bir oson yo‘lini topib o‘g‘limizni uylantiraylik, nima deysan?

— Xafa bo‘lmang ona, to sudya lavozimini egallamaguncha uylanmoqchi emasman. Uylanish qimmatga tushadigan narsa. Zero kunimizni zo‘rg‘a o‘tkazayotgan bo‘lsak, qanday uylanaman? Ko‘shkning bir tomonini ijaraga bera olmayman, juda xarob. Bersak ham, undan keladigan pul qorin to‘ydirmaydi.

Kampirning chehrasini qo‘rquv, vahimaga o‘xshash bir narsa egalladi. O‘ta jiddiy munozaraga kirishgan ona-o‘g‘il ularni kuzatib turgan Medihaga qarab jilmayishdi. Sal masxaraomuz ohangda:

— Och qolar bo‘lsak, qornimizni Mediha to‘yg‘azadi, — deyishdi.

Mediha o‘rnidan turdi:

— Alloh ko‘rsatmasin, avvalo unaqa ahvolga tushmang, hatto tushsangiz ham, g‘am yemang, o‘zim sizlarni bir amallab boqib olaman.

Munir ham o‘rnidan turdi:

— Buning oti Chorasoz, xasta bo‘lganimizda shifo, ko‘ngillarimiz cho‘kkanda bizga dalda bo‘ladi.

Shunday deb Xushqadam opa patnisda olib kelgan ovqatlarni birgalashib yedilar. Qo‘zg‘alayotganlarida Mediha shunday dedi:

— Siz menga yozganlaringizni bering, bugun kechqurun bir qarab chiqaman. Menga ishonavering, aslida insonni qornini to‘yg‘azadigan narsa ana shu yozilgan narsalar hisoblanadi. Siz onangizdan uzoq ketmang Munirbey.

Mediha keksa ayol bilan xayrlashgach, ko‘shkdan chiqdi. Munir uning orqasidan yurdi. Qizga yetib olib, uning qo‘ltig‘idan

tutdi va uyigacha birga bordi. Mediha eshik yonida u bilan xayrlashmoqchi bo'ldi, biroq Munir undan oldin eshikni ochib, ichkariga kirdi.

— Meni afv eting, jannat qizi Chorasoz xonim! Bu oqshom yoningizda o'tirib qalbimni tinchlantirmoqchiman.

Chorasoz unga hech bir so'z ayta olmas, uni haydash uchun o'zida kuch topa olmasdi. U devordagi chiroqni yoqdi. O'zi kreslo o'tirib, Munirga stulni ko'rsatdi. Faqat Munir stulga o'tirmasdan yerga cho'kkalab o'tirdi va boshini qizning tizzasiga qo'ydi. Uning boshi shunchalar issiq, ha, shunchalar issiq ediki, uning vujudida qandaydir xurujli kasallik boshlanayotgani yaqqol bilinib turardi.

Bu payt Xushqadam opa eshikning tirqishidan ichkarida nima bo'layotganini hayrat bilan kuzatib turardi. Mediha eshik tirqishidan ularni kuzatib turgan Xushqadam opaga qo'li bilan ishora qilib nari ketishini aytdi. Mediha Munirning tizzasi ustiga qo'ygan boshini bir paytlar o'z otasini boshini silaganday mehribon ona kabi silab o'tirardi. Aslida Mediha barcha xastalariga ana shunday mehribonlik ko'rsatardi. Faqat shu onda uning harakatlari qizning ichidan qaynab chiqayotgan, bir xulosaga kela olmayotgan holat, g'alati bir tuyg'uga bog'liq edi. Uning ko'nglidan umrining oxirigacha bu nozik, himoyasiz yigitni himoya qilish, qanday bo'lmasin uni ulg'aytirish o'zining peshonasiga yozilganini sezib turardi.

Munir balki bir soat, balki undan ham ko'proq muddat shu vaziyatda o'tirdi. Keyin o'rnidan turdi va egilib Medihaning qo'llarini kaftiga olib o'pdi. Shundan so'ng talmovsirab xonadan chiqdi.

3

Munir xastalandi

Ertasi kun yashil ko'shkning darvozasi oldi yana bo'm-bo'sh bo'lib qoldi. Munir ikki haftalik ta'til muddatini tugatib, yana adliyaga ishga ketgandi. Onasining yolg'iz ekanligini o'ylab bir kirib-

chiqmoqchi bo'ldi, biroq Qorajonning ovqatini bergach, ichkariga kirdi. Xushqadam opa hali kelmagandi. Yana o'zi oshxonaga kirib ovqatga unnashga majbur edi. Biroq o'sha kuni juda ham charchagani bois kursiga borib o'tirdi va ko'zlarini yumdi.

Munirning "Jannat va do'zax orasidagi bir ishq mojarosi" nomli g'ayrimanzum hikoyasini va u bilan birga o'zining bolalar uchun yozgan hikoyalarini chop ettirish uchun bir kichik bosmaxona bilan bitim tuzgandi. Oladigan qalam haqqi ming liraga ham yetmasdi. Buni ham bir ma'noda maktab bolalari orasida hikoyalari rag'bat topishi, Medihaning ham o'qituvchi ekanini hisobga olib berishmoqchi edi.

Shu topda Medihaning cho'ntagida besh yuz lira avans puli bor edi. Ko'nglidagi g'alati bir his bu pulning o'z atrofidagi kishilarga zarur ekanligini sezdirib turardi.

Xushqadam opa uyga ancha kech qaytdi. Bu payt Mediha oshxonada edi.

— Menga qara, kichkina xonim, qo'shnilardan bir xabar olmaysanmi? Kichkina janob yotibdi, katta xonim esa xuddi aqldan ozganday alahsirab nuqul seni so'raydi, — dedi Xushqadam opa.

Mediha oshxonadagi yumushlarini Xushqadamga topshirib, o'zi ketar ekan:

— Siz ovqat pishgach meni kutmasdan yeb oling, menikini olib stolga qo'ying, kelib yeyman, — dedi va Yashil ko'shk tomon yurdi.

Ko'shkka kirish eshigi har doim ochiq bo'lgani uchun to'xtamasdan hovliga kirdi. Ikkinchi qavatga ko'tarilib, katta xonimning xonasi tomon yurdi. Ro'paradagi xonaning ham eshigi lang ochiq turardi. Bechora kampir bir tayoqqa suyangancha krovatining boshida bezovta sollanib turardi. Krovatda esa ustiga havorang pijama kiygan Munir yotardi. Uning sochlari hurpaygan, ko'zlari shiftga tikilgandi. Mediha kampirning yoniga kelib pichirlab so'radi:

— Nima bo'ldi unga?

— Kecha tuni bilan hatto erta tonggacha alahsirab chiqdi bechora bola. Tanasi cho'g'day yonyapti. Nima qilishni bilmay, hayronman, qizim.

— Termometr bormi?

— Yo‘q qizim.

— Siz o‘tirib turing. Menda bor, tezda olib kelaman. Keyin urinib ko‘raman, agar o‘zim eplay olmasam, doktorni chaqirib kelaman.

— Keragi yo‘q, qizim. Doktorga beradigan pulimiz yo‘q.

— Xavotir olmang, men biron chorasini topaman, — dedi Mediha va zinadan pastga tushib, uyi tomon yugurdi. Termometrini olib kelib, yotoqning tepasiga kelganda Munir ko‘zlarini ochdi. Yigitning lablari qovjiragan, ko‘zlarining tagi ko‘kargansimon rang olgan edi... U Medihani tanidi va yana ko‘zlarini yumdi, qo‘lini unga uzatdi. Mediha termometrni uning og‘ziga qo‘yib issig‘ini o‘lchadi, bilagini ushlab yurak urishini tekshirdi. Xastaning harorati 40 dan yuqori edi.

Mediha chopib uyiga bordi, Xushqadam opaga qo‘shni kampirga ovqat olib borishini aytib, narigi ko‘chada yashaydigan Xayriddin ismli doktorning uyi tomon yugurdi. Doktor hech bir so‘z aytmasdan Medihaning orqasidan ergashib yashil ko‘shkka keldi, xastani erinmasdan muolaja qilgach, qo‘llarini spirt bilan obdan yuvdi. Keyin Medihani dahlizga chaqirdi:

— So‘nggi paytlarda ich terlama kasali tarqalgan, ehtiyot bo‘ling (kulimsirab). Maktabdagi bolalarni ham ehtiyot qilish kerak. Ayniqsa, sizga tez yuqib qolishi mumkin. Xullas, hozir vaziyat yaxshi emas. Xastaning yonida bir kishi doimo hushyor o‘tirishi kerak.

— Men kelib o‘tiraman.

— Maktabdagi darslaringiz nima bo‘ladi?

— Ertaga maktab direktoridan bir haftaga ruxsat so‘rayman (Qo‘lini cho‘ntagiga tiqdi). Sizga qancha pul berishim kerak, doktor bey? Doktor kulimsirab:

— Men Chorasozning bemorlaridan tashrifim uchun haq olmayman. Bundan tashqari, boshqa bir ishim bor. Munirbey ishlayotgan boshqarmaga men bir ma’lumotnoma yozib beraman, unga kamida uch haftalik kasallik varaqasi ochishlari kerak. Inshaalloh, tuzalib ketadi.

— Umid qilish qiyin, demoqchimisiz?

— Hech qanday xastalikda Allohdan umid uzilmasligi kerak. Lekin, haqiqatdan ham kasali og'ir.

Doktor shunday deb xona o'rtasida turgan stolning yoniga o'tirdi va bir retsept yozdi. Keyin Munirbey ishlayotgan boshqarmaga bir ma'lumotnoma ham tayyorlab, Medihaga uzatdi. Yana kelishi, faqat tunda zarur bo'lib qolsa, hech xijolat bo'lmasdan chaqirishlarini aytdi. Zinadan tushayotganida to'xtadi va o'girilib:

— Onasini o'z xonasiga o'tkazing, bemorning yoniga ko'p ham yaqinlashmasin, agar u ham kasalni yuqtirib olsa, keksa odam, qutulishi qiyin bo'ladi.

Mediha dorixonagacha borishdan oldin kampirga tasalli berib, kasalligi og'ir emasligi, faqat yuqib qolishidan ehtiyot bo'lish kerakligini aytdi. Shu bilan birga Munirning adliya sohasida ishlaydigan bir tanishi bor yoki yo'qligini so'radi. Uning adliya sohasida ishlaydigan tanishi yo'q edi. Biroq doktor Xayriddinbeyning uyi yonida yashaydigan, huquqshunoslik fakultetida oxirgi kursda o'qiydigan Sami Saljuq ismli talaba yigit bor edi. Munir uni anchadan beri tanirdi.

O'sha kecha Medihaning hayotidagi eng og'ir kecha bo'ldi. Kampirning holidan xabardor bo'lish, bemor Munirga qarash, ikkalasini ham yolg'iz qoldirmaslik uchun tuni bilan mijja qoqmadi. Bu tun Medihaga bundan bir necha yil avval Yulduz mahallasida yashagan paytlar, bemor otasiga qarab mijja qoqmay chiqqan kechalarni eslatdi.

Tunda Munirning harorati qirq bir darajaga qadar ko'tarildi va hatto shuurini yo'qotish darajasiga yetdi. Har o'ziga kelganida qo'lini Medihaga uzatib:

— Ketma! Yonimda o'tir. Kel yonimga farishtam, meni yolg'iz tashlab ketma! Kel bu o't ichra sen bilan birga yonaylik, — der, keyin yana hushidan ketardi.

Ertasi kun tongda Xushqadam opa kelar kelmas, Mediha tashqariga chiqdi. Avval maktabiga borib, ikki haftaga o'z hisobidan ruxsat oldi. Keyin Sami Saljuq ismli yigitni topdi. U kamgap, kamsuqum, yordamsevar yigitga o'xshardi, darhol doktor Xayriddinbey yozib bergan tibbiy ma'lumotnomani adliya boshqarmasiga olib ketdi. Keyin kech tushishi bilan kelib Medihaning ishlari-

da yordam bera boshladi. Xushqadam opa ham ko'shkka kelib, kampirning xonasida tunaydigan bo'ldi.

Roppa-rosa o'n besh kun davom etgan hayot-mamot mujodalasi sal pasayib, Munirning ahvoli ancha yaxshilandi, ich terlamadan qutulgan bo'lsa-da, endi jigarida muammo paydo bo'lgandi. Doktor Xayriddinbeyning ko'nglida umid paydo bo'la boshladi. Mediha yana ikki haftaga ruxsat oldi. Maktab direktoriga bu unchalik yoqmadi. Mediha buni Sami Saljuq bilan gaplashayotganida yigit unga ham muallimalik, ham kasalga qarashni bir paytda olib borish imkonsizligini aytgach, shoyad inglizcha xususiy darslar bersa, kamroq vaqt sarflab, ko'proq pul topishi mumkinligini ta'kidladi. Sami Saljuqning o'rtoqlaridan besh nafar bo'lajak huquqshunos yigit ingliz tilidan dars beradigan muallim qidirilayotgan ekan. Har bir tinglovchi talaba har bir dars uchun o'n besh liradan pul to'lar ekan. Mediha so'nggi kunlarda ko'shkdan bir qadam ham uzoqlasha olmaganligi va bu yaqin orada ko'shkdan uzoqlasha olmasligini bilib, maktabga bordi va muallimlikdan bo'shash haqida ariza yozdi. Endi u har kecha ko'shkda Munirning xonasida qolar, charchaganida uning yotog'i ro'parasida turgan divanga cho'zilib, mizg'ib olar edi. Ular ikkisi go'yo olov ichidagi sevishgan farishta va do'zax meskuniga[1] o'xshar edilar.

Ayni paytda Mediha keksa xonimni ham yolg'iz qoldirmas, unga ham alohida e'tibor bilan qarardi. Hatto tirikchilik uchun nashriyot chop etgan kitoblarni maktablar (o'zi ishlagan maktabda emas) darvozasi oldida turib, ba'zan esa portda yoki kemaning ichida sotish bilan ham shug'ullana boshladi.

Endi ona-o'g'il o'zlariga ham moddiy, ham ma'naviy boshpana topgan edilar. Munir endi uy ishlari bilan shug'ullanmas, hatto uning oyligini ham o'zi borib olardi. Mediha ingliz tili darslarini Xushqadam opaning uyidagi o'z xonasida o'tar, dars payti Xushqadam opa Yashil ko'shkda o'tirib turar, buning badalini ham Mediha to'lar edi.

Munir unga darslarni Yashil ko'shkdagi bog' tomonga qaragan bir xonada o'tishini taklif qildi.

---

[1] **Meskun** — bir maskanda doimiy yashovchi.

Shunday qilib Mediha ikki yil yashil ko‘shkka bo‘zchining mokisiday qatnadi, har doim ish bilan mashg‘ul bo‘ldi.

Mahallada ba’zi ayollar orasida g‘iybat, mish-mishlar yursa-da, Medihadan dars olgan qo‘shni erkaklar uni juda hurmat qilishar, ishonishar edi.

Mediha Munirning uyini boshqarish ishlarini o‘z qo‘liga oldi. Dars berib, kitob sotib topgan puli kunlik sarf-xarajatlardan ortar, hatto Munir bilan onasini boqishga ham yetgulik edi.

Yashil ko‘shkning ichki manzarasi ham o‘zgara boshladi. Bu yerda Medihaning zimmasidagi mas’uliyat va vazifalar uning alohida xonada yashashini taqozo etardi. Unga xususiy darslar o‘tilayotgan xonaning yonidagi kichik xona yotoq sifatida ajratib berildi. Medihaning o‘zi xonalarga pechkalar qurdirdi. Keksa uy bekasining xonasiga pastdan sim torttirib qo‘ng‘iroq o‘rnattirdi. Agar ehtiyoj tug‘ilsa, beka xonim qo‘ng‘iroq tugmasini bosib, pastki xonadan Medihani birpasda chaqira oladigan bo‘ldi.

Xonadondagi bunday vaziyat Munirga juda yoqib tushdi. U xohlagan payt Medihaning xonasiga tushar, agar biron ish bilan mashg‘ul bo‘lmasa va ijozat bersa, u bilan suhbatlashar, hatto ba’zi mavzularda tortishib ham olar edi. Suhbatlari samimiy bo‘lar, ortiqcha gap-so‘zlarga yo‘l qo‘yilmasdi.

Oradan to‘rt yil vaqt o‘tdi, Munir sudya lavozimiga tayinlandi. Ayni paytda adliya boshqarmasiga ishga kirgan Sami Saljuq bir kuni undan so‘rab qoldi:

— Nimaga Chorasozni nikohinga olmayapsan? Senga qilgan shuncha yaxshiligi, jonini fido qilishga tayyorligi va shaxsiyati buning uchun yetarli emasmi?

— Biz aslida ruhan nikohlanganmiz, biz bir-birimizsiz yashay olmaymiz. Faqat men vaqti kelib boshqa bir ayolga oshiq bo‘lib qolsamchi?..

— Bu nima deganing?..

— Boshqa bir ayolga oshiq bo‘lib qolsam, Chorasozni taloq qilishim kerak bo‘ladi-ku!.. Shuning uchun buni menga turmushga chiqishga rozi bo‘lgan qizga ochiq-oshkora aytishim lozim bo‘ladi. Chorasoz mening sevgilim, singlim, do‘stim, har on, har vaziyatda

suyanadigan tog‘im, farishtam. Sami, sen mening gapimga ishonaver: ba’zi ayollar insonda juda teran ehtiroslar uyg‘otishadi, lekin turmush qurgach taglariga bir avtomobil olib beradigan boshqa erkakni uchratib qoladilar va ko‘z ochib ko‘rgan erlarini tashlab ketadilar. Men ham buning evaziga qisqa muddat ichida orzu-havaslarim ro‘yobga chiqqach, u ayoldan ayrilishni xohlab qolaman. Holbuki, Chorasoz meni tarbiyaladi, hatto o‘limdan qutqardi. U bo‘lmaganida, men ko‘chada yurgan bir daydi, bezoridan boshqa narsa emasdim.

— Sening aslzoda toifalarga qo‘shilib-qorishib yurganingdan Chorasozning xabari bor ekan. Biron marta uni o‘sha yerlarga olib bordingmi?

— Albatta, taklif qilganman, lekin hech qachon u rozi bo‘lmagan, uy-ro‘zg‘or ishlari, yozuv-chizuvlari bilan bandligini aytib, borishni istamagan.

— Lekin men bunday yosh qizning, sen xasta bo‘lib yotganingda xonangda sen bilan yonma-yon yotgan bir ayolning nomiga dog‘ tushirilishini noto‘g‘ri deb o‘ylayman. Bir sudya odamdan bunday narsani so‘rashning o‘zi ham... Ammo, uka, agar Chorasoz boshqa biriga tegmoqchi bo‘lsa-chi?

Bu gapni eshitgach, Munirning ko‘zlari kosasidan chiqib ketayozdi. Duduqlana-duduqlana:

— Bo‘ldi, boshqa gapirma, Saljuq! Balki bu gaplarni aytishga sening ma’naviy haqqing bordir, biroq u rozi bo‘lsa nikohni imomga o‘qitamiz. Agar u xohlasa, men istagan payti shariat qonun-qoidalariga ko‘ra javobini beraman va uning sha’niga hech qanaqa dog‘ tushirmayman. Gapimga quloq sol, Saljuq! Senga nomusim haqqi-hurmati qasam ichib aytamanki, bizning oramizda hech qachon er-xotin munosabati bo‘lmagan. Ya’ni sen tushunishinga ko‘ra aytadigan bo‘lsam, u qiz bola, bokiradir.

— Qoyil! Qoyil!

— Bo‘pti, mayli, Saljuq, sening gapingdan keyin miyamga bir fikr keldi, endi bu fikr miyamni qurt kabi kemirmoqda. Chorasoz va men uchun eng maqbul yo‘lni topishga harakat qilaman.

4

Imom nikohi va rasmiy nikoh

O‘sha oqshom Mediha ingliz tilidan dars olayotgan tinglovchilar ketgach, katta xonimning ko‘rgani xonasiga borgan, ayolning hamma narsasi yetarli va hech qanday ehtiyoji yo‘qligini tushungach, o‘z xonasiga qaytgan, talabalar yozgan nazorat ishlarini tekshirib tuzatishni boshlagan edi.

May oylarining dastlabki kunlari havo mo‘tadil iliq, o‘zgarmas. Mediha yollagan bir bog‘bon uning xonasi derazasining tagida gul ekib, yetishtirgan. Ikki pista daraxtining soyasi ostida rangorang bir gul bog‘chasi paydo bo‘lgan edi.

O‘sha kuni to‘rtta bo‘lajak yurist talaba bilan Adabiyot fakultetida o‘qiydigan bir talaba birga murojaat qilishib haftada uch soat dars berishini Medihadan iltimos qilgan edi. Mediha asosan bir seans darsga beshtadan ortiq tinglovchi qabul qilmasdi. O‘z ishiga mas’uliyat bilan yondashishi, tinglovchilariga o‘ta jiddiy munosabatda bo‘lganligi uchun, darslar uni juda toliqtirar edi. Bu yosh yigit-qizlar maktab bolalaridan ko‘ra ko‘proq e’tibor, mehnat, qarorlilikni talab qilishar edi. Medihaning fe’li-atvori shunchalik jiddiy, o‘zini tutishi o‘ta vazmin, irodasi shunchalik kuchli ediki, yosh tinglovchilar dars payti uning qarshisida menman degan universitet professorining darsidan ko‘ra ko‘proq diqqat-e’tibor bilan o‘tirishar, dars payti sinfda pashsha uchsa bilinardi. Bir kuni Munir ana shunday darslardan birini eshik tirqishidan kuzatgach shunday degan edi:

— Sen mahallamizning bezori bolalarini shamga aylantirib, shamdonga ham tiqib qo‘yibsan-ku, Chorasoz!

U nimagadir, o‘sha kuni balki havo juda issiq bo‘lgani uchundir, boshqa fikrlar ta’siri ostida ancha vaqtgacha ish boshlay olmagandi.

Keyin paypog‘ini yechdi va egniga yengi kalta uy ichi kiyimini kiydi. Stolni o‘ziga qarab tortib ishga tushib ketdi. Oradan besh-o‘n daqiqa o‘tib, hamma narsani unutib tinglovchi talabaning yozma ishini tekshirishga kirishdi.

Shu payt qulog'i ostida bir ovoz jarangladi:

— Muallima xonim, ozgina vaqtingizni olsam maylimi?

Mediha hayron bo'ldi. Munir xonaga kirib, uning yonida tiz cho'kib turardi.

— Qachon keldingiz, sudya janoblari? Ijozat bersangiz mana bu qog'ozlarni bir yoqlik qilsam... Keyin bafurja gaplashardik.

— Yo'q hozir aytaman, juda jiddiy va shoshilinch gapim bor.

— Ha shunaqami? Qani gapiring unda.

U oldida turgan stolni surib qo'ydi. Munirga sal narigi o'tirg'ichni ko'rsatdi. Lekin u Medihaning yoniga yaqinlashdi va ingichka qo'llarini qizning beliga uzatdi. Qanday g'alati, tashqarida o'ta jiddiy ko'ringan sudya yigit bugun Medihaga uni ilk bor Yashil ko'shkning ostonasida ko'rgan vaqtini eslatdi. Ko'zlari yalt-yalt yonib, ingichka qo'llari Medihani quchib, bag'riga bosishga chog'landi.

— Chorasoz, sen bilan shar'iy nikohdan o'tsak, nima deysan? Shuni so'rash uchun keldim...

— Bu gap qayerdan chiqdi?

— Saljuq menga, balki sening boshqa biri bilan oila qurishing ehtimoli borligini aytganida...

— Bo'lishi mumkin... Sen ham, men ham turmush qurishimiz mumkin. Bizning do'stligimiz rost, ammo bu uylanishga tayyormiz degani emas-ku?..

Shunda Munir uzun ingichka qo'llarini pastga uzatdi va Medihaning yalong'och oyoqlarini ushladi... Ehtiros bilan qizni o'pa boshladi. Mediha oyoqlarini uning qo'lidan olib qochmoqchi bo'ldi, lekin eplay olmadi. U tamoman Munirning quchog'iga tushgan, lablari lablariga...

— Iltimos, sudya, o'zingni bos! U kunlar o'tib ketdi endi.

— Yo'q, sevgilim, o'tib ketgani yo'q, mening sevgim ham so'ngani yo'q. Sen mening o'sha Chorasozimsan... Seni boshqa odamning quchog'ida ko'rish men uchun... Yo'q, bunga aqlim bovar qilmaydi.

Mediha sal istehzoli, sal g'amgin tovushda:

— Sen kechalari aslzodalar boradigan klublarga tez-tez borib turasan. Hatto ayrim paytlar ko'chada ham ayollar bilan

qo'ltiqlashib yurganingni ko'rganmiz. O'sha ayollardan biriga uylansang bo'lmaydimi?

— To'g'ri aytasan, men ko'p narsani xohlaydigan odamman. Bir kun kelib uylanar bo'lsam, ya'ni meni rasmiy nikoh bilan turmush qurmoqchi bo'lgan qiz topilsa, men ham unga oshiq bo'lib qolsam, turmush qurishim senga bo'lgan munosabatimni buzmasligini xohlayman. Sen asl farishtamsan, ruhimning abadiy podshosisan...

— Iltimos jim bo'l!

Munir yerga o'tirib oldi. Qo'llari bilan boshini mushtlab, yosh bolaga o'xshab chinqira boshladi. Mediha hech qachon undan ayrilmasligini, hatto ko'nglida boshqa bir sevgi paydo bo'lsa-da, Munirning Chorasozi bo'lib abadiy qolishini tushundi.

— Mayli Munir, yaxshi, o'zingni bos!

Shunday deb taskin berish uchun Munirning boshini xuddi yosh bolani boshini silaganday silay boshladi. Munir birdaniga o'rnidan turdi, qo'llarini yuqori ko'tarib, hayqira boshladi:

— G'alaba! Muqaddas g'alaba! Endi borib Saljuqni topishim kerak. Mana shu hafta ichida nikoh o'qitamiz, keyin...

Shunda Mediha uning gapini bo'ldi:

— Ammo bir shartim bor. Hayotimiz xuddi ilgarigiday davom etadi, bir-birimizning tenglik, erkinligimizni o'zaro hurmat qilamiz.

Munir xuddi bu gapni eshitmaganday o'rnidan turdi. Ko'zlari xuddi yigirma yoshdagi yigitniki kabi chaqnab ketdi:

— Xohlagan payting quchog'ingda, xohlamagan payting xonangda bo'laman. Seni har doim boshimda ko'tarib yuraman. Ur-raa!..

U xonadan uchib chiqdi va yugurib ketdi.

O'sha hafta imom ularni nikohladi, ammo katta marosim uyushtirilmadi. Tushlikdan keyin, to'g'rirog'i kechga yaqin tinglovchilar Medihaning yoniga darsga kelishlari kerak edi, shu sababdan nikoh ertalab o'qildi. Keksa xonim quvonch-u shodlikdan terisiga sig'masdi. Xuddi o'zi kelin bo'layotganday kiyindi, boshiga chiroyli oq ro'molini o'radi va imomni o'z xonasiga chaqirtirdi. Unga marhum eridan qolgan bir kumush mundshtuk[1] sovg'a qil-

[1] **Mundshtuk** — sigareta tiqib chekiladigan chilimga o'xshash narsa.

di. Xushqadam opa esa nikoh marosimi ishtirokchilarini bo‘rak[1] va baklavalar[2] bilan mehmon qildi. Imom bir sudya yigitning nikohini o‘qigani va ushbu tantanada o‘ziga ko‘rsatilayotgan hurmat-ehtiromdan boshi osmonda edi.

Marosimdan keyin keksa xonim Munir bilan Medihani o‘z xonasiga chaqirdi va Medihaga qo‘lini o‘ptirdi:

— Menga qara Mediha qizim, aslida sen bugun kelinlik libosiga burkanib, yasan-tusan qilishing, bo‘yanishing, bezanishing kerak edi. Lekin sen unday qilmading, har kungi libosingni kiyding. Qani, otlan, hozir kelin-kuyov bo‘lib Chamlijaga borib maza qilib sayr qilib kelinglar.

— Hozir tinglovchi talabalarim darsga kelishadi, oyijon! Muallimlar bo‘yanishmaydi, yasan-tusan qilishmaydi, darslarini ham qoldirishlari mumkin emas, axir!

Keksa xonim e’tiroz bildirmadi, Medihani duo qildi.

— Allohga shukur, endi bizning Chorasozimizni hech kim bizdan ololmaydi, — dedi.

Munir Medihaning ikki yonog‘idan o‘pib, onasiga o‘girildi va uni bag‘riga bosdi:

— Onajon, Chorasozni bu yerga ipsiz bog‘lab qo‘ygan narsa nikoh emas, sizsiz. Alloh sizni o‘z panohida asrasin, umringiz uzoq bo‘lsin. U o‘z vazifasini hech qachon tashlab ketmaydi. Ertaga bozor, ertalabdan kelin qizingizni Chamlijaga olib boraman.

Shu payt xonaga nikoh marosimida ham ishtirok etgan Saljuq kirib keldi:

— Siz xotirjam bo‘ling, Chamlijaga men ham ular bilan birga boraman. Sizlarni tabriklab o‘tirmayman, chunki bu nikoh azaldan o‘qib bo‘lingan edi.

O‘sha oqshom talabalar kelishayotganda ulardan biri shunday degandi:

— Bugun ertalab bu yerdan o‘tayotganimda bir imomning ikki kishini yoniga olib ko‘shkka kirganini ko‘rib qoldim. Tinchlikmi, ishqilib?..

Ulardan biri kulib yubordi:

---

[1] **Bo‘rak** — pirog, varaqiga o‘xshash pishiriq.

[2] **Baklava** — paxlavaga o‘xshash pishiriq.

1619314

— Balki janob sudya bilan bizning o'qituvchimizning nikohini o'qigani kelgandir, — dedi.

— Sen nima deyapsan, imom o'qiydigan shar'iy nikohning na ijtimoiy, na huquqiy qiymati bor!..

O'sha kungi darsda tinglovchilar har doimgidan ko'ra diqqatliroq, go'zal muallimaning yuziga tikilib o'turishardi...

Ertasi kuni havo ochiq, quyosh charaqlab nur sochardi. Chunki may oyi edi-da. Munir bilan Mediha ko'shk darvozasi yoniga kelib to'xtagan izvoshga mindilar. Saljuq ham ularning ro'parasiga o'tirdi. Yo'ldan o'tib ketayotgan ikki o'quvchining salomiga Munir alik oldi, Mediha ham ularga bosh egib, ta'zim bajo keltirdi. Uning egnida yashil ipak manto bor edi. Uning ustidagi libosi va xatti-harakatlari har doimgiday, odatiy emasdi. Haligi ikkala o'quvchi qiziqsinib birdan to'xtashdi, to izvosh uzoqlashgunga qadar tikilib turishdi. Tinch-sokin Chamlija yolidan borar ekan. Daraxtlar orasidan bir tovush keldi. Kimdir keyingi paytlarda radiodan ko'p eshitiladigan mashhur bir qo'shiqni barala aytayotgandi:

Sazlar çalınır Çamlıca'nın bahçelerinde,
Bülbül sesi var şarkıların nağmelerinde,
Bir taze bahar şenliği var.

(Ma'nosi: *Sozlar chalinadi, Chamlija bog'larida*
Bulbullar nolasi bor qo'shiqlarning nag'malarida
Bir musaffo bahor quvonchi bor)

degan ovoz atrofga taralmoqda edi.

Ular Chamlijadagi tepalikka chiqib, bir qahvaxonaga kirdilar. U yerda Munir bilan Saljuq adliya boshqarmasida hammaning boshini qotirayotgan bir muhim jinoiy ish ustida tortishdilar. Mediha esa yigitlar bahs-u munozarani davom ettirar ekan, ularni hayratga solib asosli fikrlari bilan suhbatga qo'shilib turdi. Ha, haqiqatdan ham, endigina nikohlangan bu ikki yosh ko'ngildagidek asal oyi gashtini surishni xayollariga ham keltirgan bo'lmasa-da, oddiy asal kunini nishonlashni ham niyat qilmayotgan edilar. Ya'ni shu topda ularning hayotlarida go'yo hech qanday o'zgarish yuz berma-

ganday edi. Bu uchovlon do‘stning oddiy dam olish kuni qiladigan sayrlaridan boshqa narsaga o‘xshamasdi.

Ana shu nikohdan keyin ikki yil Yashil ko‘shkda jannatga xos sukunat hukm surdi. Chindan ham ularning hayotlarida hech qanday o‘zgarish ro‘y bermagandek edi. Mediha har doimgiday uy-ro‘zg‘or yumushlarini, uy boshqaruvini a’lo darajada olib borardi. Munir bilan munosabati ham ilgarigidan ancha farqli, tinch-sokin, huzur-halovatda davom etayotgandi. Munir oqshomlari uyga kelganida dastlab Medihaning xonasiga kirar, agar u xonasida bo‘lmasa, borib kampirni ozgina chalg‘itish uchun unga xush yoqadigan bironta hikoya o‘qib berar edi. Kechalari nikohli xotini Medihani o‘z xonasiga chaqirar, shunda Mediha yuqori qavatga chiqar, ba’zan esa “Bu oqshom kela olmayman, tinglovchi talabalarning uy vazifalarini tekshirishim kerak. Bundan tashqari, bitta yangi hikoya boshlab qo‘yganman, shuni davom ettirishim kerak”, — deb to‘g‘risini aytib qo‘yar edi.

Bir-ikki marta, xususan, nikohdan keyin ilk kunlar Munir uni qo‘ltiqlab olib yuqoriga “sudrash”ga muvaffaq bo‘ldi, ammo buning iloji bo‘lmagan paytlar o‘zi Medihaning xonasiga borib, uning yotog‘ida yotadigan bo‘ldi.

Ularning munosabatlaridagi sukunatni ba’zan bir-birlariga hazillashishlari buzar edi. Ba’zan esa Munir ko‘chadagi ayollar bilan bo‘lgan yaqin munosabatlari haqida Medihaga so‘zlab berar, ikkalasi birgalashib kulishardi. Shunday kunlarning birida Mediha kutilmaganda Munirga:

— Menga qara, o‘z xotiningga o‘ynashlaring haqida so‘zlab berishing to‘g‘ri emas, ularning sha’nini ham o‘ylashing kerak, — deb erining og‘zini yopib qo‘ydi. Ajabo, bu rashkmidi, yoki iztirob natijasi?.. Balki, shunchaki bir hazildir?.. Buni Munir tushuna olmadi. Faqat so‘nggi ikki oy ichida Munir ko‘chadagi ayollar bilan bo‘lgan munosabatlari haqida so‘z ochmaydigan bo‘ldi. Bunga Medihaning tanbehlari sabab bo‘ldimi, yoki bu safar boshqa bir vaziyat yuz berdimi, anglamoq oson emasdi. Mediha buni tushuna olmadi. Ishlari shunchalik ko‘payib ketgan ediki, hatto buni tushunishga, bu borada fikr qilishga ham vaqt topa olmayotgandi.

Endi mana shu vaziyat nimadan boshlangani xususida mulohaza yuritsak. Xushqadam opaning bo'lajak huquqshunos talabalar ijaraga olgan ikki xonali uyining orqasida joylashgan katta, yam-yashil bog'ning egasi o'sha yerdagi bir ko'p qavatli uyda istiqomat qilardi. Bu odamning qizi o'n yil ilgari Mediha muallimalik qilib yurgan davrda boshlang'ich maktabning oxirgi sinfida o'qirdi. Bir kuni qizcha kasal bo'lib qolgan, Mediha uning qo'lidan tutib ko'p qavatli uydagi xonadoniga olib borgan va u bilan mashg'ul bo'lgan edi. Undan keyin Medihani ko'p bora taklif etgan bo'lsa-da, u har doimgidek aslzodalar jamiyatidan qochdi. Asosan, xastalik masalalaridan tashqari qo'shnilarning hech qaysi bilan yaqin ijtimoiy munosabatda bo'lmadi.

Bunga javoban sudya Munir asl arzirumlik savdogar oilaning ayrim ishlariga qiziqib qolgan, ba'zi kunlar qabul uyushtirgan, u yerdagi keksa ayollar va savdogarlar bilan dasturxon ustida ko'rishib, suhbatlar qurgan edi. Xususan o'sha oilaning qizi bo'lgan Xadichaning Mediha muallimlik qilgan davr haqidagi xotiralarini sevib tinglardi.

Ikki oy oldin Xadichaning tug'ilgan kuni munosabati bilan tantanali kecha bo'ldi. Xadicha Medihani alohida taklif etgan bo'lsa-da, Mediha darslarini bekor qila olmasligini aytib, unga Yashil ko'shkning chamanzor bog'idan bir dasta gul terib jo'natish bilan qanoatlangan va bu bilan vaziyatdan chiqib ketgan edi...

Bir kuni u Munirdan so'radi:

— Janob sudya, Chorasoz nega buncha jon kuydirib ishlaydi?

— U Yashil ko'shkni fayzli ko'rinishli qilish uchun jon kuydirdi. Bizning mana bu xarob holga kelgan ko'shkning ichini ancha o'zgartirdi, bog'imiz ham uning sharofati bilan butkul o'zgardi, ko'rkamlashdi.

Shu gaplarni aytgandan keyin ayol-erkak hammasi ichib, kayf-safo qilib, raqsga tusha boshladilar.

Xadicha onasiga:

— Onajon, Shahnoz xonimlar ko'shklariga kelishganiga bir hafta bo'ldi. O'tgan kuni uni ko'chada ko'rdim, taklif qildim. Nimaga kelmadi, hayronman, — dedi.

— Bu nozaninlarning shohi kim, — deb so‘radi Munir kulib.

— Qishda bu yerda bo‘lishmaydi. Otasi bilan Taqsimda turishadi. O‘tgan yoz faslida bu yerda edilar, ko‘rmadingizmi?

— Bu yerda juda ko‘p yosh nozaninlarni ko‘rdim, ammo oralarida qaysi birlari shoh ekanligini menga aytmadingiz.

— O‘tgan yili yozda onasi vafot etgandi. Bu yerda bo‘ladigan yig‘inlarga kela olmadi.

Zalning eshigi ochildi. Erkak-ayol hammasi birgalikda kelganlarni kutib olishga chog‘landi. Munir ichimliklar to‘la stol oldida turib zalni tomosha qilardi. Birdaniga ayollarning hammasidan, hatto ayrim erkaklardan ham balandroq, qalin sochli bir ayol ko‘ziga chalindi. Munir uning yuzini ko‘ra olmadi. Olomon orasida faqat uzun oppoq qo‘llari harakatini, manikyurli tirnoqli chiroyli qo‘lini ko‘ra oldi. Sal vaqt o‘tib Xadichaning onasi yangi mehmonni Munir bilan tanishtirdi. Ular bir-birlarining qo‘llarini siqishib salomlashdilar. Haqiqatan ham uning go‘zallikda tengi yo‘q edi. Har qanday bellashuvda go‘zallik qirolichasi bo‘lishi mumkin edi.

Shu payt grammofondan bir vals musiqasi tarala boshladi. Munir u go‘zalning qo‘llarini tutib lablariga olib bordi...

— Agar ijozat bersangiz, boshqalardan oldin raqsni biz ochib bersak, — dedi. Qiz unga javoban yengilgina bosh irg‘ab qo‘ydi. Munir uning ingichka belidan ushlab venaliklarga o‘xshab raqsga tusha boshladi. Boshqa erkaklar ham o‘zlariga juft tanlayotganlarida bir-birlariga juda yarashgan bu ozg‘in, bug‘doyrang sudya yigit bilan niholdek nozik oq-sariqdan kelgan ayolning o‘ta nafis harakatlar namoyish qilib raqsga tushayotganlarini tomosha qilayotgan edilar. Sal vaqt o‘tib davrada boshqa juftliklar ham paydo bo‘ldi. Hamma raqsga tushishni boshlagani va o‘zi bilan o‘zi ovora bo‘lgani uchun quloqqa gapirishga hojat qolmadi.

— Nega shu paytgacha Eranko‘yda yashab yurib, sizni uchratmadim xonimafandi, — dedi baralla ovozda.

— Men bir yildan buyon ijtimoiy hayotdan uzoqda edim.

Ajabo, bu qiz turmushga chiqqanmi yoki yolg‘izmi?

— Turmush o‘rtog‘ingiz vafot etganmi?

— Turmush o‘rtog‘im yo‘q, onam vafot etdilar. Otam xasta uning yonida o‘tirishim kerak edi.

Musiqa tindi. Munir uni uy egasi bo‘lgan ayolning yoniga olib borgandan keyin Xadicha bilan birga unga kokteyl va gazak uzatdi. Munirning ishtahasi karnay, ehtirosi uyg‘ongan, chehrasi kulgan, oppoq tishlari yaltirab turar, ko‘zlari go‘zal juvonga yegudek tikilardi. Shunchayam go‘zal bo‘ladimi, omon Alloh!..

Yig‘in ancha davom etdi. Yig‘inga kelgan barcha erkak Shahnoz xonimni uyiga kuzatib qo‘yishga chog‘lanib turardi. Shahnoz xonim gilosdek qirmizi lablari orasidan sadaf tishlarini ko‘rsatgancha xandon otib kulardi. Shahnozni uyiga kuzatishdan umidvor bo‘lib turgan erkaklardan biri:

— Unda qur’a tashlaymiz, kimga chiqsa o‘sha kuzatadi, — dedi. Shu payt gapga Munir aralashdi:

— Kavaler tanlash huquqini Shahnoz xonimning o‘zlariga beraylik, — dedi. Shunda yashil ko‘zlar va qora ko‘zlar to‘qnashdi. Shahnoz xonim:

— Bu bey afandining kasbi nima ekan?

— Sudya...

Ichkilikdan sal boshi aylanib turgan Munir oppoq tishlari orasidan xuddi talabaga o‘xshab:

— “Sha, sha, sha...” dedi. Shundan keyin uy egalari bilan xayrlashishdi. Ikkalasi birgalikda yig‘in bo‘lgan joydan tezda uzoqlashdilar. Ular birga ancha sayr qilishdi. Shahnoz xonimning uyi unchalik uzoq emas ekan. Munir uni uyiga olib borib qo‘yib, Yashil ko‘shkka qaytdi. Ko‘shkda ilk Medihaning xonasiga kirib (kech bo‘lib qolgan bo‘lsa-da) o‘tish odat tusiga kirib qolgan bo‘lsa-da, u yerga kirmasdan oyoq uchida yurib o‘z xonasiga chiqdi. Munirni mast qilgan narsa ichkilikdan ko‘ra ko‘proq Shahnoz xonimning go‘zalligi edi.

Ertasi kun adliya boshqarmasidan qaytayotganida Shahnozning uyi oldidan o‘tayotib, ichkaridan pianino tovushini eshitdi. Ajabo, bu Shahnozmi?

Munir ishdan qaytayotib Shahnozning uyi oldidan uch kun ketma-ket o‘tdi. O‘sha kunlar Munir juda o‘ychan bo‘lib qolgan edi.

Mediha buni sezsa-da, hech nima demadi. To‘rtinchi kun oqshom payti u yerdan o‘tayotib, Shahnoz xonim va otasini ularning darvozalari oldida uchratib qoldi.

Munir ta’zim bilan salom bergach, Shahnoza uni otasi bilan tanishtirdi. Shahnozning otasi keksa, iste’fodagi ofitser edi. Uni og‘ir kasal deyishlariga qaramay, qaddi-basti tik kishi edi.

— Bu o‘tgan kun seni kuzatib kelgan yigit, adashmasam, shundaymi? — dedi, — Uyga kirib bir finjon qahvamizni iching.

— Yo‘q, kech bo‘lganda sizni bezovta qilmay, havo ham juda go‘zal bugun, xonim afandi sizni toza havoda sayr qildirsin, men sizlarga xalaqit bermay, — dedi Munir, — Boshqa bir kun kelib albatta qahvangizni ichaman.

— Ertaga keling, vaqtingiz bo‘ladimi?

— Rahmat, albatta kelaman!

Biroq ertasi kunning kelishi juda qiyin bo‘ldi. Yil kabi cho‘zilgan ish kuni ham nihoyasiga yetdi. Munir boshqarmadan chiqib, Shahnozlarnikiga yugurdi. Taraddud bilan eshiklarini taqillatdi. Eshik ochildi, uni birinchi qavatdagi derazasi ko‘chaga qaragan xonaga boshlab borishdi. U yerda Shahnozning otasi kursida yastanib o‘tirardi. Shahnoz esa pianinoning boshida nota daftarlarini varaqlab o‘tirardi.

— Marhamat, sizni kutib o‘tirgan edik. Menga yaqinroq o‘tiring, ko‘zlarim sal xira ko‘radi, qulog‘im ham yaxshi eshitmaydi, — dedi sobiq ofitser chol.

— Pianinoni juda yaxshi chalar ekan. Bu yerdan o‘tayotganimda tasodifan eshitib qoldim, — dedi.

Chol darhol qiziga o‘girilib:

— Shahnoz, agar janob sudyaning e’tirozlari bo‘lmasa, bizga choy olib kel, qizim!

— Rahmat, juda xursand bo‘lar edim.

Chol bilan u yoq-bu yoqdan gaplashib o‘tirdilar. Cholning kasb masalalari bilan bog‘liq savollariga javob berar ekan, uning ko‘zlari beixtiyor stakanlarga choy quyayotgan Shahnozning uzun barmoqlari, qizil rangga bo‘yalgan chiroyli tirnoqlari-yu oppoq bilaklariga tushdi.

— Janob sudya, shu atrofda "Chorasoz" deb nom qozongan sobiq muallima va hozir ingliz tili muallimasi bo'lgan xonim bor emish. Bilishimcha sizning uyda ijarada turarmish u, shundaymi?

— Ha, lekin u biznikida ijarada turadi, desam noto'g'ri bo'ladi. Garchi butun vaqtini inglizcha darslariga bag'ishlasa-da, u onamga qarashga ham vaqt topadi. Agar u bo'lmasa, onamning kunlari o'tmay qoladi.

Munir suhbat mavzusini o'zgartirdi va gapni sobiq zobit, ya'ni poshshoning Istiqlol jangida orttirgan hayot tajribasi haqida so'zini davom ettirdi. Bu mavzu ochilishi bilan keksa harbiy xizmatchi hamma narsani esdan chiqarib urush haqidagi hikoyasini boshlab yubordi. Biroq Munir quloqlari bilan uning hikoyasini tinglayotgan bo'lsa-da, ko'zi, butun fikr-u zikri sochlari oltin kabi porlayotgan go'zal qizi — Shahnozda edi. Shahnoz ham buni sezib turar, uning oppoq, silliq yuzida ko'z ilg'amas qizillik, latofat zuhur etmoqda edi. Yo, Alloh! Bu qanday xilqat?..

Munir ancha paytga qadar u yerdan uzoqlasha olmadi. Uyga qaytib, to'ppa-to'g'ri ikkinchi qavatga onasining xonasiga chiqdi. Xushqadam opa qo'lida meva solingan tovoqni ko'targancha uning yoniga keldi:

— Qayerlarda yuribsan? Ovqat qolmadi, meva olib keldim.

Munir Xushqadamning gapini eshitmadi ham. Keyin qorni to'q ekani, ovqat yemoqchi emasligini aytib, har doimgidek borib onasining qo'lini ko'ziga surib, yuzidan o'pdi. Mediha bilan ham yuzini yuziga tekkizib ko'rishar ekan, ko'ngli behuzur bo'ldi.

Onasi so'nggi paytlarda o'g'lining parishonxotir bo'lib qolganligini sezib yurardi. Bir kuni:

— Qani, xotiningni bir o'p, men bir ko'ray, — deb hazillashdi. Mediha o'rnidan turdi va:

— Buyruqqa binoan o'pilmaydi, ona, — dedi.

— Menga qaranglar, bolalarim, havo juda yaxshi, bozor kuni Medihaning darsi yo'q. Birgalashib Chamlijaga borib sayr qilib kelinglar.

Mediha Xushqadam opa olib kelgan tovoqdan bitta olma olib, pichoq bilan po'stini tozalayotib:

— Afsus, men bu bozor Yulduz mahallasiga borishim lozim, so‘z berganman, — dedi. Shunda Munir seskanib ketgandek bo‘ldi:

— Sen Yulduz mahallasidagilarni taniysanmi?

— Bizning eski qadrdonlarimiz — otamning do‘stlari Nikolakilar Yulduzga qaytib kelishgan ekan. Nikolaki xonimdan maktub oldim, meni ziyofatga taklif etishdi.

— Juda yaxshi, Munir bilan birga borasizlar.

Munir qo‘lidagi apelsindan ko‘zini uzmasdan:

— Bu bozor kuni men ham ba’zi do‘stlarimga va’da berib qo‘yganman, — dedi.

Mediha Munirning bu gaplarini eshitib shubhalana boshladi, ammo buni Munirga sezdirmadi.

— Siz ona-o‘g‘il suhbatlashib o‘tiringlar, men pastga tushaman, darslarga tayyorlanishim kerak, yozadigan narsalarim ham bor, — dedi.

— Yana nimalarni yozyapsan?

— Sening “Jahannam mahkumi va farishta” nomli manzumangning xotimasini farishta jahannamga olib ketmaydi. Jahannam mahkumini Allohga afv ettirib jannatga kiritadi.

U shunday deb eshikni asta yopdi va pastga tushdi.

— Qani birpas men bilan gaplash, Munir. So‘nggi paytlarda ishlaring ancha ko‘paygan ko‘rinadi.

— Yo‘g‘-e, unchalik emas. Agar ijozat bersang, savdogarlarning yoniga borib kelardim.

Onasi uning qo‘lidan ushladi.

— Unda pastga tushayotganingda Chorasozga ayt, yozuv-chizuvlarini ko‘tarib, buyoqqa chiqsin.

Munir onasining yonidan chiqib Medihaning xonasi eshigi oldida turib qoldi. Keyin tovush chiqarmasdan pastga tushdi va ko‘chaga chiqib ketdi. Shahnozning bazi oqshomlar o‘sha yerda bo‘lishini eshitgandi. Haqiqatan ham Shahnoz o‘sha yerda edi. Savdogar xotini bilan kinoga ketgan, shuning uchun Xadicha bilan yuzma-yuz o‘tirib suhbatlashib, bir narsa to‘qiyotgan edi. Balki bu g‘alati tasodifdir, ammo ularning suhbatlari mavzusi Munir edi. Xadicha shunday derdi:

— Bu kelishgan, istarali sudya yigit mening muallimam bilan shar'iy nikohdan o'tgan ekan. Buni butun mahalla biladi. Hamma bunga hayron. Hozirgi paytda yosh, kelajagi porloq bir sudyaning eskidan qolgan urf-odatlarga ko'ra imom nikohidan o'tib uylanishi g'alati, hatto shubhali emasmi?

— Chorasoz haqida gapirayapsizmi? Menimcha bu mish-mishlar otamning ham qulog'iga yetgan ko'rinadi.

— Ha Chorasoz haqida gaplashayotgandik.

— Imom nikohi bilan uylansa, ajralish oson.

— Lekin, ajralmoqchi bo'lsa, ayb bo'ladi.

Shahnoz uzoqlarga tikilib qoldi:

— Agar boshqasini sevib qolguday bo'lsa, ajrashadi.

— Ammo go'zal ayolni ko'rar-ko'rmas oshiq bo'lib qoladigan odati bor-da uning. Mana seni ko'rishi bilan og'zidan so'lagi oqa boshlamadimi? Qani ayt! Tishlari o'ljasini ko'rgach ishtahasi ochiladigan arslonning tishlariga o'xshaydi. Hah-ha-ha...

Ochiq turgan eshik tashqarisidan erkak kishining tovushi keldi:

— Kim ekan u o'tkir tishli arslon?

Eshik oldida turgan Munir edi.

— Kim bo'lardi, janob sudya, sizsiz o'sha arslon...

— Tabiiy. Shahnoz xonimni ko'rgach, qaysi erkak es-hushini yo'qotmaydi, qani ayting-chi menga!

Shahnozning yuzi birdan qizardi. Munir ularning yoniga kelib gapni boshlashdan oldin Shahnozga qarab shunday dedi:

— Bu oqshom sizga men hamrohlik qilaman, shundaymi, Shahnoz xonim?!

— Ammo biznikilar kelmasdan Shahnozga ruxsat yo'q, qo'yvormayman uni, — dedi Xadicha.

— Mayli, xohlasa yarim kechaga qadar kutaman.

Kech soat o'n yarimga qadar kutdilar. Shahnozning ko'p qolib ketishi mumkin emas, chunki uyda otasi yolg'iz edi. Xadicha bilan xayrlashib chiqdi. Shahnozning qo'li-qo'lida, mahkam edi. Faqat hech qanday hayajon sezilmas, aksincha, juda o'ychan va parishonxotir edi. Ha, u yana hayotining burilish nuqtasida turganini sezardi.

Bu chekka nuqtasining boshi berk bo'lib qolmasligi uchun o'ta jiddiy o'ylash, ishni puxta qilishga majbur edi. Munir bu qizga mutlaqo ega bo'lishni xohlaydi, ammo Chorasoz-chi?.. Unga nima bo'ladi?.. Sudyaning yuragi go'yo ikkiga bo'lingan, bir tomonida sokinlik, rohat-farog'at, ikkinchi tomonida behuzurlik, xavotir, talosh, hatto qandaydir qo'rquv bor edi... Bu qizga faqat rasman uylanish orqali ega bo'lishi mumkin edi. Bularni o'ylagan sari uning yurak urishi yanada kuchaymoqda edi: gup-gup-gup. Ammo Chorasoz-chi?.. Ha, buni chuqur o'ylab ko'rish kerak... Onasi bilan, Chorasozning o'zi bilan ham o'tirib, yaxshilab gaplashib olish vaqti kelganga o'xshaydi. Ana shularni o'ylar ekan, Shahnozning uyiga yaqinlashib qolishgan edi. Munirning xayolini Shahnozning savoli buzdi:

— Mana uyga ham yetib kelibmiz, nimaga chuqur o'yga toldingiz?

Munir Shahnozga o'girilib, uning qo'llarini ushladi va ko'zlarining ichiga boqdi. Keyin birdan lablarini uning lablariga bosdi. Shahnoz uning bunday kutilmagan harakatidan achchiqlanganday bo'lib:

— Bu nima qilganingiz? — dedi.

— Meni kechiring, keyingi bozor kuniga qadar ikkalamiz ham obdan o'ylab ko'rsak. Bozor kuni kelib rasman otangizdan sizning qo'lingizni so'rasam, nima deysiz?

Shahnoz nima deyishni bilmay birpas o'ylanib turdi. Ajabo uning shar'iy nikohli xotini borligi haqidagi mish-mishlar to'g'rimi? Shularni o'ylab hovliga kirayotganda, Munir uning qulog'iga egilib shivirladi:

— Iltimos, otangizga kelayotgan bozor kuni soat o'nda kelishimni aytib qo'ysangiz. Siz ham o'sha kungacha mening taklifimni yaxshilab o'ylab ko'ring.

— Yaxshi, sudya janoblari, o'ylab ko'raman. Ko'rishguncha xayr.

Shahnoz shunday dedi va Munirga xayrlashish uchun qo'lini ham uzatmasdan chopib ichkariga kirdi va eshikni yopdi. Munir Yashil ko'shkka og'ir qadamlar bilan kirib keldi. Sekin yurib onasining xonasiga chiqdi. Unga hech nima demadi. Xonaning u

uchidan bu uchiga yurdi. Onasi uning sudda bironta murakkab jinoiy ishni ko'rib charchagan bo'lsa kerak, deb o'ylab hech nima so'ramadi. Ammo Mediha Munirdagi o'zgarishni sezganday edi. "Demak uning bu safargi ishq savdosi ancha jiddiy ko'rinadi, balki u oshiq bo'lib qolgan ayol rozi bo'lmayotgan bo'lishi ham mumkin".

O'sha kunlar Munir Medihaning xonasiga faqat pul olish uchun kelar, pulni olgach hech nima demasdan orqasiga qaytardi. Ammo bir shanba kuni kelib jiddiy gaplashib olishga qaror qildi.

— Juda g'alati-ya, Chorasoz, hatto shunaqa o'rinsiz paytlarda ham sening maslahatinga muhtoj bo'lib qolyapman.

Mediha oldida uyilib yotgan qog'ozlar bilan mashg'ul edi.

— Chorasoz, meni yaxshilab eshit.

— Gapir Munir, qulog'im senda. Nima bo'ldi, bu safar oshiq bo'lib qolgan u ayoling qarmog'ingga ilinmayaptimi, deyman.

— Uylanmasdan qarmoqqa ilintirishning imkoni yo'qqa o'xshab turibdi. Meni qiynayotgan narsa shu.

— Nimaga? Ko'zingni chirt yum va uylan, vassalom!

— Xo'p, senchi?

— Sen meni aslo o'ylama. Men onangga qarayman. Sen bilan oramizdagi munosabatimiz faqat bir uyda yashash bilan cheklangani va undan nariga o'tmaganini yaxshi bilasan. Sen oshiq bo'lib qolgan qiz ana u iste'fodagi ofitserning qizi, shundaymi? Agar u qiz bizning shar'iy nikohimizni bekor qilinishini qat'iy talab qiladigan bo'lsa, qo'rqma... Agar kerak bo'lsa men, men...

Bu so'zlarni aytar ekan Medihaning nafasi ichiga tushib ketdi. Tomog'iga bir nima tiqilganday jim bo'lib qoldi.

— Sen nima qilasan?

— Onangni Xushqadam opa va rasmiy nikohli xotininga topshirib, bu yerdan bosh olib ketaman.

Munir Medihaning "Bu yerdan bosh olib ketaman" degan gapini eshitishi bilan o'tirgan joyidan sapchib turdi. Tiz cho'kib Medihaning belidan quchoqlab oldi:

— Unda yuragimning bir parchasini qo'porib olib ketgan bo'lasan. Yo'q, bunday bo'lishi mumkin emas: yo sen bilan birga bo'laman, yo o'zimni o'ldiraman...

— Bo'lmag'ur gaplarni gapirma. U juda go'zal va odobli qiz. Undan juda yaxshi turmush o'rtog'i chiqadi. Men har doim uyro'zg'or ishlariga qarashib, moddiy qo'llab-quvvatlab ham turaman. Zero men xususiy darslarimdan yaxshigina pul topaman.

Munir yana o'rnidan turdi.

— Chorasozginam, sening taskin berish uchun aytgan bu so'zlaring, mening ko'nglimni vayron qildi. Men sendan bunaqa gaplarni kutmagandim. Hatto baqirib butun uyni boshingga ko'tarasan deb o'ylagandim.

Mediha hech nima demadi. U Munirning qarshisida toshday qotib turardi. Yuragi haqiqatdan ham vayron bo'lgandi. Munir yana uning qarshisida tiz cho'kib xuddi yosh boladay ko'zyoshi to'kar, ingrardi. Mediha unga rahmi kelib, boshini silay boshladi. Sekin, past ovozda:

— Munir, do'stim, sen otasining huzuriga borib qizining qo'lini so'ra. Keyin yana o'tirib gaplashamiz. Bir qarorga kelamiz.

Munir tiz cho'kkancha ko'zyoshi to'kardi. Mediha egilib uning peshonasidan o'pdi.

— Men hovliga chiqib birpas toza havoda aylanmoqchiman.

— Men ham chiqib toza havodan nafas olmoqchiman.

Ikkalasi hovlida birpas yonma-yon aylanishdi.

— Sen bozor kuni qayerda bo'lasan?

— Hali aytgandim-ku senga, Yulduz mahallasida bir eski qadrdonimiz bor, Nikolakilar oilasi. Ularni bir ziyorat qilib kelmoqchiman. Sen keksa zobitning uyiga borib haligi aytgan masalamizni hal qil.

Mediha o'sha kechani jannat va jahannam orasida, arosatda o'tkazdi. Tushida Shahnozning go'zal vujudini bir xayolot ichra quchog'ida ko'rib, tamoman o'zini yo'qotdi. Keyin Chorasozning bo'm-bo'sh xonasini ko'rdi... O'zini oldiga bir parcha mazali lahm go'sht tashlanib, keyin ko'chaga haydab yuborilgan daydi it kabi his qilib, ingragancha ko'zini ochib, "Chorasoz, Chorasoz" degancha hayqirdi.

U ertalab ancha erta turdi. Medihaning eski hammomga qo'ydirgan dushi tagida turdi. Obdon yuvingach, soqolini ham oldi, yangi kastumi va dazmollangan ko'ylagini kiydi. G'alati

bo‘lgan narsa shu ediki, kimdir tunda u uxlab yotgan payt kelib, uning kiyimlarini tayyorlab ketgan edi. Hatto poyafzalini ham bo‘yab, tozalab qo‘ygandi.

Soat to‘qqizda pastga tushdi. Uyg‘ongan yoki uyg‘onmaganligini Xushqadam onadan so‘radi. Xabari yo‘q edi. Munir onasining yoniga kirishni istamasdi. O‘sha kun uni Shahnozning qo‘lini so‘rab borayotganligi haqida xabardor qilgandi. Oshxonaga kirdi, lekin o‘tirmasdan oyoqda turib nonushta qildi va ko‘chaga yugurdi. Chunki soat o‘nda Shahnoznikiga borishga so‘z bergandi. Biroq hali soat o‘n bo‘lmagandi. Shuning uchun ko‘chada yarim soatcha aylanib, har daqiqada bilagidagi soatga qarab vaqtni o‘tkazdi. Soat roppa rosa o‘n bo‘lishi bilan Shahnozning eshigini taqillatdi. Yana o‘sha xizmatkor qizcha eshikni ochdi va Munirni keksa zobitning xonasiga boshlab chiqdi. Eshikni taqillatib ichkariga kirishi bilan keksa zobit unga mayin tabassum bilan:

— Shahnoz bugun ertalab sizning men bilan gaplashmoqchi ekanligingizni aytgandi. Ammo bu dangasa qizning o‘zi haliyam uxlab yotgan bo‘lsa kerak. Marhamat, menga qanday gapingiz bor edi. Tinchlikmi ishqilib? Qulog‘im sizda, — dedi.

Munir keksa zobitning qo‘lini o‘pdi va:

— Sizdan Shahnoz xonimning qo‘lini so‘rashga keldim, — dedi.

— O‘zidan so‘ramadingizmi (keksa zobit bu gapni aytar ekan ko‘zini qisib qo‘ydi).

— Sizning ijozatingiz bo‘lmasdan bunday qilish bizning urf-odatlarimizga to‘g‘ri kelmaydi-da.

Keksa zobit oyog‘i bilan yerni tepgancha baqirdi:

— Emina, Emina!

Emina yugurib uning oldiga keldi. Keksa zobit:

— Tez borib, kichik xonimni chaqir, buyoqqa kelsin, — dedi.

Balki taxminan chorak soat o‘tib, Shahnoz yashil ko‘zlarini chaqnatib, oltin sochlarini ko‘z-ko‘z qilgancha oppoq yengli, jozibador, bayramona libosida tovlangancha chiqib keldi. Keksa zobit:

— Bu yoqqa kel, — dedi. Otasining ovozi sal qo‘pol eshitildi, shekilli, Shahnoz sal cho‘chiganday bo‘ldi va uning yoniga yaqinroq kelib o‘tirdi.

— Sudya Munirbey mendan sening qo'lingni so'rab kelibdi. Men bosh ustiga, rozi bo'laman, faqat avvalo sening roziliging kerak menga, qizim.

— Buni hecham kutmagandim, ota... Yigirma uch yashar bir qiz qanday qilib Beyo'g'lidan kiyim-kechak olayotganday birpasda qaror qabul qilishi mumkin? O'ylab ko'rish kerak emasmi, axir?

— Anchadan beri bir-biringizni taniysizlar, mutlaqo bir-biringiz haqingizda ijobiy yoki salbiy bir fikr uyg'ongan bo'lishi kerak... Jim... Endi meni eshit... Borib tayyorlan! Bugunoq Munirbey bilan bir aravaga minib Chamlijaga borasizlar. O'sha yerda gaplashib, kelishib olasizlar. Kechqurun qaytib, nima qarorga kelganingizni menga aytasizlar.

— Tushlik nima bo'ladi?

— Oh, mening ochko'zgina qizim. Emina sizlarga yeydigan, ichadigan biron narsa tayyorlab beradi hozir, — dedi va oldida turgan katta soatga qarab qo'ydi. — Bu yerdan kechi bilan soat o'n birda chiqsangiz, kech tushgunga qadar hamma gapni gaplashib olasizlar.

— Men ustimga paltomni kiyib olsam bo'ldi. Emina yegulik narsalarni tayyorlab bersa, kifoya. Sizlar gaplashib turinglar, men Eminaga kerakli narsalarni tayinlab turaman, — dedi Shahnoz.

— Bo'laqolinglar, tag'in meni o'ylab erta qaytaman demanglar. Bafurja gaplashib olinglar. Bugun ammavachchang Sabiha kelmoqchi edi, men kun bo'yi u bilan ovunib o'tiraman.

Shahnoz paltosini kiygani xonasiga kirib ketdi. Stol ustida turgan kakkuli soat o'n bir bo'lishi bilan "ku-ku"lay boshladi. Shunda keksa zobit Munirga qarab:

— Qani, o'g'lim, vaqt bo'ldi, endi qizni olib ketaver, senga ruxsat, — dedi. Bu orada Shahnoz ham lojuvard ipak matodan tikilgan chiroyli paltosini kiyib xonasidan chiqib keldi. Otasi uni ko'rib, kulgancha:

— Qani, "marsh" — dedi qo'lini zobitchasiga paxsa qilib.

Munir Shahnoz bilan boshlashib hovlidan chiqar ekan, ko'chadan bir ot qo'shilgan, usti yopiq bir bo'sh izvosh o'tib ketayotgandi. Izvoshchi ham "begona" emasdi. O'tgan safar Munir Mediha bilan

imom nikohidan o'tgandan keyin ularni Chamlijada sayr qildirgan izvoshchi edi.

Ular ikkalasi izvoshga mindilar. Ammo bu safar tinch-sokin Chamlija yo'lidan borar ekan daraxtlar orasidan kimningdir "Sozlar chalinadi, Chamlija bog'larida, Bulbullar nolasi bor qo'shiqlarning nag'malarida, bir musaffo bahor quvonchi bor" degan qo'shig'i atrofga taralmayotgandi. Balki odamlar issiq kunlar boshlanayotgani va orolchalarga dam olishga ketayotgani uchun bo'lsa kerak, Chamlijada odam juda siyrak edi. Ular mingan izvoshning o'ng tomonida ketayotgan ikki talabadan biri:

— Beyo'g'lidan yurarsan, ko'zlaringni suzarsan, — deb xirgoyi qilib qo'ydi.

Kichik Chamlijaga yaqinlashganlarida o'ng tomondagi ochiq maydonga qarab Shahnoz nozik belini Munirning yugurik qo'lidan olib qochmoqchi bo'ldi.

— Qani yuraylik ozgina, arava orqamizdan kelaversin, — dedi.

Ular ancha vaqtgacha gaplashmasdan yurdilar. Munir yana qo'lini Shahnozning beliga olib bordi va "Agar sening belingdan quchsam, boshqa qo'l qucholmas seni" deb qo'shiq ham aytib qo'ydi. Kichik Chamlijaga kelishgach, u yerdagi gavjum qahvaxonalarga kirishni xohlamadilar. Ular katta Chamlija tomon ketdilar. Izvosh ham ularning orqasidan kelaverdi. Tepaga yaqin bir joyda tol bor edi. Munir ana shu tolni ko'rsatib:

— Yur ana u tolning yoniga boramiz. Izvosh yo'l ustida bizni kutib tursin, — dedi. Ular birgalashib tepadagi tol daraxti yoniga bordilar va yonma-yon o'tirdilar. Munir tevarak-atrofni ko'zdan kechirib, hech kim yo'qligiga amin bo'lgach, Shahnozning ko'kragiga sekingina qo'lini qo'yib, uni akatsiya soyasi tushib turgan yam-yashil maysalar ustiga yotqizdi va yoniga o'zi ham cho'zildi. Munirning qo'llari Shahnozning bo'ynida, quchoqlab, lablaridan bo'sa olar ekan, bu kecha tushida ko'rgan jannat ro'yosini takror boshdan kechirayotganini his qildi. Biroq Shahnoz uni itarib yubordi-da, oyoqlarini uzatib, orqasini daraxtga suyab o'tirib oldi.

— Kel, gaplashib olaylik, bir qarorga kelaylik endi, ey nozaninlar shohi!..

— Avval qorinlarimizni to‘yg‘azib olaylik, keyin bunaqa jiddiy masala haqida o‘ylab ko‘rsak bo‘ladi, — dedi Shahnoz.

— Soat hali o‘n ikki ham bo‘lmadi. Sening qalbingning mana bu yashil yulduzli eshiklarida ulkan so‘roq belgisi turibdi, Shahnoz xonim!..

— Xo‘p, avvalo haligi muallima xonim bilan shar’iy nikohdan o‘tganmisizlar, yoki bu gap yolg‘onmi? Keyingi savolim: mabodo biz turmush quradigan bo‘lsak, u xonim biz bilan bitta uyda yashaydimi, yoki javobini berasanmi?

Munir savolning birinchi qismini qoldirib, ikkinchi qismiga javob berishni ma’qul topdi:

— U mendan bir-ikki yosh kichik bo‘lish bilan birga, onam va mening himoyachim ham hisoblanadi. Shuningdek, u uyning tayanch ustuni hamdir. Qolaversa, onam usiz yashay olmaydi. Onam tirik ekan, men ham uyni tark etib keta olmayman. Agar rozi bo‘lsang, u ayol sen uchun ham bir himoyachi, tayanch ustun bo‘lishga qodirdir. Hatto, xohlasang otangni ham o‘zing bilan birga biznikiga ko‘chirib kelishing mumkin.

— Yo‘q, bo‘lmaydi. Mening otam bir paytlar u menga turmush qurib uydan chiqib ketadigan bo‘lsam jiyanim Sabihani uyga olib kelishini aytgandi.

— Unday bo‘lsa... Senga jonim qurbon bo‘lsin, bir og‘iz “ha” de.

Munir Shahnozning yuziga teshib yuborguday tikildi. Munir sigaretasini yoqqanda yuzi yorishib, oppoq durdek tishlari yaraqlab ketdi. Shahnozning qirmizi dudoqlaridan beixtiyor “ha” degan ovoz chiqdi.

Endi ular kelajak hayotlarini emas, shu lahzalarda ichlarida kechayotgan g‘alayonni bostirish, ishqiy ehtiyojlarini tezroq qondirishni o‘ylayotgan edilar.

Ha, uzoq davom etgan jannat ro‘yosi... Ular soat yettida uyga qaytishdi. Keksa zobitning yonida jiyani Sabiha xonim o‘tirardi. U Shahnozning yuzidan hayotida yuz bergan keskin o‘zgarishni sezganday bo‘yniga osildi. Shahnoz, ayolni Munir bilan tanishtirgach, egilib otasining qo‘lini o‘pti. Ha, bu egilish, uning go‘zal yuzidagi ma’no qariyaga qizining ijobiy qarorga kelganidan dalolat bera-

yotgan edi. Bu safar Munir ham egilib, poshshoning qo'lini o'pti. Hatto hayajondan ovozi titragancha:

— Karimangiz[1] menga turmushga chiqishga rozi bo'ldi, poshshom, — dedi.

— Shunaqami, Shahnoz? — deb qiziga qaradi keksa poshsho.

— Shunday, otajon.

Qariya ikkisining qo'llarini tutib, bir-biriga qovushtirdi:

— Muborak bo'lsin. Demak, bizning bo'lajak kuyovimiz bugun kechki ovqatda biz bilan birga bo'lar ekan-da?! Taom ustida unashtiruv va nikoh to'yi kunlarini, qayerda bo'lishini ham belgilab olar ekanmiz, demak.

Munir javob bermadi. Sabiha xonim taom tayyorlagani ketgandi. Cholning bir qo'lida Munirning qo'li, ikkinchisida — Shahnozning qo'li, ko'zlari esa uzoq-uzoqlarga tikilib turardi.

— Munirbey, onangizning roziligini oldingizmi?

— Onam ham xuddi siz kabi mening ko'nglim nimani istasa o'shanga rozi.

Ular uzoq suhbatlashishdi, so'ngra payshanba kuni (tabiiyki, nikoh uzugi bilan) kelib Shahnoz xonimni onasi bilan tanishtirish uchun ijozat oldi va tun yarmida uyga qaytdi. Uyga kelganida pastda oshxonaning yonidagi xonada Xushqadam opa deraza oldida turib darvozaga tikilib turardi.

Munir darvozani taqillatishga ulgurmadi, Xushqadamning o'zi ochdi:

— Ha, xo'jayin, namuncha kech?

— Ha, shunaqa bo'lib qoldi, opa. Onamlar yotishdimi?

— Xonim afandi uxlay olmadilar, kichik xonim ham kech qaytdi. Ular sizni kutishyapti.

Shu topda Munir ularning uxlab qolgan bo'lishlarini istardi. Chunki nimalar bo'layotganini ularga aytishni xohlamasdi. U butun kuch-g'ayratini yig'ib, onasining xonasiga ko'tarildi.

— Qayerda eding, Munir?

U hech narsa demadi. Kelib onasining qo'lini o'pdi. Keyin qayrilib Medihaning yuzini silab qo'ydi.

---

[1] "qizingiz" ma'nosida

— Onajon, endi siz yotib uxlang. Men keldim. Chorasoz ham butun kun davomida tashqarida ekan, uni ham o‘z holiga qo‘ying. Damini olsin. Mana men shu yerda, yoningizdaman.

Chorasoz o‘rnidan turib:

— Onamni joyiga yotqizishim bilanoq pastga tushaman. Sen esa uxlagunlaricha kut, — dedi va kampirni yelkalagancha yotog‘iga olib borib, yotqizdi. So‘ngra xonadan chiqdi. Munir uning orqasidan zinapoyagacha yurib bordi.

— Chorasoz, biz rasmiy nikohdan ham o‘tadiganga o‘xshab turibmiz. Faqat hozircha onamga aytishga qo‘rqyapman, asabiylashadi.

Chorasoz sokin, ammo biroz g‘amgin ovoz bilan:

— Muborak bo‘lsin Munir! Ha, onangga hech nima dema, juda asabiy holatda o‘zi. Bu gapni aytmoqchi bo‘lsang, men borimda aytganing ma’qul. Men unga taskin beraman, bu vaziyatni to‘g‘ri qabul qilishi uchun uni ruhan tayyorlashga harakat qilaman, — dedi.

— Seni o‘psam bo‘ladimi, ijozat berasanmi, Chorasoz?

— Har safar o‘payotganingda ruxsat so‘rayotganmiding? (Kulib) Xushxabar berganingda o‘parsan. Xayrli bo‘lsin, Munir, — dedi va keyin tezda zinadan pastga tushib ketdi. Uning orqasidan Munir:

— Bugungi kuning qanday o‘tganini aytmasdan ketma, Chorasoz, — degancha qoldi.

Chorasoz hech nima deb javob bermadi. Birozdan keyin Medihaning xonasi eshigi yopildi. Balki eshikning ichkari tomonidagi ilgagi ham ilingandir. Ha, o‘sha kungi jannat ustiga tushgan soyani endi yashirishning hecham iloji yo‘q edi.

Medihaning o‘sha kunni qanday kechirganiga kelsak: u juda erta turgan, kiyinib, Kadiko‘ydan to‘qqiz yarimda qo‘zg‘aladigan kemaga ulgurgandi. Kemada Nikolaki amaki yozgan xatni qaytadan o‘qidi. Tushki ovqatni ular bilan birgalikda yemoqchi edi. Faqat manzil aniq emasdi. O‘n to‘rtinchi raqamli uyning eshigi tagida ertalab soat o‘n birdan boshlab, turmush o‘rtog‘i bilan birgalikda uni kutishini yozgandi Nikolaki xonim. Er-xotin Medihani ko‘rishlari bilan:

— Ana, ana, keldi, — deb uylari oldida uni kutib olishdi. Medihaga uylarini ko'rsatib, qanchalik o'zgarib ketganini aytmoqchi bo'ldilar. Bu yer odatiy ko'p qavatli uyga aylangandi. Nikolaki xonim:

— Ahmadbey bu yerni ikki qavatli uyga aylantirdi. O'zi esa pastki qavatda yashaydi, tepadagi qavatini ijaraga bergan. Yoz kunlari Istanbulga kelgani uchun pastki qavatni saqlab qo'ygan. Bu yil yozda Amerikaga ketdi, bir qavatni bizga tashlab ketdi. Qara, tagida do'konlar ham bor. Biri kosib, ikkinchisi sartarosh do'koni. Bugun yakshanba bo'lgani uchun eshiklari yopiq, do'kondorlar dam olishmoqda. Shunday deb Medihaning bir qo'lidan Nikolaki bey, ikkinchi qo'lidan esa ayoli tutib oldi. Ichkariga kirib, yuqori qavatga chiqayotganda Mediha so'radi:

— Yuqorida kim yashaydi?

— Hozircha bo'sh turibdi. Sotiladi. Eshikning ustidagi peshlavhaga e'tibor bermadingmi?

— Qanchaga sotmoqchi?

— Ha, sotib olmoqchimisan, Mediha? Bu yoqqa ko'chib kelmoqchimisan?

— Yo'q, faqat sotib olmoqchiman, ko'chish niyatim yo'q.

— O'n besh ming lira.

— O'n mingga bersa olardim. Yoki o'n mingini oldindan to'lab, qolganini bo'lib-bo'lib to'lardim, agar rozi bo'lsa.

— Sen u yog'ini o'ylama, bo'tam, men bu uyni olib, sening nomingga rasmiylashtirib beraman, sen esa pulni xohlagan payting menga beraverasan.

Qiziq, nega kutilmaganda Medihaning xayoliga uy sotib olish fikri keldi? Balki kelajakni o'ylab, hayotidagi bugungi chalkashliklardan xulosa chiqarib shunday fikrga keldimi? Mediha hozirda Xushqadam opaning uyi qarshisidagi Yashil ko'shkda yashayotganini aytdi. Nikolakilarni payshanba kuni kechki ovqatga taklif ham qildi. O'sha kuni ko'shk hovlisida kechki ovqatni birgalikda tanovul qilib, yangi uy uchun o'n ming lirani berishni ham o'ylab qo'ydi.

Madam Nikolaki dasturxonga nafis taomlar qo'ydi. Mediha ular bilan bir-ikki soat suhbatlashib o'tirgach, birgalashib Beshiktosh

bandargohiga keldilar. Madam Medihani "Korichakim"[1] deya erkalab bag'riga bosdi va yonoqlaridan o'pib xayrlashdi.

Mediha kemada uyga qaytar ekan, o'ylardi: hozir xususiy darslari davom etar ekan, bu yerda yashashi imkonsiz. Ammo, agar Shahnoz bilan bir uyda yashashning iloji bo'lmasa, u holda Munirning onasini ham olib, bu uyga ko'chishga majbur bo'lib qolishi mumkin. Bu yer Texnika universitetiga ancha yaqin, u yerda talabalar ko'p, xususiy darslar tashkil qilish imkoniyati bor. Hatto hozirgi tinglovchilari uchun ham bu yer ancha qulay bo'lishi mumkin. Har holda, Munir bilan Shahnozning yaqinda bo'ladigan nikohlari ko'p narsani belgilashi tabiiy...

O'sha oqshom Medihaning hayotini tubdan o'zgartirishi mumkin edi. U Munirning zinadan chiqayotganda bergan savoliga ham javob bera olmadi. Xonasiga chiqib, eshik ilgagini ildirdi, lekin qanchalik charchagan bo'lmasin, ko'ziga uyqu kelmadi.

Ertasi kuni erta uyg'ondi. Saljuq soat o'n yarimda Angliyaga ketgan bir tinglovchi-talabasining o'rniga Saljuq Adabiyot fakultetidan bir xorijlik talabani boshlab kelgandi. Iltimosiga "yo'q" deya olmasdan, kelasi darsda u talabani tinglovchi qilib guruhga qabul qilishga va'da bergandi.

Tezda kiyinib, darsxonasiga chiqdi. Soat to'qqizda Munir paydo bo'ldi. U kerakli kitoblarini stolga yoydi. Darsxonada besh nafar talaba uchun beshta stul tayyorlab qo'yilgandi.

— Chorasoz sendan qarz olgani keldim. Menga anchagina pul kerak.

— Nikoh uzugi olsang kerak-da, shundaymi?

— Ha, payshanbaga qadar olishim kerak. Payshanba kuni uni olib kelaman. Onamning qo'lini o'padi, sen bilan tanishadi. Kelishib ketishingga ishonaman, o'zi yomon qiz emas...

— Qancha pul kerak senga?

— Hech bo'lmaganda ming lira, ikki ming lira bo'lsa undan ham yaxshi.

— Bunga onangni oldindan ruhan tayyorlab borish kerak. Sen bugun Shahnoznikiga yoki savdogarlarga bor. Ertalabgacha men senga pulni tayyorlab qo'yaman.

[1] **Korichakim** — ital. "qizim" degani.

— Payshanba kuni sen ham shu yerda bo‘lasan shundaymi, Chorasoz?

Mediha soatiga qarab:

— O‘sha kuni Nikolakilarni mehmonga chaqirganman. Agar ular kelmasdan olib kelsang, men onangning xonasida bo‘laman. Balki hovlida mehmonlarga dasturxon tayyorlayotgan paytimda olib kelarsan. Shunda Shahnozni men ham tabriklagan bo‘lardim.

Yo Rabbim, bu qiz insonmi, yoki farishta?! Yo‘q bu inson qiyofasidagi farishta!..

— Aqldan ozgansan, demoqchimisan?

Aqldan ozgan menman, Chorasoz, beldan yuqoridagi ishq-muhabbat bilan, beldan quyidagi nafsni ajrata olmay qolgan bir gumrohman.

— Sen bor, endi. Kech qolma, mening ishim ko‘p, xalaqit beryapsan, — dedi Mediha.

Shu onda Mediha hamma narsani, hatto o‘zini ham unutgan, kampirga bu hodisani tushuntirishning yo‘llarini o‘ylab boshi qotgan edi.

Tinglovchi talabalari xonaga kirib joylarini egallashgach, u yangi kelgan talaba bilan yaqindan tanishdi, bilim saviyasini yuzaki bo‘lsa-da sinab ko‘rdi. Yangi talaba boshqalarga qo‘shilib o‘qib ketishi mumkin edi. Mediha undan ingliz adabiyotidan qaysi adiblarning asarlarini yaxshi ko‘rishini so‘radi. U “Shekspir” deyishi bilan Mediha o‘tirgan joyidan “Hamlet” tragediyasidan parcha o‘qiy boshladi.

“Yo hayot, yo mamot. Mana masala nimada!” so‘zlari bilan boshlanadigan mashhur parchani o‘qir ekan, o‘z hayotidagi eng chigal jumboqni yechishga harakat qilayotganga o‘xshadi. Aytayotgan so‘zlari uning qalbidan qaynab chiqayotganga o‘xshardi. Dars tugashi bilan yuqori qavatga kampirning yoniga ovqatlanishga chiqdi. U kampir bilan o‘zini majburlab xursand ko‘rsatishga urinib gaplashdi. Chunki Munirning onasi o‘g‘lining hayotida juda jiddiy o‘zgarish ro‘y berishini sezganga o‘xshardi.

— Nima deysan, Chorasoz qizim, men Munirning xatti-harakatlaridan shubhalanyapman. Yana bir xotinga ilakishib, aql-u hushini yo‘qotganmi deb qo‘rqaman?

— Onajon, bu safar vaziyat juda jiddiyga o‘xshaydi. Sizga bir gap aytmochiman. Munir iste’fodagi zobit — poshshoning qiziga uylanmoqchi.

— Senchi, sen nima qilasan?

— Men shu yerda qolaman. Men bilan hech qanday muammo bo‘lmaydi.

— Chorasoz, qizim, agar sen ketar bo‘lsang, yuz kelin olsam ham sening o‘rningni bosa olmydi.

— Qasam ichib aytamanki, sizni tashlab hech qayoqqa ketmayman. Umrbod sizning qizingiz bo‘lib qolishga so‘z beraman.

Kampir Medihaning bo‘yniga osilib ho‘ngrab yig‘lab yubordi.

— Onajon, sizdan bir iltimosim bor.

— Qizim, senga jonimni berishga ham tayyorman.

— Munir juda xafa. U uylanmoqchi bo‘layotgan qiz ham juda go‘zal, ham odobli, aql-u hushi joyida.

— Qizim, men tushunmay qoldim, sen bu gaplarni menga xuddi Munirning singlisi yoki opasi kabi gapiryapsan.

— Gapingiz to‘g‘ri, lekin rostdan ham bir tomondan qaralsa, Munir mening akamdir. Men uning xafa bo‘lishini hecham istamayman, men faqat uning baxtli bo‘lishini istayman. Bo‘lajak kelinингiz payshanba kuni qo‘lingizni o‘pgani keladi. Agar meni izzat qilsangiz, xafa ekanligingizni ularga aslo sezdirmaysiz. Bu mening sizdan yagona o‘tinchim. Agar mehmonlarim bo‘lmaganda o‘zim ham o‘sha yerda bo‘lar edim. Endi siz damingizni oling, onajon. Hozir tinglovchilarim kelishadi, darsim boshlanishi kerak.

Mediha shu so‘zlar bilan kampirni xuddi yosh bolani ovutganday silab-siypab yotog‘iga yotqizdi. O‘sha kecha kampir o‘g‘liga aytish uchun tayyorlab qo‘ygan gina-kuduratli gaplarini o‘g‘liga aytmadi.

Munir o‘sha oqshom savdogarlar bilan birga ovqatlangandi. U onasining xonasiga kirib kelganida Mediha ham o‘sha yerda edi. Onasi bilan Medihaga qarab, nima uchun bu besh kunlik dunyoda mana shunday ikki go‘zal ayol bilan qanoatlana olmayotganini o‘ylab boshi qotmoqda, onasini chalg‘itishga urinar ekan, ko‘zlarini Medihaning go‘zal yuzidan ayira olmasdi.

Mana, nihoyat, kutilgan payshanba kuni ham keldi. Hammaning ichidagi xavotir va huzursizlikning tashqariga otilib chiqishiga monelik qilayotgan qudratli narsa — Medihaning irodasi edi. Ammo nimagadir Medihaning ko'zlarining osti qoraygan, lablarining chetida mayda chiziqlar paydo bo'la boshlagan edi.

Payshanba kuni ertalab soat o'nlarda Mediha hovlida Nikolakilar uchun dasturxon tuzar ekan, hovli darvozasidan Munir bilan Shahnoz birgalashib kirib kelishdi. Shahnozning yuzidan sal cho'chiyotganligi sezilib turar, o'zining qanday qarshi olinishini taxmin qilolmay halak edi.

Munir uni ilk bor Medihaning yoniga boshlab keldi va tanishtirdi:

— Mana mening onam va bizning haqiqiy "Chorasoz"imiz. U sening ham opang va dardinga darmoning, mushkulingga chorang bo'ladi, Shahnoz, — dedi u so'zlariga alohida urg'u berib.

Shunda Mediha Shahnozni shunday samimiy quchoqlab bag'riga bosgancha tabrikladiki, Munir o'la-o'lguncha Medihaning bu harakatini unutmasa kerak. Medihaning bu harakati Shahnozning ham qalbi va yuzidagi butun qo'rquv, hadik va shubhalarini tarqatib yuborgan bo'lsa ajab emas...

— Sizni opa deb chaqirsam maylimi?

— Mayli, opa deyavering.

— Birpasdan keyin otam bilan Sabiha opam birga kelishadi. Qaynonam bilan gaplashishadi. Otamning qalblarida mehr-muhabbat uyg'onishiga ishonaman.

— Siz shu yerda o'tirib turing. Men qaynonamni keksa zobitni kutib olishga munosib tarzda kiyintiraman (kulib). Mutlaqo bir ro'mol kerak bo'ladi, o'rashga...

Mediha ularni hovlida qoldirib o'zi yuqoriga chiqar ekan qalbining tub-tubida qandaydir bir yarador qush tipirchilaganday bo'ldi...

Kampirning boshiga bir oq ro'mol o'radi. Bir kursiga o'tqazib yana chopib hovliga chiqqanida keksa zobit, ya'ni poshsho Sabiha xonim bilan qo'ltiqlashib hovliga kirishgan edi.

— Xush kelibsiz, poshsho hazratlari. Hammamiz birga yuqori qavatga chiqsak, nima deysizlar?

Mediha shunchalik tabiiy, shunchalik samimiy gapirar ediki, poshshoning ko'nglida bu ayolning Munirning shar'iy xotini bo'lganligi bilan bog'liq ba'zi-ba'zida paydo bo'lgan shubha-yu hadiklari batamom yo'qoldi.

— Biz biroz vaqt siz bilan o'tirsak, ular o'zlari bu yoqqa kelishsa, nima deysiz?

Mediha Sabiha xonimga ham salom bergandan keyin stullarni ko'rsatib, o'tirishga taklif etdi. Keksa poshsho Mediha bilan o'n daqiqacha gaplashgach, shunday dedi:

— Oh, mening ham shunaqa "Chorasoz" qizim bo'lishini istardim. Qizim biz xonim afandi bilan o'tirib suhbatlashib olgunimizcha siz Sabihaga kelin-kuyov uchun qaysi xonalar ajratilganini ko'rsatsangiz minnatdor bo'lar edim. Dushanba kuni nikohdan o'tishlari bilan ular Oqdengizga[1] sayohatga chiqishadi. Nima bo'lgandayam asal oyi degan nomi bor.

— Albatta, yuqoridagi qavatda Munirning onasi yashayotgan xonaning ro'parasidagi ikki xona ayni muddao bo'ladi. Men hoziroq sizlar bilan birga chiqaman. Chetdagi xona yuvinish xonasi vazifasini bajaradi. Hammasini tayyorlab qo'yamiz.

U shunchalik tabiiy, shunchalik samimiy gapirar ediki:

— Poshshom, bugun meni ko'rgani aziz mehmonlarim kelishmoqchi, biz hovlida toza havoda o'tirmoqchimiz, ammo men yuqorida sizlar o'tiradigan xonadan ham xabar olib turaman, xafa bo'lmaysiz.

Hozir hamma yuqori qavatda, kampirning yonida edi. Mediha, Sabiha xonimga xonalarni birma-bir ko'rsatgandan keyin o'zi mehmonlar uchun tuzaladigan stolni tayyorlash uchun pastga tushib ketdi.

Ha, hayot shunaqa narsa, u insonga o'z o'qlarini otadi, inson esa bu o'qlarga ko'ksini tutib beradi. O'qlar yurakka, jigarga kelib sanchilaveradi. Allohim, ichimdagi dardim naqadar og'ir... Ammo nima uchun?..

O'shanda imom ularni shar'iy nikohdan o'tkazayotganda bundan keyin ularning bir-birlariga bo'lgan munosabatlari tamoman erkin bo'lishiga kelishib olishmaganmidi? Mabodo, Mediha ham

[1] **Oqdengiz** — O'rtayer dengizining turkcha nomi.

boshqa bir erkakni sevib qolsa, Munir ham bunga qarshilik qilmasligiga kelishib olishmaganmidi?!

"Falakning dard-u g'ami ham, quvonch-u shodliklari ham shunday kelib, shunday ketadi". O'sha kuni ham shunday bo'ldi. Ko'shk hovlisiga qo'yilgan stol atrofida Nikolakilar bilan juda samimiy suhbat bo'ldi. Faqat uning uchun Yulduzdagi uyning bir qavatini sotib olish uchun tayyorlangan o'n ming lira endi sakkiz mingga tushgan, shanba yoki bozor kuni Mediha u pulni olib borib berishi kerak edi.

Mehmonlar ketishgandi. Ovqatdan keyin Mediha Nikolakilarni yuqoriga kampirning yoniga ziyoratga olib chiqdi. Zinadan chiqayotganlarida Yulduz mahallasidan sotib olinayotgan qavat haqida so'z ochmaslikalarini iltimos qildi. Munirning onasi bilan Nikolaki xonim quyuq suhbat qilishdi. To choy damlangunga qadar suhbatlashib o'tirishdi. Yangi qurgan oilasi davrasida taomlanib bo'lingach Munir Nikolaki afandining yoniga keldi va u bilan samimiy suhbatlashib o'tirdi. Nikolaki afandi bir muhim masala yuzasidan Munirdan maslahat oldi. Bundan keyin shirkat faoliyati bilan bog'liq masalalarda Munirdan maslahat olib turadigan bo'ldi. Nikolakilar uylariga qaytar ekan Munirlarni ham mehmonga taklif qilishni unutishmadi. Nikolaki afandi "Sizning ijarachingiz va do'stingiz Mediha xonimning bolaligi o'sha yerda o'tgan" deya gapni davom ettirar ekan, Medihaning bolaligi haqida ham ayrim xotiralarni eslab o'tdi. Demak, Mediha dunyoga "Chorasoz" bo'lib kelmagan, keyinchalik hayotning o'zi uni "Chorasoz"ga aylantirgan edi... Munirning ko'zlari yoshlandi.

Ikki xotinli uy

Ikki hafta mobaynida Sabiha xonim Yashil ko'shkka kelib-ketib turdi. Mediha bilan birga yuqoridagi xonalarni qayta jihozladilar. Mediha nima qayerda turishi kerakligini aytib turdi. Ikki xona yonidagi kichik bir xona yuvinish xonasi qilib jihozlandi. Garchi birinchi qavatda hammom bo'lsa-da, kelin-kuyovlar pastki qavatga tushib-chiqib yurmasliklari uchun ikkinchi qavatda ham yuvinish

xonasi jihozlangandi. Bu ishlarda Saljuq ham Medihaga yordam berib turdi.

Rasmiy nikoh o'qiladigan kun arafasida Mediha Munirning sayohatga borganda olib yuradigan sumkasini tayyorladi.

O'sha kunlar Mediha imkon qadar Munir bilan yolg'iz qolish va u bilan suhbatlashishdan o'zini tiyishga harakat qildi. Biroq uning xatti-harakatlarida do'stlik munosabatlari saqlanib qolmoqda edi. O'sha kunlar Munirnig qaynotasi ham ko'shkka serqatnov bo'lib qolgan, agar Medihaning darsi bo'lmasa u bilan soatlab suhbatlashishdan rohatlanadigan bo'lgandi.

— Bizning kelin-kuyovlar sayohatga ketishganda biznikiga bir kelib ketsangiz bo'lmaydimi, Chorasoz xonim?

— Bosh ustiga, poshshom.

Endi ma'naviy mas'uliyat va odat faqat Munirning onasi bilan chegaralanib qolmayotganga o'xshar, Shahnozning otasi tomonga ham qarab ketayotgandi. Munirning onasi nikohga bora olmayotgani uchun Mediha ham o'sha kuni uyda kampir bilan birga qolishi kerak edi.

Rasmiy idorada nikohdan o'tganlaridan keyin Munir bilan Shahnoz Galata portiga Oqdengiz kemasi kayutasida sayohat uchun oldindan band qilingan joylariga kirdilar. Shahnoz kelinlik libosi bilan darvoza oldida tizilib turgan izvoshlarning birinchi turganiga minishdan oldin Munirning onasi bilan xayrlashish uchun uning yoniga keldi. Mediha unga yo'lda zerikib qolsa o'qishi uchun bir nechta kitob hadya qildi. Mediha Munirga ham yangi ko'ylak va pijama olgandi.

Kelin-kuyovlar ketishi bilan Mediha tinglovchi talabalari bilan darsini boshlab yubordi. Hatto yangi kelin talabaning ko'zi oldida Medihaning qo'lini o'pdi.

O'sha payt Munir yuragiga bir o'q kabi sanchilgan gunoh hissini tuyib, o'zicha seskanib ketdi...

Mana, o'sha kun ham birpasda o'tdi ketdi...

O'sha oqshom Mediha Munirning onasini o'rniga yotqizayotganida shunday dedi:

— Onajon, bizning yosh kelin-kuyovlar Oqdengizdan qaytganlaridan keyin men ham Nikolakilarnikiga borib bir hafta ta'til

qilib, dam olmoqchiman. Sizga Munir bilan xotini bir hafta qarab turishar... Opasi esa kechqurun siz bilan birga o'tiradi, zeriktirmaydi sizni.

Shunda kampir Medihaning ilk haftada uyda bo'lishni xohlamayotganini tabiiy hol deb hisoblasa-da, xuddi yosh boladek yig'lab yubordi.

— Boraqol, qizim, meni o'ylama. Faqat shuni bilki, bu uy sensiz uy bo'lmaydi, parishon holga keladi.

— Hech nima bo'lmaydi, onajon. Hammasi yaxshi bo'ladi. Men Xushqadam opaga bir haftalik yumushlarni tartib bilan yozib beraman. Men qaytgach, sizga ham, menga ham yangi kelin qaraydi.

Haqiqatan ham, Munir bilan Shahnoz qaytib kelishgan kun Mediha Nikolakilar bilan bir necha soat avval Shilaga[1] sayohatga ketgan edi. Medihaning bu sayohatidan hali Munirning xabari yo'q edi. U Shahnoz bilan katta xonimning qo'lini o'pib xonadan chiqayotganlarida xonim birdan o'g'lini to'xtatdi:

— Munir, Chorasoz bugun bir haftalik ta'til olib, Shilaga dam olgani ketdi. Endi bir hafta menga o'zing qaraysan, o'g'lim, — dedi.

Munir kutilmagan xabardan hayron, nima deb javob berishni bilmay turib qoldi. Keyin:

— Ammo menga hech nima demagandi.

— Nega endi senga bir nima deyishi kerak? Sendan ruxsat so'rashga majburmi u?

— Albatta, sizdan ruxsat so'rabdi-ku, shuning o'zi kifoya. Men hozir, ust-boshimni almashtirib kelaman.

Oqdengiz sayohati bu yangi kelin-kuyov uchun haqiqatan ham asal oyi bo'lgan edi. Ikkalasining ham sevinchi ichiga sig'masdi. Biroq Yashil ko'shkka kirishlari bilan Shahnoz o'zini xuddi toza havo, charaqlagan quyoshli go'shada yurib keyin zax uyga kirgandek his qila boshladi. Munirning ham kayfiyati hovliga kirishi bilan o'zgardi, ammo undagi o'zgarish boshqacha edi. U xonasiga kirib ust-boshini almashtirgach onasining xonasiga ketayotganini Shahnozga aytdi. Shunda Shahnoz:

— Ha qayoqqa, Mediha opamizning xonasi yopiq baribir, nima qilasan u yoqqa borib, — dedi.

[1] **Shila** — Turkiyadagi xushmanzara shaharcha.

— Ha, xabarim bor, u Shilaga dam olishga ketibdi. Endi onamga ikkalamiz qarab turamiz Mediha kelgunga qadar.

— Rosa vaqtini topibdi-da... Men ozgina dam olib, keyin otamni ko'rgani boraman. Sen men bilan bormaysanmi?

— Sen borib kel, men keyin boraman.

— Endi navbatchilik qilamizmi?

— Bizning Chorasozimiz bo'lmasa, onam juda asabiy bo'lib qoladi. Uni yolg'iz qoldirib bo'lmaydi.

Shunda Shahnoz ichida "Chorasozning ishongan tog'i onang bo'ladi" — dedi, ammo bu fikrini yuzaga chiqarmadi. Biroq o'n besh kun charaqlagan quyoshli kunlar o'tib, bulutli kunlar boshlanayotganini his qila boshladi. Garchi har qanday juft qanchalar baxtli bo'lmasin, o'z fe'l-atvorlari, mijozlariga ko'ra bir xil bo'lishlari mumkin emas edi. Ha, ular baribir ikki inson, tanlari boshqa... Shu bois turli bahs-munoqashalarning yuz berib turishi tabiiy hol edi. Ammo bu juft haqida gap ketganda ular orasidagi kelishmovchilikning yagona sababi — Chorasoz, ya'ni Mediha edi. Ha, ularning orasida qudratli, shahlo ko'zli uchinchi shaxs — Chorasoz bor edi...

Munir asal oyi sayohatidan qaytib, uyga kirganida Chorasozni uchratmadi. Shunda butun ko'shk uning ko'ziga huvillab qolganday tuyuldi. Bundan tashqari, Chorasoz bo'lmasa uy yumushlarining bir maromda yurishi ham mumkin bo'lmay qolgandi-da...

Ularning hayot deb atalgan izvoshlariga boshqa bir ot qo'shilgan, boshqa yo'ldan borayotgan izvoshning harakati bir tekisga o'xshamasdi. Shahnoz nimagadir so'nggi paytlarda sog'ligidan tez-tez shikoyat qilayotgan otasining uyiga, yoki bo'lmasa uydagi xarxashali vaziyatlardan ozgina bo'lsa-da qutulish uchun savdogarlar yoniga tez-tez boradigan bo'ldi. Bu hafta oxiriga kelib Munirning ham mehnat ta'tili tugamoqda, u ham faqat onasi haqida o'ylar, ikkinchi tomondan Medihani o'ylardi. Chunki u nafaqat bu ko'shkni, balki o'z hayotini Medihasiz tasavvur ham qila olmasdi, uni sog'inardi. Har safar Medihaning yopiq eshigi oldidan o'tayotganida ichida bir nima uzilgandek bo'lar, ko'nglida yig'ilib qolgan dardlarini baham ko'rish uchun dardkash yo'qligidan o'rtanayotgan edi. U bozor kuni Medihaning kelishini poylab o'tirdi. Yuvinib, soqol olar ekan bir-ikkita mashhur qo'shiq-

larni ming‘irlab xirgoyi ham qildi. Bu orada Shahnozga ham hazillashib qo‘ydi. Ammo bu hazili Shahnozga yoqmadi, hatto uni shubhaga solib qo‘ydi. Chunki so‘nggi paytlarda Shahnoz har narsaga e’tibor beradigan, bo‘lar-bo‘lmasga achchiqlanadigan bo‘lib qolgandi.

Keksa xonim esa yotgan joyidan tinmay Medihani chaqirar:

— Chorasoz, qizim, Chorasozim, — deya nola qilardi.

O‘sha kuni kech kirsa-da Medihadan darak bo‘lmadi. Ona-o‘g‘il xavotirlanib, kayfiyatlari buzila boshladi. Vaqt allamahal bo‘ldi. Munir uxlay olmadi, onasidan xabar olishini bahona qilib, xonasidan chiqdi, ammo qaytib kirgisi kelmadi. Dahlizda, yo‘lakda, hovlida aylanib yurdi. Qani endi Mediha kela qolsa-yu stoli ro‘parasiga o‘tirib ichida yig‘ilib yotgan dardlarini unga to‘kib solsa...

Ertasi kuni ertalabdan yana tayyorgarlik va kutish boshlandi. Mediha emas, uning o‘rniga pochta orqali uning imzosi qo‘yilgan bir maktub keldi. Mediha o‘z maktubida yana uch-to‘rt kun u yerda qolishi, yangi asarini yozish uchun u yerda jonli mavzu chiqib qolgani, onasiga qarab turishlari, uning o‘rnini bilintirmasliklarini so‘ragan edi.

O‘sha kuni kechqurun ko‘shkka Saljuq keldi. U ham ikki kunga Shilaga borgan edi. U yerda Medihaning juda xursand ekanligi, sog‘ligi ham joyidaligini aytdi. Munir tishlarini g‘ijirlatib, aytdi:

— O‘lib ketsin, bizni tashlab o‘zi maza qilib dam olayotgan ekan-da... Biz bo‘lsa bu yerda kutib o‘tiribmiz, gunoh emasmi bu?..

Payshanba oqshomi bog‘dagi yashil o‘simliklar, gullarni oymomo oppoq nuri bilan yoritgan mahal Munir bog‘da daraxtlar tagida aylanib yurardi. Shahnoz ham erining Medihani kutib turganini sezib, Xushqadamning xonasi derazasidan turib uni zimdan kuzatib turardi. Nihoyat bir izvosh kelib darvoza oldida to‘xtadi. Egniga lojuvard kastum kiygan Mediha qo‘lida sumkasi bilan ichkariga kirdi. Munir chopib kelib uning bo‘yniga osildi. Erining bunday xohish va hayajonini derazadan kuzatib turgan Shahnoz o‘z-o‘ziga “imom nikohli yoki nikohsiz bo‘ladimi, bu xotin mutlaqo Munirning sevgilisi” deb o‘ylanib qoldi. Munir Medihaning sumkasini

olib ikkinchi qo‘li bilan uni qo‘ltiqlagancha ko‘shkka tomon yetaklaydi. Borar ekan:

— Seni kelasan deb biz ovqatimizni ham yemadik. Qani dasturxonga, — dedi Munir.

— Yo‘q, oldin onamni ko‘raylik, keyin, — dedi Mediha.

Mediha kalitini olib xonasini ochdi va sumkasini u yerda qoldirib, ohu kabi yengil qadamlar bilan yuqori qavatga Munirning ortidan chiqib ketdi.

— Sendan iltimos, xonangda sen bilan ikki og‘iz gaplashib olaylik, — dedi Munir.

Mediha uning so‘zlariga javob ham bermasdan yuqoriga chiqib borar ekan, Xushqadamning xonasidan chiqayotgan Shahnozga ro‘para keldi. Shahnoz birdan Munirni qo‘ltiqlab oldi.

— Bu qanday ko‘ngilchanlik, rahm-shafqat, sudya janoblari, bunaqa fe’l-atvor sizning kasbdagi kishilarga yarashmaydi, sizlarga sovuqqonlik ko‘proq yarashadi.

— Ammo bizning Chorasoz qizimiz kelganida uni rashk qilma, uning o‘rni boshqa, seniki — boshqa... U bir singil, ma’naviy do‘st...

Shunda Shahnoz gapni bo‘ldi:

— Unda men kimman?

Munir birdaniga unga o‘girilib, uning qo‘llarini kaftiga qo‘ydi:

— Sen mening sevgilimsan, nozanin, go‘zallar shohisan, — dedi va quchoqlab yuqoriga chiqardi.

Shahnoz eng chigal insoniy munosabatlar girdobiga tushib qolganini anglasa-da, yuqorida takror-takror aytilgan asal oyi mavzusining Mediha bilan bog‘langani uning ichini kemirardi.

Hozir Mediha kampirning xonasida o‘tiribdi:

— Onajonginam, onajonim...

— Chorasozim, Chorasozginam...

Xullas, ikkalasi rosa apoq-chapoq... Shundan so‘ng Mediha kampirning xonasidan chiqib, Xushqadam opasini chaqiradi:

— Opa, siz ularga ovqat suzing, men ovqatimni onam bilan birga yeyman.

Sal vaqt o‘tib Munir bilan Shahnoz kelishdi. Mediha Shahnozning sovuq muomalasini sezsa-da, buni atrofga sezdirmasdan u

bilan quchoqlashib, o'pishib ko'rishdi. Shahnoz zaharxanda bilan kulib:

— Munirning bo'salariga javobni mening yanog'imdan beryapsanmi?

— Ha, Shahnozginam, uyimni shunchalar sog'indimki, kel seni bir o'pay!

Onasi qo'lida patnis ko'targancha ichkariga kirdi. Shahnozga qarab:

— Sizning ovqatingiz dasturxonga qo'yilgan, — dedi.

Ular pastga tushishgach, Mediha katta xonim qanchalar ozib ketganligini sezib qoldi. Demak, agar Mediha bo'lmasa kampir yashay olmaydi.

— Onajon sizni hech qachon tashlab ketmayman. Hatto o'g'lingiz va kelinlingiz oldingizda bo'lsa ham, sizni ularga tashlab qo'ymayman, — deb kampirni ovutgan bo'ldi.

Umuman olganda, endi Yashil ko'shkdagi hayot chig'iriqdan chiqqan edi. U yerda hayot nimagadir eski intizomli holatiga qayta olmayotgandi. Biroq, baraka topsin, Mediha kelgandan keyin oradan yana ikki kun o'tib, ya'ni shanba kundan darslarini boshladi. Ayni paytda, fursat topildi deguncha, Shilada kechalari "Bir baliqchining hayoti" deb nomlangan hikoyasini yozayotgan edi. Haqiqatan ham u o'sha yerda bir baliqchi bilan do'stlashib qolgandi. Asl qoradengizli bo'lgan bu xushmuomala odam ba'zan dengiz sohilida, ba'zan esa qayig'iga o'tirib o'z hayoti haqida Medihaga so'zlab berdi. Mediha baliqchi va uning sevgilisi haqida yozmoqchi bo'ldi. Uylangan, bola-chaqali baliqchi bir qizga oshiq bo'lib qoladi. Biroq qizni unga berishmaydi. U rosa qiynaladi, qizni olib qochishning ming xil yo'lini axtaradi...

Ikkinchi tomondan Mediha oilaning boshqa a'zolariga xotirjamlik baxsh etish bilan birga, Shahnozning hayotini ostin-ustun qilishni boshlagan edi. U erining yonida uxlab yotganida, eri o'rnidan asta turib xonadan chiqar, asta-asta qadam bosib pastki qavatga tushar edi. Shahnoz ham erining orqasidan poylab oyoq uchida birinchi qavatga tushar, Medihaning eshigiga qulog'ini qo'yib ichkarida nima haqda gapirilayotganini eshitmoqchi bo'lardi. Bir kuni shunday bir vaziyatda u eshikni "sharaq" etib ochib, ichkariga

bostirib kirdi. Ichkarida stol ustidagi elektr chirog'i nurida Mediha bir nimalar yozar, Munir esa uning ro'parasida o'tirgancha tomosha qilayotganday unga mahliyo bo'lib o'tirardi. Shunda xotinini ko'rib nima qilishni bilmay shoshib qolgan Munir birpas turib o'ziga keldi va:

— Kel, Shahnoz, sen ham o'tir. Mediha bir roman yozayotgan ekan, — dedi, aytishga boshqa so'z topolmagach.

Mediha esa Shahnozni ko'rishi bilan birdan o'rnidan turdi:

— Iltimos, Shahnoz eringni olib ket, borib yotinglar. Sizlar menga faqat xalaqit berishingiz mumkin, fikrlarim bir joyga to'play olmayapman, iltimos, — dedi.

O'sha kechadan boshlab Munir Medihaning xonasiga tushmaydigan bo'ldi. Lekin baribir, tunlari uyqusi qochib ketardi. Bu holat yana uch oy shu taxlit davom etdi. Shahnoz tez-tez behuzur bo'lar, ko'ngli aynir edi. Bu albatta tabiiy holat, Shahnozning homiladorligi alomatlari edi. Bundan tashqari Shahnoz so'nggi paytlarda ancha asabiy bo'lib qolgan, har narsaga jahli chiqib ketaverardi. Keksa xonim bu vaziyatni yaxshilikka yo'yar, hatto yaqinda nabirali bo'lish umidi kampirning Shahnozga bo'lgan munosabatini ham ancha iliqlashtirgan edi. Mediha ham bunday vaziyatdan unumli foydalanib, pastda ko'ngli xotirjam, tinchgina yumushlarini qilib yurar edi. Ammo nima bo'lganda ham kampir Medihasiz yashashini tasavvur qilolmasdi. Uni yoniga chaqirar, kelgach, imkon qadar ko'proq ushlab turishga harakat qilar edi.

Munir esa har doim ikki qavat orasida bo'layotgan voqea-hodisalardan ko'z-quloq bo'lib turar, Medihaning yuqoriga chiqayotganini sezar-sezmas Shahnozni yolg'iz qoldirib zudlik bilan onasining xonasi tomon yo'nalardi. Shahnoz esa bunday paytlarda Munirga qarab tishlarini g'ijirlatib:

— Pastda xonasiga kirgizmaydi, deb yuqoriga chiqishi bilan o'zingni yo'qotib qo'yayapsan, — deb baqirar, Munir esa unga javoban:

— Har doim ko'ngli aynib, o'qchib qusib yotgan xotinning yonida qimirlamasdan o'tirish osonmi? Men ham insonman, sening bu ahvolingni ko'rib ko'nglim behuzur bo'lib ketyapti, — deya xonadan chiqib ketardi.

Nihoyat, bir kuni doktor Xayriddin katta xonimdan xabar olgani kelganida Shahnozni ham muoyana qilgan, uni mutlaqo bir ginekolog ko'rishi kerakligini aytgan edi. Shundan keyin mutaxassis doktor kelib Shahnozni muoyana qilgach, bola tezda amaliyot yo'li bilan olinishi kerakligini tayinlagandi. Shahnoz bunday ahvolga tushishiga Mediha aybdorligini da'vo qilib to'polon ko'targandi. Ayni paytda Munirning ota bo'lish ehtimoliga nisbatan loqaydligi va xotinining yonida kam bo'lishi Shahnozning ichidagi shubha-yu gumonlarni yanada kuchaytirmoqda edi. Nihoyat Shahnoz amaliyot uchun "Zaynab Komil" kasalxonasiga yotqizildi. Kasalxonada yolg'iz qolgan Shahnozning xayoliga uyda yuz berishi mumkin bo'lgan bo'lar-bo'lmas narsalar, xususan Munir-Mediha munosabatlari kelar va unga tinchlik bermaṣdi. U Munirning yuziga qarab turib:

— Shu xotinning buyrug'i bilan bolamni oldirding, — deb baqirdi.

Uyga qaytganlaridan keyin, uning Medihaga bo'lgan munosabati yanada yomonlashdi, hatto u bilan gaplashmay ham qo'ydi. Keksa xonim o'g'liga:

— Bitta bolani eplab tug'a olmadi. Agar Chorasozni xafa qilmasayding, shu paytgacha bir etak bola tug'ib berardi, — deb boshini mushtladi, diydiyo qildi.

Yaxshiyamki, Medihani ovuntiradigan xususiy darslari va yozadigan hikoyalari bor edi. Aks holda uydagi vaziyat uni aqldan ozdirishi hech gap emasdi. U ba'zan keksa xonimni ham tashlab bu uydan bosh olib ketish, Nikolakilarning uyiga ko'chishni ham o'ylab qolardi. Ammo bu fikridan o'zi ham uyalar, bu uyda o'n yildan ortiq vaqt yashagan hayoti, uni bugungi insonlar yashaydigan maskanga aylantirish uchun sarflagan mehnati, mana bu o'zi yetishtirgan bog', undan keyin, albatta Munir, ha uni bu yerga ipsiz bog'lab qo'ygan... Mediha bu narsalarni ong ostida chuqur his qilib turar, Munirni abadiyan boshqa bir ayolga bog'landi, deb o'ylagani uchun bu xususda ortiqcha bosh qotirishni xohlamasdi.

Ajabo, agar Munir kasal bo'lib qolsa yoki biron bir falokatga duchor bo'lsa, Shahnoz Mediha qilgan ishni qila olarmidi? Ming shukurki, qo'lidagi roman kitobi, talabalari, keksa xonim va Munirning ba'zi kechalar stol ustida o'qib-yozib o'tirganida kelib

ro'parasiga tiz cho'kishi, uzoq suhbatlashishi unga taskin berardi. Mana salkam ikki yildan buyon boshqalarda ochiq-oshkora bo'lsa, Medihaning qalbida esa yashirin halovatsizlik davom etdi. Mana shu ikki yil so'ngida Shahnoz homilador bo'ldi. Bu davr mobaynida ham moddiy va ma'naviy qiyinchiliklar bo'ldi. Yuzaga kelgan vaziyatlar girdobida inson hamma sirni ham saqlab tura olmasligi tabiiy.

Mediha Shahnozga homiladorligi rivojlanishi jarayonida doktorga ko'rinib, undan kerakli maslahatlarni olishi lozimligini aytdi. Bu Shahnozning miyasida birinchi amaliyotning Mediha bergan tavsiya bo'yicha amalga oshirilgani bilan bog'liq shubhalarini aniq bir ishonchga aylantirdi. Bu safar doktor amaliyot taklif qilmadi. Tabassum bilan:

— Inshaalloh, eson-omon ko'zing yoriydi, — dedi. Shunda Shahnoz yonida turgan eri va uning yonidagi Medihaga xuddi urushda g'alaba qozongan qahramon qo'mondondek qarab qo'ydi. Qanday g'alati holat bu? Munir shu asnoda Shahnozning barcha orzu-umidlarini amalga oshirolmasligini sezib tursa-da, ota bo'lishdek buyuk bir baxtiyorlik hissini tuyishi kerak edi. Ammo bunday emasdi. Shahnozning ikkinchi homiladorligi ko'proq keksa xonim bilan keksa zobitni xursand qilayotgan edi.

Shahnoz ikkinchi bor homiladorlikni boshidan kechirayotgan bir paytda, Mediha shanba oqshomlari keksa xonimdan ruxsat so'rab Nikolakilarning uyiga boradigan, yakshanba kunlarini ular bilan birga o'tkazadigan bo'ldi. Endi u Nikolakilar uyining yuqori qavatiga egalikni o'z qo'liga olgan, uyni jihozlash ishlarini esa Nikolaki xonimning o'ziga qoldirgandi.

Mediha u yerga kelgan bozor kunlari tushdan keyin Munir ham uning orqasidan bu yerga keladigan bo'ldi. Uning ham Nikolakilar bilan munosabati yaxshilanib bordi, ular do'stlashib qolishdi. Mediha ular bilan birga choy ichib bo'lgach, Abbos og'a qo'riqxonasida birga sayr qilishar, undan keyin Munir bilan Mediha o'zlarining Yashil ko'shklariga qaytishardi. Lekin ko'shkka ikkovlari bir paytda kirib kelishmasdi. Munir Medihaga:

— Agar Shahnoz yakshanba kuni vaqtimni sen bilan o'tkazayotganimni bilib qolguday bo'lsa, terimga somon tiqadi, — derdi.

Yangi bir janjal chiqmasligi uchun Munir bozor kuni yo Shahnozning otasi — keksa poshshonikiga, yo savdogarlar yoniga ketardi. Mediha esa uyga qaytishi bilan keksa xonimning xonasiga chiqardi. Bu davrda keksa xonim ham unga nabira olib kelish arafasida turgan Shahnozga nisbatan ancha iliq munosabatda bo'la boshlagandi.

Ammo, afsuski, kampirga nabirani ko'rish nasib qilmadi. Taqdirdan qochib qutula olmagan kampir nabirasi tug'ilishiga bir oy qolganda Yaratganga omonatini topshirdi.

Kampirning o'limi Shahnozga boshqacha, Munir va Medihaga esa tamoman boshqacha ta'sir ko'rsatdi. Aslida, Shahnoz yomon munosabatda bo'lmadi, eriga ma'naviy dastak bo'lish, uni yupatish, ko'nglini ko'tarishga harakat qildi. Shunga qaramay, ayolning miyasining bir chetida kampir vafot etgandan keyin qandaydir mayin hurlik shabadasi esa boshlaganday edi. Shahnoz o'zini zanjiri bo'shashib qolgan qamoqxona mahbusi kabi his qila boshlagandi. Endi Chorasozning Yashil ko'shkda hayotini davom ettirishiga hech qanday sabab yoki omil yo'q edi. Shunga qaramay, Shanoz kampirning vafotidan so'ng Mediha uy bekasi maqomini to'lato'kis o'z qo'liga olishi, ko'shkning mutlaq hukmdoriga aylanib qolishidan xavotirda edi. Demak, endi Shahnoz Medihani saroydan chetlatish uchun eriga sekin-asta ta'sir o'tkazishni boshlashi kerak. Ammo tinglovchi-talabalarchi? Ular Madina qayoqqa borsa o'sha yerga yugurib borishadi-ku!.. Demak bu yoz mavsumi tugaguncha sabr qilish kerak bo'ladi...

Agar ko'shkda qolishning imkoni bo'lmasa, Medihaning Yulduz mahallasidagi uyga ko'chib o'tishi kerak bo'ladi. Talaba masalasini hal qilish qiyin emas. Bu ishni tezroq amalga oshirish kerak. Keksa xonim vafot etganidan keyin Shahnoz uni yo'qotish uchun Munirga tazyiq qilayotgani tayin.

Munirni esa onasining o'limi gangitib qo'ygan, hali ham o'ziga kelolmagandi. Bundan tashqari, Mediha keksa xonim hayot ekan, hech qachon Yashil ko'shkni tark etmaslikka so'z bergandi. Shunday ekan u xohlagan vaqtida ko'shkni tark etishi mumkin. Yo Alloh, Munir Chorasozsiz qanday yashaydi?..

Oradan ko‘p vaqt o‘tmadi, Shahnoza Medihani saroydan siqib chiqarish uchun eriga sekin-asta tazyiq o‘tkazishni kuchaytirdi. Dastavval ko‘shkka Sabiha xonimni olib kelib, ko‘shkni boshqarish ishlarini uning zimmasiga yuklashini aytdi va hokazo, va hokazo.

Xotinining mayin piching gaplari, bunga o‘xshash mavzudagi taklif va tavsiyalarini Munir ancha vaqt eshitmaganlikka olib yurdi. Biroq vaqt o‘tgan sayin Shahnozning ko‘pchilik og‘iroyoq xotinlarga xos injiqliklari, g’ayrioddiy tajovuzkorligi orta boshladi. Mediha chaqaloq uchun kiyimlar tayyorlayotganda unga qarab tishlarini g‘ichirlatgan paytlari ham bo‘ldi. Ba’zan Shahnoz o‘z-o‘ziga:

— Ozgina qoldi, Shahnoz, yaqinda undan qutulasan, — deb qo‘yardi.

Mana Munirning onasi vafot etganiga ham bir oy bo’ldi. Shahnozning ham oy-kuni yaqinlashib qoldi. Mediha esa hali hamon Yashil ko‘shkning hukmdori.

— Nima bo‘ldi, dard boshlandimi? Ammo ko‘zi yorishiga hali salkam bir oy vaqt bor edi-ku?

— Mayli, mayli, kel sen bilan yaxshilab gaplashib olaylik.

— Mayli.

— Mediha opaning bu yerdan ketishi uchun hech qanday sabab ko‘rinmaydi.

— Senga biror zarari tegyaptimi? Aksincha, o‘zining bir talay ishi borligiga qaramasdan, bolaga kiyim ham tikishga ulgurayapti.

— Men u tikkan kiyimlarni bolamga kiydirmayman. Men senga aytib qo‘yay, men tug‘ishimdan avval u bu yerdan tamoman ketgan bo‘lishi kerak.

— Bunchalik shoshilishning hech ham keragi yo‘q. Uy topish kerak. Undan keyin onamning vafot etganiga qirq kun bo‘ladi, mavlud o‘qitishimiz kerak. Buni faqat Mediha tashkillashtirishi mumkin.

Munir bu gaplarni gapirar ekan, Medihaning Yulduz mahallasidagi uyda bir qavatni sotib olganini yaxshi bilar edi. Biroq uning ko‘shkdan ketishini istamas, qancha ko‘p tursa, shuncha yaxshi edi. U hozir ketsa ham qirq kun o‘tar o‘tmas, mavlud o‘tkazaman deb kelib oladi, bilaman. Menga qara Munir, men tug‘ayotganimda

Mediha yonimda bo'lishini istamayman. Birinchi farzandimni ham qornimdaligida o'ldirgan ana shu Mediha bo'ladi. Agar ikkinchi farzandimni tug'ayotgan paytim yonimda bo'lsa, bilaman uni ham borib o'ldiradi, bildingmi?

— Shahnoz sen aqlingni yeb qo'yibsan, mayli xayr, sog' bo'l.

Munir xonadan chiqar ekan Shahnoz uning orqasidan chiqib zinada to'xtadi va baqira boshladi:

— Ha, qayoqqa? Uning xonasiga ketyapsan, shundaymi?

— Ha uning yoniga, faqat uning yonida men o'zimni odamdek his qilaman, dam olaman.

Shu payt Medihaning qulog'iga shovqin eshitildi. U xonasidan yugurib chiqib zinapoyada aytilgan gaplarni eshitdi. Yuqori qavatga qarab chaqirdi:

— Shahnoz behuda xavotirlanayapsan. Men o'n kundan keyin bu yerni tark etaman. Sen, yaxshisi, ko'zing yoriyotganda yoningda turadigan birini top.

Shahnoz ham uning bu gapiga baqirgancha javob berdi:

— Mening ko'zing yoriyotganda yonimda sen bo'lmasang, shunig o'zi kifoya menga. Kim bo'lsa bo'laversin. Sabiha opam bor, nima qiladi menga qaramasdan.

Munir unga taskin berish uchun dedi:

— Shahnoz, o'zingni yig'ishtirib ol, baqirmasdan gapir. Qani endi bor, xonanga kir.

— Bu ayol ko'shkni tark etmaguncha men o'zimni yig'ishtirmayman, baqirib gapiraveraman, — dedi Shahnoz va ovozini yana balandlatdi.

Pastki qavatdan yana Medihaning ovozi keldi:

— Shahnoz, xavotir olma, ikki kun ichida hamma ishlarimni bir yoqlik qilaman-u, ketaman. Xayrli tun, yaxshi dam olinglar.

Shunday deb Mediha o'z xonasiga kirdi va eshigini qulfladi.

Munirni vijdon azobi qiynardi. Ha, Mediha shuncha yil bu oilaga fidokorona xizmat qildi. Oxiriga kelib, bir cho'ri qiz kabi ko'shkdan quvilmoqda.

Munir bo'yniga yopishib olgan xotinini itarib tashladi va pastga qarab yugurdi. Medihaning eshigini taqillatgancha yolvora boshladi:

— Xudo haqqi, Chorasoz, och eshikni! Agar ochmasang, qasam ichamanki, mana shu yerda o'zimni o'ldiraman.

Eshik ochildi va Munir ichkariga kirdi. Endi eshik ichkaridan yopildi. Bu payt Shahnoz o'z yotoqxonasida ho'ngrab yig'lar, shovqin-suronni eshitib chopib kelgan Xushqadam esa uni bag'riga bosib ovutmoqchi bo'lardi.

Ertasi kun ertalab Mediha Nikolakilarnikiga ketdi. Ikki kundan keyin ko'chib kelishi va Nikolakining bir yuk mashinasi topib yuklarini olib kelishini iltimos qildi.

Nikolakilar Medihaning bunday kutilmagan qaroridan hayratda edilar:

— Ti e hi koriçaki mi[1], — deb, undan hammasini batafsil so'zlab berishinini iltimos qildilar.

Medihaning ko'zi oldiga birdaniga otasi bilan Ihlamurda bo'lib o'tgan voqea va undan keyin o'tgan o'n besh yil, chekkan uqubatlari-yu sabr-u qanoati, fidokorliklari birin-ketin jonlandi. U o'z-o'ziga "Mening tepamda insonlar emas, yig'lar malaklar" misrasini bir necha marta takrorlagach, orqasidan yana "Menga devona deb kular insonlar" deb qo'shib ham qo'ydi...

Mana shunday "sahna" davom etar ekan, birdaniga eshik taqilladi. Munir kelgan edi. Eshikni ochgan Nikolaki afandidan ruxsat ham so'ramasdan ichkariga kirdi va borib uy to'rida o'tirgan Medihani quchoqlab oldi.

— Chorasozim mening, bitta sen uchun mingta Shahnoz fido bo'lsin! Agar sen bo'lmasang, men ham bu hayotda yo'qman.

— Munir, xafa bo'lma, ammo men ko'shkka qaytib bora olmayman. Tinglovchi talabalarimga ham keyingi haftadan darslar bu yerda bo'lishini aytgandim. Ishlar bunaqa tezlashib ketishi xayolimga kelmagandi. Sendan iltimosim, ko'shkka keladigan talabalarimga aytib qo'y, ertadan boshlab darsga bu yoqqa kelishsin. Nikolaki amakim bilan madam Nikolaki birga senikiga borishib mening narsalarimni yuk mashinasiga ortib olib kelishadi. Xushqadam opa xonamni, narsalarimni yig'ishtirishda ularga yordam beradi. Sen endi bor, boshqa kelma... Yetar endi...

[1] **Ti e hi koriçaki mi** — ital. "Nima bo'ldi senga qizim" degani.

Mediha gapini tugatar-tugatmas Munir cho'kkalab oldi va boshini qo'llari orasiga olib yosh boladay yig'lay boshladi:

— Sen bo'lmasang, men yashay olmayman. Sensiz yashay olmayman. Shahnoz tug'gunga qadar sabr qilaman, keyin ajrashaman.

Nikolaki amaki ko'zi oldida bo'lib o'tayotgan bu hodisaga lol-u hayron. Bunday vaziyatga cholning bo'lib o'tayotgan narsalarga tomoshabin bo'lishdan boshqa chorasi yo'q edi. Shunchalar salobatli, baquvvat, aqlli, bilimdon sudya yigitning tushgan ahvolini ko'rib lol bo'lib qolgandi. Chunki bu yigitning butun shaxsiy hayoti chigal muammodan iborat edi.

Nikolaki amaki Munirning yoniga keldi va o'rnidan turg'azdi, stulga o'tqazib:

— Sudya o'g'lim, modomiki bizning Medihani shunchalik sevar ekansan, nega unga uylanmading?

— Sho'xlik qildim, ahmoqlik qildim... Boshqa hech narsa ayta olmayman sizga. Boshqa tomondan unga ham oshiq bo'lgandim. U faqat rasmiy davlat nikohiga muvofiq turmushga chiqadigan qiz edi. Oilasi ham shuni talab qilgandi. Holbuki men ayol kishiga ham taloq qilish huquqi beradigan shar'iy nikoh tarafdori edim.

Shu payt gapga madam Nikolaki aralashdi:

— Munirbey, bu qanaqasi bo'ldi? Ayol kishiga ham taloq qilish huquqi beriladimi? Unday bolsa, bizning ayollar har kun ertalab turib erlarini taloq qilib, kechqurun qayta nikoh o'qitish uchun imom qidirishadi-ku!..

Nikolaki amaki Medihaning haqiqiy himoyachisi, haqiqiy amakisiga aylangandi. Chunki u Medihaning otasining ma'naviy vakili, uning ruhi oldida qarzdor edi. U Medihaning boshini silagancha undan so'radi:

— Mediha, qizim, sen o'zing nima deysan?

Mediha javob bermadi. Munir ming'irlagansimon ovozda:

— Ba'zan shar'iy nikohni buzish rasmiy nikohni buzishdan ko'ra mushkulroq bo'ladi. Shaxsan mening irodam bunga ojiz. Agar Chorasozning o'zi buni qattiq turib talab qiladigan bo'lsa, men o'zimni o'ldiraman, vassalom, — dedi.

Munir bu gapni shunchalik qat'iy bir ifoda bilan aytdiki, Mediha g'ayriixtiyoriy holatda Munirning bag'riga o'zini tashladi:

— Munir, bor endi uyinga, men ertaga Nikolaki amakini ko'shkka jo'nataman. Indinga narsalarimni ham bu yerga olib kelishadi.

Shu asnoda Mediha umrining salkam o'n besh yilini bag'ishlagan va deyarli o'zi boshqargan katta ro'zg'ordan ayrilish tuyg'usi ostida ezilmoqda edi:

— Munir, sen yaxshisi Sabiha xonimni uyingga olib kel. Poshshoni ham xabardor qil, Shahnozning ko'zi yorigunga qadar bu yoqqa kechqurunlari kelma. Aks holda bolangga bir nima bo'lguday bo'lsa, mendan ko'rishadi...

Oradan ikki kun o'tdi. Medihaning hamma narsasi Yulduz mahallasiga ko'chirib kelindi. Ilk kunlar juda behuzur bo'lsa-da, yangi sharoitga moslashish, tinglovchi talabalari bilan dars qilish, hatto hikoyalarini yozishni ham kanda qilmadi.

Munir esa adliya boshqarmasidan chiqiboq Yulduz mahallasiga kelar, u yerda ovqatini yeb, keyin uyiga ketar edi. Yashil ko'shkda Shahnozning yonida endi Sabiha xonim va keksa poshsho otasi bor edi. Keksa poshsho qizining qilgan ishini ma'qullamasa-da, bir ota sifatida uni himoya qilar, kecha-yu kunduz uning kelajagini o'ylardi. Bu masalani Munir bilan jiddiy bir shaklda gaplashib olishni Shahnozning ko'zi yorib, farzandini bag'riga bosgandan keyingi davrga kechiktirdi.

Mana bir oy ham o'tdi-ketdi. Shahnoz qiz farzand ko'rdi. Biroq Munir Shahnoz bilan ham, qizi bilan ham keragicha mashg'ul bo'la olmayotgandi.

Oradan yana o'n kun o'tib, Munir bir kechani ko'shkda o'tkazsa, bir kechani Yulduzda, Medihaning uyida o'tkazadigan bo'ldi. Mediha ham endi Munirga "Chorasoz"lik qilmas, uning haqiqiy xotini kabi yashashni boshlagandi. Bu holat ham bir oycha davom etdi. Keksa poshsho Munir bilan juda jiddiy gaplashib olishga qaror qildi:

— Munirbey, sizning turmushingiz ham bir zamonlardagi kabi ikki xotinli qozilarnikiga o'xshab qoldi. Bilaman, Chorasoz kabi bir ayoldan ayrilish oson emas. Faqat siz bir qarorga kelib ikki yo'ldan

birini tanlashingiz lozim. Shu narsaga amin bo'lingki, o'g'lim, men sizning Chorasozga bo'lgan sadoqatingizga qoyilman, qizimning fe'l-atvori esa menga ham yoqmaydi. Shu bilan birga buni hayot deydilar, o'g'lim. Bunday sharoitda, ayniqsa siz kabi bir sudya odam uchun bu tutumingiz ma'qul emas.

— Haqqingiz bor, poshshom. Buni avvalo Shahnoz bilan gaplashishimiz lozim. Qani ko'ramiz, u nima deydi. Taassufki, Shahnozga bo'lgan sevgimni yenga olmadim. Uni mana shunday yomon ahvolga soldim. U xohlagan payt bu masalani bahamjihat hal qilishimiz mumkin.

Poshsho qizi bilan gaplashganda uning Munir bilan ajrashmoqchi emasligini angladi. Ozgina kutishi kerak edi. Munirni yana o'ziga nisbatan mehr uyg'otib, o'zgartirishni o'ylardi...

Oradan salkam bir yil vaqt o'tdi. Shahnoz erining ilk kunlardagi sevgi-muhabbatini qayta tiriltira olmasligiga ishonch hosil qildi.

Munir ko'shkda ko'p ham o'tiravermasdi. Uni Yulduz mahallasi ko'proq o'ziga tortar, Mediha uning ko'z o'ngida butkul boshqa ayolga aylangan, uning aql-u hushi, ruhini tamoman asir etgan edi. Ha, Shahnozdan ajralish uning taqdiriga yozilgandi. Faqat Munir Shahnozning birinchi bo'lib ajralish tashabbusi bilan chiqishini kutmoqda edi...

Keksa poshshoga qizining bu ahvoli yoqmas, hatto izzat-nafsiga tegardi, desa ham bo'ladi. Nihoyat u qizi va nabirasini qo'lidan tutib o'z uyiga olib ketdi. Poshsho, Nikolaki va Munir Shahnozni rasman ajralishga rozi qildilar. Bu ajralish ularga qanchalik ta'sir etganligini hech kim anglay olmadi. Munir endi Yashil ko'shkni ijaraga berib, undan keladigan daromadining bir qismini Poshsho vositasida farzandiga yetkazib, o'zi batamom Yulduz mahallasiga ko'chib ketdi.

Qadrli kitobxon, shu tarzda nihoyasiga yetgan hikoyani "ular murod-maqsadiga yetibdilar" deya tugallay olamizmi?..

Bu yorug' olamda murod-maqsadiga yetgan inson bormi o'zi?.. Har holda Yulduzda Chorasoz bilan uning qo'shnilari bo'lgan Nikolakilar jufti Munirning umrining oxirigacha shunday yashashini kafolatlay olar edilar.

CHO‘QQIGA QUVILGAN QASHQIR

Bir kuni turk shoiri menga notanish bir fransuz yozuvchisining “Qashqir” nomli asari haqida gapirib bergandi. Uni turk tilida she’rga solib yozmoqchi edi. Men har kuni o‘sha qashqir haqidagi ertakning chiqishini kutardim. Ammo men kutgan ertak bosilmadi. Menimcha shoir ham menga o‘xshab yozayotgan asarlarini yuragidan chiqarar, bir yozdimi, takror bunday go‘zallik yarata olmas ekan. Lekin u ta’rif etgan o‘rmonlar, ovchilar, oy nuri, daraxtlar, qashqirlar-u ovga chorlovchi karnaylari ila shunday she’riy va hayotbaxsh ediki, men go‘yo bu qashqirni tanigandek, unga mehr qo‘ygandek edim. Boshim juda g‘uvillar, yuragim siqilar, dengiz nurga cho‘mganda o‘sha qashqirni o‘ylab xayolga toldim.

Shunda birdan Qoracha Ahmad qabristoni ro‘parasidagi vayronaga aylangan kichkinagina kulbadagi bolakayga aylangim keldi. Sarvlar ingrab, toshlar zulmatda qimirlayotganda qorovul uzoqdan tayog‘ini taqillatar, beshik tepasidagi yolg‘iz ayolning mungli tovushi, tark etilgan, unutilgan kimsasiz uyda allasini takrorlar, bemador yuz yoshlik qariya qabristonda yotgan o‘liklarnıng ruhlariga atab Yosin o‘qir ekan, onam menga mana shu bo’ri haqidagi ertagini aytar, men esa go‘yo sehrlangandek qo‘rquv ichida uxlab qolardim.

Biz Uskudardagi Poshsho Darvozadan sal nariroqda, qabristonning ro‘parasidagi bir hovuch keladigan yerga qurilgan bir yog’och uyda yashaymiz. Men eshik oldida cho‘kkaladim; tun qorong‘usida qorayib turgan sarv daraxtlari orqasidagi qo‘rqinchli toshlarga qarab onamni kutaman. Qornim och, qo‘llarim va oyoqlarim muzlab qolganday! Onam kirlarini yuvib uyga qaytarkan, eskirib yirtilgan paranjisining ichiga tiqib olib keladigan nonni xayolimdan o‘tkazar ekan, uning ko‘ksini yorib yuboray degan, ko‘zlari atrofini qoraytirib yuborgan yo‘tali qulog‘imga chalingandek bo‘ladi. Ammo eski qabr toshi kuchli shamol shiddatidan vayron bo‘ladi. G‘alati ovozlar chiqaradi. Osmonda qora tuproq bulutlari suzib yurar, chaqmoq, qorayib turgan sarv daraxtlari ustidagi osmonni bir ochadi, bir yopadi.

Olisda itning akillagani eshitiladi. Kech ham tushdi, lekin onamdan darak yo‘q. Uskudar, qabriston, hatto butun dunyo yolg‘izlik va kimsasizlik qa’riga cho‘ng‘iganday. Onam qabristonda oppoq soqolli, qora liboslarga burkangan chollar, qora sochli, oq kafanga o‘rangan yosh juvonlarning qo‘llarini tepaga ko‘tarib: “Yordam bering, yordam bering!” deb nola qilganlarini so‘zlab berardi. Qayerdandir it hurgani, yana qandaydir xirillagan tovush, bir o‘q ovozi eshitildi! Chaqmoq har chaqnaganda qabriston yorishib ketadi va yana qorong‘ulik qo‘yniga cho‘kadi.

Nihoyat onam kavushini sudrab kelardi. Tushundimki, o‘rindig‘ining ostida non yo‘q. Onam olamdan o‘tib ketgan askar otamni ko‘p o‘ylaydi. U tokchadan uch kun turgan bir parcha qora nonni olib qo‘limga tutqazadi-da, meni yotog‘imga yotqizib, kir ko‘rpani boshimga tortadi, keyin o‘tirib olib boshini mushtlagancha yig‘-laydi. Tomog‘imga tiqilgan narsa nonmi, yo onamning yig‘lagan tovushimi bilmayman.

Onam boshini changallagancha ingraydi: “Uylaringiz buzildi, bolalaringiz tarqab ketdi, yurtimizda motam va zanjir hukmron, ovchi inlaringizni o‘rab oldi. Na bola, na ish, na non va na olov qoldi. Inini ko‘ppaklar bosgan bo‘ri bolalari kabi farzandlaring chor tarafga tarqab ketdi. Bu g‘alati gaplarning ortidagi tovush menga xuddi otamni chorlayotgan faryod kabi tuyular, ichimda allaqanday g‘alayon sodir bo‘lar, qo‘llarim hayvonning panjasiga aylanganday bo‘lar, iyagim uzayganday bo‘lar, ko‘zlarim yonar, jag‘larim orasidan chiqayotgan g‘ayriinsoniy hayqiriq qabriston tomon taralardi. Yonimda onamga o‘xshamaydigan yuvosh bir guruh men bilan birga o‘zini urar, ichimizdan qandaydir vahshiy, qandaydir g‘alati bir dard bilan uvillar ediki...

Kechasi yotog‘imning ustida ikki sariq olov yuzimni kuydirdi; birdan uyg‘onib ketdim. Shamol to‘xtagandi. Singan deraza tirqishidan oy nuri xonaga tushib turibdi. Xona ichi juda sovuq. Qabriston qorong‘ulikka cho‘mgan. Yuragim bo‘g‘zimga tiqildi, ko‘zimni bazo‘r ochdim. Onam yonimda yotar, tanasining bir qismi taxta ustida, yana bir qismi esa divanda edi. Yotog‘imning ustida og‘ir, ammo qandaydir yumshoq narsa qimirlaganday bo‘ldi. Oyoqlarim o‘sha yukning ostida qolgandi. Asta boshimni ko‘tar-

dim. O'sha og'ir, ulkan narsa yana qimirlaganday bo'ldi. Derazadan tushib turgan yorug'lik shu'lasida uni ko'rdim-u sarosimaga tushdim. Nafasim bo'g'zimga tiqildi. Ko'zlarim esa o'sha o'tdek yonib turgan sariq porlovchi ko'zlarga qadalgandi.

Katta yarador bo'z bo'ri orqa oyoqlari ustida o'tirardi; uning katta kallasi dahshatli, o't chaqnab turgan ko'zlari mening ko'zlarimga tikilib turardi. Yelkasidan tortib kulrang mo'yna qoplagan tanasi uzra qon oqar, sariq oyning sarg'ish nurida g'alati ola dog'lar to'lqinlanib turardi. Avvaliga qo'rquvdan anchagacha qaltirab o'zimga kelolmadim, tilim aylanmay qoldi. Uning kallasi uzunchoq, katta, ko'z qarashlari o'tkir, yonib turar, gavdasi xuddi bo'rilar otasining kallasi kabi katta va dahshatli edi. Hatto uzoqdan qarab turgan bo'lsam-da, xayolimdan xuddi hozir bir luqma go'sht kabi uning og'zidan to'ppa-to'g'ri oshqozoniga o'tib ketsam kerak degan fikr o'tdi. Ammo bu ulkan, dahshatli bo'rining ko'zlari va iyagidan oqayotgan qon uning katta olishuvdan chiqqanini ko'rsatib turardi. Qarab turar ekan, ichimda xuddi bu qo'rqinchli qashqirning oshqozoniga kirib chiqqan kabi g'alati, lekin tanish bir his paydo bo'ldi. Bu qanaqa his edi? Bu his yuzlarcha savollarning unutilib ketgan chigalliklariga qadar uzayib ketgan edi.

Bu sovuq qo'rquv va iztirob ichida tirnoqlarim hayvonning panjasiga aylanmoqda, ko'zlarim ham lov-lov yonar, jag'im cho'zilib, tanam issiq va yumshoq mo'yna bilan qoplanayotganday, yuragim g'alati alangaga burkanganday edi. Butun vujudim bilan bu bahaybat, yarador, o'tli qarashli bo'z bo'rini endi tushunganday va hatto u bilan bir tanga birlashganday edim.

Qachonligini eslay olmayman, lekin uni chaqirganim yodimda. Iyagimni cho'zdim, ko'zlarimdan sochilayotgan uchqunlarning taftini his qildim; bo'g'zimdan qandaydir bir tovush otilib chiqmoqchi bo'lardi. Bo'rining katta kallasi mening kichkina boshim tomon keldi, ikkimizning boshimiz to'qnashdi va ikkimiz ham bir-birimizni tanidik, ikkalamiz ham oyning sarg'ish yuziga tikilib qoldik, tumshug'imizni ko'tardik. Sassiz-sadosiz, ich-ichimizdan, necha yillardan beri davom etib kelgan bir iztirob bilan, go'yo isyon ko'tarayotgandek uliy boshladik.

Qancha vaqt o‘tdi, ajabo!.. Xuddi shunaqa tovushda boshiga mushtlagan bir ayol bilan jo‘r ovozda “Dada, dada!” degancha ulidik. Mana endi bu sovuq tunlarda qorayib turgan sarvlarga, za’faron oyga qarayman. Qonlari hali sovimagan bu baquvvat, yarador tanalarga sanchilib, vujudimizning har zarrasida og‘riq, iztirob his qilgancha oyga tikilar, qashqirlar avlodining buzg‘unchiligiga qarshi isyon ko‘tarar edik. Mening otam, men kelishini kutgan otam o‘lmagandi. Yonimda, ichimda, o‘sha tuproqdan, tog‘dan, o‘rmondan, qoyadan, yovvoyi tabiatdan, osmon-u falakdan, yulduzlardan kelayotgan tabiat tovushi bilan qashqirlar urug‘ining qasamyodini, qashqirlar urug‘ining halokati haqidagi ertakni so‘zlab turardi. U jag’larini katta ochdi. Qabriston tomon yoyilgan tovushlar, yarador, kuygan, yulingan issiq mo‘ynasi ostidan cho‘l tomondan kelayotgan hayotiy qudrati ortib, to‘lqinlana-to‘lqinlana, butun o‘tmish va kelajak afsonalarini vujudimga, tomirlarimga, et-etimga, qonimga singdirmoqda edi:

“Bir kuni changalzorda jang ovozasi eshitildi” — deb ulidi. “Fillarning xartumlari tik ko‘tarilgan, kulcha bo‘lib yotgan ilonlar kamon o‘qiday otilib, she’rlar na’ra tortib, yo‘lbarslar ko‘zlarini chaqnatgancha panjalarini o‘z o‘ljalariga tashlanishga shay, ayiqlar g‘azabdan harsillagancha, shoqollar atrofni larzaga soluvchi ulishlari bilan butun o‘rmonni qopladi.

Bo‘rilar o‘z inlaridan chiqqan katta to‘dalar bilan ayovsiz jangga kirishgan edilar. O‘tkir nayzadek panjali va katta tumshuqli yuz yil yashagan burgutlar, zimiston o‘rmonda parchalagan qushlarning qonlari va qanot parchalari... Tishlaydigan, parchalaydigan, yirtqich, kemiruvchi, panjalari bilan g‘ijimlaydigan yovvoyi hayvonlar; o‘kirishlari, xirillashlari, ingrashlari, ulishlari bilan yer-u ko‘kni titratdilar, tirnoqlari hayvonlarning qonlariga bo‘yaldi. U yerda na bir butun qolgan, na bir tiniq buloq, na ezilmagan buta, na ildizi qo‘porilmagan, yaproqlari to‘kilmagan, shoxlari shikastlanmagan chinor bor.

Qirq kecha-yu kunduzdan so‘ng o‘rmon aholisi, fil, sul karnayini chaldirdi. Qora o‘rmonning bug‘-u chashmasida o‘rmondagi barcha hayvonlar to‘plandi. Xartumi uzilgan, tishlari singan, oyog‘i cho‘loq fillar, panjalari shikastlangan, terisi shilingan sher va

yo‘lbarslar, yarador ayiqlar, butalar bahaybat tanalarining yaralariga tekkanda chuqur nolalar chekadigan ilonlar sudralib, buralib, yastanib bir joyga to‘plandilar.

Changalzor tagi-tugi bilan yoqib yuborildi; na bir urg‘ochi bo‘ri qoldi, na bir bo‘ri bolasi. Fil uzoq so‘zladi; hayvonot olami har qanday jang, hiyla, ov qilishni to‘xtatishi kerak; har bir suruv, poda, har bir jonzot o‘z hududida, o‘z atrofida itoatkor va sokin yashashi kerak. Kichik va ojiz hayvonlar kuchli, yirtqich hayvonlar tomonidan soliq, o‘lponga tortilmasligi, o‘lja yoki yem bo‘lishi kerak edi. Filning o’zi, birinchi navbatda, butun changalzorning eng yirik va zo‘ravon hayvonlari bilan birga qasamyod qildi. Fil shunday jozibador, har bir jonlining yuragiga yetib boradigan tarzda hayqirdiki, Ganj timsohlarining yuraklari larzaga keldi, ko‘zlaridan yosh oqdi.

Yo‘lbars va ilon yosh jayronlarni orzu qilib, ko‘zlarini yumdilar. O‘txo‘r hayvonlar quvonchdan javlon urar ekan, go‘shtxo‘r hayvonlar chuqur tashvishga tushdilar. Har bir yirik hayvonning ortida bir to‘da mayda hayvonlar, shoqollar, buqalamunlar bo‘lgan. Ham bularni, ham o‘sha eski ov kunlarini o‘ylab, dahshatli sukunatga cho‘mdilar. Oxirgi bir ishora bilan katta hayvonlar va butalar orqasida yashirinib yotgan itlar birdaniga oyoqqa turdi. Bunday muloyimlik va sukunat faqat bitta turdagi hayvonni hamma uchun yem va o‘lja sifatida qurbon qilish orqali ta’minlanishi mumkin edi. Ular o‘ylay-o‘ylay oxiri birdaniga changalzorda doim qo‘rquv ko‘lankasi kabi aylanib yurgan bir xayol ko‘z oldidan bir-bir o‘tdi va hammasi birdan jo‘r ovozda:

— Bo‘ri! Bo‘ri! — deya hayqirdilar.

Yonimda turgan baland bo‘yli, issiq boshli jonzot “Changalzorda men va mening urug‘im ustidan hukm o‘qildi”, deb ulidi. Hukm o‘qilgandan keyin changalzordagi jonzotlarning bari qashqirlar diyori sari yurishni boshladilar. Inlarimiz, uyalarimizni oyoq osti qildilar, bolalarimizni o‘g‘irlab ketdilar, qashqirlarning urg‘ochilarini parcha-parcha qildilar, erkaklarini ovladilar; yo‘lbarslar, she’rlar, ayiqlar, ilonlar, ularning orqasidan shoqollar, buqalamunlar quloqlarni qomatga keltirib, etimizni tilkaladilar, inlarimizni yer bilan yakson qildilar. Hamma, qo‘liga nima tushsa, tuzoqmi, changalmi,

nayzami, olib bo'rilarga hujum qildi. Bu misli ko'rilmagan vayronkorlar va hujumlar qarshisida uyalaridan, changalzor ichidan og'ir yarador bo'rilar urug' jamoalarining qasos olishlarini ulish yo'li bilan e'lon qilish uchun tog'larga chiqdilar.

Endi sariq oy, sarg'ish olov ko'zimizga tushib qamashtirardi; qora sarv devori ortidan, bo'm-bo'sh ufqlardan qashqirning dahshatli shovqinli va teran ulishi butun dunyo qashqirlarining jo'r bo'lib ulishi go'yo bizga qaytarilayotgan javobga o'xshardi.

Ikkalamizning ham uzun tumshug'imiz teran bir chinqiriq, faryod oy tomonga yo'naldi va biz qashqirlar urug'iga nisbatan chiqarilgan xoinona hukm bekor bo'lgunga qadar tog'da qolishga qasam ichdik.


Bu dunyoda bir qashqir bo'lsa, ikkinchisi qashqir naslining dard-u iztirobidir. Fozliposhshoda ko'zimni ochishim bilan dengiz uzra sarg'ish oy shu'lasi o'rniga tongning oppoq nurlari tushib turardi.

Qonim, jonim, butun vujudim bilan his qilayotganim qabriston, qashqir afsonasi mendan uzoqlashgach, qalbim bo'm-bo'sh, huvillab qolganini his qildim. Menimcha bu afsonani ko'p yillar davomida boshdan kechirib kelayotgandim. Bu favqulodda bir narsa edi. Shunki qashqirlar hikoyasi uzun bo'ladi.

1919-yil 10-oktabr

SAID FOIQ ABASIYONIQ





SAID FOIQ ABASIYONIQ — TANIQLI TURK HIKOYANAVISI

XX asrning 30-yillari turk adabiyotining atoqli namoyandasi, hikoyanavis adib, qator romanlar muallifi, shoir Said Foiq Abasiyoniq nafaqat turk adabiyoti, balki jahon adabiyoti taraqqiyotiga ham ulkan hissa qo'shdi. Olimlar adibni modern turk hikoyanavisligining rahnamolaridan biri va turk adabiyotining "tomiri suvga yetgan" yozuvchisi sifatida e'tirof etadilar.

Said Foiq Abasiyoniq[1] 1906-yil 23-noyabrda Turkiyaning Adapazari shahrida dunyoga keldi. Boshlang'ich ta'limni "Adapazari Rahbar-i Taraqqiy" maktabida olgan Said 2 yil Adapazari gimnaziyasida ham tahsil oldi. Milliy ozodlik urushidan keyin oilasi bilan Istanbulga ko'chib kelgach, Istanbuldagi Sultoniya maktabida o'qishni boshladi. Undan keyin o'qishini Bursa o'g'il bolalar litseyida davom ettirdi. 1928-yilda litseyni tamomlab, Istanbul universiteti Adabiyot fakultetida o'qishga kirdi. Bir muddat universitetda o'qigach, iqtisodiyot sohasida ta'lim olish uchun Lozan (Shveysariya)ga ketdi. U yerda bir necha oy yashadi lekin, u yer mijoziga to'g'ri kelmadi va Fransiyaga ketdi. Fransiyaning Grenobl shahrida turli mamlakatlardan kelgan yoshlar bilan do'stlashdi. Parij va Marselda uch yil yashadi. Biroq otasining talabiga ko'ra 1933-yil Istanbulga qaytdi. Otasi Saidning o'ziga o'xshab savdo ishlari bilan shug'ullanishini xohlardi, shuning uchun unga kichik bir do'kon ochib beradi. Lekin Said bu ishni uddalay olmaydi. Ma'lum muddat Halijio'g'li arman maktabida turk tili o'qituvchisi bo'lib ishlaydi. Keyin baribir yana otasining yonida qaytib, uning tijorat ishlariga yordam berib yuradi. Otasi vafot etgach, undan qolgan meros bilan bir necha yil yashaydi. Onasi bilan Istanbulning

[1] "Abasiyoniq" Mahmud Said, ya'ni Said Foiqning adabiy taxallusi bo'lib, "aba" — darvishlar kiyadigan chakmonga o'xshash ust kiyim, "yoniq" esa "kuygan" deganidir. Ushbu taxallus "abayi yakmak" (chakmonini kuydirmoq), ya'ni "oshiq bo'lmoq" iborasi asosida yasalgan bo'lishi mumkin.

Shishli mavzesida, Bolgar bozori yonida joylashgan ko'p qavatli uyda, keyinchalik otasidan qolgan Burgaz[1] orolidagi ko'shkda yashaydi.

Said Foiq 20-yillarning o'rtalarida Istanbul litseyida tahsil olar ekan she'r yozishni, keyinchalik Bursada o'qib yurgan kezlarida esa hikoyalar yozishni boshlaydi. Uning ilk "Shohi ro'molcha" hikoyasi 1926-yilda, keyingi "Varrak" hikoyasi esa 1929-yilda nashr etiladi. Bu bilan hikoya yozishga astoydil kirishgan Said Foiq ilk to'plamini 1936-yilda nashr ettiradi ("Samovar"). 1934-1940-yillarda "Borliq" ("Varlik"), "Daraxt" ("Ağaç") hikoyalari "Sarvati funun", "Uyg'onish", "Yangi ovoz", "Yaproq", "Yangilik" kabi jurnallarda chop etiladi. Umar Sayfiddin, Rafiq Xolid Koray, Sabri Ertam va boshqa adiblardan keyin hikoyanavis sifatida tanila boshlagan adib o'z hikoyalari orqali inson qalbidagi barcha ziddiyatlar, bo'hronlarni aks ettirdi. Adibning Istanbuldagi bolalik va o'smirlik yillari haqida hikoya qilingan asarlarida hamma narsa insonni sevishdan boshlanishiga urg'u beriladi. Keyingi asarlari borgan sari lirik tus ola boshlaydi. "Betayin odam" ("Lüzümsüz Adam"), "Mahalla qahvaxonasi" ("Mahalle Kahvesi"), "Havoda bulut" ("Havada Bulut") kabi hikoyalari orqali baqqol va hunarmandlar, ishsizlar, bir so'z bilan aytganda, jamiyatning ezilgan, uqubat chekayotgan a'zolarining hayoti yoritiladi.

Adibning "Alemdağda Var Bir Yılan" ("Alamtog'ida bor bir ilon") hikoyasida shaxsning yolg'izligi va buning salbiy oqibatlari, dard-u iztiroblari o'z aksini topgan. Hayotni sevish, yashashdan saodat hissini tuyish uning roman va she'rlarining ham mavzusiga aylanadi.

Uning 1951-yilda chop etilgan "Yo'qolgan qidirilmoqda" romanida jamiyatda qabul qilingan axloqiy qonunlar yoritiladi. Turli ramzlar bilan boyitilgan, insonning ichki olamini aks ettirilgan hikoyalarda surrealizm unsurlari vositasida inson iztiroblari qalamga olinadi. Oddiy insonlar, ishsizlar, hammollar, baliqchilar, ko'cha ayollari, kimsasiz bolalar, nafaqadagi keksa odamlar va mayda burjua, sayyor teatr artistlari, dorbozlar, sobiq harbiylar, charmgarlar, mayxona, qahvaxona ishchilari —

[1] Marmar dengizining o'rtasidagi Istanbulga yaqin bir orol.

adib yaratgan obrazlar sirasiga kiradi. Bu obrazlar orqali adib mavjud ijtimoiy tuzumning butun kirdikorlari, adolatsizliklariga qarshi kurashmoqchi bo'lgan yolg'iz inson fojiasi haqida hikoya qiladi. Shundan bo'lsa kerak adibni "Istanbul hikoyachisi" deb ataganlar. Tabiat go'zalligiga shaydo bo'lib, "boshi aylanib qolgan" adib, jamiyatdagi ijtimoiy muammolar qarshisida o'zini butkul "yolg'iz" his eta boshlaydi. Bunday lahzalarda uning qalbini tushkunlik kayfiyati egallaydi. Ijtimoiy ziddiyatlar qarshisida u chuqur qayg'uga botadi, yengiladi, bu dardlardan "qochib" qutulishga intiladi.

Said Foiq xayolot olamidagi bolalar hamisha iliq narsalarga, kichik sevimli hayvonlarga yoki g'oyatda chiroyli yasalgan birorta munchoqqa o'xshatiladi. Ma'lum dunyoqarashga ega, qandaydir fikr yoki ideologiyadan xoli Said Foiq Jumhuriyat davri hikoyanavislari orasida o'z tasvir uslubiga ega yozuvchilardan biri sifatida tanildi.

Said Foiq Abasiyoniq og'ir kasallikdan so'ng 1954-yil 11-mayda Istanbulda 48 yoshida jigar saratonidan vafot etadi. O'limidan so'ng adibning Burgaz orolidagi uyi muzeyga aylantirilgan. Uning onasi o'g'lining xotirasiga "Said Foiq Hikoya mukofoti"ni ta'sis etadi. Adabiyotga qo'shgan ulkan hissasi uchun Said Foiq Amerikadagi Xalqaro Mark Tven Jamiyatiga abadiy faxriy a'zo etib saylanadi.

XX asrning 30-yillari turk adabiyotining yirik vakili, o'nlab mashhur asarlari bilan turk adabiyoti taraqqiyotiga ulkan hissa qo'shgan atoqli adib — Said Foiq Abasiyoniq qisqa umri davomida o'zi orzu qilgan durdona asarlarning barchasini yozib tugatishga ulgurmagan bo'lsa-da, yozgan asarlari bilan bugun ham jahon klassiklari orasida o'z o'rniga ega. Adib o'z ijodi bilan bugungi kunda nafaqat Turkiyada, balki dunyoning ko'plab mamlakatlarida ma'lum va mashhur bo'lib kelmoqda. Asarlarining tinimsiz qayta nashr etilayotgani turk xalqining Abasiyoniq ijodiga bo'lgan hurmat va ehtiromi ifodasidir.

Said Foiq asarlari xorijiy tillarga, jumladan, rus va o'zbek tillariga ham tarjima qilinib nashr etilgan. Asarlarining mamlakatimizda turli yillarda tarjima qilinishi adib asarlariga bo'lgan qiziqish va ma'naviy ehtiyojdan dalolat beradi.

Adibning eng mashhur hikoyalari jamlangan ushbu to‘plamdagi ilk ikki hikoya 1958-yilda nashr etilgan. Ular ustoz tarjimonlar Miad Hakimov va Rustam Komilovlarga tegishli “Samovar” va “Bir to‘da odam” hikoyalari[1], 20 dan ortiq hikoya 1980-yilda G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyotida chop etilgan “Mahalla qahvasi” [2] nomli kitobdan olindi (tarjimon: Mirvali A’zam). Bundan tashqari, to‘plamga Abasiyoniqning Toshkent davlat sharqshunoslik universitetida turkshunos mutaxassislar va yosh ijodkorlar tomonidan so‘nggi yillarda ona tilimizga o‘girilgan 20 dan ortiq hikoyasi (shu jumladan, adibning “Mahkama ostonasi”[3] deb nomlangan, turk adabiyotida reportaj janriga oid asar shaklida tavsiflangan asarlardan namunalar ham) ham kiritildi[4].

Said Foiq Abasiyoniqning tanlangan hikoyalari tarjimalari joy olgan mazkur to‘plamda o‘zbek kitobxonlariga hali unchalik tanish bo‘lmagan turk adibining biografiyasini ham berishga harakat qilindiki, bu ma’lumotlar turk adabiyotini o‘rganayotgan, jahon adabiyotining eng ko‘zga ko‘ringan yana bir namoyandasi bilan tanishayotgan talabalar va tadqiqotchilar uchun ham foydali bo‘ladi, deb o‘ylaymiz.

Xayrulla Hamidov,
filologiya fanlari doktori, dotsent

---

[1] Turk hikoyalari (turkchadan tarjima), Said Foiq, Bir to‘da odam, hikoyalar, O‘z. Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. —Toshkent, 1958.

[2] *Said Foiq*. Mahalla qahvaxonasi. Hikoyalar. Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san’at nashriyoti, 1980.

[3] Abasıyanik Sait Faik, Modern Bir Kari Koca, hikâye, Mahkeme Kapısı, Bütün Yapitlari, Yazilar, Yapi Kredi Yayınlari, 6.Baskı, İstanbul, Mart, 2008.

[4] Turk adabiyotining sara asarlari. Said Foiq Abasiyoniq. Hikoyalar. – Toshkent, TDSHU, 2022. – 104-b.

BIR TO'DA ODAM...

Tun. Soat o'n ikkidan oshgan. "Taqsim" kinoteatri oldida, soat tagida tramvay kutib turibman. Tramvay kutmaganimda bunchalik turmas edim, vaqt yarim kechadan oshgan, deb qo'ydim o'zimcha.

Allamahal bo'lib qoldi. Ko'klamning shu ayozli kunlarida, cho'zilib ketgan bu qishning qahraton tunlaridan biri yodimga tushadi. U paytda hali ko'klamdan nom-nishon ham yo'q edi. Hozir esa tuman tushib, yomg'ir yog'ganda, hattoki sovuq bo'lib turganda ham kishini hayratda qoldirib, uni behush qiluvchi allaqanday hid seziladi. O'sha paytlarda "Jomli" ko'shkining oynalarini va reklamalarning moviy nurini izg'irin shamol yalab o'tar edi. Men bilan birga turgan o'ntacha odam ko'rgan filmlaridagi fantaziyani jonlangandek sezar va umid, xayol, ajoyib kunlarni yoxud uyqusizlikda, olishuv bilan o'tgan kechalarni, orombaxsh joylarni qo'msatadigan issiq to'shagiga bir daqiqa bo'lsa ham, ertaroq yetishmoq uchun hadeganda ko'rinavermayotgan tramvayni zoriqib kutishar edi. Og'zimdan bug' gupillab turibdi. Hamsuhbatlarning o'rtasida tuman pardasi ko'tarilmoqda. Hozir issiq o'rin odamlarning hammasi uchun nondek aziz. Issiq to'shak — mahbubadir, issiq to'shak — xotiradir, issiq to'shak — ajib bahor, ajib dengiz sohili, ajib diyordir, shunday paytda issiq o'rin inson uchun nimalarga teng bo'lmaydi, do'stlarim...

Boshim yostiqda, ko'rpam og'zim baravar tortilgan, g'ujanak bo'lib uyquga tolay deyapman: allaqanday narsalar, bir gala qushlar pat tashlaydi, iliq, g'alati suv tomchilaydi, vujudimdan chashma otilib turibdi...

Tramvaydan hamon darak yo'q. Turgan joyimda yana biroz to'shagimni, uyquni o'ylagudek bo'lsam, uxlab qolish ham ajab emas. Sovqotgan kishilarga o'xshab badanimda shirin seskanish seza boshladim. "Hech bo'lmasa shu shirinlik sotiladigan do'konga kirib, arg'uvon ichay, keyin borib yotarman" dedim. Bir-ikki qadam

ham tashlamagan edim, qarshimda bir kishi paydo bo'ldi. Shamol esayotganligi uchun ko'zimga faqat bir narsa ko'rindi. Keyin xartumdan puflagandek yuzimga bug' burqsidi: u gapirayotgan edi.

"Og'a, — dedi u shirin, yoqimli Anatoliya talaffuzi bilan, — bu yerdan menga o'xshagan bir to'da odam o'tmadimi?"

Palto yoqasi orasida yarim bekingan boshimni chiqardim. Kallamni ikki-uch marta silkitib oldim. Hali sovuqqa oldirganimcha yo'q, ancha tetik edim. Lekin izg'irin shamol quloqlarimni yalab o'tardi. Haligi odamga qaradim. "Menga o'xshagan odamlar"... Hamma odamlar ham deyarli bir-biriga o'xshamaydimi? Menga o'xshagan odamlar deb nimani aytmoqchi?

Ha, u to'g'ri gapirdi. Unga o'xshagan kishilar boshqalardan juda ajralib turadi. Qish kuni istagan bir shaharda odamlar palto, shapka, poyafzal kiyib yurishadi. Bunday odamlar paltolarining rangi, shapkalarining aylanasi-yu, amerikacha yoki turkcha tikilishi bilangina bir-biridan farq qilishi mumkin, xolos.

Bu odamning na paltosi, na shapkasi va na oyog'ida kiyimi bor edi. Bularning o'rniga egnida malla paxtalari titilib, uvadasi chiqqan kalta kamzul, belidan kanop o'tkazilgan yupqagina yozgi shim, oyog'ida esa bunisi ham kanop bilan chandib tashlangan qop ko'zga tashlanadi... Yuzi yoqimli, bug'doyrang... Soch-soqoli o'sgan. Yigirma besh, o'ttiz yoshlarga borgan. Lekin ko'zlarida qo'rquv, jovdiragan allanarsa seziladi. Ajabo, ko'knorimikin, dedim o'zimcha.

U gapini davom etdirdi:

"Menga o'xshagan, og'o! (Ust-boshiga ishora qildi). Shu xilda kiyingan odamlarga ko'zing tushmadimi? Ulardan ba'zilari shu yo'ldan kelishi kerak edi. Qolganlari esa ("Taqsim" kinoteatrining pastrog'idagi yo'lni ko'rsatdi) ana o'sha tepa ko'chadan chiqishi lozim edi".

Gapni qisqa qilmoqchi bo'ldim, majhul, johil, o'jar kallada har xil fikrlar bo'lishi mumkin, menga nimasi...

— Xudo haqqi, ko'rganim yo'q! — deb javob berdim.

— Yo'g'-ey, mumkin emas, — dedi. — Albatta o'tib ketgan bo'lishlari kerak. Men yo'lda sal ushlanib qoldim. Ularni yo'qotib qo'ydim. Bu yerdan albatta o'tgan bo'lishlari kerak.

— Bu odamlar kim o‘zi? — deb so‘radim men betoqatlik va qandaydir qiziqish bilan.

Miyamda qandaydir maxfiy, sehrli, ajib hikoyalar gavdalandi. Hattoki, bu ham yetmagandek, bo‘lak va yanada ajibroq narsalar to‘g‘risida xayol qildim. Uning ko‘knori chulg‘agan kallasiga sirdosh bo‘lgandek edim.

— Og‘o, biz To‘pxonadagi tungi qahvaxonalarda yotib yuramiz, — dedi. — Hammamiz ham hammolchilik qilamiz, xizmatkorga o‘xshagan odamlarmiz. Lekin halol yashaymiz. Nima qilardik? Besh-o‘n chaqa ishlab topamiz. Kechasi qahvaxonachiga besh qurush berib, bir burchakda mizg‘iymiz. Nima qilardik? Mehmonxonaga pul chidaydimi? Eng kami bilan o‘ttiz g‘urush turadi. O‘ttiz qurushga biz ikki kun tirikchilik qilamiz...

Ha! Bu kecha politsiyachilar kelishdi. Tungi qahvaxonalarda yotish man etilganmish. Hammamizni haydab chiqarishdi. Bizlar ham bir bo‘ldik. Gubernatorning oldiga boramiz, uyg‘otib, unga dardimizni aytamiz, dedik. Shunday qilib, bir guruhi mana shu tepa ko‘chadan, ikkinchi guruhi esa orqa tomondan kelgan. Demak, ko‘rmading-a, og‘o.

— Ko‘rmadim, — dedim. — Qayerliksan o‘zing?

Ko‘zlari chaqnab ketdi:

— Zonguldaklikman, og‘a.

Yarim kechada gubernatorning oldiga borgandan ko‘ra tunagani bo‘lak joy topish, juda bo‘lmasa, politsiyachilar ketgandan keyin qahvaxona egasini majbur qilib ichkari kirish mumkin edi. Bu, albatta, ko‘knori bo‘lsa kerak, deb o‘yladim.

Men bir yuqori tomonga chiqib kelay-chi, balki sen ularning o‘tib ketganini ko‘rmay qolgandirsan, — dedi va gupillab yog‘ayotgan qor orasida g‘oyib bo‘ldi.

Tramvay kelib qoldi. Chiqdim. Zaxiradagi ofitserlar maktabi oldida bir to‘da odam ketayotganini ko‘rdim. Lekin oyna yaxlab qolganligidan ularni yaxshi ko‘rolmagach, tramvaydan sakrab tushdim.

Ular saksontacha kishi edi. Bularning orasida juda yoshlari ham bor. Ular shaxdam qadam tashlab ketishmoqda. Oldinda ketayot-

gan kishilar juda ham jiddiy. Yakkam-dukkam o'tkinchilar yo'ldan to'xtab, ularga tikilib qoldi. Lekin bularning hech kim bilan ishi yo'q. Eng oldingi safda ketayotganlargina baqirib gaplashishmoqda. Gubernator bilan bo'ladigan gapni mashq qilishayotgan edi. Ust-boshlariga diqqat qildim. Ha, mening malla paxtadan kalta kamzul, surpdan shim kiygan tanishim haqli ekan; unga o'xshagan bir guruh odam ketayotgan edi. Zonguldaklik yigitning "Menga o'xshagan odamlar, og'a" degan paytdagi ifodasi ko'z o'ngimda edi.

To'shagim endi tramvay kutib turgan daqiqalarda munis bo'lib tuyulgan o'sha to'shak emas edi. Na u, na bu — oddiy bir to'shak edi. Unda yotishim mumkin bo'lganligi uchun o'zimni baxtiyor deb his etolmas edim.

Tungi qahvaxonalarning yopilib qolishidan oldin bir necha kechki boshpana joylarga juda muhtoj bo'lgan Istanbul shahrining qishi ba'zan naqadar uzun, naqadar uzun va bitmas-tuganmas bir ofatdir; bilgan biladi buni, boshiga tushgan anglaydi buni...

SAMOVAR

— Bomdod azoni aytildi. Tura qol qo'zim, ishingga kechikasan.

Ali nihoyat ishga joylashdi. U bir haftadan beri fabrikada ishlayapti. Onasi juda xursand. Ona namozni tugatib, yuziga fotiha tortdi. U zikr-samo o'qib, o'g'lining yotoqxonasiga kirganida, baland bo'yli, keng yag'rinli, chehrasi juda yosh, tushida mashinalar, elektr batareyalar, lampochkalarni ko'rib, qoramoyga belanib, dizel motorining gurillashini eshitayotgan o'g'lini uyg'otgani ko'zi qiymadi. Ali juda horigan odamday, terlab qizarib ketgan edi.

Holijo'g'ludagi fabrikaning trubasi boshini tik tutib, xuddi xo'roz singari viqor bilan tongga — Qag'andxona yurtining yorishib kelishiga boqardi. U halizamon qichqirib yuboradi.

Ali nihoyat uyg'ondi. Onasini quchoqladi. Har kungi odaticha, ko'rpaga boshini burkab oldi. Onasi ko'rpadan tashqariga

chiqib turgan oyoqlarini qitiqladi. Yotoqdan yugurib chiqib ketgan o'g'li bilan birga yana yotoqqa qaytib kelgan chog'da, yoshgina qizchalarga o'xshab qah-qah urib kulgan xotin haqiqiy baxtiyor hisoblanadi. Bular, bolalari kamdan-kam baxtiyor bo'lgan mahalla farzandlari edilar.

Onasining bolasidan, bolasining onasidan boshqa davlati bormidi? Yemakxonaga quchoqlashib birga kirishdi. Xonani loladay qizargan issiq non hidi to'ldirgan edi. Samovar shaqillab qaynab turardi. Ali samovarni g'am-g'ussa va falokatdan xoli fabrikaga o'xshatardi. Undan bahor tongining xushbo'y isi kelib turardi.

Ertalab Aliga samovar va fabrikaning oldidagi shirin kayf beradigan Salep ichimligi quyib qo'yilgan ko'vacha yoqardi. Undan keyin esa tovushlar yoqar edi: Holijo'g'lu ko'chasidagi askariy maktabning karnaychisi fabrikaning uzun, butun Holijni yangratib yuboradigan gudogi unda orzular uyg'otar, orzularini so'ndirardi. Demak, bizning Alining biroz shoirligi ham bor edi. Elektr tegirmonda ishlaydigan odamning shoirlikka urinishi xuddi okean paroxodini kichkina ko'rfazga kiritishga urinish singari bemantiq narsadir. Lekin nima qilaylik, Ali, Mehmet, Hasan va men — shunday yuragida yoli bor kishilarmiz.

Ali onasining qo'lini o'pdi. Keyin xuddi shirinlik yeganday lablarini yaladi. Onasi kular edi. U onasini har o'pganda labini shunday yalashga odatlangan edi.

Hozlining kichkina bog'chasida rayhonlar o'sib yotardi. Ali bir necha rayhon bargini barmoqlari bilan ezib, qo'llarini hidlab-hidlab chiqib ketdi.

Tong salqin, Holijni tuman qoplagan edi. Ali qayiq pristanida o'rtoqlari bilan uchrashdi, o'rtoqlarining hammasi ham vazmin yigitlar edi. Besh kishi qayiqda Holijo'g'luga o'tdilar.

Ali kuni bo'yi astoydil zavq-shavq va ishtiyoq bilan ishlar, lekin o'rtoqlaridan ustun chiqishga urinmasdan, xolos.

...Kechqurun o'rtoqlariga yangi bir do'st, yana bir muxlis, ustalariga sog'lom bir ishchi hadya etganiga ishongan holda uyiga xursand bo'lib qaytdi.

Onasini quchoqlaganidan keyin, uyining ro‘parasidagi choyxonaga, o‘rtoqlari oldiga yugurdi. Karta o‘ynadilar. Triktrak o‘yinini tomosha qildi. Keyin uyiga qaytdi. Onasi xufton namozini o‘qirdi. Ali kundalik odatini qilib onasining qarshisiga cho‘qqayib o‘tirib oldi. Joynamoz oldida umbaloq oshdi. Tilini chiqarib ko‘rsatdi. Nihoyat, onasini kuldirgan chog‘ida, ona namozini bitirayozgan edi.

Onasi unga:

— Qo‘y, Alijon, gunoh bo‘ladi, qo‘zim, — dedi, — Gunohkor bo‘lib qolmagin tag‘in, qo‘zichog‘im!

— Xudoyim kechiradi, ona, — dedi Ali.

Keyin soddalik va ma’sumlik bilan:

— Xudo hech kulmaydimi? — deb so‘radi.

Ali ovqatlanib olganidan keyin, Nakrtkertonning romanini o‘qishga boshladi. Onasi unga atab jun ko‘ylak to‘qir edi. Keyin taglariga atirgul isi kelib turadigan to‘shaklarni solib yotdilar.

Onasi bomdod namozini o‘qiyotganida Alini uyg‘otdi. Loladay qilib yopilgan non isi gurkirab turgan xonada samovar shaqillab qaynardi. Ali samovarni osoyishta, qo‘zg‘olon qilinmaydigan, xo‘jayinsiz fabrikaga o‘xshatardi. Unda faqatgina bahor va tongning saodati mavjud edi, xolos.

* * *

Alining onasiga ajal, xuddi mehmondek, namoz-niyozni birga o‘qishgan qo‘shni xotin singari keldi.

U ertalab o‘g‘lining choyini, kechqurun ikki xil ovqatini hozirlab kunni kech qilar edi. Yuragining bir chekkasida og‘riq sezardi, badanidan g‘ijim bo‘lib yotgan dokaning hidi kelib turadigan kampir kechga tomon zinapoyadan tez-tez chiqqan chog‘ida vujudi horg‘inlashib, terlab, bo‘shashib ketayotganini sezardi.

Bir kuni ertalab hali Ali uyqudan turmasdan burun samovarni qaynatib keldi-da, birdan sillasi qurib, yaqin turgan stulga o‘tirib qoldi. Shu o‘tirganicha qaytib o‘rnidan turmadi.

Ali onasining bugun ertalab nima uchun uyg‘otmaganiga hayron bo‘ldi, shu bilan birga anchagacha, vaqtning allamahal bo‘lib qolganini payqamadi. Fabrikaning gudogi deraza oynalari orasidan

o‘zining chinqirgan, yurakka g‘ulg‘ula solishini yo‘qotib, xuddi yumshoq paxta ichidan o‘tganiday muloyim eshitildi. U sakrab o‘rnidan turdi. Yemakxonaning eshigiga bordi. Stolga qo‘llarini tirab xuddi uxlayotganday o‘tirgan murdaga tikildi. Onasini uxlab qolgan gumon qildi. Bitta-bitta yurib uyga kirdi-da, onasining yelkasini ushladi. Lablarini soviy boshlagan yuziga tegizgan chog‘ida titrab ketdi.

...Ali birdaniga zaiflashmoqni sochlari oppoq oqarishini, belida mudhish og‘riq paydo bo‘lib ikki bukchayib qolishini, xuddi yuz yoshga kirganday keksayishini istardi. Keyin murdaga yana bir marta boqdi. Murda hech qo‘rqinchli emasdi. Aksincha, chehrasi avval qanday bo‘lsa, hozir ham shunday mehribon, muloyim edi. Ali murdaning yarim yumuq ko‘zlarini baqquvvat qo‘llari bilan yopdi-da, yugurib ko‘chaga chiqdi va kampir qo‘shnisiga xabar berdi. Qo‘shnilar shoshib-pishib kirib kelishdi. Ali fabrikaga jo‘nadi. Yo‘lda — qayiqda ketarkan, xuddi o‘limga ko‘nikkanga o‘xshardi.

...Ali kuni bilan uyning bo‘sh xonalarida kezdi. Kechasi chiroq yoqmay o‘tirdi. Kecha sukunatiga quloq soldi. Onasini esladi. Lekin yig‘lamadi. Bir kun yemakxonada samovarning ro‘parasida turib qoldi. Samovar stoldagi kleyonka ustida yaraqlab turardi. Quyosh yog‘dusi sariq jez samovarda jilolanardi. Ali samovarni olib chiqib ko‘zdan pana joyga yashirib qo‘ydi. O‘zi kelib bir stulga o‘tirdi. Uzoq vaqt tovush chiqarmay yum-yum yig‘ladi. Shundan keyin bu uyda samovar sira qaynatilmadi.

Shu kundan boshlab bu uyga salep ko‘vachasi kirdi.

Holij atrofida qish Istanbuldagidan ko‘ra sovuqroq va sertuman bo‘ladi. O‘ydim-chuqur tosh ko‘chadagi muzlab qolgan loylarni bosib, ertalab barvaqt ishga ketayotgan o‘qituvchilar, jalloblar va qassoblar fabrika oldida bir nafas to‘xtashib, ko‘hna devorga suyanishib, yuziga zanjabil va dolchin sepilgan salep ichishadi!

Jun qo‘lqop ichidagi maxfiy qimmatga molik bo‘lgan qo‘llari salep piyolasini ushlab, tumov bo‘lganlari uchun burunlaridan suv oqqan isyonkor boshlar iztirobli jez samovarga o‘xshab og‘izlaridan tutundek bug‘ chiqqan oq-sariq chehrali ishchilar, o‘qituvchi-

lar, jalloblar, qassoblar va ba'zan faqir o'quvchilar, katta fabrika devoriga orqa o'girib turib, xayollarining davomi sepilgan salepdan qultum-qultum ichadilar[1].

MAHALLA QAHVAXONASI

Yoz paytlari bu kichik mahalla qahvaxonasining bog'iga tez-tez qatnab turardim. Shu sababli bir kuni kechqurun, qora bo'ron avji quturgan payt ichkari kirganimda yotsirab o'tirmadim. Qahvaxona ovloq bir yerda joylashgan edi. Yaproqlari to'kilib bitgan ikki tol bilan, tepasida uch-to'rtta qovjiragan barg osilib turgan ishkomni qor shunday bejagan ediki, bahor oqshomlari, yoz kechalari nihoyatda so'lim bo'ladigan bog'ning qishda ham oppoqligidan binafsharangga o'xshab tovlangan, nurga g'arq bo'lib turgan jamoli kirishim bilan fikri xayolimni o'ziga jalb qildi, derazaning bir chekkasiga joylashdim va oynaning terini artdim-da, hovli manzarasining go'zalligiga mahliyo bo'lib uzoq vaqt xayol surib qoldim.

Binafsharang nur shunday tezlik bilan quyuqlashdiki, qahvaxona chiroqlarini yoqib ulgurmay ham qoldi. Beli ingichka stakanlarning eng chiroyligini oldimga qo'yarkan, qahvachi:

— Bog'imiz qishda ham juda go'zal bo'lar ekan-a? — dedi bog'dagi havorang xrizantemalarning uchlariga qo'ngan qorlarga ishora qilib. — Chollar indashmasa, chiroqni hali-beri yoqmas edim, — dedi qahvachi yana, — lekin ular hademay ming'irlab qolishadi.

Qahvaxonadagi chiroqlar yonishi bilan tashqaridagi qor nuri yaratgan fusunkor manzara qaygadir g'oyib bo'ldi. Ko'zimni derazadan olib, ichkariga nazar tashladim. Xonada sakkiz-o'n nafar odam bor edi, xolos. Olovi gurillab yonayotgan kichkina qopqoqli cho'yan pechkaning o'ng tomoni hademay qip-qizil cho'g'ga aylanishini kutib o'tirdim. Yonimda narda o'ynayotganlar ham bor edi. Birmuncha vaqt ularni kuzatib o'tirdim. Ora-chora deraza oynasini artib, unga peshonamni tirab tashqarini tomosha qildim.

---

[1] Turk hikoyalari (turkchadan tarjima) O'zSSR Davlat badiiy adabiyot nashriyoti. Toshkent — 1958.

Uydan chiqqanimda chor-atrof sukunat og'ushida bo'lib, pag'a-pag'a qor yog'ayotgandi, shu vaqt ko'nglimda sayr qilish istagi uyg'onganini sezdim. Qadrdon yo'llardan, hamisha yo'ldoshim bo'ladigan tasodiflardan, gavjum ko'chalardan voz kechib, beg'ubor qori toptalmagan, inson oyog'i kamroq tegadigan biron joy topish maqsadida tanho o'zim tramvayga o'tirib, bu yerga kelgan edim. Biroq kelayotganimda qandaydir yarim soat ichida havo aynab, qattiq shamol ko'tarildi, pag'a-pag'a yog'ayotgan beozor qor mayda-mayda tariq doialariga aylanib deraza oynalariga tarsillab urila boshladi. Qahvachidan:

— Bugungi gazeta bormi? — deb so'radim.

Qahvachi qo'limga bitta gazeta tutqazdi. Bir yoqdan miyamdagi yangi fikrlarni tahlil qilsam, ikkinchi tomondan qahvaxonadagi gap-so'zlarga quloq solardim. Odamlar faqat tirikchilik tashvishlari haqida gaplashar edilar, xolos. Oradan ko'p vaqt o'tmay qahvaxona eshigini shamol bilan birgalikda bir odam ochdi va ichkari kirdi. Kelgan odam hovuchlariga puflay-puflay pechkaga yaqinlashdi, olovning taftida ko'kragini, qornini, tizzasini obdan isitgandan keyin jon kirib, goho atrofdagilarning suhbatiga luqma tashlar, goho o'zidan-o'zi allanimalar deb vaysar, yoki bo'lmasa narda o'ynayotgan ikki kishining oldiga borib, o'yinchilarning e'tiroziga nazar-pisand qilmay uchinchi bo'lib o'yinga aralashmoqchi bo'lardi.

Taxta karavotda o'tirgan keksalarning oldiga o'rta yoshdagi jiddiy ko'rinishli odamlar kelib o'tirishdi. Ular mendan ancha narida o'tirganlari uchun nima haqida gaplashayotganlarini anglay olmadim, lekin yuzlarida tashvish belgilari borligini sezdim. Har kim o'zicha xayol surib, uzoq vaqt sukut saqlab o'tirdi. Shundan keyin qahvaxonaga ancha vaqtgacha odam kelmadi. Kichkina yumaloq soat qahvachi tomonga o'girib qo'yilganligi uchun soat necha ekanligini bilolmay o'tirardim. Oradan ancha vaqt o'tdi. Qahvaxonada o'tirganlarning ko'pi ketib qoldi. Nihoyat, qahvachi soatni men tomonga o'girdi. Soat o'n yarim ekan. Shunday bo'shashgan, loqayd holda edimki, hatto o'rnimdan turish ham malol kelayotgandi. Ketish taraddudiga tushganimni ko'rgan qahvachi:

— Arap uyingiz yaqin orada bo‘lsa, shoshilmang, — dedi. — Qahvaxonani soat birgacha berkitmaymiz. Bu yerdan yaxshiroq joy topa olasizmi?

— A-a-a, rostdan-a? — dedim. — Bo‘lmasa menga yana bir stakan choy olib keling... Bir parrak limon bilan.

Xuddi shu payt ichkariga bir odam kirib keldi. Kirgan odamning qosh-kipriklarini qor bosgan, egniga jaketga o‘xshagan oq narsa kiyib olgan edi... Kelgan odam pechkaga yaqinlashdi. Egnidagi qorlarni sidirib tashladi-da, kursilardan biriga o‘tirdi. U yoshgina yigitcha ekan. Qorlari erib, tushgandan keyin, ko‘z oldimda oppoq yum-yumaloq yuz paydo bo‘ldi.

Bu yigitcha kelguniga qadar g‘ala-g‘ovur bo‘lgan qahvaxona, u ichkari kirishi bilan suv quygandek jimjit bo‘ldi-qo‘ydi. Bir chekkada narda o‘ynab o‘tirganlar ham o‘yinni yig‘ishtirib narda qutisini sharaqlatib yopdilar-da, chiqib ketdilar. Shundan keyin xonada uzoq davom etgan, pashsha uchsa eshitiladigan sukunat hukm surdi.

Yigitchaga qaradim, u to‘g‘riga tikilgancha o‘tirardi. Keksalar ham odatlariga qarshi sukut saqlab, qovoqlarini solib o‘tirar edilar. Qahvachi qahva pishiriladigan o‘choq oldida boshini ikki qo‘li orasiga olib o‘tirardi. Qahvaxona kabi doimo g‘ala-g‘ovur bo‘ladigan joyda o‘n daqiqa davomida “tiq” etgan ovoz eshitilmasa, vahimali bo‘lar ekan. Dahshatli sukunat cho‘zilgandan cho‘zilaverdi.

Yigitcha goho oyog‘ini chalishtirib, goho yerga tirab o‘tirar, lekin o‘tirgan o‘rniga hech bir o‘rnasha olmay qiynalardi. Imtihon topshirayotgan o‘quvchiga o‘xshab, atrofga qo‘rqa-pisa nazar tashlar, imtihon qabul qilayotgan komissiya a’zolari oyoq chalishtirib o‘tirganini ko‘rib qolishidan qo‘rqqandek goho turib ketar, goho o‘tirib olar edi. Yigitcha bir oyog‘iga qizil astari yerda sudralib turgan yirtiq kalish kiyib, ustidan ip bilan bog‘lab olgan edi. Ikkinchi oyog‘iga bo‘lsa laqqa baliqqa o‘xshab og‘zi ochilib qolgan eski futbol botinkasini ilib olgan, botinkaning yirtig‘idan yigitchaning barmoqlari shundoqqina ko‘rinib turardi.

Qahvaxonada hamon sukunat hukm surardi. Men juda hayron bo‘ldim. Nazarimda o‘tirganlardan kimdir dabdurustdan:

— Ajina keldi!

Yoki bo‘lmasa:

— Qiz tug‘di! — deb aytishi va bu gapga hammamiz kulib yuborishimiz kerakdek tuyulardi.

Biroq hanuzgacha hech kim lom-mim demasdi. Yana boya kelgan yigitchaga qaradim. Ko‘zimga uning yuzi emas, keng peshonasi yaqqol ko‘rindi. Peshonasida ajin ham, ma’no ham yo‘q edi. Egnida jaketi ham yo‘q, faqat tagi oq, ustida qora chizig‘i bo‘lgan ustki ko‘ylagi bor edi, xolos. Ko‘ylagi ustidan yag‘iri chiqib ketgan ro‘dapo oq jemper yopinib olgan edi. Jemperining oldini to‘g‘nag‘ich bilan mahkamlab qo‘ygan edi.

Unga tikilganimcha hayratlanib o‘tirardim. Qimirlashga holim yo‘q edi. Shu paytda qahvaxonaga eshigi ochilib ichkariga bir odam kirdi va to‘g‘ri yurib keksalar oldiga bordi:

— Sizlarni yo‘qlayapti, — dedi. — Es-hushi joyida. Lekin tong otguncha bormi-yo‘qmi, bunga aqlim yetmaydi. Tez-tez hushidan ketib qolyapti. Ali og‘a, seni yo‘qlayapti, Mahmud chovush, seni ham. Hasan, istasang, sen ham boraqol. Sho‘rlik seni juda yaxshi ko‘rardi.

O‘tirganlardan uch kishi oyoqqa turdi. Turganlar pechka oldida o‘tirgan yigitchaga qiyo boqmay o‘tib ketdilar. Lekin butun ko‘rinishlari bilan bola-faqirga igna sanchgandan battar qilishdi. Ataylab yuz o‘girib ketgandek qilishdi. Yigitcha ko‘zlarini katta-katta ochib olimdan o‘tib ketayotganlarga yalingandek mo‘ltirab turardi.

Qahvachi bo‘lsa yigitcha oldiga shu mahalgacha bir stakan choy qo‘yay demasdi. Ko‘p o‘tmay qahvachi ham o‘rnidan turdi. Oldimdagi finjonlarni[1] yig‘ishtirib olayotganida:

— Mening hisobimdan shu bola bechoraga ham bir stakan choy bering, — dedim.

Qahvachi boshini ko‘tardi-da, menga g‘alati qarab qo‘ydi. Men uni yigitchaga choy olib kelgani ketdi, deb o‘yladim. Qahvachi oldiga yetib kelishi bilan yigitcha sakrab o‘rnidan turdi. U qotib qolgandek qahvachining oldida tik turib qoldi. Qahvachi-

[1] **Finjon** — dastagi bor piyola

ning itmisan-eshakmisan demay, yonidan o'tib ketganini ko'rgan yigitcha:

— Dadam to'g'risida gapirdinglarmi? O'lim to'shagida yotgan emishmi? — dedi.

Qahvachi sukut saqlab turardi. Bu ta'na toshi kabi botayotgan achchiq sukunat edi. Keyin xuddi muz erigandek bo'ldi-yu, qahvachi javob qaytardi. Lekin uning javobi men uchun ma'nosiz, yigitcha uchun achchiq bo'ldi:

— U, sening dadang emas! — Qahvachining javobi shunday qisqa bo'ldi.

Yigitcha lom-mim demadi. Qat'iy qaror qabul qilgan odamdek shaxdam qadam tashladi. Lekin ostonaga yetganda eshik ochishga jur'at etolmay turib qoldi. Shunda qahvachi:

— Uyga borishni xayolingga ham keltirma. Xolangning o'g'li eshik tagida poylab turibdi, seni birato'la saranjomlab qo'ya qoladi! — dedi.

Yigitcha o'ylanib qoldi. Uning xayoli qaygadir uchib ketgan edi. Har xayolga borgani yuzidan sezilib turardi. O'zini ichkariga uloqtirgan kuchli shamolni kesib ketgandek eshikni ochdi-yu, tun qo'yniga sho'ng'ib ketdi.

Ancha vaqtgacha savol berishdan o'zimni tiyib o'tirdim... Qahvachi menga orqasini o'girib turardi. U taqir-tuqur qilib allanimalarni ag'dar-to'ntar qilardi. Yuzini menga o'girishini kutib o'tirdim. Lekin u haliveri ishini bitiradiganga o'xshamasdi. Nihoyat, men tomonga o'girildi.

— Nima gap bo'lgan edi, baraka topgur? — so'radim shunda.

Belidagi fartukni yechish harakatida bo'lgan qahvachi savolimga qanday javob qilishni o'ylayotgandek xayolga toldi.

Shu payt eshik yana ochildi. Boyagi, bemorning oldiga uch kishini boshlab ketgan kishi, bir mo'ysafid bilan boshlashib ichkari kirdi. Eshikdan kirishi bilan:

— Olamdan o'tdi, — dedi u kishi. — Anovi daf bo'ldimi?

Qahvachining qo'llari orqasiga, fartugining bog'ichiga yopishib qolgandek edi. Fartugi bog'ichini yechgan joyida boshqatdan bog'lab qo'ydi. So'ngra men o'tirgan stolga yaqinlashdi. Xuddi bor alamini mendan olishi kerakdek:

— Aravakash Komil og‘a o‘libdi... Boyagi it uning o‘g‘li bo‘ladi. Singlisini yomon yo‘lga boshlagani uchun otasi uni uyidan haydab yuborgan edi, — dedi so‘zlarini chertib. Keyin boshqalar tomonga o‘girilib: — Bu nomussiz pushaymon bo‘lganidan emas, meros ilinjida kelgan, — dedi. Keksalardan biri uning fikriga qo‘shilmaganini bildiradigan ohangda:

— Pushaymon bo‘lib kelgan taqdirda ham uni hech kim kechirmaydi! — dedi.

Men tilimning uchiga kelib qolgan bir savolni qanday qilib berganimni ham, nima sababdan berganimni ham bilolmay qoldim. Bu savol atrofdagilarga qanday ta’sir qilganini o‘ylab o‘tirmay, dabdurustdan:

— Qiz nima bo‘ldi? — deb so‘radim.

Juda noqulay vaziyat vujudga keldi. O‘tirganlar bir-birlariga qaramay, yer chizgandek bo‘lib qolishdi. Hech kimdan sas-sado chiqmadi. Xonada boyagidan ham vahimali sukunat hukm surar edi. Ko‘zlargina emas, hatto sukunatning o‘zi ham, sukunatdagi harakatsizlik ham:

— Nega shuni so‘rading?

— Nima keragi bor edi?

— Shundan boshqa gaping yo‘qmidi?

— Juda ham bachkana ekansan!.. — deyayotgandek tuyulardi menga.

Hech kim javob bermadi, pulni stol ustiga tashlab qahvachiga qaradim. U boshini xam qilib, chuqur xayolga tolgan edi. Rangi sarg‘ayib ketgan, qo‘llari esa hamon fartugining bog‘ichini yechish bilan ovora edi. Eshikni ochib tashqari chiqdim. Qizning nima bo‘lganini bilolmadim. Lekin qahvachi uni yomon yo‘ldan qaytarib olganini tushunib olganmikinman-a?

PLAJDAGI OYNA

Shundan keyin telba bo'lganiga ishonch hosil qilingan bir odam plajning oynasini sindirdi. Bunga odamlarni mutlaqo ko'm-ko'k ko'rsatgan, sirining tagi ochilgan, oynali xona insonlarning qiyofasini badbashara ko'rsatganiga jahli chiqdi, deya tavsif berdilar. Yo'q, unday emas, avvalambor u oynachi emish, Italiyadan oyna sotib keltirar ekan: so'ngra bu ishda sinibdi, ozroq yolg'on ishlatib ham ko'ribdi, befoyda, oyna ko'rdi deguncha, sindirmasdan ketolmasmish, deya uydirma to'qidilar. Ishning aslini esa bir men bilaman, bir oyna.

U holda oynani sindirgan ham sen ekansan-da, deyishingiz mumkin. Juda yaxshi! Oynani sindirgan menman. Telba bo'lganimga ishonch hosil qilindi. Ammo zararsizmishman, ha, juda ham zararsizmishman. O'chimni oynalardan olayotgan emishman. Bular to'g'ri emas! Aslida bunday:

Oynaning sinishiga hech bir sabab yo'q. Shunchaki sindirdim. Ichim qizidi, ermak uchun sindirdim, deb ham aytolmayman. U chiroyli odamlarni xunuk qiyofada ko'rsatarmish; ayting-chi, bunga qanday munosabat bor, afandim. Go'zal insonlarni xunuk ko'rsatgan oyna, ularning haqiqiy basharasini aks ettiradi. Bunday oynani plajlarga osmaslar. Bo'lmasam, oynada insonlarning chirkin taraflarini ko'ra boshlasang-chi... Qani, yozuvlar oynada qanday teskari ko'rinsa, insonlar ham senga shunday teskari ko'rinyaptimi, dersiz, men ham sizga falsafadan sira kayfim chog' bo'lmaganini, ayniqsa, bunday dohiyonasidan jirkanib kelganimni arz qilaman.

Yo'q, oyna oyna-da. Bunday chalkashliklarni bir-biriga aralashtirib bo'lmaydi. Qaysidir ahmoq uni qaysidir zamonda ijod etsa etgandir; sochimizni taramoq, betimizda qopa-pora yo'qmi, deya boqmoq, burnimizni qoqib, etda-betda qalog'i qolmadimi, deya ko'z yugurtirmoq, yoxud bo'lmasam:

— I-ye! Mening ko‘zlarimga biror narsa bo‘libdimi? Og‘zimning chetiga tushgan manavi chiziqqa qarang! Voy onasini... Bunga albatta ahamiyat berishadi! Shu xotinlar ham erkak deganini yaxshi bilishmaydi, vassalom...

Bir narsa deya olgani uchun ishga yarar. Har holda, o‘zing bilan o‘zing suhbatni istaganingcha mana shu oyna orqali cho‘za berasan. Harqalay, oynaga bir yosh qiz qarashga majbur qilsa, bir erkak o‘yga soladi. Oshig‘-u beqarorlarga oyna o‘zini o‘ptiradi. Oynada keksalar o‘lim, tobut, kafan ko‘rsa, sillar qo‘rquv otashi nurlanib turgan o‘z ko‘zlarini ko‘radilar. Oyna ba’zi odamlar uchun dushman, ba’zilar uchun esa do‘st bo‘lishi mumkin. Inson istasa, oddiy bir oynaning sinish sababini falsafaga, adabiyotga, ruhiyatga, tibbiyotga, qabristonga yuklay oladi. Mening plajdagi oynani sindirishimga esa hech qanday qat’iy sabab yo‘q. Ammo sizga bir o‘tgan kunimni yozayotirman. Juda ma’nosiz chiqsa kerak, negaki orada biror-bir sabab yo‘q-da...

Zaytun daraxtining tagida bir kichkinagina bola o‘ynab o‘tirardi. Uning yoniga yaqinlashdim. U ko‘m-ko‘k zaytunlarni qo‘rqa-pisa menga uzatib:

— Siznikini bular? — dedi.

— Ha, meniki! — dedim.

— Men tosh otmadim, — dedi, — bular o‘zi to‘kildi.

— Qanday ekan? — deya so‘radim.

— Achchiq, — dedi.

Yonib turgan tiniq, moviy ko‘zlarini dam-badam qirmizi kipriklari yumib turardi.

— Bularning nima ekanligini bilasanmi?

— Yo‘q, — dedi.

— Sen zaytun nimaligini bilasanmi?

— Bilaman, albatta.

— Mana xuddi shu zaytun bo‘ladi.

— Siz uni nahorda yeysizmi?

— Nima, sizlar zaytunni ertalabdan yeysizlarmi?

— Ha!

— Sening otang kim? — dedim.

— Mening otam yo‘q, — dedi.

Moviy ko‘zlariga, ko‘z qovoqlariga oltin nurlar tushdi. Yo‘g‘on lablarini cho‘za-cho‘za:

— Otam o‘lgan, — dedi.

— Qayerda o‘lgan?

— Urushda.

— Qaysi urushda?

— Mustaqillik urushida.

Ichimda mening do‘stim, qardoshim, jonim, ruhim, avlodim, jigargo‘sham dedim.

— Zaytunlar-la o‘yna, ammo, — dedim, — hech kimga tosh ota ko‘rma, xo‘pmi?

— Bu zaytunlar siznikimi?

— Yo‘q, meniki emas. Bu zaytunlar hech kimniki emas.

— Uyga olib ketaveraymi bularni?

— Bular o‘zi tushgan, ezilib ketibdi, yaxshi emas, demakki, qurtlagan.

— Unday bo‘lsa o‘ynayman, — dedi.

— O‘yna, ammo yemagin. Bularning hammasi achchiq.

— Yaxshilari ham achchiq bo‘ladimi?

— Yaxshilari ham achchiq bo‘ladi.

— So‘ngra qanday qilib shirin bo‘ladi?

— Uni men ham yaxshi bilmayman.

— Bo‘lmasam kim yaxshiroq biladi?

— Nima qilarding?

— Ertalab yemak uchun zaytun hozirlardim.

— Onang bormi?

— Bor.

— Nima ish qiladi?

— Kir yuvgani ketadi.

— Sen katta bo‘lganingda kim bo‘lasan?

— Menmi?

Bola ko‘zlarini ko‘zimga tikdi. Ikkimiz ham bir-birimizga sof-dillik ila boqdik.

— Men, bo‘yoqchi bo‘lmoqchiman.

— Qanday bo‘yoqchi?

— Poyabzal bo‘yoqchisi.

— Nega endi poyabzal bo‘yoqchisi?

— Yana kim bo‘lishim mumkin?

— Doktor bo‘l.

— Bo‘lmayman, — dedi.

— Nega endi?

— Bo‘lmayman, vassalom.

— Nima sababdan?

— Doktorlikni sevmayman.

— Shunday qilish yaxshimi? O‘ylab ko‘r-a, — dedim, — doktorni sevmay bo‘ladimi?

— Undan ixlosim qaytgan, — dedi. — Onam kasal bo‘lgandi. Doktor uyimizga keldi. Puldonimizni sindirdik. Hamma yigirma beshtaliklarni unga berdik. Nuqul tangalar qoldi. Ularni ham retseptga ketkazdik. Zo‘rg‘a yetdi.

— Ammo onang tuzaldi, to‘g‘rimi?

— Onam yaxshi bo‘ldi-yu, ammo pulimiz ketdi. Ikki kundan beri ovqat yeganim yo‘q.

— Yaxshi, — dedim. — Unday bo‘lsa o‘qituvchi bo‘l.

— Men maktabga bormayman-da.

— Nega?

— O‘qituvchi meni uradi.

— Nega endi?

— Yaramaslik qilganim uchun.

— Yaramaslik qilma-da.

— Men yaramaslik nima ekanligini bilmayman.

— O‘qituvchining qilma degan narsasi yaramaslik bo‘ladi, — dedim.

— Unchalik ravshan emas... Bir kuni o‘rtoqlarimdan biri: “Zoti past jomashovchi”, deb qoldi. Men uni toza do‘pposladim. O‘qituvchi esa meni do‘pposladi. Shundan so‘ng hamma meni “zoti past jomashovchi” deb chaqira boshladi. Ammo yaramaslik bo‘ladi, deb hech kimsani urmadim. Oradan bir necha kun o‘tgandan keyin, yonimdagi o‘rtog‘imning bitta qalamini oldim. Uniki ikkita edi. Sen o‘g‘risan, deb savaladilar. Qalamim yo‘q bo‘lgani uchun oldim-da. So‘ngra bilsam, bu ham yaramaslik emish hamda juda yomon ish

emish. Endi hech kimning qalamini olmayman, deya va'da berdim va daftarini oldim. Bu safar ham urdilar, ham maktabdan haydadilar.

— Yaxshi ish qilmabsan.

— Ha, yaxshi ish bo'lmadi. Lekin men yaxshi odam bo'lishni istamaymanmi, albatta istayman...

— Kim bo'lishni istaysan?

— Bo'yoqchi bo'lmoqchiman, deb aytdim-ku. Ahmad og'abeyim ham bo'yoqchi.

— Ahmad og'abeyingni yaxshi ko'rasanmi?

— Yaxshi ko'rganda qandoq. Uni onam ham sevadi. Ba'zan kechalari biznikida qoladi. Pul berib turadi. Och qolsak, ovqat topib keladi.

— Asl og'abeying emasmi?

— Qanday asl og'abeyim?

— Oddiy, haqiqiy og'abeying. Buvangning o'g'li emasmi u axir?

— Yo'q.

— Bo'lmasa kimning o'g'li?

— Bilmayman.

— Yoshi nechada?

— Mendan katta.

— Sen necha yoshdasan?

— To'qqizda.

— U-chi?

— Ishqilib, katta-da.

— Kattaligi qancha?

— Senchalik bor.

— Hm-mm, shunaqa degin... Xo'p, yaxshi, bo'yoqchi bo'lganingdan keyin nima bo'ladi?

— Pul topaman.

— Keyin?

— Keyin, aroq ichaman.

— Keyin?

— Keyin yangi botinka olib, yasanaman.

— Keyin?

— Keyin sigaralar chekaman.

— Keyin?

— Voy-bo‘, juda ezma ekansan-ku.

— Bu so‘zing noo‘rin. Qulog‘ingni burash kerak.

— Onamga aytib bersam-chi, sizni...

— Salom ham aytgin.

Ro‘paradan boshiga ro‘mol o‘ragan yuzi dumaloq, yengiltabiat bir ayol keldi.

Bola to‘g‘ri u tomon chopdi:

— Oyi qarang, zaytun emish, — dedi.

Ayol jerkib tashladi:

— Tashla ularni qo‘lingdan.

Bola bir daqiqa tashlashini ham, tashlamasligini ham bilmay o‘ylanib qoldi. Keyin men tomon yurib kela beshladi.

— Ularni nima qilasan, ahmoq? — deb ayol baqirishi bilanoq zaytunlarni aftimga qaratib otdi.

Men kulib:

— Xafa bo‘lmang, xonim, — dedim, — bola-da. Shunda bola:

— Oyi-chi, oyi, — dedi, — ikki soatdan beri meni gapga tutayotir.

Ayol:

— Seni yaxshi ko‘rganidan suhbatlashgan-da, o‘g‘lim, una-qangi qo‘pol bo‘lmagin, — dedi.

— Men uni xush ko‘rmadim... Ahmad og‘abeyim kabi bo‘yoq-chi bo‘lmoqchiman, dedim. Yo‘q, sen doktor bo‘lgin, deydi.

— Senga yaxshi maslahat beribdi.

— Kerakmas. O‘zi, doktor bo‘la qolsin. Axir, sen menga: “Yer yutsin u ta’viyalarni!” demaganmiding?

— Shunday deganmidim! Alloh muhtoj etmasin, demaganmidim?

— Shunday deding.

Ayol menga o‘girilib:

— Shundaymasmi, beyafandi, — dedi. — Alloh hakimga muh-toj etmasin.

— To‘g‘ri, muhtoj etmasin, — dedim.

Bola endi surbetlik qila boshladi. Onasining oyog‘i ostida o‘ra-lashib nafrat-la unga tikilardi.

— Oyijon, — dedi, — men bo‘yoqchi bo‘laman-a, shunday emasmi? Ayol:

— Boshqa kim ham bo‘larding?

Bola:

— Mening otam kim edi, oyi? — dedi. Ayol:

— Bo‘yoqchi edi, — dedi.

Bola menga:

— Ana, eshitdingizmi? — dedi. — Otam ham bo‘yoqchi bo‘lgan.

Shunda men ayolga qarab:

— Shundaymi? — deb so‘radim.

Ayol:

— Ha, — dedi.

— Urushda o‘lgan ekan, qaysi birida? — dedim. Ayol:

— Urushda o‘lmadi, — dedi.

— Siz menga shunday demaganmidingiz, oyi? — dedi bola.

— Kim aytgan senga urushda o‘ldi, deb?..

— Ahmad og‘abeyim.

— Ahmad og‘abeyingni Alloh jazosini bersin.

— Ammo ovqatni u keltiradi-yu...

— Bo‘ldi, bas qil! Jo‘na bu yerdan!

Bola yangitdan zaytunlarni to‘plagandi. Ayol:

— Tashla, u zaharday narsalarni! — dedi.

Bola ularni yana basharamga otdi. Onasi bu safar bolasining yuziga bir shapaloq tushirgancha, tez-tez vayronalar tomonga yurib, uzoqlashdi. Shu orada yiqilgan bir masjid devorining ortidan:

— Ol, yigitingni ham o‘zing bilan yerto‘laga! — dedi. Shunda onasi:

— Uyatsiz cho‘chqa, — deganicha bolasi tomon yurib ketdi. Lekin menga ham ko‘z qirini tashlab qo‘yishni unutmadi. Xuddi sehrlangan kabi ayolning ketidan qolmadim. Eshik o‘rniga tutilgan yirtiq qopni ko‘tarib ichkariga kirdik. Orqada hammomlarda bo‘lgani kabi to‘qmoqli bir eshikni ochdik. Ichkaridan tozalanmagan jirkanch odamning hidi ila hojatxona hidi “gup” etib dimoqqa urildi. Kleyonka bilan yopilgan xontaxtaning ustida ikki dona pomidor, ikkita bodring bor edi. Ayol:

— Aroq olayinmi? — dedi.

— Istamayman, — dedim.

— Puling yo‘q shekilli?

Ich-ichimni ezayotgan bir shahvat havosini qochirajagimdan qo‘rqqan kabi:

— Bor, bor, — dedim, — ammo ichishni ko‘nglim ko‘tarmay turibdi, kun issiq.

Ko‘zlarini ko‘zimga tikdi. Qo‘lini asta hamyon cho‘ntagimga urdi. Bir-ikkita yarim so‘mlik chiqardim. Ko‘nmadi. Bir-ikkitasini yana zo‘rg‘a topdim.

— Boshqa pulim yo‘q, — dedim.

Kuldi. Qo‘llarini bo‘ynimga tashladi. Tizzalarimga o‘tirib oldi. Bolakay kulbaning chetiga yig‘ilgan toshlardan yuqorida bir teshikka tiqilib o‘tirardi. Boshini uzatib olgan, moviy ko‘zlari bilan bizga boqardi.

— Bola bor-u? — dedim. Ayol:

— Hechqisi yo‘q, — dedi. — O‘rgangan.

Bola sobit ko‘zlar-la yarim soat chamasi bizlarga tikilib turdi. Ikkida bir, qachon cho‘ntaklariga solib olganini xotirlamayman, zaytun donalarini boshimizga otardi. Birdam boshini qo‘llari orasiga oldi. Hayvon o‘kirganday, qizarib-bo‘zarib baqira boshladi. Ayol:

— Besh-o‘n tanga ot unga, ovozi o‘chsin. Bo‘lmasa hech tinmaydi, — deya shivirladi.

Avvalo ikkita besh piastr otdim. Olmadi. Yana bir piastr otdim. Keyin bitta yigirma besh tiyinlik otdim. Besh daqiqacha sukut bo‘ldi. Keyin yerto‘laning ichini jaranglatib yuborgan qo‘nig‘iroq kabi ovoz chiqardi. Bamisoli temiryo‘lchilar hushtagi chalinganday bo‘ldi. Ko‘zlari menda edi.

— Mana hozir Ahmad og‘abeyim keladi-ku, o‘shanda ko‘rasan! — deyardi. Yana bitta yigirma besh tiyinlikni otdim.

— Bir dona tag‘in otmasang... — bolaning gapi og‘zida qoldi, onasi sekin tizzamdan tushdi. Meni yerga yiqitib yuborgudek shaxdam qadam bilan oldiga bordi-yu, shapaloq tortib qoldi. So‘ng menga o‘girilib: — Ber yana yigirma beshlikdan, tezroq, — dedi.

Bola kichik qora qo‘lini uzatdi. Yigirma beshtalikni oldi. Bizga orqasini o‘girdi. Hozir quloqlari tovushlarimizga tikilgan bir

ko‘ppak kabi dikkayib yotardi. Oradan biroz muddat o‘tkazib, yarim oydinlikka chiqqanimda chakkalarimda zo‘r bir og‘riq bor edi. Darrov plajga yugurdim.

Plajga tozalanmoq, bir narsadan soqit bo‘lmoq, farahlanmoq uchunmi, yugurdim. Yerto‘ladan tashqariga chiqqanimda, quduqdan issiqlikka chiqarilgan bir kuvacha kabi terlab ketgandim. Ayniqsa, boshim terlagandi. Barmoqlarimni sochlarimga taroq qilib tortgandim, tirnoqlarim bir namxushlikka borib tegdi. Bu namxushlik negadir menga qizargan kabi tuyuldi. Qo‘limga boqdim. Qarasam, bu namxushlikning ter emasligini, boshimdan qon sizganini anglaganday bo‘ldim. Shunday qilib, u zamon boshimdam qon sizayotgan, deb hisoblab, dengizga chopgandim. Borib o‘zimni suvga otgunga qadar go‘yo yo‘l-yo‘lakay hech narsa ko‘rmaganman, deb yurardim. Holbuki, tozalik vujudimni qoplar-qoplamas bir yashil o‘t, bir xaroba, bir bola, bir tuman, bir tramvay yo‘li, bir ko‘pak ko‘rganligimni xotirladim. So‘ngra ayolning, bolasining ko‘zlarini ko‘rdim. Bola xuddi ustimda turganday. U razilning odamga tikilishini qarang!

Dengiz suvi yaxshi keldi. Yaxshi kelishi-kelmasligi muhim bir ish emas. Yolg‘iz shuni anglaganim zamon biram rohatlandimki, boshimdan sizgan narsa qon emas, ter ekanligini bildim. Agar o‘shanday bo‘lganda dengiz qip-qizil rangga bo‘yalardi. Shunday qilib, dengiz suvining tekkan foydasi shu bo‘ldi. Yo‘qsa, hanuzgacha chakkalarim og‘rigan bo‘lardi. Biroz yengillashayotganimni dengizga tushgandan keyingina his etdim. Hanuzgacha noxush hid kelib turgan, sovuq, juda ham sovuq yerto‘la havosi, ko‘zlarini bizga tikib qolgan moviy ko‘zli, qo‘llari yorilib ketgan va zog‘ora non kabi qop-qora bir bola tuman holida to‘xtovsiz ko‘z oldimda kezardi.

Endi sizga oynaning sinish sababini topganday bo‘lib turibman. Menga, sen oynada o‘zingni oppa-ochiq, butun ayonliging, chirkinliging bilan, iflosliging, pastkashliging ila ko‘rding. Shuning uchun sen... Shiddat-la xayr, mayli, deyman. Siz kulimsiraysiz. Oynada butun insonligi, butun chirkinligi ila namoyon bo‘lganligi uchun, insonlarning butun diyonatlarini, safolatlarini... ochiq ko‘rganligi uchun... Vallohi ham xayr, billohi ham xayr.

U holda sen pastkash odamsan, demoqchisiz. Nega bunday deyapsiz, jonim? Bir plajning iflos oynasini hech bir kimsa tushunmasdan, shuursizcha egilib yerdan bir tosh olib, hatto u toshni dengizning turg'un yuzida to'rt-besh karra sakratmoq uchun yetmaydi, oynani hatto ermak uchun emas, shunchaki, bir sinab ko'rish uchun sindirmaydi, shunday qilib, sindirish... nimadan bo'ldi?

Bir-ikkita shubhali shaxslar yugurib kela boshladilar. Ularni ko'rib qochdim. Ushlay olmadilar. Negadir keyin men orqamga qaytib, plajga yaqqol ko'rinib turgan bir daraxtning tagiga chalqancha yotdim. Hammalari plaj sohibining kulbasi oldiga to'plangan edilar. Oradan yarim soat o'tsa-da, hanuzgacha mendan bahs yuritishardi. Yana bir soat shunday turishgach, oyoqqa turdilar, tortishdilar, kulishdilar, fikr bayon etdilar. So'ngra bir politsiyachi keldi. Masala unga ham anglatildi. U ham tingladi. U ham fikrini so'ylayotganday edi. Men boshqa yo'ldan kema bandargohiga borish uchun hozirlandim. Yo'l juda ham uzoq, o'zim esa nihoyatda charchagandim. Daraxtning tagida kech bo'lishini kutdim.

Barkashday oy chiqdi. Kazinolardan sadolar, qahqahalar, taraqa-turuqlar eshitila boshladi. Shunda qo'limni sochlarimga tekkizdim. Fikrlarim tartibsiz edi. Tarog'imni olib, sochlarimni taradim. Sigara tutatdim. Bir valsni o'zimcha xirgoyi qila boshladim. Shimimning cho'ntaklariga qo'llarimni suqdim. Plajda hushtak chalib, barcha kabi, bir mas'ud odam singari oynani sindirgan men emasdek, o'z yo'limga ketdim.

XASTALIK

U qo'tir bolaga men bir kinoteatrning eshigi oldida duch kelib qoldim. Oyoqlari yalang, hammayog'i olachalpoq bo'lib ketgan, terisining har yer-har yeri ko'karib turardi. Lekin uning katta, qo'y ko'zlari bahorda bodom daraxti qanday go'zal bo'lsa, shunday go'zallik ila boqardi. Bu bola qandaydir tanishga o'xshaydi. Balki qaydadir ko'rgandirman. Qayda? Ko'chada bunday bolalar son-mingta. Ular har kuni butun jaddalarda, ko'priklar ustida-yu, ostida, kinoteatrlar eshigida uch-beshtalab, har bir kabobxona, har bir ichak-chavoq pishirib sotadigan oshxona oldida ko'zga tashlanib turadi. Bir qarasang, ular g'oyib bo'lib qoladilar. So'ngra to'satdan yana o'zlari bilan go'zal joylarga, kinoxonalar-u axlatxonalar atrofiga, qorli iflos bo'lib ketgan jaddalarga to'planadilar.

Qo'tirning ko'zlari menda edi. U, bir ko'zini go'yo tanish kishidek qisib ham qo'ydi. Ust-boshiga nazar tashladim. Yolg'onga ne hojat, uning bu qadar ayanchli ahvolini ko'rib yuzimni burishtirdim. Burishtirdim-ku, birozdan keyin mening ham bolaligim tutib ketdi. Unga bir ko'zimni qisib, tilimni chiqardim.

U bunga ahamiyat bermay kuldi. Boshini boshqa tomonga burdi. Kissalarga qo'lini uzatishda davom etdi. Bu juda ham katta, dahshatli bir qo'l edi. Nozik yuziga nisbatan ikki marta katta bo'lgan bir qo'l... Har yer-har yeriga och ko'k tusli dori surtilgan. Bilaklarini yiringli yara bosib ketgandi.

Boshqalarga ham yuqsin degan aqida moxovlardagi holat ruhiyasiga singib ketgandi.

Men, moxovga mubtalo bo'lganlarning niyatlari yaxshi emas ekan deb o'qigandim. Balki qo'tirlar ham shundaydir.

Yoniga yaqinlashib:

— Qo'lingdagilar nima? — dedim.

— Qo'tir! — dedi — Boshqa narsa emas.

Qo'tir, na qo'rqinchli, na mudhish bir xastalik. Hatto ma'qul deyishni istadi chamamda.

Qo'liga tushgan besh tiyinlikka bir nazar tashladi. So'ngra boshini ko'tardi. Mana shu asnoda, u qo'y ko'zlardan, insonlarni qodirliklariga qarab emas, mavjudliklariga qarab sev, deb aytishi mumkin bo'lgan fikrni o'qidim.

Ba'zi kinolarda insonning ichidan boshqa bir insonning qalqib chiqishi ko'rsatiladi. Ichimdan go'yo ana o'shanday romantik maxluq qalqib chiqdi. Bolaning qo'tir mikrobi shu zahoti uning ko'zlariga ham yo'l oldi. Mana, hozir shu kinoga gala-gala bo'lib kirib ketayotganlarning ichida aptekachilar, doktorlar, umuman, yaxshi insonlar, marhamatli kishilar bo'lishi mumkinligini tushundim. Bir muddat men ham mana shu qo'tirga duchor bo'lishim mumkinligini o'yladim. Ellik qurushli oltingugurt dorisining yarmini bir iloj qilinsa, vassalom...

Qani endi bir odam shu oqshom kinoga bormay qo'ya qolsa...

Madmuazel sil bilan og'riganlarga besh qurushlik yordamga beriladigan markalarni yopishtirmagan bo'lsa, qopday semirgan xonim bilet olmagan bo'lsa, bu bola uch kun ichida pir-u pok bo'lardi; yaltirab turgan oppoq terisida qop-qora tuklar o'sar, so'lg'in ko'zining qo'y tusi lojuvardlashgan bo'lardi, binafsharang aralash go'zal bir qirmizilik qaytardi uning katta, baquvvat, mehnatkash qo'llariga...

Yaxshilikka, do'stlikka, sevgiga yoxud duradgorlikka, temirchilikka intilayotgan bir yuz, ko'chada odamlarning yuzlariga boqib, ko'zni qamashtirar darajada porlardi.

Bir sado ich-ichimdan menga:

Sen u pulni bera olasan! — derdi. Butun masala mana shunda. Agar men kinoga ketayotgan bo'lsaydim, unga bu pulni bera olardim. Endi men ham barcha kabi o'ylay boshladim:

"Agar shu pulni bersam, u yeydi. U qo'tir yolg'onchi bir saodat dunyosi ichida edi. Hech tushirolmagan taqdirda Istanbul ko'chalarini bir aylanib kelsa sandig'i saxiydan qancha chaqa topadi? Qo'tir bo'lishlikning zarari yo'q ekan. Faqat yotadigan bir joy topsa bas. Oh, u oqshomlar qanday go'zal! Qashinib yotaverasan!

Lekin men buni qilolmasdim. Oltmish besh qurushni bolaga

bermasdim. Bu kinoga beradigan arzimagan pulim bir insonni muhaqqaq suratda ushbu jirkanch xastalikdan qutqarishi mumkinligini bilganim holda, o'zimni ko'ngil yozishdan tiyolmasdim. Hamma kabi men ham aybdorman...

Ammo qo'tirdan qutulmoq uchun insonning yana bir qat ko'ylak-ishtoni bo'lishi lozim! Uyi, onasi bo'lishi lozim! Yuvinadigan joyi ham bo'lishi lozim!..

Oltmish besh qurush bermaslik uchun yana qanday bahonalar topishim kerak?.. Bu oqshomni o'zimga zahar etmaslik uchun yana nimalar qilishim kerak, yo Rabbiy!.."

Qo'tirli bola bir moxov kabi kimgadir suykalib ketishga emas, balki faqat yig'ayotgan pullarini ko'rsatmoqqa harakat qilarkan, o'rta yoshli, yaxshi kiyingan bir xonim afandi bolaga shunday qo'rquv, shunday dahshat-la boqdiki, asti qo'yaverasiz...

Go'yo ichimdan, kinodagidek ikkinchi maxluq chiqib keldi-da, xonim bilan, xuddi teri xastaliklari mutaxassisi kabi suhbatlasha ketdi:

"Egaxonim, bandangiz teri xastaliklari mutaxassisi, doktor Ahmad Derimsar!.. Qo'rqmang, Egaxonim. Qo'tir shunday bir xastalikdirki, bir necha kun odamni shirin qashintiradigan, aytishim kerakki, yengilgina azobi bordir. Shundan so'ng badaningiz yanada go'zallashadi. Butun olachalpog'ini yo'qotadi, uch-besh kundan so'ng qarabsizki, teringiz yangidan bitadi, yosh qizning badaniday takror sevgili yoringizning qo'yniga kiraverasiz. U badaningizni silab-siypab erkalaganda, fors gilamlarini, Anqara echkilarining momig'ini silashdan odam qanday huzurlansa, siz ham...

...Afv etasiz, g'alati bir tashbeh, ammo... Chang'i uchadigan sportchilar sovuqdan qanday zavqlanishsa, u ham shunday lazzatli bo'ladi. Qo'rqmang!..

"Bu safar u kino o'yini xotinda havas uyg'otdi. Bechora xotin, mening, ikkinchi maxluqining so'ziga ishondi. O'z-o'zidan, bosh kiyimsiz, mantosiz, portfelsiz boshqa bir maxluq qalqib chiqdi va kichkina bolaning qo'tiriga yap-yalang'och holicha tashlandi.

To'g'risi, bir xotin nimalar qila olmasdi? Men bir xayolga cho'mdim, yolg'ondakam, qo'rqinchli, ammo aql bovar qilmaydigan xayolga... "Bir xotin bu bolani o'z uyiga olib ketadi,

qo‘tir malhamini surtadi, uch-besh kun uni uyida tutib turadi, so‘ngra istasa yana mikrobning qaynagan makoni bo‘lmish ko‘chaga uni top-tozalab uloqtiradi...

To‘g‘ri, men yolg‘iz xayol-la kechinaman, men faqat xayol qasrini quraman.

HALLOJ[1]

Paroxoddan chiqayotganida uni tanigandim. Yelkasidagi yuki diqqatimni tortgandi. Har safar yanglishardim: uning yelkasidagi narsasini yo bir musiqa asbobiga, yo bir eski zamon kamon yoyiga o‘xshatardim... Aslida bu hallojning yoyi edi. Yana shunday bo‘ldi. Ko‘rmaganim, bilmaganim bir musiqa asbobi ila halloj yoyini bir-biriga chalkashtirib, bir soniyada xayolan eski romanlarda rasmlarni ko‘rganim sayyor musiqachilardan hallojga, hallojdan sayyor musiqachilarga borib keldim...

Yoz endigina boshlangandi. Kun ilk bor isigandi. Paroxod kutib turardik. Kelgan paroxoddan pristanga shunchalar ko‘p odam yog‘ildiki, bamisoli Istanbul bir qozon-u, men unda cho‘mich bo‘lib, ularga rostlasholmasdim. Ular kimlar? Nima ish qilishadi? Qanday yashashadi? Qayerda o‘tiradilar? Qanday dardlari bor? Anavi uzun sochli, skripkachiga o‘xshagan odam kim bo‘lishi mumkin? Sochlari oppoq u odam shuncha vaqtdan beri nima ish qilganki, hech o‘zgarmaydi? Usti boshidan, mo‘ylovidan, sochidan hanuzgacha Anvar Poshsholik sezilib turardi. Paroxoddan mening diqqatimni o‘ziga tortadigan hech bir kimsaning chiqmaydigan kunlari ham bo‘ladi. Ammo bunday kunlar paroxoddan chiqqanlarning yuz-ko‘zlarida yozib qo‘yilgai fikrlarini anglashni istamaganim kunlardir... U kun xuddi shunday bir kunlarimdan biri edi... Yuzidan hech bir narsani tushunib bo‘lmaydigan hallojning ortidan qarab turarkanman, uning “ting‘” ettirib o‘rta asrlarga xos o‘q otishini ko‘z oldimga keltirdim. U har safar nurga o‘xshab yarqiragan yoyni vizillatib o‘q otganda, bamisoli chiltor chalgan musiqachilarga o‘xshab ketsa kerak. Halloj qisqa bo‘yli edi. Egnida lojuvard

[1] **Halloj** — paxta savalovchi

qoramursal[1] matosidan tikilgan cholvor bor edi. Jaketini yelkasiga tashlab olgandi. Rangi malla, mayda qizil gulli ko'ylagining faqatgina bir tugmasi qadalgan bo'lib, boshqalari ochiq edi. Ochiq yerdan oq junli qip-qizil ko'ksi ko'zga tashlanardi. Yonimdan o'tib ketayotganda shunday moviy bir juft ko'z ko'rdimki, quvonchimdan ichimga sig'masdim. Shu dunyoda pokiza osmondan moviy ko'zli bir Halloj Bobo bor edi. Balki yetmishdan oshgandir. Hali bardam yurar, keng, katta tirnoqli qo'llari bilan hanuzgacha to'qmog'ini to'qillatib kelardi. U hamon dunyodan umidvor edi. U kun botgandan so'ng tepamizda turgan musaffo osmon tusidagi moviy ko'zlari ila dunyoda eng nomusli bo'lgan Halloj Bobo hikoyatini kezdirib yurardi. U qanday hikoyat edi, xotirlay olmadim. Yolg'iz bir tovush esimda: ding', ding', ding', ding'!..

Paroxoddan chiqqan boshqalarning barcha paroxod kutganlarning xoh kichik, xoh katta bo'lsin, butun gunohlari kimning boshiga tushsa tushsin, men Halloj Boboning sal bukilib, uzoqlashib ketishini ko'rganim zamon birdan gunohsiz bir yosh bolaga aylanib qolardim.

O'sha kuni juda ham issiq edi...

Paxta, jun uyumlari obdan ortilib bo'lingach, hamma sochilib ketgan paxta, shundan keyin to'qmoq ham bir chetga yig'ilganda bular bamisoli bulutlarni xotirlardi. Oqshom bo'lgach, Halloj Bobo, sochlarida paxta gardi, usti boshida jundan chiqqan chang ila paroxodga minar, Qosimposhshadagi uyiga qaytar, quduqdan suv ichardi. Qari xotini mis krujka bilan shildir-shildir etib unga suv quyardi. Halloj Bobo yuz-ko'zini yuvar, mo'ylovlarini silab qo'yar, "g'arillatib" og'zini chayardi. Keyin Allohga shukronalar aytardi...

Jun to'shaklar, paxta to'shaklar, semiz yostiqlar... Har bir uyda bo'lganidek, ora-sira sizning uyingizda ham to'shak-yostiqlar otilib turiladi. Bir oqshom uyga horg'in, balki joning juda siqilib qaytarsan. Birdan qaraysanki, yostig'ing meshday shishgan. To'shaging oppoq, bilqillagan, homilador xotinday qappaygan. Uyqu qachon keladi, bilmaysan. Shu, uyqu degani insonning sevgilisi kabi bir narsa, u kelmaguncha asabiylashaverasan. Ammo ko'ngilning qa-

[1] **Qoramursal** — Turkiyaning bip shahri. U yerda faqat mato to'qiladi.

yeridadir, to‘shakda yotish qanday maza, degan jindakkina bo‘lsa ham bir sevinch bordir.

U kun qanday go‘zal bir kun edi! Dengiz qanday musaffo! Qanday go‘zal edi qayiqlar, gulgun yuzli bolalar, xotinlar... Xuddi butun kun davomida kimsa kimsani haqorat qilmaganday... Dunyo ustiga yomon bir so‘kish, yomon xatti-harakat, yomon tushuncha u kun uchun — u kunning boshi uchun — inson qo‘lidan, inson tilidan, inson boshidan chiqmagan kabi bir oqshom bo‘ldi.

Men har galgi kabi kimsasiz, bozor-o‘charimni bitirgandim. Umuman, hayotdan mamnun edim. Nimaga qaramang, har narsa yarqirardi. Har narsa moviy, oqshomga yaqin qirmizi, so‘ngra lojuvard bo‘ldi.

Bugun hech kim o‘lmasin, bugun mushtlashishlar bo‘lmasin, bugun hech kimning ko‘zidan yosh oqmasin.

Oqshomga yaqin paroxod pristaniga ketdim. Hali paroxod kelishiga vaqt bor edi... Ikki bola pristanning panjarasida akrobatlik qilishar, bir odam yonidagi jajjigina qizchasi bilan baliq ovlardi. Qizcha baliq tangachalarini o‘ynardi... Pristanning hech qimirlamayotgan bino ko‘lankalari tushgan dengiz bamisoli Monako shahzodasining akvariumi kabi edi. Baliqlarni lipsoslar[1], lipsoslarni esa katta baliqlar quvalashardi. Qishloqdan quyosh chekindi. Faqat pristanning yarmisi zarhalli nurda cho‘milardi.

Uning narx-navo yozilgan, jadvallar osilgan qora taxtaning tagiga cho‘kka tushganini ko‘rdim. Yuzi qip-qizil edi. Bugun yaxshi ishlaganga o‘xshardi. Yuzini pristanga qaratgani hamonoq, birdan rangi o‘zgardi. Bamisoli yuziga qon quyilganday bo‘ldi. Moviy ko‘zlari kattarib, qo‘rqinchli tusga kirdi. Yoniga keldim. U yuzimga boqdi.

— Charchadingizmi, bobo? — dedim.

— Charchadim, — dedi. — Hech charchamasdim. Bilmadim, nima bo‘ldi.

— Gapingiz to‘g‘rimi, bobo? — dedim. — Hech charchamas edingizmi?

— Roppa-rosa yetmish sakkiz yoshdaman. Hech charchamasdim.

[1] **Lipsos** — skorpiyena nomli dengiz jonivori.

— Alloh umringizni ziyoda etsin! Ba'zi odamlar shunday bo'ladi.

— Yo'q — dedi. — Men charchamasdim.

— Men hech bir ish qilmadim. Lekin shunday bo'lsa ham yana charchadim.

— Ishsizlik insonni charchatadi, — dedi.

Moviy ko'zlarini yana ko'zlarimga tikdi. Sal qontalashgan edilar. Keksa halloj to'yib chuqur nafas oldi... Men yana:

— Shunday narsalar bo'lib turadi, — dedim.

— Albatta, — dedi, — demak, bo'larkan-da.

— Qoradengizlik emasmisiz, bobo?

— Ha, qoradengizlikman.

— Bugun ko'p to'shak savaladingizmi?

— Bilmasam, — dedi, — unchalik ko'p emas edi.

So'ngra bir gunoh ish qilgan kishiday:

— Ammo Xudo barakasini bersin! — dedi.

Bilmadim keyin nimalar so'radim-u, u nimalar deb javob berdi. Oradan ancha kun o'tdi, unutib yubordim. Balki ishlashdan, Xudodan, duodan, to'shakdan, paxtadan, yostiq ila ko'rpadan, ko'rpasiga qarab oyoq uzatishdan, bir to'shak topolmaslikdan, to'shakda yotishga o'rganmaganlikdan so'z ochgandirmiz. Nihoyat, u ham charchadi, men ham. Eng oxirida u:

— Paroxodga hali ko'p vaqt bormi, qachon keladi? — deb so'radi.

— Olti yarimda, — dedim.

— Hozir soat necha?

Ketayotib, soatimga qaragandim: oltiga yigirma minut bor ekan.

— Oltiga yigirmata bor, — dedim.

Boshini pristan binosining bo'yoqlari qo'llariga, kiyimlariga yuqqan devoriga tayantirdi. U paxtasini savalab bilqillatgan to'shaklarda bu oqshom uchun jindek uyqulari qochajak, o'z yotadigan yerlarini hozirlashga, o'rganib qolgan joylarini topishga urinajak kimsalarning changi, to'zoni, kiri, mikrobi singib ketgan moviy ko'zlariga titroq tushdi, odatdagidek shaffof, lekin oqish rangi buzilgan, qip-qizil tomiri ko'rinib turgan bir ko'zi biroz yumildi-yu, Halloj bobo uyquga ketdi.

Men o‘z yo‘limga keta berdim. Qirg‘oq bo‘yida pastga, yuqoriga chiqib, aylanib yurganlarni ko‘rishga qulay bo‘lgan bir skameykaga borib o‘tirib, o‘yga toldim. Birdan pristan tomondan shovqin-suron eshitildi. U yerga bir olomon to‘plandi. “Nima bo‘ldiykin?” — deb men ham qiziqsindim, pristanga bordim. Nima ko‘rgandir deysiz: Halloj bobo sariq ko‘ylagini g‘ijimlab, katta tirnoqlari-la uni yular, o‘zi esa, bandi uzilgan gulday so‘lib borardi... Atrofiga odamlar to‘plangandi. Moviy ko‘zlari qo‘rquvdan kattalashib ketgandi. Yuzi binafsharang edi. Ora-sira ko‘ylagini, ko‘ksining oppoq tuklarini iflos tirnoqlari bilan yulardi. To‘xtovsiz ravishda:

— O‘layotirman... O‘layotirman.. Yo rabbiy! Yo rabbiy! — derdi.

Bu orada moviy ko‘zlari ila yuzimga boqdi. Bilmadim, meni tanidimi, yo bo‘lmasa, doktor deb o‘yladimi...

— Doktor!.. — dedi.

Aptekaga yugurdim. Keksa qishloq doktori shoshmasdan, istaksiz men bilan birga keldi. Yo‘lda:

— Yurak tangligiga uchragan bo‘lsa kerak, — dedi. — Juda keksami?

— Yetmish sakkiz yoshdamish, doktor, — dedim.

— Unday bo‘lsa ketadi... — dedi.

Biroz odimlarini sekinlatdi. Hallojning yoniga bordi. Tomirini ushladi. Cholning hushi hali joyida edi. Moviy ko‘zlari shunday boqardiki... Doktorga goh umid-la, goh umidsizlik-la termilardi.

— Doktor, men o‘lamanmi? O‘lamanmi? Menga bir ukol qil, doktor... — derdi.

Birozdan keyin yana Xudoni esladi. So‘ngra jim bo‘ldi. Moviy ko‘zlari ochiq edi. Ammo ortiq insonchasiga boqmasdilar. Yuzi endi yerday sarg‘ayib, so‘lib qolgandi. Uch-to‘rt kishi uni dast ko‘tarib, aptekaga olib ketdilar... Dimog‘imga kamfora hidi urildi. Qo‘rquv ko‘zlarini qopladi. Peshonasi terlab ketdi. Men orqaga chekindim. Halloj Bobo o‘n besh daqiqadan so‘ng o‘ldi. Men keta turib, yana bir bor orqamga qarab qo‘ydim. Etiketlar yopishtirilgan tayyor dorilar, qator-qator qutichalar tizib qo‘yilgan, dori hidi an-

qib turgan salqin aptekada ko‘zlari kichik hovonchalarga tikilgan ko‘yi yotardi. Moviy yuzi endi qo‘rquvsiz edi. Yunon aptekachi uning ko‘zlarini yopib qo‘ydi. Bo‘ladigan ish bo‘ldi. Tamom, yetmish sakkiz yil deganda hamma narsa taqqa to‘xtadi.

Keksa doktor, yosh bo‘lganda balki omon qolishi mumkin edi, degan yo‘sinda:

— Juda keksa edi, — deb qo‘ydi.

Ertasi kuni ikki yigitcha kelib, otalarini aptekadan oldilar. Yuzlari qip-qizil anorday, boshlari katta-katta, ko‘zlari ko‘m-ko‘k bolalar edi. Kichigi:

— U-u-u-u, otajon! — deya yig‘ladi.

Endi har yili to‘shaklarimizning mikrobini, changini bu ol yonoqli, katta boshli bolalar yutmoqdalar.

Kunlardan bir kuni bir chiltor-u, bir it bilan sayohatga chiqqan ikki yetim bola paroxoddan tushib kelishdi. Ular menga Halloj boboni eslatishdi. O‘shanda bolakaylar otalarining bor-yo‘g‘ini uning o‘ligini olib ketish uchun motorli qayiqqa xarj etgandilar.

OTA-O‘G‘IL

Bir muvazziy[1] yolg‘ondan o‘zi kunda ming gazeta sota olish-olmasligi haqida munozara ochgan odam, odatdagidek, turavergani-dan terlab-pishib ketgandi. Gazetalarini mayxonaning bo‘sh bir stoliga qo‘ygan, mo‘ylovi taroshlangan, o‘zi yosh, ko‘zlari dum-dumaloq muvazziyning munozarasi taxminan oxirlayotgandi. U hech vaqt bir kunda mingta gazeta sotmagandi. Vaholanki, mana shu hunari bilan o‘n besh yildan beri band.

Yozda olti yuz donacha sotardi. Ammo hech ming dona sotmagandi. Tippa-tik turaverishdan terlagan odam mingta gazetani bir muvazziyning yolg‘iz o‘zi sota olishi mumkinligini biroz avval juda qizishib muhokama etgani uchun, muvazziy so‘zining oxirini kutmadi. O‘n daqiqa avval, o‘zidan so‘ralgan bir savolni endi xotirlaganday, gapni tamom qildi. Chap tomoniga burildi. Tippa-tik turganida ham nima uchun terlashini so‘ragan odamga tushuntira boshladi:

— Yoz-qish, kecha-kunduz, hatto uyquni urayotgan mahalda ham o‘zimdan-o‘zim terlayveraman. Otam ham shunday dedi. “Shu terni to‘xtataman”, — dedi. To‘xtatdiyam...

— Qanday qilib?

— Osonlikcha. Ozgina achchiqtosh, ozgina xina olasan. Rang beradigan xina, shu o‘zimiz bilgan keksa xotinlar sochlariga suradigan xilidan.

— Xo‘p.

— Siz ham ko‘p terlaysizmi?

— Nima... Ha... Ammo... Mening oyoqlarim terlaydi...

— Ha, mana qarang, mening oyoqlarim hech terlamaydi... Nima deyayotgandim? Ha, aytganday... Biroz achchiqtosh, biroz xina olib, suvga qo‘shasiz. Keyin shunday bir boshingizdan qo‘yib yuborasiz, ter to‘xtaydi. To‘xtashga to‘xtaydi-yu, ammo o‘n besh

[1] **Muvazziy** — gazeta sotuvchi.

kundan keyin qandaydir lanjlik boshlanadi. O‘n oltinchi kuni boshingizni o‘rab yotasiz. Hecham turmaysiz. Men doktorga bordim, terimni ko‘rsatdim. Bir armani doktor: “E, afandi ket, boshimni og‘ritma! Allohga shukronalarki, terlaysan”, — dedi.

— Demak, yaxshi ekan-da, terlashlik?

— Tabiiy, yaxshi. Ammo qalbim biroz zaif. Zarari yo‘q. Terini kesish kerak, deysanmi? Ha, sekin, otam qirq uch yoshida kestirgan.

— Voy onasini.

Muvazziy mayxonachiga:

— Otaga yana bir marotaba bir porsiya skumbriya balig‘ig‘idan ham ber! — dedi.

Terlagan odam nihoyat lablarining uchiga, burun teshigi atroflariga, oppoq va semiz bo‘yniga chiqqan reza-reza terlarini artish lozimligini his etdi. Cho‘ntagidan kichik bir qora dastro‘mol chiqardi. Yuzini, ko‘zini, ensasini, bo‘ynini artdi. Bir dastro‘molga qaradi, bir yonidagi odamga boqdi. Men ham qaradim. G‘alati bir narsa edi. Bu ikki odamdan biri muvazziy bo‘lgani yigirma besh yoshlarda edi. Narigisi ellik yoshlar chamasi. Ammo bir-birlariga shunday o‘xshashib ketishardiki!

Muvazziyning rangi toza, qirmizi edi. Holbuki, qarshisidagi odamning rangi qoramtir-sarg‘ish edi. Muvazziyning yuzi tarang bo‘lsa, uniki burushik, muvazziyning ko‘zlari porlab turardi, uniki esa so‘nik edi. Muvazziyning sochlari och dolchinrang tusda barq urib tursa, uniki qop-qora bo‘lib orasida yakkam-dukkam chiqib turgan oq tolalar ham bor edi. Terlagan odam muvazziyga:

— G‘alati bir narsa, — dedi, — bunday qaraganda hech bir-biringizga o‘xshagan yeringiz yo‘q kabi ko‘rinasizlar-u, ammo qayeringizdir judayam bir-biringizga o‘xshab ketadi.

Muvazziyning yuzida quvonchli, jonli, sodda kulgi paydo bo‘ldi. Unga o‘xshab ketgan keksa odamning lablari burildi, yuzlari yanada burushib ketdi. Bir nur porladi uning ko‘zlaridan. U ham kulardi.

Shunda muvazziy:

— O‘xshaymizmi? Tabiiy, — dedi. — Negaki, bu kishi mening otam bo‘ladi.

— Yo‘g‘-e, otangmi? — dedi haligi terlagan odam.

Bu safar chol mamnun bir ohangda:

— Ha, beyim, bu mening o‘g‘lim — dedi. — Shunday...

Keyin yana kulimsiradi. Bu safar terlagan odam ham kulardi. Lo‘ppi yonog‘ining o‘rtasida yaltirab turgan katta ter donasini xuddi burga tutganday artdi-da, kuldi.

Shunda chol:

— Nega kuldingiz? — dedi. — Hayratlanyapsizmi?

— Yo‘q-yo‘q, — dedi terlagan odam. — Nechun hayratlanay? Yoshini yashab, oshini oshagan bir farzand, shunday bir yoshdagi ota... Koshki mening ham shu yoshda bir o‘g‘lim bo‘lsaydi, baravar ichishardik.

— Hamda baravar terlardingiz, — dedi muvazziy.

Terlagan odam, chakkalaridan oqib tushayotgan marjon-marjon terlarini qo‘lining kafti bilan artib olgandan so‘ng:

— Shu ota-o‘g‘ilga mening hisobimdan aroq keltiring! — dedi.

Muvazziy ila terlagan odam yana ter bahsi yuzasidan suhbatlasha ketdilar. Muvazziyning otasi bu safar menga o‘girilib:

— Hayratlanadigan biron narsa bormi? Nima, bo‘lmaydimi? — dedi.

— Aroq ichmoq aybmi? O‘g‘irlik qilish, boshqa birovning rizqiga ko‘z tikishlik gunoh. Ota-bola ichyapmiz, — dedi.

So‘ngra ovozini sekinlatib:

— Bahriya maktabida o‘qitdim, — dedi. — Bo‘lmadi, o‘qimadi.

— Nima zarari bor, — dedim, — o‘zining ovqatini chiqarayotgandir hoynahoy.

— Alhamdulilloh, chiqarayotir. Chiqarganda ham juda boplayapti.

— Unday bo‘lsa hamma ish joyida ekan-ku.

Chol aroq to‘la qadahiga tikilgancha qoldi. Tovushini yanada sekinlatib:

— Bular ikkita edilar, — dedi. — Sho‘rolar yiqilmasidan avval stolchaga o‘xshash uch oyoqli kichik bir narsam bor edi. Shungayam yigirma yil bo‘libdi. O‘sha kezlarda gazeta sotardim. Bular maktabga borishardi. Mening ko‘zim buni emas, boshqasini mah-

kam tutgandi. "Eh, bu boshimga balo bo'lajak", derdim. To'qqiz-o'n yoshda edi u zamon. Sigaret chekardi. Usti boshiga qarab bo'lmasdi. Oyoq kiyimlarini yolchitib kiymasdi, sotib yuborardi, o'zi esa yalang oyoq yurardi. Na shapaloq ta'sir qilardi, na nasihat, ammo anavisi... Unisi, qachon qaramang, ozoda yurardi. Bir daftarlar tutardi deng... Uni juda sevardik. O'qituvchisi meni ko'rdi deguncha, uni yuzidan o'pib ketardi. Bundan to'rt yosh katta edi. So'ngra doktorlik maktabiga berdik, o'qidi. Ovrupoga borib keldi. Sening o'ylaganingday, juda zo'r doktor bo'ldi.

Chol qadahini olish uchun mushtday katta qo'lini uzatdi:

— Doktor bo'ldi-yu, ammo odam bo'lmadi, — dedi. — O'lsam ham undan bir narsa istamayman. Hozir bizni tanimaydi. O'qituvchisining qiziga uylandi, yaqinginada, chaqirdilar. Ehson bordi, men bormadim. Buning ham toza bir kastumi bor. Baribir, "bu mening ukam", deb tanishtirmabdi. "Qarindosh-urug'lardan" debdi. Yeydigan noniga qara!.. Buni ham Bahriya maktabiga berdim. Nima, o'tiradimi? Endi bildimki, bu ham bir katta odam bo'lardi. Gazetachi muvazziy otasini xotirlamasdi balki. Yoxud xotirlardi va lekin undan uyalardi. Ya'ni, beyafandim, insonning ba'zan bo'lmag'ur tushunchalari bo'ladi. Endi: "Yaxshiyamki, bu odam bo'lmadi", deyman.

— Odam bo'lgan bu, beybobo!.. — dedim.

Yuzimga ko'zlarini, xasta, milklari burishib ketgan ko'zlarini tikkancha qoldi. Tip-tiniq, dum-dumaloq ko'zlari ila uzoq boqdi. So'ngra o'g'li tomon o'girildi. Unga shunday mehr ila boqdiki, bamisoli kattakon azamat o'g'lini uzoq quchoqlaganday bo'ldi. Keyin iftixor-la o'rnidan turdi. Bo'ynidagi gazeta qayishini tutib, bir narsani tortib chiqardi. Shunda muvazziy o'girilib:

— Nima u, ota? — dedi.

Ayni ko'zlar-la bir-birlariga qaradilar. Otaning ko'zida yosh g'iltillab turardi. Muvazziy mayxonachiga o'girilib:

— Otamga endi aroq berma, — dedi. — Hayajonlanmoqda.

CHINNIGULLAR

Kichik bir qarag'ayzor o'rmon. Tong mahali. Ari, pashsha, qushlar sasi. Bir qora ko'zoynak teshigidan ko'rinayotgan yerda va daraxtlarda quyosh nurlari tovlanmoqda. Uzoq, osmonning o'z rangidan ham biroz quyuqroq chegarasiga qarab ketgan hududsiz bir dengiz... Mana shunday bir yerda qishloq kishilarini o'ylayman. Kitoblar bir zamon menga, insonlarni sevish zamoni kelganini, tabiatni ardoqlab, shod-xurram yashab o'tgan insonlar dunyoda sevilajagini, u yerdan yashash sevinchi tug'ilajagini o'rgatdilar. Yo'q, endi insonlarni kitoblar o'rgatgan shaklda sevmayman. Kitoblar deganimga qarab, tag'in katta ilmiy kitoblar, yoxud to'rt mashhur kitobdan birini o'qib, imon keltirdi, deb sanalmasin. She'rlar, romanlar, hikoyalar, masallar menga bu ilmiy tahsilni keltirgandilar. Paroxoddan chiqar-chiqmas xo'jayinining portfelini qo'lidan lip etib olgan xizmatkordan jirkanishini, erta bilan hali soat olti yarim bo'lmasdan, tabiat-la g'avg'o qilish uchun ko'chaga yugurib chiqmagan odamning hech narsa qilmasligini o'z-o'zimdan o'rgandim. Ammo shu erta azonda olti yarimda tabiatla g'avg'o qilish uchun ko'chaga yugurib chiqmagan odam, istasa oqshomgacha insonlarni aldamoq uchun rosa chiransin, qancha pul topar! Nazarimda, million topsa-da, lekin qalbida bir tiyinlik quvonch bo'lmaydi.

Endi bundan buyon kimni sevishim, kimga hurmat ko'rsatishimni bilaman. Ko'pdan beri xayolimda bir odam aylanib yuribdi, qishloqda uni "Ko'r Mustafo" deyishardi. Bir ko'zi sal g'ilay. O'ng tomonining oqi bilan ko'z qovog'i orasiga jigarrang bir et parchasi tushgan edi. Balki shunday tug'ilgandir. Yoki bolaligida bir narsa bo'lganmi?! Bu kasal ko'z, ikkinchi ko'zidan ancha porloq, ancha qora, ancha jonli, ancha aqlli. Menga bir bukrini xotirlatadi bu ko'z: g'alati tuyulmayaptimi? Bukri odam xunuk bo'lishi mumkin, ammo butun bukrilar sof yurakli, ardoqli insonlardir. Ular

yurak-bag'ri keng quvnoq odamlardir. Men bukrilarni shunday sevamanki!

Shunday qilib, ko'r Mustafoning bu ko'zi ham bir bukri kishining ruhiy holatini o'z ichiga singdirgan, xuddi ichida nur borday porlab turadigan, sevimli, o'ynoqi, jonli bir ko'zdir. Narigisi to'g'ri, durust ko'z, biroq uning yonida jur'atsiz, so'nik, ma'nosiz, juda kibrli.

Ko'r Mustafo bog'da ishlar, kunbaylik ishga ketar, bo'yoqchilik, suvoqchilik qilar, tom yopar, quduqlar qazirdi...

Qishlog'imizning janub tarafi g'oyat go'zal joy. Bu yerda quyuq butazorlar, yovvoyi holda o'sgan eman, anvoyi meva daraxtlari, changalzorlar biri-biriga chirmashib o'sib yotardi. Mana shu butazorlarning hammasi Fino cherkovining moli. Kattakon, soqollari iflos, jin kabi bir pop "butazorlar bizniki" deb kunora janjallashadi. Xaridor topilsa arzon-garovga ijaraga berardi. Ammo hech kim ijaraga olmasdi. Chunki o'rmon ma'muriyati bu joylarni O'rmon Qonuni nizomiga ko'ra o'rmon hisoblardi. Mana shu yovvoyi, pastak-pastak, o'tinga ham yaramaydigan butazorlar orasida uch-beshta mayda qarag'ay daraxti siqilishib o'rmon ma'muriyatining, o'rmon Qonunining soyasida yayrab-yashnab o'sib yotishardi.

Ko'r Mustafo bu ishlarni qanday bajardi bilmayman... Dengizga o'pirilib tushgan bu changalzorlarning bir qismini qanday baho evaziga tozaladi, bilasizmi: tirnoqlari bahosi evaziga. O', changalzorni qarichma-qarich ochish shunday mashaqqatli, bu dengizga tippa-tik tushgan tuproq shunday toshli, shunday toshli ediki... Keyin Mustafo kunduzlari boshqa yerda ishlamoq majburiyatida edi.

Oqshom bo'ldi deguncha, changalzor ichiga yashirib ketgan cho'kichini olar va tong otguncha yer qazib, ildiz qo'porib yo'l ochardi. Qoyani qoya demadi, toshni tosh. Butun bir yoz, butun bir qish o'rmon ma'murining tazyiqi bilan changalzor, butazor, dafna, yovvoyi meva daraxtlari, tikan, o't ildizini unga qarshi qo'yishdi. Bu dahshatli kurashga Mustafodan boshqa bizning qishloqda hech kim qo'l urmasdi.

Qoya tugab, yumshoq, qirmizi-qo'ng'ir tusli quyuq chakalakzori bo'lgan bir qarich maydonga chiqilardi, unda bahaybat cho'chqa

yong‘og‘ining qo‘rqinchli ilon kabi kattakon ildizi ko‘rinib turardi. Uni qo‘porib tashlasa, o‘rmon ma’murining qarshisida bo‘lardi. Bu ish bo‘lguncha zaharli bir tikan bosh barmog‘ini shishirib yubordi. Cho‘kich o‘tmaslashib qoldi, kurak esa xuddi tosh parchalari kabi sinib ketardi. Inson gavdasidek bir qoya, yumshoq tuproqning ustida turib, ostida hech qaddi-qomatini ko‘rsatmay zo‘r berib ishlayotgan kishiga, yo‘sinli yuzi bilan tikilar; inson yelkalari, tirnoqlari, oyoqlari, ko‘ksi, sirti, butun quvvati-la unga tayanar va nihoyat, asta-sekin uni kemirib, yiqitardi. Cho‘kich ish bermagan zamonda mushtlari, mushtlari ish bermagan mahalda barmoqlari, barmoqlari ojizlik qilganda tirnoqlari bilan tuproqni timdalardi...

Kuz kunlaridan birida bunday qarasa, jajjigina qarag‘ay daraxtlari pistoqirang tikon aralash mayin yaproqlari ila, uch bosh maymunjon shingillari osilgan yerga, qirmizi-qo‘ng‘ir-kulrang tusdagi tuproqqa soya solib turar edi... Shunda uni ko‘rib, bizlar:

— Boqsang bog‘, boqmasang dog‘ bo‘lar, — dedik.

Bilmadikki, qaysi tish-la, tirnoq-la, qon-la, jon-la tabiat deb atalmish jonivorni yengmoq mumkin. Bandangiz mana shu mujodalaning shohidi. Mustafoning ko‘r ko‘zi g‘azabdan qonga to‘lgan kunlarni xotirlayman. “Hoy, arslon Mustafo!” — deya uzoqda bir qarag‘ay ko‘lankasida qo‘rqinchli jangni tomosha qilardim. Bu jang, rimlik asirlarning arslon-la olishuvidan shu e’tibor-la farqli ediki, rimlik asir arslonga chorak soat ichida yengilardi. Mustafo esa ajdahoni bir yil deganda goh umidsizlikla, goh bir g‘ayrati ila yengayotgandi.

Har galgidek bir kuni ertalab qarag‘ayning tagiga borsam deng, bir qishloqi ayol uch yarim yoshlar chamasi ust-boshsiz bir bola bilan birgalikda qandaydir toshlar, taxtalar va yog‘ochlar bilan allanarsalar qilib o‘tirishardi. Bu, to‘rt tomoni darcha bo‘lib, xohlagan tomondan shamol kirib-chiqib turgan bir uy edi. Mustafo esa ko‘k ko‘ylak kiyg‘an, baquvvat bir ayol bilan yangi yerda jo‘yaklar ochardi.

— Arslon Mustafo! — dedim. —Suv topdingmi, suv?

— Dengiz chetida eski bir quduq bor edi. Suvi sal sho‘r, lekin ishlatsa bo‘ladi. Shu yerga bir hovuz qazisaydim...

Meni ko‘rgach, darrov ishidan to‘xtardi. Men esam unga hayrat,

sevgi va hurmat ila boqardim. Ulkan ishlar keng quloch yoygudek bo'lsa, millionlab ana shunday odamlar topilishini yaxshi bilaman. Biz yashab turgan dum-dumaloq dunyo ustida shunday millionlarcha insonning tirnoqlari, qo'l qadoqlari, chirkinliklari, yagona ko'zlari, yagona qo'llari-la bir ajdaho ila jang qilmoq uchun shay bo'lib turganliklarini o'ylayman.

Jajji xonimlar! Yaqin kunlarning birida qaylig'ingiz sizning oldingizga qip-qizil chinnigullar keltirib qo'yar, e'tibor bering, balki ular Mustafoning qo'li bilan yetishtirilgandir. Ey, jajji bey afandilar! Yaqinda pomidorlarni ko'rasiz bozorda. Ular olmalar kabi xushbo'y, shirindir. Kessangiz ichidagi urug'lari oltinday tovlanadi. Balki kunlarning birida restoranda shishalarga to'ldirilgan tomat suvini icharsiz va ana o'shanda mazasi qanday totli ekanligiga tan berarsiz. Yunon Xudolarining o'lmaslik uchun ichgan nektar lazzatini tomog'ingizda his etsangiz, amin bo'lingki, ichgan sharbatingizga Mustafoning yetishtirgan pomidorlaridan bir donasi qo'shilgandir.

BILMADIM NEGA SHUNDAY QILDIM

Olomon gavjum bir jaddaning o'larday yoqimsiz qahvaxonasiga oqshomlari chiqib turar, darrov deraza oldidagi stollarning orqasidagi yerga o'tirib, talay vaqtgacha qolib ketardim. Kelib-ketganlarni soatlab kuzatardim. Zerikib qolmasmiding, deysizmi? Yo'q, aksincha, juda vaqtim chog' bo'lardi. Odamlarning yuziga, xulq-atvoriga razm solib, hikoyalar yozardim. U holda qanday qilib vaqtni xushchaqchaq o'tkazardingiz, deysizmi? Nima uchun vaqtim chog' bo'lishini aytaymi: o'lim haqida, keksalik, yangi urushlar haqida fikr yuritardim... Aqlimga naqadar yomon narsalar hujum qilsa, shu qadar vaqtim chog' bo'lardi.

Bilasizmi, odamlarning hammasi yomon. Yashashning esa hech bir ma'nosi yo'q. Sevmoq — ahmoqlikdir... Xullas, udir, budir, hayot shunaqa-da! Yaxshi, nega endi bularga odam xursand bo'lishi kerak? Bir o'ylanib ko'ring. Har narsaning qulay yo'lini topishga harakat qilasiz. Men eng zo'rini topdim: o'limga chora! Hech o'lmayotganday bo'lasiz. Bir tajriba qilib ko'ring.

Demak, shunday butun bu yomon tushunchalardan so'ng top-toza, qahqahali, mas'ud bir dunyoga boraverasan. Demak, yolg'iz harakat nuqtasida badbinsan... Bundan bo'lak masala yo'q, sen, yana o'sha eski odamsan. Qayg'usi bo'lmagan, xursand odamsan... Yo'q! Yomondan yaxshiga to'g'ri qilayotgan sayohatimning oxirida qahvaxonani xoli qo'yaylik, yana o'limlar, urushlar, qimmatchiliklar, istiqbol qayg'ulari ila ko'chalar to'ladir, qiynalib qolmayin!

Men qahvaxonadan chiqarkanman, bir chol ichkariga kirdi. Zaifning zaifi edi. Soqolini har kun bir shaklda tarashlab, ortiqcha joylarini olib turilganda, balki boshqa bir shaklga kirgan bo'larmidi? O'ziyam hammayog'i soqol ekan. Ajabo, qanday qilib uni tartibga solib yurarkan? Hayratlanarli ish!

Cholning chigallashib ketgan kir soqollari orasidan qop-qora ko'zlari jonli boqardi. Kipriklari surma qo'ygandek qop-qora.

Men uni ko'rishim bilan Turkiya xaritasidan Van shahrini tanlab olib, tug'ilgan joyi shu yer, dedim. U yerlikmi, u yerlik emasmi, bu meni zarracha qiziqtirmaydi. Istanbullikmi, yo bo'lmasam balikesirlik odam bo'lganda: "Yanglish, bey bobo, unutibsan, derdim. Sen balikesirlik emassan. Sen vanliksan. Biroq bunday yolg'on aytish! Nima, Van yomonmi? Ma'qul tushmayaptimi? Mening xayolimdagi Van ko'lini bir bilsang edi... Atrofini qorli tog'lar o'rab olgan. Qorong'i tushganda uning bo'm-bo'sh qirg'oqlarida qanotli otlarda vahshiy suvoriylar paydo bo'lishadi. Suvlarida kiyimkechak yuvayotgan pokiza, sutdek oppoq yuzli, timqora ko'zli bokira qizlarni ko'rasan. Suvlarini aytmaysizmi, ko'z yoshidek musaffo. Mazasiga faqat sayr qilsangizgina yetasiz. Men oti nimaligini bilmagan bir shamol, kechalari hatto qirg'oqlarni ham jonlantirib yuborishga qodir to'lqinlar hosil qiladi. Van ko'lining chag'alaylari shovqin-suron ko'targan zamom, hamma homilador xotinlar o'g'il tug'adi, baytallar toychoqli bo'ladi, sigirlar buzoqlaydi. Faqat Van ko'li harakatdan to'xtagandagina odamlar o'lishi mumkin. Yolg'on so'zlayapsan, chol, sen vanliksan. Tasbehingdan bilinib turibdi. Men buni qahrabo toshli tasbehingning shaqirlaganidan sezdim. Nega endi "Balikesirlikman, deysan? Vanliksan axir! Sen vanliksan!"

Chol qahvaxonaning derazasi oldidagi stolga o'tirib, kumush gardishli ko'zoynagini taqib, gazeta o'qirdi. "U qahvaxonaga kirayotganida men chiqayotgandim", degandim. Shunday edi, ammo men uning to'q-sariq duxoba qoplangan nikel ko'zli g'ilofini stolning ustiga qo'yib, ko'zoynakni ko'zlariga taqib gazeta o'qishini ko'rib, yo'limdan to'xtab qoldim. To'xtamasligim kerak edi, chunki oqshom bo'lgandi, men qahvaxona oldida sayr qilmoqchiydim.

Yoshi ellik bilan sakson o'rtasida edi. "Ellik" desa, ishonardingiz, ammo; "Ko'p cho'kibdi, vaqtidan avval qaribdi", der edingiz. "Sakson", desa: "Mashalloh! Hech kim bunga ishonmaydi", deya hayratdan yoqa ushlab qolardingiz. U o'zi kim, qanday odam, Van shahridan qachon kelgan, nima ish qiladi? Bu savollarga javob berolmayman. Ammo muhaqqaq, u so'qqabosh.

Bir xonning taxtida o'tirganday o'tirar, bu yerda vanliklarning mayda-chuyda ishlarini ko'rmaganday bo'lardi. Uning nima ish qilishi mumkinligini o'zimcha tasavvur qilolmadim. Komissionchi dedim, savdogar dedim, hammolchilar boshlig'i dedim, eski bir hammol dedim, tungi qorovul dedim, u dedim, bu dedim, lekin birontasi ham munosib kelmadi. Oxiri shunday bir xulosaga keldim. Uning yaxshi tikuvchi qo'lidan chiqqan bir ust-bosh kabi o'tiraverishidan shunday fikrga keldim: bu bir eski mutasarrif[1] edi. O'tirgan stulining suyanchig'iga tasbehini osib, boshqa qo'lini stolga tayantirganicha, o'qiyotgan xabari nima ekan, deb qiziqsindim.

Bir gal uning qahvaxonaga kirib kelishi bilan mening oyoqqa turishim shu qadar bir-biriga teng kelib qoldiki, bu ishimdan ham shoshdim, ham ijirg'andim. U endi eshikdan kiray deb turganda, men eshikdan chiqib keta boshladim. Unga yana bir nazar tashlaganimda uning stolga kelib o'tirayotgani, ko'zoynagini chiqarayotgani ko'rinib turardi.

Bir kun oqshom mening ishim chiqib qoldi. Qahvaxonaga odatdagidan ancha kech keldim. Chol endi kelib o'tirgandi. Orqasidagi stolga men ham joylashdim. Vaqt allamahal bo'lib qolgandi. Qahvaxonada hamon odamlar yo'q edi. Chol gazetasini allaqachon o'qib bo'lgan, ko'chadan o'tgan-ketganni tomosha qilib o'tirardi.

Men ham shunday qildim. U sigareta tutatdi. Men ham tutatdim. So'ngra u tasbehini, qahrabo toshli tasbehini chiqardi. Shaqur-shuqur qila boshladi. Tasbehim bo'lganda darhol men ham chiqarib, shaqillatishga tushardim. Bo'lmagani sababli qilolmadim. Qilolmaganimga shunchaki jonim siqildi. U ko'chani tomosha qilar, men esa uni tomosha qilardim; chol nimadandir xafa ko'rinardi. Bu, tashvishli o'lim kabi, ishq kabi narsalarning keltiradigan xafachiligi emas edi. Bu xafachiligining sababini o'ylab topdim. U nima desangiz, kunda aylanib, qo'lga tushib turadigan pulning keltirgan tashvishi ekanligini kashf etdim. Puldan siqilishning yuzga, xolga, rangga nelar keltirishi mumkinligini xuddi hozir bilgandayman... Balki ilgari ham bilgandirman-u, lekin u bir tasodifdir:

[1] **Mutasarrif** — mulkdor yoki mulk boshqaruvchisi.

cholning pul qayg'usidan siqilayotganini u so'zlamasdanoq, men o'zim kashf etdim. Bir zum men cholni unutib, ko'chaga nazar tashladim. U soya kabi o'rnidan turib ketganini "sezmabman" desam, juda yolg'on so'zlagan bo'laman.

Ertasi kun har vaqtdagiday keladigan soatimda, qahvaxonaga kelsam deng, g'alati bir narsa ko'rdim. Chol odatdagidan ikki yarim soat avval bu yerga kelgandi. Yana orqasiga o'tirdim. U kulimsiragancha yuzimga qaradi:

— Kecha kechqurun, — dedi, — tasbehimni shu yerga osib qo'ygandim. Yo'qolib qolibdi.

Yuzida tushunib bo'lmas ifoda bor edi. Umid-la, dard-la to'la edi. Hayajonli edi. Rangi aslida sariq ko'rinsa-da, yuzi oppoq, qisqagina soqoli titrab turganday edi.

— Yaxshi ish bo'lmabdi, — dedim, — afsus!

— Sotmoq niyatida bozorga olib borgandim. Yetmish lira berdilar, bermadim. Sakson so'radim. Bersam bo'larkan, — dedi.

— Qiymatli bir narsa ekan-da demak?

— Tabiiy. Sadafli edi. Buning ustiga eng toza jinsidan, zumrad toshli edi!

— Ha, go'zal bir narsaga o'xshardi.

— Siz ham har holda kecha kechqurun, qo'limda ushlab turganimda ko'rgandirsiz? — dedi.

— Xudo haqqi, ahamiyat bermabman.

Yuzi birdan o'zgardi. Boqishlarida qandaydir shubha paydo bo'ldi.

— Politsiyaga boraman, — dedi.

— Yaxshi qilasiz, — dedim.

Shu onda: "Sen olding. Yaxshi bilaman, hoziroq chiqarib ber", deyayotganday, hatto demoqchi bo'lganday yomon tikildi. Beparvo bo'lib turaverdim. Pinagimni buzmadim.

Yana yuzi o'zgardi.

— Oh, qaniydi, o'sha o'g'rini bir topsam! — dedi.

— Zo'r bo'lardi! — dedim.

Yuzimga qaramasdan lablarini tishladi.

Ustma-ust har oqshom kech tushmasdan qahvaxonaga kela boshladi. Menga salom bermasdan, ko'rmaganga olib, o'z o'rniga

borib o'tirardi. Tasbehini men olganligimga amin bir holda, menga boqmasdan, g'azabli ifoda bilan gazetasini to'sib o'qirdi. Men chiqib ketayotganimda orqamdan qarab qolishini, bir necha marta esa, ataylab stolda unutganim sigareta pachkasini olmoq bahonasi ila qaytgan zamonimda menga qarab turishini sezdim.

Kecha kechqurun yana shunday o'tirgandik. U gazetasini o'qir, men allanarsalarni chizib o'tirardim. Birdan qahvaxonaning burchagidagi oynaga ko'zi tushdi. Menga oynadan qarab bo'lmasa ham uning o'tirishida men tasavvur qilgan bir narsa bor edi. O'zimni kuzatdim. Mening shu g'ayritabiiy o'tirishimda bu ishni qilgan, biroq hech pinagini buzmay o'tirgan juda yaramas o'g'rining holati borligini sezdim. Shunda o'zimga oynadan g'ayrinazar bilan yana diqqat etdim. Ha, uning tasbehini men gumdon qilgan kimsaga o'xshardim. Ba'zi bolalar biror nojo'ya ishni qilmasalar-da, kattalarning qistovi natijasida, kechirasizlar, ha, qildik, deb bo'yinlariga olishga majbur bo'ladilar. Haqiqatda o'sha ishni qilmagan bo'ladilar. Ammo ularning turishida shu ishni qilgan kabi bir holat bor bo'ladi. Biror yomon ish qilmagan insonlarning bunday tabiiy holatlari hech hisobga olinmaydi. Shunday qilib, men u bolalardan birining holatida edim.

Chol bilan oramizdagi bu noxush hol ancha kunlardan beri davom etardi. Kecha kechqurun bir o'rtog'imning dengiz chig'anoqlaridan qilingan tasbehi menda qolib ketgandi. Qahvaxonaning oldidan qo'limda shu tasbeh ila o'tib ketgandim. Ichkariga yaxshiroq nazar tashlamagandim. Naridagi bekatda tramvayga chiqmoqchiydim. To'satdan chol yonimda paydo bo'lib qoldi. Qorong'ilikda tasbehimni tortib olmoqchiday edi. Qo'limga diqqat-la qaraganini ko'z qirida ko'rdim. Yuziga qaramadim ham. Dengiz chig'anoqlarini shiqirlatdim. Qanday g'azab bilan uzoqlashganini bir ko'rsangiz edi... Orqasidan menga, uning so'kkani eshitildi: "Endi mazax qilyapsan-a! Olchoq o'g'ri!" — derdi.

Ishning eng yomoni, shu kunlarda qahvaxonaga ahyon-ahyonda bo'lsa-da kirishning iloji bo'lmay qoldi; u o'tirgan soatlarda deraza oldidan o'tarkanman, o'zimni cho'ntagimda bir narsalar yashirib yurganday his etardim. Ba'zan tabassum ila, ba'zan hushtak cha-

lib o‘tardim. Bo‘lmasa yana cho‘ntagimda xuddi allanarsani saqlab yurganday ish qilib qo‘yardim-da. Ba’zan uning xayolidan: “Ajabo, politsiyaga borib xabar bersammikan?” — degan o‘y kechardi. Ammo shu zahoti u o‘zicha ming‘irlab: “It o‘g‘li — it! Ataylab shunday qilgan. Agarda tasbeh hozir cho‘ntagida bo‘lsa shunday qilarmidi? Bu pulsiz odam, allaqachon qahrabolarni katta bahoga sotib yuborgan. Harom bo‘lsin!” — deb qo‘yardi. Men yomon bir odamman. Men o‘g‘irlik qilmagan o‘g‘riman.

Bechora cholga achinardim. Uning nazarida, tasbehini men olganman-u, biroq hech uyalmay yurgan kimsaga o‘xshardim.

Bu yomon bir harakat ekanini bilaman. Bilaman-u, ammo qo‘limdan biror ish kelmaydi. Menda bunday holatni uyg‘otgan uning o‘zi. Mana shularning barchasidan keyin qilgan ishlarimga pushaymon bo‘lsam, qaniydi, ozgina bo‘lsa-da, qiynalsam!.. Qahvaxona oldidan o‘tganda nima uchundir, ba’zan boshimni u yoq-bu yoqqa ochiqdan ochiq sarak-sarak qilib ketayotganimni biror kishi ko‘rgan bo‘lsa, “Jinnimi bu, nima balo?” — deb kula boshlashiga nima deysiz?

HAVODA BULUT

"Bu uzun oyoqli, qorinsiz, yomon qarashli malla odamning hayotiga oid bilganlarimni u yoki bu odamdan so'rab o'rgangan emasman", desam, inonmang! Bu odam haqida gapirganlarni bu yerda yozmasak ham bo'lardi. G'iybatning qiymatsiz bir narsa ekanligini o'rtaga tashlamoq ham to'g'ri emas... Hech bo'lmasa, bir zavqi bordir kofirning! G'iybat biroz rasmini olgan zahoti ishlab beradigan fotografga o'xshaydi. Ruxsat etilsa, bu odam sirtiga singmish g'iybat havosidan ham so'z ochishimiz mumkin, qo'rqadigan joyimiz yo'q.

U yonidagi iti ila birgalikda dengizga chiqa berishdagi bir tashlandiq yerning devorlari ustiga o'tirib olgandi. It orqa oyoqlariga cho'kkan bo'lib, old oyoqlari mag'rur haykal kabi qotib turar, tumshug'i ho'l, sovuq edi... Ora-sira ingillashga o'xshash tovushlar chiqarar, so'ngra ketaman degan kabi egasiga boqardi.

Odam sigaretasini tutatgandan keyin:

— O'tir, — dedi, — o'tirgan yeringdan qimirlama!

It oldingi oyoqlarini uzatib, tumshug'ini ularning orasiga qo'ydi. Ko'zlarini yumdi. Hafif bir shamol itning sariq tuklarini, odamning oq oralagan sariq, qattiq sochlarini o'ynatardi.

Odamning yuzida ma'noli chiziqlar bor edi. Sevilmaganlarning, ko'p xafa bo'lganlarning, sarxushlarning, bir zamon go'zal bo'lib keyinchalik xunuklashib ketganlarning, o'qimishli bo'lganlarning natijasi o'laroq qiyinchikilar ifodasini o'qish mumkin edi undan... Bu odamning yuzida yana bir talay ma'nolar bor ediki, odamning ishi yo'q bo'lsa, sekin bittalab topib chiqara berardi. Ko'zlarining atrofida yetti-sakkizta chiziq, hayotida ko'p kulganidan emas, yuzini quyoshga berib moviy ko'zlarini qisganini ifoda etar desam, ishonmaysiz! U, oynaga qaragani zamon, bu chiziqlarning kulishdan emas, quyoshga qarashdan bo'lganini itiga so'ylardi. Bir ko'ppakka aytilgan so'zlarni qo'shnilardan hech biri eshitmab-

di-da, deb so‘ramoqchimisiz? Qo‘shnilar u yoqda tursin, shaharning pochta xodimi ham eshitibdi; har kuni tarqatadigan xatlarni o‘z egalariga to‘g‘ri berayotirmanmi, deb goh xatdagi adresga, goh xat oluvchiga diqqat qilgani kabi, har yerda o‘ziga bir sigareta ikrom etgan har odamga:

— Ha-a! To‘xta-chi, bu haligi iti ila gapiradigan odammi? Birodar, men kecha bir maktub keltirgandim unga. Ko‘cha eshigi uyidan sal nariroqda. Ichkaridan har xil tovushlar eshitildi. Qulog‘imni ding qilib tingladim. O‘z-o‘zimga: “Bu uyda odam bilan itdan boshqa jonzot yo‘q. Xudoyim-ey! Bu nimasi? Jinnilik qilyaptimi, kim bilan so‘zlashyapti o‘zi?” — dedim. Boshimni cho‘zib qaradim. Holbuki, it-la suhbatlashayotgan ekan. O‘zi asli turk. It bilan esa rumchalab gaplashayotir...

Shunda sigareta ikrom etgan odam undan so‘rardi:

— Xudo haqqi, itga nima derkin? Nima sen, rumchani bilmaysanmi?

— Nega bilmas ekanman, afandim? O‘n besh sana bo‘ldi, bu rum qishlog‘ida istiqomat qilaman. Nega endi bilmas ekanman rumchani? Faqat, beyjonim... tilim, tomog‘im quridi. Shu atrofdan bir gazli suv ikrom eting! Qulaymi, afandim, mahallalarni aylanmoq?.. Vallohi, shunday oqshomlarim bo‘lurki, beyafandim, boshmoqlarimni yechishim bilanoq xuddi oyoqlarim mening ertalabki oyoqlarim emasday bo‘lib qoladi. Oyoqlarimning tagi do‘mbiraday shishib ketadi... Oh! Nima qilay... Gazli suvi sovuq ekan to‘ng‘izning! Hamisha bunday bo‘lmaydi, albatta... Aytganday, nima deyayotgandim? Ha, ichkaridan tovushlar kelardi, quloq tutdim; “Sen meni chol deb hisoblaysanmi? — derdi. — Yo‘q, cholmassan desang ham bilaman! Tog‘, tepalikka chiqadigan yo‘l egri-bugri bo‘lsa, yura olasanmi? Ammo demoqchisanki, hayotingda ko‘p kulganingdan bu ko‘zlaring atrofida chiziqlar paydo bo‘lgan... Og‘zingning cheti ham shundan... Yo‘q, azizim! Men hech kulganim yo‘q demayman, kuldim. Kuldim-u, lekin rosa miriqib kulmadim. Innaykeyin, men qay zamon shunday kulmak istasam, onamning: “Ko‘p kulgan, ko‘p yig‘lar” degan so‘zi xotiramga keladi. Istar-istamas kulaman. Shunday, ba’zi odamlarga salom qabilida bir kulimsirash kerak bo‘ladi. Eng mas’ud onimda

unchalik kulmadim. Salom qabilida hech kulimsiramadim, negaki, yig'lab yuborishdan qo'rqdim. Qisqasi, shunaqa, do'stim! Bu chiziqlar, sen anglaganingdek, kulmoqdan emas, quyoshdan... Ha, mana shu, o'zimiz bilgan quyoshdan. Sen bilasan meni, men quyoshda ko'p kezaman. Ha, qara, diqqat et! Chap ko'zimda chiziqlar biroz ko'p. Uni yurganimda ko'proq qisaman, bu shundan. U ko'zim tug'ma zaifdir. Xudoga shukur, narigisi sog'-u, bunisi ham yuribdi. Bo'lmasa monokl taqmoq lozim bo'lardi. O'ylab ko'r, do'stim, bir ko'zli oliftani!"

Pochta muvazziysining yuqorida yozganimiz shaklda anglatganini faraz etsak, nima chiqadi? Bunday anglatmagandir, ammo ovozining ilon vishillashiga o'xshagan yomon holatini, ilon qarashi kabi sovuq boqishini anglatganiga qo'shsangiz tinglaganini, eshitganlarini boshqa birovga naql etarkan, muvazziyning boqishidan, to'xtovsiz qimirlab turishidan, ovozining vishillashidan ilova va qo'shimchalardan tashkil topgan bir boshqa suhbatni anglatmaganiga imkon bo'lmaganini siz ham maqbul etasiz. Endi, yozuvchi sirlarini ochishga boshlasak, menga bitta gaz suv, bitta sigareta bisot bo'lmishdan ortda qolgan taraflarni ham yozishga hozirlanganim uchun bir kichkina muqaddima qilaman. Bundan keyingi qismi, o'quvchiga: "Qanday o'rgangan ekan bularni, ajabo?" — deya savollar tug'diradigan yozishmani yozishda davom etajakman. Qanday o'rganganlik masalasiga kelsak, uni ham aytarman. Ammo shularni ilova qilishdan ham o'zimni xalos etolmayapman: balki bu odam-la birgalikda bir uyda yotgandirmiz. Balki u odam "tanishim" demasman. Hamma gap sizda. "Xonasida boshini qashidi", deb yozsam, "negaligini bilasanmi, o'zing ko'rdingmi?" deya mendan so'rashingiz mumkin. Yoxud "ertalab, uyg'onishi bilanoq ichida bir horg'inlik his etdi", desam, qanday kulgili bir jumla bo'ladi! O'quvchi menga: Sen o'sha odammisan? G'irt ta'viya ekan-ku! U ta'viyaning ichidagini qayerdan bilasan?" — deya so'raydi. Haqlidir ammo... Men shu hikoyani davom ettirib, ayni xatolarni takrorlashga hozirlanyapman, ma'zur ko'ring! Bilmadim, siz uchun yozishga boshlar ekanman, bu odam-la bo'lgan o'zaro qarindoshligimni sizga aytib berdimmi? Bu yerda yana bir masalani ochmasdan avval asl mavzuga kirishmayman; u ham bo'lsa bu

hikoyaning ichidagi odamning juda menga yaqinligidir; buning ustiga pochta muvazziysining gaplari kabi boshqa insonlarning u odam haqida bilganlarini ham yozsam, u odamla mening oramda ayni zamonda hech bir munosabatning topilmasligini yozdim demakdir. Bu shunday ham ma'lum bo'lgan...

Pochta muvazziysi aytganidek, uning insonlardan qochganini hisobga olmayman. Lekin, qochib yurishining bir sababi bor, albatta... Bu sababni balki uning o'zi bilmas. Uningcha, o'zi shunday to'rt tarafi suv ila o'rab olingan joyning emas, balki buyuk shahar odamidir. Sonsiz-sanoqsiz odamlar kechgan shaharlarning odamidir u... Bo'lmasa bunday kichik yerlarda u odam-la kimsa oshnolik qilmas, aroq ichmas, suhbatlashmas, ilk kunlarda ular haqida biron narsa o'rganish uchun do'stlar topishi mumkin, ammo keyin hammasi har yoqqa tarqalib ketib, uni iti ila yolg'iz qoldira bilishadi. U bilan hech kim shug'ullanmaydi. So'ngra siz aytgan bir pochta muvazziysi yakun yasab:

— Ishq savdosidan bu odam shunday bo'ldi, — deydi.

Bu odamning nimasi bor? Sizning kabi bir odam, deyolmaysiz, ko'rgan ko'z korchalon istamas: odam iti ila suhbatlashadimi hech zamonda, birodar! Holbuki biz, bir qancha insonning ashyo ila, devorlar ila, o'z xayollari ila, to'shaklari ila, oynalar ila kimningdir hatto galstugi ila, yosh qizlarning sandiqdagi mollari ila suhbatlashganliklarini eshitar edik, bilar edik.

Shoirlarning yulduzlar, shamollar, majhul xotinlar, ko'llar, uzoq mamlakatlar, ikki ming metr balandlikdan o'tgan bulutlar, muhojir qushlar ila, baliqchilarning qayiqlari, qarmoqlari, baliqlar ila suhbatlashganliklari bir haqiqat bo'lgani holda, bu odamning it bilan suhbatlashishi shaharda mudhish bir ig'voga sabab bo'lgandi. Men o'zimcha bu odamning ishq savdosidan shu holga tushishiga ishonmayman. Menga qolsa, bu odamning tashqi ko'rinishida hech narsa yo'qday!.. Ammo hech kim men kabi tushunmasa, nima qilay? Hatto bechoraning o'zi ham sal bo'lsa-da, qochoqligiga amin... Mening fikrim shu: bu odamning iti ila suhbatlashishi insonlarni sevgani holda ular bilan suhbatlasholmaslikdan, hatto qanday desam ekan, insonlar ila ruhiy aloqada ularga ko'p bog'langanligidan, insonlarga qiziqsa-da, ularni o'rgana olmasligidan...

Keling, yaxshisi, odam haqidagi g'iybatlarimizga qaytay:

Uning shaharda ikkita do'koni bor emish, ijara haqlarini olar emish. Qayerdaligi, nima ish qilishi noma'lum bo'lgan bir savdogarning yonida kotib emish. Savdogar ham o'zi kabi bir odammish; suhbatlashmasmish, kimsaga muhabbat izhor etmasmish, u ham bo'ydoq emish. Bab-baravariga bir-birlariga "marhabo" deb, "xush qoling!" dermishlar.

Yana shunday bir voqea bor: paroxodda bir zamonlar, yosh bir qiz bilan suhbatlashganini aytishadi. Hatto bir oqshom bu o'rta yoshli odam-la bu o'n sakkiz yoshlardagi bir yosh qizning, paroxodning burnida tanho bir-birlari bilan suhbatlashganliklarini, hatto erkakning ashula aytganini tinglaganlar bormish. O'n sakkiz yoshlardagi qizning otasiga bu xabar ketibdi. Qattiq bir tanbeh natijasida qiz haligi odam bilan suhbatlashmaydigan bo'libdi. Yana oxirgi ketadigan paroxodda ular ba'zan uchrashib qolisharkan, ammo qiz bechora darrov ikki dugonasining yoniga borib o'tirib olarkan. Ko'ppakli odam ham bir muddat shu atroflarda aylanib yurar, so'ng paroxodning uchiga ketar, u yerda eshitilar-eshitilmas hushtak chalib, turkcha allanarsalarni g'ing'illab qo'yarkan. Kimsaga salom bermagani holda qizga salom berarkan, u bechora ham salomga alik olarkan...

Hatto, bor-yo'g'i ikki kalimali: "Qalaysan, yaxshimisan, nima gap?" qabilida suhbatlashishar emish, ha...

Shunday qilib, bular odam haqidagi g'iybatlardir. Bularni hamma biladi. Odamning asl sirlarini bizga ochgan — so'zlamasdan turolmayman — bir kichik itdir. Ziyrak ko'zli, muz kabi sovuq tumshuqli, yunglari shamolda hilpirab turgan sariq bir it... Bu it unikidir, ammo men bu yerda bir vosita sifatida qo'lladim. Bo'lmasa, it tamoman bo'lmasa-da, harqalay, bir navi xayoliydir. Sababi shuki, bechora bir odamning hayotini, orzularini, shikasta tushunchalarini, dunyoda so'qqabosh qolishini bir itning mutlaqo anglata olmasligidir. Itlar o'z sevgisini biz kabi na anglata oladi, na yoza oladi. It irg'ishlardi, quyrug'ini o'ynatardi, sohibining qo'lini yalaydi. Xayoliy itimni tinglang:

"U ertalab vaqtli uyg'ongandi, hushtak chalgan edi, yoniga yugurdim..."

Itni tushuntirishga, biror narsani anglatishga majbur qilsam, asabiylashaman, unda hikoyamning ham mazasi qochadi... Shuning uchun oqshomlari tashlandiq yerning devori ustiga chiqib olib, sigareta tutatgan, kimsaning sevmagani, suhbatlashmagani, har narsadan o'zini tortgan odam bilan ahboblik etmak niyatida yoniga men yaqinlashaman-da:

— Beyafandi, — deyman, — sizning yordamingiz-la...

— Marhamat qiling, afandi, buyuring!

Sigaretamni tutatdim. Yoniga o'tirdim. O'zining birinchi bo'lib so'z ochishi lozimligini his etdimi, men uning itini erkalatarkanman, ming'irlab qo'ydi:

— Hayvonlarni sevasizmi?

— Sevganda ham qandoq, beyafandi!

— Valloh, bandangiz unchalik sevmasdi. Endi shunday o'rganganmanki, asti qo'yaverasiz. Bir zamonlar o'tirganim pansiondagi madamning ko'ppagi edi buning onasi... Bunaqasi dunyoda yo'q hali. Xotin bechora o'ldi. Yonimdan ayirmadim jonivorni. Madamni ham juda sevardim. Zamon o'tdi. Ko'ppak o'ldi. O'lgan ko'ppak urg'ochi edi. Bu erkak. Bu kuchukchani u kunlarda bir odam istagandi, berib yuboray dedim, keyin o'ylanib qoldim: yuraversin, dedim, harqalay, yodgorlik-ku...

U oqshom, shu jumlalardan boshqa muhim bir narsa haqida so'zlashmadik. Ikkimiz ham siyosiy hodisalarni yo hech anglamasdik, anglashni istamasdik, yoxud siyosiy bahslar ustida fikrlarimiz ma'qul etilajak tarzdada bir-biriga mos tushmasdi. Siyosatdan ham gap yuritdik. Oqshom uyimga qaytganim zamon pochta muvazziysining bu odamda nima ko'rganini anglolmay turdim. Oddiy, juda ham oddiy bir odam edi. Shu qarshimizda o'tirgan boy baqqolning bu odamdan ancha maroqli bo'lgan bir hayoti bordir. Shunday emasmi, jonim? Tushunchalarini zaytun yog'i, loviya, un, no'xat qamrab olgan, dunyoligini bunyod etgandi. Bolalari katta maktablarga borishardi, o'yinga tushishardi, juda bashang kiyinishardi... Qizi deng, inglizchada shunday go'zal so'zlashardiki! Kollejni bitirgan, trubachi emas! Otasi bundan qanday mamnun! Qanday g'ururlanadi qizidan... Sakiz orolidan qanday kelganini, bir baqqolga qanday shogird tushganini, so'ngra

qanday qilib do‘kondagi butun ishni qo‘liga olganini, xo‘jayinining do‘konga orada bir kelib turishini, kunlardan bir kun xo‘jayini qizining qo‘lidan tutganini bir anglatsa... Hayotining eng serharakat zamoni ham o‘sha vaqt edi. Qanday bitta-bitta yurib, asta-sekin qo‘ynini pulga to‘ldirgandi. Toma-toma ko‘l bo‘lur deganlari shu-da. Har kimsaning jajjigina do‘kon ko‘rgani Baliq bozorining oxiridagi yolg‘iz kichik do‘konning katta omborxonasi haqida hech fikrlari bo‘lmaganlar nima bilishadi? Darvozadagi kurd bechoralarni tinglamas. Bu Vizantiya omborxonalarining qo‘rqinchli tunuka tomlari duch kelgan ko‘zga ko‘rinavermasdi. Har narsa shunda, u yog‘li, qora tosh yo‘llarning o‘ng-u so‘lida hammollarning baqiriq-chaqiriqlari, aravalarning birisi kirib, birisi chiqayotgan shovqin-suronga boy o‘rta asr makonining labirinti edi. O‘zi oqishdan kelgan odam. Xotini esa qorachadan kelgandi. Bu sarg‘ish, qorabosh, yoqimtoy bola o‘zining bolasimi? Burni g‘irt grek burni edi. Yelkalari keng. Otasiga Iskandar Zulqarnaynni xotirlatardi. Ya’ni afandimiz murakkab, ilonning yog‘ini yalagan odam edi. O‘g‘lini jonidan ham ortiq ko‘rardi. Qizini sevar, uning inglizcha gaplashishidan g‘ururlanib yurardi. Kunlardan bir kun ular undan yiroqda, Yunonistonda ochlikdan o‘lib qolishdi. Shundan beri qahvaxonada xafa bo‘lib o‘tirar, uyda esa, xotinining yonida, yig‘lamoqdan battar bo‘lardi. Qahva icharkan: “Besh-o‘n kiloni olaman-da, bir chetga otaman Yunonistonini”, — derdi, “kunning ham kuni bor!”

Shu yerga kelganda, ya’ni afandining hayot hikoyasi “g‘iyq”-deya to‘xtatiladi, boshqasiga o‘tmayman. Gunoh menda!.. Biroz horg‘inlik-la Balzak bir atirchining hayotini qanday odimma-odim quvalayotgan bo‘lsa, men ham afandining uyi ichiga kirib hali bir talay bilmaganim yerlarini yozardim, kattakon bir roman yozmoqchi edim shekilli?

Ya’ni afandi ila band bo‘lganim bu vaqtlarda, har qanday kishining diqqatini o‘ziga jalb etgan, bu kishilar ichida avvaliga men ham kiruvchi bo‘lib, keyin chiqqandim, itli odamni ko‘rmasdim. Istasam, balki har oqshom u yerda devorning ustida uni ushlagan, og‘ir-og‘ir bir talay narsalarni aniqlay olardim. Yo‘q, g‘alati insonlar bilan band bo‘lishni istamayman. Negaki, ulardan menga foyda

yo‘q, menga sevgan, kulgan, baqirgan maxluqot lozim! Bu odam qanchalik yashamasin... itidan boshqa kimsasi yo‘q. Yolg‘iz u bilan suhbatlashardi, insonlarni sevmasdi, yana pochta muvazziysining mushohadalariga qaytaman:

— Beyim, bu odamning bir kishiga qahva chaqirtirganini hech kim ko‘rmagan. Buyuring, shu kazinoga kiray. Biron finjon qahva ichay. Unga doir sizga aytadigan qarang qanday voqealarim bor!..

— Boshqa vaqt, boshqa vaqt!

Uni tinglashni istamasdim. Ya’ni afandi qiziqishimni so‘ndirdi. U bilan ahboblik etayotirman hozir.

Ya’ni afandining o‘g‘li ila o‘rtoqligimiz besh kun yo cho‘zildi, yo cho‘zilmadi. Yoqimli tomonlari ko‘p bo‘lgan yosh yigit ila suhbatlashmoq meni yomon holga soldi. Xotinlarning boldiridan, pokerdan, tansadan, filmdan men ham gap olib boraman. Bu haqda kim ham suhbatlashmaydi? Ammo har oqshom bir xil gap asabimni buzadi. Biroq, uning unchalik ziyoni yo‘q edi. Bir kun oqshom qarasam, deng, artistlardan biriga rosayam taqlid etayotir. Jom Peyn bey bilan Amerikada mayli shunday suhbatlashsa bo‘ladi deyman; faqat Istanbulda nega bunday gap yuritiladi bu odam bilan axir? Yosh yigit bilan hozir yolg‘iz kulisha bering. Bir necha kundan keyin mutlaqo kulmaydigan bo‘lasiz... Ya’ni afandining hayotini yozishdan voz kechib, bu safar yangidan itli odamning iziga tusha boshladim. Yaxshiyamki, uzun bir vaqt dam berdim. Ilk daf’a juda o‘zini olib qochgan bu odam, bu safar meni ko‘rishi bilan sigareta ikrom etdi. Itini mendan nariga haydarkan:

— Ey birodar, — dedi, — vallohi ancha qiziqa boshladim. Hech ko‘rinmay qoldingiz, qayerlarda edingiz?

— Ozroq shamollab qolgan ekanmiz, bir hafta yotib oldik, beyafandi!

— O‘tgani rost bo‘lsin, afandim.

Bir zamon, o‘zining ham qanday shamollab qolganini, u zamonlar dengizga kirishdan voz kecholmagani uchun bu shamollashdan hech tuzalmaganini, salkam butun yoz davomida burnini tortib yurganini gapirib berdi. Gapirib berarkan, itiga hech kulib so‘ylamaydigan odam, tovush chiqarmay kuldi. It unga hay-

ratlanib boqqan kabi oldimga keldi: harholda pochta muvazziysi ila uzuq do'stlashishning natijasi bu!

Endi pochta muvazzisiydan biroz uzunroq bahs etmak zamoni keldi deb hisoblayman. Avval aytganim kabi, uning butun gunohi kichkina sirlar, insondagi bir-ikki yomon odat, ikki kishi orasidagi mutlaqo sir tutilgan bir narsa, uydan chiqishi lozim bo'lmagan hodisani o'rganmoqdan boshqa narsa emas.

Pochta muvazziysi yaxshimidi, yomonmidi? Istasa yaxshi, istamasa yomon bo'lsin, menga nima? "Menga nima?" bo'lmagan tomoni pochta muvazziysidan ham juda xushlanganim, orada meni ham yomon ahvolga solib, asabiylashtirganidadir. Bunday yerda uch odim odamning orqasiga o'tib oladi, natijada bir jumla aytishingizga imkon bo'lmaydi. Har kishining oldida baqirib-chaqirib so'zlashadigan unchalik bir narsam yo'q. Yo'qlikka yo'g'-u, ammo pochta muvazziysi orqamga o'tib, mudhish ravishda qulog'ini tutdimi, tamom. So'zlayotgan so'zimdan adashib ketaman. Men sekin-sekin so'zlashni istayman. O'sha zamon o'zimga-o'zim: "Yigit jumlangdan ikki kalimani olib, yigirma kalimani qo'shayotir, bir hikoya to'qiyotir, ehtiyot bo'l..." — deyman.

Haqiqatda shunday bir narsa ham bo'ldi: Ahmad ismli bir o'rtog'imiz bor. Yozda turish uchun keksaygan madmuazel Katinaning uyidan bir xonani ijaraga olgandi. O'tgan kecha dengizga tushibdi. Ikki o'rtog'i ham buni pochta muvazziysi bor bo'lgan bir yerda, undan uch odim narida, o'zaro shunday so'zlashibdilar:

— Katinaning uyidagi Ahmad, o'tgan shamolli kechada dengizga tushdi. Bizga ham tushinglar dedi, ammo...

Pochta muvazziysi bor-yo'g'i uchta kalimani qulog'iga ildi: "Katina, Ahmad, o'tgan kecha..." Keyin u bu voqeani shunday tushuntirdi:

— Yopiray, sartarosh! Shu soqolimni bir olib qo'y qani. Menga qara, senga bir narsani aytib beraman. U tepadagi uylarda o'tirgan Ahmad, shundaymasmi? O'tgan kecha mashhur shokoladchining qizi Katinanikiga qayiq tashlab, Haybali oroliga ketibdilar. U yerdan bir aravaga chiqibdilar-da, Limonzorga qarab jo'nab qolibdilar.

Men ularni qayiqda ketishayotganda shu burundan turib kuzatdim. Birozdan keyin qarasam, Haybalining aylanish yo'lida fosunli bir arava ketayotir. Vallohi, aravani o'z ko'zlarim bilan ko'rdim, aravakash ularni Abbosposhshoda kutib turardi. Ohh!.. Qanday totli narsa, a, Barba? Avvalgi kun yomg'ir ham yog'gandi. O'rmonlar hid ufuryaptimi, mushk kabi narsalarni senga! Katinaning sochlaridan ham biladi deysan qanday atirlar hidi anqiyotir? Voy-yey! Insonning miyasi qaynab ketadi-ya, ey Barba! Ahmad afandi ham yomon bola emas, ha! U qanday ko'zlar! Orzularim kabi yigit! Loaqal yumshoq Katinaning bir yerini og'ritib qo'ymasaydi!..

Pochta muvazziysi ana shunday dedi. Unda bir tushuntirish va uydirma to'qish qobiliyati bor ediki, men kabi uchragan yozuvchiga nasib bo'lmagan bir faraz qilish qudratidan dalolat etardi.

Bunday narsalarni nima uchun o'rganganini men o'zimcha shunday tahlil etaman: zohir bo'lgan kichik manfaatlar bor. Ular: qahva, choy, gaz suv, soqol oldirish, bir shisha aroq, bir shingil uzum, tasodif kabi narsalarga buyuk sirlar ifsho etsa-da, menga qolsa insonlarning yashiringan tomonini bu kichkina narsalar uchun ataylab o'rganishadi. Buni shundan angladim: ko'p marta o'zini tinglaydigan birov topilmasa; so'zsiz, yosh yigitdan xushlanmas, birovga bir narsa topshirish mumkin bo'lmagan, o'ziga hatto kunda bir qahva ichmoq nasib etmagan, turkchani yaxshi bilmagan Zafiriga, yoxud Zafiri kabi indamas, yosh yigitdan xushlanmagan, biletchilikdan pensiyaga chiqqan Zaynal afandiga ham shunday narsalar anglatganini ko'rdim.

Pochta muvazziysining o'rganganlarini so'ylamoq, yashirin narsalarni o'rganmoq qiziqishi, o'ziga ko'ra, qidirib topgan dunyoni yaxshiroq anglamoq, uningcha aytganda, "Ko'nyani bino etmoq" orzusidir.

Uning bu ahvoliga men ko'p martalar jahlim chiqqan. Bir talay kir-chir, kiyim-kechaklarni o'rtaga chiqarib qo'yib, ularga bir talay top-toza kiyim-kechaklarni aralashtirib kirlatganday bo'lardi. Bir odam haqida so'ylamoqchi bo'lgan narsalar, hech bir zamon mas'um haqiqatlar emas. Ha, emas, ammo nima qila olarding? Bu narsalarga u mas'uldir. Shunday qilib, o'z-o'ziga yolg'on-la to'g'ri-

dan-to‘g‘ri qurib olgan uylari bilan yashaydigan udir. Men pochta muvazziysining shu odam haqida so‘ylaganini bu odam uchun so‘zlanadigan gaplari bilan bir-birini qorishtirib, unutaman-u, yo‘limga ravona bo‘laveraman. Har kimsa ham eng oxirida xuddi men kabi ish qiladi. Inonish bilan inonmaslik orasida aylanib yura berasiz.

Men muharrir bo‘lganimni yashirganim yo‘q. Yozish, ayb emas, a! Buni e’lon etishdan ham hech xushlanmasdim. Hozir ertalab kazinoning bir burchagida har kimsaning qarshisida o‘tirib olib yozsam, ro‘y-rost chiqadi. Eski paytlar ketdi, daraxt taglarida yozardim. Endi, oh, bir stolim bor! Oldimga bir qahva keladi. Oldimdan qizlar o‘tadi. Ochiqdan-ochiq yozaveraman.

Demoqchimanki, pochta muvazziysining menga foydasi tegdi!

“Daraxt tagida o‘tirib, maktublar yozar... Kim biladi, kimga yozar? Nima yozar?”

Yirtib tashlangan yozuvdan shunday ma’nolar chiqardiki, o‘zim ham xafa bo‘lib ketardim. Bir martasida ozgina bo‘lsa ham kaltak yedim. “Voy, afandi bizning hayotimizni yozyapti, kim bo‘ladi bu ta’viya?” — deya yuzlarimga urdilar.

Pochta muvazziysi haqida ko‘p gapirdik. Shunday qilib, qabul etaman. Yaxshiligi, yomonligi haqidagi qarorni afkor ommaga qoldiraman. Bizga foydasi tekkani uchun ham yomonlamadim.

Bir kuni erta azon edi. Men dengizga ketayotgfnimda to‘xtatdi:

— Qara, — dedi, — ko‘ppakli odam! Gazetasiga maktub jo‘natayotir.

Qaradim. Gazetaning tahrir mudiriga yozilgan bir konvert.

Muvazziyning yuziga boqmasdan:

— Bo‘ladi-a? — dedim.

Ko‘zlarimiz bir-biri bilan uchrashdi. Shunday g‘alati boqishdikki, ikkimizning ichimizdan ham ayni yomon, o‘ylanmagan fikrlar bir yo‘la ko‘chdimi, bilmayman.

Men yana oldimga qaradim.

— Bo‘lar- a, — deya takror aytdim. Balki bir shikoyat, bir xotin maktubidir.

Yana ko‘zlarimiz bir-biri bilan uchrashdi. Bu onda qaysi birimizning gunohli, qaysi birimizning gunohning birodari ekan-

ligimizni, kim kimni tashviq etayotganini aytib beradigan hech bir sudya topilmasa kerak.

Maktubni yirtdik. O'qishga uncha shoshilmadik. Avval borib bir konvert oldik. Ostiga "... gazetasining xatlar mudiriga" deya yozdik. So'ngra dengiz qirg'og'idagi bo'm-bo'sh bir qoyaning tagiga cho'kdik. Konvertning ichidagi to'rtga buklangan bir qog'ozda shu satrlar yozilgan edi:

"Muhtaram afandim! Sizga, hikoyalar bo'yicha uyushtirilgan musobaqangizga ishtirok etmak niyatida shu arzimas hikoyamni jo'natyapman. Yaxshi deb hisoblasangiz, nashr etishingizni iltimos qilaman. Ehtiromlarimni qabul qilgaysiz".

Ikkiga buklangan boshqa qog'ozlarda esa hozirgina o'qiganingiz, mana shu hikoya solingan edi (Hikoyaning nomi hissiy tomondan juda shoirona bo'lib ketdi).

IZMIRGA

Ichkilik, sevgili yor, uy, oila, o'rtoq, ermak, dunyo ishlari, bir nafaslik fikr... qo'yingki, hamma-hammasi, terisiga igna kirgan, sigareta tutatgan, qirmizi, yashil, sariq, to'q-sariq havo sharlari uchirgan kunlarimiz bo'ladi. Hamma narsa rangini, ucharligini, sevinchini lahzada yo'qotadi. O'shanday damlarimiz bo'lmasligiga imkon bormi? Sharlariga hech igna sanchilmagan odamlar hali ko'p yashashadi. Biroq, ularni kun o'tgan sayin qizg'anchiq bo'lib, kun o'tgan sayin kichrayib borishayotganini ko'raman.

Mana, barcha sharlariga igna sanchilgan bir shar sotuvchi sifatida ko'chalarda yuribman. Kecha o'zini yaxshi deb hisoblagan sevgilimdan, kecha hech bir sababsiz meni xafa qilgan o'rtog'imdan, biroz avval uyimdan, kechki payt jasoratni, nekbinlikni, ishqni, tongga yaqin navbatdagi ming turli bo'lar-bo'lmas fikr, his, safsata, jinniliklarni qonimda singdirgan ichkilikdan, uyning eshigidan chiqar-chiqmas o'zimda jirkanch hisni uyg'otgan ko'chalarda yuribman.

Nihoyatda sovuq bir may kuni edi. Mevafurushlardagi giloslar, bizga hali oylarcha kelmayajak bir bahor mamlakatidan biz bilan hazillashmoq uchun kelgandilar har holda. Bir kilosining bahosiga bir faqir oilaning bir hafta davomida terlab-pishib lozim bo'lgani qulupnaylar qanday xunuk narsalar edi! Bodringlar-u salat-latuk deb atalmish yog'li yaproqlar ham juda qimmat edi. May oyida do'stlardan, yemishlardan, xristian rastasining gullaridan, nilufarlaridan bahri-diling ochiladi.

O'likka yig'lamagan odamlardan nafratlanaman. Kulganlarga jahlim chiqadi. Chunki men yashashni sevaman, sevganda ham qandoq! Dushmanliklar, tuhmatlar, yolg'onlar, kunimni o'tkazib turgan pulimga ko'z tikkanlar, borib sevgilimga mening ustimdan mag'zava to'kkanlar, hamma-hammasini sevganim kunlar, soatlar bordir. Yigirma to'rt soatdan so'ngra butun gina, alamlarim eski

zamon hovuzlari kabi sokinlashadi. Ammo bugun oziq-ovqatlarga juda o'chman. Chinnigul sotgan odam kulmoqda. Anavi yerda novvoy ham kulmoqda. Mendan boshqa hamma mas'ud, hammangizning Alloh jazoynigizni bersin!

Ichimda qandaydir bir sarxushlik bor; bir uxlab olishim kerak edi, ammo vaqtida uxlay olmadim. Oh, qaniydi, bir uxlab tursam! Yangidan hayotga qaytganday bo'lardim. Yurgan yo'limda uxlayman, biroq tippa-tiniq bo'lganligimdan yana uyg'onib ketaman. Bir gestapo meni goh mudratib, goh uyg'otib javobini berolmaydigan bir savol so'raydi. Bu iskanja tura tursin. Turmayapti. Inson farzandining u tabiiy holi hecham orqaga qaytmaydi: u yoqimli dengiz, u pufaklar, u yelkan, u quyosh nurlari ichidagi qumlik...

Ichimizga bunday, har kishining o'ziga ko'ra bir Hamleti kirgani zamon, yolg'on-yashiqlarga juda yaqinlashib qolasiz. Shu daqiqada ikki juft yaxshi so'zga, yolg'on bo'lsa ham ishonaverasiz. Demak, bu hol insonning juda aqlli bo'lgan oni emas. Ahmoqlik, jinnilik oni ham deyolmayman. Bu on ustaraning ustida turgan ondir, ya'ni do'zax ustida qurilgan jannat ko'prigi.

Bu onlarni yashagan har bir inson, shifosini ham o'zi topadi. Kimdir dush qabul qiladi, kimdir jinnilarga o'xshab ko'cha aylanib yuradi. Kimdir korxonaga ketadi. Kimdir mayxonaga chopadi. U onni nishonlashga harakat qiladi. Eng yaxshisi u onlarni boshdan kechirmaslikdir. Yana to'g'risi, o'zi o'ziga topilmish usul-la, ishning o'rtasida birdan paydo bo'lish bilan ish bitmas, keyinchalik bu yomon odat tusiga kirib qoladi. Uyqu dorilariga har narsasini alishadigan uyqusi qochiqlarga aylanib qoladi inson. Qo'yib turing, u on hukmini, saltanatini sursin, bir-ikki tola sochning oqarishiga, hali tuzukroq uch-besh chiziqqa ega bo'lsin-da, . Chunki qanday bo'lmasin kelib-kechajakdir. Kechmasa-chi?.. Na ichkilik, na afyun kor qiladi.

Bordi-yu, shu on kelsa... Birdan gullarning xushbo'y hidlari anqiy boshlaganini, giloslarning qizarishini, qulupnaylarning insonlar uchun yaratilganini, masjidlarning fuqarolarga saryog'li, tilli sendvichlarni ol-ol deyishga tushishlarini, yog'da pishgan muzday bifshtekslarning boylarga ayirib qo'yilganini qanday tushunsangiz tushuning, har qanday chora odamlarning kaftlarida, bilaklaridadir.

Xuddi mana shu xususda uch-besh kun avval o‘qiganim bir kitobida Balzak shunday deydi: “Tushunchalarda hech bir harakat yo‘q bo‘lsa, tushunchalar o‘zlarini tushunchasizlardan sal ilgariroqdamiz, deb sanamasinlar”.

Ana shunday kunlarning birida edim. Meni yashamoqqa chorlagan hech bir narsa yo‘q edi. Men bu daqiqalarda ichimlik ichmayman. Faqat yuraman, yuraman, yuraveraman. Ko‘zimga ilingan har narsadan o‘sha zahoti aftimni bujmaytirib o‘tib ketardim. Hayvonlar, insonlar, bog‘chalar, cheksiz dengiz qirg‘oqlarini uchratardim. Yangidan tug‘ilgandim. Bugun ham shunday bo‘ldi. Ikki odamla ikki quyon, biri yasama, biri haqiqiy, ikki ko‘zi, insonlarning umidlari bo‘lmaganini menga shivirladilar. Ular chekayotgan qayg‘u fojiasining buyukligi mening bu inson haqidagi fikrlarimdan uning qilmoqchi bo‘lgan jirkanch ishlaridan naqadar ulug‘ edi. Asolat insonlardan ko‘pdan bosh ko‘targan. Ammo u g‘alati kalima na savdogar uylariga, na qassob, na komissionchilarning xotinlariga, na restoran egalarining basharalariga, na buyuk va go‘zal turar joylariga, na-da mashhur fohishalarga, nomi ulug‘ insonlarga o‘tdi. Ataylab, umidlarimizga, anduhlarimizga, yolg‘iz faqir insonlarning umidlariga, fojialariga kelib qo‘ndi. Uni na o‘qimishli shaxslarda, na kitoblarda, na ashyolarda, na-da xatti-harakatlarda qidirmang, baribir behuda.

Gullar bilan mevalarning narxini anchagina oshirganlarni ko‘rib, baliq do‘konidagilar talvasaga tushishdi. O‘zlari baliqchi bo‘lmasalar-da, lekin baliq sotgan do‘kondorlarni juda sevaman. Kunini qarmog‘i ila o‘tkazayotgan baliqchilar hali oz, albatta. Hali u marmar hovuzli baliqchi do‘konlarining oldida jonli-jonsiz yarim kilo pishmagan krevetka ila uch-besh dengiz qisqichbaqasi, to‘rt-besh limon, ikki shoda taroq sotayotgan uzun mo‘ylabli, oqshom payt uch-to‘rt qadah otmoq uchun ishlayotganday bir holatda fuqaro grek sotuvchilari turishardi... Ularning savatlari, krevetkalari, qisqichbaqalari, taroqlari hech bir zamon qulupnayga yetib, xursand bo‘lganliklarini menga aytishmagan. Hanuzgacha hech kulmadilar. Dengiz tubi rangi-la titrashgan, savatlarning novdalariga

piltadek oyoqlari bilan, tiranib chiqishga harakat qilayotgan bu joni bor dengiz osti hayvonlarining toleyiga ham achinaman. Achinaman-u, lekin miyamga yana shunday yangi o'ylar keladi, bu hayvonlar, ro'zg'or puliga aralashgani holda ikki qadah aroq puliga ishlagan kabi ko'rinishi shoirona bir tushuncha bergan sersoqolni bizchalik sevadilar, shu sababdan ham ularning qarmoqlariga tushadilar.

* * *

Quyonlar bir qafas ichida edi. Ikki hammol bola, bir madam. Gapi cho'zilib ketgan odam. O'n-o'n ikki yoshli, sochi o'ralgan bir qiz, men, qafas ichida, quloqlarini orqasiga qisib olgancha bizga hayrat-la boqib turgan quyonlarni tomosha qilardik. Ular quyondan ko'ra ko'proq sichqonga o'xshashardi. Kichkina qiz qafasning boshidagi bir ayolga:

— Xola, bular sichqonmi? — deya so'radi. Ayol:

— Sichqonlar shunaqa bo'ladimi, qizim, ko'rmayapsanmi, bular quyon! — dedi.

Kichkina qiz kuldi. Boshini quyonlarga tomon cho'zdi. Qip-qizil tili bilan qurt yegan tishlari orasidan nozik bir sevinch, do'stlik ovozi chiqardi. Men:

— Xonim afandi, — dedim, — mabodo sotmaysizmi?

— Sotaman, o'g'lim. Sakkiz dona edi. Ikkita qoldi... Biznikilar Izmirga ketdilar, men ham ketayotirman... Qafasni ham sotaman. Yo'lkiraga ishlataman.

So'ng aytgan gaplariga pushaymon bo'ldi. Uyalganidan lavlagiday qizardi. Shunda bir boshqa madam:

— Ammo bular juda ko'p bolalaydi, qafasda siqilib ketibdi! — dedi.

Xotin javob bermadi. Bo'ynini qisdi.

Quyonlarlni sotgan xotinning ustida qizg'ish tusli bir ko'ylak bor edi. Yuzi, oq-ko'kishdan oq-sariq o'rtasidagi ranglarga to'la edi. Yonoqlari oq-sariq, ko'z osti esa moviy tusli, sutga o'xshab ko'ringan oppoq yuzi toza, unda shunday ulug'vorlik bor ediki, inson istar-istamas onasini, bir zamonlardagi poklik, parvosizlik ila

keksaygan yaxshi ayollarni xotirlardi. Endi ayollar keksaymayaptilar, xunuklashyaptilar. Erkaklar ham xuddi shunday! "Bir zamonlar ayollar mana shunday keksayishgan" degan o'y kechdi boshimdan.

Ayol bizdan uyalgani uchun, quyonlar bilan ovora edi. Jomashovda ko'p kir yuvgan qalin shahodat barmog'ini quyonlar burniga tekkizib kulardi.

Hammol bola:

— Bizning Elaziqda quyon to'lib yotibdi, — dedi, — Bular sichqonga o'xshaydi, biz tomondagilar naq eshakday keladi.

Shunda boshqa hammol bola:

— Bu yoqqa tush! — dedi.

Xotin ularga do'stlarcha boqdi.

— Bular hali yosh — dedi, — katta bo'lishadi.

Quyonlar bizga, biz quyonlarga boqardik. Izmirga bilet yo'liga sotilgan quyonlar tumshuqlarini bir shaklga kiritib, qafasning simlaridan chiqarib turishardi. Eh, onasini bu dunyoning! Izmirga bilet puli! Yuzi onalarimizni xotirlatayotgan qirmizi ko'ylakli umidvor ayol!

Boshimdagi qavarchiq yorilib ketdi: sariq, yiringli bir suvning boshimda oqa boshlaganini his etardim. Quyonlarni sevaman. Buvijonim! Izmirga ketmoq uchun quyonlarni sotgan senga havasim keladi, men bunday odamlarni sevaman. Bundaylari yorug' dunyoda bir dona bo'lsa-da, meni yashamoqqa chorlaydi. Sen bilan birga Izmirga ketishga umidvor edim. Sotaman quyonlarni. Biz ulg'aydik! "Nevaramga olib ketayotgandim. Biletga pulim yo'q. Men nimani o'ylagandim-u, nima bo'lib chiqdi, bu dunyoning ishiga qarang! Izmirga palubada ketay desam ulg'aydim"... "Ishingiz o'ngidan kelsin, sizga xayrli mushtariylar nasib qilsin, buvijonim".

Yo'llar ancha boshqacha edi. Faqat odamlar yolg'on so'ylamas edilar. Men baxtsizmidim? Unday emas! Men umidsiz edim. Onam esa mendan ham million marta baxtsizroq, ammo umidli edi. Yashasin onam, yashamoq sevinchi, Izmirga palubada ketish istak-orzusi!..

Tanho tramvay yo'llariga tushdim. Yettita bola ko'rdim. Tramvay yo'liga egilishib, bir narsalar qilishardi. Kulishardi. Ularga

qo‘shildim. “Har holda, — derdim o‘zimcha, — pachag‘i chiqqan bir qurush tangani rels ustiga qo‘yardilar. Tramvay ustidan yurib o‘tgach, qurushning qay shaklga tushganini ko‘rib, kulgani to‘planishadi. Ko‘ray-chi, men ham shu qurushni, qanaqaykin”. Ammo bu ko‘rganim nima deng? Quyonlar. Ularning ko‘zi hayrat va qo‘rquv ila to‘la edi, ammo baribir sevinch ichida edilar. Ora-sira shiringina jag‘lari ila yashil o‘tlarni tortqilab qo‘yishar, keksa xotinning barmog‘ini kemirishga harakat qilishardi. Shu orada eshakday bir bola kelib qoldi. Uning qo‘lida ko‘zlari so‘nik, yarim xol — mening nazarimda bir qurush tangadek kelardi — bir sichqon bolasi bor edi. Oyoqlarining bittasi tosh bilan ezilgandi, ammo hali tirik edi. Uni relsning uyog‘iga qo‘ymoqchi bo‘lishardi. Tramvay keldi. Hammasi orqaga chekindi. Chopib sichqonni qutqazmoqchiydim. Tramvay, balandlikka g‘iyqillab chiqib, endi oldimga kelib qolgandi. Odamning ko‘ziga juda tez kattarib kelardi. Bolalar bilan birgalikda sichqonning qatl etilishida istar-istamas hozir bo‘ldim. Tramvay o‘tib ketdi. Bolalar chopdilar. Sichqonni tramvay bosib ketmagandi. Sichqon balki jon talvasasida relsning ich tomoniga yashirinib, qutulib qolgandi. Eshakday keladigan bolaning qo‘lida yana boshqa bittasi qarab turardi.

O‘sha eshakday keladigan bola:

— Voy onasini!.. Yo‘qoldi, sichqon-e! — dedi.

Jonivorni yana relsning ustiga o‘rnatishdi. Boshqa bir tramvay jaranglab keldi... Men o‘z yo‘limga ketdim. Balki o‘sha qatl jazosi yana ijro etilmay qolgandir.

Sichqon iflos hayvon deya o‘yladim. Insonlarga juda zararli... Kasallik yuqtiradi. Ammo qanday sevdim o‘sha sichqonni, qanday yuragim achindi u sichqonga. “Bechora sichqoncha”, dedim. Eshakday bolalarga “olchoqlar” deya so‘kinib yurishda davom etardim. Ayoldan olganim umidni tramvay yo‘liga qo‘yib, sichqonlarni qatl etardik.

Oqshom payti, olomon eng qizigan paytda qo‘zichoqqa duch keldim. Bir qo‘zi, yerga cho‘zilib, kavsh qaytarib yotardi. Ustiga, yunglari orasiga bir qog‘oz qo‘yilgandi.

Bir sigareta qutisining yirtilgan parchasiga qalam bilan shu so‘zlar yozilgandi: “Jonlisi — 15, jonsizi — 7,5 lira”.

Jonli qo‘zining yonida, jajjigina yasama qo‘zi ham bor edi. Uning to‘rt oyog‘i bir taxta ustiga o‘rnatilgan bo‘lib, qandaydir yoqimsiz, munchoqdan yasalgan ko‘zlari ila nursiz boqar, jonlisi esa dunyodan xabarsiz, kavsh qaytarib yotardi. Sotayotgan odamga qaradim. Qishloq xo‘jayiniga, o‘lkasiz bir Bo‘g‘ozichi pristaniga bilet sotuvchi ma’murga o‘xshagan bir bechora, tajribasiz ishchi kabi ishlayotgan, buyuk bir narsaga erishganday holat bilan hech bir narsa so‘zlamasdan, burchakka kirib qolganday, bosh barmog‘i iyagida, ikki barmog‘ining orasida sigareta, qo‘zilarga boqqancha churq etmasdan o‘tirardi. Yamoqli paltosi bor. Bu paltoning yoqasi ayni shunday matoning yap-yangisidan qayta tikilgan. Yo‘lovchilar bir qo‘ziga, bir odamga qarab qo‘yishardi. Odam panjasi iyagida, qo‘zilarga boqqanlarga tajribali kishilardek nazar tashlab, sigaretasini zo‘r berib tutatardi. Boshining tepasidan, siyraklashgan sochlarining orasidan terisi yaltillab ko‘zga tashlanardi. Sochlarining rangi quyoshdan o‘ngib ketgandi. Oftobda qoraygan yuzlarida yomg‘irli havolarda dehqon yuzlarining bo‘zarganligi, hayot tushirgan chuqur izlar bor edi. So‘raganlarga hech bir narsa so‘ylamasdan qo‘zining ustidagi sigareta qutisi parchasini ko‘rsatardi: “Jonlisi — 15, jonsizi —7,5 lira”.

Birdan bu odamni ham sevib qoldim. Demak, mening dunyoda do‘stlarim bor! Hali yashasa bo‘ladi. Bekordan bekorga tuhmatchilar, nomussizlar, yolg‘onchilar, bir-birining nonini tortib oluvchilarga nafrat ko‘zi bilan qaramaymiz. Insonlar yashamog‘i darkor. Quyonlarni sotgan onam bor edi. O‘lgan o‘g‘lining jonli qo‘zisi ila jonsiz qo‘zisini bu oqshom o‘lguday ichish uchun sotgan bir odam bor edi ko‘chada. U ham boshini olib, kecha paltosining yoqasini yangilagan, xotini bilan birgalikda Izmirga ketmoqchimi? Unga qo‘shildim. Yirtiq paltosining yap-yangi yoqasiga boqdim. Boshini ko‘tardi. Kuldim.

— Og‘a, — dedim, — siz ham Izmirga ketmoqchimisiz?

QISH OQSHOMI

Xonadagi jimjitlik, bir stulning turishi, devordagi soatning tiq-tiqi asabimga tegyapti. Tashqarida yog‘ayotgan qor borgan sari zo‘rayapti. Derazadan ko‘zga tashlanayotgan manzara kishining g‘ashiga tegadi. Biron narsa bilan shug‘ullanish ishtiyoqi uyg‘ondi menda. Ammo bilamanki, qo‘limdan hech ish kelmaydi.

Sakrab bir paroxodga chiqsam-u, shaharga tushsam deyman. Shaharda umidvorliklari, tahlikalari, tasodiflari, shovqin-suronlari ichida sarguzashtga boy bo‘lgan bir o‘yin bor. U ham bo‘lsa to‘mbaladir. Men har zamon-har zamonda o‘ynab turaman shu o‘yinni. Mana hozir ham xayolan qo‘limni xaltaga suqdim-u, 77 raqamini chiqardim, chinko.

Shahardan roppa-rosa to‘qqiz milya uzoqdaman. To‘rt tarafim suv. Qor yog‘ishi goh pasayadi, goh zo‘rayadi. Bir xo‘rozning qichqirgani, bir kurka bolasining zorlangani eshitildi. Qo‘ng‘iroq chalindi, uzoqdan bir aravaning tovushi eshitildi. Takror xo‘roz qichqirdi.

Bu bo‘sh turgan stulga hozir birov kelib o‘tirsa-ya? Kim kelib o‘tirarkin? Hech kimni istamayman. Ammo stul... Bir insonni kutayotgan kabi turgan stulga qarang. Uni yasagan usta yomon odam ekan, to‘g‘risi. Stulning odam kutishini bilibdi-ya!

Bitta mandarinni kesib, yeya boshladim.

Bu orada xayolga toldim shekilli, soatning tiqillashi eshitilmay qoldi. Keyin yana boshladi. Qor yana maydalab yog‘a boshladi. Manqalning otashkuragida ham stuldagi kabi hol bor. Biron kishi uni ushlab, bir kichkina qo‘rni olgani... Ustidagi kulni puflasin va otashkurakni sigaretimga uzatsin.

Shu paytda deng, ko‘z o‘ngimda Majidiya qishlog‘iga kiraverishda, kulbasining oldida otashkurak sotgan lo‘li xotin gavdalanib ketdi. U qo‘lidagi otashkurakni aylantirarkan, erini chaqirardi:

— Bu yoqqa qarang, hay, xo'jayin! Bu otashkurak juda antiqa chiqib qoldi-ku! Otash istayman, deydi-ya, turgan yerida.

— E, qo'ysang-chi, bo'lmagan gapni. Men bo'lsam, echkilaring qochib ketibdimi, debman. Antiqa gaplarni gapirib u nimalar deyapsan o'zi, Kahlibor?

— Voy, anuvlarni, men sizga deyapmanki, otash istayapti bu otashkurak mendan.

Mo'yloviga oq tushgan qirq yoshlardagi lo'lining oqi ko'p, qorasi yanada mo'l qontalashgan ko'zlaridan bir qo'rquv kechdi:

— E voh, nima balo, bizning xotin jinni-pinni bo'lib qoldimi, nima balo...

Holbuki, lo'li xotin ham xuddi men kabi birdan mana shu otashkurakning turishini xush ko'rib qolgandi. Turishini emas, turishidan go'yo bir do'st do'lni, hikoyalar anglatgan bir ahbob qo'lni xayolidan o'tkazgan, ko'rgandi. Kahlibor shoira qiz, dardli qiz, yolg'iz qiz, boringki, g'arib qizdir. Eri esa, qizg'anchiqlarning qizg'anchig'i.

Sigaretimni tutatdim. Qarshimda pag'a-pag'a qor yog'moqda. Birdaniga qandaydir sevinch, kuchli bir sevinch hissi qoplab oldi meni. Qayerdan keldi bu sevinch, bilmayman? Siqilgan yuragimda qanday paydo bo'ldi u? Tor, qo'njsiz bir botinka ichida yumshoq, jajji, latif bir ayol oyog'iga o'xshagan bu sevinchni nima qilmoq kerak?

Pardani surib, qorning yog'ish-yog'masligini, ertaga ertalab maktabga ketayotganimda ichlari qip-qizil yangi kalishlarim bilan qorni bossam g'ichirlarmikin, g'ichirlamasmikin, degan fikrni anglagan bolalik kunlarimdan qolgan bu sevinchni qayerga taqish kerak, nazar tegishidan asrovchi bir shoda munchoqqami?

Keyin qizil daraxtning tagiga qush yemi, tariq, makkajo'xori, bug'doy sepiladi; uydan elak keltiriladi, elakning chetiga bir tayoq qoqiladi, tayoqqa bir yo'g'on ip, ipning uchiga tosh bog'lab, uyning old tomonidagi derazadan qarab turgan ko'zlari moviy bolaga uloqtiriladi, so'ngra uyga kirib, temir pechkaning ustida quriyotgan mandarin po'chog'ini issig'ida og'izga tashlab, deraza chetiga suyangancha tuzoqqa tushajak chumchuqni poylab turiladi...

Ey, bechora, tentak bolalik! Hozir sen yo‘qsan, sening ovozing shu qadar uzoqlardan eshitilmoqdaki, “Mozordan chiqyaptimi, bu sado”, deyajak kabi o‘ylamoqdaman.

Shamol tomdan tomga ko‘chmoqda. Oq tunuka bilan qoplangan bir uyning qubbasini yalab o‘tmoqda. Osmonda bir soya paydo bo‘ldi. Oynalarning terlashidan kattalashgan bu soya birdan qarg‘aga aylandi. Qarg‘a to‘g‘ri kelib uyimning qarshisidagi cherkovga qo‘ndi. Xuddi boshqa joy qurib qolganday naq but ustiga qo‘ndi.

Sovuq shimol shamoli jinnilarcha uvillamoqda. Endi tariq donalari kabi mayda va qattiq qor eski qorlar ustiga jonli, sarimsiq bir rang-la tushmoqda.

Ko‘chaga chiqib, biron qahvaxonaga ketmoq kerak. Istanbulga tushish kerakmi, yo‘qmi? Buni o‘ylab olish zarur. Bir kemani o‘tkazib yuborish; so‘ngra atrofni qorong‘i bosguncha, hassaga tayanib, uyga qaytish kerak. O‘tirish, o‘qish darkor. O‘qigandayam ishq haqida yozilgan hikoyalarni. Insonlar bir-birlarini sevishni mana shu yerdan boshlaganlar, deb hisoblash kerak. Yolg‘iz o‘z-o‘zimizni o‘ylaydigan borlig‘imizga, hayotimizga o‘ralishib, odamlardan ajralmoq kerak. Tashqariga chiqmaslik kerak. Na manqallikni va na manqalsizni, na kaloriferlikni va na otashsizni, na xastani va na ochni mutlaqo xayolga keltirmaslik kerak; o‘zni xayol daryosiga otib, esnab-esnab ishq haqida yozilgan hikoyalarni o‘qish kerak...

Kutsinlar, turatursinlar otashkurak bilan stul. Eshaklar! Qushlar hali osmoni falakka ko‘tarilib, yerga o‘tkir ko‘zlari ila boqa tursinlar. Ko‘ramiz yerdan loaqal bir luqma, bir tariq donasini ko‘ra olarmikinlar?

Qor yog‘moqda. Kim mo‘ynada, kim etikda, kim kalishda, kim tagi qator mixlangan botinkada, kimdir hassaga tayangan holda uyiga qaytmoqda.

Yaramas narsa bu qish! Yomon narsa, yomon! Shukuhiga boqma! Boqma uning Shveysariyaga o‘xshash manzarasiga...

Men o‘rnimdan turdim. Inson kutayotgan stulni stolning ostiga surdim. So‘ngra manqalning ustida o‘zga qo‘l kutayotgan otashkurakni kuldan chiqardim-da, manqalning chetiga qo‘ydim. Qor ham, shamol ham tingandi. Qishloq jimjit edi. Ko‘k yuzini

qorong'ilik qoplamoqda. U yerda uzun, bitmas-tuganmas qish kechasi birpas dam olib, yangidan qor to'plamoqda edi. Avval derazani, so'ngra og'zimni ochdim: qish kechasiga qarab qumkapilik bir armani baliqchi so'kkaniday shunaqangi boloxonador qilib so'kish qildimki, umrida hech kim bunaqangi so'kishni eshitmagan.

BIR BOG'DA

Bir shaharda ko'p yillar yashaysan. Jonga tegib ketadi. Odam zerikadi u shahardan; hamma joyini ko'rganman, hamma joyini bilaman, deb o'ylaysan o'zingcha. Ammo shu shaharda hali biz ko'rmagan qanchadan qancha odamlar, yurilmagan ko'chalar, har kuni oldidan to'rt-besh marta o'tganimiz holda yaxshiroq zehn solmaganimiz binolar bordir.

Birdan boshimizni ko'tarib: "Men bu binoning sirtida inson ulug'vorligini madh etuvchi bunday haykallar o'rnatilganini bilmasdim", deya beramiz.

Bir kun uyga kech qoldim, aniqrog'i, uyga ketishni istamadim, buning ustiga, o'zim mast, hayotdan bezgan edim, shuning uchun Beyo'g'li tomondagi bir mehmonxonada yotib qoldim. Chiroqni o'chirib, yotishdan avval derazani ochdim. Deraza oldida sigareta tutatay dedim. Iliq kuz kechasi edi, xonaning ichiga bir yaproq hidi bilan birga totli jim-jitlik ham kirdi. Ko'z o'ngimda xonaning derazalaridan sizib chiqqan nurlarning sal-pal yorug'i ostida bir bog' namoyon bo'ldi. Talaygina daraxtlarning shovullab turishini, bir qancha yaproqlarning menga to'g'ri kelib, so'ngra mendan qochganliklarini his etdim. Deraza oldida turib, daraxtlarning tepasiga boqardim. Yulduzlarni ilk bor tomosha qilayotganim yo'q, daraxtlarning tepasiga bodroqdek sochilmish yulduzlarda bugun qandaydir o'zgachalik bor edi.

Insonlar yulduzlarga tasallilarini, ilohiylarini, ishqlarini, tolelarini aytardilar. Yerning o'ziga tortish qonunini u muhtasham o'yinchoqlarga topshirganimizdan keyin, ulardan kelganlarini olardikda, so'ng muhaqqaq bir narsalar berardik. Mana, o'sha oqshom derazaning qarshisida tik turib ko'k yuzini sayr etarkanman, o'zimdan

bir his-tuyg‘u yomg‘iri qoldirdim. Aqlga yetmaydigan tushunchaga o‘xshaydimi? Menda u holat bor, his-tuyg‘ular aqlning bir jo‘shqinligi emas, ayri, aqldan mutlaqo ayri bo‘lgan narsalar kabi ayrilib yulduzlarga ketishardi. Tuyg‘ularimni tahlil etmak lozim bo‘lsa, aytaman, sevinch, g‘am kabi hislar emas edi. Ular boshqa bir narsa edi. Xuddi ulardan yoqqan bir yomg‘irdan toza bo‘kib, sovqotganday, qo‘lim do‘l tutmoq istaydi, aqlim aql istaydi, dudoqlarimga bir shokolad, bir qadah shampan sharobi tutilsa, bir qog‘oz holvani maza qilib oxirigacha yesang, bunday totli damlar ajoyib hid anqib turgan haqiqat emas, soch-la, teri-la, tirnoq-la, kiprik-la anglasa bo‘ladigan yoxud bunday narsalar ila hatto anglanishi qiyin bo‘lgan tushga qadar qochgan bir haqiqat bo‘lib baholanardi.

Kechaning og‘ushida birdan bilinar-bilinmas bir Istanbul minorasi, shahar chetidagi bir qahvaxona, butun bir may kuni namoyon bo‘lganday edi. Yonimda birov bo‘lganida, yig‘layajak qadar mas’ud bo‘lardim. Holbuki, kimsasiz, tark etilgan, ishsiz, sarsari edim. Hozir, o‘tib ketgan avgust kunlarini, oqshomlarini, moviy dengizini, tarvuz hidlarini sezayotganday edim: holbuki bu yerga kirmasdan avval har narsadan ko‘nglim behuzur bo‘lib, ko‘p uzoqda bo‘lsa-da, o‘z joniga qasd qilish havosini hidlay boshlagandim.

Uzoqda, yaproqlarning orasidan so‘nib borayotgan bir qirmizi shu’la tushib turardi. Bu shu’ladan yulduz qorong‘ulikdek latif bir qorong‘ulikka, bu qorong‘ulikdan bir kartoshkagul hidi anqib turgan yerga to‘g‘ri g‘oyib bo‘lardim. Faqat bu shu’la bilan yolg‘iz emasdim. Talay narsalar orqaga qaytgandi. O‘z dunyomni qurib, birgalikda butun bir dunyoning zavqini, istasa achchig‘ini chekmakka hozir, bayram tonglarida yangi kiyim-kechaklar qarshisida bola qanday hayajonlansa, ana shunday hayajon his etardim.

Derazaning gardishiga o‘tirib, takror ko‘k yuziga boqdim. Yulduzlardan birini tanladim. Moviydan to‘q-sariqqa, to‘q-sariqdan moviyga moyil bo‘lgan ming bir rang o‘yini ichida edim. Bilaman, qarshimda na bog‘ bor, na-da daraxtlar... Sarxushman, uyqusizlik, horg‘inlik, baxtsizlik menga uyg‘oq bir riyo ko‘rsatardi. Balki seni ham ko‘rmayotgandirman, yulduz!..

Sigaretamni derazadan tashqariga otdim. Yechindim, chiroqni o‘chirib yotdim. Hamon uxlolmasdim. Ertalab juda barvaqt uyg‘on-

dim. Ko'zimni ochar-ochmas, ro'paramdagi derazadan ko'zlarim oldida shunday go'zal bir o'rmonzor paydo bo'ldiki, hayratda qoldim, qarshimda buyuk daraxtlar, shitirlashlar eshitilib turgan sokin torgina yo'llar, o'zlarini har tomonga solayotgan daraxtlar, rangini dam-badam o'zgartirayotgan yaproqlar, qirmizidan boshqaga aylangan rangdan sariqqa, yam-yashilga, goh to'q, goh och-yashil rangga, hatto oqish rangga qadar qaytgan quruq yaproqlar mahshari tongning hafif sokinligida shunday ajoyib g'oyat go'zal bir bog', latif o'rmonzor bor edi. Shamol ham yo'q hisobi. Qishining diqqatini o'ziga tortgan, hayajonlantirgan bir sokinlik markazidagi bog', insonga mumkin bo'lgani qadar uzoqlarga, dengiz qirg'oqlariga yoxud bo'lmasam saboh maxmurligi ichida yosh qizlarning uyqudagi go'zalligi hissini berardi.

Oldimda namoyon bo'lib turgan manzaraga qarab turib, o'ng tomonimga ham bir nazar tashlab qo'ygandim, bir cherkov ko'rdim. Eshigi oldida millionlab yaproq qalashib yotar, nayzalari chiqib turgan panjarali devorning atrofida aylanib, cherkov zinasiga kelib tushardi. Cherkovning yonida derazalari temir qanotli, tuman ichida pishiq bir bino yuksalib turardi. Bu manzaraning endi birdan ko'zim oldidan g'oyib bo'lishini, bu xayollarni puf deyilsa, so'ngan shamchiroq kabi so'najaklarini, bo'lmasam, mudhish bir shamol ko'tarilib, bog'ning ichidagi tumanning oldiga qator qilib daraxtlarni, yaproqlarni, cherkovni, saroyday ishlangan haligi binoni — hamma-hammasini bir qilib, zing'illab qochib qolishi mumkin, deb o'yladim.

Birozdan so'ng bu shamol chindan ham turdi, ammo o'ylaganlarim bo'lmadi. Bog', binolar joy-joyida turardi. Daraxtlar silkina boshladi. Tuman asta-sekin ko'tarildi. Bog'ni endi har yer-har yeridan o'ziga yo'l topib kelgan ko'zni qamashtiruvchi quyosh nuri yorita boshladi. Sigaretam derazadan tashqariga ko'm-ko'k tutun chiqarar, bir odim uzoqlashib quyosh nuriga bamisoli asir tushar, so'ng oltin doiralar shaklida changlar bilan aralashib ketardi. Bog'dagi yaproqlar ham men bilan o'ynashganday to'ppa-to'g'ri men tomon kelar, derazamning ostidan bu yerga qanday chiqib kelayotganlarini so'ylamoqchiday bir-birining ustiga yig'ilishardi. Naryog'da torgina jimjit yo'llarning oxiridagi boshqa yaproqlar

o‘zg‘acha bir rang — temir rangida bo‘lib, shitirlagan tovush chiqarib pildirab uchib yurishardi. Kichik, sariq boshli jo‘jalar kabi edi har narsa. Bog‘ bundan maxluqot-la to‘la edi. So‘ngra bog‘ni qushlar to‘ldirdi. Ular ham bayramlarini boshladilar. Qurbaqa tovushlarini eshitganday bo‘ldim. Holbuki hali qurbaqalar suv ostidagi makonlarida uxlab yotishar, hovuzlarning moviy suvlarini ortiq tatimay, uning sassiq yashil po‘panak bosgan toshlari bilan birgalikda og‘ir sukunatga cho‘mgandilar. Maylarni, shonlarni, majnuntol tagini juda-juda qo‘msab, uvishib-uvishib qolgandilar.

Ammo tepamda qarg‘alar bor edi. Insonga qir-adirlarni, qorli tekisliklarni eslatuvchi bo‘g‘iq, jarangdor tovushli qarg‘alarning baland tollarda “qag‘-qag‘”lashganliklarini, g‘avg‘o ko‘targanliklarini, keyin esa baqirishib-chaqirishib ketganliklarini his etdim. Kurkalarning faryodini eslatuvchi bir ochlik marshini tinimsiz kuylashardi ular.

Birdan bir tramvay qo‘ng‘irog‘ining tovushini eshitdim.

Demak, bu g‘arib bog‘chaning naryog‘ida, men bilgan Istanbul yo‘llari, har kun ko‘rganim odamlar bor edi. Bu, balki ilk tramvaydir. Tramvay haydovchisining quloqlarini berkitgan jun shlapasi, uyqu jinnisi bo‘lgan biletchisi, ilk tramvay vagoniga butun oilasi bilan chiqqan mehnatkash odamlarni ko‘rganday bo‘ldim. Silkindim. Xuddi shamchiroqlar o‘chganday bo‘ldi, bog‘ oldimda turgani holda mendan uzoqlashdi. Shunda angladimki, men Beyo‘g‘lidagi mehmonxonada edim. Bu bog‘ esa ingliz elchixonasining bog‘idir.

SAKARIYA BALIQCHISI

Xarob bir kulbaning oldida turardik. Husayin og‘a:

— Sen qanday baliqni bilasan, bilganing skumbriya, olabug‘a balig‘i, xolos. Senga bu oqshom yedirmoqchi bo‘lgan qiltanoqli baliqni Istanbulda bo‘lsang bir luqmasini yemassan. Ammo qishloq yerda bu baliqni yeb to‘ymaysan. Barmoqlaringni ham qo‘shib yedirtirvoraman senga. Bu kulbaning hikoyasini ham ana o‘shanda aytib beraman.

Husayin og‘aning bu so‘zidan keyin oqshomni zo‘rg‘a o‘tkazdim. Oqshom yaxshi saryog‘da qizartirilgan, ichi sal pushtirang, dengizning xanos balig‘iga o‘xshab ketadigan bir baliq yeganim esimda. Husayin og‘a:

— Bularning otini “Xushkun” deydilar, o‘g‘lim, — degandi.

Ancha keyin, Sakariyadan har biri ellik, yuz kilo kelgan, hatto undan ham og‘irlarini shahar bozorlarida sotilayotganda ko‘rdim, biroq yemadim. Ammo bu Sakariya baliqlarining lazzatli go‘shtidan ham ularning ismlari juda ko‘nglimga yoqqandi.

Uqlama, Jilpiq, Xushkun... Sakariya baliqlarining ismlari qanday yoqimli bo‘lsa, go‘shtlari ham shunday lazzatlidir. Bu baliqlarning nozik, ko‘zga ko‘rinadigan qiltanoqlari bor. Yaxshilab chaynalsa bo‘ldi, u ham bilinmay ketadi. Yutib yuboraverasan, hech narsa bo‘lmaydi! Qishloqdagilar bu qiltanoqni hech chiqarmasdan yeyaveradilar. Baliqlarning lazzati ham ana o‘shanda! Baliqlarning hamma lazzati ana shu qiltanoqlarida yashiringan shekilli. Odamga shunday tuyuladi. Biz shaharliklar, chaynash qayoqda, bosh barmog‘imiz ila ko‘rsatkich barmog‘imizni lablarimizga to‘g‘ri ko‘tarib, bir shaffof, ingichka qiltanoqli olishga harakat qilamiz. Bunday qilinganda baliqning hamma lazzati o‘z-o‘zidan yo‘q bo‘ladi.

Shaharning piyoz bozoriga, har chorshanba kuni bo‘ladigan bozorga kichkinagina dara baliqlari bilan barobar, Sakariyada ushlangan, haligilarga nisbatan sakson karra og‘ir bo‘lgan og‘izlari g‘oyat katta, ko‘zlari dumaloq, mo‘ylovlari oq, terilari olachipor, yarim ajdaho, yarim inson, yarim ilon baliqlar ham keladiki, kattakon boltalarda chopilib sotiladi. Butun faqirlar mahallasi erkaklarining oqshom azoni vaqtida kanoplarga tizilgan barmoqlari ila, uzunasiga cho‘zilishib, tebranma harakat qilayotganlarini ko‘rganimiz zamon, bilingki, Sakariyada juda mo‘l baliq tutilgan bo‘ladi. Istanbulda qizil toj balig‘ini o‘n to‘rt lira bo‘lgan vaqtlarda, bu baliqlarning bir o‘kkasi besh qurushdir. Mahallalarda mushk kabi baliq hidi anqiydi. Odam agar Istanbulni ko‘rgan bo‘lsa, Anadoluning bu sigir-buzoq va tezak hidi kelib turadigan yerlarida, bir Qumkapi mayxonasidan chiqqan kabi mas’ud, yarim sarsari bo‘lib qo‘ya qoladi. Atrofida yoshgina grek qizlari aylanib yuradi.

Sariq sepkilli bo‘shnoq qizlarining kavush shaqirlatgani, tovushlarni bir o‘g‘ir dastasi bilan bir taxta qoshiq shaqirlari orasida siqishtirgan bu shahar ko‘chalarida, men hamisha foyda o‘kkasining to‘rtdan bir qismiga bir baliq hidini hidlasam, Husayin og‘aning Sakariya baliqchisi hikoyasini xotirlayman. Sakariya chetidagi qishloq ahli baliqchi emas. Shahardan siqilgan, nashavon, sarsari toifasidagi odamlar toza havo ila nafas olmoq uchun chiqishar, baliq tutib keltirishar, keyin shaharda sotishardi. Lekin bularning ham hunari baliqchilik emas, zamonasiga ko‘ra mol olib sotuvchi do‘kondordir ular ham! Yozning qovun, tarvuz, mandarin pishgan zamoni mandarin, baqlajon, bodom, bodring, mo‘m kabi qovoq sotishadi. Bu orada deng, yodlariga tushsa bas, “g‘ir” etib, Sakariyadan baliq tutmoqqa ketadilar. Chorshanba kunlari bozordan Sakariya balig‘i topish amrimahol. Onda-sonda bo‘lib qolishi mumkin. Irmoq baliqlari, savat bilan tutilgan baliqlar topilsa shungayam shukur deng. Kunlarning birida qayerdan kelganligi noma’lum bir baliqchi Qorakokilga kelib joylashdi. O‘tin yordi, dalada ishladi, temirchiga yordam berdi. Bir kun qishloq ahli qarasa, Husayin og‘aning dalasi chetida bir kulba qurilibdi, ichida esa Muharram yotibdi (Muharram, bu muhojirning ismi edi).

Qalin, quyuq o‘sgan mo‘ylovlari, tanachalarning boshini bukadigan temir kabi qo‘llari bor edi. Ammo o‘zini tutolmaydigan odam emasdi. O‘ttiz, o‘ttiz besh yoshlarda ko‘rinardi. Ba’zan o‘ziga bir narsa bo‘lguday bo‘lsa:

— E-e-e, — derdi. — Har xo‘roz o‘z qo‘nog‘ida xo‘jayin. Siz meni quvmoq, do‘pposlamoq, haqoratlamoq istaysiz. Yo‘q, biz Allohning bandasimiz, qulimiz. Biz sizga tag‘in bir narsa qilib qo‘ymaylik, — der va odamni shartta oyog‘idan olardi.

Kulbani bitkazgandan so‘ng, Muharram ortiq mayda-chuyda ishlarga unchalik ahamiyat bermay qo‘ydi. Kichkinagina bir qayiq ham yasab oldi, kulbaning qarshisiga esa, qayiqqa xos bir pristan qurdi. Ikki ekinzorning orasiga kirgan Sakariyaning ustiga uch metrlik bir ko‘prik ham soldi. Aslida bu qurilgan ko‘prik qurishga arziydigan narsa edi. Muharramdagi butun asror, zavq, go‘zallik, yolg‘izlik, muhabbat tushunchalari bu ko‘prikning kalta-kalta yog‘ochlardan qilingan panjarasida edi. U ko‘prikni sizga qanday

chizib berishni ham bilmayman. Avvalo bir egri yog'och, so'ngra yog'ochning ustida sirpanib ketmaslik uchun pillapoyalar, qisqasi, osma ko'prikning bir xili edi-da. Eng muhim masala, ko'prikning panjarasi edi.

Quruq tolning xivichlari bilan buni balki bir soat ichida to'qib tashlagandir. Ammo ko'prikka nazar solgan odam, unga uzoq-uzoq diqqat-la qarasa, zavq-shavq bilan bajarilgan ekan, degan xulosaga kelardi. Muharram buni juda tez bitkazgandi. Muharramning ko'zida ko'priklar qurmoq, yaxshi ishlar qilmoq, baliq tutmoq, yashamoq, yolg'iz o'z qo'llari ila, o'z tushunchalari, fantaziyalarila bir dunyo bino qilish orzusi, bu ko'prikdan ta'lim olmoqchiday edi.

Husayin og'a:

— Ey Muharram, — degandi, — menga qara, bu ko'prik qanday yaxshi narsa! Kulbang ham go'zal-a! Iya, hali shu yerga pristancha ham qurdingmi? Bu arqon nimaga kerak, Muharram?

Muharram arqonni og'ir-og'ir tortar, naryoqda bir chambarakning asta-sekin yuksalayotganligi ko'zga tashlanardi; ichidan bir qancha ishkambalarning orasida, bizning qisqichbaqalardan o'n-o'n besh marta katta bo'lgan qisqichi bor jonivorlar chiqardi.

— Hey, bu qisqichbaqalarni nima qilasan, Muharram?

— Sotmoqchiman, og'a, — deydi. — Sotolmasam o'zim yeyman. Ammo buning xaridorlari bor. Har kun ko'rsatib boraman. Ayting-chi, shaharda fabrika yo'qmi?.. U yerda ishlaydiganlar kofirlar... Bunaqangi narsalarga o'ch bo'ladi ular. Buning go'shti buzoq go'shtidan ham lazzatlidir, Serjant bey.

— Sekinroq, Muharram, sekinroq gapir! Unaqangi iflos narsalarni hech kim yemaydi.

— Ayniqsa, aroq bilan juda ketadi-da, Serjant bey!

— Qo'ysang-chi, bo'lmagan gapni!

Husayin og'a, bir juma kuni Muharram bilan birga totli shu dengiz omaridan boshqa narsa bo'lmagan bu jonivorlar-la uch litrlik aroq shishasini bo'shatib, Muharramning kulbasida kayfi oshib qolgan kundan beri, har juma kuni, kichik bir shisha olib, uning uyiga to'satdan bostirib kirardi.

— Mana, millatimiz juma namozini ado etarkan, hech bo'lmaganda shu jonivorlarni pishirmay qo'ya qolay. Faqat bir yo'lini topish kerak. Kutish kerak! — derdi Muharramga.

Muharram kutardi.

Muharram endi yolg'iz baliqchilik-la kun kechirardi. Qish qiyomatga kirib uning qayig'i oqimga qarshi suzolmay qolsa hamki, bunga e'tibor bermas, butun kun to'r to'qir, qishloq bolalarini to'plar, qo'yib kelgan to'rlarini ko'rishga ketar; sakson o'kkalik baliq to'rga tushgan bo'lsa bormi, butun qishloq bolalar qiy-chuviga to'lib ketar; shaharga arava qo'shilar, baliq ko'tarilar, ikki qurushdan sotilib yuz oltmish qurush qo'lga tushar, shundan sakson qurushi bolalarga ulush sifatida bo'lib berilardi.

Qishloq odatda baliq tutilgan kunni bayram qilardi, ba'zida bolalarning onalari Muharramni "Yovvoyi to'ng'iz" deyishardi. "Bolalarimizni baliqchi qilmoqchi!"

Muharram bu ishni uddalardi. Sakariya qirg'oqlarida uning kulbasiga o'xshash baliqchi kulbalar kundan kunga tizilib borishi muqarrar, uning ko'prigiga o'xshash ko'priklar ko'payishi aniq edi. Bir talay chaqqon-chaqqon baliqchi bolalar paydo bo'la boshladi. Ammo falak kor etmadi. Muharram o'rtadan g'oyib bo'ldi.

U qish, Husayin og'a, boddan yotib qolgan, qimirlay olmasdi. Yuzi sap-sariq, murda kabi edi. "Eh, nihoyat, — derdi, — kunimiz keldi shekilli!" Muharramning usti boshi ancha-muncha durust edi. Husayin og'a, chetiga kulba qurgan dalasidan bir miqdorini hatto sotib ham oldi. Pulini ancha durust to'ladi. Qiziq joyi shundaki, Muharram to'satdan g'oyib bo'ldi. Bir oy ko'rinmay ketdi. Eshigi bilan uyining mo'risi berkitib ketilgandi. "Nima bo'ldiykin bechoraga?" — dedilar. Keyingi paytda qishloqdagilar Muharramni juda yoqtirmay qolishgandi. U ham nimadan desangiz, "bolalarimizni baliqchi bo'lishga undayotir", degan gap tarqalgandan keyin.

Oradan bir oy o'tmadi. Muharram to'ng'iz kabi bir xotin ila kelib qoldi. Xotin bilan toza grekcha gaplashishardi. Qanday til ekanini bilmaymiz! Nima demoqdalar, nima qilmoqchilar? Ammo biz qishloq ahli boshqa tilda gapiradiganlarni tinglashni juda sevamiz. Ular o'zaro suhbatlashisharkan, biz jon quloq bo'lib ting-

lardik. Shu so‘zning turkchasi, mana bunday ma’noni beradi, deb aytishsa, hayron qolardik. Baliqchilik bilan ikki kishi qishloq yerda bir amallab kun o‘tkazsa bo‘lardi, ammo unchalik ko‘ngildagiday tirikchilik o‘tkazolmaydi-da, o‘g‘lim. Buning ustiga har kun baliq tutilmasa. Tutilganda ham pullanmaydi. O‘kkassini bir qurushga sotgan kunlari ham bo‘lardi Muharramning... Yigirma besh qurush arava kirasiga berardi. Yigirma besh qurush — qishloq bolalarini onalari tutib olib solmasligi uchun ho‘kiz Rajabga berardi. O‘ziga esa, yo o‘ttiz, yo qirq qurush qolardi. So‘nggi kezlarda uning molini fabrikadagi ovrupoliklar olmaydigan bo‘ldimi, yo‘qsa to‘polon ko‘tarishdimi, nima bo‘ldi-yu, g‘irt faqirlikka tushdilar. Qo‘liga tushgan bir qancha qurushni esa xotiniga beradigan bo‘ldi, bechora Muharramning hech tovushi chiqmasdi. Husayin og‘a:

— Oyoqqa turganimda, — dedi, — bahor nafasi urib turgan payt edi. Shundan bir dalada uzala tushib yotdim. Bundoq qarasam, Muharramning uyining mo‘risidan tutun chiqardi. Sevinib, kulbaga kirdim. Baliq sho‘rva pishirgan ekanlar. Stolning ustida sap-sariq pishloq. Uch litrlik bir sharob ochibdilar. Qarshi qishloqdan Ali og‘aning isrofgarchilikni bilmaydigan o‘g‘li, Muharramning xotini, Muharram o‘tirishardilar, hammalarining kayflari chog‘!

Muharram meni ko‘rdi-yu:

— O‘tir, Husayin og‘a, kel! — dedi.

— Yo‘q, o‘tirmayman, Muharram, — dedim. Keyin qulog‘iga engashib: — Men manavi ta’viyani yoqtirmayman, — dedim. Unga ko‘p saxiylik qilmasang yaxshi bo‘lardi.

— Nima qilasan, Husayin og‘a, — dedi, — yaxshi yigitga o‘xshaydi, to‘g‘ri, biroz axloqsiz.

— Axloqsizlikka axloqsizku-ya! — dedim. — Ammo yana o‘zing bilasan.

Bir haftadan keyin qishloq alg‘ov-dalg‘ov bo‘ldi. “Qishloqning obro‘sini oyoq osti qildi”, deya tayoqlar bilan toza savaladilar bechorani. “G‘ing” degani yo‘q. Xotini qochib ketgandi. Har haftada shahardagi Soliha yanganing uyiga tushib turardi. Muharram ko‘zimning oldida qayig‘iga mindi. Sakariyaning oqib ketayotgan tomoniga qarab to‘g‘ri eshkaklarni esha boshladi. Orqasidan toshlar yog‘ardi.

KASHTANCHI DO‘STIM

U yigirma to‘rt yoshda ekanligini tug‘ilganlik guvohnomasidan bilgani zamon, oynaning qarshisiga o‘tdi. Bu oyna bir tamakichiniki edi. Oynada ko‘rgan odamiga hayrat-la boqdi. Hozirga qadar bunday odamni ko‘rmagandi. Shu vaqtgacha oynada o‘zini ko‘rmoq uchun bunda boqqanini hech xotirlay olmasdi!..

Ustidagi kiyimlarini qachon olgandi? Bu shimni unga kim bergandi? Chindanam oyog‘ida boshmog‘i bormidi?

Ajab! Soqollari ham bor. Ko‘zi jiloli porlaydi.

Kepkasining yirtig‘idan chiqib turgan qog‘oz parchalarini yulib tashladi. Pastga osilgan sabza holidagi mo‘ylovlarini silab qo‘ydi. Ha, yigirma to‘rt yoshga kirgandi! Demak, uch sana avval u yigirma bir yoshda edi. Nima sababdan u zamon shunchalik bolaga o‘xshab ketardi? Askarlikda o‘rtoqlari uni “bola!” deb chaqirishardi. U ham bolalikka zarar kelmasin, deya bir qahvaxonachining shogirdiga o‘xshab har kishining mayda-chuyda ishlarini bajarib yurardi. O‘zini hamma vaqt ilk qahvaxonachining shogirdi yoshida qolajakman, ulg‘aymayajakman, deb hisoblardi. Mana endi, hozirga kelib u o‘sibdi, ulg‘ayibdi.

Hali kechagi o‘rtoqlari — kichkina gazeta sotuvchi bolalar, tilanchilar, kichkina hammollar edi. Nima sababdan bir katta odam-la o‘tirib suhbatlashmagan, o‘z tengdoshi bir inson-la ahbob bo‘lishmagan; ahbob bo‘lishni istamagandi ham.

Onasi o‘lgandan keyin buvisi uni qahvaxonachi Salim Ustaga bergandi; bu ozg‘in bola, balki o‘n sanadan ortiq Salim Ustaning yonida qolib ketgandir, biroq bu o‘n sana ichida uning hech o‘smaganligini butun qahvaxona mijozlari bilishardi. Ulardan biri:

— Men o‘n sanadan ortiq shu qahvaxonaga kelib-ketib turaman. Bu o‘g‘lon manavinday edi. Hozir ham o‘shanday. Albatta, askarlik zamoni kelar: balki yigirma birdan keyin o‘sib ketar. Sen nima deysan, Salim og‘a? — derdi.

Salim og‘a, Ahmadga achingannamo boqib:

— Nima deyishni ham bilmayman. Kelajagi qorong‘i ko‘rinadi, —derdi.

— Menga ham shunday ko‘rinadi, — dedi mijoz — Keyin u, men ilk bor ko‘rganimdan bugunga kelib anchagina o‘zgardi. Yo‘q, vujud jihatidan emas, albatta!.. Yuzidagi tuklarning rangi o‘zgardi. Qorayib borayotirlar. Men shuni bildim, shuni aytyapman.

Askarlikka borib kelgandan keyin, qarasa, Salim og‘aning qahvaxonasi yopilib qolibdi. Uning o‘rniga bir baqqol do‘koni ochilibdi. Talay muddatgacha do‘konga qarab yurdi. Nima bo‘lsa ham bu do‘kon, uning uyi hisoblanardi. Buvisi o‘lgandan so‘ng yillarcha do‘konning skameykasi ustida, ba’zan esa ostida yotib yurdi. Salim og‘aning qayerga ketganini so‘raganda nima bo‘lardi? Salim og‘aning ketgan yeri, Fotihdan sekin-sekin yurib Shahzodaboshiga to‘g‘ri borganini ko‘rganday bo‘ldi. Bu ustiga gilam to‘shalgan, bosh tarafiga bir bosh panja ramzi tushirilgan, orqadan yetti ro‘dapo odam borayotgan bir tobut edi. Shunda u odatga ko‘ra baqirib qo‘yardi:

— Hey, Salim Ustam, hey!..

Endi, mana, cho‘ntagida sariq chaqa ham yo‘q edi. Ertalabdan beri hech narsa yegani yo‘q. Vaqt choshgohdan o‘tgan, bir ko‘prikning ustida turardi. Issiq janub shamoli bu noyabr oyining oxiri yoz oqshomiga o‘xshatib yuborgandi. Qirmizi bulutlar, masjid minoralari, yarqirab turgan qubba, uzoqda Sulaymoniyaning orqasida bir qora bulut chetlarida oltin naqsh solingan, xuddi yuk tashuvchi barjalarga to‘latib yuk ortilganday ajib bir manzara kashf etgan edi, odamlarning yuzida esa tashvish...

Oqshom tushgandi. O‘zi kabi bir quloqsiz odamning ketiga tushdi. Bu odam, qo‘lida chamadon ko‘targan har kimsaga yaqinlashib, uning yuziga jonli, g‘arib bir boqish-la boqarkan:

— Ko‘tarishvoraymi, beyim? — derdi.

Balki, kamida yigirmadan ortiq odamga: “Ko‘tarishvoraymi, beyim?” — degandir. Bir martasida xuddi mana shu gapni, katta bir chamadonni boshiga ko‘tarib olgan odamga aytdi:

— Ko‘tarishvoraymi, beyim?

— Mayli, ko‘tarsang ko‘tara qol.

Ko‘tardi. Bir balandlikka chiqdilar. Bir uyning oldida to‘xtadilar. Shunda haligi odam sekingina:

— Qancha beraman, o‘g‘lim? — dedi.

So‘ng kulimsiradi. Ikki besh tiyinlik piastr oldi. Yana kulimsiradi. Keyin yurdi. Shunday qilib, roppa-rosa yetti oy hammollik qildi. Ammo bu ishni negadir sevmadi. Yegani shu qadar oz ediki, bir kun og‘ir bir yukning tagida o‘lib ketishi mumkinligiga aqli yetdi. Faqat sovuq, issiq kunlarda och-nahor yurishi bunga hissador bo‘lishi mumkin. Bundan tashqari, u hatto haroratning o‘ttiz olti yarmidan ham o‘tib ketganing mutlaqo farqiga bormasdi. Kunlardan bir kun qirq daraja otashla yonib, bir chamadonni poylab turganda odamlar uni mast bo‘lsa kerak, deb politsiya mahkamasiga zing‘illatdilar; o‘lguday mast ekan, deb u yerda boshiga suv quydilar; shunda u hushiga keldi, birozdan so‘ng kuldi, boshiga to‘kkanlari suvning tabahhur[1] etar kabi bir holga kelganini ko‘rgan bir komissar:

— Bu o‘g‘lon xasta. Hecham mast emas! — degandi.

Kasalxonadan chiqqan kunini ham xotirlardi... Mana bu poyabzalni, bu ko‘ylak, bu shimni u yoshgina doktor berdi. Faqat bu jaket qaysi zamondan qolgan, ajabo, Salim Usta berganmidi?

Cho‘ntagida o‘n besh lira puli bor edi. Yana yetti lira hamshiralar berishgandi. Nima sababdan berdilar balki. . . ? U qadar achinarli joyi bormidi? O‘zidan ham battar, ahvoli voy insonlar yo‘qmidi? To‘lib yotishibdi-ku!.. Axir uning cho‘ntagida o‘n besh lirasi borligini bila turib, bu pulni nima sababdan berishgandi hamshiralar? Bir sariq sochli, yoshi o‘tibroq qolgan hamshira:

— Ish toparsan. Sen juda yaxshi bolaga o‘xshaysan, — degandi.

Boshqa bir ayol:

— Naqadar yaxshi, — degandi. — Yoshi o‘n sakkizda bormi, qara, o‘rtoqjon? Bir boshqasi:

— Yigirma to‘rtmish. Tug‘ilganlik guvohnomasida shunday yozilgan, — dedi. Haligi ayol:

— Sen tug‘ilganlik guvohnomalariga ko‘p ishonaverma, — degandi.

[1] **Tabahhur** — charchashning oxirgi nuqtasi.

Yana janub shamoli esgan bir kun edi. Cho'ntagidagi pulini hisoblab yurardi. "Bir soqolimni oldirsam", dedi. Oldirdi. Botinkalarini bo'yatdi. Havo to'satdan aynidi, to'g'rirog'i, shimol shamoli turdi. Iliq shamol g'ir-g'ir esgan oqshomlar qanday go'zal edi. Tunga borib buzilsaydi, koshki edi-ya. Bu Istanbulning hammayog'i, qirmizi, bulutlarga to'lar, janub shamoli boshqa xil ko'k, boshqa xil insonlarni paydo etardi. Holbuki, shimol shamoli bilan birgalikda har zamonki sovuq bulutlar, sovuq odamlar, dengizga tushib bo'lmaydigan hol yuzaga kelardi. Holbuki, janub shamoli ila hatto qishda ham dengizda cho'milish mumkin.

"Bu pul bilan nima ham qila olaman!" deya o'ylayverib, shimol shamoli haqidagi yomon xayollarini unutib qo'ygandi. Birdan ma'lum bir masofaning boshidagi sap-sariq narsa uning diqqatini tortdi. Qalbi, sevgilisini ko'rganlarning qalbi kabi, dukillab ketdi. U yerda charaqlab turgan nurlarning ichida, do'konlarning orasida, oraliqning boshida xuddi o'zinikiga o'xshash kepkali, yirtiq jaketli, sariq shimli bir odam kashtan sotardi. Kichkina bir skameykaning ustida o'tirgandi. Qo'lida bir otashkurak bor edi. Bir narsani tushunadiganday nuqul kashtanlari aylantirardi. So'ngra har ikki minutda avtomatik tarzda baqirardi.

— Issiq kashtan kabob!..

Odamning boshi egilgandi. Otashkurakni bir muddatga qo'yib turib, oyoqqa qalqdi:

— Qizday, olovday! — deya baqirdi.

Ahmad unga yaqinlashdi:

— Besh qurushlik berib yuborsinlar.

Porlab turgan go'zal eshiklari zanjirlangan katta bir do'konning qirmizi shu'lalarida yarqirayotgan tarozidan sovib qolgan kashtanlar qo'liga tushdi.

— Nega issig'idan bermading?

— Issig'ini iima qilasan? Ol, bir necha donasini siylovga beryapman.

— Yaxshi, — dedi Ahmad, — bir necha donasini siylovga ber, istasang, sovuq bo'lsin... Bu tarozini qanchaga olding?

— Olti yarim liraga.

— Qimmat emasku! Manqalni-chi?

— O‘n to‘rt...

— Otashkuragi bilanmi?

— Otashkuragi bilan.

— Ahmad ertalabga qadar qahvaxonada o‘tirib chiqib, shunday bir-biriga qorishib ketgan tushlar ko‘rdiki... Tong otishi bilan hamma narsani hoziru nozir qildi. Faqat kashtan sotib olishga puli qolmadi.

Men Ahmadni eskidan tanirdim. Salim og‘aning qahvaxonasiga chiqib turardim. Bu yerni unga men ko‘rsatdim. Bu joy oqshomlari juda odam ko‘p bo‘ladigan oraliqdagi musiqa sadosi kelib turadigan kazino qarshisidagi bir burchak edi. Har oqshom, yarim sarxush bo‘lgan holda kazinodan chiqqamni zamon qo‘limin uzatib, bir hovuch kashtan olardim. Pul bermasdim. U yumushini qo‘yib boshini ko‘tarardi. Bolaga o‘xshash yuzi-la kulimsirardi. Otashkurak ila kashtanlarni aylantira berardi. Ular bilan xuddi gaplashayotganga o‘xshardi. Shuning uchun, Ahmad bu kashtanlarni aylantirarkan, odamlar unga:

— Hey, Salim Usta, hey! — derdi.

Ikki daqiqaning birida:

— Kashtanlarim issiq, qo‘llarni kuydiradi! — deya baqirardi.

Bir oqshom, juda sarxush bo‘lgan edim, yana Ahmadning kashtanlaridan bir hovuch olib, bir lira tashladim. Urguday bo‘lib qaytarib berdi.

— Bunday qilmasding-ku, og‘abey! — dedi.

Ertasiga kechqurun kashtan olmasdan ketayotgandim, achitib-achitib orqamdan hayqirdi:

— Hazar qilyapsanmi, og‘abey?

Qaytdim, bir hovuch kashtan oldim.

— Sendan hazar qilamanmi, Ahmadim? — dedim.

Bir oqshom, ko‘cha boshidagi shovqin-suronga yugurib bordik. Qarasak, Ahmadning kashtan manqali to‘ntarilib yotibdi, kashtanlar esa yaltirab turgan tosh yo‘lga sochilgan. Bir tilanchi bola, sochilgan kashtanlarni to‘plash bilan mashg‘ul edi. Ahmad bolaga:

— Ol, ye, qo‘yningga tiq. Istamayman ortiq ularni!.. — deya baqirardi.

Yuzi qizarib ketgandi. Sochlari yoyilgan. Mast odamga o'xshab so'kinardi.

— Nima bo'ldi, Ahmad? — dedim.

— Yasoqmish, bu yerda kashtan sotish yasoqmish[1].

To'ntarib yubordi manqalni. Ziyoni yo'q, beyog'abey, biz ham boshqa bir ish tutib qolarmiz, xafa bo'lma, — dedi.

Men, shu topda deng, juda xafa bo'lib ketdim. Bu yaqin-orada bunchalik xafa bo'lmagandim. Uning yuzida xafalikdan boshqa yana bir narsa bor edi. Qalbida shunday bir tug'yon bor ediki, sochlarini yulardi. Manqalni jimjiloqday bolaga: "Shu senga", — deya qoldirdi-yu, ketdi.

Gazetalarning birida, adliya xabarchisi bo'lib ishlarkanman, Ahmadni uzoqdan ko'rib qoldim. Qo'llarini arqon bilan bog'lagandilar. Yuzi cho'ziq edi. Egnida kir bo'lib ketgan fufayka, lojuvard rangi qirmizi bo'lib ketgan bir yirtiq shim, oyoqlari yalang, yag'iri chiqib ketganidan qop-qora...

Uni bunday ahvolda ko'rmay qo'ya qolay, ketaman yaxshisi, dedim. Meni ko'rib qolsa, kim biladi, tag'in bir balo bo'lib yurmasin? Hazar qilib o'tib keta boshladim. Birdan ko'rib qoldi. Aftimga shilimshiq bir tabassum-la tikildi. Yonidagi jandarmga:

— Tur, hey, baytalim, — dedi, — beyog'abeydan bir sigareta olay.

— Voy, Ahmad! — dedim. Sigaretimni pachkasi bilan o'ziga berdim.

— Tangang bo'lsa, bersangchi, — dedi.

Bitta yigirma beshlik uzatdim... Nimadan bu ahvolga tushib qolganini xuddi so'raganim kabi sigaretasini tutatarkan:

— Geroinchilikdan, og'abey! — dedi.

---

[1] **Yasak** — man qilingan, ruxsat berilmagan.

AYTDIM — QO‘YDIM

Shaharga shunday qarab turibman-u, ichimdan allaqanday, yam-yashil bir narsa kechyapti. Suvmi, o‘tloqmi, o‘rmonmi? Yo‘q. Yashil bir narsa, zaharlangan yashil bir narsa. Qandaydir yashil rangli zahar bilan zaharlangan yashil bir suv.

Ko‘ppak o‘laksasi kabi uxlamoqda bu shahar: yo‘q, unday emas... Hidi o‘zidan ham jirkanch bo‘lgan o‘limtik ko‘ppakda singan bir bola o‘yinchog‘ining hasratidan boshqa ne bordir. Hidi jihatidan shunday bu shahar. Iflos shahar bu. Nechog‘lik iflos shahar: bit kezmagan biror joy, mishiq surilmagan, tupurilmagan, balg‘am tashlanmagan hech bir yeri yo‘q. Yoqamizdagi kir fabrikaning dudidan emas, ifloslikdan, changdan, mikrobdan. Bu shahar beparvolik, buzuqlik, ikkiyuzlamachilikni o‘zida mujassam etgan bir shahar. Yaxshi insonlari yo‘qmi? Tiqilib yotibdi. Ammo ular shunday chekinganlarki, shunday dahshatdalarki, shunday in-inlariga kirib ketganlarki, topib bo‘lmaydi ularni. Qayerda ular?

Bu shaharda fikr yuritmaydilar. Fikr yuritish yaxshi emas, sog‘liqqa zarardir. Allohni ham zikr qilmaydilar. Zikr qilgan hamonoq qarshingdan uning nomidan jirkanch majmualar, nafaslaridan pul isi keladigan iflos shoirlar, o‘lik kutayotgan imomlar chiqadi. Ular pora istaydilar.

“Men fuqaroni sevaman”, deysan o‘zingga-o‘zing. Yolg‘on. O‘zing ham bunga ishonmaysan. Qaysi fuqaroni, qanday fuqaroni? Bu vahshiy kabi tilanchi xotinnimi? Bu orsiz, adabsiz, qiliqsiz bolanimi? Bu bir tiyinga qimmat odamning oldida sajda qiladigan baliqchinimi? Yoki ko‘cha boshida o‘tirib, yuzidan ochligi, kimsasizligi, sal jinniligi sezilib turgan, dunyodan yuz o‘girgan bir odamga chirigan kashtanlarini aldab sotayotgan anavi daydinimi?

Kim u, sen sevgan inson? Ha, angladik, u inson faqir, kimsasiz, baxtsiz... Ammo kim? Kim bo‘lardi? Sensan. Sening o‘zingsan. Ha, bu shaharda hamma o‘zi bilan o‘zi ovora. O‘zi atrofida

girgitton. O'zidan boshqasini sevadigan biror odamni topolmaysan. Unday odamning bo'lishiga imkon ham yo'q. To'g'ri, ba'zi insonlar bor, ularga yaxshilik qilasan. Bir bor, ikki bor, uch bor. So'ngra yaxshilik qilolmaydigan holga kelasan-da, qo'lingdan bir ish kelmay qoladi. O'sha paytda sen u odamga shunday bir qaraysanki, qarshingdagi kimsa sening g'irt dushmaningga aylanadi-qoladi. Biz hammamiz asli shundaymiz. Barcha yaxshiliklarni, barcha do'stliklarni nasos kabi so'ramiz. So'ngra do'stliklar, yaxshiliklar bamisoli quduqlar kabi quriydi. Ana o'sha zamondan boshlanar har xil so'zsiz imolar-u, katta-katta g'iybatlar.

Bizning ham bir boshpanamiz bo'lajak. Yotog'imiz bo'lajak. Ko'rpamizni ko'zlarimizgacha tortajakmiz. Balki bir dengiz qirg'og'i, bir daraxtdagi, bir shamol, bir tinchgina qahvaxona, bir stakan choy, bir teshikkulcha, bir kesim kashar pishlog'i[1], bir yarim litr sharob topsak, do'st bo'lishga eng yaxshi yo'l tug'ilarmidi. Ammo, inson-chi, inson? Yo'q, do'stim, yo'q, bekorga ovora bo'lmang, baribir insonni topolmaysiz. Bu shahar shu qadar iflos, shu qadar beg'am, shu qadar tushkunlikdaki, hay-hay-hay...

Men gohida o'zgalarni aldab pul topayotganlarni, otini aravakashdan ham ziyoda marhamatsiz ishlatib, keyin rohatda bo'layotganlarni, jimgina tarog'idan qil chiqar kabi o'zini oramizdan sug'urib olayotganlarni bir nazarda har qalay haqli-ku, deb o'ylab qo'yaman, ularni oqlashga urinaman. So'ngra yana o'ylanib ketaman. Ular shu ahvolga keltirdilar bu shaharni. Balki hali yaqinda bu shaharga vabolar, balki o'latlar kelib qolar.

Agar kimning miyasiga, ana shularni istayman, degan fikr kelsa, u nomussiz hisoblanadi. Istamayman unaqangi narsalarni. Bular yolg'on gaplardir. Biroq, Allohni bir tarafga qo'yib turing. U shundaygina bizni indamasdan tashlab ketdi-ku! Biz uni takror topmagunimizcha, yoxud butunlay u yo'qdir demagunimizga qadar, u bizning ishlarimizga aralashmaydiganga o'xshaydi. Ammo bu shahar nihoyat rostakam shaharga o'xshashi kerakmi, axir? Kerak bo'lsa qanday? Qandaymi? Senmi hali bunga chora ko'radigan, bu haqda o'ylaydigan?

---

[1] **Kashar pishlog'i** — Turkiyaning Edirne viloyatida tayyorlanadigan pishloq.

Kulaman. Ammo avvalo sen mirza! Biroq mirzaning ahmoqligi ortiq! Bo'lmasa yozma. Chekin orqaga, o'tira ber o'tirgan joyingda. Senmi gazeta chiqaruvchining o'ynashini yasantiradigan, senmi uni moddiy tomondan ta'min etadigan, senmi uning shuhratini, qalamini, avtomobilini Ovrupadan keltirib beradigan. So'ngra ketib Xashit kutubxonasining vitrinalaridagi 350 franklik kitobga hasratla boqajaksan. "2 qurushdan 350 franklik olsak qancha qoladi?" — deya o'ylaysan. U, bu Sartr deganimiz — juda mudhish odam. Ismini eshitgansan. Lekin hali bittayam kitobini o'qimagansan. O'qishni istaysan, ammo olmayajaksan u kitobni, olsang ahmoqlik qilasan.

Ertasiga hatto ayron ham icholmaysan. Oh, stakani bor-yo'g'i uch qurush bo'lgan ayron, ayronjon... Bir qoshiq qatiq-la, bir stakan suvni aralashtirib uni o'n qurushga sotayotgan odamning nomussizligini bila turib qo'lidan ichasan, kaltafahm butun shahar xalqlarining ko'zi oldida qilinayotgan o'g'riliklar, muttahamgarchiliklarni bila turib, ichasan... Bo'lmasam, maslagingni o'zgartir, a labbay! Sabohlari ayronchining oldida tur. Yasa uyingda bir ko'za ayron. Trotuarga, u shum nusxaning oldiga qo'y. Ikki qurushdan sot, sota ber. Ko'zlari chiqib ketsin u shumtakaning. Alamidan bir-ikkita gadoyvachchalarni pulga sotib olib, seni toza do'pposlattirsin. Hech bo'lmagandan keyin o'ldirtirsin.

Kashtan yong'oqlarini sot bir boshi berk ko'chaning boshida. Chiriganlarini ayirib-ayirib ko'chaga ot-u yana uch yuzdan pullay ber. Qo'rqma, ziyon ko'rmaysan. Ammo bir kun boshingga balo sulloh bo'lar, bunga e'tibor berma, hushyor bo'l, o'zingni ehtiyot qil. Seni tanigan kimsalar sendan kashtan olmaslar. Ko'zingning oldida nari ketib, ataylab boshqa odamdan chirigan kashtanlarni oladilar. Sendan esa olmaydilar. Olmasalar olmasinlar.

Sen nima, butun shahar bilan do'st emasmisan, a? Sen avvaliga boshla bir ishni. Bir haftaga qolmas, shapkasi teshik, ko'zlari laklak tushib ketgan, egnida sovuq shamolga qarshi biror junli kiyimi bo'lmagan bir bechora odamga chirigan, yaxshi qovurilmagan kashtanlarni pullay berasan.

Qilasan shu ishni. Qilmasang hayotingdan, kashtan orqasidan o'tkazilayotgan tirikchilikdan hech bir narsa chiqarolmaysan. Me-

vachi shogirdini, baqqol o‘g‘lini, savdogar kotibini, gazetchi muharririni shunday qilib yetishtirmoqdalar...

Bu shahar shunday edi va shundayligicha ketaveradi...

IKKI KISHIGA BIR HIKOYA

Cho‘loq chag‘alay ila baliqchining suhbatlashganlarini eshitmagan bo‘lishsa-da, lekin ko‘rishibdi. Chag‘alayning birinchi bo‘lib so‘z qotishiga ishonchim komil emas, buni ikki qo‘limni ko‘ksimga qo‘yib tasdiqlashim mumkin. “Nima deganini so‘yla”, desalar, aytolmayman, ammo ishning boshqa bo‘lganini aytishim mumkin.

Chag‘alayning nima deganini qo‘ya turay-da, yaxshisi, baliqchini gapirtirib qo‘ya qolay.

Chag‘alay:

— ...

Baliqchi:

— Cho‘loq, namuncha kallayi sahardan jag‘ing tinmaydi!

— Hali mo‘ljallangan joyimizga borib yetmadik... Sokinlikni qanday sevganimni bilsayding. Ovozingni o‘chir, biroz ertaroq yotib olaylik. Senga gap tushintirib bo‘ladimi o‘zi? Eshkak eshaymi? Nuh deb payg‘ambar demaganinga ko‘ra juda ochga o‘xshaysan... Yaxshi! Sen aytganigcha bo‘lsin. Tur, birpas kutgin, bir skumbriya kesib olay... Baqirma, o‘g‘lim, baqirma bo‘tam! Rosa boplading, a!... Rosayam boshimni aylantirding-da!

Chag‘alayga, boshidan sal nari joydan boshlab etlari shilinib olingan, quyrug‘i titrab turgan bir skumbriya skeletini otdi. So‘ngra eshkaklarga suyandi. Ko‘p o‘tmay tuman ichidan Xayrsizadalar ko‘zga tashlandi. Chag‘alay churq etmasdi. Qanotlari bilan charx urib, qayiqning ustida parvoz qilar, yetti qanot urishda baliqchining tepasida Xayrsizadaning qirg‘oqlariga uchib g‘oyib bo‘lar, so‘ng yana orqaga qaytar, sokin dengizga qo‘nardi. Boshqa suhbatlashmadilar.

Baliqchi o‘sha zamon menga o‘girildi:

— Qachon chiqsam, qayig'imni taniydi, orqamga tushadi. E, so'rama, bu darakchi qushdir.

— Nimaga cho'loq deysan uni, Barba?

— Cho'loq bo'lgani uchun. Yaxshilab qaragin, bir oyog'i yo'q.

— Nima bo'lgan oyog'iga?

— Bilmayman. Balki dengizning tagidan bir maxluq kelib yeb ketgandir. Balki onadan shunday bo'lib tug'ilgandir. Balki, bolaligida biron-bir inson farzandi qo'liga tushib qolgandir, bilib bo'lmaydi.

Jim qoldik. Shamol bir yomon hidni keltirdi. Buzila boshlagan bir tarvuz hidini his etdim.

— Bunga bir qara! — dedi, — insonga o'xshaydi-ya. Naqd nishonga qo'ndi.

Qushning qo'ngan yeriga biz ham bordik. Chag'alay besh quloch nariga borib qo'ndi. Sevinch-la boshini cho'za-cho'za "chag'-chag'" deb qichqirdi. Baliqchi yem to'g'rash uchun pichog'ini chiqararkan, u yana havolandi. Ko'zdan g'oyib bo'lguncha uchdi. Shunda men:

— Qochdi Barba, — dedim. Baliqchi:

— Uning uchun shart emas, ammo mening uchun shart... — dedi-yu, jim bo'lib qoldi.

Ikkalamiz ham ko'p gapirishni suymaydiganlardan edik. U, suhbat bu qadar cho'zilganiga pushaymon bo'layotganday edi. "Baliqchi degani, o'z-o'zi bilan suhbatlashadigan odam", deyishim mumkin, ammo unda yanglish bo'ladi. To'g'risi, baliqchilar ezma bo'lishmaydi. Ezma bo'lgan baliqchiga hali hech duch kelmaganman. So'nggi paytlarda shunday bir xulosaga keldim: inson baliqchi bo'ldimi, tamom, u ezma emas. Ezma odam esa baliqchi emasdir. Ammo payti kelganda suhbatlashsang maza qilasan.

— Xinalining burnini ko'ryapsanmi?

— Ko'ryapman.

— Yuqorida oppoq bir yer bo'lishi kerak. Burundan sal yuqorida, huv yuqorida, huv yuqoridagi daraxtlarning tagida; o'sha yerni ko'ryapsanmi?

— Yo'q...

— Shunda u yana ikki bor eshkak eshdi.

— Endi-chi?

— Endi ko‘ryapman.

U yana jimib qoldi. Tagidagi moviy tubsiz olamdan jarangsiz bir sado chiqardi. Bilganimiz inson, hayvon, qamish surnay, mashina, taxta, shamol, sim, daraxt, qo‘ng‘iz, qo‘yingki... yer yuzi tovushlaridan boshqacha bir aks-sado eshitardim. Bu sas, bu moviy olamning nafas olib, nafas chiqarishining ovozidek tuyuldi menga. Bir chumoli bizning butun borlig‘imizni emas, milliondan bir parchamizni his etgani kabi, men ham bu bahaybat, dengiz deb atalmish jonli, muhtasham maxluqning bir parchasining tubsizlikdan kelayotgan jarangsiz shovqin-suronining milliardlarcha kamaygan bir parchasini eshitardim. Chakaklarim og‘riy boshladi, quloqlarim bitib qoldi. Ochiqlarda turg‘un, chuqur, ovozi kelmagan bu tovushdan birdan cho‘chib ketdim. Suhbatlashmoq istadim. Bu sasni yaxshi his etmoq uchun ichimdan hayqiriq o‘tardi. Hozir juda yaqinlashib qolganimiz Sivri oroliga qadar suzsam, yerga oyog‘imni bossam, baqira-baqira bir turkcha so‘zlashsam, degan xayol ichimdan kechdi.

— Barba, — dedim, — Xudo haqqi so‘yla, nega endi ketib “Sivri orolida baliqchi bormi?” deya boqadi-da, orqaga qaytadi chag‘alay?

Kipriklarining tublari qip-qizil bo‘lgan ko‘zlarini tikib, yuzimga boqdi. Dengizdan, sukutdan, dengizning qanoatlanmagan chuqur tovushidan qo‘rqqanimni anglagan edi. Javob bermasdan anchagacha meni boshdan-oyoq kuzatdi. So‘ngra kulib, shunday dedi:

— Boshqa baliqchi bor bo‘lsa, darrov yonimga uchib keladi, shunda men taxta-o‘qlovimni yig‘ishtiraman-u, boshqa yerga ketaman. O‘sha kuni qo‘polligim shunday sezilib turadi, baliq bergim kelmaydi-da unga. Hamma bilavermaydi, nishonni ko‘rsatmaslik uchun qochayotir, deb hisoblaydi. Vallohi, unday emas! Alloh har kishining rizqini beradi. Nima, men uchun bu yerlarda baliq ovlash imkoni yo‘qmi? Bu yerlarning ostini besh panjamdek bilaman, besh panjamdek. Suv osti kemasi kelib, mendan so‘rasin. Kayfim, yolg‘iz baliq tutmoqlikdir. Baliqni tanholikda tutmoqlikdir. Tushundingmi?

Baliqchi endi chag‘alay bilan suhbatlashardi:

— Men yolg‘iz baliq ovlashdan xursand bo‘lishimni sen qayerdan bila qolding? — deya bu afandi so‘rayapti, javob bersang-chi, eshityapsanmi?!

Chag‘alay ortiq suhbatlashmasdi. Qirmizi halqali, hech yumilmayotgan dum-dumaloq ko‘zi qayig‘imizda edi. O‘zi oppoq, top-toza edi. Piyoz po‘sti rangidagi tumshug‘i goh ochilib, goh yopilardi.

— Javob bersang-chi, Cho‘loq!... Gapirsang-chi... “U yerda baliqchi bo‘lsa, bu tarafga to‘g‘ri kela bersa, senga ish yo‘q”, — deya. “Sen asabiylasharsan, qocharsan, oqshomga qadar qo‘pol ta’viyaning biri bo‘larsan, menga ham shunday bo‘larsan”, desang-chi. “To‘ng‘izning biri bo‘larsan”, degin. “Eshkaklarni qoldirib, xuddi meni o‘ldirmoqchi bo‘lganday harakat qilasan”, degin. “Bir baliq boshini menga ko‘p ko‘rasan”, degin.

Chag‘alay boshini unga qaratib, jim turardi. Baliqchi, menga:

— Ot shu boshlarni chag‘alayga! — dedi.

Boshlarni qanday yutardi chag‘alay, odam hayron qolardi. Ishtahasi zo‘r insonlar kabi ishtahasini zo‘r chag‘alaylar ham bo‘ladi. Bunaqangi narsalar odamning ko‘nglini aynitib yuboradi. Men ovqatni hech kimga bildirmay yegan insondan zavqlanaman. Unday insonlar bir daraxt tagida o‘tirib, dasturxonni ochadi, uning nima yeganini ham bilmaysiz. Balki shundayki, og‘izlarini chapillatishar, balki ishtaha bilan yerlar, ammo yonlaridan biror-bir kimsa o‘tib qolsa, gunoh ish qilib qo‘ygan kishilarday uyaladilar. Baliqchi:

— Juda ochko‘z, — dedi. — Bu qilig‘ini sevmayman, ammo, chag‘alay bu. Chag‘alay maxluqi to‘ymoq nimaligini bilmaydi.

— Insonlarday, — dedim.

— Yo‘q, — dedi, — insonga tosh otma, insonning insondan farqi bor, to‘q ko‘zlisi ham bo‘ladi.

— Ammo, ozdir.

— Ko‘pdir, — dedi.

Qorlari erimagan Ulug‘ tog‘ yuksakliklarini ko‘rsatdi.

— Bu taraflarda, — dedi.

Qarmoqlarni tashlagandik. Endi baliqchi tik turgan ko‘yi suhbatlashardi. Xuddi mening aytgan “Inson ezma bo‘lsa baliqchi bo‘lmaydi”, degan mushohadamni menga ko‘p ko‘rayotganday edi.

— Ovqatlanayotganda uyaladigan qishloqliklarni ko‘p ko‘rganman. Xuddi ovqatlanish aybdek yemak yeyishardi. So‘ngra stolidagi katta qisqichbaqani og‘zini unchalik ochmay turib oliftargarchilik bilan chag‘alaydan ham tez yutib yuborgan beylarni ko‘rganman. Nazokatlilari nazokat bilan yeyishardi. Og‘izlarini chapillatmasdan, faqat jag‘larini o‘ynatib... Ammo u jag‘ga biroz diqqat qilsang, qo‘rqib ketarding. Qanday qo‘rqinchli narsalar edi. Jag‘ mashina emas. Mashina emas, tegirmon.

Cho‘loq chag‘alay atrofimizda to‘rt marta aylandi.

— Buning boshqa ahbob qayiqlari ham bormikin Barba?

— Albatta!

— Hammasining qilig‘ini bilsa kerak.

— Bilmasa bo‘ladimi?

— Bir chag‘alay uchun bu qadar siyosat...

Baliqchi og‘zini ochib, chirik tishlarini irjaytirdi. To kichik tiligacha ko‘rinib ketdi.

— Tanglayim... Tomog‘im... — dedi.

Yana jim bo‘ldik. U qarmog‘idan tortardi. Men yana bu qarmoqning avvaliga tez-tez, keyin chuqurliklarga to‘g‘ri og‘ir botishini nafassiz kuzatib, u bilan birga o‘zim ham xayol og‘ushiga g‘arq bo‘ldim. Bu yerdan, shu moviy maxluqning ashulasidan qutulsam-da, quruqlikka borib rohatlanib nafas ola-ola o‘lsam, degan o‘y kechdi kallamdan. Baliqchi gap sotmaslikdan, baliq kutishdan naqadar xushlansa xushlanaversin, faqat o‘zini tushunmaganini, meni unutib yubormaganini namoyon qilmoqchi bo‘ldimi, istaksiz bir sergaplik ila suhbatlasha boshladi:

— Suvning mazasi yo‘q, yomon, — dedi. — Sen ham yomon bo‘lib ketasan dengizda... Birozdan keyin qaytamiz, xafa bo‘lma...

So‘ng anchagacha jim bo‘lib qoldi va birozdan so‘ng o‘zidan-o‘zi boshqa tarafdan gap boshlab ketdi:

— Qiziq — dedi — o‘rganib qoldim shu Cho‘loqqa. Uni atrofimda ko‘rmaganim kunlar, bir narsa yo‘qotganday, nima bo‘lganini bilolmagan, turaverib keyin bir narsani qidirayotgan insonga aylanib qolaman. Insonga o‘rganolmadim, ammo shu dengiz qushiga o‘rganib qoldim. Insonga o‘rgansam uylanardim. O‘rganolmayap-

man. Ayni bir uyda, ayni bir yotoqda butun tun bo‘yi bir kishi bilan birga bo‘lish meni jinni qilib qo‘yardi.

Baliqchining yerdagi xonasini xayolimga keltirdim. U yerda kamdan-kam o‘tirardi. Tuzoqlarini qo‘yar, ko‘pincha qahvaxonada yoki qayiqda yotardi.

— Sen uydan xursand emassan-a, Barba Yakamoz! — dedim.

— Hecham!.. — dedi, — men uydan xursand emasman. Men yo‘rgakbog‘da ekanda onam o‘libdi... Otam hech uyda o‘tirmasdi.

Men esa yozda dengizdan chiqmasdim. Oqshom, otam baliq ovidan qaytishini kutib, qayiqning bosh tomonidan gujanak bo‘lib yotardim. U bizning hovlimizdagi baliq to‘rining ustiga cho‘zilishga ketardi ming‘illay-ming‘illay. Azonda kelib, meni uyg‘otardi; agar ko‘rgan tushidan jahli chiqmagan bo‘lsa, baliq oviga olib ketardi. Dengiz biroz to‘lqinli bo‘lsa, g‘o‘ngillab qo‘yardi: “Qani, sen bor, bozorda o‘yna”, — derdi. Hech qayoqqa qaramay keta berardim...

* * *

— Baliq ovigami, Barba Yakamoz?

— Ha... Nimaydi?

— Meni ham olsang.

Javob bermadi. Hatto yuzimga ham qaramadi. Ammo loaqal baliq ko‘p ovlaganda beradiganim suyunchining shamolga tashlanadigan bir narsa bo‘lmagani, Barba Yakamozning ham shu dunyoda ehtiyojari borligini kimda-kim tushunib yetsa, meni takror baliq oviga olib ketishini ma’zur ko‘ra bilar.

— Ammo, — dedi, — qayiqning ichida o‘lib qolsang orqaga qaytmayman.

— O‘sha kuni biroz notinch edim.

— Yana notinch bo‘lasan. Ammo e’tibor berma. Bu siqilish sen qayerda bo‘lmagin, bir kun kelib bezovta qiladi. Qo‘ya ber, hech narsa bo‘lmaydi. Ammo o‘lsang nima bo‘ladi? Ajal kelib turgandan keyin, xoh yerda bo‘lsin, xoh dengizda...

— Nega endi dengizda insonni o‘lim talvasasi ko‘proq xavotirga soladi?

— O‘lim tashvishi emas u aqliy bezovtalik.

— U nima degani, Barba?

— Dengizda odamning boshi biroz boshqacha, yerdagidan boshqacha. Yerda chorasi topiladi. Qo'lingni uzatsang odamlar bor. Ammo qayiqda madad kutadigan joying bo'lmaydi. Kasal bo'lsang doktor yo'q. O'lsang, bir ishga yaragudek, pop yo'q, imom yo'q... Ko'r bo'lsang, qo'lingdan yetaklaydigan kimsa yo'q. Jinni bo'lsang morfiy yo'q. Eng yaxshisi, bir shisha aroq ol... Tur! Rajab o'g'lim, o'sha yerdan bizga bitta 190 talik olib yubor.

Qayiqqa chiqdim. Qaradim. Barba Yakamozning yoqasida bir qora motam belgisi bor.

— Kimning o'g'li Barba?

— Bir uzoq qarindoshim...

Bu safar qayiqda hech so'zlashmadik. Ko'zlangan yerimizga borgan zahoti:

— Leandrosning uchini ko'ryapsanmi? — deb so'radi.

— Ko'ryapman.

— Qizg'ish tuproqni ham ko'rdingmi?

— Ko'rdim.

— Naq o'sha sohilda oppoq bir uy bo'lishi kerak. Shu qoyalarning ustida ekanmi?

— Ustida...

"Ustida" deb qarmoqning uchiga yemak taqib, suvga tashlaganimizdan so'ng, cho'loq chag'alayni esladim.

— Cho'loq chag'alay qayerda? — dedim.

— O'ldi, — dedi.

— Nima?.. Qanday qilib?..

— Qanday o'lganini bilmayman, ammo bir kuni ertalab o'zimizga ma'lum bo'lgan joyga borsam, hamisha turadigan yerda o'ligi suzib yuribdi...

— Seni ko'rsin debmi, shu yerga kelib o'ldi, dersan?

Javob bermadi. Birdan yoqasidagi motam alomatini cho'loq chag'alay uchun taqqan bo'lmasin, degan fikr xayolimga keldi. Kuldim.

— Nega kulasan? — dedi.

— O'zim, shunday, — dedim, — Bundan chiqadiki, uzoq qarindoshing cho'loq chag'alay ekan-da, shundaymi?

Ko'zimga tikildi.

— Bugun, — dedi, — Kallang xuddi yerdagiday ishlayotir, qo‘rquv yo‘q! To‘g‘risi ham shu. Gapning ochig‘i, shunday bo‘lishi lozim. Yerdagiday ishlaydigan bosh dengizda, deyaver. Quruqlikda ham hech narsaning chorasi yo‘qdir. Bizga chora, qo‘limizning ostida kabi kelur... Yolg‘on! Bo‘lmagan gap! Bu dunyo chorasiz dunyodir.

— Hech qachon unday bo‘lmaydi, Yakamoz! — dedim. — Dunyo choralidir. Insonlar bu dunyoga bir chora topajaklar.

— Hay, yashasin tabiat! Mana, quruqlikda shunday tushuniladi. Dengizda ham shunday tushuniladi. Yanglish, ammo shunday bo‘lsin. Hamma, hamisha shunday tushungan.

Bir narsa so‘zlamoqchiydim. Sigaretali qo‘lini ko‘tardi. “Jim” ishoratini berdi. Jim bo‘ldim. Qarmoqqa osildi. Ushlagan narsasi besh-olti kilolik bir uchar baliq edi. Kamida bir o‘nlik bordir, deya tushundi-yov, o‘yladim o‘zimcha. Idishini ochib, baliqni to‘g‘ri unga otib yubordi. Qarmoqdagi yemni yangiladi. Gapim bor, deganday qilib menga boqdi.

— Ey, — dedim, — nima deyayotgandim... Bo‘lmasa cho‘loq chag‘alayning motamini tutayotirsanmi?

Avvaliga u boshini ko‘rsatib:

— Bosh degan narsa eskiradi, qariydi, o‘ladi hatto inson o‘lmasdan! — dedi. So‘ngra qalbiga imo qildi:

— Eskirmagan, eskirmaydigan narsa bu yerda.

Keyin jimib qoldi. Keksa odam, porox kabi olovlanib turgan odam, qishloqda hech kim sevmagan, yoqtirmagan odam edi u.

— O‘ligini shu yerdan topgach, yig‘ladim, — dedi. — Sen, mana, boya kelishimizda ushlangan baliqni ko‘rib xafa bo‘lding, men ham shunday, sen kabi xafa bo‘ldim. Baliq ovlashdan voz kechdim. Hammayog‘im og‘rib, mazam qochgandi. Uyga borib yotdim. Ertalab azonda og‘zim qaqraganligidan uyg‘ondim. Dori axtargan kabi shkaflarni titkiladim. Bir parcha mato topdim-u, yoqamga taqdim.

Changal kabi barmoqlari ila qora matoni yoqasidan yulib olib, dengizga otdi.

— Bu ham jinniligimizning bir turi! — dedi. — Dengiz bizni shunday qildimi, bilmayman? Och shu shishani!

Finjonlarga aroq quydik. Ko'zidan gavharday yaltiroq, bir tomchi yosh tushdi, hidi keskin anqib turgan suvga. Shunda u ko'ksiga urib:

— Bu yurak, bizning yuragimiz, bir narsasi kamroqlarning yuragidir, — dedi.

OY NURI

"Bir zamonlar jinni kabi oshiq edim. Inson unga, qanday oshiq bo'lmasin? (Sevgilisining juda romantik bir tasviri bor edi, bu yerda tezgina sakrab qo'ya qoldik). Dengiz ortidagi bir qishloqda o'tirardim. Har oqshom barobar qaytardik. Nega yolg'on so'ylayin, mening ishqim g'alati. Holbuki, bunday bo'lmasligi kerak. Inson xuddi chaqmoq urganday birdan oshiq bo'ladi, keyin muvaffaq bo'lmoq uchun bir narsalar ijod eta boshlaydi. Bunaqa ishqni juda sevaman, ammo g'alati ham bo'laman. Muhaqqaq, avvalo, sevgilim bilan biroz ko'rishmoqchiman. Bu qiyin emas. Ikkinchi marta yuzini ko'rganimda hissiyotga berilib ketib, qochishga harakat qilaman. Uchinchisida hamma narsa bitadi. Xuddi jinni kabi oshiq bo'laman-qo'yaman".

"Yana ayni narsa bo'ldi. Uni ikkinchi ko'rishimda paroxodning biz bilan savdo-sotiq qilmagan mutlaqo notanish bo'lgan bir mamlakatga to'g'ri tumanni yorib, hali na tug'ilganim, na yashaganim va na sevganim mamlakatni ko'rmayajak bir yerga to'g'ri ketayotganimni his etdim. Ichimni bir hasrat qopladi, ta'rif etolmayman, deyishim mumkin, ammo ta'rif etaman".

"Butun oshiq-ma'shuqlar orqada qolib ketgandi. Tilim, mamlakatim, onam, otam; uyim, ekinzorim, do'stim... qo'yingki, hammasi g'iltillagan ko'z yoshi tomchilari kabi atrofimni o'rab olib, suhbatlasha ketdilar. Bizdan ayrilmoqchimisan, bizni shunday tashlab ketaverasanmi?.. Afsuslar bo'lsin senga! To'g'rimi? Bizga mana shunday qilmoqchimiding? Sendan buni kutmagandik... To'g'ri ketyapsanmi, yana qaytib kelmaysanmi? Yaxshilab qara. Diqqat bilan boq, pushaymon bo'lmagin, deyishardi".

"Paroxod, sokin dengizni kesganday ketar, yulduzlar ketimizdan qator bo'lib kelar, paroxodda tanish chehralar yo'q bo'lib ketganday... Ketyapmiz. Yo'lning uzoq bo'lishini istayman. Sevgan kishilarimning gaplari qulog'imga hatto kirmasdi.

"Kim, qanday, qaysi bahona ila uni menga tanishtirdi, unutib yubordim. Chunki unutilmayajak yolg'iz u qolgandi. Undan boshqa ko'klarda yulduzlar, dengizlarda paroxodlar bormi?.. Hatto kechalari tug'magani uchun quyosh ham yo'qdek. Loaqal oy bor-ku, oy! O'n besh kunlik bo'lmagan, kunduzlari nihoyatda ko'rimsiz, so'ngan ko'z kabi bu ajoyib narsa mavjudmidir? Bularni hatto unutganim daqiqalarim bo'ldi. Oh, bu dunyo qanday go'zal edi! Qanday yolg'onlar uydira olur. Oy, quyosh, yulduz, qush, hushtak, skripka; paroxodning borligi kabi haqiqatlar ham yolg'on bo'la olardi. Oh, shu dunyo yuzi, oh, shu inson!.. Har ikkisi ham nimalar qila olardi. Uchinchi safarda uni qidirib topdim. Yo tanidi, yo tanimadi. Xafa bo'ldim. To'rtinchi safarda, hafif, sal tanigan kabi salom berib, o'tib ketdim. Daryolarning dengizga oqqani kabi, ichim unga tomon oqardi. Mayli, oqa bersin! Burun suqma, qoqindiq! — dedim o'zimga-o'zim... Beshinchi uchrashuvda salom ham bermadim".

"Paroxodning boshiga borib o'tirdim. Go'zal bir oy nuri bor edi. O'n to'rt kunlikka o'xsharmidi-yey? Oshiq va oy nuri. Shu qadar eski, shu qadar orqalarda qolib, sasib ketgan ikki kalima... Kim bilur, balki Odam Ato ham Momo Havoni bir oydin kechada sevib qolganligini his etgandir. Ayniqsa, keyingilari. Odam Ato bilan Momo Havodan keyingilari... Har qanday oshiq, har qanday tungi shabbodada deraza chetida o'tirib olib, sigareta tutatgan badbaxt, bu oy nuri ostidagidan ancha baxtsiz emasdir. Baxtsiz ham demayman. Boshqa bir kalima topishga hojat ham yo'q. Baxt bilan baxtsizlikning o'rtasida bo'lgan odam oy nuridagi oshiqdir. Bilasizmi, oydin kechada ishqqa oit tuyg'ular ham yaxshilikka ham yomonlikka o'xshaydi. Oy nurida qolgan kimsani, o'z-o'zini o'ldirgan bir oshiq deb tushuning! Qalbi saodatga to'liq bir oshiq... O'limda saodat topa bilajak qadar baxtsiz... Faqat o'limdagi saodat qadar juda mas'ud... (Pochtalonga "bu yog'i juda yomon", dedim). Hanuzgacha ayni bir holda tushunardim. Aqlimga muz kabi sovuq

bir dudoq tegib ketdi. Ichimda issiq dudoqli, marmar vujudli bir xotin kezib yurardi. Birdan tovush chiqardi:

— Salom!

Kelib yonimga o'tirdi.

— Ahvollaringiz qalay?

— Yomon! Juda ham yomon! — deya javob berdim.

— Nima bo'ldi?

— Hech, hech narsa, ammo qayerdan bilay?

Jim qoldik. Birozdan keyin sal jahli chiqqannamo bo'ldi:

— Oyda nima bor?

— Oydami?

Biroz o'ylandim. So'ngra maktabdan esimda qolgan nimani bo'lsa, bilgan hamma narsamni so'zladim:

— Oyda hech narsa yo'q... Bo'sh, ma'nosiz, jonsiz. Havo yo'q-ku u yerda, jonli maxluq yashasin... Jonsiz toshlar, qorong'iliklar, tik jarliklar, qoyalar... Bu nur ham yolg'ondakam bir nur... O'z shu'lasi yo'qki... Quyoshning unga taratgan nurlarining aksidir bu ko'rganlaring... U yerda hech narsa yo'q... Hech narsa... Sovuq, balki sovuq ham yo'qdir... Havo bo'lmagan yerda issiq-sovuq bo'ladimi, bilmayman!

— Oyda yashab bo'lmaydimi?

— Havo yo'q dedim-ku, axir!

— Mayli, seningchalik bo'lsin. Havoni keltiramiz, kislorod bilan!

— Menga qara, bunaqasiga mening aqlim yetmaydi. Balki bir necha soat, bir necha kun ichida... U yerni shunday bir aylangunga qadar, inson qiziqishini qondirgunga qadar, mumkin...

Oyga qaradi. Yelkamga boshini qo'ygaday bo'ldi. Yoxud menga oy nurida shunday tuyuldi.

Bu nurga qurbon bo'laverdim:

— Sen jinnimisan, shakarim! — dedim. — U yerda inson yo'q bo'ladimi? U yerda yolg'iz bir-birini sevganlar yashaydi. Bu yerdan bir oqshom payti ikki kishi bir bo'lib u yerga ketmoqlikni mo'ljallab birgalikda ketarlar. Birga ketganlarning ko'pchiligi u yerga yo'l olishadi. Endi seni tutib olsam-da, baravariga dengizning tagiga jo'nasak, birpas chiqmasak. Bizni dengizning tagidan bir ta-

lay bizdan boshqa g'ayrimaxluqot oladilar-da, to'g'ri u yerga olib ketadilar".

"Qanday go'zal kulgandi. Butun jo'g'rofiya kitoblarini ostin-ustun qilib yuborib, yangi nazariyam-la sevgilimning qo'lini tuta bilgandim".

* * *

Men qahqaha otdim. Pochta muvazziysi ham toza kuldi.

Muvazziyning yuzi g'alati bo'lgandi. Insonlar haqidagi fikr-mulohazalarini bayon etardi. Odamlar hayotining yashirin tomonlarini o'rganishni istamaganini menga shunday tushuntirdi:

— Hammasi bir-biriga o'xshaydi. Men shunday hisoblardimki, shu kuchukli kishi g'arib bir odam. Bizdan farqli o'laroq talaygina narsalari bor. Men ne fojialar, ne-ne taxminlar qilgandim. Vaholanki, faqat oshiqmish... Hech kimning yoniga yo'lamagan, ko'ppagi bilan suhbatlashadigan bir odamning men kabi, sen kabi bir odam bo'lishiga ishonmadim, to'grisi... Hozir, qachondan buyon o'zim bilan olib yurgan hamma xatlarni ochmasdan ichida nima yozilganini bilaman. Azbaroyi Xudo, ichlarida nima gap borligini bilaman!..

Yuksaklikka tirmasha boshlaydi.

* * *

Ko'ppakli odam, pochta muvazziysi bilan ishi bo'lmay qolgan kundan e'tiboran meni o'ziga o'rtoq qilib oldi.

Endi u uyiga ketar, ko'ppagi esa unga erkalanar, uyga borgach, qahvasini ichar, keyin bab-baravariga, kuz kelib qolgani uchun, qirlarga chiqardik. U ko'pincha ishga ketmasdi. Men bir qancha joydan ish axtarib, hech topolmayotgandim. Ko'pincha shaharga tushmasdim.

— Bu qo'ziqorinni yeb bo'lmaydi, tashla uni! Mana bunisi yaxshi! Sersuv qo'ziqorin bu... Qara, qandaydir bir qirmizi suv chiqayotganga o'xshaydimi? Mana bu qo'ziqorinlarning eng nafisidir. Qara, bunisi ham chayir qo'ziqorin; manavisi ham yaxshi. Olovga tutib, ustiga tuz, garmdori sepib yesang bormi, uning savobiga kim yetsin!

Ko‘ppak, goh orqamizdan, goh oldimizda yurib borardi. Orachora unga tosh otardik, tiraqaylab qochib qolardi.

Tilimning uchida e’tibor berishga hozirlandim u pochta muvazziysi bilan birgalikda qilganmiz, boshqasining maktabini ochmoq aybi ila butun kuz davomida bu odamla aylanishib yurdim. Hech narsa qilmadim, so‘ylamadim. Bu oson narsa emas!.. Chunki unda shunday holatlar ko‘rdim va angladimki, bu odam, hech kimsaga hech bir shaklda haqsizlik qilmagan. Bunday bir odamga qusurlar, xatolar e’tirof etsa bo‘ladi. Undan har qanday bir masala haqida nomusli fikrlar olinsa bo‘ladi. Ammo aybli ishlarni unga to‘nkash to‘g‘ri kelmaydi.

Men qishlog‘imdan shaharga tushdim. Yana ish axtara boshladim. Oh, bu ish axtarmoq... Buyuk bir shaharda ish axtarishdek qo‘rqinchli narsa bo‘lmasa kerak. Bir zamonlar bir yosh odamni tanirdim. U zamonlar mening pulim bor edi.

Bekorga laqillab aylanib yurib, turli-tuman mavzular topar, o‘tirib olib, hikoyalar yozardim. O‘ylardimki, shunday qilsam, hech bo‘lmaganda bir necha kunlik tirikchilikni o‘tkazish mumkin. Vaholanki, gazeta kotiblari biror yarim liraga hikoyamni olishlari zamon, xo‘jayinlarning jahli chiqib ketardi!

Ha, aytganday, bir yosh odamni tanirdim (O‘sha kezlarda nafis san’at maktabida edi). Akademiyani bitirgach, Ovrupo imtihonlarini muvaffaqiyatli topshirgan va lekin negadir bulardan hali biror-bir natija olinmagandi. U haykaltarosh bo‘lmoqchi edi. Yillarcha uydan ko‘chaga chiqmadi, o‘tirdi. Onasining (go‘zal, shirin, yoqimtoy bir keksa ayol) bong urmagan eshigi qolmagandi. O‘g‘li haqida:

— Uydan tashqariga chiqishga uyalayotir. Joni siqilganidan, yorilib ketay deyapti. Kun o‘tib gaplashmaydi, nuqul yig‘laydi. Men bu bolani nima qilaman? Kasal bo‘lib qoladi-ku! — derdi.

Bu ahvol yillab shunday davom etdi. Ancha yillardan keyin esa ish topdi. Men bu uyga qamalib olib o‘tgan sanalarning iztirobini ichimda his qilar, uyga qamalib, ifloslikdan va ochlikdan haykallar yasamasligimni ham tushunar, faqat bir qahvaxonada biron narsa yoza bilajagimni xuddi bolaligimni eslaganday xotirlardim.

Eng oxirida bir gazetaga murojaat etdim. Bosh muharrir janoblarining oldilariga chiqdik. Siyosiy dunyoqarashlarimni so'radi. Menda unday narsa bo'lmaganini aytdim. Hech tushunmaganim narsani mendan so'radi. Na deputat bo'lmoq, na-da gazetada siyosiy maqolalar yozmoq niyatida edim. Reportajlar yozmoq, muxbirlik qilish uchun siyosiy dunyoqarashimning nima ahamiyati bor? Men insonlar va o'zim haqimda ma'lum bir tushunchaga egaman. Hukumatlar haqida, rejimlar xususida hech bir fikr yo'q edi.

Bosh muharrir so'roq qilishga juda usta edi:

— Ya'ni qanday bir dunyoni orzulaysiz? — so'radi.

Keragidan ortiq qizishib ketdim:

— Qanday bir dunyonimi? Haqsizliklarga mutlaqo bo'lmagan bir dunyo... Insonlarning barchasi mas'ud bo'lgan, hech bo'lmaganda ish topiladigan, qorin to'yib yuradigan bir dunyo bo'lishini... O'g'riliklar bo'lmaydigan, boshqalarning haqqiga tajovuz etilmaydigan, ming qilganingda ham topilmas bir dunyo bo'lishini istayman... Pardon, afandim! Ming qilganingda ham topilmas degani, nima degani? Hech topilmaydigan bir dunyo...

Sevilmoqqa loyiq, jajjigina qizlarning fohisha bo'lmasligini, kechalari hojiog'alarning mitti qizlarni jaddalardan yigirma besh liraga gaplashib, otellarga keltirmasligini, har yosh qizning nomusli bir yigit ila suhbatlasha olishini, pul uchun nomus, or, hayo, hayot, kecha-kunduz sotilib olinmaydigan bir dunyoni istayman... Muhabbat dallollarining kunda o'ttiz lira topa olmaydigan bir dunyoni... Ko'chalarda qashshoqlar topilmaydigan bir dunyo bo'lishini istayman... Kallaning, qo'lining ish bilan mashg'ul bo'lgani zamon insonning muhaqqaq to'q bo'lishini ta'minlaydigan, xushchaqchaq hayot kechira oladigan bir dunyoni... Ichida yaxshi narsalar so'ylamoqqa, to'g'ri narsalar so'ylamoqqa salohiyat ko'rsata olgan odamning, qo'rquvdan va yanglish tafsir etilishdan qo'rqmaydigan, bir narsalarni so'ylay oladigan bir dunyoni istayman...

Aynan shu gaplarni so'ylamadim. Endi so'ylayotirman.

— Yaxshi, biz sizga xabar beramiz, — deyishdi.

Biroq, xabar bermadilar.

Qanday umid bilan kutdim. Dunyoda hech bir kimsaning mening istaganimdan boshqa turli bir dunyo istayajagini u zamonga

qadar aqlimga hatto keltirmagandim, desam g'irt yolg'on! Nelar istaganlar bor edi dunyoda? "U holda nimani umid qilarding?" — desangiz, "Qayerdan bilay!.." deb javob beraman.

Shanba kunlaridan biri. Qishning ba'zi shanba kunlari shaharning shovqin-suronidan uzoqlarga ketmak shunday bir orzu holida yopishib qoladiki menga... Ko'prikdan boqsangiz, paroxodlar qanday go'zal ko'rinadi, chalgan signallari qanday shirin tuyuladi...

Nihoyatda go'zal, bu kinolarni inson olmagan: pivoxonalari, qahvaxonalari doim tiqilinch shahardan shunday bir jirkanish tuyg'usi uyg'onadiki... Paroxod yarmi bo'sh holda, uzoqlashib ketayotir. Har qalqiganda, oynaklari dirillaydi... Parvonaning hadeb gir aylanayotganini his etardim. Uzoqdan Anado'li yoqasining qishloqlarini, boshqa darchadan Bo'z burnini, ochiq dengizni; bir-biri ustiga taxlangan janub shamoli bulutlarini tomosha qilardim. Dengizda jonsiz to'lqinlar mavjud. Bolaligim paytida ko'rgan tushlardagi kabi bir yerga borajakdir kema... Havo issiq. Shamol turdi. Delfinlar sakrab turgan dengiz uzra qayiqlarda o'tirgan odamlar baliq to'ri ila skumbriya ovlashardi, kleyonkalarga, adyollarga, turli-tuman lattalarga o'ralgan bir to'da odam, xuddi kayf uchun, kechqurun bolalariga mo'l baliq yedirmoq uchun baliq oviga chiqqanday tuyuladi odamga...

Tanish bo'lgan bir pristanda tushasan. Pochta muvazziysi salom beradi, chamasi, "Xush kelding!" deydi, bolalar orqangdan hasratla qarashadi: shahardan bir odam kelibdi, deya. Yigitlarning hammasi baliq ovida. Pristanning burni tomonda ko'zga tashlanayotgan kichkinagina nuqtalar shaklidagi qayiqlarning barchasi bizning qishloqdan.

Endi ortiq shaharning kirdi-chiqdisidan, shovqin-suronidan uzoqdasiz. Na issiq qahvaxonalar, na ichni kuydiradigan, achchiq garmdori aralashtirilgan zaytun yog'i hidi anqigan pivoxonalar, na keksa kishilarning og'izlari kabi sassiq nafasli sigareta tutuni hamma yoqni bosib ketgan qiroatxonalar, na mashhurlikda nom chiqargan qo'rqinchli qandolatchilar bor edi bizning qishloqda. Qachon qaramang, bizning qishloq ahli dengizda, qoraboylarning bo'yinlarini cho'zishib, dengizga boqishgan, birdan o'tib qolgan

skumbriya galalariga qarab qolganliklarini ko‘rasiz. Bizning qishloqda har ikki tarafining ham rangi o‘chib ketgan, uch marta qayta so‘kilib, qayta to‘qilgan moviy-qirmizi jemper kiyib yurgan qizlar: qopga o‘xshash dag‘al matodan tikilgan, oldilari tugmasiz, katta cho‘ntakli, jaketlar bilan “mashina-mashina” o‘ynayotgan bolalar doira hosil qilisharkan, xuddi bir kichik lokomotiv poyezdiga o‘xshab ketishardi.

Bizning qishloqning qirg‘oq tarafdagi yo‘llarini bo‘ron ostin-ustun qilib tashlagandi. Qishlog‘imizning dabdalasi chiqib ketgan pristanida ustlari qop-qora katta qisqichbaqalarni, zaharlanib qolishdan mutlaqo qo‘rqmagan insonlar to‘planishib yeyishardi. Hech kim zaharlanmasdi. Kimisi Alloh, kimisi Rim papasi o‘z panohida saqlaydi, derdi. Baliqchilar bo‘lsa: “Qisqichbaqalar zaharsiz, aksincha, bizning me’dalarimiz zaharli”, deyishardi. Bizning qishloq qishda ham ilk bahordagidek iliq, hidli, bahor shabadasi urib turadi. Undagi odamlarning qo‘llari katta va yorilib ketgan. Mushuklari juda o‘tkir tishlidir. Tishlarining orqasida zahar kasali bor. Bolalar qip-qizil go‘shtga o‘xshab yura beradilar.

Paroxodga minmasligim bilan qishloqqa bormasligim bir bo‘ldi. Ko‘ppakli odamni uyidan topdim. Telba kabi sevindi. Choy qo‘ydi. O‘tirdik, ichdik. U zamon aybimni e’tirof etdim. Qip-qizarib ketdi. Hech narsa so‘ylamasdan yuzimga boqdi. Xonadan tashqari chiqdi. Bir to‘p qog‘oz-la orqasiga qaytdi. Yuzi boshqacha tus olgandi, negadir kulardi.

— Ja xursand bo‘ldim, — dedi, — Hech bo‘lmaganda yozuvlarimni o‘qish mumkin bo‘lgan birini topdim. Bu yozganimni, bilasizmi, nashr etmadilar...

O‘qishmagandir ham balki...

— Nima deysiz, o‘zingizga yoqadimi?

— Nima deb hisoblamayman.

Ammo mendanam muvazziy afandiga ma’qul tushdi.

— Bundan haddan ziyoda mamnun bo‘ldim. Demak, muharir bo‘lib qolgudek bo‘lsam, xalqqa ma’qul tusharkan...

Kulimsiradim. U ham kulimsiradi.

Shunday qilib, o'shandan keyin u hikoyalarga goh o'zim ko'z yugurtirardim, goh u totli bir tovush-la, hayajondan entika-entika o'qib berardi, men huzur qilib tinglardim...

Bular voqea deyishga arzimaydigan juda kichik narsalarki, ularni o'z so'zlarim bilan yozishim juda qulay deb topdim. Gapirganlarimni ilgari ham so'ylab bergandim shekilli! Balki bu odam shaxsan men uchun... bir haqiqatdir, u bularni gapirib bergandir, ammo yozmagandir. Ushbu satrlarni yozgan odamla hech bir aloqasi yo'qdir.

Mayli! Ishga bir haqiqat urg'usini berishga harakat qilaylik: Men bu odamning hikoyalarini nashr ettirguncha, bechora o'ldi. Men turli-tuman yozuvlarini topib nashr ettirolmadim. Undan keyin mavzu topgan muharrir kabi o'tirib yozdim.

Uning yozganlaridan, balki butunlay boshqacha hayot kechirganini faraz qilish mumkin.

U, har hikoyaning oxirida uni yozishga ilhomlantirgan, meni ham qiziqtirgan bir talay izohlar berdi. Men ham bu orada unga savollar berdim. So'ngra boshqalardan ham bu ishni tahqiq eta oladigan bir qancha narsalarni o'rgandim. Shunday qilib, hammasini yozayotirman. Hozircha, uning, romantik haqiqat havosiga yoxud dunyosiga sho'ng'ish yanada ma'quldir... Bu hikoyalarni u menga xronologik bir tarzda birma-bir o'qib bergandi. Birinchi hikoya haqida shubham bor. Ismi nima edi, ajabo?.. "Buyuk xayollar quraman!"midi yoki "Havoda bulut"midi?..

Ikkinchisi shekilli...

BUYUK XAYOLLAR QURAMAN

U shunday xayollar qurardiki, haqiqat bo'lmasligiga hech bir sabab yo'q. U o'z-o'ziga:

— Bu xayollarni haqiqatga aylantirmoq uchun insonlarning biroz bo'lsa-da yaxshi bo'lishi yetmasmi?

Bunday qaraganda haqqi bor kabi edi: ha, qariyb haqqi bor edi. Istagani, faraz qilaylik. — nimaydi?

Kechalari uxlamasdan o'ylab yotardi. Hozir hecham bolaligidagi xayollarni surmasdi... U bolaligida bir fermaning xo'jayini bo'lishni istardi. Tovuqlari, g'ozlari, o'rdaklari, — yana bir tovus qushi bo'lishiniyam istardi, — sigirlari, buzoqlari, ichi yovvoyi o'rdaklarga to'la bo'lgan, ko'l suvi mavj urgan botqoqlik, o'ralari makkajo'xori boshoqlariga liq to'la, oftobda yuzlari qorayib ketgan, cho'pon bolalari qiyqirib yurgan bir ferma... Fermaning sal narisidan bir daryo o'tardi. Bir baland tepada turib, bu daryoning quyosh nurlari ostida jimirlashini, bir yerda g'oyib bo'lib, boshqa yerda takror charaqlagan oftob nurlaridan jimirlashi va salobatli oqishini ot ustidan tomosha qilardi. So'ngra bir tananing qoziq atrofida aylanib, o'z yog'iga o'zi qovrilayotganini, bir odamning qishloqcha ashula aytayotganini, chiroyli bir yigit bilan qora, oppoq tishli yoqimtoy bir qizning to'ylarini ko'rardi.

Bunday fermaga bolaligida ko'p chaqirilganmidi? Bunisini unutgandi. Katta bo'lguncha bu makonning egasidan goh bir og'a, goh bir bey bo'lish uning xayolidan necha bor kelib o'tdi. Endi shaharchadagi ko'rimsizgina uylarida tovuqlarni, jo'jalarni deraza oldida o'tirib uzoq vaqt tomosha qilishni xushlamasdi. Endi yana to'shagiga yotib, uxlashdan avval xayol qasrini qurardi. Qurardi-yu, bir baqqol do'konini ochmoq istardi. Bu do'kon shahardan chetda bo'ladi, shundaygina katta yo'l yoqasida. Qishloq odamlari jun xaltalarining, yirtiq qoplarining ichida pishloqlar, yong'oqlar, makkajo'xori, tuxum keltirishar, u qo'llarini ularga bigiz qilib, nima borligiga qarardi-da:

— Shaharga borishingizga hojat yo'q, — derdi, — Men olaman hammasini. Men beradigan bahoni shahardayam hech kim bermaydi.

Ko'pchilik, muhaqqaq, shaharga ketishni istardi, bozordagi narx-navoni bilmoqchi bo'lishardi-da. Sodda bir xotin bechora ko'p marta:

— Bu ham senga nasib qilgan ekan, — deyardi. — Ol, sen ham foydalan. Alloh sening rizq-ro'zingni ham bizning ustimizdan bunyod etgan ekan.

Ko'pincha arzongina bahoga olardi molni.

Bu do'kon uning qarindoshlaridan biriniki edi shekilli.

Litseyga kirgani zamon bu xayollarni unutdi. Ora-sira u ferma beyi bo'lish orzusini eslab qo'yardi. Ammo shoirona bir shaklda xotirlardi: Ovaya ministrining kutubxonali, devoriga pechka o'rnatilgan, uch tomoni oynavand eshikli bir xonada o'tirar, ertalabdan tuman ichidagi past tekislikka qarshi xat yozardi. Nimaiki istasa, oldida edi. Hammaga yaxshilik qilardi. Yoshlarni bir-biriga uylantirar, qirq kun davom etadigan to'ylar qilardi. Tevarak-atrofida fuqaro degan kimsa yo'q edi. Fermasi bo'lgan, salomatligi joyida, ko'rinishi go'zal bo'lgan insonlar va imoratlarga to'la edi atrof.

Ammo katta yo'l chetidagi baqqol do'konini negadir unitishdiki, hayotining bir davrasida uxlashdan avval ko'rgani bu yomon tushni xotirlamaslikni judayam istar, shuning uchun xotirlamasdi ham...

Endi nihoyat maktabdosh o'rtoqlarining bitta-yarimtasini ko'rishni istar, uni hamma o'rtoqlaridan ham ko'p sevmoq, uning uchun fidokorliklar qildirajak darajada sevdirmoq, yaxshi go'zal yuzli birodar ila batamom do'st bo'lishni istardi. Fermachilik, baqqolchilik bilan shug'ullanibgina qolmay, bu do'stlik orzusini mavjudot holiga keltirishni ham istab kelgandi. Shunday qilib, u zamon haqiqatga yuzma-yuz duch keldi. Haqiqat insonlarda va ular bilan bo'lajak munosabatlarda edi. Do'st bo'lishni istagan o'rtog'i, biroz muddat o'tgandan so'ng, uning qatoridan, yonginasidan yer olgandi: bir kuni kechqurun qatorining ichidan bir sirkul, bir kecha mutolaa qilganning o'zida bir daftari, tanaffus paytida qo'l soati g'oyib bo'ldi. Bularga ham lom-mim demadi, bu ishlarni do'sti qilganiga mutlaqo inonmadi.

Bularga ko'p ahamiyat ham bermay, bu safar undan qarzga pul oldi, lekin qaytarmadi; cho'ntagidan dastro'molni, yoqasidan bantini ochiqdan-ochiq olgandi. Bularga u hech qanday ahamiyat bermadi. Bir kun uning tuhmatiga uchradi. O'rtog'i yozma imtihonda, tizzasidagi kitobga qarab-qarab yozarkan, shubhalangan o'qituvchi o'z tarafiga kelayotgan bir paytda kitobni uning tizzalariga qo'yib qo'ydi. Natijada o'rtog'i emas, u nol baho oldi. Bunga ham uncha jahli chiqmadi. Boyagi-boyagiday edilar... Ba'zan, haqiqatan yaqin

do‘st ko‘rinardi uning o‘rtog‘i... Hech bo‘lmaganda yolg‘iz emas edi-yu...

Ichiga oqshom payti bir g‘ariblik bostirib kirgan zamon, yuziga qarardi, har xil gaplardan so‘ylashardilar, yaxshilik qilishardi, tanaffusda qo‘lni-qo‘lga berib kezadigan bir og‘aynisi bor edi-yu... Biroq aqli boshiga keyinroq keldi. Qarzga pul bermaydigan bo‘ldi. Biror yerga ketadigan bo‘lsa bor-yo‘g‘ini qulflab ketardi. Shunday qilib, u zamon eng buyuk xiyonatni ko‘rdi: o‘shanda o‘rtog‘i uni qoldirib boshqa birovning yoniga ketdi. Dorilfununga kirgani zamon butun xayoli bir muallim, bir olim bo‘lmakdan ziyoda, aytsam inonmaysiz, bir qahvaxona ochishni orzu etardi.

Istanbulning tanho bir yerida, uch kashtan daraxtining o‘rtasida, bir qahvaxonani xotirlardi. Yoqimtoy, o‘zboshimcha yugurdak bir bola zo‘r berib hushtak chalardi. U yerda imtihonlarga hozirlik ko‘rishardi. Kashtan daraxtlari shuvillar, haligi “bulbul” quloqni qomatga keltirar, bir mutaqoid[1] esnar, bir minora, bo‘y-bastini rost qilib, ko‘zga tashlanib turardi. Bular qatorasiga ketgan to‘rtta qahvaxona edi. O‘rtadagisi bo‘sh edi. Tepasida “Ijaralik” degan yozuv osig‘liq edi.

Kechasi yotgandan so‘ng bir darsning befoyda, keraksizligini anglagani zamon, ertasiga kallayi sahardan yugurib kelib, qahvaxona haliyam ijaralikmikan, deya qarardi. Unga dorilfununda uyg‘urchani o‘rgatishga kirishgandilar. Ichi tashvishga to‘lgandi. Fransuzchani o‘rgatmasdilar, aksincha, uyg‘urchani o‘rgatshiga kirishgandilar.

Uyg‘urchani o‘rganishda hech qanday bir natijaga erisha olmasligiga aqli yetgan kuni, bu yerga kelib, mahalla ko‘ppagining yonida, kichkinagina yugurdak bolaning qarshisida yig‘lab yubordi. Yugurdak bola “Imtihonni topshirolmadingmi, og‘abey?” — deb so‘radi.

“Topshirolmadim, Idris”, dedi, keyin gapni ijaraga beriladigan qahvaxonaga burib, ilova etdi:

— Men ham bir qahvaxona ochsam qanday bo‘larkan?..

---

[1] **Mutaqoid** — faol hayot kechirmaydigan, bir joyga o‘rnashib olgan.

Shunda Idris: "Senga shogird tushaman, og'abey", deya xursand bo'lganidan irg'ishladi. U oqshom maza qilib uxlagandi. Ertalabdan Idrisni do'konini ochayotganida topdi.

— Keldingmi, og'abey? — derdi u. — Senga bir qahva tayyorlab beraymi?

— Boshlab yubordingmi? — deya so'radi. Idris, "Yo'q" dedi.

— Unday bo'lsa, qo'y, mendan boshlamagin. Yomon bo'ladi, baxtsizlikka uchraydi odam.

Idris, qo'lida stakanlar, finjonlarni qaltirata-qaltirata hiringlab kuldi. Shunlay qilib, u hozir ham bir qizni sevardi. Endi qahvaxonani ham ochmasdi. Hozir o'tirib xat yozardi.

Shunday qilib, bir qizni sevardi. Necha kunlardan beri gaplashardilar. Besh-o'n tanga puli ham bor edi. Mana shu pullarning xotiri uchun, qizning unga qiladigan ishi qolmagandi. Ba'zan: "Sevaman seni!" — der, yasan-tusan bo'lib yurardi. Oynaga boqardi-yu, hech bir sevishga arziydigan joyini topmasdi. Mayli, ana shu sababdan shaharda hamma yoqqa bayroqlar taqar, bir yomonliklarni boshlardi. Qaysidir haftada kelib "unashildim" dedi. Har haftada bir bahona bilan uni aldardi, ayrilajak kabi bo'lsa, qizg'anchiqligini ishga solardi, oldingidan ham ziyoda sevmoqqa boshlardi. Shartta uzib-uzib tozalangan, o'ynoqlab turgan narsa, bir ilon dumi, bir zaharning ichida qaltirab turardi.

Ammo xayol yanada haqiqatdan qulay, haqiqatdan to'gri bo'lgani uchun shoshib qolardi. O'zi nima bo'layotgandi? Bir ish topilmasmidi? Yetmish-sakson liralik bir ish... "Shunday qilib, bu xayol, haqiqat bo'lmayajak qadar buyuk bir xayol-mi?" — derdi.

Shunday qilib, sevgilim, bu hikoyamdagi odamning ishi yurishmadi. Chunki bu odam, yaxshi xayolparast bir odam edi, ammo faqat bo'lajak narsalarni, zig'irday narsalarni, o'zining jimjiloqday saodati uchun xayol qilgan bir odam edi.

Kichik narsalarni xayol etishga arzimaydi.

Bir faqir oilaning kenja farzandini taniyman. Elektr bo'yicha muhandis bo'laman, derdi. Oilasi uning madrasada o'qishiga qarshi edilar. Otasi hammol edi. U elektrchi muhandis bo'ldi. Poshsho bo'laman desa, poshsho bo'lardi. U zamon olibsotarlik modasi yo'q edi. Bo'lmasa hozir to'rt yuz minglik bo'lardi!

Bir beyning bolasini tanirdim. Eh, og'abey, biz ham kimsa, falon axlatchi bo'lamiz, derdi, bo'lolmadi, o'g'rilikdan qamoqxonaga tushdi. Buyuk xayollar suraman, sevgilim! Men hozir shunday qilmoqchiman. Top-toza bir shaharda, asfalt ko'chalarda tagidan metrolar o'tgan, ustidan bahaybat avtobuslar uchgan muazzam o'yin-kulgili bir shaharda, sen bilan birga yashashni istayman. Yozganlarim bizga yashamoq uchun lozim bo'lgan narsani keltiradi. Katta qovoqxonalarda choy ichamiz, ozoda restoranlarda, kraxmallangan sochiqlarni oldimizga tutib ovqat yeymiz, latif, qancha gramm ichilgani bilinib turadigan jarangdor qadahlarda sharoblar ichamiz, top-toza yotoqxonaga seni qo'llarimda ko'tarib kirib, asta qulog'ingga:

— Butun mas'ud shahar uyquda, biz ham uxlaymiz, sevgilim! — deyman.

Ertalabdan bit bosgan odamlarga to'la, kimsa-kimsaga ehtirom ko'rsatmagan, kimsa-kimsani hurmatga loyiq topmagani, ekspluatatorcha ko'rinish, bir chala odamning boy va baxtiyor bo'lishi, hunarmandning ozg'in, boyning ahmoq olchoq, egoist, g'addor, faqirning ahamiyatsiz, parishon bo'lgan bir shaharda eng yomoni sensiz, o'larday iflos bir to'shakda uyg'ondim. Ammo, sevgilim, bo'lajak, buyuk xayollar qurmoqdaman.

— Demak, siz aslida istanbullik emassiz?

— Yo'q... Ammo endi shu yerlik hisoblanaman.

Shunday qilib, bu hikoyamdan anglashilib turibdiki, men ortiq Georgiyani seva boshlagandim.

— Ko'rinishga qolganda ko'rinib turibdi-ku, ammo bu juda ham buyuk bir xayol emas...

— Zotan ma'qullayman. Bu buyuk bir xayol emas: yetmish sakson liralik bir ma'muriyat, bir uy, bir xotin. Lekin mening hayotimda buning shunday ahamiyati borki, oldindan bir hisob-kitob qilish tuyg'usi...

U turib ketdi. So'ngra:

— Ya'ni, — dedi, — ko'ppakli odam holiga kelajagimni anglatgan bir hisob-kitob qilish tuyg'usi...

— Demak, buyuk xayollaringizni qurolmabsiz-da?

U ko'zlarimning ichiga boqdi.

— Yaxshi yigit, — dedi, — u xayollarni sen qur. Qara. Istanbul qanday go'zallashmoqda.

O'ttiz besh yoshiga qadar hech qanday xotin mojarosini boshidan kechirmagan, qalbi ishq-la to'la bir odam cho'ntagida puli bo'lganda ham, nima ish qila olardi? Urush zamoni edi. Hanuzgacha davom etib kelayotgan urushning ilk sanasi edi. O'zimni xayol daryosiga g'arq qilib ketib borardim. Kunlar ketidan kunlar g'irillab o'tib turardi. Na fikr, na bir do'st bor edi. Qisqichbaqachining uyiga deyarli har chorshanba kuni kechqurun to'satdan kirib borardim.

QISQICHBAQACHINING UYI

"Sariq kasalligi bor, ichkariga kirilmasin", degan e'lon eshikka yopishtirilmasdan avval qisqichbaqachining uyi, chorshanba kunlari oqshom soat oltidan ochilardi; qorong'i, kimsasiz, daraxtsiz ko'chalar ichida qisqichbaqachining uyi — men uzoqda bo'lamanmi, dam olib o'tiramanmi, sarg'ish nur ostida kleyonka parda ko'rgandek ta'sir qoldirardi. Men bu onda ko'zlarimni yumgan bo'lardim. Uyning ichkarisida ham, tashqarisida ham xayolan kezardim.

Belining suyaklari chiqib ketgan, uzun bo'yli, zaif tovushli, xoldor insonga xotin tabiatli bir erkak tasvirini bergan Stepan, o'yin-kulgidan chiqib buzuq havolarning mendagi ta'siriga boqardi. Qisqichbaqachi ko'chadan sal avval kelgan bo'lardi. U haqiqiy erkak edi. Qo'llari serjun, yuzlari serajin, yelkalari keng. Katta cho'ntakli nimchani bo'ynidan o'tkazib kiyib olgandi. Doimo yomg'irdan ho'l bo'lib yuradigan qora sochlariga qo'lini bir yugurtirib jajjigina qadahimga aroq quyish bilan band edi. Xotini qorachadan kelgan bir ayol edi. Ichida, meni yig'latishdan xushlangan, so'ngra, menga achingandan bir qancha so'zlarni aytmoqchi bo'lib uni topolmaganidan, bir narsani sezganday, Stepanning "O tamehacis toteta mezitisis", — deya boshlagan ashulasiga boshini sarak-sarak qilib, ko'zlarini goh kichraytirib, goh kattaytirib, goh yumib, goh qisib unga jo'r bo'lardi.

Manqal ko‘miri-la chinnigul hidi anqigan xona mulkining sohiblariga mendan ham yaqin bo‘lganliklariga hech shubham bo‘lmasa-da, ko‘tarilgan qadahlar soni ortib borishda menga qo‘shilishlari, go‘yo yuziga boqmaganim yonimdagining bu xonada bir qish kechasi faqir va ma’yus, faqat sevgan bir holatda kutganini, o‘zlari esa qandolatchining mulki bo‘lganliklari holda, meni ham yaxshi bir ijarachi odam deya sevganliklarini so‘ylashardilar.

Shunday qilib menga: “Ijarachimiz, aziz ijarachimiz!” — deya qo‘shilganliklari onda — inson mulkka aylanishdan rohat qilmaydi. “Meni yo‘qotganing zamon qidirib qolarsan”, degan yunoncha ashulasi, na uning xotin-la erkak orasi, hazin, yaxshi insonligi, na qisqichbaqachi xonasini to‘ldirgan yo‘g‘on erkak ovozi, na-da Sofiyaning hozir stolning tagidagi to‘ladan kelgan, top-toza oyoqlari qisqichbaqachining uyiga fayz bag‘ishlardi. U yoq-bu yoqqa alanglab boqardim.

Bu mening sevgilim edi. Uning rangiga siklamen degan bu yoqimtoy qirmizi rang-u, u sviter deb aytgani nimcha paxtalik ichida, uni yangi zamonlarga, yo‘q, inson dunyosiga o‘ralib, atrofda tovushlar tingan, ishlar turib qolgan, fokuschilik tugagan, Sofiyalar, Stepanlar, qisqichbaqachilar xuddi ketib qolishganday, xonaning ichida yashnab turgan chinnigul hidi bilan yolg‘iz qolganimiz holda, xayolan sevardim.

“Yorning dudog‘idan olib kelingan”, — derdim.

“Unday boqma, — derdi, — unday boqma menga!”

Yana bir qadah aroq ichardim. Yaqin bir tunuka tomga tomchilayotgan sovuq yomg‘ir tomchisi shu paytda ustimga sachrayotganini his etardim. Bu tomchilar ortidan qayergacha ketish kerak bo‘lsa, ketgan bo‘lardim.

Ko‘chada qolgan bir mushuk, oyoqlari yalang bir bola, bir kambag‘al, bir oppoq ensali, jingalak sochli odam, kaloriferli, kutubxonali, yorug‘ bir xona, go‘zal bir yuzning bir chetiga tomgan ayni bir yomg‘ir tomchisi...

Bir xafalik meni ezardi. Bu, ichida safolikning, boylikning, g‘am-g‘ussaning, saodatning, yolg‘izlikning, notenglikning, inson bo‘yniga osilgan minglarcha narsaning aralash-quralash bo‘lib ketgan yomg‘ir tomchisining yaqinginasida edi: Yaxshilab tutilgan

pardalarni surib, derazalarni ochib, yomg'ir tomchisini aroq quyilgan qadahimga tushirishga harakat qilardim. Ichimga u yomg'ir tomchisidan hasratlari, faqirliklari, saodati, inson hayotining saodat yo falokat kabi ko'zga ko'rinadigan butun javohirini to'ldirib olganimni his etar, bu qadahga shunday qilib, sevgilimning qop-qora yuzidan tiraqaylab qochib, g'oyib bo'ladigan bir mazani aralashtirib, bir hamlada yutardim.

— Stepan! — deya hayqirardim, — menga bir eski kuy chalib ber!

Stepan menga yoshi qirqdan endigina oshgan bastakorlarning eskirgan kuylarini, ko'zlarini suzib, men unga beradigan ikki liraning bir on avval berilishini, yoxud berilib berilmayajagini o'ylagan oppoq va mas'um chehrasi ila, ko'zlarini yuzimga tikkan holda chalardi.

Yaqinda sevgilimning bir o'rtog'i ila uchrashib qolgandim. Uning uyining kichik xonasi tomidan boshqa bir oq tunukali uyning tomiga yana yomg'ir tomchilardi. Kichik xonadagi past taxta karavotning ustida yomg'irning shitir-shitirini tinglarkanman, qizning sarg'ish sochli boshini ko'ksimga bosarkanman:

— Jonim, Georgiyam! — deb yubordim.

Qiz bir yalt etganday ko'rindi-yu, g'oyib bo'ldi.

— Imkoni yo'q, sen uni endi hech ham unutolmaysan. Har ayolda endi u namoyon bo'laveradi.

Bu yozuvlar bir xotiraning mahsuli bo'lgani uchun qandaydir bog'liqlik berayotganligidan yodimga kelganini yozganim uchun, qisqichbaqachining uyini unutganday bo'ldim... Bir chorshanba kuni oqshom qo'llarimda paketlar bilan kirib kelganim yana esimga tushdi. Sal-pal qor yog'ib turardi. Beyo'g'li chiroqlarini biroz avval yoqqandi. Oqshom paytida vijdoni pok ravishda uyiga qaytgan, cho'ntagidagi hamyoni pulga to'la, uyida xotini kutib turgan, ishi o'ngidan kelgan bir baqqol qadar mas'ud edim. Bunday odamlar nima uchun hech bir narsani, hech bir haqiqatni ko'rmay qolganliklarini yaxshi tushunaman. Buyuk bir ehson kabi, cho'ntagimdan zahmat-la o'n qurush chiqarib bir tilanchiga uzatdim. Bamisoli insoniyat, insonlar oldida o'z burchimni ado etgandim. Hozir shu ketayotgan odamlar oqimiga qo'shilib, bir uyga ketaman, eshik

ochilib, bir ayol quchoqlab meni bag'riga bosadi, eshikni qulflayman. Bir qadah, keyin yana bir qadah otib olarman. Undan so'ng issiq to'shakni xayolga keltirarkanman, yana dimlama go'shtdan, tuzlangan karamdan yeyman. Uning ketidan yana bir qadah otib, so'ngra sigaret chekardim.

— Xotinjon, sen kecha-yu kunduz ko'z o'ngimda, uxlaganda tushlarimda, chekkan sigaretimda, ichgan arog'imda, hosili qonimdasan! — derdim.

Ajabo, ko'chada yog'ayotgan qorning ostida titrab turgan bolaga berganim o'n qurushla, yana ne qadar mas'ud bo'lajagimni tushunmasdan, qisqichbaqachining uyini topa bilarmikanman?

Hali erta ekan: u kelmabdi. Uni kutish qanday qiyin!.. Mahallalarni yana biroz aylanib qo'ya qolay, eng yaxshisi!.. Bu saodatning barchasi sovqotgan insonga berganim o'n qurushdan kelmayotir-ku...

Modomiki, insonlar dunyoni mana shu holatga solib qo'yibdilar, modomiki, hali yigirma yoshli qizlar bir erkakni sevmasdan turib, uning pulini yeyishga o'rganibdi... Modomiki...

Bu ketishda borgan sari botqoqqa botib ketaman. Bu iflos, sassiq dunyo o'rtasida, pulga sotilgan qisqichbaqachidan, uning uyidan, to'shagidan, Stepandan, hatto bu qora, nozik yuzida tabiat qonunlarining, qonning, jonning, tushunchasizligining eng ibtidoiy nurlari porlagan sevgilimdan uzoqlashmoq, baqira-chaqira uzoqlashmoq darkor...

Uzoqlashganda ham qayerga keta bilardim? Yo bir kino, yoki bir gala chiroyli erkaklarni o'rtaga chiqargan kino; yoxud har narsani sokinlashtirgan, asl muhtasham, dunyoda insonning topa bilajagi eng nomusli yer bo'lgan mayxona bo'la oladi. Go'yo u yerda riyokorlar yanada ashaddiy, nomussizlar yanada nomussiz bo'lmagandaylar... Qochib ketadigan joy yo'q. Yaxshisi, qisqichbaqachining uyini xususiy bir mayxona deb hisoblayman, uch kishilik sirriy mayxona... Sevganim yuzlar, oh qani endi ular tushdan sidirib olinsalar! Stepan oyoqqa turib:

— Birodar, sening shu ikki qadah arog'ing, ikki lirang bo'lmasa-da, bu yerga kelaverardim. Senga o'rganib qoldim. Bu oqshom senga tekinga chalib beraman, — desa.

Ha, agar shunday desa, kuchimga kuch kirardi. Pul bor ekan, Stepanning ora-sira ismini takrorlab, "Oh, Sofiyam! Katina ham bo'lsaydi, chaqirsammikin?" — deya savol bergan xotini, uyda qiz kabi chiroyli kiyintirilgan ikki yashar o'g'li bor ekan, dunyo ham shunday aylanib turarkan, shunday orzulaganim, suhbatlashganlarini tushunmaganim shaklda gapirishi meni butunlay shoshirib qo'ydi. Yo'q! Stepan gapirmasin. Yuzimga tikilib boqarkan, oppoq, mas'um, qiz kabi chiroyli peshonasiga urib, mening ikki liram nima uchun berilganini tushunsin-da durustroq! Unda Katina ham bor.

Katinani rashk qilgan qizday sevgan Stepan, turib-turib:

— Farzandim bo'lmasa chiday olmayman, Sofiyam! — derdi.

Stepanni Katina aldatmasa, kim aldatadi?

Ba'zida qisqichbaqachi Ko'cho'ning uch bolasi birdan xonaga kirib kelishardi. Bu uch bolada menga va sevgilimga qarshi qanday hislar paydo bo'lganini tahlil qilishga kirishardim. Men, qisqichbaqachining u yoshdagi bolalaridan biri bo'lsam, qarshimda o'tirgan bu gunohsiz katta ko'zli odamning, nozik, qora yuzli, keng yelkali, bo'yni ho'l somon rangida bo'lgan qizga nelar his etganini, boqishidan, o'tirishidan, harakatidan anglardim.

Bu odam chorshanba kunlari qo'lida paket va aroqlar-la, boshqa kunlari boshqa xil paketlar-la, g'arib bir sassizlik ichida yolg'iz shivirlashlar, nozik hushtak kabi tovushlar eshitilgan bu xonaga kelardi. Muhabbatli, sokin bir o'yin-kulgi hukm surardi. Bu o'yin-kulgiga ota-onamiz ham qo'shilishardi. Boshqalar men to'g'rimda nima tushunishsa tushunaversin, lekin bolalar ulardek o'ylashmasdi. Qisqichbaqachi bolalarining eng kichigi jingalak sochlari ila olmaga, yeryong'oq ila tuzli bodomga, bu chiroyli jingalak sochlari boqarkan, unga dimlama go'sht bergan onasining etagidan mo'ralab, sevgilimning go'zal qoshlariga, jigarrang ko'zlariga tikilib qolardi. Kichkinagina burnini oqizib, qandaydir ovozlar chiqararardi. O'zi to'rt yoshda edi. Bodomlarni yeb, dimlamani chaynagandan so'ngra, goh Georgiyaga, goh menga hayratomuz shaklda qarardi. Onasining qo'lini ushlar, suv so'rardi. Unga aroq yuqli bir qadahda suv berildi. Ichida bir tomchigina arog'i bo'lgan yoxud biroz arpabodiyon hidi anqigan bu suvni,

qanday hirs-la, orzu ila emganini ba'zi kunlar ko'rgim kelib qoladi. Qisqichbaqachining bolalaridan eng kichigini sevardim. Unda jonli, harakatli, inson orzusi va hirsidan tug'ilgan, bir kun mana shu qarshisida o'tirgan katta, qizil yuzli odam kabi bo'lishni istagan hollarni sezardim.

Qisqichbaqachining boshqa ikki bolasining ikkalasi ham boshqa-boshqa onadan bo'lganliklari uchun uy ichidagi hayotlari kichik bolanikidan farqli edi.

Biri o'n bir yoshda, boshqasi o'n to'rtda edi. Har ikkisi ham o'g'il edi. O'n bir yoshdagisi har narsaga o'rganib ketgan, katta, ostlari yiring boylagan sariq ko'zli, yuzidan kasalmandligi bilinib turgan, kichkinagina, xunuk, qo'llari iflos, tirnoqlari tishlangan bo'lib, so'kib yoningdan haydagulik juda yoqimsiz bir bola edi. Bu uch boladan eng yaxshisi axir bir kun shu bola bo'lajagini his etardim. Uning, inson ko'zlariga kulib boquvchi ko'zlari, shirinlikning totli bir suratda hal etilishi, sevinchla uni tugatishi, so'ngra sekingina orqaga chekilishi ko'rsa arziydigan bir narsa edi. U, mana shu chorshanba oqshomlarini bir hafta kutganga o'xshardi. Uyga kirishi bilan Sofiyaga hayqirardi:

— Oyijon, Ahmadbey keldi.

Keyin darrov paketlarni qo'limdan olardi:

— Limon oldingizmi?

Men limonni har safar unutib qo'yardim. Sardinka konservasini ochadigan kalitni darrov keltirib berardi.

Uning atrofida bu qulday bo'lib qolgan bolaning girdikapalak bo'lishidan, Sofiya biroz tashvishga tushar, bolasi arazlamoqchi bo'lgan bir paytda, o'pkalab, o'gay bolalariga yomon muomala qilarkan demasin, degan o'yda:

— Sotiraki, — derdi, — bunday atrofimda aylana bermagin, bolam. Boshim aylanib ketdi. Ana, bey pul berdi. Borib limon olib kelgin, xo'pmi? Sotiri bo'lsa:

— Boshqa ish ham bormi, Ahmadbey? — derdi.

Bir pachka sigareta ham oldirardim. Ortib qolgan pulning o'ziga qolishini bilgani, men ham bir lira berganim uchun boshqa olinajak narsalarning narxi yetmish besh qurush bo'lishini istardi.

Uchinchi o‘g‘il o‘n to‘rt yoshlik Aleko bo‘lib, isyonkor odamning namunasi edi.

Sofiyaning unga aytgan eng shirin so‘zidan ham bir ma’no chiqarib olishini unga qarab turib bilib olardim. U na qo‘pol, na qo‘rqinchli, na isyonkor bir zot edi. U kattakon qo‘lli, salobatli otadan ham qo‘rqmasdi. Bu Sofiya, boshqalarning va erining yonida aldab turgan yomon o‘gay onaga ruhi ila, har kimsaning yonida yasama mehribonliklar ko‘rsatishga harakat qilgan yaxshi yurakli ona roli ila, naqadar begunoh bo‘lganini anglatmoqqa tirishgan harakatlar qilardi-yu, faqat bu boladan yuzining maskasini yashirolmasdi. Ochiqdan-ochiq jirkanardi. Balki, biz, Stepan, Georgiya, men, balki Ko‘cho‘ ham, Sofiyaga bunga imkon berardik. Kichik Aleko esa, ko‘zlaridagi g‘azab o‘ti ila o‘gay onaga boqar, kichik, siyrak tishlarini bir-biriga gijirlatib qo‘yardi. Sofiya eriga:

— Odam bo‘lmaydi... Nima qilsam ekan, Ko‘cho‘, odam bo‘lmaydi bu bola! Odam bo‘lmaydi dedim-ku, odam bo‘lmaydi. Dambo‘ro‘!.. Dambo‘ro‘!.. — derdi. Keyin bizga o‘girilardi. — Ishga berdik. Qochdi. Otasining yonida ishlagisi kelmaydi. Kinolarga o‘rganibdi, kinolarga...

Aleko burunlari yirtiq oyoq kiyimlariga tikilganicha, tor shimidan, parcha-parcha bo‘lib yirtilib ketgan joylaridan ol rang, kirligidan yaltirab ko‘zga tashlanib turgan sonlari ila lojuvard shimining oppoq tugmasi, tartibsiz sochlari, insonga kirib ketmaydiki — agar kirib ketsa, ko‘zga tashlanardi, oylarcha hammom ko‘rmagan, sasib ketgan achchiq inson hidini his etajagini taxmin etganimiz ko‘ylagi ila, o‘gay ona qo‘lida bir bola timsoli shaklida, muvaffaqiyatli chiqqan kichik haykal holida qarshimizda bir nima deyishimizni kutib turar, mendan yigirma besh qurushni olishi bilan qochib qolardi.

Georgiya jajjigina qadahidan yana bir qultim ichgach Sofiyaga qo‘li ila qadahini to‘ldirmaslikni ishorat etgani zamon avvalo Stepan bilan bolalar, so‘ngra qisqichbaqachi, eng keyin Sofiya xonadan chiqarkanlar, yangitdan yog‘ayotgan yomg‘irning tovushi eshitilar, olovga qo‘yilgan ko‘mirlar hanuzgacha tutab turardi. Biz gaplashmasdik, unda nima desam ekan, bir qo‘rquvmi,

bir orzusizlikmi, yana nima desam ekan. Dahshatga tushgan bir yosh qizning chekinishimi, ishqilib, xuddi bir narsalar boshlanayotganga o'xshardi. Bunga orzusizlik dosh berolmasdi. Albatta, u meni sevmasdi, ammo bir erkak quchog'ining titroqqa soluvchi, qo'rqinchli bir olamiga kirajagini his etardi. Bu menga mendan avval hech erkak ko'rmagan, degan fikrni berardi. Qo'llarim Georgiyaning qo'llarini, bir talay xazinalardan, kumush va oltinlardan, sarvatdan, saodatdan bir narsalar yo'qlagan kabi, oltindor otasi xasis kabi yo'qlardi. Bu qo'llar-la har narsani tutardim. Butun bir dunyo shu yerdan, bu qo'llardan simsiz, to'lqinsiz ichimga ohanglar, musiqalar keltirardi.

Unda nash'ali, boy bir umri, balki baravariga taqilgani uchun hamon saodat darajasiga yuksalavergan safolatni topardim. Dilimda hozirgacha hech tuymaganim shirin orzularni his etar, ko'zimda, bilmaganim bir insonlik riyosi bor Uolt Disney filmining ranglari havolana boshlardi. Birozdan keyin halqalab qo'yilgan xonaning eshigi ochilib, qisqichbaqachi, uning xotini xonaga qaytadan kirib kelardilar. Narigi xonadan bolalarning uyquda nafas olishlari eshitilib turardi. Qisqichbaqachining keksa onasi o'ziga-o'zi allanarsalar derdi.

Kunduz kunlari qisqichbaqachining uyini hech ko'rmagandim. Bir kun hali qorong'i tushmasdan Georgiyani kutish niyatida eshikni taqillatib, ichkariga kirdim. Qisqichbaqachining uyi oldinma-ketinli ikki xonadan iborat edi. Ikki xonani ayirgan o'rtadagi eshik ochilgani zamon, buyo'q tomoni bir dahlizga o'xshab ketardi. Meni o'tirg'izganlari xona er-xotin yotadigan xona edi. Ko'chaga qaragan derazalarning oldidagi divanda o'tirardim. Yonimda bir Zinger tikuv mashinasi ila bir talay qog'oz paketlar bor edi. Eshikning o'ng tomonida devorda Yevropa shaklida bosilgan bir rasm, uning tagida bir karavot, karavotning oyoq tomonida ikkita surat yopishtirib qo'yilgan bir oyna, karavotning tagida to'ntarilib yotgan tikish savati ila duradgor yasagan bolalarning o'yinchoq aravasi salkam yarmigacha ko'rinib turardi. Divanga judayam yaqin joyda odamni aniq ko'rsatayotgan bir oynali shkaf ham bor edi. Bu shkafning ichini juda-juda ko'rgim kelardi.

Ustiga ignalar qator qilib sanchilib, devorga osib qo'yilgan ignadon yostiqchasi kichkina tarozi pallasiday bo'lib, ko'zimga tashlanib turardi. Qo'limdagi igna qutichasini ikki sathli bir javonning tag tomoniga qo'ydim.

Vaqt o'tib borar, tashqarida do'l yog'ardi. Bir lahzada xonani juda qorong'ilik bosib ketdi. Oynaga qarab turib bir-ikkita so'z aytdim. Bir dam ichida aniq ko'rinib turgan yuzimdagi chiziqlar, ko'zimning qovoqlaridagi shishlar to'g'risida o'zi bilan o'zi suhbatlashayotgan oynada, havoni qorong'ilik bosgan mahalda, odatdagidek, yosh, sevimli, biroq ma'yus bir odamni ko'rib turardim. Oynaga:

— Bir-birimizni aldamoqqa hech hojat yo'q, afandim! — deb aytdim...

Sal tovush chiqarib, gapirishga boshlagan edimki, tashqarida yoqqan manqalini ichkariga olib kirishga harakat qilayotgan Sofiya gapga aralashdi:

— Kelar, tashvishlanaverma! Kelmasa borib uyidan keltiraman.

— Tashvishlanayotganim yo'q, madam, — dedim, — kelar albatta. Tashqarida do'l yog'ayotir-da...

— Yog'aversin! Bizning manqal yonib ketdi, qo'rqma, keltiraymi? Biroz hidi chiqyapti ammo...

— Xudo haqqi, keltirma, ja boshimni og'ritadi!

— Ustiga bir-ikki chinnigul otib yuboraman.

— Yo'q, keltirma!

— Nima, u yerda qoldirib qizning boshini og'ritsinmi? Qarib quyilmagan, xotinboz, seni qara-yu...

Ikki oyning ichida qarib ketibman. Men madamdan ko'ra oynaga ko'proq jahlim chiqardi.

— Uyatsiz oyna!

— Nima deding?

— Senga emas, Sofiya, oynaga aytyapman!

Madam Sofiya so'ylashda davom etar, men esa uni tinglamasdim. Bu xonada shunchalik ko'p mulk borki, voy-bo'! Tag'in buning oti shkafmish! Nima desalar desinlar... Hay, mayli, men ham shkaf deyman. Uninig yonida bo'zga ishlangan bir rasm bor.

Otlari tizginga bo'ysunmagan bir chananing ichida qora soqolli, po'stinli bir odam-la mo'ylovlari uzun, harakatsiz, otlarning mana shunday ketishi o'ziga hech ahamiyatsizday bir aravakash... Soqolli odamning pinjiga kirib ketgan bir qizni hozirgina sezdim. Qizning yuzi ko'rinmay ketgandi. Ustida oppoq po'stin bor, otlarning yonboshida chopib borayotgan ko'ppak bu uchib ketayotgan chanaga nisbatan harakatsiz, odatdagiday bir joyda turganga o'xshab ko'rinardi... Bu rasmning bir yanglish joyi bo'lsa kerak. Rasmdan tushunib turibman! Derazalarning oynalari dirillab ketdi. Erta tushdi bu oqshom... Xuddi xona men bo'lganday, derazalar xuddi men bo'lganday qandaydir silkinishlarni his etardim. Eshikni topolmay qolib, chaqira boshladim:

— Madam, madam!..

Madam ichkaridan baqirardi.

— Tushunarli, tushunarli...

Ichkari xonadan tutayotgan ko'mir hidiga qorishib ketgan bir chinnigul hidini esga soluvchi go'zal bir hidga qorishib, ko'zlari mendan juda uzoqda, sochlarida qirmizi bir ro'mol tang'ilgan qiz turardi. U kim? Shishani ochdim. Chinnigul hidi anqib ketdi, xonani arpabodiyon hidi bosdi. Do'l tindi, bir tovoqda sovuq, qip-qizil qisqichbaqalar, haddan tashqari achchiq...

Endi, u mutlaqo nafas olmasdan o'qirdi.

GEORGIYANING MAHALLASI

Dunyo yuzida ko'rganim shaharlarning barcha mahallalarini shunday parishon, o'ychan, ma'yus aylanganman; tahlil etmaganim bunday g'alati yumshoqliklar, g'am-anduhlarni his etardim. Menga shunday tuyulardiki, har o'tganim mahallalardan bir narsalar istardim. Eshik qarshisida yarim yalang'och, xayol surib turgan bir yosh qizni ko'rardim. Derazalarni artar, uy supurar, gilam qoqar yoxud qo'lida pichoq bilan piyoz artardi. Har bittasini artganda burnimga oshno bo'lgan bir hid kelardi. Bu uyga joylashib, oqshomlari qizga ertalabga qilinadigan oziq-ovqatlarni keltirib berganimda, bu qizning bo'ynimga osilishini ko'rsangiz edi. Ko'p

farzand ko‘rardim, meniki bo‘lardi, ularni ko‘rganimda, xuddi u yosh qizni ko‘rganday bo‘lardim. Dorga osilgan kiyim-kechaklarni ko‘p ko‘rardim, hilpirashib turardi, hammasi o‘zlariniki edi.

Bir o‘g‘il bola yo‘g‘on bilaklari, sariq tukli ensasi, parishon sochlari, yalang‘och oyoqlari, sariq kamzuli bilan xuddi qarindoshimga o‘xshab ketardi. Birgalikda baliq, tut sotgandik. O‘zaro janjallashardik, necha kunlab ko‘rishmay qolardik. Nihoyat, bir kun ikkimizda ham insonligimizning eng sof hissiyoti uyg‘onib ketardi. Bu o‘rtoqlik hissiyoti edi. U oqshom kimlardan, nimalardan bahs yuritmasdik? Uzun kunlar mobaynida, o‘zaro arazli ekanmiz, bir-birimizga allanarsalar deyayotgan ko‘zlarimizda nimalar o‘qiganimizni tushuntirib, kulishardik. Sevishib qolganimizni u zamon qanday anglatardik. Janjalimizning sababi naqadar bo‘lmag‘ur, kulgili edi, uzoq vaqtgacha, shirin bir narsani eslaganday yurardik.

Har mahallada bir yomonlik, bir do‘st, bir uy, bir qiz, bir o‘g‘il, bir buvi, bir ona, bir saodat qoldirib chiqardim. Aylanib yurib, mahallaga boqar, bir qahramonlik, bir o‘zga hayot tanimoq, yashamoq orzusi ila keyin ayrilardim.

Har yerda yashadim. Bir uyda tug‘ildim. Qo‘shnimizning qorachadan kelgan bir qizini sevdim. Ertalabdan uyg‘onishim bilanoq uning noma’lum xayoli ila to‘lg‘onib yotardim. Xayolimda u kezib yurardi. Qayerga ketsam barobar keta berardi. Ishimda, qo‘yingki, hamma vaqt qarshimda edi. Uni oqshom payti qo‘shni qizlar bilan birgalikda eshik oldida ko‘rganim zamon butun kamchiliklariga, g‘am-alamiga, sevinchiga, dardiga, alamiga qo‘shilib ketajagimni, qanday bo‘lsa, o‘shanday bab-baravar qiynalajagimni; so‘ngra qanday kulishimizni, qo‘llarini, yuzini, lablarini, ko‘zini, tizzasini, bilaklarni, bo‘ynini, qulog‘ini, tishini qanday o‘pajagimni bir soniya ichida xayolimda ko‘rgan kabi bo‘lar, butun borlig‘im bilan his etardim. Har kishida bo‘lgani kabi menda ham allaqanday narsalar bo‘lardi. Yuragim taqqa to‘xtab qolganga o‘xshar, so‘ngra yana tez-tez ura boshlardi... Kim bunday so‘ylamas? Qaysi inson o‘g‘li, ichida bu ajoyib, bu totli duduqlanib-duduqlanib olib borilgan suhbatni his etmaydi?

Ko‘pdan beri bunday mahallalarni aylanmagandim. Shahar katta jaddasining o‘ziga tortar havosiga qorishib ketgan olomo-

niga qo‘shilishib ketarkanman, Georgiyaning tanish mahallasini, uyini borib ko‘rish orzusi menda yangidan jonlandi. Xuddi yigirma yoshimga qaytganday edim. Ammo bu qaytish u zamondagi borliqqa qaytish emas edi. Bu nihoyati ma’lum bo‘lmagan ta’sir ostidagi taqlid edi. Mahallalarda xayoldagi sevgilar-la yashab-yashab, oxiri asl sevgini topish nasib bo‘lmagandi menga...

Ko‘zlarini yiring boylagan bir yigit (o‘sha men edim), oqshom usti pulsiz, uzoq bir tomondan uyimga qaytmoq uchun yayov yurishga majbur bo‘lgan kunimdagi u go‘zal tramvay, uning ichidagi odamlar, u terlab ketgan, iflos oynalar, qayerda u, qayerda ular?

Hozir tramvayga sakrab chiqa bilardim, u iflos, odamga liq to‘la, dim, sasib ketgan tramvayga, insonlarning ichiga... Pulim bor, tramvayga chiqa bilardim. Nima demoqchi bo‘lganimni o‘zim ham bilmayman. Faqat yurmayman, u tramvayga chiqishim kerak, charchab ketdim, butunlay ado bo‘ldim. Nihoyat, chiqdim.

Ikki tomonidan qorong‘i yuksakliklar, kambag‘allar uylari tushgan, o‘g‘rilarning makoni bo‘lgan joylar g‘izza-g‘izza o‘tib turibdi. Yuqoridan, pastdan, uylari, jaddalari insonlari ila dumalab ketayotganga o‘xshab ko‘rinayotgan bu yuksakliklarning manzarasi, bamisoli hech qachon ko‘rinmaganday bir narsa...

Bir tomonida uchrashuv uylarning, boshqa tomonida umumiy uylarning qalashib ketgan rayoni... Qisqichbaqachilar, elektrchilar, novvoy, sirkachi, duradgor shogirdi, garson, akkordeonchi; gitarachi, bar artisti, revyu figuristi, mashinachi shogirdi kabi hunarmandlarning bir yerga yig‘ilgan yuksaklikda, bir-biriga qorishib ketgan har din va mazhab; turk, rus, armani, grek, nasoro, arab, lo‘li, fransuz, katolik, levanten, xorvat, serb, bulg‘or, fors, afg‘on, xitoy, tatar, yahudiy, italyan, maltalik va yana har turli millatning bir-biriga qorishib ketgan bu g‘arib mahalladan qator tushgan uylarning biriga har oqshom jajji figurist qizlar chiqishadi. Ularning va mashinachi qizlarning orqasidan sartaroshxona yugurdaklari tushib turardi. Sartaroshxona yugurdaklarining orqasiga esa burama mo‘ylovli bir alban kishisi qorama-qora tushadi. Pardalari tortib qo‘yilgan bir uydan avval grammofon ovozi, so‘ngra bir qichqiriq eshitiladi. Bir odam uyning derazalarini sindiradi. Bir erkak, bir polisga gazchiroq nuri ostida

cho‘ntagidagi hamma pulini oldirib qo‘yganligidan shikoyat qiladi. Mahalla sassiz-sadosiz, qorong‘ilik qo‘ynidadir. Ammo uylarning ichida, hatto ba’zi daraxtlarning orasida hayot biqir-biqir qaynamoqda. Xilvat joyda ikki kishi endigina labini labiga bergan chog‘da qayerdandir paydo bo‘lib qolgan bir mast kishining tovushidan cho‘chib ketib, oshiq-moshiq yoshlar tiraqaylab qochib qoladilar. Qorovul bo‘lsa hech narsadan tap tortmay sevishganlarni rohatsiz etar, “Kimsa o‘pishmasin endi” deganday hushtagini churillatadi.

Gulizor shunday g‘amgin bir ohangda:

Qopa-qora qozonlar,
Qora taqdir yozganlar,
Jannat yuzin ko‘rmasin,
Oromini buzganlar, —

deyishi bilan pastdan, onasining yo‘g‘on erkakcha ovozi: “Zeboning bulbuli ham hech tinmaydi-da”, deb norozilik bildiradi, keyin manqalni qorishtirib, baqirardi:

— Tinasanmi, yo‘qmi, nafasing o‘chgur, kampir!

Gulizor onasining butun urug‘-aymog‘ini qo‘shib, boplab qarg‘ab beradi. Keyin uning o‘ynashi oyoq kiyimini kiya solib, yugurib chiqadi:

— Hov, menga aytdingmi u so‘zingni?

— Senga nega aytarkanman, ey yigit?

— Menga aytding... Ha, menga...

— Yo‘g‘-e! Hecham senga aytmadim! Pastdagi kampirga aytdim.

— Pastdagi kampirga shu yerdan so‘z eshitiladimi, qanjiq?

— Senga emas, bildingmi?!

— Menga deding. Agar sen erkak bo‘lganingda, ko‘rsatib qo‘yardim!

— Menga qara! Senga aytdim! Nima qilarding?

Shunda ta’viya tupurgan kishi bo‘lib, bir “tuf” degandan keyin:

— Menga qara! Menga! Mening onamga birov “g‘ing” demagan shu paytgacha. Sening ham, uyingni ham, onangni ham, kampiringni ham... bildingmi...

Pul bermaslik uchun qasddan uyushtirib, ushbu bahonadan foydalangandan keyin Iflosbek Sha'bon eshikni ochib tashqariga chiqib ketdi. Gulizor, onasiga derdi:

— Men bilardim, uning naqadar iflos ekanligini! Chiq deb menga sen aytding. Boshqa birov tashrif etsa, men haqqimni olardim. Pul olmoqlik mening vazifam emasdiki, siz olardingiz.

— Jim bo'l, ...! Men seni bilmaymanmi? Kim biladi, shu ta'viyaga nimalar deding? Sening og'zing qanday bemazaligini men, nima, bilmaymanmi? O'tgan kuni tekinga sigareta bergan paytda yaxshi bola, deb aytganding menga, ammo. Endi yomon bo'ldimi? Mayli, o't! Bizdan ketmaydi u!

Gulizor bir yoshgina yigitchaning yengilgina plashini kiyayotganda jahli chiqqandi:

— Ey, tur! Voy onasini! Bu ham kelib-kelib jahlim chiqib turgan paytda ilashib qoladimi!..

Oh, bu Zebo ko'chasi!

Ne zamon sevgilimning uyini qoldirib, yuksakliklar sari tirmasha boshlasam, yo'limni shoshirib, bu ko'chaga burilib ketaman. Ichimni bir daydilik havosi eza boshlaydi:

— Oh, onam! — deyman birisiga.

U qoshlarini chimirib, boshqa uyning derazasi oldida turgan bir dugonasiga:

— Ozroq palov olib qo'y! — deya baqirardi.

Birozdan keyin men pushaymon bo'lib, orqamga qaramay ketarkanman, uning tovushini, odatdagidek ma'sum tovushini eshitardim:

— Stilyaga kelsin-a.. Haligi "oh, onam!" deyardi-ku?

Sevgilimning uyi juda pastda qolib ketdi. Sevgilimning uyiga boshqa kirmadim. Uni Zebo ko'chasiga muvoziy[1] bir yuksaklikdan pastda qoldirib, o'g'rilar makoni tomon borardik. Ko'rimsiz, do'konlari yopiq, kunduz kunlari hech ko'rinmagani bir Onado'lu shaharchasiga o'xshash uzun bir asosiy jaddadan o'tib borardik. Do'konlar va bozor tugagan joyda undan ayrilardim.

Vengelista cherkovi xayolotga cho'mganday turibdi. Bozor tugagan yerda birdaniga paydo bo'lgan kattakon bir qorong'ilik may-

---

[1] **Muvoziy** — parallel, baravar.

donda uning yo‘q bo‘lib ketganini, keyin yana paydo bo‘lib, butun borlig‘ini namoyon qilishini, so‘ng bir nurning asta-sekin ko‘zga tashlanib maydonning o‘rtasida yig‘ilmish kichik-kichik baraklarni ko‘zlarim qorong‘ilikka o‘rganguncha farq etardim. Bir necha kunga yopib qo‘yilganday, yarmi boshqa bir mamlakatga, boshqa ishga ketajak muhojir ishchi guruhi uylariga o‘xshagan bu maydonda, uzun muddat qolib ketardim. Hammasi uy-uyiga ketgandir, ish kiyimini yechgandir, deb o‘ylardim.

Balki Isoga cho‘qinib darhol uxlagandir. Ana, uyg‘onganini bilgandek qaytayotirman. Har zamonda yo‘lim bu Zebo ko‘chasiga tushib qoladi. Qanday xushmomalali bir qahvachi bor chap tomonda. Bir chorraha boshida xotinlar bilan birgalikda o‘tiriladigan, qahvani zo‘r tayyorlab, “Binafshalardan tikilgan shalvori” degan ashula ko‘p qo‘yiladigan bir qahvaxona... Qahvaxonaning ichida bir odam. Balki bir fohishani telbalar kabi sevgan yigit budir.

* * *

Ko‘ppakli odam, yozilgan narsaning bir talay yerlarini o‘qimay sakrab ketdi.

— Nega o‘qimayapsan? — deya so‘radim.

Shunday bir ishorat-la javob berdiki, o‘sha yerlarini yomon deb topganmi, yoki bo‘lmasa, o‘qishni istamadimi, anglolmadim. U birpas o‘rnidan turdi, ortiq maxfiy narsalarni o‘qishni odat qilganimdanmi, ishqilib — olib o‘qidim. Shunday bir parcha bor edi:

Sevgilisi ila bir to‘polon oxirida politsiya mahkamasiga tushgandi. Sevgilisini urgandi. U parchalarni men ham sakrab ketdim. Chunki do‘stimni bunday qip-yalang‘och qilib yechintirish, xotirasiga hurmatsizlik bo‘lganligidan, bularning hammasini shiddatli ehtiros-la bag‘ishlaganim uchun yozayotganim yo‘q. Faqat bu parchadan shu yerlarini, menga bir g‘alati zehniyot ko‘rsatgani e’tibori ila menga juda qiziq tuyulgani uchun olayotirman.

“Birpasdan keyin politsiya mahkamasiga ensasi sip-silliq qilib soqoli olingan, dolchinrang sochli, lojuvard kastumli, ko‘rinishi yaxshi bir yosh yigitni keltirdilar. Ismi “Filim Xayri” emish. Keyingi paytlarda uni yaxshi tanirdim. Retsidivist Filim Xayri to‘g‘risida uning foydasiga aytiladigan so‘z ochishga imkon yo‘q. Bir retsi-

divistni maqtashni istamayman, ammo u meni maqtasa xush yoqadi. Butun qabohatlarimda "Oshiq yigit kamchiligiga boqilmas" deyilgani uchunmi, bilmayman, hamma vaqt uning tarafni olishiga moyilman. Hamma vaqt nima sababdan Filim haqida fikr yuritilganda chalakam-chatti harakatlar qilishim kerak? Filim, qilgan qilg'iliklarining jazosini bir marta hatto tatib ham ko'rmaganki... Ba'zan boshqalarning jazosini chekdi.

Filim Xayriga nima sababdan Filim deganlar, buni unchalik bilmayman. Shunisi borki, uning juda qilig'i ko'p. Insonning og'zidan kirib, burnidan chiqadi. O'rtoqlari: "Uning kelajagi shunday porloqki, shunday hunarlari borki" deydilar.

Bir zamonlar, kinolarda bir komediya, bir manzara, undan keyin bir drama ko'rsatardilar. Balki bu laqab u zamondan qolgandir, Filim o'ttiz beshdan oshgandir. Ammo yosh ko'rinadi.

"Qamoqxonada bo'lmagandaydim, yigirma yoshlikka o'xshab ko'rinardim", deydi. Kichik, xunuk, munosabatsiz bir yuzi bor. Faqat kichik ko'zlari juda sevimli, juda aqllidir. Filim Xayrining o'ynashi Chamlijali Oyshaning yuzidagi ustara tortib yuborilgan yarasi ila, Zebodagi qahvachi O'ra Hasan burnining yarmisi Filimning qo'li nihoyatda zo'r bo'lganligining mahsulotidir.

Filim yomon rejissyor emasdir! Xuddi dunyo yuzidagi butun bo'lmag'ur ishlarni, nomussizliklarni u tuzatib qo'yadigandek, u nomusli etmoqchidek. Bir qancha uy derazasining oynalarini u chilparchin qilgandi. Uylar havo olsin, ichkariga biroz toza havo kirsin, deya bu ishini qilganini politsiya mahkamasida so'zlab bergandi, imzo chekishini bilmaganligi uchun barmog'ini qog'ozga tuflab bosgandi. Faqat Bey o'g'lidagi kinoteatrda kimningdir jaketining cho'ntaklarini titkilaganini yuz karra inkor etdi. Menga:

— Og'abey, — dedi. — Oyshani oziq-ovqat bilan men ta'minlayman, biroq bu ishni men qilmadim. To'g'ri! To'g'ri! "Go'zal Bayon" konditerxonasidan, esingizdami, u judayam sovuq bo'lgan qishda bir paltoni gumdon qildim, to'g'ri!

Filimning bularni qilmaganligi juda to'g'ridir. Ammo, modomiki qilgan bo'lsa, modomiki, bir sanaga yaqin yotdi, jazosini tortdi.

Yo‘q yaxshilar deyman. Filim Xayri, yomon ishining jazosini chekkan. Undan tashqari Filim Xayri haddan ziyoda yoqimtoy. Ba’zan uni qish kuni boshi ustarada tarashlangan, egnida kraxmallangan yarim yozlik bir ko‘ylak, uning ustida rangli, yungi, momig‘i majhul bo‘lgan, balki sun’iy ipakdan tikilgan bir jemper-la ko‘rarsiz. Bir haftadan keyin bir lojuvard usti boshda mahallaga qaytdi.

Men bularning hammasini keyinroq bildim. U oqshom qilgani muhim bir narsa emas edi. Bir polis undan so‘radi.

— Sen nima uchun birovlarning oynalarini sindirding?

— Sindirdim, afandim. Bundan keyin ham albatta sindiraman. Kasbi korim!..— deydi.

— Kasbi koring bo‘lsa ham nega sindirasan? Uyli-joylimisiz o‘zi?..

— Yo‘q, uylanmaganman hali, ammo kasbim shunday.

— O‘zingcha, shunday hisoblaysan!

— Boshqa kim hisoblashi kerak?

— Endi qo‘y uni... Sindirdingmi?

— Sindirdim, afandim,

— Sabab?

— Uyga odam olibdi.

Yosh polis g‘alati bir qarash qildi:

— Olsa-chi, birodar. U yer umumiy uy, o‘g‘lim. U ham ishratxona...

— Yo‘q, afandim, u yerini afv etasiz. Men bunday narsani qat’iyan qabul etmayman. Mening xotinim buzuq ayol emas. Qat’iyan qabul etmayman.

Shu paytgacha oyoqda tippa-tik turgan, Filim Xayrini bu yerga olib kelgan. Istanbulning yaramas bolasi bo‘lgan bir qorovul:

— To‘g‘ri, Ma’murbey, — dedi, — qat’iyan unday xotin emas.

— Tushunib turibman, axir! Fohishaxona-da!

Qorovul ham, Filim Xayri ham birdan baqirib yubordilar:

— O‘lib ketsin-e...

Qorovul izoh bera ketdi:

— Juda yaxshi bir xotin. Ammo bu ta’viya o‘larday qizg‘anchiq. Bu xotinga birisi boqdimi, qat’iyan mushtarayga chiqmas.

Eh, zarurat qursin! Ta'viya tashlab ketsa nima qilsin? Juda nomusli xotin.

Shunda Filim Xayri:

— Ayb menda, — dedi. — Ikki hafta unchalik ahamiyat bermagandim.

Ko'ppakli odam ichkariga kirganda meni daftarining boshqa tomonlarini o'q'iyotgan holda uchratdi. Kuldi. Men daftarimga talaygina narsalarni yozib olgandim. O'chirishga majbur qildi.

— Bu joylarni yozmaysiz, — dedi.

— Yo'q, — dedim. — Bir narsa yozmoq uchun emas. Bu aqlli jumlalar ma'qul tushib qoldi-da... Sizning shaxsan shohid bo'lganingiz bir haqiqiy voqea ro'y berganini taxmin etmoqdaman. Insonlarni bilmaysiz, tushunishga tirishmaysiz, demoqchimisiz, beyafandim? Ya'ni konformist bo'lmaslikni, odatlarning, ahmoqlarning, har narsaning qattiq holda bo'lmasligini, hatto toshning, tuproqning boringki, kuchi ketish holiga kelib qolishi mumkinligini bilmaysiz.

— Haqqingiz bor, — dedi. — Qarang, men ne holga keldim? Holbuki, men ham yarim daydi, yarim farosatli, yarim telba, yarim aqlli, hayotning ichida bor ekanligimini tushunaman, anglata olaman. Hozir ko'ppaklarim ila...

Bir imo bilan so'zini kesdim.

— Yo'q, — dedim, — beyafandi, melanxoliyaga tushishlik yo'q.

Ko'ppagiga boqib, jim bo'lib qoldim. Bir necha daqiqa sukut saqladik. So'ngra yana u boshladi bu safar gapirishni:

— Bir oqshom vaqti, har zamondagiday kirib yuradigan pivoxonaga bir erkak bilan ikki xotin kirdilar. U joy uch qavatli bir pivoxona edi. Men o'rta qavatida edim. Bu yerning garsoni ellik yoshlardagi, juda muloyim, shirin so'zli bir odam edi. Ikki kishini bir-biriga tanishtirmoqdan o'zgacha bir zavq his etmasa, bunda qandaydir xato ko'rmasdi. Har zamonda berib turiladigan to'rt-besh qurushni ilova etmasak, bu ishni pul bilan ham qilmasdi. Kelgan qizlardan biri, so'linqiragan oppoq yuzli, chehrasi juda yosh, kelishgan, ko'zlari o'ynoqi, go'zal, biroq ancha charchagan qiz edi. Yonlaridagi erkak, hadeb, mana shu qiz bilan ovora

edi. Anavi boshqa qiz, xizmatkorga o'xshar, qorachadan kelgan, ko'zlari dolchinrang, favqulodda o'ynoqi, uzun bo'yli, juda yosh, biroz oyoqlari yo'g'onroq, bo'yniga misdan qilingan krest yaltillab turgan, atrofga yomon ko'z bilan qaraydigan bir maxluq edi. Men har oqshom tanho kelardim. Pulim bor edi. U bilan ichishmak, yig'lashmak, atrofni kezmak, o'tirib turishlik qadar hech bir laziz emasligini ich-ichimdan his etdim. Biroq, shunga qaramay, o'sha oqshom u bilan ahbob bo'ldik. Mendan ayrilib ketayotganda zudlik bilan ikki lira berishimni istadi. Ertaga oqshom payti kelaman, dedi. Niyatiga yetdi. Ammo shu ketgancha ketdi!

O'zini necha kunlab ko'rmadim. Garson Uanini siqishtira berdim.

— Kelmaydimi? — derdim. "Bugun kelishi kerak, muhaqqaq kelajak", — derdi. Uni bir hafta jinni kabi kutdim. Kelsin-da, men bilan barobar yeb-ichsin. So'ngra uni bir ko'chaning boshiga qadar kuzatib qo'yaman, mendan yana ikki lira istasin, men bir daf'a o'pmoqlikni taklif etaman. "Ko'rib qolishadi", desin, chap yonog'idan sal o'ptirsin, keyin qochib ketsin, deya kutdim.

Bir oqshom kech qolib, har zamondagiday o'z stolimga biroz horg'in ravishda o'tirgan edim, garson: "Hozir shu yerdaydi, ketdi", dedi. "Ammo ertaga oqshom muhaqqaq kelajak".

Ertasiga oqshom payti ipsiz boylanganday o'tirdim. Bir to'da erkak-xotin kirishdi. U kirmadi. Endi umidimni uzgandim. Faqat ora-sira garson Uanidan: "Jonim Uani. Georgiya keladimi?" deb so'rayverardim. Garson ham mening bunaqangi gaplarimga o'rganib qolgandi. Men savol bermasdan avval u so'rardi: "Georgiya keladimi?" Toza kulishardik. Bir oqshom to'satdan paydo bo'ldi. Meni ko'ra solib kuldi. Stolimga chaqirdim. Tashqariga yugurib chiqdim. Mandarinlar, apelsinlar, shu qiz mammasi degan narsalardan...

Shartta so'zini bo'ldim:

— Ta'birni ma'zur ko'ring: hoji og'alar kabi aljiramang...

Achchiq-achchiq kuldi:

— Endi bilsam, shunday ekan, — dedi. — Shundaymishman. Yo'q, azizim. Bir saodat his etardim. Anglatolmayman. Do'stlik,

birga yashamoq havasi, hech bo'lmasa bir zamon... Shu yerda o'tib ketaman, jonim!

Nima deyayotganimni men o'zim ham bilmayman. Ha! Uch-to'rt dona banan oldim. Olma oldim. Ikki fileni buyurtma berdim. Bir shisha qizil sharob ochdik. Kichik mahallaning qizi shavq-u zavqlarga to'la edi.

— Necha yoshdasiz, madmuazel? — dedim.

— O'n to'qqizda, — dedi. Siz-chi?

— O'ttiz besh.

— Qariyb otam bilan teng ekansiz.

— Bo'lishi mumkin... Yomonmi? Seni ham ota, ham sevgili, ham og'abey kabi sevaman. So'zmi, axir! — dedim.

O'sha oqshomdan keyin boshqa ayrilmadik.

— Pullarni olgunga qadar emasmi? — degan gapdan boshqasini topolmadim.

— Jim bo'ling, iltimos qilaman! — dedi. Uni qanday kutganimni kimsalar bilmaydi. Bir inson bolasi qanday kutiladi?

U eshikdan kirishi bilan hozirga qadar ichimda mahkam ushlab yurganim insofsizlik, huzursizlik, melanxolik kayfiyat uchib ketardi. Insonlar to'satdan asta-sekin mahallasining jaddalarini, mayxonalarini to'ldirib borardilar. Bir haftada uning mahallasini, hayotini, har narsasini o'rganib bo'lgandim. Bu hikoya tamoman uydirmadir, ammo bu, sevgilim to'g'risida ajoyib voqeadir. O'qisam tinglaysizmi? Yoki, o'zingiz o'qiysizmi?

— Bering, men o'zim o'qiy qolay!

SHIRMOY NON

Istanbulda tif, mamlakatda zilzila, mamlakat tashqarisida urush, men esa senga oshiq bo'lgan kezlarim edi. Shunday qilib, 1942-yil 21-iyun yarim kechadan keyin soat uch yarimda hali uyg'oq, yaraqlab chaqmoqlar chaqqan yomg'irli bir kechaning rasmiy xabari quyidagicha:

O'tgan oqshom Beyo'g'lida edim. Soat yetti yarimdan oshgan edi. Ufqda quyosh bo'lmagani, havo yana bulutli bo'lgani holda,

ajib bir oydinlik bor edi. Buning ustiga-ustak pivoxonalar chiroqlarini yoqib qo'ygandilar. Pivo idishlari naqadar jozibali edi. Ko'chada qanday go'zal narsalar bor edi! Ayniqsa, qizlarning oyoqlari insonni insonga naqadar yaqinlashtirardi!

Kichik, qorachadan kelgan, uzun, chaqqon oyoqlarini oydinda ko'rsatib ketayotgan jaddada xuddi hech bir narsa yo'qday: dunyoda urush, mamlakatda tif kasalligi, zilzila, ishq ..

Menga dard tez kelib, tez o'tadi. Birpasda ufq asta-sekin qorayib borardi. Odamlar aroq ichishga o'tirgandi. Oh!.. Odatdagiday ma'sud holda aylanib yurarkanman, bir yosh qiz ko'zimga ilashib qoldi... Hali bola, qorachadan kelgan, sodda, shiringina, ajib bir hid keladi undan... Nima desam ham befoyda!.. Unga "Yosh qiz" demakdan boshqa chora yo'q. Orqasida yigitlar bor edi. Unga bir narsalar deb gap otardilar. Men xayolan, u yigitning og'zidan shunday gapirardim:

— Jonim madmuazel, marhamat qiling, kirib birga ovqatlanaylik. Balki birgalikda muzqaymoq yersiz. Sizga likopchamdagi muzqaymoq erigunga qadar termilib tursam bas! So'ngra qo'lingizni o'pib, sizni uyingizga eltib qo'yaman.

Yosh qiz uyga kech qolganday shoshardi. Orqasidagi boladay yosh odam, yoyilib ketgan sochlari, galstugini ishtaha bilan bog'lagan, tagi qalin oyoq kiyimlari bilan turkdan ko'ra ko'proq amerikalikka o'xshab ketardi. Bamisoli bu yerga film qo'yishga kelganday edi. Hatto mening o'zim ham tezlik bilan bir derazadan tushib, tabiatning ichida qolganday ochiq sahnalar o'rnatilganda ham kimsaning xabari yo'q bo'lgan holatga tushib qolgandim. Bu filmning mavzusida faqat yaxshiliklar, qahramonliklar, kichik-kichik mojarolar bor edi.

Boshqalar bir ko'chaga burildilar. Yosh odamning bir o'rtog'i haliginday yigirma-o'ttiz odim orqadan uni kuzatib kelardi. Hozir yosh qiz-la yosh odam burchak boshida turib, o'zaro suhbatlashishmoqda. Men xayolan yana suhbatimni davom ettirdim. Yosh qiz derdi:

— Hozir ketolmayman. Uyga kech qoldim. Ertaga javob so'rayman. Shu yerda uchrashamiz. Onamga aytdim. "Nima ish qi-

ladi?" — dedi. "Sartarosh", — dedim. "Yaxshi pul topadimi?" — dedi. "Ha, durustgina topadi", dedim. Oxirida: "Yaxshi!" — dedi.

Grekcha so'zlashganlarini hatto xayolimda tasavvur etdim. Eshitdim. Birozdan keyin yosh odam mamnun ravishda, o'rtog'ining yoniga qaytdi.

— Bo'ldi, tamom, ketdik!..

Yurib ketdilar.

Men ham o'zimcha xayol surib yurib ketdim.

Balki jahllari chiqqandir, balki hozir yarashib olgandirlar. Ana shuning uchun yosh odam o'rtog'iga:

— Bo'ldi, bitdi, tamom! Ko'rdingmi sevgan qizimni? Meni sehrlab qo'ygan qizga jonimni beraman. Nima, yaxshimasmi? Shu dunyoda u bilan yashamoq shunday bir lazzatliki, azizim! Qizim senga yoqdimi? — derdi.

Ular qizning yoniga borgandilar. Bu so'zlar qizning yonida aytilgan bo'lsa kerak, deb hisobladim. Xayolimda qizning uyalganini, sholg'omday qizarganini, bo'ynini egib, kichrayganini, yosh odamning qo'liga osilganini, boshini yelkasiga bir soniya bo'lsa ham qo'yganini, ichining oydinlashganini, ko'zining kulib turishini ham ko'rdim.

Bir ko'chaga burilib g'oyib bo'ldilar. Ufq qoraygandan qorayib ketdi. Men oshiq-ma'shuqlar yoqtiradigan bir yerga o'tirganimni, bir qadahni liq etib otib yuborganimni bilaman. So'ngra haddan ziyoda sarxush bo'lib qolibman. Meni bir qiz sevardi, men ham uni o'larday sevardim. Ana shunday bir oqshom paytida qo'limga tushgandi. Tepaboshining orqasidagi skameykalarga o'tirib, Holij ko'rfazini tomosha qilardik.

— Nima uchun shu vaqtga qadar buni aytmading? Birdan yomon bo'lib qoldim-ku. Sevilishga loyiq emasman.

— Yaxshi, jonim, yaxshi. Ertaga, ha, ertaning o'zidayoq, bu nurlarning ichida bizning qalblarimizning ham porlashini ko'rasiz. Bu nurlarni boshqalar ko'rgani zahotiyoq ichlarida biron shaharda bir nur yoqmoq orzusini jonlantirib qo'yajak.

Yomon shoirlashib, parishonxotir bo'lib ketdi-da. Holij, sen bir daryomisan? Tuzli suvmisan? Jonmisan, jononmisan? Sevgilimni o'par edim.

— Ertaga! Ha, ertaning o‘zidayoq.

Ertasiga bir uy qidirishga qaror berdik. Skameykadan, yolg‘iz shu niyatla oyoqqa turdim. Xayolimdagi bir sevgili ila, xayolan bir nur-la aylanib yurarkanman, Beyo‘g‘lining kichik mayxonalarida gitara chalgan bir grek o‘rtog‘imga duch keldim.

— Voy onam! — dedi. — Bormisan o‘zi shu dunyoda?

— Voy, azizim! Yaxshiginam!

Birgalikda aylanib yurarkanmiz, bir payt oqshom uchratganim yigitni ko‘rdim. G‘alati ko‘zlar, tez-tez olimlar-da, muhim bir ishning ketidan ketayotganday borardi. Yonimda o‘rtog‘im bo‘lgani uchun to‘xtatmadim. O‘rtog‘imga bolani ko‘rsatdim.

— Ha, umi? — dedim, — tanimaysanmi, omon bo‘l-e! Hamma yoqqa dong‘i ketgan-ku! Beyimizni bashang deydilar — derlar. Hozir uning qo‘lida bir grek qizi bor. Yemagin-u yonida yot! Shunaqangi jononki, do‘stim, xuddi shirmoy nonday, yeb qo‘yging keladi.

— Ja unchalikmas, qorachadan kelgan, oyoqlari kelishgan, sal kattaroq, ammo, buning unchalik ahamiyati yo‘q! Ko‘z qarashi yoqimtoy, mantosi neft rangida emasmi?

— Xuddi shunday!

— Ey, menga qara!.. Taniysanmi uni?

— Albatta, beyim. Nega tanimayin. Seni uyiga olib boraman istasang.

Sekin-sekin yurib, tepalikka chiqa boshladik. Zebo ko‘chasidan o‘tdik. Kichik qahvaxonalardan jajjigina qizlar chiqishardi. Lekin tovushlari jarangdor edi. Yosh, juda ham yosh bir yugurdak bola, tashqi ko‘rinishlari hammolga o‘xshab ketadigan, ba’zisi juda zo‘r kiyingan bir qancha bolalar ko‘chalarda aylanib yurishardi.

Biz endi pastlikka tusha boshladik. Qop-qorong‘i bir ko‘chani kesib o‘tdik. Birpas ko‘cha boshida turib qoldik. Gitarachi g‘alati bir hushtak chaldi. Insonning bu qorong‘ilik hukm surgan ko‘chaning ichida odamning ichini ezgan; bir do‘st, bir sevgili, bir o‘g‘irlik bo‘lganda insoniy chaqirgan kabi; ichni ezgan, insonni mahzun qilgan, shahvat, zavq bergan bir hushtak chaldi.

O‘n daqiqa o‘tmadi. Oqshom payti ko‘rganim, faqat “Yosh qiz” deb aytganim keldi. Men uni ko‘rishim bilanoq gitarachiga ming‘illab qo‘ydim:

— U naqd shirmoy nonning o‘zginasi-ku!

— Aytmaganmidim senga! — dedi.

So‘ngra bir narsa o‘ylaganday ko‘zini qisib, irjaygancha qo‘shib qo‘ydi:

— Axir odam o‘z o‘rtog‘ining ishini bir yoqlik qilishi darkor emasmi-a?

— Yo‘q, astag‘firullo! O‘rtoqlik...

U jiddiylashgandi. Shosha-pisha:

— Menga besh lira qarz bera olasanmi? — dedi.

Qarzni oldi-yu, ketdi.

Qiz bilan birgalikda ketdik, kichik bir uyga kirdik.

— Madam Sofiya! — deya chaqirdik.

Qiyshiq oyoqli, qorachadan kelgan bir ayol, bizni bir xonaga tiqdi. Georgiya jingalak sochli boshini yostiqqa qo‘yar-qo‘ymas, uning yuzida, ko‘zida qandaydir xayollar kechayotganini his etdim. Ertalab menga tushuntirdi:

— Kiyim-kechak tikadigan ustaxonada ishlardim. Bir onam bor. Otam uyni tashlab qochib ketgan. Keyin bilsam onam bilan o‘ynash bo‘lib yashagan ekan. Men hali o‘n yetti yoshdaman...

— Meni avvaliga bashang bir yigitga unashtirib qo‘ygandilar. Undan keyin yana boshqasiga unashtirdilar!..

Har oqshom Beyo‘g‘liga chiqaman. Bugun ham shunday qildim. Faqat bugun yonimda Georgiya o‘tirardi. Bilaman, xayolan, lekin mayli bo‘lsin!

Ahmadbey yana zerika boshladi. Bir uf tortdi.

U zamonlar Georgiya ko‘chama-ko‘cha, men mayxona-ma-mayxona, konditer magazinlarini aylanardik. U paytda Beyo‘g‘lida qanday konditer magazinlari bor edi.

QO‘RQINCHLI SHAKARPAZLIK DO‘KONI

Jazirama tush paytida ichkarida, odatda muzqaymoqlar yordamida sovutilgan havosi bo‘lgan bu shakarpazlik do‘koniga oqshom paytida advokatlar, doktor, mutaqoid, elchi, shoir, muharrir va

olifta kiyingan savdogarlar ishi bor odamlarday kirishganini ko‘rasiz. Burchak-burchakka o‘tirib olgan odamlarning bu muzqaymoqli, limonadiga yax solingan qahvaxona ichida ko‘chadan yarim yalang‘och holda o‘tgan xotinlarni, nihoyatda hayajonli yosh qizlar bilan yigitlarni tomosha qilayotgan, goh urushdan, goh qimmatchilikdan bahs yuritayotganlarini eshitish mumkin edi.

Ularning ba’zilari oq mo‘ylovli, ba’zilari soqollarini qirtishlatib olgan, dum-dumaloq soqolli, qirmizi, yarim qo‘ng‘ir sochlarining tagida hali yosh, serharakat yuzlari, ba’zilarining hali oqarmagan sochlari tagida burushgan yuzlari bor, ko‘p kunlar ko‘rgan, ko‘p kechalar o‘tkazgan insonlar!..

Yuqorida aytib o‘tilgan odamlarni shundaygina ko‘rsatib turgan, oynavand qilib ishlangan, bu katta shakarpazlik do‘konida, bir lahzada ham fohisha topilmaydigan shu soatlarda, har birining hayoti bir hikoya bo‘ladigan bu yarim mutaqoid insonlar-la to‘lgan vaqtda, bir burchakka o‘tirib, kalimalardan tortib Konstitutsiyalarga, istibdodlarga qadar fikr yuritish mumkin. Oqshom soat to‘qqizlarga borib ancha bo‘shab qolgan bu shakarpazlik do‘konida, kimligi noaniq bo‘lgan bir qancha odam qoldi. Menga shunday tuyuladiki, go‘yo vaqti-soati belgilab qo‘yilgan bir uchrashuvga u kun jonlari shu ishni istamaganday bo‘lib ketganlar-u, bu uchrashuvning qiymatini keyinroq tushunib yetganlar-da, yillar o‘tgach, uchrashishga va’da berganliklarini eslab: “Shunchaki bir borib qaray, balki uni yana ayni shu yerda uchratarman”, degan kabi o‘tirgan, o‘sha ayolni mahzun kutayotgan insonlardir.

Birozdan so‘ng yana to‘qqiz bilan o‘n orasida shovqin-suron bilan bir guruh yoshlar o‘zaro chaqchaqlashib kirib kelishdi, yonlarida qora yaltiroq sochli bir ayol ham bor edi, chamasi, ular bu yerga bir necha daqiqaga yig‘ilgandilar. Ularni qahvaxona sohibi hech yoqtirmasdi. Ular qahva ichmasdan: “Biroz keyinroq...” deyishardi. Biroz keyin esa hammalari ketib qolishardi. Soat o‘n bir ham bo‘ldi.

Shu paytda shakarpazlik do‘konidan yarim soatcha ketmoq lozim. Yarim soatdan so‘ng aylanib kelsangiz bormi, manzara butunlay boshqacha bo‘ladi. Yuzlarcha shamchiroqlarning ko‘zni qamashtirguday yaraqlagan muz g‘ildiraklarining, olovday yashnab

turgan qirmizi duxobali stullarning, kattakon oynalarning, shirinliklar solingan bejirim qutilarning orasida, xotin-erkak aralash buyuk bir olomon paydo bo‘lib qolardi. Endi bir stolga o‘tirib atrof-tevarakdan kelayotgan gaplarni tinglay olasiz. Qo‘rqinchli bir g‘ovur-g‘uvur borligini sezasiz. O‘zingizga yaqin bo‘lgan stoldagi gap-so‘zlarni tinglab, o‘rningizdan turib, boshqa stolga o‘tasiz. Hamma o‘zi bilan o‘zi ovora. Vaqir-vuqurlashib o‘tirishibdi.

Mana, bir stol, unda ikki erkak bilan ikki go‘zal xotin... Bir-birlariga baqirishib so‘zlashayotganliklarini eshitasiz:

— Tepa ustiga borasiz, jonim. Biroz isrofgarchiligi bor-u, lekin ham tinch, ham u yerda musiqa bor.

Diyorbakirlik[1] erkak:

— Bizga nega jahl qiladi bu? — dedi.

— Jonginam, sen ham shunga qiynalyapsanmi?

— Yo‘q, o‘zim uchun emas! — deya yonidagi opasini ko‘rsatib, xotinning qulog‘iga odatdagidek baqira boshladi. — Ammo bu yangi. Birinchi oqshomdan bu qadar pul xarj etmaydi-da. So‘ngra qo‘rqib, qochib qoladi. Bizlarga ahamiyat berma, bizlar o‘rganib qolganmiz. Men to‘rt kundan beri shu yerdaman. Yana bir besh yuzlikni bugun maydalatdim. Sen bilan ikkalamizga yetadi u!

— Malohatga ustidagi yomg‘irpo‘shni olganmiding?

— Senga ham olamiz, jigarim!

— Menga bu oqshom nima bermoqchisiz?

— Qo‘ysang-chi, shu pul haqida gapirishni, jonginam!

— Nega qo‘yarkanman, jonim. Men yigirma beshdan kamiga bermayman, ha!

— Yo‘-o‘-q. Uncha berolmayman. O‘n besh yetar.

— O‘n beshga shu yerdan bir qadam ham nariga bormayman. Mana shu qarshimdagi olifta ham shuncha berdi, ammo bormadim.

— O‘ziyam juda nozi baland ekansan-da! Yaxshi, yaxshi! Mayli, aytganing bo‘lsin. Tur, ketdik!

— Dugonam ham o‘shancha oladi, bilib qo‘y, ha! Keyin janjallashib yurmayin-a...

— Yaxshi dedik-ku, axir!

---

[1] **Diyorbakir** — viloyat, Tigr (Dajla) daryosi atrofida joylashgan.

— Pullarni oldindan berasizlar!

— Jinni bo'libsan! Shunchalik ham bo'ladimi?! O'lganlaring yaxshi.

— O'zingiz bilasiz!

Xotinlar stoldan turib ketarkanlar, orqalaridan Diyorbakirlikning baqirganini butun qandolatxona eshitdi:

— Yegan somsalaringni ham bizga to'lattirmoqchimisizlar?! Uning tovushi qandolatxona shovqin-suronini kesdi.

Odamlar kulishdi. Ayol zaharxandalik bilan kulib:

— Bular ham erkak emish! — dedi.

Sal avval milaslik[1] ekanini aytgan, galstugi qiyshayib ketgan bir odam bilan o'rtog'i — Gumuljuna muhojiri va adapazarlik manufaktura savdogari ikki ayolga imo qilishardi. Ayollar stolga yaqinlashdilar. Ulardan biri:

— Avvalo ikki muzqaymoq. Kelisholmasak pulini sizlar to'laysizlar, bilib qo'yinglar! Bilmadik demaysizlar.

— Shundaqasi ham bo'ladimi? Bizlar unaqa odamlar emasmiz! Bosh ustiga, jonim!

— ...

— ...

— Taksi tashqarida tayyor turibdi, qani, ketdik!

Chiqib ketishadi.

To'rt kishi shakarpazlik do'konidan chiqib ketdi. Shu payt haligilar chiqayotganda boshqa bir guruh ichkariga bir-birlarini itarishib kirib keldilar.

Bir stolda bir g'ilay ayol, ikki xunuk dugonasi ila o'tirardi. Yonlarida juda yosh, juda go'zal bir qiz... Qizni hech kimga bermasdilar. O'zaro hazillashayotganday bo'lib, turtib turardilar. Bashang kiyingan bir olifta yigit ichkariga kirdi. Biron universitetda o'qisa kerak. Yosh qizga imo qildi. Qiz mamnun bo'ldi. Ammo yonidagilar bunga e'tiroz bildirdilar!

— Unga ishing bo'lmasin! Ro'yxush bera ko'rma!

Qiyofasida og'ir kechalarning nuqsi urib turgan tishlari chirik, dahshatli ko'zlariga qon quyilgan bir odam ichkariga kirdi. To'rt ayol ichidagi haligi g'ilayi:

[1] **Milas** — Mug'la viloyatining bir rayoni

— Mana, buni hojiog‘a desa bo‘ladi. Yurish-turishidan sho‘xligi ko‘rinib turibdi! — dedi va yuzi shishgan odam o‘tib borarkan, qo‘li bilan uning yo‘lini to‘sdi.

— Yiqitib yuboray dedingiz-ku bizni, opa!

— Sen shunday osongina yiqilib qolarmiding, yigit!

— E, qo‘y bunaqangi hunarlaringni! Yigitlik qoldimi bizda?

— Hali yigirma yoshlilardan o‘lsang o‘liging ortiq! O‘tirsang-chi, hamshaharim!..

— O‘tirsam o‘tira qola-yu, ammo bizning bir hamshahar bor edi shu yerlarda.

Atrofiga diqqat bilan qarab chiqdi:

— Ko‘rinmaydi!..

— U allaqachon ketgan bo‘lishi kerak. Biz ham ketaylik! Qani! Balki u ham biz boradigan joyga ketgandir.

— Orasi qancha, uzoqmi?

— Eshik oldida taksi to‘lib yotibdi, hamshahar! Yaxshi bo‘lsa bas! Hozirgi zamonda uzoq-yaqin qoldimi?

Beva odam yosh qizga ko‘zlarini tikib qoldi:

— Bu ham boradimi?

— Borsa boravermaydimi!

— Endi cholga aylandikmi? Hali ko‘zlarimiz bir narsani tanlay oladi, opa!

— Turamizmi?

— Birpas to‘xtanglar! Bitta qahva ichib olay... Ho‘, xo‘jayin, buyuring, bir qahva tayyorlasinlar.

— Xo‘p, bir og‘iz so‘zingiz... Ismoilbeyim. Ammo biroz kutadilar-da, maylimi?

* * *

Eshikda avtomobillar kutib turardi. Dim Istanbul kechasini sal bo‘lsa-da shamollatgan avtomobillarning ichida xotinlar, hojiog‘alar Majidiya qishlog‘idagi kazinolarga ketardilar. U yerda tun bo‘yi ichadilar.

Men ham bilaman u yerlarni... Yaqinda bir kechani men ham o‘sha yerda o‘tkazgan edim. To‘rtburchak bir salon... Taxta stollar, taxta stullar. Uch tomoni oynavand vitrinalar. Devorda

katta-katta lavhalar... Bittasida Afrika daryolaridan biri aks ettirilgan. Daryoda bir qayiq, timsohga o't ochayotgan shapkali koloniyachi ovrupolik bir ta'viya tasvirlangan... Anavi kichkina xonadagi divan kishiga hazinlik beradi... Bu xonaning eshigi ustida bir maydon, bir Istanbul chashmasi, bir fayton, bir farajali[1], qirmizi shamsiyali xotin, uning naryog'ida karkidonning oyoqlari tagiga tiz cho'kkan habash, opqa oyoqlariga tik turgan otning ustida yana bir mustamlakachi... Bu rasmlarni chizgan odam har holda rus rassomi bo'lsa kerak... Yam-yashil daraxtlar...

Devorda bir soat osig'liq turibdi... Soat roppa-rosa uchda to'xtab qolgan... Balki, ayni shu soatda kimdir bir yosh qizning nomusini, sevmak hissini zabt etgandir.

— Sog'ligingda shunday nąrsa ichganmisan?

Leon sozini olib keldi. Ko'ksining junlari, yuzining shakli, daydilik bilan kechgan yoshlikdan bahs etardi. Qo'ng'ir tusli kiyim-bosh kiygan, uyatchan, birovni ko'rsa qochadigan, oyoqlarida zamshdan tikilgan boshmoq, sochini diqqat bilan taragan bir shofyor... shampan ichardi. Cho'tir yuzli garson, og'zining o'ng tomoni shishgan, xuddi har oqshom kimdir uning basharasiga musht tushiradiganday bir ta'viya edi.

Yuqoridagi so'z unga aytilayotgan edi:

— Sog'ligingda shunday narsa ichganmisan?

Leonning qo'lidagi soz uning barmoqlarini biroz bekitgan edi. Sozda "Zaynal obid" degan yozuv bor edi...

O'tgan urushdan qolgan ellik yoshlar chamasi bir odam baqirardi:

— Imonim suv osti kemasida, bizda nima qiladi torpeda?

— Juda aynadi, vijillab ketdi! — dedi kimdir.

Shofyor yana bitta sigaret tutatdi. Chetdagi bir oshxona hozir eshigi ochilganda ko'zimga tashlandi.

— Bu xotin seniki emasmi, Leon?

Leon jiddiylashib:

— Ha! — dedi.

Leonning xotini, Leonning nomusidan ham buyukdir. Go'zal, yosh, shirintoy, faqat nomusli... Unda shunday holat bor: go'yo

[1] **Faraja** — xotinlarning ustki kiyimi.

dushman uning shahriga bostirib kirganday... Eri o'ldirilgan, uning ham nomusiga tegilganday... U eng go'zal dushman ofitseriga ham endi dushmanlik-la emas, xo'mrayib boqmoqda. Bamisoli bir erkak yopishganday holat bor unda.

Ertalab, oynavand devorlarining uch tomoni birdan yorishib ketadi. Majidiya qishlog'ida tong otdi. Bosfor qishloqlaridan shaharga qaytayotgan xotinlar, o'zga mahallaliklar o'tmoqda. Nafis bir tong otmoqda...

* * *

Charchagandim. Qaradim, xaridor topolmagan xunuk xotinlar bilan tajribadan o'tkazilgan xotinlar ko'chalarga tarqalib ketmoqdalar. Qandolatxona eshigining oldi tiqilinch. Kambag'al komissionerlarga uy topib berganliklari uchun pul beradigan muddati tugagan bir odam ko'chaning o'rtasida hayqirardi:

— Ey, to'nka! Agar kecha kechqurungiday taxta biti bor xonada yotadigan bo'lsam bormayman. Yaxshi uy istayman, uy!

Pullarni o'ng hovuchiga siqib olgan bir odam haydirmoqda:

— Bularga pul desa bo'ladi, ha pul. Pulim bilan men razil bo'ldim.

Sevgilim, meni afv et! Juda yosh, yoqimtoy yuzli bir xotinni men ham uyimga keltirdim. Choy damladik, ichdik. Ertalab soat to'rtga qadar bir-birimizga hikoyalar aytishdik. Men unga sen haqingda gapirib berdim: "Voz kech", dedi, "Voz kech, yaxshilik yo'q undan senga!". U ham menga o'z hayotidan gapirib berdi. Juda hazin hikoya!

Mening pijamalarimni kiyib oldi. Unga uzun keldi. Yuzini shundoqqina sovuq suv bilan yuvdi. Surgan bo'yoqlari yuvilib ketdi. Mening moviy nurli xonamda bu qora sochli, qorachadan kelgan ayolni odatdagiday sevdim.. Yana choy damlab ichdik.

Tong otdi. Xayrlashdik. Xayrlashar ekanmiz, shunday bir-birimizga boqishdikki, pulini keyin beradigan bo'lsaydim hozir pul uzatishdan uyalardim. U ham balki olishdan uyalar edi.

— Qachon istasang, qandolatxonaga kel, — dedi, — kim bo'lsa bo'lsin, qolib keta beradi, sen bilan ketaman. Bab-baravar kelib qolsangiz, o'zaro kelishib choy ichasiz, suhbatlashasiz!

— Rostmi?

— Rost.

Bir hafta o‘tmadi hamki, u bilan yana suhbatlashmoq uchun katta pijamalarni kiyib, sovuq suv bilan yuvingan bola kabi yuzini ko‘rishni istadim, yolg‘izligimdan, dunyoning holidan, sening qilgan ishlaringdan bahs etmoq uchun, yana uni qidirdim. Soat o‘n ikkidan oshgandi. U qandolatxona yo‘q. Kelib qolar, degan umidda kutdim. Keldi. Oldimdan o‘tdi. Meni ko‘rmadi shekilli, deb o‘yladim. Orqasida avval aytib o‘tganimiz yuzi shishgan odam bor edi. Qizning ko‘ziga ko‘rinish niyatida oyoqqa turdim. Yonidan o‘tdim. Bamisoli men, men emas edim. Bamisoli u, u emas edi! Yuzimga loaqal bir marta ham boqmadi. Yaqin atrofdagi bir stolga mahzun bo‘lib o‘tirdim. Kim biladi, keyin birdan mening mahzun o‘tirishimni sezib xafa bo‘ldimi, nima uchundir menga yaqinlashib:

— Bir hojiog‘a bor yonimda, — dedi, — bu oqshom meni ma’zur ko‘r!

Holbuki men, o‘z-o‘zimga ko‘pdan beri choy hozirlab, pijamalarimni unga kiydirib, yuzini yuvib, sendan bahs etmoqda edim hatto...

Sevgilimga jahlim chiqib ketdi. Uning hidiga to‘ymoq uchun mahallasidan ayrilmasdim. Aylanib yurardim. Odamlar meni ko‘rib kulardi. Butun dunyo savdoyiligimni ko‘rib turardi. Kulgi bo‘lgandim millatimga. Oqshomlari bu qo‘rqinchli shakarpazlik do‘koniga tushardim. U yerga olifta kiyingan xarachchilar, xotin topgan pul bilan kun kechiradigan yoqimtoy bolalar, o‘zlaridan juda yosh bo‘lgan yigitlarga oshiqi beqaror bechora fohishalar, qoradori yeydigan bangilar, boylar, hatto ko‘ylagi ham bo‘lmagan bashang yoshlar, rassomlar, shoirlar, faqat bir oqshom durustroq xotin bilan aysh-ishrat qilish orzusida bo‘lgan odamlar kelishardi. Oqshomlari shunday kechar, kunduz bo‘lar-bo‘lmas Georgiyaning mahallasiga yugurardim. Endi u mahallaning odamlari ham meni qiziqtirmasdi.

Uni qanchalik sevsam, sevgilimning mahallasini, o‘rtoqlarini shunchalik sevardim. Gaplashmasam ham, sevgilim bilan bir havodan nafas olsam mayli, degan umid daryosida suzib yurardim.

Go'yo har kimda undan nimadir borday edi. Shunday qilib, Yelena ila Katinani ham o'shanda tanidim.

YELENA VA KATINA

Bu yigit o'ynoqi qora ko'zli, og'ir gavdali, shirinlik ko'p yeganidan tishlari chirigan bo'lsa ham ancha yoqimtoy edi. O'n ikki yoshida uylarining orqasidagi axlatxonada arqon sakrab o'ynarkan, bu o'n to'qqiz yoshli yigit ayni zamonda qo'rqinchli bir nomzodlikning qora xabarini so'ylardi. Faqat Katina, na yoqimtoyligi, na-da xabarchining nomzod qilib ko'rsatgan ma'nosiga ahamiyat berajak inson emas. Katina bo'shashgan, sokin, qariyb o'z ustida tajriba o'tkazayotgan bir holdadir. Katina bilan birga ketarkanman, ichimda shunday bir parda bilan to'sib qo'yilgan sassizlik, sezilar-sezilmas rohatbaxsh huzur kirardi, u qadah ketidan qadah to'ldirib aroq icharkan, dunyoga nisbatan loqayd bir hol undan menga ham o'tardi.

Hech bir narsa bizni bog'lamasdi. Har narsadan qo'limizni, oyog'imizni torta bilardik. So'ngra to'satdan Katinaning jajjigina, o'ynoqi ko'zlariga shahvat sobit bo'lardi. Shunday qilib Katinani mana shu boqishi uchun sevardim. Birozdan keyin ko'zlarini o'ynatib insonning ko'zlariga sirachga o'xshab yopishib olardi. O'sha payt insonda mudhish bir orzu tug'ilardi; hatto Katina ham shunday bir orzuni his etardi. Yo'q, Katina uchun bu bir orzu emasdi. Bu faqat, aytaylik, loqaydlikning, dunyodan uzoqlashishning har hodisani tabiiy ko'rishning senga ham yuqishini oldindan bilgan Katinani dunyosiga kirgan bir boshqacha xaridorning sevinchi edi. Har narsa bo'lishi ham, bo'lmasligi ham mumkin. Yaqin-atrofda yong'in bo'lsa, atrofda birov pichoqlansa. Katina muvoziy bo'lgan dunyoda hech bir tashvish tortmaslik shubhasiga tushardim.

Baxt-saodatni u bilan birga totganim zamonlarda yong'in ham qotillik ham sodir bo'lmadi. Katinaning liboslaridan insonni bola kabi sevintirgan pishiriq hidi kelib turardi. Chunki Katina, qan-

dolatxonada ishlardi. Vanilin, shokolad, hatto ozroq bodom, kokos yong'og'i, pista, issiq holva hidi anqiganini his etardim.

Katina semiz emas, ammo semiz kabi ko'rinardi. Gavdasi o'ziga juda yarashardi. Katinaning qo'llari hamisha issiq, namli bo'lardi. Qiziq-qiziq gaplar to'qir, hatto ba'zan yasanishni istab qolardi. Ustiga mos tushib-tushmaganligining farqiga bormagani uchun yasanganining ertasiga, yana u holva hidli to'q bargikaram bluzkasi bilan vanilin hidi anqigan qo'ng'ir tusli yubkasini kiyardi.

Uni qandolatxonaning pecheniyelar pishiradigan xonachasidagi kichik derazasida, boshida oppoq kapyushon, ustida, kir bo'lib ketgan oppoq fartugini ko'chadan ko'rganim zamon, barmoqlarim bilan ishora qilib, "soat sakkizda" derdim. Inglizchalab "yes" deganiga qiziqardim, har vaqt so'rayman derdim-u, so'ramasdim.

Katina bilan men tanishtirgan sevgilimdan bahs yuritardik. Birgalikda chiqqanimiz oqshom, hatto ba'zan birgalikda tunaganimiz paytda ham... Katina bir kun ham men boshlagan bahsdan jahli chiqmadi. Baxti qora sevgilimni qalbsiz deya qarg'adi.

Ishning eng g'alatisi Katinaning muhabbati edi. Har oqshom men bilan yoxud boshqa bir odam-la, ba'zan xo'jayini ila uchrashishga qarshi bo'lishiga qaramay, Katina, bizning uchovimizga ham emas, bir yosh qizga oshiq edi; Katinaning ko'zlariga bu chin, og'ir, biroz sehrli ma'noning nimadan zuvala topganini yangilikni o'rganar-o'rganmas angladim.

Menda g'alati bir o'zgarish sodir bo'ldi. Katinani dam-badam qidiradigan, so'raydigan va nihoyat topadigan bo'ldim. Uning bu odatidan hech bahs yuritmasdik. Faqat men uni hozir boshqa bir holda ko'rardim. Uning xarakterini ko'zlariga qaraboq bilish mumkinligiga hayron qolardim.

Bir oqshom, Yangi shahar mayxonalarining oldida unga sevgilisi ila ketayotganda duch kelib qoldim. Katina meni ko'rishi bilan xuddi erkak kabi kulimsiradi. Qo'limni siqib ko'rishdi. Ko'zlaridan quyuq, yelimsimon narsa oqib ketgandi. Dardsiz, qayg'usiz, dunyo ila og'aynichalish bo'lganday edi.

U semiz bo'lmagani holda ilgarigidek semizdek ko'rinishi ko'zga tashlanmasdi. Bu bir boshqa, jonli ma'noni ifodalaydigan inson edi.

O‘z ustidami yoki yonidagi qizdan o‘tganmi, qandaydir upa hidi bor edi. Anavi yosh qiz, Yelena, ohu kabi hurkovich, latif edi. Yonog‘ining terisi rangsiz bo‘lsa-da, ammo unda qandaydir bir latif ol rang bor edi. Mendan mas’ud ayrilisharkan, orqalaridan boqdim. Katinaning do‘sti nozik, uzun oyoqlari bilan Katinaning biroz yo‘g‘onroq, paypoqsiz oppoq oyoqlari kulmakka, yig‘lamakka, faqirlikdan va safolatdan uzoq, pok bir dunyoga to‘g‘ri olib qochadiganday tuyulardi.

Bilmayman, Katinaga nimayam bo‘ldi-yu, to‘satdan unda boshqacha semirish boshlandi. Bu semirishni u xo‘jayiniga to‘nkadi. Xo‘jayini do‘stlaridan bo‘lgan, farzand ko‘rmaydigan bir oilaga bolani berdi. Katina tuqqanidan keyin ko‘p ozib ketdi. Shu qadar ozib ketdiki, oyoqlari xuddi yog‘ochga o‘xshab qoldi.

Katinaning uch erkak o‘ynashidan ikkitasiga farzand ko‘rish orzusi uyg‘ondi, ammo niyatlariga yetolmadilar. Katinaga har uch o‘ynashi ham go‘zal bluzkalar, yubkalar, mantolar, qalbaki braslet-lar, jo‘n oyoq kiyimlar olib berdilar. Katina esa boshiga qirmizi lenta bog‘ladi, tirnoqlarini manikyur qildirdi. U endi yigirma yoshga kirgandi. Unda g‘alati bir o‘zgarish ro‘y berdi. Dunyoni his etmagan Katina bir qancha narsalarni his etdi. Sevgilisi uni alday boshladi. Har narsani o‘z holiga tashlab qo‘ydi, keyin hamma narsani butunlay tark etdi. Nihoyat, Katina ikki oyning ichida sil bo‘lib o‘ldi.

Vangelista cherkovining qo‘ng‘iroqlari uning uchun besh daqiqadan ortiq jaranglamadi. Sevgilisi ham, xo‘jayini ham, men ham besh daqiqadan ziyod bir g‘am chekmasdan, Katinani ko‘chalarda endi hecham ko‘rmaydigan bo‘ldik. Folchi madmuazel Todori ham o‘sha mahalladagi men sevgan insonlardan edi.

FOLCHI MADMUAZEL TODORI

Karta bilan fol ochadigan madmuazel Todorining shakldor qilib ishlangan oynali xonasida menga hech g‘alati tuyulmagan kosmopolit ashyolar orasida bir donasi borki, menga o‘sha juda yoqadi. Menga g‘alati tuyulmagan deyapman-ku, ammo bu ashyolarni umrimda na bir xotinning xonasida, na-da do‘stlarimdan birining uyi-

da ko‘rgan emasman. Nima sababdan menga g‘alati tuyulmaganini o‘zimcha shunday tushunaman: men bu ashyolarni yo bir romanning ichida o‘qidim, — qandaydir bir fransuz romanining ichida degim kelayotir, — yoxud bo‘lmasam, pasxa[1] oqshomi, greklar mahallasidan o‘tayotganimda ko‘rganim keksa bir Lövanten[2] madmuazelining ajoyib qiyofasidan, uyini va xonasini ko‘rib, o‘ylarga berilgan zamon xayol etdim.

U, yo bir roman sahifasidan olingan, yoxud qartayib qolgan bir qizning orqasidan xayol etilgan ashyolar orasida bir donasi, juda ko‘nglimga yoqib ketgani, degandim. Bu bir devor gilamidir. Men devor gilami deyman-u, ammo bularning har holda bir ismi bo‘lsa kerak... Bilolmayman-u to‘rtburchak shaklda ikki parchadan iborat, xuddi duxobaga o‘xshab turgan,.kattaligi yostiqday keladigan ikki bo‘lak gilamchalar edi. Har ikkisida ham soqolli odamning rasmi bor edi. Rasmlarning tagida Dreyfus degan ismni o‘qish mumkin edi.

Biroz nariroqda, ming uch yuz o‘n to‘rt rumiy tarixda Beyo‘g‘lida fransuz elchixonasida berilgan bir bal-maskaradning ikki xotirasini o‘zida aks ettirgan ranglari o‘chgan, faqat hanuzgacha u kechaning, o‘n yettiga kirgan latif grek qizining xayolotida muhofaza etilgan zavqni, kayfni, go‘zal xotira sifatida saqlab kelayotgan oynaning namxush bug‘langan, moviy yuzidan odamga qarab turardi.

Oynaning ustida madmuazel Todorining 1314-yildan biroz keyin tushgan latif bir fotosurati ham bo‘lib, u qaysidir xonzodaning judayam qiynalayotganini so‘ylayotganday, buralib turgan, jonli, maqsadga yetgan shahvatdan juda safolatga mukkasidan ketgan dudoqlari ila insonni yana bir buzg‘unchilik kechasining rashkli janjaliga majburan tortayotganday tuyulardi. Madmuazel Todori:

— Men shunday edim! — derdi-da, boshqa hech narsa demasdi.

Zotan so‘ylayajak boshqa bir narsa ham yo‘qdir. Anglatajak bir qancha narsalari bordir, ammo so‘ylanadigan faqat: “Men shunday edim!” degan so‘zi qolgandi. Uning shunday bo‘lishiga inonmoq

---

[1] **Pasxa** — diniy bayram.

[2] **Lövanten** — O‘rtayer dengizi atrofida joylashgan Yaqin Sharq mamlakatlarida istiqomat qiluvchi xalqlar.

uchun, faqat o‘z fotosurati emas, bu Dreyfus rasmlariga boqqan bir boshqa devor gilami bunga shohiddir.

Maska kiygan bir elchi ham:

— To‘g‘ri, shunday edi! — der.

Undan boshqa, karavot, yostiqlar, torgina xonalar jim turardilar. Madmuazel Aspasiyani nima uchun madmuazel Todori deganlariga hech aqlim yetmaydi. Oxirgi o‘ynashining ismi Todori edi, balki shuning uchundir, kim biladi?..

Men madmuazel Todorinikiga fol ochtirish uchun emas, xonasining bu bir eski zamon kurtizanligining hidi anqigan havosi uchun borardim. Fol ochishdan avval derazadan atrofni bir olazarak qarab chiqar, so‘ngra sodir bo‘ladigan san’atdan boshqa narsani olmaganini, to‘rt lirani, pul to‘laydigan muddat kelmasdan burun oyning boshlaridayoq qanday berganini tushuntirardi-da, jim qolardi. Gohida uy egasidan shikoyat qilardi. Tomdan tarasha tushganday birdan ovozini ko‘tarib: “Chiq uyimdan”, deganday baqirib gapirardi. Chiqib ketishni istardi, ammo qayerga ham boradi?

Mana, o‘n besh yilki, shu xonada o‘tiradi. Roppa-rosa o‘n besh yil... Shunday bir yomg‘irli kunda boshqa yerga ko‘chdi.

Todoridan ayrilgandan keyin to‘g‘ri shu yerga ko‘chib kelgandi. Talloq Husayn degan bir daydi odam qarshi xonada turardi. U zamon Aspasiya ellik yoshda edi. Husayn esa, yigirma beshda... Talloq Husayn, ba’zan sarxush bo‘lar, eshikka suyanar, eshik ilgaklari chiqib ketar, g‘ichir-g‘ichir qiladigan karavotga kelib o‘zini tashlar, madmuazel Todorining yoniga uzanib yotib olardi. Madmuazel Todori miq etmasdi.

Talloq Husayn yig‘lardi. Ertalabgacha yig‘lab chiqardi. Tog‘oraning ichiga qo‘rqinchli, muz kabi, tiniq suv tushardi. Uni ko‘rib titrab ketardi. Oynadan, moviy, xira oynadan, qora mo‘ylovli, chiroyli bir yigit xayolidan o‘tganday bo‘lar edi.

Maskaning yonidan bir fransuz grafining: “Adieu cherie. Je t‘ecrirais je reviendrais pour t‘emmener a Paris”[1] deb aytgan so‘zni eshitganday bo‘lardik.

---

[1] “Xayr, azizim. Senga xat yozib turaman va seni Parijga olib ketish uchun yana qaytib kelaman”.

Yangi shaharning kalla-pochalar pishirib sotadigan mayxonasidan ko‘chaga ahmoqona, bo‘lmag‘ur xayollar tarqalardi. Mushuklar, ko‘ppaklar, yomg‘ir, loygarchilik, o‘pilayotgan yoshgina qizlar ko‘cha chirog‘ining oydinligidan to‘satdan qop-qorong‘i zimiston ko‘chaga tortilib ketilardi.

Bir odam uzoqda, ko‘p joyidan pichoqlangan holda yotardi. Yomg‘irda ho‘l bo‘lgan xotinning to‘lqin-to‘lqin sariq sochlari, menga qorong‘i, manqalli, katta jomashovli, mis qumg‘oni bor karavotdan iborat bir xonani eslatardi. Madmuazel Todoriga fol ochtirmasdan ko‘chani sayr qila boshlardim. Unga qarata: “Fransuz grafi, mo‘ylovlari oppoq, qop-qora yomg‘irpo‘shidan yomg‘ir tomchilari toma-toma kelmoqda”, deb baqirishni istardim.

U takror yig‘lay boshlardi.

— Chiqarolmaydi meni, meni uydan haydab chiqarolmaydi, to‘g‘rimi? — derdi.

— Seni bu yerdan hech kim haydayolmaydi. Qonun bor, madmuazel, qo‘rqma! — derdim.

Folini ochishda davom etarkan, javob bermadi:

— Hozirchalik nikoh ko‘rinmayapti, ammo seni juda sevadi bu qiz. Uning bir onasi bor, yomon xotin! Seni hech yoqtirmaydi. Pulini olsin deb qarab turadi. Ammo qiz seni ham sevadi, ham sevmaydi, qanday ish bu? Bunisini hech tushunolmayapman. Bir boshqa yigit ko‘rinayotir. Kelishgan, yosh bir grek yigiti... Ammo yaxshi odam emas bu... Qiz undan qo‘rqadi. Bu hafta to‘shak solinmaydi. Qizim Georgiya, sen sevasanmi bu bey afandini yoki sevmaysanmi?

— Tamom shu yerda kesildi beyafandi!

So‘ngra bir narsani eslab qolardi:

— Meni bu yerda hech kim haydab chiqarolmaydi degan emasmiding?

— Tabiiy, hech kimsa haydab chiqarmas!

Haqiqatan ham uy egasi, ko‘p urinishiga qaramasdan, uni xonadan chiqara olmadi. Faqat kunning yarmida Vangelista ibodatxonasining jomi besh daqiqa davomida kimningdir o‘lganligidan xabar berdi. Aleksandraning dunyoning eng yaxshi ko‘ppaklaridan hisoblangan Flora ismli iti ancha vaqtgacha ulidi.

Keksa bir grek ayoli bir xoch chiqardi.

— Faqir kishiga jom oz chalinadi, o‘lgan kimsa muhaqqaq ko‘p faqir!.. — dedi.

Folchi madmuazel Todori olamdan o‘tgandi.

* * *

U ko‘ppak yoniga yaqinlashdi. Jonivorning boshini siypab turib, unga tushuntirayotganday gapirdi:

— Kitoblardan o‘rgandim. Muhaqqaq oshiq bo‘lmoq orzusini kitoblardan topdim. So‘ngra qanoat hosil qildim. Oshiq bo‘lib qolgan edim. Saodat deb tanilgan bir narsa bo‘lajak; topa olasanmi, ajabo? Maqsadim pul bilan, bir uy bilan, yaxshi yeb, yaxshi ichmoqlik ila o‘zini ko‘rsatadigan bir saodat bo‘lmagani uchun qo‘limdan kelgani shu bo‘ldi, ya’ni avvaliga pulimni tamom qildim. Uyimni, o‘rgangan narsalarni ham balki orqada tashlab ketarmidim. Yemoqlikdan, ichmoqlikdan ancha kesildim. Bu o‘z holicha qozonmoqchi bo‘lgan saodat idealizmini tom ma’noda haqiqat holiga keltirib qo‘ygan edimki, atrofimda insonlarning hozir bo‘lishini sevgilim menga anglatdi. Men ham shunday tushundim, deysizmi? Har inson o‘z hissasiga tushgan qismati uchun g‘avg‘o ko‘tarishga qodirdir... “Hech bo‘lmasa, bu g‘avg‘oni shunday amalga oshirmoq lozimki, asl haqiqat dunyosini topsin. Bu g‘avg‘odan zotan foyda yo‘q. Balki o‘rtada g‘olib bordir, ammo, mag‘lub bo‘lgan yo‘qdirki... Xotin ham, erkak ham shunday, bir janjalning oxirida nafasi yo nikoh doirasida bo‘lar, yoxud mutlaqo ozod bir birlashma ila yangi hayotga odim otarlar. Undan so‘ngra uzun muddatga tuzilgan sulhning ichida bolalarga maktablarining chiqimi, xonimining mantosi degan narsalar bo‘ladi... Shunday qilib, biz mag‘lub bo‘ldik. Maktab chiqimidan, xonimning mantosidan qutuldik. Sevgilim bir oqshom payti sekin ketib qoldi.

Oxir zamon bo‘ldi, deb hisobladim. Chechaklar go‘zal hidlar taratmay qoldi. Mevalar chiriy boshladi, qo‘ylar qo‘zilamaydigan bo‘ldi, insonlar suhbatlashmaydigan... Insonlardan qanday farqim bor? Ma’lum sabablar, ma’lum natijalar: ishni aroqqa tashladik. Biroz muddat bu yangi kashfiyotimla, o‘zimni hamma narsadan qutulgan deb hisobladim. Yiqilish arafasida edim. Asabim buzilgandi.

Gapning qisqasi, oyoqqa turdik. Ber qo‘lingni, kindik qonimiz to‘kilgan mamlakat, dedik. Ketdik. Bu orada sevgilimga jo‘natma-

ganim ikki maktubni yozdim. Bularni sizga beraman, uyda o'qiysiz. Innaykeyin, ular sizda qola qolsin.

* * *

Maktublarni olib uyga jo'nadim. Vaqt kech bo'lib qolgan edi. Ertalab o'rnimdan turar-turmas o'qidim. Menga bir narsalar o'rgatar deb o'ylagandim. Holbuki bunday narsa yo'q edi. Faqat bir narsaga hayron bo'ldim. Sevgilisiga doir lom-mim demasdi, nihoyat. Yolg'iz dunyo ila, o'zi ila, yozuvi ila aloqador edi. Bu yozuvlar boshqa yozuvlariga ham o'xshamasdi. Ancha yaxshi, ancha yomon bo'lganliklari uchun emas. Qariyb uyqudan uyg'onmish kabi hollari bor edi. Ularni sizga yozsammikan, yozmasammikan, bilmadim... Mayli, yoza qolay, bundan hech narsa yo'qotmayman-ku!

BIRINCHI MAKTUB

Bir daqiqa avval qo'limda qog'oz, qalam yo'q edi-yu, lekin sen bilan suhbatlashgan, senga xat yozgandim. Qo'limda qog'oz, qalam bo'lmasa ham, xat yozganimni aytganim holda sen qarshimda emasligingni so'ylamadi. Buni sen bir shoir yoxud telba kishining kallasidan chiqqan qiliq deb hisobla! Sen qarshimda eding. Buni so'ylamak yaxshi narsa emas, ammo chamamda samimiy. Ko'plar, men kabilar sevgililarining qarshisida o'tirganday kabi bo'ladilar, to'dadan ayrilib qolmaymanmi?

Hozirgina sensiz, qalam, qog'ozsiz, o'tirib sen bilan ba'zi narsalar haqida suhbatlashdim, yozdim. Bu yozganlarimning, suhbatlarimning ko'pini o'zimcha yaxshi deb hisoblaganligimdan o'rnimdan turib ketdim. Qalam-qog'oz qidirib qoldim. Shunday qilib o'tirdim, mana, yozmoqdaman.

Sendan bahs yuritishni istamayman. Zotan, bahs yuritajak nima ham borki? Xulosasi shu: *Men senga hayron, sen tashvishli jon!*

Shundayam o'zimdan bahs yuritishni istaymanki! Na sendan, na o'zimdan so'z ochmay bo'lurmi? Bo'lmasligini taxmin etarsan. Senga bu paytlarda boshimdan kechganlarni hikoya etmoqchiman.

Shunaqangi narsalar borki, boshqalarga tushuntirilgani zamon ularda hech qanday taassurot qolmaydi. Holbuki, ayni narsalar,

menda nimalar qilmagandi?.. Albatta, ular muhim narsalar edi. Masalan, qarshimizdagi, — ya'ni u narsalarni anglatganim insonlar, — bularni tinglashga aqalli munosib bo'lganliklarini menga sezdirib qo'ygan bo'lardilar. Nima qilayin? Go'yo bularni senga anglatsam, menga o'tkazgan ta'sirini senga ham o'tkazajaklar. Ana shuning uchun senga tushuntirishga harakat qila boshladim.

Bular mening yozuvchilik hayotimga, bu kundagi daydichilik hayotimga taalluqli mayda-chuyda narsalar. Sevgilim, ilgaridan yozuvchilarni yoqtiradigan odating bor edi. Men bilan yaqin bo'lsang, bu o'tadi-ketadi. Yaxshi bo'ldi. "Hammasi shunday bularning", dersan. Bunday bo'lmasak, nimaga yaraymiz! Sening xo'jayining, yangi o'ynashing bo'lgan go'zal ta'viyadan qanday farqimiz bo'lardi? Yanglish anglama! Men senga insonlarni sevganimni ming bor ham so'yladim, ham yozdim. Insonlarni sevmak so'zi xayoliy bir narsa emas, ammo nazariy tomondan olinganda biroz... Yo'qsa, shunday insonlar borki, kallasini shartta uzib tashlamoq xayolimdan o'tmagani holda, boshqa bir odamning xayolidan o'tgan bo'ladi, buni amalga oshirsa, men nihoyat oddiy yozuvchidan boshqa narsa bo'lmaganim uchun, ma'zur ko'raman. Yana shundaylari borki, yonlariga yaqinlashmoqlik zaharlanishning xuddi o'zi bo'ladi. So'nggi kunlarda shunday odamlarni bilib oldimki... Alloh seni o'z panohida asrasin!

Hecham asl muddaolarimni anglatmoq niyatimga erisha olmayapman, biroq haqqim bor. Haqiqatan, haddan ziyoda turtib uyg'otuvchi bo'lgan narsalar emas... Shunday qarab turaman-da... Insonlarning boshidan kechgan, hanuz mening kabi sof bo'lganlarning... Bu sof kalimani amin bo'lki, maqtanchoqlik qilish uchun so'ylamayotirman. Maqtansam, ayniqsa sening qarshingda maqtanmoq istasam, ichimdagi jinnilik, poklikning biqinib o'tirgani "sodda" kalimasini qo'llamasdim. Ham zakovatli, ham pok bir odamning kalimasi, derdim. Nima ham yo'qotardim? To'g'ri so'ylamak uchun o'zimga sodda bo'l, dedim. Soddamanmi, soddamasmanmi? Sen buni yaxshi bilasan. Ora-chora ayyorliklarim bo'lsa bularni ham senga yanada yaqin bo'lmoq uchun qilganimning farqiga bormasligingning imkoni yo'q. Ularni tushuntirib berishimni istamassan, albatta... Istaysanmi, tushuntiraman? Yuqorida nima degandim: hali mening kabi sodda bo'lganlarning... deb qolgandim. Esimdan chiqib ketdi. Muhim bir narsa emas edi.

Shu yuqoridagi satrlarni yozganimdan keyin, bir zamon qo'limdagi qog'ozni qo'yib, yana yozishdan fikr qilishga tushdim. Bu ish, ya'ni o'ylash, menga xat yozishdan ancha qulay keladi.

Inson o'ylarkan, go'zal jumlalar tuzadi, qanday yaxshi fikrlar xotiramga keladi, qanday masalalar hal bo'ladi. Ba'zan jumlalar tuzmasdan o'ylanib qolaman. Ba'zan jumla tuzaman. Bu jumlalar xuddi men istagan, yozmoqqa kirishganim narsalar. Holbuki, fikrlashdan so'ngra xat yozmoqqa o'tirganim zamon ayni jumlalarni, ya'ni o'zimcha yaxshi deb hisoblagan jumlalarni xotirlayman hatto... Xatning juda tez tuzilgan bir tushuncha ekanini bilaman. Uni so'ylashni istamadim. Faraz qilki, sen dalaga chiqib ketgansan. Cho'ntagingda qalam-qog'ozing yo'q. Xat yozishni o'ylab qo'ygansan. Uyga ketgunimcha, shunday bir narsa yozaman, deb xayolingga tukkansan. Men ana shu onlarni poylab yurgandim. Fikrimcha, o'ylaganda yozayotgan narsaga shakl berishga harakat qilmaymiz, shuning uchun o'ylagan, yozmoqchi bo'lgan narsalarimiz bizga juda go'zal ko'rinib ketadi. Holbuki, haqiqatda ular go'zal emas. Chunki shakl topilmagan yerda, tushunchalar, xuddi shakl berilmish kabi, avvaldan, juda avvaldan bormish kabi boshqa bir dunyoda bo'lardilar. U dunyoda kalimalarning, jumlalarning na grammatikasi, na-da grammatika ichida mazmunlari bor. Mutlaqo yalang'och, yakka-yu yagona, insonga go'zaldek ko'ringan, yolg'onni faqat zo'rg'a ko'zga ko'rinadigan shakl ichida ochiqdan-ochiq qolgan bir olamdadir.

Nimalar so'ylayapti o'zi, dema. Senga shuni tushuntirishga tirishayotirman. Xat yozish ham odamni juda charchatadi. Faqat boshim emas, uni qo'yaver, qo'lim ham charchadi. Menga ishlamayapsan, deb jahl qilma! Duradgor bir kiyim-kechak javonini yasaganda qancha charchasa, men ham shuncha charchayman. Yolg'on aytsam ablahsan deyaver! Demak ishlayotirman. Mamnunmisan?

Senga aytmoqchi bo'lgan narsalarimning hech biridan so'z ochmaganim uchun meni afv et! Yodimga kelgan hikoyalarni unutib qo'ymasam, bir kun senga yozarman, boshqalarga ham o'qib berarman.

Maktubimning so‘ngida, seni o‘pib qolaman deyishni unutmasman. Hamma narsani yig‘ib-yig‘ib, ishni shu yerga to‘plashga harakat qildim.

IKKINCHI MAKTUB

Go‘yo muharririm yoki sevgilim, mening yozganlarimning hech biri hikoya ham emas, reportaj ham emas, maktub ham emas deyayotganday bo‘lardi, ochig‘ini aytganda nimaligini o‘zim ham bilmayman! Yaqin kezlarda senga maktub deya bularni qo‘lingga berib ketaman. Senga qarab turib angrayib qolaman, bilmaymanki... Bilganim bir narsa bo‘lsa, u ham inson sevgilisiga dushman bo‘larkan. Ko‘rinishidan do‘st ekan deb, aldanmaslik kerak. Sevgili odam, haqiqiy dushmandir. Jimjiloqday bir xiyonatga qaraydi. Boshqa bir ko‘zga qaray berib ko‘zlaring to‘lgani zamon jinim qo‘zib ketadi. Karavotimga yotganim zamon sen qorachadan kelgan qo‘llaringni boshqalarga o‘ptirganingni xayolimga keltirsam, quturib ketaman.

Kim biladi, sen ham men kabi nimalarni o‘ylab yurasan. Har go‘zal ko‘z, har yonoq va burun, har yaxshi bog‘lanmish galstuk, har yangi tufli haqida xayol surganing, tushlaringda ko‘rganing, yuzini ko‘rganingda titrab ketganing tasavvuringdagi erkak... Inson farzandining hayvon bo‘lmagani qanday saodat! Mayli, biz sizning bog‘-u bo‘stonlar kabi go‘zal liboslaringizning, ajoyib hid taratgan atir-upalaringizning ostida qolib ketib, yaxshi bir qalb sohibi ekanligingizni faraz eta bilaylik. Sizga nima bo‘lardi? Butun bu go‘zal, zo‘r kiyingan, ozoda ko‘rgan kishilaringizning haqiqatdan bir shayton odamning, bir olchoqning, bir miyasi yo‘qning, bir savdogarning naqd o‘zi ekanligini bilmayman, qanday bilarding...

Sendan jahlim chiqishga mening qanday haqqim bor? “Men sening mulking emasman, do‘stingman, sevgilingman. Seni tanidim. Sen xayollarimda mavjud bo‘lgan odam emassan. Boshqalarni ham tanishim mumkin. Ular orasidan mening qizlik chog‘imda tushlarimga kirgan, ko‘chada ketarkanman, ichimni simobday eritib yuborgan odamni qidirib yuribman!

Shunday deya olasan. Yana aniqrog'i deysan:

"Menda topgan jinnilikni ularda topolmaysan. Sen shunga xafa bo'lyapsan, men buni bilaman. Meni tushunmasliklaridan, sen sevgancha seva olmasliklaridan qo'rqasan, shundaymasmi? Men o'zimni yaxshi deb hisoblamayman, yo'q, yo'q!.."

To'g'ri, sevgilim! Sening quvonishga haqqing bor! Sen bir odam haqida ajib narsalar ko'rsata bilasan: qotilni qo'ziday yuvosh, egrini to'g'ri, nomussizni nomusli, hayvonni insonga aylantirishing hech gap emas!.. Bil'aks, ajoyibotlarni ham ko'rsata olasan: ya'ni, qo'zini qotilga, insonni hayvonga...

Bu kunlarda ishq haqida kitoblar o'qidim. Bittasida shunday joyi bor ekan: "Ishqning ilk hamdardligi, hayronlikdir". Men bu hayronlikni his etmoq uchun o'ttiz besh yil kutdim. Sen oshiq bo'lish uchun bir daqiqaga ehtiyoj sezganingni keyinroq tushundim. Men bu go'zal daqiqani bunyod qilolmadim. Hayron bo'lishni ham bunyod qilolmadim. Chokidan so'kilib ketgan paypoqqa o'xshab hech but qilolmadim. Magnit qutblari bir-birini ta'qib etgani kabi edik. Sen mendan ta'sirlanmading. To'g'ri, nimamga ham hayron bo'larding?...

Holbuki, sen, kichkinagina narsalar qidirgan inson eding. Masalan, biroz durustroq raqs tushsaydim, galstugimni yaxshilab bog'lasaydim, sening-la tanishganim kun ustimda bejirim ust-bosh bo'lgandaydi!..

Burnimni, ko'zimni o'zgartirolmasdim. Hech bo'lmasa tuflilarimni almashtirsaydim, a, labbay! Sen meni ilk bor qanday ko'rgan bo'lsang, o'shandayligimcha qoldim. Innaykeyin, qanday tuzilgan bo'lsam, u yomon xayolli ko'zlaringda mutlaqo o'zgarmasdan qolganman. Lavang-bo'shligimga hayron bo'lmagin, sevgilim!

Oxirida boshimni olib, sen bo'lgan yerlardan qochdim. Hozir qulog'imda yomon tango ohangi yangrab, hatto meni yig'laguday holga keltirib qo'ydi. "Sen yurgan yerlardan yurmayman".

Hozir men o'z shahrimdaman. U yaqindagina boshidan zilzila ofatini o'tkazgan bir shahardir. Chor-atrof chang-tuproq, shag'al, chodir safolat ichida. Boylar uylarini ta'mir ettirib, ichiga kiribdilar hatto. Ob-havo hali joyida. Uyini tugatolmaganlar yomg'ir boshlagani zamon chodirlariga kirib, qayta chiqmoqlik uchun chilp-chilp

loyda suza oladigan qayiqqa o'xshash biron narsa kashf etish ustida bosh qotirmoqdalar. Bugun ertalab shundaylardan birini ikki serjant kelib, poyezdga mindirib yubordi. Yaxshilab davolasharmish... Menimcha, u odam haq edi. Nega ko'tar-ko'tar qilib ketdilar bechorani, bilmayman. Qahvaxonalar g'iybatlarga to'lib ketdi. Bular oddiy, o'zimiz bilgan g'iybatlardir. Tushuntirib beraman istasang.

Jon quloq bo'lib eshitganim insonlar, shahrimizning eng munavvar qismi edi... Ammo bilmaymanki!.. Men na muhandisman, na mutaahdman[1], hech narsa tushunmadim bu ishlardan. Gunohi g'iybat to'qigan kishilarning bo'yniga! Mana, senga bularni o'tirib shirin kalimalar bilan tushuntirishdan boshqa ne qolur? Men nihoyat ermakka o'xshash maktublar yozib, senga jo'natmoqchi bo'lganim uchun bir chetda saqlab kelgan, bir do'st topilsa zo'rlab o'qitadigan odamman. Jonim afandim, masala shunday:

Zilzila mintaqasida 11700 liraga xizmatchilarga uylar qurish yuzasidan mutaahdlar bilan kelishib olindi. Uylar qurila boshlandi: bitish arafasida... Ammo, butun shaharning og'zida ko'pirgan bu uylarning bahosi 5000 liradan yuqoriga chiqmasligi ma'lum bo'lib qoldi!.. Agar haqiqiy yaxshi materiallar qo'llansa, ko'pi bilan 6000 liraga chiqarkan... Hay, mayli, bunga 1500 mutaahd uchun pay puli berilsin. Demak, bir uyni 7500 liraga yaxshilab qurib olsa bo'larkan. Dalillar aniq...

Ma'mur kishilar uylarida o'ynab-kulib o'tirsinlar. Mamlakatimizni madaniy, ovrupoviy holga keltirmoq uchun tirishsinlar. Hammadan avval uylarini charog'on qilib olsinlar. G'iybatlarni qo'yib turay. Qizil yarimoy jamiyati ham fuqarolarga yordam berarmish!.. Uylarini tiklab olsinlar, deb odam boshiga yuz ellik lira ayirisharmish. Fuqarolar ham yuz ellik lira bilan uylarini tiklab olarmishlar. Bir fuqaro yuz ellik lira ila yaxshilab uyini ta'mir qilib olishi mumkin, degan odamni ko'rdim. Barcha fuqaro yuz ellik lira bilan uylarini tiklay olishlariga, bayram yaqinlashayotir deya bolalariga bir jaket, shim, yengilgina oyoq kiyimi — yamaniy olibdilar. Yana quvonsinlar deb qo'llariga bittadan xo'rozqand tutqazibdilar. Bayram bo'lgan yerda fuqaro bolalarini arg'imchoqda uchirishibdi, to'g'risi, odam shunaqa arg'imchoq uchganda, ancha yengil-

[1] **Mutaahd** — ahd qiluvchi, shartnoma tuzilgan bir tomon, fuqaro.

lashadi, shakarim. Yuz ellik lira ila uy qurib bo'ladimi, sevgilim? Sen yuz ellik liraga bir shapka bilan bir shippak ola bilasan, men bo'lsam: "Vallohi pul topib oldim!" deyman. Bilasanki, men ham otamdan qolgan narsani yeb yuribman. Tashvishlanadigan odam yo'q. Chunki fuqaro-xalq Qizil yarimoy jamiyatining chodirlarini vaqtida qaytarajak vaziyatda emas.

Boshqa narsalar ham bor. Bizning Ismoil degan bir temirchi usta bor edi, sil bo'lib yotibdi. Yana bir arslonday Qosim deganimiz bor edi. Milliy ozodlik urushi paytlarida, dushmanlar mamlakatni ishg'ol qilgan zamonda, partizanlarga bir qancha qop oziq-ovqat lozim bo'lib qolganda, Qosim, besh kishi bilan shaharni bosib, dushmanni shoshirtirib qo'yib, shakar qoplar bilan stansiyada turgan lokomotivga o'tirib, Geyva bo'g'oziga surib qolgandi. Shunaqaydi u Qosim... U ham o'tgan qish silga duchor bo'lib o'ldi... U balchiqda suza oladigan qayiq ijodkorlariga mansub bo'lgan bir odam edi, men to'qqiz yoshda ekanligimda sevib qolgan qizni yaxshi tanirdi. U sevgilimning sariq sochlariga tikilib qolardi.

Keyin ayollar, sevgilim, ular yana bir olam!.. Sen yana bir navi odam bo'lding. Hech bo'lmasa, raqsga tushadigan, sport qila oladigan, judayam bo'lmaganda "Choliqushi" romanini o'qiydigan bo'lgandirsan. Bu yerning ayollari ilgari qanday bo'lsa, o'shanday... Ramazonning yigirma uchinchi kuni yana mudhish bir zilzila bo'larmish deb gap tarqatibdilar. Bilmayman qaysi cho'loq xo'ja tarqatibdi bu gapni... Soatiga qadar aytishibdi... Ko'chada ayollarning dastidan yurib bo'lmaydi. Hatto tartib o'rnatuvchilar ham osoyishtalikni ta'minlay olmadilar.

Yana boshqa narsalar ham bor sevgilim: uylarni qurgan mutaahdlarga shinasi bilan oltitadan avtomobil berishdi, har kilometrga bilmayman qancha litr benzin sarf bo'ladi, qancha yog' ketadi, tag'in hammasi — tag'in hammasi tekinga-ya! Biror kimsa yuk mashinasi bilan ish ko'rmagan, nima ham derding? Qanday yaxshi odamlar. Avtomobil shinalariga jonlari achishibdi. Bu zamonda benzin sarf etiladimi, deya hamma ishni hayvonlarga yuklashibdi. Qumni, toshni, taxta-yog'ochlarni, qo'tos qo'shilgan aravalarda tashibdilar. Avtomobil shinalari esa har kimning uyi oldida yota beribdi. Qanchaga olgan ekanlar bilmayman, chamamda, olti yuz

liraga bo‘lsa kerak! Agar bir kun sotsalar uch ming besh yuz liraga sota olarkanlar. Ammo sotisholmaydi. Nega endi, mayli, sotishsin. Avtomobil, ayniqsa, yuk avtomobilining shinalari ham yaxshi, ham qiymatli narsa... Sotishsa pulini kassalariga qo‘yarlar. Balki turaversa bahosi ortib qolar. Yoki bo‘lmasam, bir kun Ovrupo karikaturalaridan birida ko‘rganim kabi, xotinlarining bo‘yinlariga taqib qo‘yarlar...

Karikaturaning mazmuni shunday:

Bir baqaloq xonim, bir avtomobil shinasini bo‘yniga osib olib, jaddadan o‘tib bormoqda. Bir tanishi ko‘rib qolib:

— Voy, madam! — deydi. Bu nimasi?

Madam bo‘lsa:

— Nima qilay, bundan qimmatbaho narsa topolmadim! — deya javob berayotir.

Ana shunday, biz bu yerda shunaqa karikaturalar ko‘rib, kunimizni o‘tkazayotirmiz.

Shu xizmatchilarning uy qurish kasbini g‘iybatchilik mohiyatidan chiqarmoqni istagan uch-besh yigit pul yig‘ib, xuddi shunday bir uy qurib, hammaga ko‘rsatib qo‘yishni istamoqdalar.

Ana ko‘rdingmi! Qilsa bo‘ladigan narsa bu!.. Oh, qahvaxonada bugunning o‘zidayoq bir qarorga kelib bugun ishga kirishib ketsalar bormi? U zamon ishning g‘iybat-u ig‘vo emasligini isbot eta bilardilar. Qanday yaxshi bo‘lardi. Lekin, afsuski, qilolmaydilar, sevgilim. Bilaman. Biz shunday xayollar quramizki! Ne-ne ishlarni amalga oshirib qo‘yamiz! Hech biri amalga oshmaydi, sevgilim! Hali ikkimiz ne-ne xayollar qurgandik! Keyin ikkimizning ham ne-ne o‘ynashlarimiz paydo bo‘ldi!

Men ikki xonali uy, tovuqlar, xo‘jaligi bor bo‘lgan maktab o‘qituvchisi bo‘lishni o‘ylab qo‘ygandim. Shunday bolalar tarbiyalab yetishtirmakni orzu etgandimki... U qadar muhim bolalar ham emas: shu yigitlarning senga gap otib, keyin qahqaha ila kulganliklarini haqiqat qilajak insonlar!..

Sen nima deb o‘ylading: bundan sal avval, mayxona, kinoteatr, plajlarni aylanib yursam, dedingmi? Albatta, bunday narsalarga mullajiring bo‘lishi kerak. Men yana raqs tushadigan vaqtlarimga, artistlarga o‘xshab qiziqchilik qilgan bolalik kezlarimga qaytaman, derding.

Ikkimiz ham muvaffaq bo'lolmadik. Men besh tiyinsiz ishsizman, sen haqingda bo'lmag'ur narsalar to'qib oxiri kasal bo'lib qoldik. Seni hanuzgacha shunday sevamanki, bu bir sirdir, sevgilim. Ko'zlaringdan o'paman. P. S.

Bunga nima deysan? Post skriptum kalimasi menga hech yoqmaydi. Ovrupocha qisqartirilishi baynalminal qo'llayveraman demoqchimisan?

Maktubimning davomi, demak, hali bor edi, ammo birisi oyoqqa turib:

— Azizim, "Post skriptum"ni bilmayman deyapti, xamish[1] degan kalimani yo'qotish kerakmi? Eh, bu yangi avlod! — deyishadi. — Ha, shunday deyishadi, sevgilim, sen bilmaysan.

Hech latifa aytadigan vaziyatda emasman. Nima qilay? Buning ustiga mening turqim juda sovuq... Men shundayman asti. G'am-anduhimni unutmoq uchun xuddi g'am-g'ussasizlar kabi ishlar qilaman. Qara, shahar ham mening kabi ishlar qilayotir, yozgi kinoteatrlar tiqilib ketgan, odamlar Baladiya parkiga, Suluqo'rg'ondan bulbul tovushli, qorachadan kelgan, go'zal xonandalar kelishibdi. Tovushlari biroz bo'g'iqroq, ammo shirali. Barakka o'xshash qahvaxonalarning pikapli radiolari ovozining boricha zikr tushganday sado chiqarmoqda. Ko'chalarda olomon jonli. Butun xalqda qandaydir jonlilik bor. Juda ko'nglimga yoqadi bu. Har kim uyini tiklamoq uchun qanday urinayotganini ko'rsang edi. Bu qo'rqinchli va go'zal tabiat-la kurashmoq lozim ekanligini hamma anglagan. Qish ota zilzila amakiga qaraganda ancha insofliroqqa o'xshaydi shekilli? Boshingda hamon qayin, qarag'ay daraxtlari-yu, ko'knor po'choqlari bo'lmasin. Alloh ko'rib turibdi, zilzila deb atalmish tovaning yetti-sakkiz soniyalik g'azabi, qish boboning olti-yetti oylik muz kabi g'o'ng'illashiga ustun bo'la oladi hatto. Sen nima deysan bunga, sevgilim?

"Qayin" dedim-u, birdan yodimga bir narsa keldi. Anavi maktubimda — to'g'ri, bu ortiq bir P.S. bo'lmasdan chiqdi — ba'zi yerlarini unutib qo'ydim. Mana "qayin" degandim, yodimga keldi. Afandim, u xizmatchilar uylarining poydevorlarini g'oyat baquvvat qilmishlar. Ammo keyin cho'pkari tomni yopish masalasiga

[1] **Xamish** — turkcha "R. S." ishorasi.

kelganda ishlar qiyinlashib ketdi. Ba'zi chiriy boshlagan ustunlardan karkas yasalibdi. Holbuki, zotan, qayin baquvvat bo'lgan taqdirda ham, besh o'n yilda tuproq holiga kelarmish! Kelarmish, deganimga e'tibor berma! Bizning uy ham zilziladan ta'mir etilarkan, ba'zi ustunlar sinib ketib, ichdan sunnat to'yi qilinganda sunnatga yotqizilgan bolalarning chuklariga qo'yiladigan kukunlar kabi hammayoqni kukun bosib ketdi. Shunda Ahmad degan usta:

— Qayin ustuni, jigarim, shunday bo'ladi, eng yaxshisi, qarag'ay, go'zal hidli, baquvvat, yog'li qarag'ay! — deya shunday sifatlar topib ishga kirishib ketdi.

Qarag'ay ustuni qurilishda ishlatishga, har holda, go'zal hidi, chiqadigan moyi ila qarshilik ko'rsatishga qodir. Bekordan bekorga emas, yoz-qish yashil bo'lib turadi u mo'tabar daraxt! Quvvat nuqtayi nazaridan aytyapman, qarag'ay taxtalaridan, ustunlaridan qilingan uylarning chirishga qarshilik ko'rsatish qobiliyati zo'r bo'larmish. Ichida saqlangan kuch, kim biladi, tabiat uni qanday qurtga qarshi dezinfeksiya etgan bo'lsa, u ham insonni balki sovuqdan, zotiljamdan shunday himoya qiladigandur...

Masala shunday bo'lmasa-da, qayinning bahosi bir metri yuz lira bo'lsa, boshqasiniki ikki yuz to'qson lira emish. Baho vaziyati aksinchasiga qarab qo'yilsaydi, ustlariga bu ishni olganlar, qarag'aydan qal'ayi saroylar qurib olmasmidilar? O'ylab turibman. Bu mening shaxsiy fikrim bo'lsa kerak!

Senga g'alati bir narsa tushuntirmoqchiman! Shu mutaahdlardan bittasini topib, gaplashsam, dedim. Hammasi qurilishda no'noq edi. Nihoyat, bittasini ko'rsatdilar. To'rt besh kishi bo'lib bir chetda o'tirishardi. Shu dumaloq yuzli, semizdan kelgani dedilar. Men uni g'ajib tashlagim kelardi. Shunday bo'lsa ham yaqinlashdim. Bunday bir qaradim, bizning eskidan tanish bo'lgan bir maktabdosh o'rtog'imiz. O'tgan yilga qadar salomlashardik... Oltinchi sinfdan g'oyib bo'lgandi. Bir oraliq revyularda artistlik qilganini ko'rgandim. O'tgan yilga qadar bir revyuda yomon rollarda chiqqan, hech qoyil qilib o'rniga qo'yolmagandi. Men o'z-o'zimga: "Loaqal bu bola boshqa bir ish qilsaydi", degandim. Unga to'g'ri yurib bordim. G'oyat sovuq salomlashgach, nima deyishimni bilmay qol-

dim. O'zimcha: "Nima, ishing yo'qmi? Sen gazetachimisan? Qaysi gazetadansan, deb so'raydilar-u, men ularga, erkin muharrirman, deyman, hammalari kulib yuboradilar", — dedim-da qahvaxonaning bir burchagiga o'tirdim.

Shunday qilib, mutaahdlardan biri u emish. Men o'zimning hisobim to'g'ri chiqqaniga mamnun bo'ldim. "Ofarin o'g'longa!" —dedim. Vallohi ofarin! Demakki, mening o'z-o'zimcha ular uchun tushungan narsani u ham tushungandi. Tentak, sen o'z holingga boq, dedim, o'zimga. Ham mutaahd, ham buning ustiga u oliy maqomdagi amaldor dedilar. Nomi ulug' me'mor diplomi ila revyularda artistlik qilgani, bu qadar go'zal san'atga havaskor bo'lgani uchun uni chin dildan tabrikladim. Meni qat'iyan tanimaslikka oldi. Suhbatlasholmadik. Suhbatlashganda shu qayin masalasini hal etmoqchiydim.

Sevgilim, bizning mamlakat bolalari naqadar yoqimli ekanliklarini bilasanmi? Nega bilmas ekanman, deb kulma, hammasi ham menga o'xshamaydilar. Balki men istisnodirman. Innaykeyin, men juda xunukmanmi? Shundaymi, a, sevgilim? Men ham inson o'g'liman. Bu meni sevishingga bog'liq. Qara, burnim yaxshilanmoqda, ko'zlarim maxmurlashmoqda, qo'pol barmoqlarim noziklashib, san'atkor barmog'iga aylanmoqda, tishlarim injulashmoqda. Men shu qadar kelishgan ne-ne go'zallarni ko'rdimki, ularga aqlim ketdi. Ayniqsa, mamlakat bolalarining ko'zlarida totli samimiyat, marhamat, haqiqiy soflik bordirki, maqtovga arzigulik buyuk shaharlarning bolalarida bular yo'q. Bizning bolalarning yuzida u ayyorona, sho'x, qiziqchi, ham mahallaning yugurdak bolasi ifodasi yo'qdir. Bu ko'zlar-la o'n daqiqada odam samimiy bo'lib qoladi. Bu ko'zlar-la o'n daqiqada ming yildan beri tanish bo'lgan kishiday apoq-chapoq, qarindosh bo'lib ketadi odam.

Ko'plarining haroratli bo'salar bermoqchi bo'lgan dudoqlarining chetlarida, sariq, suvli, kechalari qo'rqinchdan bo'lgan deb hisoblaganim uchuqlar ko'rdim. Ba'zisining labi usti, ba'zisining lab chetlarini qoplab ketgan bu uchuqlarning bezgakdan, shamollashdan paydo bo'lganini keyinroq angladim. Yolg'on bo'ladi, ammo shunday yozmoq istayman. Shuning uchun seni o'z orqamdan tortishni istamadim, sevgilim. Sening go'zal dudoqlaringni

uchuq bosib ketishini istaymanmi? Ularni sonsiz-sanoqsiz bo'salarim-la uchuqlatmoqni istayman. Bezgakdan so'z ochilgan ekan, mamlakatimizning munavvar qismida ilgari kelganlardan bo'lgan doktorlardan bir lavha aytib bermoqchiman, o'tgan zamonlarda bir buyuk zot bu yerlarni ziyorat qilganida, doktorlardan so'rabdi:

— Qanday, xalqda bit bormi?

Doktorlar hammasi bir ovozdan: — Baladiya doktori bundan mustasno, — deya javob berishibdi.

— Yo'q, afandim, bu yerda istiqomat qiluvchi insonlar juda g'alati, hech bitlamaydilar! — deyishibdi.

Iqlimning insonlarga ehson etgani bu muhtasham lutfga qarshi buyuk zot — Allohga shukronalar aytib, eshikda yangi ko'ylaklarini kiyib, yaltiroq tugmasini o'ynab turgan xizmatkorni chaqirarkan:

— Kel bu yerga, bolam, — debdi.

Yosh odamning ko'ylagi ila ichki paxmoq kiyimi orasidan bir dona bit topib, doktorga ko'rsatibdi. Doktorlar nima qilishlarini bilmay qolibdilar. So'ngra o'sha topilgan bir dona bitni vrachning kabinetida to'planib, muhokama qilishib, shunday go'zal iqlimning o'zlariga ko'rsatganini Janobi Haqqa arz qilibdilar.

Oxirgi jumlani, Baladiya doktori menga o'z kabinetida o'zi so'zlab bergani uchun, butun mas'uliyati unga oid.

Bunga balki inonmayotgandirsan. Bu yerlarda faqirlarni vatanparvar sifatida ko'risharkan, ko'rikdan o'tkazishgan zahm kasaliga duchor bo'lgan xastalarga, "Edu distillee[1]"ni klizma qilib, yetmish besh qurush xizmat haqiga olgan, juda xalqparvar, haddan ziyoda badbaxt xalqning "Ota!" deb chaqirganini, eng hafif ta'bir ila bir firibgar, o'ziga sibir yarasini ko'rsatgan kasalga, domlaga dam solib yuborishni tavsiya etibdi. O'lganlarni ziyorat qilishdan qaytarkan, yo'l o'rtasida rangi dokaday oppoq, qaltirab turgan qora ko'zli, yangi, ozoda ko'ylakli bir qishloqi bolasini aravaga solib alamidan g'azabini zo'rg'a yutib, Baladiya doktoriga olib ketardi; bu johil qishloqi bolaning alamini olmoq uchun qishloqdan chiqib, yetib kelguncha sibir yarasini domlaga o'qitishni tavsiya etgan olim doktor orasidagi farqni tushunib yetgach, men ham maktabda o'qiganimdan uyaldim. Bola:

[1] **"Edu distillee"** — tozalangan suv.

— Baladiya doktorini topolmadim. Dorixonachiga yolvordim, iltijo qildim, bermadi. Unda bor ammo. Men bilaman, unda bor! — derdi.

Unda dori muhaqqaq bor edi. Men ham aminman. Kecha o'rmonchi Hasanning o'g'liga Istanbulda yuqtirib olgan so'zak kasalini tezlik bilan davolasin deya kukun dorisini toptirgan edi!

Yana bir voqea bor edi. Nima edi ajabo? Turib-turib esimga keldi: zilziladan keyin faqir xalqqa tarqatmoq uchun biroz zaytun yog'i, zaytun, shag'am, yana u-bu narsalar berilgan ekan. Minglarcha fuqaro hujumga o'tibdi. Qarasalarki, amalga oshadigan narsa emas. Mamlakat taniydigan obro'li odamlardan hay'at tashkil etibdilar. O'shalar tarqatishsin, debdilar. Murojaat etganlarning ichida baqqol do'konlaridagi Allohning hikmatidan — bir kattakon qora, ming litrlik zaytun yog'i sig'adigan hali ichiga hech narsa solinmagan shishasiga bir hofiz afandining xotini ham qarab turgan emish. Nima, turmasinmi? U hofizning yuz ming puli bor ekan deyishardi.

Nihoyat, eh, dunyo nizomi bu... Balki uch-to'rt faqir kishi fidoyi bo'lib, zaytun yog'i olmagandir, ammo bir qancha masala hal etilayotgan vaqtda u yerda bo'lganlar ham bu qo'rqinchli va chirkin o'laksaxo'rlarga qo'shilishib ketgandirlar.

Sen bilan endi suhbatlashmayman. Hatto seni ko'rishni ham istamayman. Qon yig'layotirman. Ko'rib turibsanki, seni hanuzgacha sevaman. Seni sevganim uchun ham ko'zimni to'rt qilib o'tiribman. Biz — barcha insonlar shundaymiz. O'ng ko'zning chap ko'zdan xabari yo'q, ya'ni qorni to'qning qorni och bilan nima ishi bor.

Seni tashvishlantirganim uchun meni afv et. Ko'zlaringdan o'pib qolaman, jonim, deb

Ahmad

KEMA

Kecha uni Galata bandargohida uchratib qoldim. Po'latday toblangan gavdasi hassos sportchini eslatardi. Yonida oyog'i yalang, past bo'yli daydi bola ham bor edi. Qalin arqon bog'langan temir ustunlardan biriga oyog'imni tiragancha qo'limni iyagimga tirab

uni tomosha qila boshladim. Men ko‘z uzolmay tomosha qilayotgan bu bahaybat maxluq — “Tadla” nomli yangi turk kemasi edi. Har safar u meni bu yerlardan olib ketar, keyin yana olib kelib qo‘yardi.

Fransiyaga tahsil olish uchun ketayotgan qaysi talaba “Tadla”ni bilmaydi? Qay biri yozning yulduzli tunida bu kemaning uchinchi toifa palubasida sayr qilmagan?

Oltinrang, porloq quyosh nur sochib turgan Parnas tog‘ining abadiy oppoq qorlar bilan qoplangan cho‘qqilarini, tog‘ etaklarida joylashgan qishloqlar, Vezuviyning shafaq rangi ostida kulib turgan shahar, moviy Misina, vahshiy Korsika va nihoyat olchoq, makkor Marselni mana shu devqomat “Tadla”ning sharofati bilan tomosha qilmadikmi?

“Tadla”ning g‘ilay ko‘zli kapitani kabi bosh mezbonning kema portga yaqinlashganda ko‘rsatadigan tavoze, ehtiromini unutdingizmi?

Men bu kemada korsikaliklar bilan tanishgandim. Palubani artayotganda ularning chiroyi va shevalariga mahliyo bo‘lib qolgandim.

Kemachilar yarim kechasi ko‘tarilgan po‘rtana, uzoq, sirli xitoy shaharlarining xirgoyisini butun palubaga yoyar edilar.

Kemaning birinchi toifa qismidan uchinchi toifa qismiga sevgililarini ko‘rgani kelgan kaltafahm shahzodalar, o‘n olti yoshida tushdagidek chiroyli bolalarning ko‘zi o‘ngida erkaklar bilan kayf-safo qilib yurgan rum ayollarini ko‘rdim. Men bu kemada olijanob yahudiylar, xushmuomala armanlar, surbet, sho‘x inglizlar, jiddiy fransuzlarga duch keldim.

Marsel portidan chiqib Piraga kelgunga qadar o‘tgan besh kun mobaynida menga juda yaqin do‘st bo‘lib qolgan kichkina bolani, besh kundan keyin iztirob, g‘am-anduh bilan tark etdim. Besh kunda, xuddi boshlang‘ich tahsilni birgalikda olgandek bolalarcha xotiralar bilan u yerni tark etdim. Agar bir tasodif tufayli yana uchrashib qolsak, uni bolalikdagi og‘aynilarimdan hech qachon ajratib qo‘ymasdim.

Bu kemada bir qizni ham uchratdim. U bir bolani sevardi. Menga:

— U odam emasdi, eshshak edi! Men uni juda sevardim, lekin u bir marta bo‘lsin, kelib, “bonjur”[1] demadi. Mabodo, tasodifan yonimga kelib qolsa, bir so‘z aytmasdi. Men u qizga:

— Axir, men borman-ku! — dedim.

— Senmi, — dedi, — sen xunuksan.

Yulduzli va qorong‘u palubada men u bilan yuzma-yuz, qo‘lini kaftimda tutib o‘tirardim. U ko‘zlarini yumib sevgan yigitini tasavvur qilgancha mening qo‘limni siqib o‘tirardi.

Sekingina qulog‘iga pichirlab:

— Baribir emasmi? — dedim. — Zimiston kechada hamma narsa, hammamiz bir xil emasmizmi? Faqat bir erkak va bir ayolning bo‘lishi yetarli emasmi?.. Ko‘zlaringni yum, tasavvur qil...

U qorong‘ulik ichida yaxshi bola haqida tasavvur qilib nozik vujudi bilan menga yaqinlashdi...

Portda parishon holda qoldirib kelgan bir odam haqida o‘ylab turganimda men kemada tanishgan bir ruhoniy yonimga kelib dedi:

— Zavq — eng o‘tkinchi narsa. U hidsiz gazning ko‘rinmas bir teshikdan sizib chiqishiga o‘xshaydi. Shu bois “zavq”ni tubdan o‘zgartirish kerak. Biroq bu o‘zgarish natijasida yuzaga keladigan huzun, iztirobga chidab bo‘larmikin? Farzandim, bilib qo‘y, yagona saodat — Allohdir.

Qorong‘ulik va kimsasizlikdan kutilgan tasallini bir ruhoniydan olganligim uchun jahlim chiqardi...

Yarim tun. Bepoyon osmonda yulduzlar charaqlaydi. Seren tinmay bu yulduzlar orasidan eng porloq birini ko‘rsatishga harakat qilar edi. Bu eng porloq, eng shaffof yulduz — Somon yo‘li edi...

Yana samoga tikilaman... Bepoyon osmonning eng tubiga yashiringan, yaratganga ishonib ko‘zlarimni yumib, o‘sha kecha “Tadla”ning keng palubasida o‘tirgan yuvosh, beozor bola kabi uyquga ketaman.

15-sentabr, 1934-yil

---

[1] **“bonjur”** — “salom” degani.

BETAYIN ODAM

G‘alati bo‘lib ketdim. Ko‘zimga hech kim, hech nima ko‘rinmay qoldi. Hech kimni ko‘rgim yo‘q. Birontasi eshigimni qoqib kelishini ham istamayman. Hatto dunyoning eng sevimli insonlari bo‘lgan pochtalyonlarni ham... Mahallamdan xursandman. Yetti yildan buyon chiqmadim bu mahalladan tashqariga, desam yolg‘on bo‘lmas. Do‘st-yoronlarimdan birontasi qayerda yashashimni bilmaydi. Mahalla deganim, mana shu yer — o‘tgan yetti yildan buyon uch oyda bir marta Qorako‘yga[1] tushib do‘konning ijara haqini olaman. Yashayotgan joyim bu yerdan uch-to‘rt ko‘cha ichkarida...

Mahallam bir-biriga parallel uchta ko‘cha va bu ko‘chalarni tikkasiga kesib chiquvchi boshqa bir ko‘cha, ulardan tamoman mustaqil — hatto ko‘chaga hech o‘xshamaydigan, juda tor, qisqa so‘qmoq, ya’ni mening ko‘cham. Men bu ko‘chalarni, ularning ega bo‘lgan ahamiyatiga ko‘ra 1, 2, 3, 4 deb raqamladim, lekin o‘zimning ko‘chamga raqam bermadim, to‘g‘risi, raqam berishga tilim bormadi.

Men yashaydigan ko‘p qavatli uyning tagida sut-qatiq sotuvchi do‘kon, uning ro‘parasida ikkita duradgor ustaxonasi bor. Duradgorlarga hecham ishim tushmagan. Ularning kunlari qanday o‘tishini o‘ylab, ko‘pincha hayron bo‘laman. Ertalabdan kechgacha tinmay ishlashadi. Demak, hamma menday emas ekan. Qarang-a, rosa qirq sakkiz yildan buyon bironta duradgorga ishim tushmabdi. Istanbulda duradgorga ishi tushadigan odamlar shunchalik ko‘pki, sanab adog‘iga yetolmaysiz. Menimcha bu Istanbul degan shaharda har aholiga bittadan duradgor to‘g‘ri kelsak kerak...

Ertalablari o‘rnimdan turishim bilan qahvaxonaga qarab chopaman. U yer top-toza, bor-yo‘g‘i sakkiztagina stol qo‘yilgan. Bu yerga kelib-ketuvchi mijozlar juda og‘ir-vazmin kishilar, hech kimning bir-biri bilan ishi yo‘q. Hamma o‘zi bilan o‘zi band, qar-

[1] **Qorako‘y** — Istanbul shahridagi tuman (mahalla)ning nomi.

ta o‘ynashadi, shohmot, shashka o‘ynashadi, yana bir jufti “oldi-qochdi” o‘ynab o‘tiradi. Qahvaxonaning egasi farang-yahudiy aralash bir xotin. Juda yaxshi, muomalada tengsiz bir xotin. Qahvaxonaga kirar-kirmas:

— Bonjur madam, deyman.

— Bonjur misye, komantalevu, deb javob beradi u.

Men ham unga lozim javobni beraman. U bu javobdan qoniqmaydi. Menga qarab fransuzcha bir narsalar gapira boshlaydi. Aytgan gaplarining ayrimiga tushunaman, ayrimlariga tushunmayman. Har ikki-uch so‘zdan keyin “viy”ni qo‘shaman, u ham kamlik qilsa, “no”ni qo‘shaman. Nima bo‘lgandayam, bir-birimizning tilimizni tushunamiz. Qo‘limga bir fransuzcha jurnal tutadi, men jurnaldagi rasmlarni obdon tomosha qilib bo‘lgach, notanish so‘zlarni bir qog‘ozga yozib olaman. Keyin uyga borganda lug‘atdan qarab tushunib olaman. Ertasi kuni qahvaxonaga kelib jurnalni yana qo‘limga olib qaragach, “Voy, onasini...” deb yuborganimni o‘zim ham sezmay qolaman...

Madam menga qarab:

— Oldin kapuchino?.. — deb so‘raydi. Men:

— Yaxshi bo‘lardi, — deb javob beraman. Keyin “Endi buyog‘i fransuzcha bo‘laqolsin” deb “sesa”ni qo‘shaman. Fransuz xonim quvonib ketadi va kapuchinosini qanday tayyorlaganini nemischa tushuntirishni boshlaydi...

O‘n birga yaqin qiyalikdan tepaga qarab yuraman, tramvay yo‘liga boraman, chapga qayrilib o‘n besh qadam qo‘ygach, bir kitob do‘konining oldidan chiqaman. U yerdan bir rasmli fransuzcha jurnal sotib olaman va qo‘ltig‘imga qistirib tashqariga chiqar-chiqmas yana o‘z ko‘chamga sho‘ng‘ib ketaman. Qanday shinam, fayzli mening ko‘cham, odamlarining ham istarasi issiq. Tramvay yo‘li o‘tgan ko‘cha insonlaridan tubdan farq qiladi bizning ko‘cha insonlari... Men tramvay ko‘chasi insonlaridan nimagadir qo‘rqaman...

Ko‘pdan beri ko‘nglim taom tusamaydi. Ko‘chamizda bitta ishkambachi[1] bor, o‘zi ham pokiza odam, sho‘rvasi ham pokiza. Uning

[1] **Ishkamba** — mol, qo‘yning taomga ishlatiladigan halol ichak-chavog‘i. Ishkambachi — ichak-chavoqdan sho‘rva pishirib sotuvchi oshpaz.

oshxonasi boshqa ishkambaxonalardan ancha farqli, toza-ozoda. Kosalari antiqa, qadimgi chinnidan, sho'rvasi ham oppoq qorday, toza-pokiza.

— Marinadli bo'lsinmi, Mansurbey?.. — deb so'raydi oshpaz. Men:

— Marinadli bo'lsin, Bayram?.. — deyman.

Uning ismi xoh Bayram bo'lsin, xoh Muharram, ishkambachi bo'lganligi uchun, men uni Bayram deb chaqiraman.

— Sirka, sarimsoq ham solaymi, Mansurbey?.. — deb so'raydi usta oshpaz. Men unga:

— Yo'q, bugun solma, — deyman, — O'tgan kuni sal ta'sir qildi, ichim dam bo'ldi, agar mumkin bo'lsa, shogirdinga ayt, bitta limon olib kelib, bir bo'lagini siqaqolsin.

— Kechagi limoningizning bir bo'lagi turuvdi, o'shani siqamiz hozir.

— Yo'g'-e-e, qo'ysangchi, kechagi limon haliyam turibdimi, — deyman-u, xuddi yosh boladek quvonaman. Bayram ham o'sha limonni asrab qo'yganiga va mening sevinganimga quvonib ketadi.

— Mansurbey, qolgan yarimta limoningizning hammasini siqamizmi, yoki yana choragini qoldiramizmi? — deydi.

— Hammasini siq, ayama, hammasini... Rosa nordon bo'lsin. Bir mazza qilaylik... — Shunday deb nordongina sho'rvani ichaman-u xonamga chiqaman. Haligi olgan rasmli fransuzcha jurnalimni varaqlayman. Rasmlari ostidagi yozuvlarning turkchasini yozishni boshlar-boshlamas pinakka ketaman. Soat roppa-rosa to'rt yarim bo'lganda uyg'onaman. To'rt yarim mening sayr qilish soatim hisoblanadi. Uydan chiqib o'ngga qayrilaman, birinchi raqamli ko'chadan o'tib, tramvay yo'liga yetmasdan chapdagi piyodalar yo'lagidan tez-tez yurib chap tomondagi birinchi raqamli ko'chaga parallel turgan ikkinchi raqamli ko'chaga sho'ng'ib ketaman.

Bu ko'cha juda iflos, loy, buning ustiga judayam tor. O'ng tomonida bir bar, keyin nonvoy do'koni va oshxona joylashgan. Menimcha bu oshxonada faqat man qilingan ovqatlar tayyorlansa kerak. Har oqshom bu yerga melanxolik, g'alati ayol-erkaklar kelishadi. Balki qurbaqa, sichqon, qarg'a, mushuk, kuchuk, odam go'shti yeyishar... Yanayam bilmadim... U yerdan o'tgach, o'zi-

mizning ko'chaning boshidan chiqib qolaman. O'ngga qayrilgach, quritilgan mevalar sotuvchi ayolga salom beraman. Ko'zlari chiroyli bu ayol menga "Salom, bey" deb javob beradi. O'ngdagi ko'chaga kirsammi yo kirmasammi, deb qo'rqimsirab turaman. Nima uchunmi?

Sizga bir narsa aytib beray: har oqshom sayrga chiqardim... Inson sayr qilib yurganida atrofni kuzatadi, sekin qadamlab do'konlarning rastalari, odamlarning chehralariga zimdan ko'z yugurtiradi, albatta. Ammo bu ko'chaga kirganda bunday qilib bo'lmaydi, tevarak-atrofga qaramasdan faqat to'g'riga qarab yurish kerak. O'zingizni jahli chiqqanday, bu ko'chadan o'tishga majburday qilib ko'rsatishingiz kerak. Nima uchun deysizmi? Unda sizga yana bir narsa aytib beray. Mana eshiting. Bu ko'chada joylashgan bir uyda og'zi-burni joyida (bir ko'zida "tovuq qorasi"[1] bor, ammo buning hecham zarari yo'q), kampirlar ta'biri bilan aytganda yumuq qo'llarining ustiga yong'oq qo'ysa bo'ladigan, ko'kraklari katta-katta, ko'ylagining ko'krak qismida salgina kir bosganga o'xshash bug'doyrang tutash chizig'i bor, do'mboq bir yahudiy qizgina bor edi. U qo'sh tavaqali deraza oldida bir narsa tikib o'tirar, ba'zan eshikdan chiqib soatlab atrofni tomosha qilardi. Agar bironta odamni ko'rib qolguday bo'lsa, chakagi yopilmasdi. Uning oyoqlari ham lo'mbillagan, har qadam tashlaganida lorsillab ketardi. Yahudiylarning bug'doyrangi bo'lakcha bo'ladi. Bu yahudiy qizning boldirlaridan bittagina o'psam, armonsiz ketardim...

Bir kuni o'sha ko'chadan pastga qarab yura boshladim. Yahudiy qiz uyining oldida turardi. Uyining ro'parasida duradgorning do'koni bor. O'sha joyga yaqinlashganimda birdan qarshimda duradgor paydo bo'ldi.

— Menga qara, ey qovun, — dedi menga o'shqirib, — Agar yana bir marta shu ko'chadan o'tganingni ko'rsam, oyog'ingni sindirib, ko'zingni o'yib olaman!

O'sha kundan boshlab bu ko'chadan o'tish istagim armonga aylandi. Ammo ilk kunlar kechki sayr payti u ko'chadan o'tarkan xohish-istagimni bostirishga judayam qiynaldim... Mana hozir haligi duradgor chiqib ko'zimni o'yib oladi...

---

[1] **"Tovuq qorasi"** — ko'z kasalligi; qorong'i tushganda ko'zning ko'rmay qolishi.

Qanday kunlar edi-ya, u kunlar! Ko'p yil bo'ldi, qalbim eshigini bunday narsalarga yopib qo'yganimga yurak urishim ham bir xil har doim, bir marta ham ortiqcha urmaydi. Har doim sanab qo'yardim: oltmish, ha oltmish uch, lekin ba'zida oltmish ikki ham bo'lar edi. Bir shifokor do'stim "Hechqisi yo'q, ko'proq yayov yur, yuraging me'yorda uradigan bo'ladi", derdi. Ko'chada ketayotganda yurak urishimni o'lchay olmayman-ku, axir!..

Birpas dam oldim. So'ngra bitta kapuchino ichdim va yaqin atrofda menga qarab turgan hech kimni ko'rmagach, sekingina cho'ntak soatimni chiqardim va yurak urishimni tekshirib ko'rdim: oltmish uchta...

Na bironta ayol mening yuzimga qaraydi, na apelsinning narxi 5 qurushdan 25 qurushga qimmatlagani meni qiziqtiradi... 5 qurush bo'lsa yerdim, 25 qurush[1] bo'lsa apelsinga ham "alvido" derdim. Istanbul kabi 3-raqamli ko'chaga ham qiziqmay qo'ydim, xafa bo'lganim uchun kechqurungi sayr ham meni ortiq qiziqtirmasdi.

Ikki ko'cha orasida xuddi mahbus kabi borib kelardim, ammo siqilmasdim. Mahallam juda tinch-sokin, ammo ba'zida shovqin ham ko'tarilib turadi. Bu mahallada yashayotgan kishilarning yarmisi yahudiylar bo'lsa, qanday qilib mahallada shovqin bo'lmasligi mumkin?.. Yahudiylar ham yaxshi, ham xushmuomala, ham sershovqin, ham hayotni sevadigan insonlar. Mahallamdagi yahudiylarni unchalik boy odamlar deb ham bo'lmaydi. Aslida mening boylar bilan aslo ishim yo'q. Apelsinfurush mendan qirq tanga ko'proq olgan kuni dunyoning eng sevimli insoni hisoblanadi. Uning ismi Salomon. Qimmat ekan deb do'konidan hech narsa olmagan kunim yomon ko'z bilan qaramaydi, orqamdan ham gapirmaydi. Aksincha, mening haqli ekanimni tan oladi.

Kech tushadi. Kech tushganini bizning madam xonimimizning qandolat do'koni derazasi pardasi tortilganidan bilib olaman. Ichkaridagi sariq xira yorug'lik madam birinchi bo'lib elektr chirog'ini yoqqanini bildiradi. Keyin Salomon shamini apelsin qutisi ustiga qo'yib yoqadi. Undan keyin baliqfurush lampochkali chirog'ini tokka ulaydi. Binafsha rangli piyoz kesilganda lab

[1] **Qurush** (kuruş) — 1 turk lirasi (TL) ning yuzdan biri.

bo‘yog‘i, tirnoq jilosiga o‘xshab go‘zal tovlanadi. Tunes balig‘i semiz bug‘doyrang bir yunon xotinning qo‘pol, ho‘ppa semiz soniga o‘xshaydi...

Men esa mayxonadan chiqib yana o‘sha bechora ko‘chamga qarab yuraman...

Bir raqamli ko‘chada ikkita sozli musiqali mayxona bor. U yerda taksilar to‘xtash joyi ham bor, har doim mijoz kutib turishadi, taksichilar, fohisha xotinlar aylanib pista chaqib turishadi. Mashinalarning oldidagi yashin urmasin deb taqilgan maxsus qurilma deb o‘ylagan narsam antenna bo‘lib chiqadi. Ha, demak ilk qarashda aldanibman. Men ko‘rgan oq tayoq yomg‘irda chaqmoq kabi yaltirab ketar ekan.

Ulkan avtomobilning kichkina dumini, uning tahdidkorona sollanishini yaxshi ko‘raman. Ishkambachining qarshisida yomg‘ir ostida turib shapkamni qulog‘im ustiga tushiraman. Go‘yo uzoq, bir xotinsiz mamlakatdan bu yerga tushib qolgandayman. Tunni birga o‘tkazadigan, ichimdagi dardimni to‘ka oladigan bironta ayol zotini uchratish uchun ko‘zlarimni katta-katta ochib, atrofga alanglab qarayman.

O‘n daqiqadan keyin yoshi mendan ancha katta, gavdasi ham bahaybat, mo‘ylovi oqara boshlagan, sochlari ham to‘kilib ketmagan bo‘lsa-da, oqarib ketgan bir odam yonimdan o‘tib ketadi. Taksichilar uni ko‘rishlari bilan:

— Voy-bo‘, boy ota, assalomu alaykum! — deb salom berishadi.

— Vaalaykum assalom, bolalar, — deb javob beradi u odam.

U taksichilarga Fuzuliy g‘azallaridan birini o‘qib beradi. Taksichilar u ketishi bilan:

— O‘qimishli odam, — deyishadi, — Ammo fe’li-atvori chatoq. Yosh qizlarga juda ishqiboz, eng kichik, eng oddiysini tanlaydi, anoyi emas bu odam...

Odam ro‘paradagi klubga qarab yo‘l oladi. Sal o‘tib men ham u yerga kirib boraman. U musiqachilar o‘tirgan sahnaning oldidan joy olib o‘tiradi. Rosa bashang kiyingan, qo‘llari ham, sochlari, hatto mo‘ylovi ham o‘ziga, ustidagi libosi, vajohatiga mos. Yoshi elliklar atrofida. Kichik sahnada bir, ikki, uch, to‘rt, besh ayol o‘tiribdi.

"Boy ota" ayollardan eng yoshiga ko'z tikadi. U ayol boy otani kokteyl bilan mehmon qilmoqchi bo'ladi. Ichiga to'rt-besh tomchi spirt tomizilgan anor sharbati olib kelishadi. Ichib bo'lgach, yana keltirishadi. "Boy ota" o'sha yerda xizmat qilib yurgan dum-dumaloq, ko'zlari shahlo, istarasi issiq qizni yoniga chaqirib, qulog'iga bir narsalar shivirlaydi.

Keyin uni mudroq bosa boshlaydi, stolga tirsagini tayagancha pinakka ketadi. Oradan ancha vaqt o'tib, ko'zlariga qora ko'zoynak taqqan, ayollarga xos past ovozlar orasida sal dag'al, lekin musiqa usuliga uyg'un tovush qo'shib turgan g'ijjakchi avjga chiqqanda ko'zini ochadi va birdan: "Alloh, Alloh" deya hayqiradi.

Ofitsiant Bakirning aytishicha, u tanishgan qizlarining ko'ksiga boshini qo'yar, yig'lar, uxlar, keyin uyg'onib qo'shiq kuylar, hatto she'rlar ham o'qirmish. Shu tariqa beshta ish-harakatni amalga oshirar, lekin oltinchi fe'l (ya'ni "kulish", "kulmoq" fe'li) ni ifodalovchi ish-harakatni bajarmas emish. Keyin yana uyquga ketarmish. Mayxonaga yashinday kirib kelgan qandaydir mahallaning qandaydir zo'ravonining qandaydir bir odamga baqirganini ham eshitmas, mayxonadagilarning bir-birini urib-yiqitgani, millati laz[1] bo'lgan mayxona egasining bir-ikkita zo'ravonning yoqasidan ushlab ko'chaga uloqtirgani, mayxona oynalarining singanini ham eshitmasdan uxlardi. Hatto ba'zi oqshomlar yomg'ir, qor bilan ichkariga kirgan baquvvat yigitni, semiz gavdasi, yonoqlari, bo'yni, sochi, mo'ylovlari, hatto paltosining yoqalari yog' bosgan surnaychining shimini tugmasini o'tkazayotganini, qari xonandalardan birining uni ko'rishi bilan odob yuzasidan o'rnidan turgani, keyin qo'rqinchli bir ovozda chalib yuborganda ham uyg'onmasdi. Bu surnay navosi kechaning oxirgi nomeridir. Soat o'n birga yaqinlashadi. Surnaychi ikkala yo'g'on, kalta, semiz oyoqlari ustiga o'rnashgan gavdasini xuddi taroziga qo'yayotganday yurib keladi va duxoba yoqali paltosini yechadi; salonning burchagidagi ko'r g'ijjakchiga salom beradi. Nog'orachi yonidagi ko'r g'ijjakchiga surnaychining unga hurmat bilan salom berganini pichirlab yetkazadi.

Yuzi xonandalarning orqasida o'tirgani uchun yaqqol ko'rinmayotgan qonunchining[2] biroz avval soqol olib krem surgan yuzi

[1] **Lazlar** — Turkiyaning Trabzon viloyatida yashovchi millat.

[2] **Qonunchi** — qonun (changga o'xshash musiqa asbobi) chaluvchi kishi.

burisha boshladi. Surnaychi o'z o'rniga o'tirardi. Shimining tugmasi yo'qmi, yo bo'lmasa qorni kattaligidan uzilib ketganmi, ishqilib nima bo'lgandayam, uning yashil ichkiyimi ko'rinib turardi. Buni ko'rgan tomoshabinlar bir-birlariga qarab kulib qo'yishardi. Klub egasi ko'zi-qoshi, boshi bilan unga qarab imo-ishoralar qilar, surnayini o'rnidan turib chalishini aytmoqchi bo'lardi. Surnaychi xijolat bo'lib o'rnidan turadi. Keyin orqasiga o'girilib, hech kimga bildirmasdan shimining tugmasini to'g'rilab taqib olganday bo'ladi. Keyin yana o'z o'rindig'iga o'tirib, atrofiga olazarak qaraydi. Keyin cho'ntagidan bir hamyonga o'xshagan narsa chiqaradi, uzoqdan uning harakatini kuzatgan kishi "tamaki o'ramoqchi bo'lsa kerak" deb o'ylaydi. Yo'q, u surnayga o'rnatib chalinadigan qamish tilchalardan birini tanlayotgan bo'ladi. Birini qo'yib boshqasini oladi. U go'yo bu oqshom uchun maxsus yasalgan qamish tilchani tanlaydi o'zicha. Shu payt men ham o'rnimdan turaman.

Yetti yildan buyon Istanbul shahrida yashayman, biroq bu ko'chadan boshqa ko'chani ko'rmadim. Qo'rqaman, xuddi boshqa ko'chaga kirib qolsam, tutib olib kaltaklashadi meni. Pulimni olib, do'pposlab, shipshiydam qilib ketishadi, deb o'ylayman-u vahima bosadi. Hammadan qo'rqaman.

Bu ko'chalarni to'ldirib o'tayotgan odamlar kim o'zi? Shahar buncha katta bo'lmasa, hech kim bir-birini tanimaydi, hamma bir-biriga begona... Nima uchun odamlar bunaqa tiqilinch shaharlarni qurib tashlashgan o'zi? Hech narsaga aqlim yetmaydi. Bir-birlarini bemalal aldashlari, kamsitishlari, do'pposlashlari, bo'g'izlashlari uchunmi? Bir-birini tanimaydigan, bilmaydigan insonlar qanday qilib bir shaharda yashashlari mumkin?..

Mahalla nima bo'lgandayam mahalla-da. Do'konim yonib ketishi mumkin, och-yalang'och qolishim mumkin. Ammo mana shu ishkambachi oshpaz hech qachon mendan ustiga limon siqilgan bir kosa ishkamba sho'rvasini ayamasligiga, o'lgunimcha meni och qo'ymasligiga ishonaman... Apelsin sotuvchi Salomon chirigan apelsinlarini yalangayoq yahudiy bolalariga tarqatayotganda, meni ko'rib qolsa, mening ham qo'limga ikki dona chirigan apelsinidan beradi. O'sha paytlar egnimdagi kiyimlarim eski, yupun. Shirinliklar sotiladigan do'kon sohibasi bu ahvolda ichkariga kirgani

qo‘ymaydi, ammo eshikning og‘zida “Ol, ich!” deya qo‘limga kapuchino beradi. Bu hammasi xayol, ammo mahallamni men mana shundayligicha yaxshi ko‘raman. Eski tanish-bilishlarni yuzini ham ko‘rishni istamayman. Ba’zan mahalladan o‘tayotganimda bir-ikkitasini ko‘rib qolaman:

— E-he, sen shu yerdamisan?

Men bo‘ynimni egib “Nima qilay, qayerga ham ketardim” deganday termulib qarayman.

— Kim biladi, bir darding bordir! — deydi. Keyin:

— Daydilikdan hecham voz kechmading. Men o‘zimdan voz kechdim, lekin dardimni birovga aytolmayman, — deydi. Yana biri:

— Men seni yaxshi bilaman, yana birontasining orqasidan tushgan bo‘lsang kerak. Yanayam kim biladi... — deydi.

O‘zimni o‘zim ta’qib qilishni ham yig‘ishtirdim. Ammo u duradgorning do‘sti, bir ko‘zi ojiz, bilaklari lo‘mbillagan yahudiy qizni ko‘rsam, o‘zimni qo‘yarga joy topolmay qolaman. Yo‘g‘on, lo‘mbillagan boldirlaridan tashqari yana qanaqa shirin, xushbo‘y taraflari bor bu qizning...

Kecha mahalladan tashqariga chiqmoqchi bo‘ldim. Unqoponidan o‘tib, Sarachxonaga[1] chiqdim. Istanbul ancha o‘zgaribdi, hayron qoldim. Bir jihatdan bu o‘zgarishlar menga juda yoqdi:

Asfalt top-toza, yo‘llar keng, ravon. To‘g‘on ham juda chiroyli joy ekan. Bir chaqirim naridan ham juda hashamatli ko‘rinar ekan. Yonginasida oppoq Gazanferog‘a madrasasi ko‘rk solib turibdi. Parklar, daraxtlar, sayr qilib yurgan insonlar. Atrofga alanglab Qiztoshiga[2] qadar yurib bordim. Keyin Fotihdan[3] pastga qarab yurishga davom etdim, Sarachxonaga keldim. Qarasam, oyna yuvuvchilar bir binoning peshtoqi oynalarini yuvishyapti. Shu yaqinlarda bir hammom bor edi, dedim o‘zimga o‘zim. Shunda birdaniga hammomda yuvingim kelib ketdi... Nima bo‘lsa bo‘lsin, yuvinaman, dedim...

Yetti yildan beri yuvinmagan ekanman... Hatto yuvinish xayolimga ham kelmagan ekan. Bir payt butun vujudim qichishni bosh-

---

[1] **Unqoponi, Sarachxona** — Istanbuldagi tuman (mahalla)lar nomi.

[2] **Qiztoshi**— Istanbuldagi tuman (mahalla) nomi.

[3] **Fotih** — Istanbul markazidagi tuman nomi.

lasa bo‘ladimi... Bitlab ketgan ekanman deb o‘yladim. Hammomga kirdim. Shunday yuvindim, shunday yuvindim, qo‘yaverasiz endi. Badanimdan kirlar arqonday buralib-buralib chiqdi. Ammo rostdan ham mazza qildim. Shunaqangi terladim, shunaqangi terladim... Bunaqasi hech qachon bo‘lmagan. Qo‘limni qayerimga tekkizsam, yo bir parcha teri, yo yog‘, yo bir parcha kir chiqadi... Insonning bunchalik kir bog‘lashini hecham o‘ylamagan ekanman. Inson kirga botib, ustidagi kir qobiqqa aylanib qolishini o‘z tanamda sinab ko‘dim.

Hammomdan chiqib tramvayga minib oldim. Oldin bir uyga kirib chiqib, so‘ngra Tashviqiya[1] tomonlarga boraman, deb o‘yladim. Uyga kirdim. Yotog‘imga uzanar-uzanmas uyquga ketibman. Rosa yigirma soat uxlabman. Uyg‘onib soatga qarasam, ertasi kun soat ikki bo‘libdi. O‘rnimdan turib, ishkambachining oshxonasiga yugurdim. Oshpaz Bayram:

— Ko‘z tegmasin, bugun rangi-ro‘yingiz joyida, Mansurbey, — dedi jilmayib.

Hech narsa deya olmadim, axir hammomga borganimni qanday qilib aytaman unga... Sho‘rvamga sarimsoq soldirmadim. Keyin ozgina sayr qildim. Qosh qoraya boshlagach, Machkaga[2] bordim. U yerlar boshqa bir olam... U yerdan qaytar ekan, yana yetti yil mahalladan tashqariga chiqmaslikka qaror qilay, dedim o‘zimga o‘zim, lekin iloji bo‘lmadi. Boshimni aylantirgan bu ikki kunlik hayotdan nima qilishimni bilmay shoshib qolgandim. Bir muddat nima haqida o‘yladim, bilasizmi? Shu do‘kon bilan uyni sotsam-u, hali so‘z ochganim musiqali restoran bor-ku, u yerda yetkazib berish xizmatida ishlaydigan do‘ngpeshona bir qiz bor edi, esingizdami, o‘shanga sevgi izhor qilib, boshini aylantirsam... Keyin oradan bir yil o‘tib, narigi dunyoga ravona bo‘lsam...

Bir kuni Bosfordan o‘tadigan bir kemaga minib, Babak va Arnavutko‘y[3] yonidan o‘tayotganda orqada o‘tirgan uzun o‘rindiqdan turib tevarak-atrofga qarayman; atrofda hech kim bo‘lmasa, o‘zimni dengizga otaman...

---

[1] **Tashviqiya** — Istanbuldagi tuman (mahalla) nomi.

[2] **Machka** — Istanbuldagi tuman (mahalla) nomi.

[3] **Babak, Arnavutko‘y** — Istanbuldagi tuman (mahalla)lar nomi.

EFTALIKUS QAHVAXONASI[1]

Bir yosh yigit yonimga keldi:

— Salom, — dedi.

— E-ha, salom, — deb javob qaytardim.

So'ngra u men bilan anchadan beri tanishmoqchi bo'lib yurgani, ammo qulay fursat topa olmaganini aytdi. Birga keta boshladik. U shunday gapirar ediki, qanchalik samimiy ekanligini anglash qiyin edi. Agar berayotgan savollari samimiy bo'lsa yaxshiku-ya, aksincha bo'lsa ehtiyotkor bo'lishim foydadan xoli bo'lmasdi. Yoki mazax qilayotgan bo'lsa-chi... Vaziyatga qarab, agar ish teskari ketadigan bo'lsa, u yerdan juftakni rostlaganim ma'qul edi... Ammo so'zlari jiddiy bo'lsachi?.. Bunday samimiyatning sababi uning yosh, tajribasizligi bo'lishi mumkin. Nima bo'lganda ham bir kun kelib hissiyotdan paydo bo'lgan bu qiziqishi yodidan chiqib ketishi tayin edi. Bunaqa o'tkinchi qiziqishga ortiqcha ishonaverish yaramaydi. Aslida shunday bo'lgani uning uchun ham, men uchun ham yaxshi. Shubhalanishimning sababi ham shu edi. Bu ikkimiz uchun ham bir ishora, bir narsaning alomati emasmikan, ajabo?

Yigitning niyati yozish bo'lgani uchun ham, men bilan samimiy munosabatda bo'lish ehtimoli yuqoriroq edi. Ammo, na iloj, ortiqcha aqlli va ehtiyotkor bo'lish zarar qilmaydi. Bu, boshqa tomondan qaraganda mahmadonalikka ham yo'yilish mumkin. Agar mazax qilayotgan bo'lsa, eng to'g'ri yo'l samimiy bo'lish va buni unga sezdirmaslik, o'zini ishonganday qilib ko'rsatish edi. Agar juda aqlli bo'lsa, oxirigacha sen bilan muxlis rolini oxirigacha o'ynashi mumkin. Mayli, o'ynayversin, baribir bu bilan hech nimaga erisha olmaydi. Agar chindan ham samimiy bo'lsa, qanday yaxshi! Bo'lishi mumkin. Esingdami, hozir o'sha sen yoqtirmay qolgan yozuvchilarni oldiga borishga jur'at etmay uzoqlardan kuzatganing? Hatto hozir ham ayrim chet ellik muharrirlarga muxlis ekanliging yolg'onmi? Agar Gi de Mopassan bilan ko'rishib qolsang bormi, bu sakson yoshli chol seni hayratlantirmaydi deb o'ylaysanmi?

[1] Abasıyanık Sait Faik, Alemdağ'da Var Bir Yılan, öykü, Ağustos, 2005, admin.kitaplik@ gmail.com.

Agar u bilan suhbatlashib qolsang bormi, kim biladi, unga qanday bo'lmag'ur savollar bergan bo'larding?..

— Siz bilan shunaqa joyda qahva ichib o'tirishim hecham xayolimga kelmagan edi.

Ko'z qiri bilan uning yuziga sekingina nazar tashlayman. Mazax qilayotganga hecham o'xshamaydi. "U meni mazax qilmayotgan bo'lsa, demak men uni mazax qilishim kerakmi?" — degan fikr xayolimdan o'tadi.

— Sizning hikoyalaringizni...

Hozir bu yigit bir gap aytgudek bo'lsa, keyin pushaymon bo'lishi mumkin. Shuning uchun vaqtni boy bermay mudofaaga o'tish kerak... Qolaversa, bu yigit tanqidchi bo'lmoqchi ekanini aytayotgan edi. Bu ishlarni oxiri voy! Demak mavzuni o'zgartirish kerak.

— Siz ham hikoya yozasizmi deyman?

— Mening yoshimdagilarning barchasi she'r yozadi. Men ham she'r yozaman. Bir ikki marta hikoya yozishga urinib ko'rdim, ammo uddalay olmadim. Ko'proq tanqidiy narsalar yozaman. Nashr etilgan va men bilmagan bironta turk hikoyasi yo'q. Lekin sizning...

— Shu ro'paramizda o'tirgan odamga qarang. Tug'ma ko'r. Ko'ryapsizmi, narigi tomonga qarab "Mahmudbey" deya kimnidir chiqaradi. Demak, o'zini "Taqsim" kinoteatrining yonidaligini, qarshisidagi shirinliklar do'konida Mahmudbey ismli odam borligini biladi. Biz uchun sezish instinkti qanchalar g'ayritabiiy bo'lmasin, uning uchun bu necha yildan beri boylik ekanligini kim biladi, deysiz.

— Masalan siz bu voqealardan ajoyib bir hikoya...

— Bo'lishi mumkin, ammo men bu hikoyani yozmayman. Faqatgina bu ko'r odam o'zining qayerdaligini atrofning havosidanmi, shovqinidanmi bilyapti, shu haqida o'ylayapman. Balki qadamlarini sanayotgandir? Siz qanday fikrdasiz? Faraz qilaylik, o'ngdan to'qson sakkiz qadam yursam, "Taqsim" kinoteatri oldida bo'laman. Uydan chiqayotganimda soat to'qqiz bo'lishiga bir minut bor edi. Sekin yurdim. Hozir soat roppa-rosa to'qqiz bo'lishi kerak. Barak pishiruvchi Mahmudbeyning soat to'qqizda do'kondan chiqqanini hech kim ko'rmagan. Ko'zlaridagi zimis-

tonlik, atrof-muhit ta'siridan xayolida bir yorug'lik yaratgan bo'lishi mumkin. Balki Shishli tomonlarda yurar, Harbiyadagi ovozlar bilan Taqsim parki oldidagi ovozlar orasida biz farqlay olmaydigan nimalar bo'lishi mumkin? Havoda ham qandaydir o'zgarish bormikin? Hatto ko'zlaridagi zimistonliklar orasida ham farq bo'lishi mumkinmi? Ammo, menimcha, ko'proq turli ovozlardan, biz bilmagan, sezmagan, lekin uning uchun oddiy bo'lgan, o'zgarmagan, o'zgarmaslik mohiyatini yo'qotmagan shovqinlardan bilib oladi deb o'ylayman...

Biz ko'chalarning qanday tuzilishda ekanining ham farqiga bormaymiz. Ammo u, burchaklarni, chekkalarni, ko'chaning xaritasini, barcha tafsilotlarigacha xayolida chizgan bo'lishi mumkin. Balki mavzelarning ham hidi bordir. Do'konlar ham alohida hid taratishi mumkin. Uning tovoni sezadigan chuqurlar ham, tepaliklar ham bo'lishi mumkin. Ko'rlik qanchalar eskirgan (modadan qolgan) adabiyotga o'xshaydi-ya. Qilni qirq yoradigan adabiyotga... Men bularning hammasini miyamda tahlil qilar ekan, yosh do'stim meni maqtaydigan gaplar gapirardi. Balki bu so'zlarning ta'sirida ko'r haqida uzundan uzun o'ylayotgandirman.

Mahmudbey ko'r odamni qarshisiga olib, oldindagi yo'lakka kuzatib qo'ydi. Qadamini piyoda yo'lagiga bosar-bosmas ko'r:

— Salom Sodiq og'a, dedi.

— Ooo salom, Mosyo Ivan, bugun vaqtli kelding, dedi Sodiq Bey.

Ivan:

— Qanaqasiga vaqtli, dedi. Soat to'qqizdan o'n daqiqa o'tyapdi. "Taqsim" maydonidagi soat to'qqizdan o'n bir daqiqa o'tayotganini ko'rsatardi. Bunisi ortiqcha edi. Bu orada yonimdagi yosh do'stim hikoyalarimdan qay birini ko'proq yoqtirishimni so'rayotgan edi.

— Bilmadim, dedim.

So'ngra "Eshitdingizmi?" — dedim.

— Nimani?

— Ko'r odam soat to'qqizdan o'n daqiqa o'tganini aytdi, dedim. Ikki daqiqa oldin shunday dedi.

— Yo'q, eshitmadim, dedi.

— Yo'g'-e, — dedim, — rostdan ham eshitmadingizmi?

— Bunaqasi bo'lishi mumkin emas, — dedi.

Bo‘lishi mumkin edi. Birdaniga bir narsa kashf etgandim. Mahmudbey ko‘r odamning yoniga borib bir nimalar dedi, ammo mashinalarning signallaridan nima deganini eshita olmadim. Soatni o‘sha vaqt so‘ragan bo‘lishi mumkin. Bu paytga kelib yosh do‘stim bilan ancha do‘stlashib qolgan edik. Hatto bahs-munozaragacha ham bordik. Hikoyalarimni yoqtirmagan ayrim tanqidchilardan meni himoya qilishini zavq bilan tinglardim. Yana bu payt besh daqiqacha ko‘rning qanday qilib soatni aniq bilganini o‘ylayotganday jim bo‘lib qoldik. So‘ngra:

— Hikoyalaringizni qanday qilib yozasiz? — deb so‘radi.

Kuldim. Meni mazax qilmayotganini bilish uchun yuziga qaradim. Yo‘q mazax qilmayotgandi. Buncha yaxshi bola bo‘lmasa...

— Sizning “Tuturuqsiz odam”[1] nomli hikoyangizni juda yaxshi ko‘raman. Undan keyin “Otạ-o‘g‘il”[2] nomli hikoyangizni ham. Yana bir hikoyangiz bor — “Tasbeh”[3], u ham juda yoqadi, dedi. “Shiyponchali mozor”[4] hikoyangiz ham yomon emas...

Xijolatda edim, ammo og‘zim quloqlarimda, jim turardim.

— Ammo savolimga javob bermadingiz-ku? — dedi.

— Qanaqa savol bergan edingiz?

— Hikoyalaringizni qanday yozasiz? — deb so‘ragandim.

— Bilmayman, deya oldim.

O‘yga toldim: sal naridan ko‘rning ovozi kelar, u Sodiq afandi bilan baqirib gaplashar edi.

— Bilmadim, — dedim yana takrorlab, shunday ko‘r-ko‘rona. Mana masalan, hozir bir hikoya yozyapman. Hatto nomini ham topdim, — dedim.

— Nomi nima ekan?

Demak hikoyaning nomini oldin qo‘yasiz, demadi.

— Yo‘q, lekin bu nom menga juda yoqdi, — demadim.

— Nima ekan? — deb so‘ramadi.

— Eftalikus qahvaxonasi. Hatto “Eftalikus”ning o‘zini qoldirib, “qahva” so‘zini olib tashlash ham mumkin. Hikoya bilan aloqasi ham ikkinchi darajada bo‘lishi mumkin.

---

[1] “Lüzümsüz Adam”.

[2] “Baba-oğul”.

[3] “Tespih”.

[4] “Kameriyeli Mezar”.

U ichimdagi aytmagan gaplarimni ham anglaganga o‘xshardi:

— Demak hikoyani shunday yozasiz, — dedi.

— Qanday? — deya bu safar men so‘radim.

— Qayerdan bilay, — dedi. — Avval nomini qo‘yasiz. So‘nga bir natijaga bog‘laysiz.

— Yo‘q, unaqa emasdir, — dedim. — Bunday qilmayman. To‘g‘risini aytaymi? Men hikoyaning qanday yozilishini uncha yaxshi bilmayman, — dedim.

Hisobni to‘lash uchun o‘rnimizdan turdik. Yigit hisobni men to‘lamasligim uchun samimiyat bilan tez harakat qilib to‘ladi. Yonimizda qahva ichib, narda o‘ynayotgan ikki kishi, bizning “Men to‘layman, sen to‘laysan” deb tortishayotganimizga qarab kulimsirab qo‘yishdi. Ofitsiant mening shapkam va egnimdagi kamzulimga qarab ahvolim yomonligini anglab bir qarorga keganini taxmin qildim va shuning uchun mendan pul olishni istamadi. Shu payt haligi yosh do‘stim qahva pulini to‘ladi. Men:

— Xijolat qildingiz, — dedim.

Eftalikusning zinalaridan yurib pastga tushdik.

Shunday qilib hikoyalarimni qanday qilib yozganimga qiziqib qolgan yosh do‘stim, ertaga anjir danagini ham to‘ldirolmaydigan mavzularda hikoyalar yozgan bir hikoyanavis emasligini yozishiga ko‘ra, bilmadim, hikoyam qanday chiqdi?.. Yaxshi chiqmagan bo‘lsa, nima qilish kerak?.. Bizning hikoya haqidagi tushunchamizning bo‘lgani shu, afandim...

“Varlık” (361), 1950-yil 15-avgust

DAYDI BOLA VA KUCHUKCHA

Bolakay kuchukchasini yelkasiga mindirgancha ketib borardi. Uning o‘zi ham, kuchugi ham isqirt emas, lekin toza deb ham bo‘lmasdi. Bolakay o‘n yoshda, kuchukchasi esa endigina ikki oylik bo‘lgan edi. Tun yarimlab qolgandi...

Beyo‘g‘li[1] tongotar pallada O‘rta asr shahriga o‘xshardi. O‘rta asr bo‘lgandayam shunday O‘rta asrki, uyg‘onar uyg‘onmas qip

[1] **Beyo‘g‘li** — Istanbuldagi mashhur mavze (tuman)ning nomi.

yalong‘och asirlar aravasida mantiyalarga burkanib olishgan, boshlariga muzaffarlik gulchambari taqib shaharni o‘z hukmlari ostiga olganday edilar.

Po‘stinlarga, zirhlar kiyib olgan, oltin kumush bilan bezatilgan charm ust-bosh kiygan askarlar kelar, atrofi yarim metr keladigan temir eshiklardan ayollar baqir-chaqir qilib chiqishardi. Bu ayollar shu qadar go‘zal, ohu ko‘zli, qaddi-qomatlari kelishgan ediki, agar podshoh saroyining bosh rassomi bularni ko‘rguday bo‘lsa, sochini-boshini yulishi tayin edi. Bu ayolni qo‘yib ikkinchisiga, ikkinchisini qo‘yib uchinchisiga qarab chopardi. “Buni menga bering! Buni menga bering! Bu ayol mening tushlarim, ro‘yolarim, umidsizliklarimdir. Faqat u bilangina men o‘lmas asarlar yarata olaman”, — deb atrofga yuguradi. Tanla deyishadi, ammo tanlamaydi. Boshiga zaytun va dafna shoxchasidan yasalgan g‘alaba chambari taqqan hukmdor qahqahalar otib butun oltin-u kumushlarini shaqirlatadi.

Keyin qip-qizil quyosh yetmishta ko‘p eshkakli kemaning ustuni, halqasi, kumushi, oltini, bronzasi, asirligi orasidan kecha yetmish yetti kema cho‘kib ketgan dengizlarni olovga yo‘naltiradi.

Nihoyat, tush payti quyosh tik kelgan chog‘ zabt etilgan shahar aholisi ko‘chalarni to‘ldiradi. Tepadan pastga qarab dumalayotgan har biri kulbaday keladigan sharob bochkalari shovqini eshitiladi Bir semiz dengizchi og‘zini bochkaning og‘ziga qo‘yib bo‘g‘ilguday bo‘lib sharob ichadi. Nomusi bulg‘angan bir ayol bir jangarini bo‘g‘zidan tishlaydi. Qayerdadir it huradi. Kemalardan qochgan qorni to‘q qoplonlar mahalla oralab hech kimga tashlanmasdan mast kezib yurishadi.

Oqshom tushadi. Shaharni zaytun yog‘i hidi, shabbo‘y va anbar hidlari qoplaydi. Sukunat ichra shahvat, asirlik, ko‘z yoshi, or-nomus toptalishi, ochlik va to‘qlikka to‘la qalin qora parda butun shaharni qoplab oladi. Temir darvozalar taqa-taq yopiladi. Faqat hukmdorning saroyi tarafdan qahqahalar va musiqa sadolari keladi. Oyoqlariga kigiz etiklar kiyib olgan navbatda turgan navkarlar atrofni kuzatib aylanib yurishibdi…

Daydi bolakay kuchukchasini yelkashiga mindirgancha tun yarimdan oqqan chog‘ Galata sari yurib borarkan men miyamda ush-

bu filmni ishladim. Kuchukcha bezovtalanib birdaniga hura boshladi. Bolakay kuchukchani bo‘ynidan olib yerga qo‘ydi.

Shunda kuchukcha suyunganday g‘ingshib o‘ynay, sakray, vovullay boshladi. Daydi bolakay:

— Tushundim, qo‘shiq aytishimni xohlayapsan, shundaymi? — dedi, kuchukchasini erkalab...

Hayvonlar orasida insonning tilini eng yaxshi tushunadigani kuchuklar hisoblanadi. Juda ko‘p so‘zlarni tushunishadi bu jonzotlar. Inson bilan itlar orasidagi lug‘atcha boshqa hayvonlar orasidagi lug‘atchadan ancha boydir...

Kuchukcha go‘yo bolakayning so‘zlarini tushunganday jim bo‘lib qoldi. Bolakay qo‘shiqni boshladi:

Mahkamada oyna bor, oyna bor,
Qiz qo‘lida tamg‘a bor, tamg‘a bor.
Ko‘zlarimdan o‘qib ol, Qorabosh,
Sen ham menga oshiq-u beqaror!

Bolakay kuchukchasiga egildi. Uni xuddi g‘ijimlayotganday siypalay boshladi:

Men ham senga oshiq-u beqaror! — dedi.

Shundagina 1948-yilda Istanbul shahrida Beyo‘g‘lidan Galata ko‘prigiga qarab enib boruvchi bir qiyalikning o‘rtasida ekanimni sezdim...

“Yedigün” (21), 1948-yil 7-avgust

QO‘RQUV

Yaxshi eslayman. O‘spirinlik davrlarim edi. Sigir, yo‘l va suli hidi anqib turgan kigizning ustida o‘tirib, yumshoqqina, do‘mbillagan qo‘llarini silkitib yo‘lning ikki tomonida uchayotgan qushlarni olqishlardi. Sevgilimning dengiz sohilida lojuvard robuga burkanib yurganini tomosha qilaman. Yo‘ldan ketib borar ekanman meni qo‘rquv bosadi. Ha, bu shunchaki qo‘rquv emas, sevgi qo‘rquvi,

muhabbat dahshati. Boshqa orzular, ehtiroslar ichida yo'ldan borar ekanman meni ovora-yu sargardon, yalang'och, tom ma'noda ko'chaga haydagan birgina narsa ekanligini bilaman, undan zimistonlikdan, riyodan, zulmdan, tutqunlikdan qo'rqqanday dahshatga tushaman. Hammani, hamma narsani, ilm-fanni, falsafani o'rtaga o'yinga chiqaradigan, yumshoq va go'zallikning bug'ini chiqargan insonlarni bolaligimdan bilaman.

Yolg'iz, yuz-ko'zlari, qosh-u kipriklari, yelka va oyoqlari emas, halqumi, qalbi, bo'g'zi va hijob-i hojizi[1] go'zal insonlar bor. Haqiqiy oshiqning ko'zlari esa jismoniy go'zallikdan ko'ra insonning ichki go'zalligini ko'proq ko'ra olar ekan. Ya'ni oshiq insonning ko'zlari jismoniy go'zalliklarning botiniy tomonlarini ko'rar emish. Baribir, ishonmayman. Ishonmasam, unda bu qo'rquv nimaga? Allohga ishonmayman deydigan kishilardan ko'pchiligi ba'zan so'nggi nafaslarida, ba'zan esa kutilmagan tahlikaga duch kelgan paytlarida "Alloh" deb yuborib, o'z so'zlarida samimiy emasliklarini isbot qilib qo'yar ekan. U holda men ham bu fikrimda samimiy emas ekanman-da?.. Chunki qo'rqaman. Bu xulosaga oldin, "Baribir, ishonmayman" degan paytim kelmaganman...

Qish kunlaridan biri edi. Oppoq qor yerni qoplagan, atrofni chang'i uchayotganlar to'ldirishgan. Qahvaxonalar, kafelar tagi mixli poyafzal kiygan, yuzlari qip-qizil, boshlariga sariq shapkalar kiygan xushchaqchaq sportchi ayol-u erkakka to'la. Musiqa yangraydi, yorug', oynavand savdo markazida to'plangan odamlar...

Oldindan sezish qobiliyatim menga xiyonat qilgandi. Ya'ni hamma narsani xuddi hozir yuz berayotgandek his qilar, ammo bularning hech qaysi biri to'g'ri bo'lib chiqmagach oldindan sezish qobiliyatim meni aldadi, der edim. Yuz berishidan oldin sezilgan narsalar falokatdir. Falokatlarning ham o'zlariga xos hidlari bo'lmasa, burnimizdan boshqa, itnikidan ham hassos boshqa bir hid sezish qobiliyatimiz borligini ayta olmasdim. Qo'rquv ham bir oldindan sezishdir. Faqat voqeadan o'nlab chaqirim uzoq emas, shunday yonginamizda, bir necha qadamgina naridadir.

Qo'rquvdan muzdek terdan tashqari, u o'sha iliq, qaynoq va zimistonlik kabi ham shirin, ham yolg'izlanib qolgandek bir narsani

[1] **Hijob-u hojiz** — bo'yin va ko'krak orasi.

his qila boshladi. Qo'rqish uchun har doim ixtiyorimizda yetarli vosita bor. Agar u bir zavq bo'lganida edi, qo'llarimiz orasidagi yumshoq siynalardan va og'iz bo'shlig'imizdagi haroratdan qurib qolgan lablardan farqi bo'lmasdi.

Men bu shaharchada yashashga qaror qilishdan oldin qo'rquvni, balki oldindan sezishni, kaftlar haroratini unga baxsh etgandim. Yangi xobbi topganday asfalti buzilgan, chiroqlari xira yonadigan ko'chadan ketib boryapman. Qor yog'ar, paltomning baland yoqasini ko'tarib olgandim. Ko'chaning qayrilgan burchagida joylashgan kinoteatrning qo'ng'irog'i chalina boshladi. Yonimdan shoshilib o'tgan kishilar meni ko'rishlari bilan qo'rqayotganga o'xshashadi.

...Kutganim kelmagan kunlarni eslamoqchi emasman. U kunlar bir-biridan, shaharga yog'ayotgan narsa qor yoki yomg'ir ekanligi bilan ajralishi mumkin. Kinoteatrning qo'ng'irog'i bir xilda chalinar, kinoteatr ichida esa bir xil film davom etar, bir xil insonlar oldimdan o'tar, biletlarini olib kinoteatrga kirib kelishardi. Kinoga keluvchilar ob-havoga ham qarardi.

Shamolsiz faqat sovuq havoda va yulduzlar ostida qo'ng'iroqning ovozi yanada tiniq eshitilardi. Kinomexanik filmni barometrga ko'ra o'zgartiradi. Bulutsiz havolarning insonlari kinoteatrni to'ldiradilar. Bu kinoteatr uzoq va shovqinsiz bir ishchilar mahallasiga tegishli edi. Unga uzun koridor orqali kirilar edi. Sahnada ikki ingichka palma ichida yam-yashil chiroqlar yonib turardi. Bir chekkada hovuz ham bor edi. Favvora chiroqlar bilan rango-rang tus oladi, pishqiradi.

Teatrda ovozsiz filmlar namoyish etilar, bir burchakda pianino chalinib turardi. Bir to'da bola orasiga borib o'tirdik. Ilgari kinoteatrda hushtak ham chalishardi. Oq pardada qaroqchilar aks etadi... Qaroqchilar yengiladi... Dushman mag'lub bo'ladi. Nihoyat yosh yigit sevgilisining visoliga yetadi.

Kinoteatr ichida hech kim bir-biri bilan gaplashmaydi. Birozdan keyin qo'yiladigan film aslida mening miyamda allaqachon boshlanib bo'lgan.

U ma'sumona yig'lardi...

So‘ngra hamma bilan birga kinodan chiqar edik. Jim ketib borardik. Eshikning qulfiga kalitni tiqib ochib, qop qorong‘i xonaga kiramiz.

Bir kuni ustiga yashil movut solingan stol atrofida qarta o‘ynab o‘tirardik. O‘yin tugagach stolga solingan movut olindi. Shunda stol birdan kichrayib qolganga o‘xshab ko‘rinardi. Men hayratda edim... Odatda shunday bo‘ladi: kichkina narsa birdan ko‘z oldingda kattarib qoladi, qisqa — uzayadi...

U yonimda ekan qo‘rqmasdim. Uyning tashqari eshigi yopilar-yopilmas derazadan ichkariga, yotog‘imning oyoq uchi tomoniga nur tusha boshladi. O‘rnimdan turib xonaning ichiga butkul boshqa ko‘z bilan qaray boshladim...

U haftada bir marta kelardi. Keyin soat ikkida yana qaytib ketardi. U ketgach men xuddi odam o‘ldirgandek xarob ahvolda qolar, tong otishi, politsiya kelishini, qonunni kutardim.

Tong otishidan oldingi nimqorong‘ilikda jinoyat ham qilinmaydi, hatto urush davrida ham kallayi saharlab o‘q otilmaydi. Ertalabgacha sabrim chidamay, bunday fursatni yana bir marotaba qo‘ldan boy bermaslik uchun bu tog‘ shaharchasini endi yelkamning chuquri ko‘rsin deya orqamga o‘girilib ham qaramasdan tark etdim.

SUT

Necha yillardan beri umrimda qilmagan bir ishni qildim: sut ichdim. Do‘konning ichida suv bug‘i, sut hidi, insonni qirq yil avvalgi, bir yig‘latib, keyin uxlatadigan beshik xotirasiga yetaklardi... Ha, ko‘p yillardan buyon na erta turganman, na sut ichganman. Ish sutdan boshlanar edi. Barmoqlarimiz onamizning ko‘ksida. Tishsiz bir jonivorning og‘zi ona ko‘kragida... Hecham eslamaymiz u kunlarni. U sutni deb to‘kkan ko‘z yoshlarimiz, xira, bu dunyoni ko‘rmaydigan ko‘zlarimiz...

Sut bilan boshlanib sharob bilan tugagan kunlarimiz bu tong, ilk chinqirishim, ilk izoh berishimdan boshlanib, nihoyat tugaydi. Bulardan hech narsa qolmadi. Hammasi bu soatni, bu tongni sutchi

do‘koniga kirganim daqiqaga qadar olib kelib, eshikdan uzoqlashdilar. Ilk chinqirishim, beshigim, onamning ko‘krak suti, sevgim, nafratim, o‘zimni bilishim, anglashim, sharob, aroq, qimor, xotinlar, shahvat, bir do‘stim bilan birga o‘tkazganim maroqli kunim, o‘sha sut deb yig‘lagan men bilmagan, ha hech qachon bilmagan bolakay:

“Mana seni biz mana shu yerda qoldiramiz. Sut ichmoqchimiding? Qo‘ysangchi! Biz sutdan to‘yganmiz. Sen qanaqa odamsan o‘zi! Essiz! Mayli, Xudo yor bo‘lsin! Modomiki bu eshikdan kiribsan, endi sen bilan oramiz ochiq...” Shunday deya orqamga o‘girilib qaradim va:

— Yo‘qollaring, — deb baqirdim. Ular shamol ichra bir-birini bosib yanchayotganday qochar edilar.

Sutchi do‘koniga ruhan xuddi onadan yangi tug‘ilgan odamday bo‘lib kirdim. Ich-ichimdan bir na’ra tortgim kelardi. Ha, xuddi yangi hayotga qadam qo‘yayotganday edim. Bundan keyin har tong onadan yangi tug‘ilganday pok bo‘lib uyg‘onaman, burnimga o‘sha toza, iliqqina, ko‘pirib turgan sut tomchilarining xushbo‘y hidini, tomirlarimda yumshoqlik olib kirgan pokiza shamoldan nafas olib, aksirib yuboraman... Onamdan emgan sutim to‘g‘ri ma’noda burnimdan chiqadi...

Sut sotuvchi do‘konidan olingan ko‘pirib turgan iliq sigir suti to‘ldirilgan kosaga non to‘g‘rayman. Yangi kun boshlanadi. Sut hidi kelib turgan dunyoni ko‘ramiz. Og‘zimni kuydirgan qizitilgan zaytun yog‘i hididan uzoq sulh va hurriyat ichida bir sut to‘lib-toshgan dunyoda qirq ikki yil o‘tib xuddi qaytadan tug‘ilgandek nafas olaman.

Qo‘llarim yorilib ketgan, rangim tuproqday bo‘zargan, mag‘rur va hur, ozodman. Bu safar beshikdagi jonivorni yenggan, ammo uni yengunicha soch-soqoli oqargan bir insonday ko‘pirib turgan sutni sipqoraman...

Tashqarida yomg‘ir yog‘moqda. Men haliyam sutchi do‘konidaman. Ko‘nglim xotirjam. Endi eslaydigan, sog‘inadigan hech narsam yo‘q. Bularning hammasi uchun bir kosa sut yetarli ekan. Bu qanday holatki, har tuynugidan nur taralib turgan buyuk xotiralar qasrini vayron qilishi mumkin...

Tashqarida yomg‘ir tinmay yog‘adi. Mayli yog‘aversin! Baribir, vaqti-soati kelib tinadi, abadiy yog‘maydi-ku, axir! Shu topda xayolimga bir misra keladi:

“Hech bunday ekanligin ko‘rmagandik fasli bahorning”

Shunda misralardan, baytlardan, romanlardan va boshqa turli kitoblardan qutulishim kerakligini o‘ylab qoldim. Yangi bir dunyoga kirib borayotgandim. Yap-yangi she’r, yangi yozilgan roman o‘qishni, yangi chizilgan rasmlarni tomosha qilishni istardim. Yangicha yozish uchun yangidan turkcha o‘rganishim kerak. Yangicha his-tuyg‘ular, yangicha tafakkur, yangi kitob topishim kerak edi. Sutchi do‘konidan chiqar-chiqmas temir eshikdan ichkari kirganimda bir paytlar quvib solganlarim endi atrofimni o‘rab olishadimi?.. Yana hammamiz birga yomon xulq-atvorlarimizga qaytamizmi? Sut hidi o‘tgan zamon bilan istiqboldagi kunlarni bir-biriga tutashtirib turgan zanjirdagi bir halqa emasmi?.. Ko‘chada yomg‘irda qolgan paytlarim yonimdan chopib o‘tayotganlarga qarab shunday degim, hayqirgim keladi: “Mana shu sutchi do‘konida qanaqa ahmoq edim-a. Menga xabar bergan edingiz-ku! Aybga buyurmaysiz! Hammamiz ham insonmiz, bunaqasi bo‘lib turadi, kechiring meni! Sizni xafa qilib qo‘ygan bo‘lsam, meni afv eting!”.

Sutchi, “Yana bir stakan beraymi?” deb so‘radi. Yana bitta sut ichdim. Yo‘q, endi bu sut oldingiday ta’sir qilmayotgandi.

Yomg‘ir ichra yashirin har kungi dunyo: “Qani tezroq bo‘l! Bu yoqqa kel. Biz bilan birga bo‘lishing kerak. Sutchining do‘konida xuddi onadan qayta tug‘ilganday o‘tirmaysan. Seni kutib qolamiz, hammamiz seni intizorlik bilan kutib qolamiz. Ularning orasida o‘ynayotgan o‘yiningni bitirishga majbursan. Qayta tug‘ilishning iloji yo‘q. Hatto tug‘ilsang ham nima bo‘lardi... Seni ikki yilda, qanaqa ikki yil, ikki kunda odam qilamiz. Faqat o‘zini o‘ylaydigan, qizg‘anch, rashkchi, yomon fe’l-atvorli, ichuvchi bo‘lib qolishing mumkin. Seni oyog‘ingdan chalib yiqitish uchun hamma imkoniyatimiz bor. Sen qanaqa dunyo bo‘lishini istaysan? Ko‘z ko‘rib quloq eshitmagan, tatib ko‘rilmagan, yozilmagan, boshdan kechirilmagan...

Shunaqayam bo‘ladimi? Qani bu yoqqa kel! Har kungi hayotingga qayt. Endi, bundan keyin kechqurun yotar payti sut ichmaysan,

suv bilan spirt aralashtirilgan uzum shinnisi ichasan. Hayotdan shunday mamnun bo'lasanki, hozirgidek qo'l bilan ushlab, ko'z bilan ko'rib bo'lmaydigan, faqat onda-sonda ko'zga chalinib qoladigan, sharob bilan boshlanadigan soxta qahramonliklarga to'la orzu-umidlar haqida o'ylar ekan, erta tongdagi holatingni eslab, o'zing ham uyalib ketasan...

Ertaga yana har tong bo'lganidek uyqudan uyg'otamiz seni".

Do'konning ichidagi ko'pirgan sutning hidi devorlardan zax-rutubat kabi oqadi. Qalpog'imni boshimga qo'ndirib ko'chaga yugurdim. "Yo'qolinglar ko'zimdan" deb baqirganimdan keyin bir xastaning yoniga yaqinlashgan doktorlar, hamshira va sanitarlar, qo'riqchilar ehtiyotkorlik bilan yonimga kela boshlashdi. Meni qo'ltiqlab oldilar, yelkamga qo'llarini qo'yib, kutilmaganda yoqamga yopisishdi. Shunda birdan hammasi... Egnimda aqldan ozgan kishilar kiyadigan ko'ylakning tugmalari o'tkazilgan, oyoqda turardim...

Oh, ikki piyola sut, sen nimalar qilib qo'yding?..

XARITADAGI BIR NUQTA

Bolaligimdan beri qay mahal xaritaga ko'z tashlamay birdan orollarni izlay boshlayman; shahar, viloyat, turfa joy nomlaridan keyin moviy sohilga ko'zim tushadi... Har holda "Robinzon Kruzo"ni o'qiganman, hatto unutib ham qo'yganman. O'sha asar ta'sirida xaritadagi moviy kengliklarni ko'rib kimsasiz orol nomini o'qiganimda xayolga sho'ng'ib ketganimni o'zim ham bilmay qolaman. Romanlarni o'qiyverib orollarni yaxshi ko'rib qolganman deb aytolmayman, lekin kim biladi, balki shu sababdandir. Ko'zim xaritadagi orollarga tushdi deguncha ko'nglimdagi beg'ubor tuyg'ular, mehr-u muhabbatga yo'g'rilgan hislar junbushga keladi. Hali hamon ko'zlarimga tikilayotgan kuchuk, shuningdek, kamgap, og'ir, vazmin, tirishqoq, egniga shol tashlab olgan baliqchi, chirigan linoleum hidi va taxtalari qoraygan, bo'yog'i o'chgan, og'ir va qo'pol sandiq, sandiq ustidagi qush, to'r, baliq, pul, sohilda o'ynayotgan biram g'aroyib bolalar, ori-

yatli odamlarning kulbalari, qaldirg'ochlar, dulgar balig'idan qaynatilgan sho'rva, ko'katlar hidi, bug' purkayotgan qora qozon va ufqlari kaftdekkina ko'ringan tumanli dengiz xayolimda jonlanib ketadi.

Tabiat ko'pincha bizga do'st bo'ladi. Hatto u dushmanga o'xshab ko'ringan paytida ham odam bolasiga o'z kuch-qudratini, tajriba-yu imkoniyatlarini beradiki, bu jihati bilan u ko'zga ko'rinmaydigan ota qiyofasiga kiradi; uning bo'ronida qayiqni suvga tashlagan zahoti suzishini, uning shamolidan kulbalarning tomi uchib ketganida bizga yanada pishiqroq bo'lishni, hunar o'rganish lozimligini uqtiradi; yirtqich hayvonlarga to'qnash kelgan vaqtimizda mushaklarimiz kuchini sinaydi. Men u yerda, to'rt tomoni suv bilan o'ralgan joyda, odamlarning bir-biriga bo'lgan buyuk va haqiqiy do'stligi, jismonan baquvvat odamlar, kecha-kunduzini halol kechirib, bir-biriga xolis yordamlashishni buyurgan shamollar, dovullar, dengiz yirtqichlari borligini tasavvur qilardim; qoyalarda har kun, har hafta mavj urib toshayotgan dengiz to'lqinlari faqat tabiat qonuniyatlari asosida yashashini, kuchli va jismonan baquvvat insonlar zaif insonlarga yordam berish uchun, zukko aql egalari zehni o'tmas, sust, og'ir va sekin qabul qiluvchi insonlarga, hatto do'stlaridan qimmatli maslahatlarini ayamasligini bilardim; yemishga zor odamlarga issiq ovqat berib ular bilan baham ko'rganida ovqat hidi mushk anbar kabi hid taratishini bildirib, balki bildirmasdan shunday mukarram, shunday mo'tabar onadan tug'ilganini xayoliga keltirgani haqidagi o'ylar bilan xaritadagi moviy kenglik o'rtasida, ulkan qit'alar qirg'og'idagi katta dengizlarning bir tomoniga yopishtirilgan orollarga qarab xayolimda turli tasavvurlar paydo bo'lardi.

Yotoqxonamga ham shunday xaritalardan birini osib qo'ygandim; kechalari uyqudan oldin o'qiyotgan kitobimga ishonch hosil qilolmasam, zerikib qolaman va kitobdan chalg'igan paytlarimda ko'zim xaritaga tushsin degan maqsadda osib qo'yganman, albatta. Xaritani ko'rdim deguncha undagi nuqtalar orollarga aylanib qolar, orollarni ko'rganimda esa to'satdan bo'ronlar-u shamollarning guvillayotganini, itbaliqlarni, keyin birdaniga orolning oriyatli kishilarini esga olardim. Xaritada turli-tuman ola-chipor

shakldagi orollarga qarab yoshi ancha joyga borib qolgan keksa chol-kampir xayoli yoki hislari kabi xayolga sho'ng'ib nuqtalarning shakl-shamoyilsiz narsalarni kashf qilgani diqqatimni tortardi.

Bir kuni yarim kechasi to'satdan motorli qayiq moyga bulg'angan holda bandargohga yaqinlashdi, chiroqlari qon rangida yonayotgan xaritada nuqta bo'lib ko'ringan orolga chiqib ketdim. Yaltillab ko'ringan soqoli uch kundan beri ustara ko'rmagan, oppoq, o'rta yoshli, po'stinli paltoga burkanib olgan, yoqalari ko'tarilgan bir odam jilmaygancha darrov menga yaqinlashdi.

— Keldingmi, ukam? — dedi.

— Keldim, og'a, — deyman.

— Endi ketmaysan-a?

— Ey, — deyman, — bir marotabami?.. Bir marotabami?..

— Orolimizdan yaxshi orol yo'q.

— Yo'q ekan, aka, — deyman.

— Otam sizlarga umr...

Ko'zimiz oldi loyqalanib taxtadan pana qilingan ko'zga tashlanmas bog'li uyga kiramiz. Osma chaylaning ostidan o'tamiz.

— Men yuz-qo'limni yuvib olay, huv ana... — deydi; uyga kirmasdan o'ng tomonda chashma bor, — eslatib yuboradi, unga qarab yuraman.

Hayajondan, xafaligimdan va uyatdan titragancha suvni yuzimga urib-urib yuvardim. Ikkita-uchtacha kishi bo'ynimga osilishadi. Qo'shnilar ovozi keladi. Hurkib ketgan tovuqlar qaqaqlar, onam yig'lar, akam non kesar, singlim stakanlarni to'ldirar, men esa devordagi to'rlarni tomosha qilaman.

— Aka, bugun havo janub shamolimidi? — deyman.

— Shamol turganida janub shamoli boshlandi. Peshinga kelib G'arbga tomon burildi. Hozir G'arbda qora sovuq esyapti, ammo havo o'zgaradi, qora sovuqqa aylanadi.

— Aka, qora sovuqning oxiri qorga aylanadimi?

— Sen kelgan joylarga qor yog'adi, ammo bizga ko'p yog'maydi... Sen o'zing tuzukmisan? Ko'rinishing yaxshi, ofarin!

— Xudoga shukr, aka!.. Qishloq qanday?

— Sen bilgan o'sha qishloq, ukam! Har doimgidek... Bolalar karta o'yiniga qattiq berilib ketdi; boshqa kamchiliklar yo'q.

— Ular kartani pulga o‘ynashadimi?

— Yo‘g‘-e, ukajon! Pul qayoqda ekan pulga o‘ynasalar. Tutgan balig‘iga, qayiqchasiga, qarmoq ipiga yoki qarmoq ignachalariga o‘ynashadi. Qani pulga o‘ynab ko‘rsinlar-chi...

Ana fransuzlarning “l’enfant prodique”[1] degan bitta yigiti bor. O‘sha bola men edim; yotoqxonamga isrofgarlikdan, telbalig-u darbadarlikdan qaytgandek bo‘laman. Chiroqni o‘chirishim bilan hali uyquga ketmay turib zarrin nurlarini sochayotgan erta tong quyoshi, qayiqlar, baliqchilar qishlog‘idagi barcha odamlar ko‘z oldimdan o‘ta boshlaydi. Darz ketgan uchiga gullar va baliq surati solingan qo‘shaloq qayiqlar bir lahzada uzoqlashadi.

Bugun dengiz tikilayotgan ona timsoliga o‘xshaydi. U shuncha noz-u karashmalar bilan jilvalanib, shu qadar nurli, sokin, rezina etik misoli yaltillab ko‘rinardi. Uning ertasi bor. Dengiz to‘lqini siniq shisha parchalari yanglig‘ keskir va sovuq bo‘lgan paytlarida esadi, suv jonivor boshidan kirib chiqadi.

Mana bolaligim va yoshligimda ko‘rgan xaritalardagi orollar, so‘ngida bir kuni sog‘inganimdek tasodifan bitta orolga tashlab ketishdi. Yoshim o‘rta yoshlarga yetgandi, ammo nihoyat asl uyimga qaytgandim. O‘n to‘rt yoshlardagi sariqchadan kelgan bolakay go‘yo birpasda ulg‘ayib qolgandi. Motorli qayiq meni katta shaharlar tomon olib ketgandi. U yerda hayot kechira boshladim. Cho‘ntaklarim pul ko‘rdi, ayollar bilan maishatda bo‘ldim. Turli hislar qurboniga aylandim. Qimor-u o‘g‘irlikni, qamoqxona-yu fohishaxonalarni ham ko‘rdim. Cho‘ntakkesar o‘g‘rilar bilan do‘st tutindim. Shilqimlik qildilar, men ham shilqimlik qildim. Ochlikda kun kechirdim. Pul o‘g‘irlab or-nomusimni ham yo‘qotdim. Sevib sevilmadim. Mana, hozir holdan toyib, hamma narsamdan ayrildim; meni o‘sha joylarga olib borgan motorli qayiq bilan yana ortga qaytgandim.

Endilikda or-nomusli odamlar orasida boshimni quyi solib, jiddiy, maishatdan yiroqda, sabr-toqat bilan, yomonlikni ko‘z ishorasidan ilg‘ab olib jasoratdan so‘yilajak hayvon qiyofasida unsiz, sokin, og‘ziga urib, luqmasini ol qabilida baliq oviga chiqib, yaxshiliklardan sog‘inch hissini tuyib, umrimning so‘nggi kunlari-

[1] Pulini ayamasdan bekorchi narsalarga sarflaydigan, isrofgar yigit.

ni shu yerda, oxirgi sovuq nafasimni baxtiyor holatda yakunlamoqchi edim.

Kuz uzoq va ajoyib o'tdi. Chayladagi yaproqlar qizillikning eng so'nggi manziligicha asta-sekin qizarib, qizillikning rang o'yinlari jarayonida xazonga aylanmasidan oldin ancha vaqtgacha chayqalib turdi.

Asta-sekinlik bilan odamlar orasiga kirishga harakat qilardim. Otamdan meros qolgan uyimiz onam tufayli yashnab turardi. Men esa oldinlari u yerda boshini qumga tiqqan tuyaqushga o'xshardim. Endi butun tun-u kunim shu yerda o'tardi. Tevarak-atrofdagi odamlarning barchasi menga qaraganda juda yaxshi, judayam or-nomusli, boya aytganimdek, uyiga qaytgan *isrofgar bola* qiyofasida atrofga razm solardim. Mening niyatim hatto asar yozish emas. Baliq ovlashga bormoqchiman. O'n qurushga qahva olib, yigirma qurushlik qishloq tamakisidan tutatmoqchi edim. Barcha yo'qotgan narsalarimni: insoniylik, jasorat, sihat-salomatlik, yaxshilik, soflik, pokdillik, do'stlik, halol mehnat, sokinlik — hamma-hammasini qaytadan topmoqchi bo'ldim; balki qaytadan odam bo'lolmasam, hatto pokiza hayot qo'ynida ko'nglim talpinayotgan ma'yus, sharmandali o'limni kutmoqchi edim. Xayolimga ora-sira asar yozish orzusi, orzusi emas, yomon xulqi, bu yagona yomon xulqni muvaffaqiyatlar va shon-shuhratlarga yo'ymasdan, "o'ylasam Alloh jonimni olsin!" fikri bilan qaytadan o'zimni topa olsam, qog'oz-qalamsiz tog'lar qa'riga otilib, baliq ovlashga chiqmoqchi edim. Hech narsa yozmoqchi emasman, bilaman, insonlar meni unchalik xushlamaydi. Meni yoqtiradigan birorta odam ham yo'q. Baliq ovlashga boradigan bo'lsam: "Katta mol-mulki bo'la turib unga baliq tutishni kim qo'yibdi? Jinnimi bu? Ulushini ham olmaydi?" — deyishardi. "Ota mulkini xasga chiqargan tentak, ter to'kib mehnat qilmaydi, yaxshiyamki onasi bor, bo'lmasa, uyini ham allaqachonlar sotib havoga sovurardi, hozir esa boshpanasiz daydib yurgan bo'lardi", — deyishardi. U odamlar hech qachon qaytadan tomchilab, daqiqalarni his qilib, ich-etimni yeb ezilayotganimni; shamollar, dengiz va to'rni sevganimcha o'limni kutayotganimni bilishmasdi.

Nima ziyoni bor edi? Xayolimda men ularni orol odamlarining hayoti bilan o'lchayman, eng katta nuqsonlarini besabrlikdan topib tortingan holatda yaxshi ko'raman; sigaret, orol choyi, qog'oz o'yinlari bilan shamolli kunni o'tkazib yotog'imga qaytib begunoh xotiralarni quvgancha; yaxshi odamlar, qahramonlar, oriyatli odamlar, birovning haqqini yemasdan, peshona teri bilan qattiq tabiatdan g'avg'o-yu do'stlik bilan non topib, bir-birlariga fidokorlik qilib yashagan odamlarni kuzatganimni his etib shirin, qattiq va tushsiz uyquga ketmoqchi edim. Erta saharlab yana shamollar, yomg'irlar hamrohligida uyg'onmoqchi edim. Oynalarini bug' qoplagan qahvaxonada qo'llari mehnatdan qadoq bo'lgan, chehralari oftob va shamoldan chizilgan insonlar orasida bugungi kunimni ham gunohlarsiz, yana ham to'g'rirog'i, yomonliklarga qo'l urmasdan o'tkazmoqchi edim.

Ular orasiga tomoshabin sifatida jimgina kirib olib ko'ngildagidek baxtiyor yashadim. Hatto shaharga ham tushmasdim. Hamma narsa men o'ylagandek edi. Faqat ulush masalasida xunuk hodisalar bo'lganini eshitardim, lekin uni ham eshitmaslikka olardim.

Erta tong. Qayiq xayolimdagidek baliq ovlashdan qaytgandi. Savatlar paroxodga berilgandi. Hozir uning to'rlari dengizga tegib-tegib borardi.

Baliqxonada hali umrim bino bo'lib uchratmagan, hatto bebaho o'n-o'n beshtacha dulgar balig'i qayiq tirgaklarida hali ham tirik, nozik, zarga o'xshash qanotlari bilan titrab yotardi. Ular birozdan keyin ishlarini tugatib, o'rta barmoqlariga bitta-yarimta dulgar balig'ini taqib olib ketishmoqchi edilar. O'ylaganimdek, ko'p uylarda dulgar balig'idan sho'rva qaynatishadi.

Qayiq tozalaganlar sakkiz kishidan iborat edi. Ulardan yettitasi bizning oroldan. Sakkizinchi kishi esa ozg'in, sariq, kasalvand edi, uni shu paytgacha hech ko'rmagan ekanman. Shunday samimiy, mehr bilan ishlardi.

Baliq ko'p ilina boshlagani eshitilgan zahoti tashqaridagi odamlar ham yordamga kelishardi. Tashqaridan kelib to'rni tortishga yordam bergan odamlarga ulush berilmasdi. To'r dengizchisi va raisga ko'ngli tusaganicha baliq berilardi.

O‘sha odam ham bitta-yarimta dulgar balig‘i olish niyatida baliq haqini ado etish uchun qo‘lidan kelgancha harakat qilardi.

Va nihoyat, hamma ish nihoyasiga yetdi. Rais ikkita dulgar balig‘ini orqa tomoniga otdi. Dengizchilardan biriga:

— Buni bizga olib bor, — dedi, — boshqa baliqlarni ulush sifatida tarqat.

Uchtacha kishi baliq oldi. Tashqaridan kelgan kishi bitta dona menga ham bersinlar degan niyatda kutib turdi. Uning chehrasida yoqimli tabassum va mehnatdan tug‘ilgan hafif qizillik sezilardi. Bu qizillik uni ulush tarqatayotgan odamning qo‘lida bittagina baliq qolguniga qadar tark etmadi. Keyin bu qizillik birdan g‘oyib bo‘ldi. Yuzidagi tabassum oldiniga tahlikali holda qotib qoldi. Bu odam umr bo‘yi shunday soxta tabassum bilan yashaydi deb o‘ylagandim. Yuzidagi kulgu to‘satdan xuddi chirigan meva tusiga kirdi. Ko‘zlari hayratdan kattalashdi. Qayiqdagi odam oxirgi baliqni suv yo‘li bekatiga otdi. Uning yuz ifodasi nima bo‘lganda ham yana oldingidek toza, mamnun, yangi uzilgan meva holatini egalladi. Ikki qadam tashladi. Qo‘lini baliqqa cho‘zish uchun egildi. Ammo nariroqda bosh barmog‘iga yirik dulgar balig‘i taqib kattakon etik kiygan dengizchi oyog‘ini baliq ustiga bosdi.

— Nima bu, — dedi, — hamshahrim? To‘xta qani. Tog‘dan kelib bog‘dagini quvmaylik.

U kishi qo‘lini oldi. Hech narsa demadi. Gapira olmasdi. Gapiradigan holatda emasdi. Suv yo‘li bekatining qahvaxonasi tomonga qarab ketdi. Tashqaridan qahvaxona oldida kuzatayotgan odamlardan biri ovoz berdi:

— Qo‘ysangchi-ey! U odam ham mehnat qildi. Bitta baliq bersang nima bo‘pti? Qayerlardan kelgandir.

— Biz nima qilaylik, kelmasinlar edi. Biz ularni chaqirib keldikmi? Bu baliqning bitta-yarimtasi ham ahamiyatli. Baliq ilinmagan paytda yaqinlashishmaydi, ayniqsa, to‘r tozalashga navbat kelganida. Talon-toroj etish yo‘q, hamshahrim!

Qayiqda o‘tirgan odamlar o‘rnidan turib: “Bu ayb emasmi, unga baliq berib yubor”, — demadi.

Bitta-ikkita odam o‘ylaganimdek gapirgandek bo‘lishdi. Kutardim. Hozir taxmin qilgan odamlarimdan biri ulush qilib berilayot-

gan baliqlardan bittasini, eng kichigini unga qarab otishini kutardim. Rais qahvaxona oldida qahvasini zavqlanib ichar, qayiqdagi asl dengizchiga kayf bilan qarardi. Bitta kishi voqeaga aralashdi:

— Bu ayb-ku, — dedi, — ayb!

Bu gal ichidagi gaplarini, hatto ulush sifatida berilgan baliqlardan eng kichigini otib yuborar deb taxmin qilgan odamlardan biri:

— Sen aralashma, ko'raylik-chi, akaginam! Ko'p gapira boshlading. Ayb nima degani? Ayb ko'rpa ostida, — dedi.

— Bu dengiz otangizning mulki hisoblanadimi?

— Bo'lmasa, uning otasining mulkimi?

— Yo'q, lekin u kelgan qayig'ingizda ishlagandi.

— Kim uni kel deb chaqiribdi, kelmasin edi.

Baliq ololmagan kishi qahvaxona skameykasiga kelib o'tirdi. Qahvachi yuziga tikildi. Qahvachiga:

— Turamiz, hozir turamiz, — dedi.

Oyoqqa qalqdi. U uchun behudaga gap eshitgan kishiga:

— Hechqisi yo'q, hamshahrim, — dedi, — hechqisi yo'q. Bermasinlar, ular xohlashmayapti.

U ko'zi tushgan paroxod tomonga qarab yurdi. Kichik qadamlar bilan Sharlo kabi sakrab uzoqlashdi.

O'z-o'zimga so'z berdim. Hatto asar yozmoqchi emasman. Asar yozish ham hirsdan boshqa nima ham edi? Bu yerda, or-nomusli odamlar orasida sokin o'limni kutmoqchi edim; hirs, g'azab menga nimaga kerak? Qo'limdan kelmadi. Tamakiga yugurdim, qo'limga qog'oz-qalam oldim. O'tirdim. Orolning tanho yo'llarida kezayotib zerikkan paytimda kichik chiviqlarni yo'nish uchun cho'ntagimda olib yurgan pakkimni qo'limga olib qalamni yo'na boshladim. Yo'nganimdan keyin qalamni olib o'pdim. Endi yozmasam jinni bo'laman.

"ALAM TOG'I"DA BOR BIR ILON

Teatrga kirib ketayotganimda qor endigina uchqunlay boshlagan, qaytib chiqqanimda esa atrofni oppoq qor qoplab bo'lgandi. Bir payt bo'ynimga sovuq bir tomchi tushganday bo'ldi, etim junjikib ketdi.

— Qo'lingni og'zinga tiqma, tirnog'ingni tishlama, — deb baqirdim. Oldinda ketayotgan ikki kishi bizga o'girilib qaradi. Keyin qadamlarini sekinlatishdi. Xuddi har kecha u bilan birga bo'ladigandek bugun o'zimni yolg'iz his qilayotgandim. U faqat juma kunlari kelardi. Uni o'sha yerda dengizchi kutib turardi.

Quyoshga qarab belgilanadigan bo'lsa, soat taxminan uch bo'lgandi. Uning kelishiga ishonar, kun bo'yi kutib uxlab qolardim. Kelib eshikni taqillata boshlaganini eshitar, cho'chib uyg'onardim. O'rnimdan sakrab turib, eshikni ochganimda u ro'paramda rangi oqargan holatda, chuqur-chuqur nafas olgancha turardi. Ichkari kirishi bilan stol ustida yotgan sigaradan bir dona olib yoqardi. Uning uchun butun dunyo bir tomon, uning o'zi bir tomon edi.

Xonada javon, oyna, yotoq, yana bir oyna, telefon, kreslo, kitoblar, gazetalar, gugurt cho'plari, sigaret qoldiqlari, pechka va bir ko'rpa-to'shak bor edi.

Osmonda samolyotlar uchar, ichi to'la yo'lovchi. Yerda esa poyezd o'z yo'lida davom etar, bir odam imzo chekar, yana biri boshqasiga pul sanab berar edi.

Kech tushib, havo salqinlashgan, atrofga teshikkulchaning xushbo'y isi tarlamoqda edi. Xonaning ichini kulcha sotuvchining jaranglagan ovozi egalladi. Uning uchun dunyo bir tomon, u bir tomon edi.

Kemaning pastki kayutasida edim. Chiptachi chiptalarini taxlar, bir erkak va bir bola gazeta o'qir, yana bir kelishgan qora qoshli, baquvvat yigit qo'llarini shimining cho'ntagiga tiqib olgan, oriqdan kelgan bir yigit o'ng tomonimda cho'zilib yotardi.

Bolakay gazetani yoniga qo'ydi-da, egnidagi plashini taxlab boshi ostiga qo'yib, u ham pinakka ketdi.

Bugun juma kuni. Maktablarda ta'til boshlangan. Biz Sulaymoniyadagi Kirozli masjidi ko'chasida yashar edik.

O'sha paytlar o'n yetti yoshda edim. Munir Poshsho qarorgohi hovlisidagi qarag'ayni yaxshi eslayman. Litsey bog'idagi katta qarag'ay o't ichida qolgandi o'shanda. Munir Poshsho qarorgohining bo'yalgan shiftlari allaqachon kuyib kulga aylangan, uy kanalari ham qo'shilib yonib ketgandi. Ko'rpa-to'shagimga qo'shilib ko'z yoshlarim ham yonib ketgandi. Hovuzlar, qishda bargi xazon bo'lmagan daraxtlar ham yongandi. Xotiralarim, meni shunday inson

bo‘lib yetishishimga sababchi bo‘lgan kitoblarning hammasi kuyib kul bo‘lgandi.

Men endi qo‘y terisiga o‘xshagan sun’iy mo‘yna topib, uni plashimga tikib olishim kerak.

Bugun dushanba. Yana kemaning pastki kayutasidaman. Bugun ham havo sovuq, atrof oppoq qor bilan qoplangan. Istanbul yana iflos. Istanbulmi? Istanbul iflos shahar. Ayniqsa, yomg‘irli kunlarda. Boshqa kunlar go‘zal deysizmi, yo‘q boshqa kunlar ham shunaqa xunuk. Boshqa kunlar ham ko‘priklar balchiqqa botgan. Yon tomondagi tor ko‘chalar loy, uylar vayrona.Kechalari ko‘ngilni xiralashtiradi. Kunduzlari uylar quyoshga teskari qarab olganga o‘xshaydi. Do‘kondorlari, hunarmandlari g‘addor, boylari loqayddir.

Odamlar hamma joyda bir xil. Yaltiroq metalldan yasalgan krovatlarda juft bo‘lib yotadiganlar ham yolg‘izdir, aslida. Yolg‘izlik butun dunyoni egallab olgan.

Muhabbat, bu dunyoda hamma narsa bir insonni sevishdan boshlanadi. Bu yerda esa, aksincha, hamma narsa insonni sevish bilan nihoyasiga yetadi.

Naqadar go‘zal Alam tog‘i. Naqadar chiroyli bu makon. O‘n besh gazli daraxtlari, toshni teshib chiquvchi giyohlari, ilonlari bor bu makonning. Ammo izg‘irin qish kunlari ilonlar inlaridan bosh chiqarmaydilar. Mayliga. Alam tog‘ida havo iliq, quyoshning nayzadek nurlari qip-qizil daraxt yaproqlari orasidan shu’la sochadi.

Osmondan yomg‘irga o‘xshash bir nimalar shivalar, chirigan yaproqlar ustiga tushardi. Toshdelandan chiqayotgan suv barmoq kattaligida jilg‘a hosil qilgan... Suv ichgani kelgan bir quyon, bir ilon, bir qoratovuq, bir kaklik Palanezko‘y qishlog‘idan qochib kelgan echki bilan dumalashib o‘ynashardi.

“Panjo”, “Panjo” deb baqirganida, ilon ham, echki ham, kaklik ham, quyon ham turgan joyida toshdek qotib qolardi. Darhol cho‘ntagimdan o‘tkir pichog‘imni chiqarib, birining qulog‘ini, yana birining qanotini kesib tashlardim. Bechora jonivorlar qonlariga belanib tipirchilay-tipirchilay Panjoga qarab qochishardi. Panjoning har doimgidek bo‘zargan, jahldor, chipqon toshgan basharasida tabassum ko‘rinadi. U kakliklarning tumshug‘idan o‘par, quyonning mo‘ylovini tortar, ilonni bilagiga o‘rab o‘ynardi. Qayerdan-

dir futbol to'pini olib kelgan. Men va ilon ikkalamiz darvozabonmiz. Qolganlar xazonlar ustida quyosh nurida toblanib o'tirishardi. Soatlab o'yin o'ynaydilar. Ilon bilan men darvozamizga to'p kirib kelayotganda sekin chetlab o'tkazib yuboramiz. Xirgoyi qilib yana o'yinni kuzatishda davom etamiz.

Alam tog'i go'zal. Istanbul loy, balchiq ichida. Taksi haydovchilari ataylab ko'lmakdan o'tib odamlar ustiga loyqa suv sachratadilar. Qor ham ataylabdan ichimizga qarab yog'adi.

Bir ayol mushukni beshinchi qavatdan pastga uloqtiradi. Ko'chadan o'tayotgan bir ayol va chet ellik bir erkak mushukning tepasida turishibdi. Mushukning burnidan qon sizib oqadi. Haligi kishi fransuz tilida:

— Il est mort d`hemoragie, le pauvre![1] — deydi.

Ayol menga turk tilida mushukning beshinchi qavatdan tashlab yuborishganini aytadi. Biz o'lik mushukni Galatasaroy litseyining keng va baland devorini tagiga tashlab yuboramiz. Beshinchi qavatdagi ayol hozir pechkasiga ko'mir tashlayotgan bo'lsa kerak. Havo ham rosa sovudi. Koshkiydi, qor yog'sa. Qor yoqqanda havo biroz ilib qolar edi. Panjo Alam tog'idan qachon qaytibdi? To'satdan u bir do'sti bilan yonimdan o'tib qoldi. Go'yo devor yonidan yoki o'lik mushukning yonidan o'tayotganday loqayd o'tadi. Qo'llarimiz bir-biriga tegib ketgudek. Devorlar chetga suriladi, odamlar bir-birlari bilan yillar davomida arazlashib yuribdilar: "Bas endi" deb xuddi yarashayotgandek apoq-chapoq bo'lishadi.

Men yana orqaga qaytaman. Panjo do'sti bilan kulishib yo'lida davom etadi. Yong'indan vayronaga aylangan Munir Poshsho qasrining hovuzidagi suv ifloslanib yotardi. Suvning tubi ko'rinmas, ammo ko'zlarimni yumishim bilan hovuz ichiga tashlangan o'n qurushlik tangalar yaltirab yotganday tuyulardi. Bir marta, biz hozir shahar hokimi bo'lgan bir og'aynimizni ellik qurush berib kiyim-piyimi bilan mana shu hovuzga otib yuborgandik.

Men Panjo bilan do'sti birgalikda ochgan qahvaxonaning qayerda joylashganini bilmasdim. Eshigi oldida alyuminiy qozonlar, yelim idishlar sotiladigan attor do'koni bor edi. Qahvaxona ikkala eshigi lang ochiq do'kon bilan ko'p qavatli uyning birinchi qavati-

[1] Qon ketishidan vafot etdi, bechora!

da joylashgani edi. Ichkariga kirganlarni ko'rib xavotirga tushdim. Men ham ularning orqasidan ichkariga kirdim. Oynavand eshikdan yana ichkariga kirilsa — katta zal. U yerda mijozlar narda va qimor o'ynashardi. Zalning burchagida bir billiard stoli turibdi. Ichkariga kirishim bilan hamma menga qaradi. Bu yerdagi kishilar doimiy mijozlar bo'lsa kerak, meni ko'rishlari bilan boshimdan oyog'imga qadan ko'zdan kechirishdi. Bunday sharoitda o'tirib bir finjon qahva ichish do'zax azobiga teng edi. Men o'zimni kimnidir qidirayotganga soldim. Agar topolmasam Luka afandi degan bir kishi bor edi, shuni qidiryapman demoqchi bo'lib turdim. Quruvchimi, bo'yoqchimi, doim ko'zoynak taqib yuradigan Luka afandi... O'shani so'rashga tayyor bo'lib turdim. Asli yunonmi, albanmi, ishqilib bir xorijlik... Qahvaxona xo'jayinidan so'ramoqchi edim... Qarasam, Panjo Luka afandining orqasiga berkinib olib, o'zini ko'rsatmaslikka harakat qilyapti. Azaldan meni yaxshi taniydigan bu odam nima uchun kelganimni tushunganday menga qaradi. Jilmayib turadi. — Xudo jazoyingni bersin! — dedim va o'rnimdan turib ketayotib yana ortimga o'girilib qaradim. Shu payt yana o'sha plashining yoqasidagi mo'ynaga ko'zim tushdi va yengil tortdim. Men quyonni, kaklikni, o'sha ajoyib silliq va chiroyli ilonni, qora tovuq, Alam Tog'ini, Tashdelan suvini, chirigan xazonlarni, xazonlar ustiga tushib turgan quyosh nurlarini esladim...

XINALI OROLDAGI UY

Xinali orol qishlog'iga hecham bormaganman. Lekin uni shunchalik yaxshi ko'ramanki, negaligini o'zim ham bilmayman. Ehtimol, u yerda hech qachon gaplashmagan bir do'stim yashagani uchundir. Xinali orol qishlog'i yonidan o'tar bo'lsam, ko'z oldimga hech qachon bormagan, bundan keyin ham bormaydigan dugonamning uyi keladi.

Dugonam og'ir-bosiqqina qiz edi. Ertalab birinchi jo'naydigan kemaga o'tirib ishiga borar, kechqurun oxirgi kemaga chiqib, qo'lida bir necha paket bilan uyga qaytar edi. Ba'zan biz oxirgi kemada u bilan birga qaytar edik. U ba'zan portda tiqilinchda ko'pchilik

orasida g‘oyib bo‘lib qolar, keyin chiroqchi projektorini yo‘lovchilar ketayotgan qorong‘i yo‘lakka tutganida, yana bir ko‘rinib, so‘ngra yana g‘oyib bo‘lib qolardi.

Menimcha, u kichkinagina tomlari qop-qora, yog‘och uyda yashaydi. Uyidan dengiz ko‘rinmasa kerak. Ko‘ringanda ham oynasidan daraxt shoxlari orasidan ko‘rinishi mumkin. Kichik bog‘da achchiq bodom, behi, anor daraxtlari o‘sadi.

Bog‘da bir chig‘iriqli quduq bo‘ladi. Onasi qirqdan oshgan, do‘mboqqina, ko‘k ko‘zli, yuzlari anorday qip-qizil. Ularning katta bog‘i, uyini batafsil tasvirlayotganimga o‘z ko‘zi bilan ko‘ribdi, yaxshi bilar ekan deb o‘ylamang. Men bog‘larni, odamlarni, uylarni ko‘rmasdan ham sevaveraman.

Uyga mana shu kichik bog‘ orqali kirib borilar, ular uyning birinchi qavatida yashashardi. Yozda yuqori qavatni ijaraga berishardi. Bibi Maryam qandilining ro‘parasida Iso rasmi turar, ana shu yerdan to mayda sarg‘ish oynaga qadar hamma narsada, hamma joyda og‘ir, odatiy pravoslav muhiti sezilib turadi. Menimcha, uyning ichi unchalik saramjon-sarishtaga o‘xshamasdi. Xonalardan taralib turadigan o‘ziga xos hid u yerni hech qachon tark etmaydi. Men hozir dugonam deb gapirayotgan qizning alohida xonasi yo‘q.

Men uni kemada ketayotib, ikkinchi mavqeda turib yunoncha gapirayotganini eshitaman. Yunon tilidan bironta so‘z tushunmasam-da, nima haqida gaplashishayotganini sezganday bo‘laman.

Kemaning kechki soat 22:45 da manzilga yetib borilishi hisobga olinsa, kechki ovqatni taxminan soat o‘n birlarda yeyishardi. Demak, ovqatlanib bo‘lgach darhol yotish taraddudini ko‘rishadi. Qiziq, yotog‘ining bosh uchida kitob bormikan? Menga qarab boryo‘g‘i bir martagina jilmayib qo‘ygan bu qizning xayolida nimalar kechayotganini bilolmayman.

Uning ovqat yeyishi qanaqa? Tezmi, sekinmi? Juda ham qiziq. Ko‘pchilik kabi ovqat yeyayotganida atrofdagilarning ishtahasini bo‘g‘maydimi? Ovqat yeyayotganda basharasi xunuk bo‘lib ketadimi? Xinali orol bu qizni taniganimdan oldin ham mening qiziqishimni tortgan edi. Odamlari unchalik qiziqtirmasdi meni, chunki ularni har kun kemada ko‘rardim. Bu kemadan tushgan yo‘lovchilar bilan birga yarim tunda kemaning xira qizil chiroq-

lari bilan hasharotdlardek qizil dog'li chig'anoqlariga berkinib olgan Xinali orolning uylari... Hamma joyda bo'lgani kabi bu yerda ham g'iybat qilinadi. Ular ham taom yeyishadi, ichishadi, uxlashadi...

Uylarimi? Ha, uylari... Bularni bilsam ham, avvallari o'zimni qiziqtirgan Xinali orolning uylarini hozir ko'rishni juda ham xohlardim. Chunki u yerda mening qalbimga o't solgan bir qiz yashaydi. Ilgari men Arnavut qishlog'ini ko'rishga ham juda qiziqardim. Vaqt o'tib, bir kun kechasi u yerga borib ko'rdim. Ikki balkonli bir uy ekan. Ko'chalarini kesib o'tgan ariqlari bor katta qishloq ekan. To'rt yoki beshta ko'prigi bor. Ko'priklardan birining ustida bir mast odam ag'anab yotibdi.

Endi Xinali orol qishlog'iga qiziqishim ortdi. Xinalidagi bir uy. Uyning o'rtasida bir stol turibdi deb tasavvur qilaylik...

Bu go'shtmi yoki sabzavotmi? Bu qiziquvchanlikni bir chekkaga qo'yib turaylik. Mayli, go'sht deb faraz qilaylik. Uni tarqatish kerak. Otaga, o'g'ilga, qizga, dugonam deganing ana u qizga... Taomlarni onalari tarqatadi. Kenja singlisi ko'm-ko'k ko'zlarini katta-katta ochib, stolning orqasidagi Bibi Maryam qandili yonib turgan eshigi olib tashlangan shkafga qarab turibdi. Tarvuz ham o'sha yerda turibdi. Bu kechgi tarvuz sariq chiqibdi, ammo ichidagi urug'i esa qop-qora.

Mana ular gaplashib turibdi. Nima haqida gaplashishayotgan ekan. Kemaning projektori yarim yoritilgan xonani nurlari bilan yanada yoritib yuboradi. Men yoqtirgan qiz taom yeyayotganda boshqalarga o'xshab xunuk ko'rinmaydi. U shunchalik quvnoq, shunchalik ochiq ko'ngil qiz ediki, ovqat yeyayotganini o'zi ham sezmaydi. Dugonamning yuzida doimo quvonch aks etib turadi. Doim bir nimalar gapirib turadi. Qiziq, nima deyayotgan ekan?

Shuning uchun men hikoya yozaman. Ana shu qiziquvchanligim tufayli yozuvchilik qilib kun ko'raman. Mening hikoyalarim ularga yoqmasa, xafa bo'laman. Yoqsa — jahlim chiqadi. Agar hikoyalarim o'zimga yoqsa, demak men ahmoqman. Agar hikoyalarim o'zimga yoqmasa, ovqat eyishni ham ko'nglim tusamaydi. Xinali orolga keladigan bo'lsak, uni ko'p o'ylayman... lekin baribir bu kemadan tusha olmayman, menimcha, bu ketishda hech qachon tusha olmasam ham kerak...

MURUVVAT

Bir kuni ko'nchilik ustaxonasida ishlaydigan Usmon og'a bilan choy ichib suhbatlashgani Hoja Mustafo Poshsho mahallasidagi "Sumbulli" qahvaxonasiga kirdik. Usmon og'aning to'rt—besh kundan beri ustara tegmagan oppoq soqoli-yu moviy ko'zlari chehrasini yanada nuroniy ko'rsatib turar edi. Uning nimpushti yuzidagi ajinlarga tikilib turganimda, qahvaxonachi choy olib keldi. Bay, bay, bay, qanday xushbo'y choy! Rangini aytmaysizmi, finjonda tovlanishiga qarang!.. Choydan ho'plab, endi rohatlanaman deb turganimda, nimadir yetishmayotgandek tuyuldi. Xuddi shu pallada qahvaxona hovlisiga, o'sha yetishmay turgan "nimadir"ni to'ldirish uchun kelganday ikkita ofatijon lo'li qiz paydo bo'ldi. Sollanib qadam bosishlari, jilvalari naq jonni oladi. Surma tortilgan shahlo ko'zlarining chaqnashi, kiprik qoqishlari, quyuq bug'doyrang qovoqlarini yumib ochishlari og'ir, hazin sahna asari ijrosi nihoyasiga yetgach yopilib, yana qayta ochiladigan pardani eslatardi. Qalin, g'arq pishgan qora anjirdek bol dudoqlarini aytmaysizmi?.. Usmon og'a bilan menga qiyo ham boqmasdan sal narida jimdalli[1] o'ynayotgan mahallaning bo'z yigitlari to'da bo'lib o'tirgan stolga qarab yura boshlashdi. Qizlarning ortidan hovliga yoshi bir joyga borib qolgan, lekin qaddi-qomati tig'dek yana bir lo'li xotin hovliga kirib keldi va Usmon og'aning tepasida to'xtadi:

— E-ha, Usmon og'a, sen ham shu yerdamiding? Kel, bir fol ko'rib qo'yay, — dedi jilvalanib.

— E, nimasini ko'rasan, kampir! Bizning folimiz ko'rib bo'linganiga ancha bo'lgan. Ham sening folingni nima qilardim? Qirq yil oldin ko'rganingda boshqa gap edi.

Lo'li xotin qizlarga o'xshab sharaqlab kuldi:

— Demak men ko'rgan fol o'tmay qolibdi-da endi. Qani, ayt bo'lmasa, ana ularga, bir ko'rib qo'yishsin! Xa-xa-xa... — deya qizlar tomon imo qildi.

Qizlardan timqora sochlarida mis rangi goh yarqirab, goh so'nayotganga o'xshagani hali yashil po'chog'i ajralmagan yong'oqni yulganda qo'lga yuqadigan dog' rangidek qizg'imtir sochli sherigiga qarab:

---

[1] O'spirin bolalar o'ynaydigan o'yin.

— Ey, Muruvvat, bu yoqqa kel, shu Usmon og‘aga bir fol ochib qo‘yaylik, — dedi.

Shu payt yonimizga kelgan lo‘li qiz shunday go‘zal ediki... Usmon og‘aga qarasam, nimpushti yuzi birdan sarg‘ayib qolibdi. Qizdan ko‘zini uzolmaydi, lol-u hayron. So‘ngra sal o‘ziga kelib:

— Ering bormi, Muruvvat qiz? — deb so‘radi.

— Voy-voy-voy, nima, hali meni erga bermoqchimisan, og‘a? Agar mana bu yoningdagini aytayotgan bo‘lsang, tegmayman. Ko‘zlari chaqchaygan yigitlarni jinim suymaydi, — dedi lo‘li qiz.

Qiz shunday dedi-yu, qanday sollanib kelgan bo‘lsa, shunday orqasiga qaytdi. Usmon og‘a o‘yga tolgan edi. Bir muddat sukut qilgach, hikoyasini boshladi:

— Kichkina Husayn bir nima xirgoyi qilar, men ochiq derazadan tashqariga qarab turardim. Atrof jim-jit. Dengizga tikilar ekan, insonning qalbidagi g‘am biroz bo‘lsin tarqalishi kerak, lekin men o‘zimda bunday o‘zgarish his etmas edim. Shu topda Husaynga “O‘chir, shu ming‘ir-ming‘iringni” degim kelar, ammo “Qo‘y, senga nima, bir bechora bola bo‘lsa, ming‘irlayvermaydimi!” — derdim yana o‘zimga-o‘zim.

Kichkina Husaynga qaradim. Ko‘z yoshi labining chetini namlagan edi. Ko‘zlari yumuq, yuzi burishgan. Ichimdan iliq bir nima oqib chiqayotganday edi, qonga o‘xshash bir narsa. “Vo ajab, “ichim qonga to‘ldi” deganlari shumikan?!” — deb o‘yladim...

Voqea shunday bo‘lgan edi: Yorish dastgohining bir chekkasida Husayn, bir chekkasida men. Yonimizda bir nechta ishchi ishlar, ismlari hozir yodimda yo‘q. Husayn bir kuy ohangiga moslab mayin ovozda hushtak chalayotgandi:

— Bas qil shu hushtagingni, — dedim.

U hushtak chalishdan to‘xtab, ishiga davom etdi. Lekin ko‘zimga shunday g‘alati qarab qo‘ydiki, ko‘ngil yumshashi nima ekanligini o‘shanda chuqur his qildim. “O‘g‘lim, jigargo‘sham” deyishdan o‘zimni zo‘rg‘a tiydim, tishimni-tishimga qo‘ydim. Kulsam bo‘lardi, lekin kulmadim. Ko‘nglim bo‘lmadi. Yonimdagi ishchiga Husaynni yoniga chaqirishini buyurdim. U:

— Ey, senga aytayapman, bu yoqqa kel, — dedi Husaynga.

Yonimda turgan payt yuzimga tikilib qarasaydi, yaxshilab bir tepardim bu tirmizakning orqasiga. Lekin u qaramadi. Pushaymon bo'ldim. Men o'zim unga qayrilib qaradim. Lablari pirpirar, lekin ovozi chiqmasdi. Ora-sira boshini qimirlatar, xuddi qiz bola erkalatayotgandek ko'zlarini suzar, ko'rinishi juda g'alati, unga bir nimalar bo'layotgan edi.

U, dastgohchining haromisimi, yoki bo'lmasa men bir marta biqiniga tushirgan mushtmi, yo ahmoqligimi, bilmadim. O'sha topda boshqa narsa xayolimga kelishi mumkin emas edi. Bir faryod eshitdim. Zum o'tmay eshik yonida turib sigaretasini tutatib turgan dastgohchi tepamdan sakrab o'tib, dastgohni to'xtatdi. Husaynning qo'li bosh barmog'i tugagan joydan cho'rt uzilgan edi. Uning kesilgan qo'lini dastgohdan chiqardik. Shunda ko'z ochib yumguncha qo'lining uzilgan joyi ko'z o'ngimda oppoq, keyin pushti rang oldi. Zum o'tmay qip-qizil qonga belandi. Hatto qon otilib, yuzimga sachradi. Qo'limning orqasi bilan yuz-ko'zimga sachragan qonni artdim. Husayn qonga belangan qo'lini buti orasiga tiqib, og'riqdan g'ujanak bo'lib olgandi. Birdan qandaydir g'alati ovoz chiqarib baqirdi:

Hayron bo'lib, atrofimga qaradim, Chorlulik Hasan:

— Men sizga aytmaganmidim amaki? — dedi, — Husayn beozor bir lo'li bolasi deb...

— Menga qara, Inja Hasan! — dedim, — basharangga shunday tushiraman mushtim bilan, o'lay agar, yerga yopishasan. Hozir vaqtimi?

— Bilagi siqib bog'lansa, qon biroz to'xtaydi-da.

Bir parcha mato topilar deb atrofga alanglayman. Qani endi, topila qolsa... Atrofdagilarning hammasi qopga o'xshagan qo'pol bo'zdan kiyim kiygan, birontasining egnida surp ko'ylak yo'q.

Eh, shu inson farzandi qanday maxluqot-a, ming la'nat! Yirtish uchun bironta surp mato qidirayotganimda xayolimga nima kelganini bilasizmi? Qadim zamonda bir podshoh bo'lgan ekan. Bir kuni uning mazasi qochibdi. Shunda unga bir beg'am, kambag'al kishini topib, uning ko'ylagini kiysa, shifo topishini aytishibdi. Butun mamlakatni axtarib chiqishibdi, lekin ham beg'am, ham kambag'al odam topa olishmabdi. Lekin umidlarini uzishmabdi, qidirishga da-

vom etishibdi. Bir kuni bir qishloq joyda bir kishini uchratishibdi. Ham qo'shiq aytar, ham ketmon chopar emish u odam.

— Sen kimsan? — deb so'rashibdi undan.

— Nima edi? — debdi u, — ana u daraxt tagida uxlayotgan odamni ko'ryapsizlarmi? O'sha odamning xizmatkoriman.

— Qayerda yotasan?

— Somonxonada.

— Nima yeb, nima ichasan?

— Xo'jayinim nima bersa, shuni yeb-ichaman.

— Nima beradi?

— Qotgan non bilan piyoz beradi.

— Dard-g'aming bormi?

— Nima edi?

— Ya'ni, xafa bo'lib turasanmi?

— Unaqa narsalardan yiroqman. Men bir johil odamman.

— Xuddi o'zi! Biz qidirgan odamning xuddi o'zi! Biz senday birini axtarib yurgan edik. Yech shu ustingdagi ko'ylagingni. Evaziga bir hamyon oltin olasan, — deyishibdi. Shunda xizmatkor odam:

— Axir bu ko'ylak emas-ku! — deb javob bergan ekan...

Bizning ishchilardan ham hech birining egnida ko'ylagi yo'q edi. Bu hikoya chaqmoq kabi esimga tushganiga o'zim ham hayron edim. Turgan joyimda qotib qolgan edim. Shu payt dastgohchi meni silkitib o'zimga keltirdi:

— Usmon og'a, nima bo'ldi, esingni yig', yana birpas shunday tursang, bolaning tanasida qon qolmaydi.

Shu payt fabrikaning qorovuli sandiraqlab yurib chashma tomondan qaytayotgan, egnida esa surp ko'ylagi bor edi. Birdan bechoraga tashlandim. Egnidagi ko'ylagini yirtib olib, Husaynning bilagiga mahkam tang'ib bog'ladim. Uni amallab kasalxonaga olib keldik. U yerda qo'lini uzilgan joyidan qaytadan tozalab bog'lashdi. Qaytishda tramvayga emas, poyezdga mindik. Husayn ijarada haligi to'rt kishi bilan turar, yashashlari "it yotish-mirza turish" ekan. Bolani G'ozlichashmadagi uyimga olib keldim. Bir odamday yashasin shu bola, dedim. Tuni bilan og'riqdan qiynalib, ingrab chiqdi, bola bechora.

Peshinda xo'jayinning yoniga bordim. Ikki lira pul berdi. Dorixonadan bint, yarali joyni yuvish uchun dori oldim. Uyga qaytib kelib, yarasini tozalab, qaytadan bog'ladim. Oradan to'rt kun o'tar-o'tmas bolaning qo'li do'mbiradek shishib ketsa bo'ladimi! Yana kasalxonaga olib bordim. "Yotqizamiz, sen bir-ikki kundan keyin xabar ol!" — deyishdi menga. Qaytdim orqamga. Ikki kundan keyin borib ne ko'z bilan ko'rayki, bolaning qo'li tagidan kesib tashlangan edi. Qorason boshlangan ekan.

Uni Yetti Kulaga olib keldim. Bir haftada oyoqqa turdi. Oqshomlari ashula ham aytib beradigan bo'ldi. Bir kuni tovon to'lovidan gap ochib qoldi. Men bilmasdim, bundaylarga tovon puli to'lash qonunda belgilangan emish. O'n besh qurush berib, bitta qonunlar yozilgan kitobcha sotib olibdi. O'qib berdi, lekin men hech narsa tushunmadim.

Aslida o'zi ham qonun tiliga unchalik tushunmasdi. Bir yilcha maktabga borgan. To'rt yil oldin bir katta fabrikada ishlayotganida tekshiruv—taftish boshlangach, "Bu bolani bironta maktabda o'qitinglar" — deyishibdi. Shundan keyin ish kunini ikki soatga qisqartirib, uni maktabga qo'yishibdi. Bir yilcha o'qib, yana ishga berilib ketibdi. Agar bir yil o'qib, qonun o'rganilsa, mamalakatda advokatlarga non qolarmidi, og'a?

Ishqilib, nima bo'lsa ham, u tovon puli deb turib oldi. Bir kuni kechqurun undan:

— Senga nima kerak o'zi, — deb so'radim.

— Uch ming papel[1] kerak! — dedi.

— Hoy, ahmoq bola! — dedim, — aqlingni yeb qo'yibsan. Uch ming papel qancha pul bo'ladi, bilasanmi? Buncha pulni kim berib qo'yadi sen ovsarga?

— Bilaman, — deb qolsa bo'ladimi?

— Menga qara, eshshak miya, xachirning bolasi! — qaysi ahmoq sening bir qo'lingga uch ming berib qo'yar ekan-a, — dedim fig'onim falakka chiqib.

Keyin o'ylanib qoldim. O'zimga-o'zim: "Usmon, kimdir senga uch ming panganot[2] bersa, bir qo'lingni berarmiding? Bermas-

[1] Eskirgan jargon so'z: 1 papel — 1 liralik qog'oz pul.

[2] Eskirgan jargon so'z: 1 panganot — 1 liralik banknota.

ding... Unda, Husayn nima uchun berishi kerak? Uni sendan qayeri kam?"

Xullas, bir yakshanba kuni ertalab turib, advokat qidirishga chiqdik. Idoralari yopiq ekan. Qaytishda Husaynga:

— Sening gapinga kirgan men ahmoq! — dedim, bekorga pulimiz ketdi.

— Siz xafa bo'lmang, Usmon og'a, — dedi u, — shu uch mingni olaylik, ko'rasiz...

Bir kuni chiqib advokatni topdim. Nima dardim borligini eshitmasdan:

— Pulingiz bormi? — deb so'radi.

— Yo'q, — dedim.

— Tekinga mushuk ham oftobga chiqmaydi, og'a! — dedi iljayib. Keyin gapidan qaytib, bizni yoniga imlab chaqirdi. Unga vaziyatni tushuntirdik. Bir bolaga, bir menga qarab olgach, fabrika egasining ismi-sharifini so'radi. Bir qalin kitobni ochib, nimalarnidir qidirib topdi. Qayoqqadir qo'ngiroq ham qildi. "Zoti oliylari", "kamina", "xo'p bo'ladi", "bir ko'rishsak" degan so'zlarni aytib, xayrlashdi. Keyin bizga qarab, "Ertaga bir xabar olinglar" deb qo'ydi.

Ertasi kuni yana bordik. Advokat Husaynning boshini silab, mening qo'limni siqib, "Bu ish bo'ladigan bir ishga o'xshamay turibdi. Agar yuz liracha pul topsangiz edi, harakat qilib ko'rardim" dedi. Ikkalamiz bir ovozdan "Topamiz!" — dedik. Lekin kimga ishonib aytdik buni. Shu topda kimdan qarz so'rasak?.. Xuddi bittasi "Mana, olinglar!" deb birdan yuz lira chiqarib beradiganday. Men umrim bino bo'lib birovdan bir lira qarz olgan odam emasdim. Lekin Husayn bir kuni Inja Hasandan o'ttiz besh qurush olgan, lekin kechiktirib qaytargani uchun janjal chiqqan edi. Nega buni o'shanda eslay qolmadim, o'zim ham bilmayman. Ko'ylaksiz odam esimga tushdi, ammo bu negadir hecham xayolimga kelmadi. Qaysi ishchidan so'rasak, ko'zlarini lo'q qilib hayron bo'lib turaverdi. Bir tomondan to'g'ri, yuz lira oz pul emas...

Bir paytlar bir xo'jayinning qo'l ostida ishlar edim. Yaxshi odam deyishardi. U bilan unchalik yaxshi chiqishmasak-da, salo-

mimga alik olar, hol-ahvolimni so‘rardi. Uning yoniga borib so‘radim. Nima deyishni bilmay uzoq o‘ylanib turdi. Keyin:

— Yur men bilan, — dedi.

Birga katta xo‘jayinning yoniga jo‘nadik. Xo‘jayin xonasida o‘tirardi. Biz kirishimiz bilan o‘rnidan turdi. Men ishchining ko‘ziga qarab nima o‘ylayotganini bila olardim. Mo‘ylovli odamning nima o‘ylayotganini ham anglay olar edim, lekin mo‘ylovsiz bo‘lsa, maqsadi nimaligini bilib olishim qiyin edi. U sobiq xo‘jayinning qo‘lini siqdi. Keyin menga qarab:

— Ha Usmon og‘a, — dedi, — nima bizni tashlab ketmoqchimisan?

— Yo‘q, yo‘q, — dedi, — boshqa bir yumush bilan kelgan edik.

— Ha, shunaqami?

Hoshim bey gapini topolmasdan, g‘udurlab turganda, men:

— Gapning qisqasi, xo‘jayin, — dedim, — Husaynning bir muammosi bor edi. Shunga kelgan edik.

Qizarib ketdi:

— Advokatga murojaat qilsangiz, sudga borasiz. Ikkalasi bir joyda.

Derazadan tramvay yo‘lini ko‘rsatdi:

— Tramvayda borsangiz ham bo‘ladi. Poyezdda boray desangiz, bilet ham olib beraman.

Hoshim bey menga:

— Sen tashqariga chiqib kutib tur, — dedi.

Uch tomoni oynavand xonadan hech narsa eshitilmas, lekin qo‘l harakatlari, imo-ishoralaridan ba’zi gaplarini anglash mumkin edi. Nihoyat meni chaqirishdi. Xo‘jayin ancha xotirjam ko‘rinardi. Seyfini ochib, menga qaradi va:

— Sen, umring bo‘yi bir joyda uch ming lira turganini ko‘rganmisan?

Men javob bermadim. U jilmayib:

— Usmon og‘a, — dedi, sen ko‘rgan eng katta qog‘oz pul necha liralik?

— Ellik liralik qog‘oz pulni ko‘rganman, xo‘jayin!

Xo‘jayin seyfidan bir dasta pul olib stolning ustiga tashlay boshladi. Men o‘zim xohlamasam-da, unga sezdirmay ko‘z qirim bilan banknotalarni sanay boshladim:

— Ellik yetti, ellik sakkiz, ellik to‘qqiz!..

Xo‘jayin oltmishinchi banknotani qo‘lida o‘ynatib, stolga tashladi. Elliktalik banknota havoda tovlanib sekingina stolga kelib qo‘ndi. Stolning ustida qizg‘ish yashil qog‘oz pullardan bir tepa hosil bo‘ldi.

— Bu pul, — dedi u, — lo‘lining bolasiga umrining oxirigacha yetadi. Bu lo‘lilar bir yilda ellik lira xarajat qiladi deb o‘ylaysanmi? Agar oyiga ellik liradan xarajat qilsa oltmish yilga yetadi bu bolaga. Hozir necha yoshda?

— O‘n sakkizda.

— Demak, bu lo‘livachchani yetmish beshga kirguncha boqar ekanman bu pul bilan, ko‘rdingmi?

Hoshim beyga o‘girilib qaradi:

— Nomussiz, ablah, — dedi u, — shu biz yoniga borgan advokat degan firibgarni aytyapman-da... Uch yuz lira pulimni oldi. Bilmagan edim. Hoshim bey, bu bolaning otasi ham xuddi shu ishni qilgan ekan. Go‘yo bilmasdan barabanning ichida qolib ketgan, barabanni aylantirishganda, tanasi majaqlanib ketgan, u yerdan o‘ligi chiqqan dayusning. Bunaqa ishlar ilgari ham ko‘p bo‘lgan. Bohor degani bor edi-yu, ana o‘shaning ustaxonasida bo‘lgan bu voqea. O‘shanda ham ishni arang yopishgan. Bular shunaqa odamlar. Ataylab qilishadi.

— Usmon og‘a, — dedi, — mana bu yuz ellik lirani ol-u, ber unga, yo‘qolsin o‘sha lo‘li chodiriga!

— Xo‘jayin, — dedim unga yolvorib, — bir qo‘lini yo‘qotdi, qanday qilib ishlaydi bechora. Yana ozgina himmat qiling!

— Usmon og‘a, — dedi, — buni sening hurmating uchun beryapman. Besh qurush ham qo‘shmayman. Sen uning qo‘yniga yana bir qo‘l solib ko‘r. Agar haqiqatdan ham ataylab qilmagan bo‘lsa, Hoshim og‘a shohidim bo‘lsin, yana yuz ellik lira qo‘shaman. Mabodo, mening aytganim to‘g‘ri chiqsa...

Mana, kechqurun u xirgoyi qilar, men oqshom ochiq derazadan tashqariga qarab turardim. Chiday olmadim. Ochiqchasiga so‘rab qo‘yaqoldim. Lekin og‘zidan bir so‘z ololmadim. Borib bitta raqi oldim. Ikki qadahni unga ichirdim, ikki qadahini o‘zim otdim. Keyin u aljiray boshladi:

— Qo'yavering Usmon og'a, — dedi u, — Menga uch yuz lira ham yetadi. Ikkita baytal olaman. Men jonimni ko'chadan topmaganman!..

Uyimdan haydadim uni. Shundan keyin qaytib ko'rmadim. Ertasi kuni yuz ellik lirani xo'jayinga qaytarib berdim...

Keyin o'zim pushaymon bo'ldim. Hisoblab ko'rsam, Hoshim bir yilda kamida yuz ming lira pul topar ekan. Uch yuz lirani Husaynga ko'p ko'rdim. Umrimda bir marotaba yolg'on gapirsaydim, mana hozir qosh-u ko'zini maqtab turgan Muruvvatni olgan bo'lar edim...

KALLA VA SHISHA

Anchadan beri nima qilayotganimni bilmayman. Parishonxotir bo'lib qolganman, o'yga tolgan paytlarim ko'zimga allanimalar ko'rinadi. O'zimga kelganimda esa, hech narsa ahamiyatsizday. Shu tarzda hech kimni, hech narsani, hech bir hodisani har tomonlama mukammal, bekam-u ko'st ko'rganimni da'vo qilolmayman. Ko'p narsalarning ikir-chikirli tomonlari, tafsilotlarini eng mayda nuqtalariga qadar ko'ra olaman, his qila olaman, lekin odatda eng muhim qismini ko'zdan qochiraman. Shu bois agar kuni kelib meni guvoh sifatida biron joyga chaqirib qolishsa, tamom bo'lishim turgan gap. Ko'chada bir odamning boshqasiga pichoq ko'targanini bir ko'z oldingizga keltiring. Men pichoqni ko'rmasligim mumkin, lekin jinoyatchining chimirilgan qoshlarini eslab qola olaman. Pichoq kirgan joydan otilib chiqqan qonni ko'rmasligim mumkin, lekin shunda ham ko'zimga allanimalar chalinishi mumkin.

Guvoh sifatida mahkamaga chaqirilganimda sudya menga "Pichoq ko'targan shu odam edimi?" deb savol bersa, avvalo, uning qoshlariga qarayman. Agar u hatto tasodifan bo'lsa ham sal qoshini chimiradigani bo'lsa, men "Yo'q, bu emas!" deyishim turgan gap. Yoki sudyadan uzr so'rab, qoshining chetlarini tergan yoki termaganligiga e'tibor beraman.

Ha, men shunday odamman. Guvoh bo'lganimda juda yomon, zararli guvoh bo'lardim. Yozuvchilik faoliyatimda ham buning ta'-

siri sezilyapti. Kecha kechqurun bir janjalning ustidan chiqib qoldim. Shuni so'zlab bermoqchiman. Ular to'rt kishi edi. Men ovqatlanish uchun, bu yigitlar esa aroq ichish uchun kirgan edik bu oshxonaga. Bilsam, bu makon oshxona emas, mayxona ekan. Oddiy ish kuni bo'lgani uchun, o'ntacha stol band, qolgan yigirmatacha stol bo'sh edi. Vitrinaga o'xshagan oynali muzlatgichning oldidagi ikki kishilik stolga borib o'tirdim. Yolg'iz edim, ammo unchalik ham yolg'iz emasdim. Qarshimda xayoliy do'stim o'tirardi. Bu xayoliy do'stimni shunchalik yaxshi ko'rar edimki, ba'zan unga termilib qolar, lablaridan o'pgim kelardi. Bu xayoliy do'stimni qanday bo'lsa shundayligicha yaxshi ko'rardim. Qo'llarini, tim qora ko'zlarini sevardim uning. Shunchalik yaxshi ko'rar edimki, uni o'ylaganimda ichimda qandaydir bir iliqlik paydo bo'lar edi. Hech bir aytgan so'zidan ranjimasdim. Juda kamgap, gaplashayotganda ortiqcha, yoqimsiz harakatlar qilmas, bir so'z bilan aytganda, ideal o'rtoq, yaxshi hamroh edi. U erkakmi yo ayol, boymi yoki kambag'al, yoshmi yoki keksa? O'qimishlimi, yoki savodsiz, johil biri... Xullas, qanday qabul qilsam, shunday biri... Ba'zida oddiygina, bo'yanib bezanmagan o'qimishli qiz. So'zlari ravon... Ba'zan kelishgan yosh bir yigit... O'n olti-o'n yetti yoshlarda. Unchalik bilimliga ham o'xshamaydi. Bo'yoqchilik qiladi. Dini nasroniy dinidan. Ko'zlari tim qora. Kulganida inson emas, malak deysiz. Unga qarab to'ymaysiz. Gohida yoshi oltmishdan oshgan-u hayotda hamma narsani boshdan kechirgan, bilganday. Eshik-rom ham yasagan, dastgohda temir ham yo'ngan, devorlarga reklama, afishalar ham yopishtirib yurgan paytlari bo'lgan. Tarvuz-qovun ham sotgan, pista ham sotgan, ko'cha boshlarida kashtan qovurib sotgan paytlari ham bo'lgan. Ko'proq pul tushganda kechqurun ichkilikbozlik ham qilgan. U rivoyat aytishni ham boplar, ketma-ket bir-biridan qiziq rivoyatlar so'zlab charchamasdi. Har qanday mavzuda hikoyalari bor edi: qahramonlik mavzusida deysizmi, oila, er-xotin mavzusimi, deysizmi, ur-sur, urish-janjalmi...

...Umuman hamma narsani unutgandim. O'sha kez xayoliy do'stim bilan suhbat qurib o'tirardik. Nima haqda gaplashayotgan edik, yodimda yo'q. To'satdan qulog'im tagidan bir narsa uchib o'tdi. Bu bir pivo shishasi edi. Muzlatgichning oynasiga borib tegdi va chil-chil bo'ldi.

— Yaramas, ablah. Nega ko‘zimga qarab baqrayib turibsan, — dedi.

Bu o‘sha tim qora ko‘zli do‘stim edi.

— Shoshma-shoshma... Nima qarash gunohmi?

— Qarash bilan qarashning farqi bor, amaki.

— Sen xafa bo‘lma, og‘ayni, tinch qo‘y shu qari odamni... Balki sizni kimgadir o‘xshatgandir.

Orqamga qayrilib haligi odamga qaradim. Ajabo! U ham yarim soatlar avval men gaplashgan yuzi tatarlarga o‘xshagan oq soqolli, ko‘zlari kichkina, qoshsiz-kipriksiz bir qariya edi. Yuzi sarg‘ayib ketgan, ovoz chiqarmasdan kulardi. Qo‘llari dir-dir titrardi.

— Yo‘q-yo‘q. Bo‘lishi mumkin emas, og’ayni! — deya jahl otiga mindi.

— Qaragan bo‘lsam nima bo‘pti? Shunchalik ozoda bo‘lsang, mayxonada senga nima bor? Ko‘z bo‘lgandan keyin qarayd-da... Yaxshi narsaga qaramoq savob! — deb kuldi.

— Sen o‘zing kel yonimga, — dedim va uni o‘z joyimga o‘tqazdim. O‘zim esa borib bolalarni tinchlantirdim. Qariyani aroq bilan siyladim.

— Sen ham ichasan, ichmasang bo‘lmaydi, — deb menga ham tutqazdi. Tinchigan yigitlarni ham bir shisha aroq bilan siylamoqchi bo‘ldi.

— Qo‘y, bugunchalik borib o‘tirma yonlariga, boshqa biror kun siylarsan. Bular yosh, qonlari qaynoq. Biror kasofatni boshlab o‘tirishmasin tag’in.

— Nima qipti qarasam? Men ertalabdan kechgacha “pichoq charxlayman” deb baqirib yuraman. Kelib-kelib pichoqdan qorqamanmi? Kuniga yuz xil pichoq qo‘limdan o‘tadi. Qo‘rqmayman.

— Unday qilmang, chapxchi ota. Hamma ayb sizda ekan.

U menga diqqat bilan tikildi.

— Sen o‘zing nima ish qilasan? —dedi.

— Hech nima.

— Bekorchimisan? Ofarin! Ust-boshing top-toza. Aytaver, nima ish qilasan o‘zi?

— Bir ish qilaman, lekin uni ish deb bo‘lmaydi.

— Pul keltiradigan ishmi, ishqilib...

— Ha, kunlik choychaqa bor, sigaret olishga yetadi.

— Otangdan biron narsa qolmaganmi?

— Shunga o'xshash, bo'ldi bu mavzuga nuqta qo'yaylik. Nega buncha surishtirib qolding nima ish qilishimni?

— Savodi borga o'xshayapsan-da, shuning uchun so'rayapman.

— Nima bo'pti savodxonga o'xshagan bo'lsam?

— Savodxon odam senga o'xshab birovga maslahat berib o'tirmaydi-da...

— Nima qiladi?

— Savodxon kishilar boshqa odamlarni ham yaxshi tushunishadi.

U shunday deb ofitsiantni chaqirdi va yigitlar o'tirgan stolga bir shisha pivo buyurdi.

— Mana buni ularga olib borib ber va "Charxchi otaxondan" deb ayt.

Ilojsiz qolgan ofitsiant shishani olib yigitlar o'tirgan stol tomon ketdi. U stolda o'tirgan sochlari to'zg'igan, yigit ornidan turdi. Ofitsiant olib borib qo'ygan shishani bizning stolga olib keldi. Kulib:

— Yo'q yo'q, qo'rqma, hech narsa qilmayman. Faqatgina sening sharafingga ichaman, — deb meni itarib yubordi.

Men hech nima eshitmadim. Na boshiga kelib tushgan nimaningdir ovozi, na boshi uzra shishadan to'kilgan pivo... Orqamga o'girilib qaraganimcha hamma ish bitib bo'lgan edi. Yigit charxchi otaxonning boshidan pivoni quyar, qariyaning sochlaridan pastga chak-chak etib pivo to'kilar, qariya qo'llari bilan boshini bekitishga harakat qilar edi. Ofitsant "Politsiya-politsiya" degancha yuzlarida qo'rquv bilan tashqariga otildi. Qariyaning yuz-ko'zi qizarib ketgan edi. Stolga qaradim. Pivo shishasi yerda yotar, ichidagi suyuqlik hali oqib tushamagandi. Men yana charxchi otaxonga qaradim. Bu safar uning ko'zlariga diqqat bilan tikildim. Qariyaning ko'zlari qonga to'lgandi.

Varlık, (395), 1953-yil, 1-iyun

MURVAT

Odatiy dars kunlaridan birida sinfda o'tirgan edik. Yonimdagi partadoshimdan vaqtni so'rash xayolimga kelib qoldi:

— Necha daqiqa bor?

To'satdan savol berganim uchun tushunmadi shekilli, u ham savol berdi:

— Nimaga necha daqiqa bor?

Ajablanib yuziga qaradim:

— Darsdan chiqishga-da! — dedim.

— Ha-ya! — dedi.

Cho'ntagidan kattagina kumush soatini chiqarib, ko'zlarini doskadan uzishni istamay hadiksiragandek soatga qaradi;

— O'n yetti daqiqa...

Vaqt peshinga borib, kuzning andak salqin havosi sinfni qamrab olgan, xonaga kirgan chivinlar botanika ustozimizning atrofida va keng derazalar oldida shodon va befarq uchishardi.

Shu payt orqa qatordan kimdir meni qattiq turtti.

— Qancha qoldi? So'rasangchi, — dedi orqamdagi bola.

— O'zing so'rasang bo'lmaydimi, men hozirgina so'radim.

Gapim unga yoqmadi shekilli menga:

— Hayvon, — dedi.

Keyin yonimdagi o'yga tolgan partadoshimga:

— Jalil afandim, og'ayni, — dedi, — necha daqiqa qoldi, aytolmaysanmi?

Do'stim, "Yana nimaga necha daqiqa bor?" — deb so'ramoqchi edi, ko'zlarimdan o'qigan boyagi ma'noni eslab, yana kattakon soatini chiqarib istamaygina:

— Ikki daqiqa bor, — dedi.

Bu holat har darsda davom etardi. U sinfagi yagona soatli bola bo'lgani uchun uni kiyimining cho'ntagidan har darsda bir necha marta chiqarar, yo'g'on va past ovozda:

— O'n daqiqa, besh daqiqa, yigirma daqiqa, tugadi, — derdi.

O'sha paytlar darslar ellik daqiqa davom etardi. Bir kuni uning tutaqib sabrsiz va xijolatli, "Qirq besh daqiqa", — deb orqadagilarga aytganini eshitdim. Bu zerikarli va odamni asabiga tegib char-

chatadigan vazifani, u xuddi darslarni va uy ishlarini bajargani kabi doimiy bajarib borardi. Uning faqatgina katta tanaffuslardagina o'zi uchun soatga qaraganini eslayman. Ba'zan oxirgi soat darslarida, fikrini jamlay olmagan paytlari mahzun ko'zlariga uyqu kelgan payt soatga qarardi.

Men birinchi kundan keyin soatni umuman so'ramadim. Menga vaqtni doim uning o'zi aytib turardi. Imtihonlardan o'tolmay umidlarim parcha-parcha bo'lganda ham, ichimga dard, alam to'lganda ham, hech aqlim yetmaydigan geometriya darslarida ham boshqalardek undan soatni so'ramasdim. Tambal bolalarning ham shu geometriya darsda kallalari ishlab qolar, soatni so'rovchilar ancha ozayardi. Sinfda faqatgina men go'yoki boshim otilib ketadigandek mudrardim.

Yana o'sha geometriya darsi, ancha vaqt masalani qay yo'l bilan yechish mumkinligini o'ylab o'tirdim. Nihoyat topolmaganimdan keyin sekingina o'rtog'imga razm soldim. Kulib turgan yuzidan bilimli ekanligi ham shundoqqina sezilib turardi. Yelkam bilan tasodifan tegib ketgandek uni turttim. U o'girilib tabassum bilan qaradi. Ko'zlarida doskadagi masalaning aksi ko'rinardi.

— Xo'sh, demak shunday, — dedi, bu misollarning tashqarisidagi daraja, narigi misollarning ikkinchi darajasiga teng. Chunki, — dedi-yu to'xtab qoldi.

Keyin meni hech ranjitmagan va dars vaqtlarida qanchalik qiyin bo'lishiga qaramay geometriyani erinmay o'rgatadigan bu bola:

— Senga buni keyin tushuntiraman, hozir soatga qaraylik, — dedi.

Katta va uzun barmoqlari kiyimining cho'ntagidan soatni g'aroyib bir ustalik bilan chiqardi. Ma'yus ko'zlari, odamning ko'nglini ezuvchi va ayni damda yuziga kulgu baxsh etuvchi chehrasi soat oynasida ko'rindi. Chehralar to'qnashuvi ancha vaqt davom etti. Ular hali ham masalaning yechimini o'ylayotgandi. Men sabrsizlanardim, o'qituvchi ikkimizga qarab turardi. Ichiga ma'yuslik to'lgan ko'zlarini birdaniga men tomonga o'girdi.

— Murvatini buramabman shekilli, soat ishlamayapti — dedi.

Burashga urindi. Faqat murvat buragani sayin bo'shashib boraverdi. Mahzunlik bilan:

— Murvati sinibdi, — dedi.

Men bunga e'tibor bermadim va o'sha kuni ilk marta geometriya darsini o'qituvchining o'zidan eshittim. Menga yoqdi. Geometriyadan keyin psixologiya darsi edi. Bu o'qituvchimizning yoshi ancha katta, ovozi o'zidan ham keksaygan, o'zi aytayotgan psixik hayajonlar uni allaqachon tark etgandi. Haqiqatan psixologiyadek ajoyib bir dars, bunday zerikarli, hayajonsiz ovoz orqali tinglanmasdi. Misollari yaxshi emas, topgan va qilgan qiyoslashlarining mavzuga umuman aloqasi yo'q, yoki mavzudan juda uzoq edi. O'rtog'imdan soatni so'raganlar ancha ko'paygan, uzoq-yaqindan shivirlashlar kelayotgandi. U eshitilar-eshitilmas bir ovozda: "Murvati sindi..." — der edi. Sinfda eng orqa qatordagi darslarda kamdan-kam ko'rinadigan o'quvchi bir o'zi o'tirardi. Taxminan biz bilan tengdosh bo'lgan bu bola kap-katta odamdek ko'rinardi. Sigaret chekishi, gaplashishi mahalla qahvaxonasidagi notanish kishilarni eslatardi. U huddi ko'cha odamiga o'xshardi. To'satdan u dag'al, yoqimsiz, o'zini tutolmagan ovozda baqirib yuborsa deng. Go'yo bechora muallimga psixologik hayajon qanday bo'lishi kerakligini ko'rsatayotgandek.

— Hoy Jalil, dars tugashiga necha daqiqa qoldi? Har galgidek aytib tursangchi, baraka topgur?...

Og'aynim qizarib ketdi. Nafrat, g'azab va qayg'u to'la qiyofada orqa tomonga o'girildi. Hech narsa demasdan tik qarab turdi. Shunga aminmanki, muallim qo'yib bersa chumoliga ham ozor bermaydigan bu do'stim o'sha bahaybat bolani shu onning o'zida po'stagini qoqardi. Muallim boshqa chidab turolmadi:

— Jalil afandi, marhamat qilib soatga qarolmaysanmi? Men ham bu sinfdan chiqib ketishimga qancha qolganini bilishni istayman, — dedi.

Jalil mulzam o'rnidan turdi.

— Haligi, — dedi. — Soatimning murvati sinibdi.

Orqa tomondan bir muddat ovoz chiqmadi. Keyin yana boyagi bola:

— E-e-e, murvati sinibdi-yu... Voy murvat, Jalil... Murvat! Murvat!

Orqa va yon tomonimizdan yana bir necha kishi:

— Murvat! Murvat! — deb baqira boshladi.

Murvat nomini darsdan keyin bunchalik tarqalib ketishini na men, na o'rtog'im taxmin qilmagandik. Faqat Jalil, hali darsda bu nom aytilganda oldindan sezgandek qaltirashni boshlagandi. Jalil ismi bir necha kun ichida unutulayozgandi go'yo. Men bo'lsam bu mahzun do'stimni na murvat, na Jalil deb chaqira olardim. Jalil deyolmasdim. Chunki butun sinf murvat derdi. Aynan, aynan mana shu sababdan murvat deb ham chaqirolmasdim. Boshqalar uni shunday chaqirganda u hech achchiqlanmagandek boshini egar, birinchi chaqirilganda atayin qaramas, ikkinchi va uchinchi marta chaqirilganda jahl qilmas, lekin og'rinib qarar, javob bermasdi.

Maktabdagi oxirgi dars soatida edik. U o'rnidan turib, sinfdoshlarimizdan biriga darsni tushuntirish uchun yoniga o'tgandi. Parta ustida dars boshidan beri qayta-qayta yozib-chizib va nihoyat oqqa yozgan bir maktub turardi. Bu ish noto'g'ri ekanligini bilsam ham maktubni xuddi o'rtog'im yonimda o'tirgandek, qo'l tekkizmay, ko'z qirida o'qiy boshladim.

Muhtaram otajonim,

Sakkizinchida yuborgan maktubingizni oldim. Qanchalik xursand bo'lganimni tasavvur ham qilolmaysiz. Bu yerlarda havo juda yaxshi. Faqat kecha osmonni birdaniga bulut qopladi. Chelaklab quygandek yomg'ir yog'yapti. Bunday yomg'irdan keyin nilufar gullari juda chiroyli bo'lib ketarkan. Derazamdan ko'rinib turadi. Ertalablari dengizdek ustini shudring qoplagan bu manzara menga har doim Gemlikni eslatadi. Bir do'stim ham Gemlikli sizlarni judayam ko'rgim keldi. Darslarimni xuddi siz aytgandek muntazam tayyorlab boryabman. Keyin otajon, xafa bo'lmasangiz sizga bir gap aytmoqchiman. Menga maktabga ketayotganimda bergan soatingiz sinib qoldi. Haligi ichidagi temir narsasi bor-u... Nima deyilardi? Ichidagi jingalaksimon po'lat narsa. Ana o'sha narsasi sindi. Bu hafta u tomonga boradigan odam bo'lsa jo'natib yuboraman. Maktabda soatlar ko'p otajon. Soatga ehtiyoj yo'q. Siz tuzatib ishlatarsiz. Oyim ikkalangizning qo'llaringizdan o'pib, duolaringizni so'rab qolaman.

O'g'lingiz Jalil

YA'NIY USTA

Men Ya'niy ustani taniganimda u 15 yoshda edi. U paytlar hali "usta" deb chaqirishmasdi uni. Ya'niy usta qoramag'izdan kelgan, ko'zlari, sochlari tim qora, qo'l-oyoqlari ham qop-qora o'spirin edi.

Men-chi? Men u paytda kap-katta odam edim. Yolg'on gapirib nima qildim, tayinli bir ishim ham yo'q edi. Bu dunyoda yolg'iz onamdan boshqa hech kimsam yo'q edi.

Hozir Ya'niy ustaning yoshi yigirmada. Men ham ellikni qoralab qolganman. Agar mening bir do'stim bo'lsa, u ham Ya'niy usta edi. U devorlarni shunday did bilan bo'yar ediki, og'zingiz lang ochilib qolardi. Men uchun u o'n besh yashar qora o'g'lonligicha qolgandi. Bo'yoqchilik qilmagan paytlari kinoga, futbolga borar, qahvaxonada o'tirib qarta o'ynardi. Esiga tushib qolguday bo'lsam, qayerda bo'lmay meni darhol qidirib topar, esiga tushmasam so'ramasdi ham.

Nega sizni qidirar ekanman, otaxon! — deb hazillashardi.

Bir xilvat joyda pivaxonamiz bo'lardi. Ora-sira o'sha yerga borib o'tirar, chuqur xayolga cho'mib, bu dunyoga nega keldim o'zi, nima qildim? Bu dunyodan nima ko'rdim? Nega keldim-u, nega endi ketyapman? — deb o'ylardim.

Tashqarida qor yog'gan paytlari pivaxonaning ichi issiq bo'lishiga qaramay, men har doim sovqotib o'tirardim. Soat oltida u yerda hech kim bo'lmasdi. Pivaxona xizmatchisi narigi zalda edi. Devordagi soatning chiqillashi asabga tegar, ichmagan odamni ham ichishga majbur qilardi. Men Ya'niy ustani kutardim? Lekin, birovni kutish u keladi degani emas-ku? Keladigan bo'lsa, kutmaganingda ham kelaveradi. Umid qilsa bo'ladi. Kutmagan paytim, umid qilsa bo'ladi.

U kelib ro'paramga o'tiradi. Nima deyman unga? U menga nima deydi? Hech narsa xayolimga kelmaydi. Keyinchalik "U shunday degandi" deb o'zimcha to'qiyman.

Pivaxonaning doimiy mijozlari bo'lardi. Biri kelib deraza yoniga o'tiradi. Bir shisha ma'danli suv ochtiradi. Stakanga suv miqdoriga teng raqi[1] quydiradi. Bir likopchada ovqat keltirish-

[1] **Raqi** — suv qo'shib ichiladigan aroq turi (rus. anisovaya vodka)

larini aytadi. Bitta qovurilgan buyrak yoki qovurilgan tuxum buyuradi.

Shunda pivoxonaga Ya'niy usta kirib keladi. Qoshining orasi chiziq-chiziq. Besh ming lira qalin puli berar ekan qizning otasi. Qiz ko'hlikkina ekan. Avvaldan tanir ekan. Ammo bu gal choyxonada ko'rib qolibdi. Qizning onasi: "Raqsga tushmaysizmi, Ya'niy usta" — debdi. Ya'niy usta: "Men raqs tushishni bilmayman. Bilganimdayam tushmasdim" — deb javob beribdi. Ayol oshkora qat'iylikka o'tibdi. Ya'niy usta: "Dadam bilan gaplashing" debdi...

Demak Ya'niy usta pivoxonaga pivomni ichishga kelmaydi. "Bir muddat u yerda ko'rinmay turganim ma'qul. Bu ishning orqasida besh ming lira bor axir" — deydi.

"Menga qara, Ya'niy usta" — dedim o'tgan oqshom. Kichkinagina, qop qora bir yigitcha ediŋg. Mana, kap-katta odam bo'lib qolibsan. Men ham otaxon bo'libman. Lekin pivoxona haliyam o'sha-o'sha, stollari eski. Dunyo o'zgardi, sen ham o'zgarding. Lekin men hamon o'sha-o'shaman, Ya'niy usta! Seni ilgari qanday bo'lsang hozir ham shunday ko'raman: tim-qora sochli, qop-qora ko'zli uddaburon yigitcha. Esingdami, sen bilan kinolarga borardik. O'zingni tuta olmasding, bir chapak chalar, bir yelkamga urib qo'yarding.

— Qara-qara, ko'rdingmi? — derding, — ko'rdingmi izquvarni? Nima qilganini ko'rdingmi? Qara... Bir musht bilan...

Endi u kinoteatrlar ham buzilib ketgan. Oynavand bir teatr edi. Yomg'irli havolarda odamlar... Ularning egnidagi kiyimlardan allambalo hidlar anqirdi. Birinchi qatordagi bolalar orasida o'tirib qolganimizda ichimda mehr paydo bo'lar, atrofimdagi har bir chehra chiroyli ko'rinardi. Har bir bola yoqimtoy... Hammasining qo'li kichkina bo'lsa ham qadoq, kir, ammo issiq edi.

Kunlar o'tdi. Men qaridim. Sen ham kap-katta odam bo'lding. Besh ming maosh oladigan darajada. Ishqilib u qizni yoqtirasanmi, Ya'niy usta?

— Axir xotin bo'lgandan keyin yoqtiramiz-da.

To'g'ri, Ya'niy usta, ayollarni albatta sevish kerak. Lekin men ich-ichimda haliyam bolaligimcha qolganim uchun ulardan ko'ra bolalarni ko'proq yoqtiraman.

— Meni yaxshi ko‘rmaysizmi?

— Senimi? Shunaqayam savol beradimi? Ha, seni... Seni juda yaxshi ko‘raman.

— Lekin men endi kichkina bola emasman.

— Sen men uchun haliyam kichkina bolasan.

— Agar meni bola deb o‘ylasangiz, qattiq ranjiyman, arazlashib qolamiz. Siz bilan gaplashmay qo‘yaman.

— To‘yingga ham chaqirmaysanmi, Ya’niy usta?

— Ammo to‘yimga chaqiraman.

Ya’niy usta ham, men ham bir muddat jim qoldik. Keyin Ya’niy usta, bilmadim qaydan xayoliga keldi, menga qarab:

— Siz teatrlarga ko‘p borasiz, bir gal meni ham olib borsangiz-chi, — dedi.

— Bajonudil, qachon istasang olib boraman, — dedim.

Dushanba kuni teatrga borishga kelishib oldik. O‘sha kuni kassaga ertaroq borib, ikkita bilet olib keldim. Ya’niy usta yasanib keldi. Lekin biletlarimiz ertasi kun oqshomga edi. Teatrda dushanba kunlari spektakl qo‘yilmasdi.

— Ya’niy usta, — dedim, — dushanba kunlari spektakl qo‘yilmas ekan, unutibman. Biletlarni seshanbaga oldim.

— Mayli, zarari yo‘q, siz mening biletimni o‘zimga bering, — dedi.

Pivoxonaga kirib, to‘rttadan pivo ichdik, keyin xayrlashdik. Ertasi kun kech soat sakkiz yarimda teatrga keldim. Ya’niy usta hali kelmagan edi.

Sahna pardalari ochilishi uchun qo‘ng‘iroq chalingan payt yonimdagi o‘rindiqqa boshqa bir odam kelib o‘tirdi. Keyin bilsam, Ya’niy usta biletni boshqasiga sotib, teatrga kelmabdi.

Ya’niy usta menga so‘nggi marta bolalarcha shumlik qilgandi. Uning bu ishi ham negadir menga yoqdi, lekin o‘zimni g‘alati his qildim. O‘zimni yolg‘izlanib qolganday his qildim. Holbuki, men odatda teatrga yolg‘iz borar, bir o‘zim o‘tirib zavq olishga o‘rgangandim. Kechalari ham yolg‘iz qolishni xush ko‘rardim. Sayrga ham yolg‘iz chiqardim. O‘sha oqshomgi spektaklga o‘xshash zerikarli spektaklni endi boshqa ko‘rmasam kerak.

Mayli, qo'yaver, Ya'niy usta! Kelmabsan, kelmabsan. Shunga ham ota go'ri qozixonami? Sen, ko'chada ko'rganimda, hali-hali o'sha oynali kinoda yonimda o'tirgan yosh bolaligingcha qolaverasan. Lekin yuragimni ich-ichdan bir narsa tinmay siqaveradi. Mayli, qo'yaver, e'tibor berma bunga. Qadrdonim Ya'niy usta, parvo qilma, meni ko'rganingda bir jilmaysang, kifoya. Bir spektaklga shunchami? Dunyoda do'stlik degan narsa bor. U hali o'lmadi-ku...

Varlık, (404), 1954-yil 1-mart

BIR BAHOR HIKOYASI

Bahor bu — bayram, uyg'onish, mo'jiza, telbalik, imkonsizdek ko'ringan narsaning amalga oshishi va hokazo... Qush, moychechak, lolaqizg'aldoq, o'tloq, maysazor, daraxtlar, gullar, mimoza, sambitgul, suvning sasi, sachratqi, lo'lilar, qo'zilar... Odatiy bahorning ichida hamma narsa bor, hatto zulukning ham o'z o'rni bor. Bularni sanayotganimda unutganlarim ham bordir, albat... Ha, eng muhimi aprel, may quyoshi...

Yoshi qirqdan oshgan bir odamning fasllar ichida bahorni biroz qayg'u bilan his qilmasligi mumkin emas. Eski telbaliklar qayerda? Qayerda u, birdaniga bir yosh qizning qo'lidan, bir yosh qizning shamolidan sarg'ayish, qani o'sha yurak urishi? Inson umrini fasllarga qiyoslovchilar aslida to'g'ri ish qilishgan. Har kimning o'z bahori, o'z yozi, kuzi-yu qishi bo'ladi. Insonning bahori, boshqa jonzotlarga qaraganda kech boshlanadi. Ot bir yoshida, mayli, ana, ikki yoshida o'z umrining ilk bahorini yashayotgan bo'lsa, qo'zichoq olti oyda qo'chqorga aylanadi. Ammo inson o'z umrining bahorini yigirma yoshidan oldin idrok etishi qiyin. Yigirmadan oldin anglab yetilgan umr bahori "yolg'onchi bahor"dir. Men sizga shunday bir yolg'on bahor hikoyasini so'zlab bermoqchiman:

Bundan roppa-rosa o'ttiz yil oldin o'n ikki yoshda edim. Biz o'shanda Onado'li shaharlaridan birida yashardik. Otam davlat xizmatchisi edi. Biz shaharga yoz faslining oxirlarida kelgandik. O'sha yili qish juda yomon kelgan, odam bo'yi qor yoqqan edi...

Mana bahor ham keldi, qorlar ham eridi. Ha, qorlar eridi, lekin uni eritgan quyosh emas, yomg'ir edi. Biz turgan Onado'li shahrining bahori qirq kun kunduzlari yog'adigan yomg'iri bilan boshlanardi. Ertalabdan musaffo moviy osmonda isitmaydigan, quyosh urgan qor kabi sovuq quyosh ko'rinardi. Soat o'n bir bo'lmasdanoq sharqdanmi, g'arbdanmi, shimoldanmi, bilmadim qayerdan, bir to'da qora bulut paydo bo'lar, o'n daqiqa o'tib, chelakdan quyganday jala boshlanib, kun bo'yi tinmasdan yo'g'ardi...

Xonamning derazasidan "Qorachayir" degan yam-yashil o'tloq ko'rinib turadi. Ko'kning hamma rangini dengiz kabi o'ziga singdirgan bu o'tloqning o'ynoqi ranglari bo'lmaganda edi, uydan telba kabi hayqirib chiqish befoyda edi.

Qish bo'yi kasallikdan boshim chiqmasdi. Ko'chaga chiqishim bilan boshim aylana boshlardi. Bu g'alati, yomg'irli, qora bulutli, osmonning to'rtdan uch qismini bekitib turgan havoning ichida insonni hovuchiga olib siqayotgan bahor, tuproq, inson, o'tloq va og'ilning hidi anqib turar, ich-ichimdan baqirgim, yig'lagim va harakatsiz qotib qolgim kelar edi.

Bir kuni ertalab ko'zlarimni shiftga tikkancha yotardim. Havoni hali qora bulut bosmagan, tashqarida shitir-shitir... Yerga solingan o'rnimda yotgancha yomg'irning qachon boshlanishini o'ylayman. Shunda birdaniga xonaning ichidan porloq bir qush uchib o'tdi. Yotog'imning ustiga o'tirib oldim. Qush yana bir marta uchib o'tdi. So'ngra o'ng devorda oppoq chiziq chizib, g'oyib bo'ldi. Ko'zlarimni ishqaladim. Ochganimda devorda porloq bir doira titragancha go'yo joyiga o'rnashmoqchi bo'lardi. Bu bir ko'zguning devorda aks etayotgan nuridan boshqa narsa bo'lishi mumkin emasdi.

Yotog'imdan sakrab turib deraza yoniga bordim va tashqariga qaradim. Uyimizning tepadagi bog'i pastdagi uyning bog'iga qararди. Xonamga ko'zgu shu'lasi aynan o'sha yerdan tushayotgandi. Pushti shaftoli gullarining orasiga bo'yra va uning ostiga kursi qo'yilgandi. Bo'yra ustida o'n olti, o'n yetti yoshlardagi bir qizcha o'tirardi. Deraza oldida turib qoldim. Qizning qo'lidagi ko'zguning nuri ko'zimga tushganiga qaramay qo'llarim bilan yuzimni bekitmas, ko'zlarimni ham yummasdan tik qarab turardim.

Ertasi kun men ham qo'limga bir oyna olib oldim. U nozik kulib ko'zlarini oynadan tushayotgan nurdan olib qochishga urinar-

di. Bu o'yin hech qachon yarim soatdan ko'p davom etishi mumkin emas, u bog'dan uyi timon yuradi, sochlaridan yomg'ir tomchilari to'kiladi. Men yana yotog'imga qaytaman. Ertasi kun yana oydin tong boshlanadi, yana avval uning ko'zgusi nuri mening xonam devoriga tushib, o'ynaydi, so'ngra go'yo o'z yerini topmoqchi bo'lgandek titrab-titrab devorda osilib qoladi. Men yana kiprik ham qoqmasdan ko'zguning nuriga tik qarab turaman, u esa yuzlarini chiroyli qo'llari bilan bekitib men tutayotgan oyna nuriga qaradi. So'ngra yana o'sha odatiy yomg'ir boshlaydi.

Boshqa hech narsa bilan ishim bo'lmagani uchun bir kun tongda uyimizning oldida turgan ot aravani ko'rib hayratlanmadim. Har kungiday "oyna o'yini" o'ynab turganimda onam ko'rib qoldi. Onam bir bog'ga, bir haligi qizga, bir ko'zgu nuriga, keyin mening qo'limdagi ko'zguga g'alati-g'alati qaradi. Va menga:

— Qani, kiyin! — dedi.

Aravaga mindik. Ikki parchagina narsamizni aravaning orqasiga bog'ladik. Otam boshqa bir ishga tayinlangandi. Yo'lga tushdik. O'rmonning ichidan o'tar ekanmiz, quyosh bulutlar orasidan o'rmonning endigina barg chiqarayotgan daraxtlari orasidan bir ko'rinib, bir g'oyib boladi. Men hiqillab yig'lay boshladim. Shunda otam:

— Nima bo'ldi buningga? — deb so'radi onamdan.

Boshimni onamning egnidagi keng ko'ylagiga o'radim. Onam qo'li-yu yuzi bilan otamga qandaydir ishora qildi, bilmadim, ammo ikkalalari ham bir og'iz so'z deyishmadi. Qaysarligim tutib hech kim menga "jim" deyishga jur'at etmasligini sezib, to'yib yig'lab oldim.

Endi bahorda xonamning derazasiga biron yerdan tasodifan bir nur tushib qolsa, o'sha kun bahor har insonga bergani kabi menga ham g'am-g'ussa to'la mayinlik, betoqatlik, kuchli yurak urishi baxsh etadi. Mana o'shandan beri o'ttiz yil vaqt o'tibdi. Hech kimning yuziga oyna tutmadim. Hech kim mening ham yuzimga ko'zgu tutmadi. Ammo bahorda tasodifan bir yorug'lik xonamdan qaldirg'och kabi uchib o'tsa, o'sha kuni nima qilganimni bilmay qolaman...

— Uy? Qanaqa uy, qanday uy? — deb so‘radi.

Javob berishdan oldin, nima uchun ikki marta takrorlab so‘raganiga hayron bo‘lib turdim. Lekin, baribir tushunmadim. Maqbul javob topishga vaqtim yo‘q edi:

— Jonbermasning uyi, — dedim.

Ha uy desa uyga ham o‘xshamasdi, bir vayrona kulba, tosh-tuproq uyumi, xaroba kabi bir narsa. “Jonbermas”ni bu qishloqda hech kim tanimasdi. Holbuki, uning o‘zi menga: “Chirmoviqli uy” desang, bu qishloqda hamma biladi, qishloqning eng old, eng chiroyli uyi” degan edi. Hatto men ham:

— Jonbermasning o‘zi ham bu qishloqning eng mashhur odami degandim. U ham:

— Haa! Albatta!.. — degan edi, — Mashhur ham gapmi? U qishloqning bulbuli, qishloqda insonga o‘xshaydigan bir odam bo‘lsa, u ham shu odam, u yagona...

— Yagonami?

— Ha yagona...

— Nimasi yagona?

— U qishloqning iftixori...

— Ha, qishloqning g‘ururi.

Biroz kulishib oldik.

U odam hamon menga g‘alati-g‘alati qarab qo‘yar, nimadandir xavotir olayotgandi... Birdaniga boshini qimirlatdi va kuldi. Keyini o‘sha yerdan qo‘lida bo‘yoq idishi olib o‘tib borayotgan bir odamga yuzlanib:

— Sabri! Sabri! — deb chaqirdi.

— Mihal Usta.

— Qani, kel-chi!

— Ishim bor.

— Yolvoraman, bu yoqqa kel. Jonbermasning uyini qidirishayapti. Chirmoviqli uy emish.

Bo‘yoqchi orqasiga qaytib biz tomonga qarab kela boshladi. U yaqinlashib kelib menga tikildi. Ko‘zlarini goh qisar, goh ochar, yana qisar, yana ochardi. Uning ajin bosgan yuzida, yasama tishli og‘zida, kir, siyrak mo‘ylovida qandaydir quvonch izlari bor edi.

Bo‘yoqchi yonimizga yaqinlashib qolgandi. U baquvvat, kelishgan, yuzlari anordek bir yigit edi. Yumaloq yuzida tabassum o‘ynagancha yonimizga keldi va salom berdi.

— Jonbermasning uyini siz qidirayapsizmi, — deb so‘radi.

— Ha men qidirayotgandim.

Mihal usta kulimsirab:

— Sen bilasanmi? — dedi.

— Bo‘lmasamchi, — dedi bo‘yoqchi. Hozir o‘sha yoqqa ketayotgandim!

— Ha-a, shundaymi? Yo tavba, qara-ya! — dedi Mihal usta xuddi uning ustidan kulayotganday. Mo‘yloviga chang qo‘ngandek, silab qo‘ydi. Shu taxlitda qoshlarini ham barmoqlari bilan siypalab qo‘ydi.

— Olib bor bo‘lmasa, bu odamni, — dedi.

Orqasiga qayrilib ketayotganda uning ensasidagi ajinlar menga go‘yo boshqa bir Mihal ustani, o‘zidan bir necha yosh katta va ko‘sa, kulib turgan egizini eslatdi menga.

Bo‘yoqchi bola bilan keta boshladik. Bo‘yoqchi bolaning semiz tanasidan chiqayotgan ter hidi atirofni egallab olgandi. Quyosh kunni qizdirgandan qizdirardi. Qirq qadamcha yurdik. Shunda kutilmaganda yonimda Mihal usta paydo bo‘ldi. “Qaytib keldingizmi?” deb so‘ramoqchi bo‘ldim-u, ammo hech nima demadim. Chamamda gaplashmasdan o‘n daqiqacha dov-daraxtsiz, soyasiz yo‘ldan birga yurib bordik. Semiz bo‘yoqchidan kelayotgan terning hidi birmuncha pasaygandek bo‘ldi, biroq endi dimiqqan xona hidiga o‘xshash badbo‘y hid Mihal ustaning eski, anchadan beri suvsovun ko‘rmagan qiyiqchasidan kelayotgan edi. Yigirma qadam naridagi soya joyga tezroq bormoqchiga o‘xshab oldiga qarab qadamimni tezlatdim. Bir payt orqamga o‘girilib qarasam, Mihal usta va bo‘yoqchi sekinlashib qolishibdi. O‘zaro nimanidir pichirlashib kelishyapti. Hoynahoy men haqimda gaplashishayotgan bo‘lishsa kerak, deb o‘yladim. Ularning gaplariga qo‘shilmoqchi bo‘lgandek sal qadamimni sekinlatdim. Qarasam kunning tig‘ida yo‘lni o‘rtasida turib qolibman. Kashtan daraxtining quyuq soyasiga bor-yo‘g‘i o‘n qadam qolgan. O‘ylanib qoldim, soyaga borsammi, yo shu yerda ularni kutib nima haqida gaplashishayotganiga quloq solsammi? Shu topda ularning o‘zi meni chaqirib qolishdi.

— Bu yoqqa kelinglar, daraxt soyasida gaplashamiz, — dedim.

— Yo‘q-yo‘q, sen o‘zing bu yoqqa kel, — deyishdi.

Ularning yoniga bordim. Ularning egnidan anqiyotgan ter hidi va og‘izlaridan kelayotgan aynigan qazi hididan ko‘nglim ayniy boshlayotgandi. Savollariga javob bermasdan, aksincha o‘zini savol yomg‘iri ostida qoldirib, bir u yoqdan, bir bu yoqdan... Xullas charchadim.

— Jonbermasni qayerdan bilasan?

— Ijaraga xona olmoqchimisan?

Jonbermasni uyi bor ekanmi?.. Uni oldin qayerda ko‘rgan ekanman? Ajabo, o‘zi mening aql-u hushim joyidami?.. Qanday bo‘lar ekan? Jonbermasning asl ismi nima, men bilamanmi o‘zi?

Men bilganimcha javob berdim, lekin bergan javoblarimga quloq ham solmadilar.

— Bor, ishingni qil, birodar! — deyishdi. Bu qishloqda Jonbermas degan odam yo‘q. Bo‘lsa ham, uyi yo‘q. Uyi bo‘lsa, ijaraga beradigan ortiqcha xonasi yo‘q. Bo‘lganda ham bunday odam bilan bir uyda yashab bo‘lmaydi. Yashalganda ham unaqa shart-sharoitga chidab bo‘lmaydi... Xullas, ular Jonbermasning uyini bilishmas, bilsalar ham menga ko‘rsatishlari mumkin emas edi.

Ular o‘zaro yunoncha gaplashishar, menga har qaraganlarida: “Bor og‘ayni, yo‘lingdan qolma” — deyishardi.

Ular chap tomondagi torgina, butalar bilan o‘ralgan bir yo‘ldan bir-birlariga nimalardir gapirib qah-qah otib kulishgancha g‘oyib bo‘lishdi. O‘zlari ko‘rinmay ketgan bo‘lsalar-da, ancha vaqtgacha ovozlari eshitilib turdi.

Men hayron edim. Men Jonbermasni ko‘p yillardan beri tanirdim. Oddiy, beozor bir odam edi. Asl ismini so‘ramaganman. Mana shu qishloqda yashaydi. Otasidan meros qolgan uch xonali uyi bor, bir xonasida o‘zi yashaydi, ikki xonasini yoz mavsumida ijaraga beradi. Omonatchilik qilib kun kechiradi. Turmush qurmagan. Bitta xonasini kimdir ilgariroq ijaraga olgan ekan, yana bittasini men olaman, dedim.

Nihoyat, kashtanning yoniga yetib keldim. Judayam charchagan edim, bir xarsang tosh parchasi ustiga o‘tirdim. Atrofimda bir xo‘roz uch-to‘rtta tovuqni yoniga olib aylanib yurardi. Yaqin atrof-

da inson zoti ko‘rinmas, hamma tushlikdan keyingi uyquda bo‘lsa kerak... Sal mizg‘ibiman... Orqasiga nimadir ko‘tarib olgan bir keksa odam yonimda paydo bo‘ldi. Men o‘tirgan xarsang toshning bir chetiga kelib o‘tirdi-da, cho‘ntagidan sigareta olib yoqdi. Ancha vaqt jim turgach, so‘rashga jur’at qildim. Gapni uzoqdan boshladim:

— Shu qishloqdanmisiz, hamshaharim? — deb so‘radim.

— Biz bu qishloqlik emasmiz, lekin shu yerlik bo‘lib qolganmiz. Yigirma yildan beri shu yerda hammollik qilaman.

— Shu yerliksan, demak.

— Ha-a, meni shu yerlik hisoblaydiganlar ko‘p, ammo kelgindi deguvchilar ham yo‘q emas. Lekin o‘rganib qolganman. Bir tuzukroq gaplashadigan odam uchrarmikan bu qishloqda, deb o‘ylayman doim.

— Qishlog‘imiz yaxshi, lekin...

— Kunga bog‘liq. Agar puling bo‘lsa, sigareting bo‘lsa, qora qozoning qaynasa, yaxshi kun bo‘ladi... O‘chog‘ingda olov yonsa, ustida sho‘rvang qaynasa, tashishga yuk chiqsa, kayfiyating yaxshi bo‘lsa, demak o‘sha kun yaxshi bo‘ladi...

— To‘g‘ri, hamma narsa shart-sharoitga bog‘liq.

— Shart-sharoitsiz yashayotganlar ham bor.

— Bor, bor, lekin...

— O‘lim degan narsa ham bor, do‘stim, ha o‘lim... O‘sha qasrning egasi ham bir kun kelib o‘ladi. Ana u yurgan dakan xo‘roz ham...

U shunday deb ko‘kragiga urib qo‘yadi:

— Men ham bir kun o‘laman.

Yuzimga qarab:

— Ha, sen ham...

— To‘g‘ri aytasan, lekin farqi bor...

— Nimaning farqi bor, o‘likdan o‘likning farqi bormi?..

— Ha, shunaqa, — dedim.

— Yo‘q, — dedi u, — O‘likning farqi bo‘lmaydi; tirik insonlar orasida farq bo‘ladi.

O‘ylanib qoldim: gapi rost edi. Ichimda “Voy, onasini!” dedim. Bu gapimni eshitgandek birdan yuzimga qaradi:

— Ha, shunaqa! — dedi.

— Men ham shuni aytmoqchi edim, tiriklar orasida farq bor, o'liklar bir xil bo'ladi, dedim.

— U bor, — dedi. Omanno!

Ikkalamiz ham ana u yerdagi ko'shkning balkonidan burni katta, egniga ipak pijama kiygan odam sharpasini ko'rganday bo'ldik. U sharpa bizga go'yo olayib qaraganga o'xshadi. Jahl bilan ochiq turgan balkon oynasini taraqlatib yopdi. Shunda hammol menga qarab:

"Uni uyqusini buzdik chamamda", — dedi u. "Tush payti uxlasa, uzoq umr ko'raman deb o'ylaydi", dedi.

— Uzoq umr ko'rmaydimi?

— Ko'rmaydi.

— Yo ellikka kirgan, yo kirmagan. Men yetmish beshdaman. Yosh bo'lsa ham yuzida, oyog'ida, hatto mo'ylovida azroilning qo'li sezilib turibdi.

— Senda yo'qmi?

— Mening shamim yaqinda so'nadi, — dedi, — Men ko'p uxlash, ko'p ovqat yeyishdan o'lmayman, faqat shamim o'chadi, xolos.

— Lekin, qara u mana shu jaziramada bo'g'ilib uxlab yotibdi. Uyg'onishi bilan, muzdek mevalar, shaftoli, olxo'ri... Sen bo'lsang yukingni orqalab yuribsan. Qishloqda bironta chashma ko'rinmaydi.

U javob bermadi. Og'zidan ko'pik chiqayotganga o'xshadi. Ko'zlari ham yumuq edi. Sal o'tib, ko'zini ochganday bo'ldi. Soqolini asta silab:

— Bir bosh uzum oldim; yeb, ustidan bir kosa suv ham ichdim.

Haqiqatan ham uzumni yeb, ustidan bir kosa suvni ham ichgani bilinib turardi. Ko'zim ko'r bo'lsin, masxara qilish uchun "Osh bo'lsin" demadim.

— Ushla shuning uchini, yordamlashib yubor. Ha, bo'ldi. Mayli sog' bo'l, — dedi, — Shoshma! Sendan bir narsa so'ramoqchi edim.

— So'ra, lekin tez bo'l.

— Mana shu chirmoviqli uyni so'ramoqchi edim.

— Qanday uy, qanday uy? Jin ursin! Jonbermasning uyi, — dedim.

U qiyalikdan yuqoriga ko'tarilar ekan, boshini chayqab, to'ng'illab nimalardir dedi.

— Bor ishingni qil, birodar! — dedi.

Qariya oftobga bir qadam qolganda, orqasidagi yukni bir silkitib oldida, orqasiga qarab:

— Noto'g'ri qidiryapsan. "Jonbermasning uyi" emas, "Jonberolmasning uyi" deb so'ra, — dedi.

Qishloqdagi bozorchaga borib, bir sut sotadigan do'konga kirdim va u yerdan non va qatiq oldim. Ustidan muzdek olmali suv ichdim.

— Bizdan qancha bo'ldi, birodar?

— 7,5 qurush — non, 40 qurush — qatiq... Jami ellik qurush bo'ladi, og'a.

Sut sotuvchi yoqimtoy alban edi. Yuzi istarali, barmoqlari uzun-uzun edi. Moviy ko'zlari odamni o'ziga tortar edi. Har holda, u ham meni alban deb o'ylagan bo'lsa kerak, shuning uchun Tirana, Kega haqida gapirdi. Albancha bilasanmi, deb ham so'radi. "Yo'q, albancha bilmayman, Albaniyadan bolaligimda ko'chib kelganmiz" — dedim.

Eshikdan chiqar ekanman menda bir jasorat paydo bo'ldi:

— Birodar, — dedim, — Jonbermasning uyi qayerda?

Savolim juda ham jiddiy edi. Arnavutning sutdek oppoq va yumshoq yuzi, ko'k ko'zlari kosasidan chiqqudek bo'lib menga yaqinlashar ekan, ko'chaga qarab yo'naldim. Men eshikdan tashqariga chiqar ekanman, u og'zidan tupuk sachratib:

— Kimning uyi, kimni uyi More? — der edi.

MEN NIMA QILAY?

Kecha kechqurun ovqatlana turib, dasturxonda yegan taomim menga 470 liraga tushganini hisobladim-u cho'chib tushdim. Maqola yozishni boshlaganimda boshqa ish bilan shug'ullanmaslikka qaror qilgandim. Bu haftada yozganlarim uchun gazeta tahririyatidan ikki lira olaman. Kim biladi deysiz, boshqa gazetalarga ham maqola berib, ko'proq daromad qilishni o'ylab ko'rsammi-

kan?.. Axir umrimning oxirigacha kichik muharrir bo'lib yurmayman-ku!..

Ilgari gazetalarga yozadigan sud intervyulari va kichik hikoyalardan bir yarim lira qalam haqqi olardim va bu ona-bola ikkalamizga bemalol yetardi. Ammo, endi bu pul kun kechirishga kamlik qilyapdi. Bunaqada yana biroz tishni tishga qo'yishga to'g'ri keladi. Kim nima desa-desin-u, faqat endi yozuvchilik qilib kun kechirish haqidagi qarorimni hech kim o'zgartira olmaydi.

Bitta gazeta uchun bir oyda atigi qirq besh lira uchun band bo'lish mumkin emas. Yaxshisi, o'qituvchilik qilaman. Men o'zim biror narsa bilmay turib o'quvchilarga nimani o'rgata olaman?.. Bolalar uch kunda boshimga chiqib olishadi-ku!.. Bundan uch yil avval biron bir tijoriy faoliyat bilan shug'ullansammikan, deb o'yladim. Rahmatli dadam menga bir tijoriy sherik topdilar. U odamning o'zi tijorat qilish to'g'risida murojaat qilib, imlo xatolarga to'la, biroq ko'zlarni yoshlantiradigan bir maktub yozgan edi. U odam otamning eski tanishlaridan biri bo'lib, o'z maktubida quyidagilarni yozgan edi: "Biz birga ishlar edik, u paytlar men juda yosh edim. Men bu ishdan voz kechdim, lekin vijdonim toza, yegan bo'lsam faqat o'zimning pulimni yegandim. Sherigimning haqqiga hech qachon xiyonat qilganim yo'q. Eshitishimcha, Maxdumbey o'zi uchun yangi bir tijorat ishini boshlayotgan ekan. Sizdan o'tinib so'rayman, meni ham o'z tijoratingizga sherik qiling. Shuning bilan men ham o'z tijorat bobidagi obro'yimni tiklab olaman. O'tgan kecha tushimga Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) kirib bu ishni birgalikda qiladigan bo'lsak tijoratimiz gullab-yashnashini bashorat qildilar".

Haqiqatan ham bu g'amgin bir maktub edi. Ko'zlarim yoshlandi, dadam talabchan tijoratchi bo'lishiga qaramasdan, anchagina ta'sirchan inson edi. U ham o'zini yig'idan tiyib tura olmadi.

Biz kutgan odam keldi, past bo'yli, nigohi o'tkir, rasmiy kiyingan bir kishi edi. Yangi tijoratimiz uchun birga joy oldik va firmamizni tuzish haqida qaror qabul qildik. Boshlang'ich sarmoyani otam kiritdilar, ishni boshladik. Biz oktabr oyida 50 qop loviya sotib olib, dekabr oyida sotmoqchi edik. Bu orada tuxum va kartoshka ham olib sotdik. Men ofisga o'xshagan joyda o'tirardim.

Sherigim esa tashqarida tinimsiz yahudiycha kiyingan odamlar bilan savdo qilardi. Ularning ko'pchiligi nochor ko'rinar edi. Bizning urug'saralash mashinamiz bor edi. Uning chirog'i urug'larni turli ranglarga ajratib chiqarar, biz esa ularni navlarga ajratar edik. 50 qop loviyamiz yuqoridagi xonada turardi. Ish boshlaganimizdan buyon, men ishdan barvaqt ketadigan odat chiqardim. Sherigim esa: "Boraqol, boraqol sen hali yoshsan, bir kuni sen ham ko'nikib qolarsan. Seni charchatishni aslo istamayman, hozircha men yoshman, sen esa bolasan, men qariganimda sen yosh navqiron yigit bo'lasan, keyin o'zing ishlayverasan" — der edi.

Bu qanaqa ish o'zi? Loviya omborida nimalar qilayotganimizni tushuna olmasdim. Men u kunlarni hozirgidek eslayman. Loviyalar hamon yuqoridagi xonada turar, men: "Loviyaning narxi ko'tarildimi?" deb so'radim. U: "Ha nima qildi, hali hech qancha ko'tarilgani yo'q" — dedi.

Bir kuni yuqori qavatdagi hammomga chiqayotganimda oyog'im nimagadir ilashib qoldi. To'satdan loviya qoplari ustiga yiqildim, tapir-tupur ovozdan qo'rqib ketdim. Men bu nimaning ovozi ekanligini tushundim: bu loviya emas, yong'oqning shaqir-shuquri edi. Quloqlarimga ishonmasdan qoplarni yana bir bor qarab chiqdim. Ha, bu yong'oqning ovozi edi.

Pastki qavatga tushib sherigimdan so'radim: "Hoy, Alibey! yuqoridagi qoplarda yong'oq ham bormi?" Sherigim hadiksiragancha "Ha, bu yong'oqlar vaqtincha omborimizda turibdi" — deb javob berdi.

Butun bo'lgan voqeani kechqurun otamga aytib berdim. Ertasi kuni ishxonaga kelganimda, eshiklarga qulf osilgandi. Kalitni topib, eshiklarni ochib, yuqori qavatga ko'tarildik. Shunda ne ko'z bilan ko'raylikki, hamma qoplar yong'oqqa to'la edi. Har bir qopning ustida "MA" markasi tushirilgan edi. Dadam jahli chiqib: "Voy ahmoq... Hamma loviyani sotib, o'rniga boshqa odamlarning yong'oqlarini qo'yib ketibdi-ku, sen shu paytgacha uyqudamiding? Nahotki sezmading" — dedi.

Biz u odamni qaytib hech qachon uchratmadik. Aniq esimda, o'sha kimsalarning xatti-harakatlari g'ayri tabiiy, ko'zlarida dahshat bor edi... Ayni kun, minglab bozorlarda, mening hikoyamdagi qahramonlar taqdiriga o'xshash voqealar hozirgi kunda ham

uchrab turadi. Bu kabi holatlarda kishi hamkorlikdagi o'yinning qurboni yoki raqibiga masxara bo'lishi mumkin.

Bu g'alati va dahshatli ko'chalar, bu ulkan tosh ark, Vizantiya uslubida qurilgan o'zgacha baqqollik do'konlari ichida, g'alati chopon kiygan, uzun soqolli, semiz tanli odam faqat o'z uyini, o'g'lining rohatini, qizining sepi haqidagina o'ylab ishlashi mumkin emas. Hanuzgacha sir bo'lib qolayotgan, o'zgalarning yong'oq to'la qoplariga alishtirilgan bizning loviyalarimiz haligacha ko'z o'ngimizda turibdi.

Men endi haftasiga ikki lira evaziga matbuotga maqola yozishni davom ettiradigan bo'lsam, ular yuqoridagi kabi qing'ir ishlarni davom ettiradilar. Bugundan e'tiboran maqola yozmayman. Pulim bor, shunga bulg'ur, guruch yoki no'xot olib saqlab qo'yaman. Qutulishning boshqa yo'li yo'q.

Ilgari davlat xizmatida ishlagan do'stim bor edi. Yaqinda uni uchratib qoldim. Juda serhasham, orasta kiyingan: 14 liralik galstuk, 65 liralik tufli... Bilmadim, buncha pulni qayerdan olgan. U bilan uchrashib qolib, biroz suhbat qildik. Undan bu darajaga qanday erishganini so'radim. U davlat xizmatlaridan ketganligi va tadbirkorlik bilan shug'ullanayotganini aytdi. Uning qalbi toza bo'lganligi uchun menga sirlarini ochdi. — "Nima qilay axir? Ayt, nima qilay? Davlat ishida ishlagandan ko'ra, tijorat bilan shug'ullangan ma'qul. Mana ish boshlaganimda 600 liram bor edi. Hozir esa 1000 liram bor" — dedi.

Aytingchi, men nima qilay? Men yozuvchilik faoliyatimni davom ettirmoqchi edim. Urushdan keyin bir kutubxona ochsam. Unda faqat yuqori saviyali, insonlarni zavqlantiradigan, sifatli kitob chiqarishni xohlardim. Hech qachon yomon kitob chiqarmaslikni va shu orqali tirikchilik qilishni niyat qilgandim. Ammo buning iloji yo'q edi. Agar shu ketishda davom etadigan bo'lsa, otamdan qolgan merosning qolgan qismini ham yeb bitirar edim-da... Endi nima qilaman? Bulg'ur[1] olsammikan?.. Vizantiyaliklarnikiga o'xshash baqqollik do'konlaridagi Istanbul baliqpazlari bilan kelishib, binoning yuqori qavatlarini qoplar bilan to'ldirib, ichiga kurd soqchilardan qorovullar qo'ysammikan?.. Siz nima deysiz?..

---

[1] **Bulg'ur** — bug'doyning guruch o'rnida ishlatiladigan bir turi.

"MAHKAMA OSTONASI" NOMLI KITOBDAN OLINGAN HIKOYALAR

Said Foiq Abasiyoniq qalamiga mansub "Mahkama ostonasi"[1] deb nomlangan kitob turk adabiyotshunosligida kam uchraydigan reportaj janrida yozilgan bo'lib, u alohida hikoyalardan tashkil topgan. Quyida ushbu kitobdan saralab olingan hikoyalarning o'zbekcha tarjimalari kitobxonlar hukmiga havola etilmoqda.

ER-U XOTINNING URUSHI...

Fuqarolik ishlari sudyasi, ularga yarashib olishlarini taklif qilib ko'rdi. Lekin er ham, xotini ham oyoq tirab turib olishdi.

Aybdor ham, da'vogar ham er-xotin ikkalasi edi. Ular Sirkachidagi[2] bir mehmonxonada (nomini yozmadim) yashashadi. Xotini mehmonxonaning mudiri, eri esa — haydovchi.

Xotin o'ttiz besh yoshdan oshgan, erkak esa 330 yilda tug'ilgan[3]... Erkakning ismi Ahmad, onasining ismi — Nana. Erkak Mersinning nomi ham o'ziday chiroyli — "Gulnor" qishlog'idan. Ha, qishloqning nomi haqiqatdan ham "Gulnor". Xotini O'rxon elidan.

Sudya savol berganida: "Mehmonxonada kotiba bo'lib ishlayman" deb javob berdi. Birozdan keyin sudya rasmiyatchilik yuzasidan "o'qish-yozishni bilasizmi?" deb so'ralganida: "O'qish-yozishni bilmayman." — dedi. O'qish-yozishni bilmaydigan kotiba?.. Bu nimasi?.. Sud zaliga o'tirganlardan bir qismi xotinning javobini eshitib unga kulimsirab qo'ygan bo'lsa, qolgan qismi qattiq kulib yubordi. U past bo'yli, yoshidan ko'ra ancha kattaroq

---

[1] Abasıyanık Sait Faik, Modern Bir Karı Koca, hikâye, Mahkeme Kapısı, Bütün Yapıtları, Yazılar, Yapı Kredi Yayınları, 6. Baskı, İstanbul, Mart, 2008.

[2] **Sirkachi** — Istanbuldagi mavzening nomi.

[3] Yigirma sakkiz yoshda.

ko‘rinadigan, lablari asabiy va ma’nosiz tabassumdan to‘xtamay qimtinib turadigan ayol edi.

Ahmad ifoda bera boshladi:

— Birga yashashning iloji bo‘lmayapti. Oramizda janjalsiz biron kun yo‘q. Hatto politsiya mahkamasiga ham olib ketishgan paytlar bo‘ldi. Urushdik-yarashdik... Urushdik-yarashdik... Mana, ko‘rib turibsiz, sudga murojaat qilishga majbur bo‘ldik. Mana bu guvoh ko‘rsatilayotgan shofyor Hamdi mening xotinim Fathiyaga “Endi ajrashmasangiz bo‘lmaydi. Asosiy guvoh o‘zim bo‘laman” — deb xabar yuboribdi. Fathiya ham: “Men unga shunday bir tuzoq qo‘yayki, xotin bilan ajrashish nima ekanligini bilib qo‘ysin” — debdi.

Shundan keyin asabiylashdim, keyin undan qo‘rqa boshladim. Kecha ertalab narsalarimni jomadonga joylab, mehmonxonadan chiqib ketishga qaror qildim. Zinadan endi tushayotganimda yo‘limni to‘sib, “Ha, taqsir, yo‘l bo‘lsin” — deb so‘radi. Men esa dovdirab “Bironta mehmonxonadan bitta boshimga joy topilib qolar. Bundan keyin sening yoningda bo‘lishdan qo‘rqaman. Qoch yo‘limdan! — dedim. U: “Ha qorinlari to‘yib qopti-da?.. Indamasdan juftakni rostlamoqchi bo‘ptilar-da?.. Hech qayoqqa ketmaysan. Mana shu yerdan yana bir qadam qo‘yib ko‘r!.. E-e, to‘xta!.. Jomadonda nima bor? Qani och-chi!.. Balki mijozlarning narsalarini joylab olgandirsan?..” — deb o‘dag‘aylay boshladi. Og‘ziga kelganini qaytarmadi. Nafsoniyatimga tegadigan so‘zlar ayta boshladi. Bu ham yetmagandek, stulni olib boshimga sola ketdi. Keyin politsiya keldi. Bizni mahkamaga olib borishdi. Bayonnoma rasmiylashtirildi. Oldin u imzo qo‘ydi, keyin men imzo qo‘yayotganimda: “Ahmad, kuyding!” deb baqirdi kimdir. Lekin men bayonnomaga imzo qo‘yish bilan kuyish orasida qanday bog‘liqlik borligini anglay olmadim o‘shanda... Shu payt paltomdan qandaydir hid kelayotgani va tutayotganini sezib qoldim va gap nimada ekanligini, ya’ni haqiqatdan ham kuya boshlanimni sezdim. Birdaniga paltomni yechib otib yubordim. Paltomning orqasida bir qarich joy kuygan edi. Darhol o‘chirib olishdi. Keyin bilsam, orqamga kislota to‘kib yuborgan ekan bu xotin. Meni qattiq haqorat qildi... Muhtaram sudya, men da’vogarman, shikoyatimni qabul qiling!..

Sudya:

— Qara, u ham sening ustingdan shikoyat qilyapti, uni do'pposlabsan. Ahmad:

— Yo'q, unga qo'l tekkizganim yo'q.

Ahmad gapirayotganda Fathiya uning so'zini bo'lmoqchi bo'lib o'zini u yoqdan bu yoqqa urar, lekin sudyaning jiddiy nigohidan hayiqib, xuddi sut to'kib qo'ygan mushuk kabi jimib qolar, sal o'tib yana lovillab ketardi. Sudyaning so'nggi qat'iy ogohlantirishidan keyin gapga aralashmay qo'ydi. Ammo teatrdagi aktrisalarga o'xshab yuz-ko'z ifodalari bilan sal tovushini chiqarib "Tavba, tavba..." demoqlikdan o'zini tiya olmadi. Xullas, Ahmad bilan savol-javob shu tariqa nihoyasiga yetdi. Navbat Fathiya xonimga keldi:

— O'zi oddiy bir ofitsiant edi. Bizning mehmonxonada yotib-turardi. Bir kuni, Allohning amri, deya menga uylanmoqchi ekanini aytib qoldi. Allohning amri bo'lsa dedim-u, rozi bo'ldim. Turmush qurdik. Mana shunga ham besh yil bo'libdi. Men uni yaxshi ko'raman. O'sha janjal bo'lgan kundan oldingi kecha u deraza yonida turib sigaret chekayotgan edi. "Menga bir nima bo'lganga o'xshaydi. Tushimda yomon narsalarni ko'rib chiqayapman: goh dengizga tushaman, goh bulutlar ustida uchib yuraman... Qandaydir noxush narsa bo'ladiganga o'xshaydi" deb qoldi. Xullas, o'sha kuni tongda jomadonini olib ketayotgan ekan. "Ha, taqsir, yo'l bo'lsin!.. Muhlati to'lgan mehmonga o'xshab qayoqqa otlandingiz?.." — deb so'radim. "Ketaman, hammasi jonimga tegdi. Endi sen bilan bir daqiqa ham tura olmayman" — deb javob berdi. "Mendan nima yomonlik ko'rding, azizim?.." deyishga ulgurmadim. Boshimga bir musht kelib tushdi. Stulni ushlab qoldim. Shu payt menga hujum qildi. Og'ziga kelganini aytib, so'kina boshladi. To'polon boshlandi. Mehmonxonadagilar bizni ajratib qo'yishdi.

— Qarang, siz ham unga yomon so'zlar aytgansiz...

— Men erimni yaxshi ko'raman. U haqida yomon so'z aytishim mumkin emas. ... Xullas bizni politsiya mahkamasiga olib borishdi. Mahkamada erimning paltosi cho'ntagida avtomobilning moy bosgan qismlarini tozalash uchun har doim olib yuradigan kislota shishasini ko'rib qoldim. Ilgari ham bir necha marta "Shuni bir kun ustinga to'kaman!" deb menga tahdid qilgan edi. Politsiya

xodimlariga "Qaranglar!.. " — deb shishani ko'rsatish uchun uning cho'ntagidan oldim. O'sha payt erim engashib bayonnomaga imzo chekayotgan edi. Kutilmaganda o'rnidan turdi va shishadagi kislota uning ustiga to'kilib ketdi. Shunda sudya ayolni to'xtatdi va savol berdi:

— Tushundim... Yaxshi, lekin shishaning og'zi yopiq emasmidi?

— Yopiq edi, janob sudya, lekin erim shunchalik qattiq urildiki, shishaning og'zidagi tiqin otilib ketdi. Bundan tashqari, erimning egnidagi kiyim-boshlarining hammasini o'z pulimga olib berganman. Besh sira kiyimi bor. Shunday ekan nimaga endi o'zim olib bergan kiyim-bosh ustiga kislota to'kib qo'ydirar ekanman... Men o'z da'vomdan voz kechmayman, janob sudya, u meni haqorat qildi, do'pposladi ...

Guvoh Avniy — mehmonxona ro'parasidagi do'kon sotuvchisining shogirdi. Ichkaridan bir ayolning "Tezda politsiyaga xabar bering!" degan ovozni eshitgach, politsiya mahkamasiga chopgani, hamma birga mahkamaga borgani, u yerda Ahmadning ustiga kislota to'kilgani, lekin kim to'kkanini hech kim ko'rmaganini aytdi. Navbat guvoh Jalol Tog'liga keldi. Bu past bo'yli o'n yetti yoshlardagi sog'lom bir yigit edi.

— Men o'sha mehmonxonada yashab turibman, deb so'zini boshladi. Bu odam xotiniga hech narsa degani yo'q. Ayol og'ziga kelganini qaytarmadi. "Qayoqqa ketyapsan? Seni besh yildan buyon boqyapman. Qorning to'q, mana shu egningdagi kiyimlaringni ham men olib berganman, mendan osonlikcha qutula olmaysan!" — deb qo'lidagi jomadonga yopishdi. Ayol javrashdan to'xtamas, og'zidan bodi kirib shodi chiqardi. Bu ham yetmaganday, stulni olib erining ustiga tashlanmoqchi ham bo'ldi. Er ham bo'sh kelmadi: xotinning qo'lidan stulni tortib olib ikkita tarsaki qo'ydi. O'rtaga men tushdim, keyin politsiya keldi. Hammamizni politsiya mahkamasiga olib borishdi. Mahkamada Fathiya xonim cho'ntagidan kislota shishasini chiqarib Ahmadning orqasiga to'kdi. Bo'shagan shishani esa pechkaga tashlab yubordi, — dedi. Shunda Fathiya:

— Bu guvoh — erimning oshnasi, — deb e'tiroz bildirdi. Guvoh esa:

— Yo‘q, janob sudya, — dedi, — mehmonxonaga kelganimga endi uch kun bo‘ldi.

Sudya Ahmadga savol bilan murojaat qildi. Ahmad guvohning oshnasi emasligi, o‘z gapining to‘g‘riligini qayd etdi.

Fathiyaning o‘z erini haqorat qilgani to‘liq tasdiqlanib, unga nisbatan uch kun muddatga qamoq jazosi va 1 lira miqdorida jarima belgilandi. Ahmadning o‘z xotinini urganligi to‘liq tasdiqlanib, unga nisbatan 25 lira jarima belgilandi. Xotin rasmiy nikohli bo‘lganligi uchun esa jarima miqdori orttirilib, 29 lira 30 qurush qilib belgilandi. Biroq xotini tomonidan shiddatli ravishda tahqir etilgani bois, jarima miqdorini 9 lira 70 qurushga tushirish haqida yakuniy qaror qabul qilindi...

Bu hikoya bir sud mahkamasida ko‘rib chiqilib, hukm chiqarilgan bir fuqarolik ishi va ko‘pchilik oilada uchrab turadigan, faqat, afsuski, har kuni bo‘lib kelayotgan voqealardan biri edi...

Xabar, 1942-yil 7-may

O‘ZGALAR DARDIGA SHERIK BO‘LGAN AYOL[1]

Bu ayol haftaning uch-to‘rt kunini sudda muhokama qilinadigan jinoiy ishlarni tinglash bilan o‘tkazadi. O‘tgan kuni yonidagi bir ayolga dardini aytayotgan edi:

— Singlim, shu desangiz, erim vafot etgandan keyin o‘zimni qayerga qo‘yishni bilmayman. Ne ko‘rgiliklar boshimdan o‘tmadi, singiljon! Har hafta uch kun mana shu yerdaman. Sen bu ishdan nimani ham tushunarding, deb o‘ylamang. O‘zgalarning dardini tinglab, o‘zimnikini, yolg‘izligimni unutaman. Bu dunyoda yolg‘iz emasligim, mendan boshqalarning ham dardi borligini his qilib turaman. Eh, bilmaysiz-da singiljon! Yolg‘izlik — yomon narsa ekan. Mening dardim og‘ir. Erim vafot etdi. Bir o‘g‘limni uch oyligida, ikkinchisini to‘rt yoshligida yo‘qotdim. Bir qizim bor edi. Uzatgandim, lekin turmushi bo‘lmadi, eri yomon odam chiqdi. Tug‘ayotib u ham vafot etdi. Lekin bolasi, ya’ni nevaram sog‘-salomat. Ablah kuyov, uni ham menga ko‘p ko‘rdi, bolani olib ketdi. Lekin qayoqqa olib ketdi, bilmayman. Qidirdim, ammo topa olmadim. Erimni bir ish uchun to‘rt oy muddatga qamashgandi. O‘shanda uning sudiga kelgandim. O‘shandan beri mendan boshqalarning ham dardi borligini bilish, tinglash uchun bu yerga kelib o‘tiraman. O‘z dardimni unutib, o‘zgalarning dardini eshitib kuyinaman.

— Keling, singiljon, mana bu bechora nima qilgan ekan, eshitaylik:

Ikkala ayol birga sud zaliga kirib ketishdi. Muhokama tugashi bilan hamon qaytib chiqdilar. Haligi ayol:

— Eh, shu ham dard bo‘libdimi?!. Bunaqa, mayday-chuyda, tosh-tarozi ishlari muhokamasi yoqmaydi menga. Ana, ana u

---

[1] Abasıyanık Sait Faik, Modern Bir Karı Koca, hikâye, Mahkeme Kapısı, Bütün Yapıtları, Yazılar, Yapı Kredi Yayınları, 6.Baskı, İstanbul, Mart, 2008, S.91-93.

bolakayni qarang! — deya yo'lakdagi divanda o'tirgan bir o'spirin yigitchani ko'rsatdi. Kelib uning yoniga o'tirib oldilar. Egniga terisiga yopishgan tor, kir bir ko'ylak kiygan, oyog'i yalang, shimining yarmi boshqa bir shimdan olib yamalgan o'spiringa qarab gap qotdi haligi ayol:

— Ust-boshingga nima qildi o'g'lim? O'tgan safar ko'rganimda egningda tuppa-tuzuk kiyiming bor edi.

— Ha bor edi, sotib yubordim xolajon. Nima qilay? Keksa otamga qaysi yuz bilan aytay? Yo yuragi yomon bo'lib qoladi, yo uzoq viloyatdan kelib, shu yerning o'zida meni kaltaklaydi. Shuning uchun ham xabar bermadim... Pul yo'qligi juda og'ir muammo, xolajon... Tamaki chekking kelib qoladi, yoki ko'ngling boshqa narsa tusab qoladi, deganday... Qamoqxonada ekan nimam bo'lsa, hammasini sotdim. Bu pul bilan yana bir oycha amallab turaman. Zotan, yana qancha muddatim qolgan, bilmadim... Agar adashmasam, o'ttiz yetti yo o'ttiz sakkiz kun...

— Shunaqami? Qancha berishdi?

— Ikki oy.

— Ha, mayli, yoshing kichikda, shuning uchun ikki oy berishgan.

— Birinchi marta sudlanishim, shunga bo'lsa kerak, xolajon.

— Mayli, Xudo xohlasa, o'tib ketadi.

Haligi ayol yana yonidagi ayolga o'girilib gapida davom etdi:

— Eh, ko'rsangiz edi, singiljon, birinchi ko'rganimda, gulday bola edi. Hatto ilk bor ko'rganimda ota-onasining ko'zi qayerda ekan bu bola bechoraning, deya achinib ketgan edim. Mana endi holiga qarang. Yuragingiz yonadi. E, Xudo... Badbo'y hid undan kelyaptimi?..

— Nima dardi bor ekan?

— Bu bola bechora uzoq viloyatdan kelib, bir oshpazga shogird tushgan. Uning qo'lida ancha ishlagan. Oshpaz ham yaxshi odam ekan. Yangi ust-bosh olib bergan. Hali, aytdim-ku... Top-toza yuradigan, binoyiday shogird bo'lgan. O'zi aytib bermagan, lekin men o'zim shunday tushundim. Bir kuni oshpazning stolidagi tortma ochiq qolgan ekan. Bir-ikki lirasini olgan bo'lsa kerak, oshpaz ham ustidan arz qilmasdan, ishdan haydab yuborgan. Bolakay bir ne-

cha kun ko‘chalarda sarson-sargardon yurgan. Men suddagi gapini eshitganim yo‘q. O‘zining aytishicha, aprel oyi ekan, bir kuni cho‘ntagida bir lira ham puli qolmabdi. Kechasi soat o‘n bir o‘n ikkilarda ko‘chada daydib yurishga majbur bo‘libdi. Cho‘ntagida bir qurushi yo‘qki, borib Galatadagi bir mehmonxonaga borib yotsin. Ko‘chada yolg‘iz o‘zi daydib yurishdan boshqa chorasi qolmabdi. O‘zingiz o‘ylang! Ko‘chada to‘p o‘ynab yurgan jinlardan boshqa kim ham bo‘lardi?.. Qorin och bo‘lsa...

— Bechora ayol yoqasini tishladi. Ikki ayol bir muddat jim bo‘lib qolishdi. So‘ngra sudma-sud yurib o‘z dardini unutish uchun boshqalar dardini tinglab, ovunib yurgan ayol, yana gapida davom etdi:

— Sulton Ahmadda eshigi yaxshi yopilmagan bir do‘konni ko‘ribdi. Atrofga qarasa, hech kim yo‘q. Havo juda sovuq... Bu yil havo ilgarigi yillardagiday emas, juda sovuq... Ha, nimani gaplashayotgandik?.. Ha!.. Eshigi yaxshi yopilmagan bir do‘konni gapirayotgan edik. Xullas, bizning Ahmad do‘konni ochib, ichiga kiribdi. O‘sha yerda tunab qolibdi. Do‘konning tuynugidan ingichka nur tusha boshlagach, uyg‘onib ketibdi. Tuxum solingan savatdan uch dona tuxumni olib, xomlay yutibdi. So‘ngra eshikning tirqishidan tashqariga qarabdi: hech kim yo‘q... Faqat yoqimsiz yomg‘ir yog‘ayotgan ekan. Nima qilsin? Sekin do‘konni ko‘zdan kechiribdi. Shunda mixga osilgan bir qopga ko‘zi tushibdi. Uni olib boshiga kiyibdi va do‘kondan otilib chiqibdi. Baqqol do‘kondan tuxum, pishloq va bostirma[1] kamayib qolganini aytyapti, ammo Ahmad bor-yo‘g‘i uch dona tuxum va bitta qop olganini takrorlab turibdi. Mayli, vijdoniga havola. Boshqa hech nima aytmayapti. Otasi qari, or-nomusli bir odam emish. Yozsa, balki sal bo‘lsa ham yordami tegib qolsa ajabmas. Faqir bir odam bo‘lsa, qo‘lidan nima ham kelardi?.. Bo‘lmasa, kim ham o‘z bolasini shunday tashlab qo‘yadi? Ishqilib, Alloh hech kimni shaytonning yo‘liga solmasin, singlim.

Ikkinchi ayol:

— Yuring, bo‘ldi, opajon! Siqilib ketdim bu yerda, yuring tashqariga chiqaylik...

[1] **Bostirma** — qaziga o‘xshab bostirilgan go‘sht.

— Siz boravering, singlim... Siz bunaqa narsalarni ko‘rmagansiz-da! Shuning uchun ham siqilib ketyapsiz. Biz, aybga buyurmang-u, birovlarning dardini tinglayverib, qotib ketganmiz. Bu yerda nimalarni eshitmadim-u, nimalarni ko‘rmadim...

Ayol yoqasini tishlagancha, ming‘irlab ichida duo o‘qib to‘g‘ri zinaga qarab yurib ketdi. O‘rta yoshli ayol esa eshigi oldi gavjum bo‘lib turgan zal tomon yurdi. Bir amallab eshikni ochib ichkariga kirdi. Uning orqasidan men ham kirdim. Yonma-yon o‘tirib majlisni tinglay boshladik. Bu sud majlisiga kelganlarning ko‘pi tanish chehralar edi. Bir tomonda Ertug‘rul Muhsin, uning yonida advokat Ehson Muqbil, ikkinchi tomonda Payomiy Safo, Jihod Bobon va advokatlari o‘tirishardi. Keksa xonim mendan so‘radi:

— O‘g‘lim, tinglanayotgan qanaqa jinoiy ish ekan?

— Hamletning qotillik jinoyati tinglanayapti, xolajon. — dedim.

Keksa ayol gapimga tushunmadi. Sudyaning biz tomonga qarashidan cho‘chib, jimib qoldi. Xullas, men pinakka ketibman... Birozdan so‘ng ko‘zimni ochsam, haligi ayol yonimda yo‘q edi. Eshikdan tashqariga qaradim: yo‘lakdagi divanga o‘tirib olgancha qog‘ozga tamaki o‘rayotgandi...

Xabar, 1942-yil 29-may

MAKTUBLAR KIMNIKI[1]

Sud zalini deyarli ayollar to‘ldirib turardi. Ichkariga kirganimda, tomonlarning ko‘rsatmalari tinglab bo‘lingan, jinoiy ishning asosiy qismi ko‘rib chiqilgan bo‘lsa kerak, guvohlarni so‘roq qilishga o‘tilgan edi. Guvoh kursisida turgan janob Onnik sudyaning savollariga javob berayotgan edi:

— O‘tgan yili, ayni shu paytlar edi. Hozir Shishli[2]ga ko‘chgan bo‘lsak, o‘sha paytlar Halichio‘g‘lu[3] mavzesida yashar edik. Bir

---

[1] Abasıyanık Sait Faik, Modern Bir Karı Koca, hikâye, Mahkeme Kapısı, Bütün Yapıtları, Yazılar, Yapı Kredi Yayınları, 6.Baskı, İstanbul, Mart, 2008, S.94-98.

[2] **Shishli** — Istanbul shahri markazidagi tumanning nomi.

[3] **Halichio‘g‘lu** — Istanbul shahri chetidagi mavzening nomi.

qichqiriq eshitdim va chag'alaylarning ovozi bo'lsa kerak deb o'yladim. Ketma-ket ikki marta qiyqiriqni eshitgach, buning u chag'alay ovozi emasligini angladi. Yana e'tibor bermadim. Mahallaning bolalari baqir-chaqir qilishyapti deb o'yladim. Buni madam Takuhi ham eshitgan ekan. Zinalardan tushar ekan "Onnik, nimalar bo'lyapti o'zi" — deb so'radi. Birga tashqariga chiqdik. Vantola xonim bizga qarab yugurib kelardi. Bizning xonimni ko'rishi bilan "Shu ahvolimga qarang, — dedi. — Pokiza meni ne ko'yga soldi! Rosa baqirdim, hech kim yordamga kelmadi". Madmuazelning sochlari to'zib ketgan, burnidan tinmay qon oqardi. Keyin chopib politsiyaga boribdi. Ko'chada Pokizani ko'rmadim. Men hozir Vantola nima degan bo'lsa, o'shani aytyapman. Na o'z ko'zim bilan Pokizani do'pposlaganini ko'rdim, na qulog'im bilan so'kinganini eshitdim. Pokizaning uyi Vanto xonimning uyiga juda yaqin.

Ayblanuvchi Pokiza ortiq chiday olmadi. Turgan joyida ikki yoqqa bosib:

— Uylarimiz yonma-yon emas, o'rtadan katta ko'cha o'tgan, — dedi.

Masala ravshan, katta bir janjal muammosiga duch kelgan edik. Aybdor — Pokiza, da'vogar esa — Madmuazel Vantola edi. Ikkalasi ham sudga advokatlari bilan kelishgan, ikkalasi ham yutishga shay turishardi.

Bo'lib o'tgan voqeada kim aybdor-u, kim aybsizligini janob Onnik bergan ifodaga ko'ra aniqlashning imkoni yo'q edi. Ikki ayol orasida yuz bergan janjalga birgina janob Onnikday odamning guvoh bo'lishi, boshqa hech kimning bu voqeaga guvoh bo'lmaganligi juda g'alati holat edi... Darhaqiqat, sudyaning yordamchisi ikkinchi guvohni chaqirdi. O'n yoshlarda, egniga qizil ko'ylak kiyib, boshiga moviy lenta taqib olgan bu qizchaning ismi Mubajjal edi. Sudya:

— Qani, gapir-chi, nimalarni bilasan? — deyishi bilan qizcha shu darajada qizardiki, uning bu holini ko'rgan odam uning yuz rangini egnidagi qizil ko'ylagi rangidan osonlikcha ajrata olmasdi. Qizcha tushuntira boshladi:

— Men uyimizning eshigi yonida turgandim, — dedi. — Vantola opam ko'chadan o'tib ketayotib menga "Mubajjal, qara, senga nima beraman" — deb qoldi. Sudya so'radi:

— Nima bermoqchi ekan senga?

— Yegulik...

— Yegulik bermoqchi edi, shundaymi?

— Xuddi shunday, janob sudya.

— Xo'p, davom et...

— Men Vantola opamning yoniga yugurib bordim. Shu payt qarshimizdan Pokiza xonim chiqdi. Vantola opamning sochlaridan ushlab silkitdi, urdi. Men darhol qochib ketdim.

— Qayoqqa qochding?

— Qo'rqib ketgandim, janob sudya. Yig'lab yubordim. Onamga ham yig'lay-yig'lay aytib berdim. Hammamiz qo'rqib ketgandik. Qo'rqqanimizdan ko'chaga ham chiqa olmadik.

Aybdor Pokiza xonim sudyadan so'z so'rashni lozim ko'rmasdan sapchib o'rnidan turdi:

— Qarang, janob sudya, senga yeguliklar beraman deb bolani uyiga olib boribdi. Uni yegulik bilan aldab, menga qarshi guvohlik berishga ham ko'ndirishi mumkin. Men bu go'dakning guvohligini qabul qilmayman...

Pokiza xonimning advokati qanday qilib barmog'ini tishlamay o'tirganiga hayron edim. Barmog'ini tishlamadi-yu, ammo mijoziga hayron bo'lib tikilishdan o'zini tiya olmadi. Shu tarzda o'ziga qarshi aytilgan bir guvohlikning asossizligini haqli e'tiroz bilan isbotlagandi.

Sudya yordamchisi baland ovozda guvoh minbariga Kalyopa xonimni chaqirdi. Eshikdan ozg'in, qirq besh yoshlarda ekanligini o'zi aytmasa, o'ttizdan oshgan deb taxmin qilish mumkin bo'lgan xonim nozlana-nozlana ichkariga kirdi.

— Men, — deb gap boshladi u, — bu madmuazelning uyiga ora-sira mehmonga borib turaman. Qachon borsam... Nima desam ekan, janob sudya, Pokiza xonim chiqib keladi. Madmuzelga yomon gaplar aytadi. Yana bir oqshom mehmonga boruvdim. Vantola bilan yotgan edik, Pokiza yarim tunda keldi. Qancha shisha bo'lsa, hammasini sindirdi.

— G‘alati-ku, har safar Vantolanikiga mehmonga borganingda shunaqa voqea bo‘larmidi?

Kalyopi xonim:

— Shunday... — deb tasdiqladi.

Sudya yana so‘radi:

— Bunaqa voqea necha marta ro‘y bergan?

— Yigirma marta...

Pokiza xonim bu guvohning ko‘rsatmasini ham asossiz deb chippakka chiqarmoqchi bo‘ldi:

— Bu madmuazel bizning mahallada yashamaydi. Oldin meni tanishini isbotlasin, — dedi. Oyna singanini yotgan joyida eshitgan bo‘lsa, mening sindirganimni qayerdan ko‘ribdi? Qolaversa, bu ish kechasi soat nechada bo‘libdi? Aytsin!..

Eng ko‘p guvoh qatnashgan sud majlisi shu bo‘lsa kerak. Mana, yana bittasi — Firdavs xonim. U o‘z so‘zini shunday boshladi:

— Ikkalasi bilan ham samimiy munosabatim yo‘q. Na urish-janjal bo‘ldi, na boshqa gap... Men hech narsa ko‘rganim yo‘q. Faqat, Pokizaning eri da’vogarning uyiga kelib-ketib turganini ko‘rib-eshitib turibmiz.

— Sen ko‘rdingmi?

— Bir kuni kechqurun Johida, Mubarra va Salima xonimlar bilan jo‘xorizorda o‘tirgan edik. Vantolaning uyi shundoqqina ro‘paramizda edi. Pokizaning eri, qo‘lida qora shisha, Vantolaning uyiga kirdi. Birozdan keyin Pokiza uydan chiqib, Vantolaning eshigi qo‘ng‘irog‘ini bosdi va erini so‘radi. Shundan keyin u Pokiza xonimga yomon gaplar aytib so‘ka boshladi. Shunda Pokizaning eri sharmandagarchilik bo‘lmasin deb tashqariga chiqdi. Pokiza xonim erining yoqasiga yopishdi, uyiga olib ketdi. Shungacha bu madmuazel Pokiza xonimning erini uyiga kiritgani haqidagi gap mahallada duv-duv bo‘lgan edi. Buni biz o‘z ko‘zimiz bilan ko‘rdik.

Pokiza xonim guvohning bu ifodasiga javoban hech nima demadi. Ammo madmuazel Vantola:

— Meni Pokizaning qo‘lidan qutqargan o‘zi. Endi esa yolg‘on gapiryapti, — dedi.

Navbat guvoh Takuhiga kelgandi. B. Onnikning zavjasi Takuhi...

Sudya haqiqatni aytish haqidagi hujjatga imzo chektirgandan keyin, uning yoshini so‘radi:

— Qaydam, qirq besh-qirq olti bo‘lsa kerak, — dedi va voqeani janob Onnik bergan ko‘rsatmaning o‘ziday qilib aytib berdi. Faqat janob Onnik madmuazel Vantolaning burnidan qon to‘xtamay oqqanini aytdi. Zavjasi esa buni boshqacha qilib “Ozgina qonagan-day edi” — dedi va Vantolaning “Meni Pokiza do‘pposladi” demagani, “Rosa do‘pposlashdi, oz qolsa o‘ldirib qo‘yishardi” deganini ta’kidladi.

Endigi navbat guvoh polisiya xodimi Xolidga kelgan edi.

Guvohlik berish joyiga kelib, so‘zini boshlashdan avvalgi rasmiyatchilik ado etilgach, da’vogarga ishora qilib:

— Bu madmuazel kelib, kaltaklashganini aytdi. Burni biroz qonagandi. Uni muolaja qilinsin deya kasalxonaga jo‘natdik, — dedi. Sud’ya so‘radi:

— Sizga oyna singani haqida biron bir shikoyat tushdimi?

— Yo‘q, oyna singani haqida hech qanday shikoyat tushgani yo‘q.

Sudga kelishgan barcha guvohlarning ko‘rsatmalari eshitib bo‘lindi. Shunda aybdor Pokiza xonimning advokati o‘rnidan turib, so‘z berilishini so‘radi.

— Bu oilaning fojia lavhasini oshkor qiladigan ikki maktubni oliy sudga taqdim etmoqchiman. — dedi u. Marhamat, o‘qilsin! Shu onda Pokiza ayblanuvchi joyida o‘tirar ekan, tashqarida uning eri da’vogar madmuazel Vantolani kutmoqda. Hatto biroz avval sudga ham qo‘l ushlashib kelishdi. Bu maktublar madmuazel Vantolaning qo‘li bilan yozilgan, imzo ham unga tegishli...

Sudya da’vogar Vantoladan so‘radi:

— Yozishni bilasizmi?

— Bilaman... Ammo bu maktublar meniki emas, — deb javob berdi u.

— Avval maktublarni ko‘r, undan keyin seniki emasligini aytsang bo‘ladi. Mana, qara...

Sudya maktublar bilan birga bo‘sh varaq ham berdi va qo‘shib qo‘ydi:

— Mana bu qog‘ozga bir necha imzo qo‘y... Katta, kichik harflar bilan...

Vantola xonim ko‘zoynagini qidirdi, ammo topa olmay, imzosini ko‘zoynaksiz qo‘yishga majbur bo‘ldi.

Maktublar o‘qildi. Da’vogar Vantola xonimning advokati:

— Bular oshiqona maktublar bo‘lmasa-da, bizniki emas, — dedi.

Ikkinchi tomondan kelmagan guvohlarning ko‘rsatmalarini eshitish va aybdor tomonidan taqdim etilgan maktublarning voqeadan xabardor kishilarning ifodasiga ko‘ra, Vantola xonimga tegishli ekanligi aniqlanmaganligi uchun sud majlisi boshqa kunga qoldirildi.

Shu tariqa sudning bugungi muhokamasi nihoyasiga yetdi. Zalni to‘ldirib turgan xotin-xalaj olomon bo‘lib g‘ovur-g‘uvur tashqariga chiqdi. So‘ngra ikki guruhga bo‘linib, tarqala boshladi. Guruhlardan biri qahqaha otib kular, ikkinchisi esa kulayotganlarga ginadorlik bilan qarab-qarab qo‘yardi.

Xabar, 1942-yil 30-may

TALABALAR VA BIR AYOL[1]

Yoqalariga nishon qadalgan bir nechta yigit-qiz sud binosining oldida, qolganlari esa ichkarida turishardi. “Nimaga yig‘ilib olishdi ekan?” — deb ular yoniga yaqinlashdim. Ayblanuvchi o‘tiradigan o‘rinda asabiylashganidanmi, yo qo‘rquvdanmi, yoki bo‘lmasa boshqa bir sababdanmi, rangi oqargan ayol o‘tirar, ikkinchi ayblanuvchi kursisida esa kastumi yoqasiga nishon qadalgan, jingalak sochli bir yigit o‘tirardi. Tik turgan boshqa bir yigit esa guvoh o‘rnida edi. Men ichkariga kirganimda u guvoh o‘zining oxirgi so‘zini tugatayotgan edi.

Guvoh Foiqbey:

— Bu ayol faqat do‘stimiz Olmosni emas, universitetdagilarning barchasini haqorat qildi, — dedi.

[1] *Abasıyanık S.F.,* Bütün Yapıtları. Yazılar. Mahkeme kapısı. —İstanbul, 2003, S.60-62.

Aybdor Naziha xonim bu guvohning gaplariga e'tiroz bildirdi:

— Janob sudya, meni haqorat qilganlarning biri shuning o'zi bo'ladi. Men qanday qilib uning guvohligini qabul qilishim mumkin? — dedi.

Jinoiy ishning ochilishiga sabab bo'lgan voqea shunday yuz bergan edi: Olmos ismli universitet talabasiga nisbatan Naziha xonim xavfsizlikning suiiste'mol qilinganligi haqida shikoyat qilib da'vogar bo'lgan va bu haqda ish qo'zg'atilgan edi. Bu ish sudda ko'rib chiqilib, guvohlarni to'la ishtirok etishini ta'minlash maqsadida boshqa kunga qoldirilgan edi. Biroq endi eshikdan chiqishayotganda muhokama qilinayotgan ishning asli yuzaga chiqib qolgandi. Olmosbeyning ishi ko'rib chiqilayotgan sud muhokamasini kuzatish uchun tajovuz qilgan kishi ham birga sud zaliga kelgan ekan. Har guvohning tilidan turlicha ifodalangan bu hodisani guvoh Suat Pazılı o'z ko'rsatmasida quyidagicha izohladi:

— Men eshik oldida turib sud muhokamasini tinglayotgan edim. Muhokama yarim soat davom etdi. Keyin hamma tashqariga chiqdi. O'shanda bir odam mana bu ayol bilan birga tashqariga chiqdi. Bu odam ayblanuvchi Olmosbeyga: "Narsalarni o'z vaqtida jo'natganingizda mana bu mashmashalar bo'lmasdi, to'g'rimi" — dedi muloyimlik bilan. Olmosbey javob berishga ham ulgurmadi. Naziha xonim uning yuziga tupurib, ensasiga ikki musht tushirdi. Olmosbey hech narsa qila olmadi. Politsiyani chaqirdi. Katta to'polon bo'ldi. Keyin mana bu ayol politsiyachilar oldida bu kishilarni haqorat qildi. Hatto politsiyachilar bor deb ham o'tirmay ularni urdi.

Naziha xonim sapchib o'rnidan turdi:

— Bir guruh talaba bu odamning orqasidan tushib, uni yolg'on guvohlik berishga ko'ndirib, uni aldashdi, janob sudya.

Guvoh Solih esa quyidagicha ko'rsatma berdi:

— Kamina voqea joyiga bordim. Sababini surishtirdim. Olomon to'plangandi. Men ularga juda yaqin joyda edim. Mana bu xonim kelib, bu kishiga hujum qildi, bir tarsaki urib, yuziga ham tupurdi. Men ularga sud zali yo'lagida duch keldim. Olmos bilan Naziha xonimning suiiste'mol xususidagi sud ishlari ko'rilayotgan ekan. Janjal aslida sud binosidan chiqaverishda boshlangan ekan. Qolgan qismi

menga qorong'u. To'g'rirog'i, ishning uchinchi qismi bo'yicha guvoh hisoblanaman. Naziha xonim gapirish uchun ruxsat so'radi:

— Talabalar atrofni o'rab olishgandi. Men o'zimni qo'lga ololmadim. Juda yomon ahvolda edim. Har og'izdan bir yomon gap chiqayotgan edi.

— Men hech kimning yomon gap gapirganini eshitmadim. Faqat Naziha xonim gapirar edi.

Sudya tomonlarni tinchlantirmoqchi bo'ldi:

— Kelinglar, hamma o'z da'vosidan voz kechsin, bir-biringiz bilan yarashib oling, vassalom.

Ayblanuvchi Olmosbey qat'iy javob berdi:

— Yo'q, bunday bo'lmaydi.

Olmosbeyning yarashuvga rozi emasligini sezgan Naziha xonim:

— Mening ham guvohlarim bor, dedi. Hamshiram, erim, bir politsiya xizmatchisi va jazo mahkamasi xodimi.

Sudya hamshira va erining guvohligini qabul qilmasligi, faqat politsiya xizmatchisi va sud mahkamasi xodimining guvohligi tinglanishi mumkinligini aytdi. Politsiya xodimini topib bo'lmadi. Ammo Naziha xonim politsiyachining shaxsiy raqami va qayerda ishlashini aniqlashtirib olgan edi. Sud ijrochisini chaqirishdi. U so'zini qanday boshlagan bo'lsa, shunday tugatdi.

— Men qayd pulini to'lab kelish uchun birrovga tashqariga chiqqandim. O'sha payt bir guruh yoshlarning Naziha xonimni masxara qilishayotganini ko'rdim. Ular "Qara! Qara! Tupurdi!" deyishar edi. Bu holat birozdan keyin haqoratga aylandi. "Ustiga tupurdi! Ustiga tupurdi!" — deya baqirishardi. Naziha xonim asabiylashdi. Bittasiga qarab qo'l silkitdi. Faqat qo'lini silkitgani Olmosbey emas, boshqasi edi. So'kinmadi. Faqat bu payt olomon orasida boshqa bir ayol haqoratli so'zlar aytayotgandi. Yosh yigitlar Naziha xonimni gijgijlashardi. U kulrang kastum kiygan kishining orqasiga qo'li bilan bir urdi. Lekin haqorat qilganini eshitganim yo'q.

Suat ismli guvohning ko'rsatmasi bilan guvoh sud ijrochisi Sulaymonning ko'rsatmalari orasidagi ixtilofga barham berish kerak edi. Yana guvoh Suat beyni tinglash haqida qaror qabul qilindi. Sud

ijrochisi Sulaymon bilan yuzma-yuz qilindilar. Suatbey o'z ko'rsatmasida qat'iy turib oldi:

— Men ko'rgan narsalarimni qanday bo'lsa shundayligicha aytyapman, — dedi. Sud ijrochisi Sulaymon:

— Voqeaning boshlanishini ko'ra olmadim. Birozdan keyin qayd to'lovi qilish uchun sud binosidan chiqqan paytim nimani ko'rgan bo'lsam, o'shani aytyapman. Hamma gapim rost, — dedi.

Hodisaning qanday yuz bergani yana bir bor guvoh politsiya xodimidan eshitilishi kerak edi. Shunday ham bo'ldi. Politsiya xodimini chaqirish uchun sud ishi boshqa kunga qoldirildi.

10-15 nafar talabaning sud binosi oldida uchinchi bir jinoiy ishning ochilishiga sabab bo'lishi mumkin bo'lgan bir hodisa sodir etdim deb o'ylaganlar chuchvarani xom sanashgan edi. Hech qanday hodisa ro'y bermadi, olamon sovuqqina tarqaldi.

Xabar, 1942-yil 20-may

YUZ POG'ONALI ZINAPOYA[1]

Zalda mendan boshqa tinglovchi yo'q edi. Ayblanuvchi o'tiradigan yerda ust-boshi orasta bir kishi bilan keksa yoshli bir advokat o'tirardi. Sudya ish hujjatlarini o'qib o'tirar, zalda g'alati sokinlik hukmron edi. Tashqaridagi yo'lakdan odamlar o'tib-qaytishardi: jandarma xodimi, ayblanuvchi erkak-ayollar... Tashqaridagi shovqin va inson ovozlari go'yo bu xonaga eshitilmayotganday, xuddi shamol g'uvillaganday eshik oldidan o'tib ketardi. Nihoyat, biz bugun sudda qanaqa masala ko'rilayotganini tushundik. Bu jinoiy ish menga Sabohaddin Alining "Kanal" hikoyasini eslatardi. Lekin, unchalik fojiali hodisa ro'y bermagan, ya'ni na og'ir bir jinoyat ro'y bergan, va na bir ayblanuvchi haqida hukm chiqarilayotgandi bu yerda...

Oldindan aytib qo'yay: bu ish ayblanuvchining oqlanishi bilan nihoyalandi...

---

[1] Abasıyanık S.F., Bütün Yapıtları. Yazılar. Mahkeme kapısı. — İstanbul, 2003, S.52–54.

Hasanning Bakirko‘y[1]dagi bir mahallada 15-20 so‘tix yeri bor edi. Bu tomorqa-yerning chetidan bir yo‘g‘on quvur o‘tar, undan oqayotgan suv Bakirko‘ydagi uylarga qarab ketardi. Hasan tomorqasida sabzavot yetishtirardi. Bir kuni o‘sha quvurning bir joyi teshilganini ko‘rib qolishdi. Aksiga olib, tomorqasining bir qismi ham nam tortib turardi. Eski latta-puttalar tiqib qo‘yilgan quvur teshigidan Hasanning dalasiga suv sizib chiqayotgan edi.

Xullas, Hasan Bakirko‘y quvurlarini teshganlikda ayblanmoqda edi... Uning katta-katta to‘q jigarrang ko‘zlari, qizg‘ish soqoli, yumaloq yuzi, katta og‘zi, keng ko‘ylagi, uning o‘z-o‘zini himoya qila olishga qodir baquvvat qo‘llari, katta og‘zi... Uning og‘zi bir nimalar deyishga qodir, ko‘zlari esa — tushuntirishga... Soqoli yanada qizarib, yumaloq yuzlari tortishib, bu ishni o‘zi qilmagani, mirobning quvur ta’mir etilayotganda uning dalasidan o‘tgan qismidan bir yerda tiqilgan joyni ochish uchun bu yerni teshganini, agar kerak bo‘lsa buni mirob Ali otaning o‘zi tasdiqlashi mumkinligini ayta olsa-da, Hasan yuvosh, kamgap, og‘zidan bir so‘z chiqmaydigan odam bo‘lgani uchun jim o‘tirar edi. Yaxshiyamki, advokat yollagan ekan, Agar yollamaganida edi, mirob Ali otaning guvohligi yordamida hamma narsa ayon bo‘lgan bo‘lar edi, to‘g‘rimi?! Ali ota:

— Qirq yildirki, Bakirkoy quvurining boshida turaman. Yetmish olti yoshdaman. Quvurning har bir tomchi suviga o‘zim mas’ulman. Bu katta quvur bo‘lsa, albatta, bir joydan bo‘lmasa, boshqa bir joydan yo teshiladi, yo chiriydi-da! Har kun ilk qiladigan ishim, ana shu yo‘lni bir ko‘zdan kechirish. Ming turli ehtimol bor. Kimdir quvurni teshsa, kimdir boshqa turli zarar yetkazadi. Ba’zan, o‘z-o‘zidan ham tiqilishi mumkin. Deylik, suv yo‘liga bir narsa tiqilib qolgan, lekin qayerida? Ali otadan boshqa hech kim buni bila olmaydi, janob sudya. Men esa qulog‘imni quvurga qo‘yib, qayerdan muammo borligini bila olaman. Chunki ishim shu. Og‘izga oson, qirq yil kam muddat emas. Hammasini besh qo‘lday bilaman...

Mana, yaqinda ham bir joyda suv tiqilgandi. Qayerda tiqilgan ekan deya rosa izladim, paypaslab ko‘rdim. Qarasam, Hasanning

[1] **Bakirko‘y** — Istanbuldagi bir tumanning nomi.

tomorqasi baravarida bir joyda tiqilgan ekan. Quvurlar sopoldan yasalgan emasmi, suv unga kirayotganida tosh-tuproq tushib qolishi mumkin. Undan keyin tiqiladi-da, og'a!.. Borsam, Hasan tomorqasida ishlayotgan ekan. O'ylamay-netmay quvurning o'sha joyini sindirdim, lekin hech nima topa olmadim. Baribir, topdim. Suv yana oldingiday, sharillab oqa boshladi. U yerni yaxshilab tozaladim. Hasanning o'sha joydagi teshilgan joyini vaqtincha bog'lab qo'ydim. Keyin ketdim. Bir-ikki kundan keyin asboblarni olib borib, yaxshilab ta'mirlamoqchi edim. U yerdan oqadigan suv necha pul bo'lishi mumkin, og'a? Bundan tashqari, ta'mirlash ishi ham, bilasiz, oson emas. Men ketganimdan keyin, haligi tiqib qo'ygan narsalarim o'z-o'zidan chiqib ketgan bo'lishi mumkin. Yoki suv katta bosim bilan kelgan bo'lsa kerakki, o'shani ko'rib xabar berishgan. Hasanni esa tutib olishgan. Ikki kundan keyin ta'mirchi bilan birga kelib, teshilgan joyni tuzatdik. Hasanning ishidan esa keyinroq xabar oldim. Ammo kech qolgan edik. Hasanni sudga berib bo'lishgandi. Men uni yaxshi tanimasdim, bor-yo'g'i bir necha marta salom-alik qilgan bo'lishim mumkin.

— Xullas, gapning qisqasi, Ali ota... Bu odamning sopol quvurni sindirib, tomorqasiga suv ochgani rostmi?

— Yo'g'-e. Quvurning o'sha joyini men sindirganman. Bu kishining hech qanday aybi yo'q. Suv to'xtagan edi. Hasan boshini quyi solib turar edi. Ali otaning bu so'zidan keyin u chuqur nafas oldi. Hasanning bu voqeadan so'ng qanchalar qo'rqqanini tasavvur ham qila olmaysiz. Uch bolaning otasi... Qilmagan ishi uchun ayblanib ketishi mumkin edi... Uni suddan oldin qamab qo'yishmagan, lekin u uyida yotsa ham kechalari oromini yo'qotgan edi-da...

Ayblovchi, Hasanning quvurni teshib, tomorqasiga suvni ochib olgani haqidagi da'vo Ali ota bergan qat'iy guvohlik tufayli o'z tasdig'ini topmaganligi sababli ayblanuvchining ozod qilinishi talab qildi.

Shu sirada sudya Hasanga so'z berdi:

— Men nima ham deya olardim, Alloh sizlardan rozi bo'lsin! — dedi. Qoidalarga muvofiq advokatga ham so'z berilishi kerak emasmi?.. Unga ham so'z berildi. Keksa advokatning nima

o‘ylayotganini bila olmasdim. Eng yaxshi ehtimolim, u yana bir-ikki og‘iz gapirmoqchi bo‘lgandir. Balki, boshqa niyatda bu ishni qilgandir. Uyog‘i bizni qiziqtirmasdi. U shunday dedi:

— Qanchalik prokurorning oqlanish haqidagi talabiga qo‘shilsam-da, masalaning oydinlashtirilishi uchun sud majlisini boshqa kunga qoldirishlarini iltimos qilaman.

Sudya va prokuror ham men kabi hayratda edilarmi, bilmadim...

Hasan go‘yo hech narsani anglamagandek edi. Samimiy chehrasidan hech qanday ma’no uqib bo‘lmasdi. Balki, so‘rashganida, advokatga qo‘shilgan bo‘lar edi. Yana, balki bir hafta, balki o‘n kun o‘zini qo‘yarga joy topa olmay kutar... Bir necha kundan keyin, yana kelib ketar... Sudya:

— Yoshingiz ancha o‘tib qolibdi, bu zinalardan qayta-qayta chiqish sizga qiyinchilik tug‘dirmaydimi? Men sizni bunday zahmatdan qutqaray. Sud majlisini boshqa kunga qoldirmasdan, o‘tkazib qo‘yaqolaylik. Siz chiqib, tashqarida besh daqiqa kutib turing! Hasan besh daqiqadan keyin oqlanib chiqdi.

Bu jinoiy ish uchun qayta chiqmaydigan yuzga yaqin zinapoyadan tushgan qariya advokat bilan gaplashib, yo‘lida davom etdi. Men Hasanning oqlanganigami, yo‘qsa advokatning g‘alati gapigami, bilmadimku-ya, lekin ko‘zlarimga yosh to‘ldi.

SEN AYBINGGA PUSHAYMON BO‘LSANG, KIFOYA...[1]

Ayblanuvchi ko‘rinmaydi. Sudyaning ro‘parasidagi joylarda besh kishi o‘tirar, ulardan to‘rttasi da’vogar tomondan, bittasi esa ayblanuvchi o‘g‘irlagan plashni sotib olgan bir do‘sti, oxirgisi esa o‘n olti yoshlardagi, zaif, ozg‘in, holsiz bir bola edi.

Tashqarida havo juda sovuq edi. Uch yarim liraga olgan plashini egnidan yechib olgan bo‘lsalar kerak, ustida yupqagina bir jaketi qolgandi.

[1] Abasıyanık Sait Faik, Modern Bir Karı Koca, hikâye, Mahkeme Kapısı, Bütün Yapıtları, Yazılar, Yapı Kredi Yayınları, 6.Baskı, İstanbul, Mart, 2008, S.55-59.

O‘sha bolaga judayam o‘xshagan ayolning yonginasidaman.

To‘rt da’vogardan ikkisi harbiy, qolgan ikkitasi esa ayol edi.

Birinchi askar:

— Janob sudya, kirlarimni yuvib, qurisin deya tashqariga osgandim.

Sudya:

— Qanaqa edi osgan kirlaring?

— Birinchi askar:

— Ko‘ylak va haligi narsalar... Janob sudya!..

— Nima?

— Haligi narsalar...

— Gapir, bolam, tortinma, nima osganingni gapir. Qara, ikkinchi marta takrorlab so‘rayapman sendan.

— Janob sudya, haligi... haligi...

— Nima, ayt, ichki kiyimmi?

— Yo‘q, janob sudya, ich kiyim emas.

— Unda nima, gapirsangchi!.. Biz yozib boryapmiz...

Harbiy qizarganicha:

— Kalta ishton, janob sudya.

— Siz, xonim ayting. Sizning nimangizni oldi?

Birinchi ayol:

— Janob sudya, uyimning oldidagi chiroqni... Undan keyin bolamning plashini olishibdi.

Sudya:

— Qanaqa bola?

Birinchi ayol:

— O‘z bolam...

— Ya’ni o‘sha bolakay sizning o‘g‘lingiz? To‘g‘rimi?..

— Ha, o‘sha bolakay mening o‘g‘lim bo‘ladi...

— O‘sha plashni necha pulga olgandingiz?

— Hmm... olgan vaqtlarim... arzimagan pul edi... 12 lira edi.

— Plash qayerga osilgan edi?

— Eshikdan kirgan joyda, janob sudya...

— Eshik ochiqmidi?

— Yopiq edi... Yopiq edi, ammo qulflanmagandi.

— Xo‘sh, chiroqni qanday qilib o‘g‘irlabdi?

— Ular ikkalasi do‘st edi, janob sudya.... Biri ikkinchisiga yordam bergan bo‘lsa kerak.

— Sening nimangni o‘g‘irlashdi?

Ikkinchi harbiy (sharqiy Onado‘li shevasida):

— Kalta ishtonim va ko‘ylagimni...

— Seniki ham kalta ishton bilan ko‘ylakmidi?..

— Yo‘q, janob sudya.

— Xo‘p, unda nimangni o‘g‘irlashdi?!..

— Kalta ishtonim va ko‘ylagimni, janob sudya...

— Ya’ni seniki ham kalta ishton bilan ko‘ylak edi, shundaymi?

— Ha, janob sudya.

— Xo‘-o‘p, xonim afandi, sizning nimangiz o‘g‘irlandi?

— Ipakdan ishlangan ko‘rpam...

Shundan keyin navbat usti yalang, oriq, yuzlari sarg‘aygan, hiqildog‘i bo‘rtib chiqqan, o‘g‘irlagan plashni ayblanuvchidan sotib olgan bolaga yetib keldi...

Sudya:

— Menga qara, sen o‘g‘irlangan molni sotib olibsan. Bunga nima deysan?

Bolakay:

— Janob sudya, men sotib olgan narsamning o‘g‘irlangan mol ekanligini bilmaganman. Men unga Sirkachidagi “Kamolbey” kinoteatri ro‘parasida duch keldim. Ust-boshiga qaraganda binoyidek odam edi. Egnida plashi bor edi. Meni bir chekkaga tortib: “Uydan qochdim, ozgina pul kerak bo‘lib qoldi. Shu plashni ol, arzonga beraman. Begona bo‘lmasin deyman” — dedi. “Xo‘p, necha pulga sotmoqchisan?” — deb so‘radim. U “Uch yarim lira” dedi. Darrov uyga yugurganimcha onamdan uch yarim lirani olib keldim va unga berib, plashni oldim. Keyin plashni kiyib oldim.

— Demak, sen chindan ham plashning o‘g‘irlangan ekanini bilmasding, shundaymi?..

— Yo‘q, o‘g‘irlangan ekanligini bilmasdim, janob sudya. O‘ziniki, puli qolmabdi bechoraning, nochorlikdan sotyapti deb o‘yladim. Yaxshi mol ekan, begona bo‘lmasin dedim. Hatto, qachondir pul topib, uch yarim lira pulimni qaytarsa, plashini o‘ziga qaytarib beraman deb ham o‘yladim.

— Undan keyin nima bo‘ldi?

— Pulni olib, “Kamolbey” kinoteatri tomon ketdi.

— Yaxshi, o‘tirishing mumkin, o‘g‘lim.

Yonimdagi ayol, shubhasiz, bu bolaning onasi edi. Ayol bechora bir joyda turolmasdi. Aqlimda ayblanuvchi haqida o‘ylardim. Har holda, kasal bo‘lsa kerak, sudga olib kelishmagandi. Balki u ham shu bolaga o‘xshab kuchsiz, zaif, bechora bir boladir. Ko‘zlariga qarab uning hali ham ezgulik yo‘liga qaytishi mumkinligidan umid qilsa bo‘lardi. Yuzida o‘tkir zehn, chiziqlarni ko‘rish mumkin edi.

Shu payt ichkariga boshqa guvohlar ham kira boshladi. Rasmiy polisiya xodimlari, orqasidan fuqaro kiyimidagi politsiyachilar izma-iz kirib kelishmoqda edi. Ulardan biri:

— Janob sudya, hovlini ko‘rib astà devorning tagiga keladi. Devorning teshilgan joyini topib, panshaxa bilan kir osilib turgan ipni amallab o‘ziga torta boshlaydi. Keyin qo‘liga nima tushsa, olib qochadi, — dedi.

Ayblanuvchini bu safar devorning tagida emas, maktabda ko‘rib qoldim... Bir daftarga ingichka, qing‘ir-qiyshiq yozuvi bilan hisobkitob qiladi, uchburchak chizadi... Kallasi kir osilgan ipni o‘ziga qarab tortar ekan, hayajonlanish o‘rniga ikki uchburchakning tengligini topish zavqiga beriladi. Barmoqlari uzun-uzun. Qanday go‘zal rasm chizadi! Unga rasm o‘qituvchisi “Senda nimadir bor, ehtimol yaxshigan rassom bo‘larsan” — deydi.

Mana, qamoqxona kasalxonasida qilgan ishlariga ming pushaymon, bug‘doy rang bir bola yotibdi. Issig‘i borga o‘xshaydi. Tumbochkaning ustida qandaydir sariq dori shishasi turibdi. Kichkina konussimon idishda ikkita kapsula bor... Kir qo‘llari yostiq ustida. Balki hozir sud majlisini o‘ylayotgandir. Qiziq necha oy berishgan ekan?

Bas, bularni o‘ylama!.. Erta, go‘zal bir erta, o‘zgacha orzular, yangi hayot qurish uchun bu temir eshikdan chiqishingni, kinoteatrga borib bir pulga arzimas rasmlarning birma-bir o‘tishini tomosha qilish uchun, bir kuni bir askarning kalta ishtoni-yu ko‘ylagiga muhtoj emasligingni, yosh gazeta sotuvchi bolalarning hayajonli ovoz bilan yugurib yelib gazeta sotishlari, tun yarmida uylariga

toparman-tutarman erkaklar kabi kirib kelishlarini, onalarining mehr-muhabbat va g'urur bilan ularni kutib olishlarini o'yla... Yotog'ingda seni kir osadigan dor-arqon bo'g'masin, birovlarning plashi badaningni kuydirmasin... U yerdan sening inson bo'lib, qilgan ayblaringga chin qalbdan pushaymon bo'lib chiqishingni ko'rish uchun beva onang bilan birga (Eh!.. Sening bu ahvolga tushishingda uning ham hissasi bor!.. Sening ko'nglinga qaragan-da!.. Kichkinaligingda kamroq kaltaklagan bo'lsa kerak-da!..) hammamiz seni kutib qolamiz, bolajonim!... Faqat sen qilgan ishlaringa pushaymonlik his qilsang, kifoya. Yuzingning za'faron rangi bir haftada ketadi. Uyqung joyiga keladi. Tushlaringa endi hech qachon qo'rqinchli narsalar, o'sha kir osadigan dorlar, kalta ishton-u askar ko'ylaklari kirmaydi...

Xabar. 1942-yil 19-may

PICHOQ BILAN O'YNASHMANG[1]

Guvoh Orif:

— Kichik bozor yonidagi Qutichilardagi Jalolning kazinosida...

Sudya:

— Endi u yerlarda ham mayxonalar ochilibdimi?

Orif:

— Ha, janob sudya, ancha bo'ldi ochilganiga! Men Jalolning kazinosida pivo ichib o'tirgandim. Kazinoda mana bu ayblanuvchi Xayri kazinochi Jalol bilan sharob ichib, chaqchaqlashib o'tirishardi. Men bar yonida, o'zimcha bir nimalarni o'ylab o'tirardim. Bir payt Xayri ko'chaga chiqib ketdi. Birozdan so'ng menga xizmat qilib turgan kazinochining ayoli Sabiha ham tashqariga chiqdi. Sal o'tmay Xayri, uning orqasidan Sabiha qaytib kelishdi.

Sudya:

— Tashqarida biron nima haqida gaplashishganmi?

Orif:

---

[1] Abasıyanık Sait Faik, Modern Bir Karı Koca, hikâye, Mahkeme Kapısı, Bütün Yapıtları, Yazılar, Yapı Kredi Yayınları, 6.Baskı, İstanbul, Mart, 2008, S.49-51.

— Unisini bilmadim, janob sudya. Xayri kelib o‘tirdi va yana bir sharob buyurdi, so‘ngra menga qarab: “Orif, o‘g‘lim! — dedi, — Bir pichog‘im bor, sotmoqchiman. Xohlasang senga suv tekinga beraman, ol, bir kun kerak bo‘ladi”. Men: “Menga pichoq-michoqning keragi yo‘q, do‘stim” — dedim. Chunki, janob sudya, pichoq olib yurishni yoqtirmayman. Bunaqa narsaning, aslida hech kimga keragi yo‘q. İnson bunaqa narsalarni ishlatmagani ma’qul.

— Qoyil! Yaxshi gap aytding!

— Rost, janob sudya. Menga pichoq-michoqning keragi yo‘q, yoqtirmayman.

— Xo‘sh, senga Xayri sotmoqchi bo‘lgan pichog‘ini ko‘rsatdimi?

— Xohlamaganimdan keyin qanday ko‘rsatsin. “Menga kerak emas unaqa narsang” dedim-ku unga. O‘sha payt Jalol “Bir-ikki shisha pivo topib kelaman, icharsan, Xayri”— dedi va pivo olib kelgani kazinodan chiqib ketdi. Men esa oldimdagi shishalarning pulini berdim.

— Kimga berding?

— Sabihaga berdim, afandim. Faqat shishaning tagida ozgina pivo qolgandi. Uni stakanga quyib endi ichay deb turganimda birdan baqir-chaqir eshitildi. Men bar yonida do‘konga teskari qarab o‘tirgandim.

— Jalol chiqib ketgandan so‘ng do‘konda kim qoldi?

— Men, sudlanuvchi Xayri va Sabiha…

— Uchalangizdan boshqa hech kim yo‘qmidi?

— Xuddi shunday, janob sudya, uchalamizdan boshqa hech kim yo‘q edi. Birozdan so‘ng orqamdagi do‘konga qayrilib qaradim. Sabiha zinapoyadan yuqoriga qarab qochayotgandi. Chunki, do‘konning ustida Jalol yashardi. Sabiha dod-faryod qilib xonasiga qarab yugurib ketayotgandi. Keyin ko‘cha eshigidan Xayrining shoshib ketayotganini ko‘rdim, lekin nima bo‘layotganini tushunmadim. Har holda bir narsa bo‘lgandi. Shunda men Xayrining orqasidan ko‘chaga yugurib chiqdim. Xayri ro‘paradagi sartaroshxonaga kirdi. Men politsiyaga xabar qildim. Ular Xayrini qo‘lga olishdi.

— Sen Xayrining Sabihani pichoqlaganini ko‘rdingmi?

— Orqamni o‘girib o‘tirgandim, ko‘rmadim.

— Do‘konda sen, Sabiha, Xayri birga bo‘lgansizlar. Unda, aytchi, ayolni kim pichoqladi?

— Xayri pichoqladi, afandim.

— Xo‘sh, Jalol ketgandan keyin ular nimani gaplashishayotgandi?

— Xudo haqqi, nima haqida gaplashishganini eshitmadim. Chunki, afandim, hammamiz insonmiz. Mening ham o‘z fikr-o‘ylarim bor. Xayol surib qolibman. Faqat gaplari orasidan “kelaversin”, “ketaversin” degan ba’zi so‘zlarini eshitdim.

— Sen gapir, Xayri. Erkak kishi bir ayolni pichoqlashi mumkinmi? Avvallari erkaklar bunaqa emas edi. Hozirgi erkaklarning kuchi faqat ayollarga yetadi.

Xayri:

— Afandim, men qilmadim. Men pivo ichish uchun kazinoga kelgandim. Jalol pivo yo‘q dedi. Men esa biroz ming‘irladim. U esa meni urdi. Boshimni eshikka urib oldim. So‘ngra pivo yo‘q ekan deb chiqib ketdim. Shundan keyin politsiyachilar sartaroshxonaga kelib meni “Sabihani urgansan” deb ushlashdi. Mening hech narsadan xabarim yo‘q. Kazinochi Jalol ustidan shikoyatim bor. U meni urdi.

— Qani, sen gapir-chi, Jalol!

— Janob sudya, Xayri mening do‘konimga keldi. Pivo yo‘q edi. Bermadim. Yonimga kelib, tortib yoqamni yirtdi. Men esa uni itarib yubordim. U boshini yarim ochiq eshikka urdi. So‘ngra sharob so‘radi. Berdim. Hatto menga ham quyib berdi. Keyin men chiqib pivo olib keldim. Mijozlarga ham xizmat qilib turdim bu orada. Keyin uning yoniga kelib o‘tirdim. “Pivo topdim, ichasanmi” — deb so‘radim. U “Yo‘q” deb javob berdi. “Sharob bo‘lsa ham bo‘ladi”. Birozdan so‘ng men yana do‘kondan chiqdim. Balki, ikki-uch shisha topsam mijozlar oldida uyalib qolmayman deb o‘yladim. Shu payt qaytib kelib xotinimning yaralanganini ko‘rdim.

— Sabiha sening nikohli xotiningmi?

— Yo‘q afandim, nikohimiz yo‘q.

— Unda kim bo‘ladi, qaylig‘ingmi?

— Ha afandim, qaylig‘im.

Sudya birozdan keyin qarorni o‘qidi. Xayrining Sabihani pichoqlagani tasdiqlangandi. Pichoq bilan jarohatlagani uchun jazo og‘irlashtirildi. Jinoyat ustida qo‘lga olinish qonuniga muvofiq darhol qamoqqa olindi. Sudya Xayriga qarab:

— Pichoq insonni dorgacha olib borishi mumkin. Ehtiyot bo‘l, bu jazo senga saboq bo‘lsin, boshqa takrorlama, — dedi.

Xabar, 1942-yil 17-may

MUNDARIJA

XOLIDA ADIB ADIVAR

Xolida Adib Adivar — ilk turk adibasi *(Xayrulla Hamidov)* 4
Chorasoz *(qissa)*. *Xayrulla Hamidov tarjimasi* 8
Cho'qqiga quvilgan qashqir (hikoya). *Kamola Rasulova tarjimasi* 75

SAID FOIQ ABASIYONIQ

Said Foiq Abasiyoniq — taniqli turk hikoyanavisi.
(Xayrulla Hamidov) 82
Bir to'da odam. *Miad Hakimov tarjimasi* 86
Samovar. *Rustam Komilov tarjimasi* 89
Mahalla qahvaxonasi. *Mirvali A'zam tarjimasi* 93
Plajdagi oyna. *Mirvali A'zam tarjimasi* 99
Xastalik. *Mirvali A'zam tarjimasi* 109
Halloj. *Mirvali A'zam tarjimasi* 112
Ota-o'g'il. *Mirvali A'zam tarjimasi* 118
Chinnigullar. *Mirvali A'zam tarjimasi* 122
Bilmadim nega shunday qildim. *Mirvali A'zam tarjimasi* 126
Havoda bulut. *Mirvali A'zam tarjimasi* 132
Izmirga. *Mirvali A'zam tarjimasi* 144
Qish oqshomi. *Mirvali A'zam tarjimasi* 151

Bir bog‘da. *Mirvali A’zam tarjimasi* 154
Sakariya baliqchisi. *Mirvali A’zam tarjimasi* 157
Kashtanchi do‘stim. *Mirvali A’zam tarjimasi* 163
Aytdim — qo‘ydim. *Mirvali A’zam tarjimasi* 169
Ikki kishiga bir hikoya. *Mirvali A’zam tarjimasi* 172
Oy nuri. *Mirvali A’zam tarjimasi* 180
Buyuk xayollar quraman. *Mirvali A’zam tarjimasi* 188
Qisqichbaqachining uyi. *Mirvali A’zam tarjimasi* 194
Georgiyaning mahallasi. *Mirvali A’zam tarjimasi* 203
Shirmoy non. *Mirvali A’zam tarjimasi* 213
Qo‘rqinchli shakarpazlik do‘koni. *Mirvali A’zam tarjimasi* 217
Yelena va Katina. *Mirvali A’zam tarjimasi* 225
Folchi madmuazel Todori. *Mirvali A’zam tarjimasi* 227
Birinchi maktub. *Mirvali A’zam tarjimasi* 232
Ikkinchi maktub. *Mirvali A’zam tarjimasi* 235
Kema. *Xayrulla Hamidov tarjimasi* 244
Betayin odam. *Xayrulla Hamidov tarjimasi* 247
Eftalikus qahvaxonasi. *Xayrulla Hamidov tarjimasi* 257
Daydi bola va kuchukcha. *Xayrulla Hamidov tarjimasi* 261
Qo‘rquv. *Xayrulla Hamidov tarjimasi* 263
Sut. *Xayrulla Hamidov tarjimasi* 266
Xaritadagi bir nuqta. *Poshshajon Kenjayeva tarjimasi* 269
“Alam tog‘i”da bor bir ilon. *Kamola Rasulova tarjimasi* 276
Xinali oroldagi uy. *Kamola Rasulova tarjimasi* 280
Muruvvat. *Sayyora Xamidova tarjimasi* 283
Kalla va shisha. *Dilfuza Shodmonova tarjimasi* 291
Murvat. *Malohat Yoqubjonova tarjimasi* 295

Ya'niy usta. *Malohat Yoqubjonova tarjimasi* 299
Bir bahor hikoyasi. *Sevara Bahodirova tarjimasi* 302
Chirmoviqli uy. *Shohrullo Qurbonmurodov tarjimasi* 305
Men nima qilay? *Shohista Yazdanova tarjimasi* 310

"Mahkama ostonasi"

nomli kitobdan olingan hikoyalar

Er-u xotinning urushi... *Xayrulla Hamidov tarjimasi* 314
O'zgalar dardiga sherik bo'lgan ayol *Sarvinoz Umarova tarjimasi* .. 319
Maktublar kimniki. *Nargiza Sultanova tarjimasi* 322
Talabalar va bir ayol. *Nozima Valiyeva tarjimasi* 327
Yuz pog'onali zinapoya. *Shohsanam Tojiyeva tarjimasi* 330
Sen aybingga pushaymon bo'lsang, kifoya...
Nilufar G'afforova tarjimasi 333
Pichoq bilan o'ynashmang. *Tursun Qo'ziboyev tarjimasi* 337

Xolida Adib Adivar Said Foyiq Abasiyoniq [Matn]: nasr / to'plovchi va nashrga tayyorlovchi Xayrulla Hamidov. – Toshkent: "O'zbekiston nashriyoti", 2022. – 344 b.
ISBN 978-9943-8724-8-6

UO'K 821.512.161-3
KBK 84(5Turk)

TURKIY ADABIYOT DURDONALARI

XOLIDA ADIB ADIVAR SAID FOIQ ABASIYONIQ

51-jild

Adabiy-badiiy nashr

Muharrir *Lola Fattoyeva*
Badiiy muharrir *Shuhrat Mirfayozov*
Dizayner *Bobur Tuxtarov*
Texnik muharrir *Yelena Tolochko*
Kichik muharrir *Zilola Mahkamova*
Musahhih *Sadoqat Beshimova*
Sahifalovchilar: *Shahlo Buriyeva, Islom Azamatov*

Tasdiqnoma raqami № 4642. 22.07.2020-y.
Bosishga 18-oktabr 2022-yilda ruxsat etildi. Bichimi 60x90 $^{1}/_{16}$.
Ofset qog'ozi. "PT Astra Serif" garniturasida ofset usulida bosildi.
Shartli bosma tabog'i 21,5. Nashriyot-hisob tabog'i 20,69.
Adadi 1 185 nusxa. Shartnoma № 118-1/22. Buyurtma raqami № 22-334

Original maket O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi huzuridagi Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligining "O'zbekiston" nashriyotida tayyorlandi.
100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.
Telefon: (71) 244-34-38, (71) 244-24-91.

"O'zbekiston" NMIU MCHJ bosmaxonasida chop etildi.
Bosmaxona manzili: 100011, Toshkent, Navoiy ko'chasi, 30.

TURKIY ADABIYOT
DURDONALARI

XOLIDA
ADIB ADIVAR
SAID FOIQ
ABASIYONIQ